O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

D. TOJIBOYEVA

MAXSUS FANLARNI O‘QITISH METODIKASI

Darslik

TOSHKENT
“IQTISOD-MOLIYA”
2020

UO‘K:
KBK:

Taqrizchilar: *i.f.d. prof.* **T. Malikov**
p.f.d., prof. **M. Hakimova;**
p.f.d., prof. **H. Omonov;**

T 69 Maxsus fanalarni o‘qitish metodikasi: *Darslik* / D.Tojiboyeva; – T.: “Iqtisod-Moliya”, 2020. – b.

Darslik mazkur fanni o‘rganishning nazariy va amaliy asoslarini qamrab olgan. Darslikning maqsadi iqtisodiy tafakkurni shakllantirish uchun dars o‘tishda qo‘llaniladigan asosiy metodlar bilan tanishtirish, ma’ruza, amaliy, seminar darslarini tashkil etish, o’quv jarayonini tashkil etish va uni takomillashtirish, fanni o’rganishning ko’rgazmali, information ta’minoti asosida talabalarda iqtisodiy fanlardan dars o‘tish malakasini hosil qilish bo‘yicha bilim berishdir.

Darslik: **Bilim sohalari:** *100 000-Gumanitar soha,*
200 000-Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq;
Ta’lim sohalari: *110 000-Pedagogika; 230 000-Iqtisod*

Magistratura mutaxassisliklari va iqtisodiy fanlardan dars beruvchi o‘qituvchilarga mo‘ljallangan.

Darslikdan “Kasb ta’limi” bakalavriat yo’nalishi talabalari ham foydalanishlari mumkin.

UO‘K:
KBK:

© D.Tojiboyeva, 2020

a b v g д e yo j z i y k l m n o p r s t u f x sh ‘ e yu ya o’ q g’ h ch ts

KIRISH

Mamlakatimiz taraqqiyotida oliy ta’lim tizimining alohida rol o‘ynashi, uning o‘z navbatida kelgusida butun ta’lim tizimining takomillashuvini ta’minlashdagi o‘rnini hisobga olgan holda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017-yil 20-aprelda 2909-sonli qarori[1] qabul qilindi. Qaror bu boradagi mavjud kamchiliklarni hisobga olgan holda 2017–2021-yillarda mamlakatimizda oliy ta’lim tizimini tubdan takomillashtirishga qaratilgan. Unda respublikamizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasidagi ustuvor vazifalariga mos ravishda, kadrlar tayyorlashning ma’no-mazmunini tubdan qayta ko‘rib chiqish, xalqaro standartlar darajasida oliy malakali mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratish yo‘llari belgilab berilgan.

Respublikamizda iqtisodiyotni erkinlashtirish, modernizatsiyalash, diversifikatsiyalash va ayniqsa, 2017-2021-yillarga mo‘ljallangan “Harakatlar strategiyasi”ning qabul qilinishi bu sohadagi islohotlarni yanada chuqurlashtirish, ayniqsa, bilim olishga, iqtisodiyot sir-asrorlarini o‘rganishga bo‘lgan harakatni, fanni chuqur o‘rganishga bo‘lgan talablarni ham kuchaytiradi.

Ikkinchidan, resurslarning cheklanganligi va ehtiyojlarning cheksizligi ulardan tejamli, oqilona foydalanishni talab qiladi. Shu bilan birga ularni asrab-avaylab sarflash va uning yangi usullarini kashf qilish uchun qilinadigan xarajatlarni ham ko‘payib borishi bu muammoni yanada dolzarb qilib qo‘ymoqda.

Uchinchidan, buyuk iqtisodchi J.M.Keyns aytganidek, dunyoni siyosatdonlar va iqtisodchilar boshqaradilar. Muhim siyosiy masalalar esa iqtisodiy masala va muammolardan kelib chiqadi. Demak, barcha asosiy muammolar iqtisodga borib taqaladi. Bu o‘z navbatida iqtisodiyotni chuqur o‘rganish, iqtisodiy qonunlarning amal qilishi, hayotda ularga moslashish yo‘llarini topishga undaydi.

To‘rtinchidan, bozor iqtisodiyotiga noaniqlik yo‘ldosh. Resurslarning cheklanganligi bizni har qadamda tanlashga majbur qiladi. Qanchalik hisob-kitob qilib tanlashga qaramay, unda ma’lum daradjada tavakkalchilik va xavf-xatar mavjud. Shuning uchun ham tanlash bu -

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” // Xalq so‘zi, 21-aprel 2017.

risk qilishdir. Bu o‘z navbatida xavf-xatarni kamaytirish yo‘llarini qidirish, iqtisodiyotda tanglik, tushkunlik ro‘y bersa tezda undan chiqish yo‘llarini topish, chora-tadbirlar ko‘rishga majbur qiladi. Ayniqsa iqtisodiyotning siklli rivojlanishi bu masalaga alohida diqqat qaratishni talab qiladi. Buni yuz bergan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi ham ko‘rsatdi.

Bu esa, o‘z navbatida, iqtisodiy qonunlarni yaxshi biladigan, turli vaziyatlarni taqqoslash, iqtisodiy resurslar cheklangan sharoitda samarali xo‘jalik yuritish uchun muqobil variantlarni to‘g‘ri tanlash va qaror qabul qilish malakasiga ega bo‘lgan iqtisodchilarni tayyorlashnigina emas, balki jamiyatning barcha a’zolarida iqtisodiy fikrlashni shakllantirishni ham zarur qilib qo‘yadi. Iqtisodiy fikrlashni shakllantirish esa ta’lim-tarbiya orqali amalga oshiriladi. Bu zaruriyat chuqur iqtisodiy bilimga, malakaga ega bo‘lgan **iqtisodchi-pedagoglar tayyorlashni** talab qiladi. Zamonaviy talabga javob beradigan barkamol avlodni tarbiyalash, o‘z kasbini puxta biladigan kadrlar tayyorlashda o‘qituvchining roli beqiyos. U ta’lim va tarbiya berish jarayonida markaziy o‘rin egallagan va doimo shunday bo‘lib qoladi. Shuning uchun ham u har tomonlama ma’lumotli, o‘z fanini chuqur bilgan mutaxassis, o‘z xalqi va Vataniga sodiq inson, pedagogik iste’dod va mahoratga ega bo‘lishi va jamiyatda o‘zining mafkuraviy va kasbiy-pedagogik vazifalarini sidqidildan amalga oshirishi va unga doimo tayyor turishi kerak. Shu talabdan kelib chiqib, magistratura yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim olayotgan talabalar oliy ta’limning davlat standartiga asosan “Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi’ fanini o‘rganishlari ko‘zda tutilgan. Magistrantlar “Magistratura to‘g‘risidagi nizom”ga ko‘ra **ilmiy-pedagogik,** ilmiy-ijodiy, **ilmiy-tadqiqot** va tajriba, ishlab chiqarishda boshqaruv, shuningdek bakalavriat ta’lim yo‘nalishiga muvofiq boshqa faoliyat turlari bo‘yicha ham shug‘ullanishi mumkin. Ular kelajakda qaysi sohada faoliyat yuritishidan qat’iy nazar ularning bilimlari, ko‘nikma, malaka, mahoratlarini yanada ortishida, “Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi” muhim rol o‘ynaydi.

Ayniqsa, iqtisodchi pedagoglar tayyorlashda bu fan alohida o‘rin tutadi. Birinchidan, iqtisod fanlari, mutaxassislik fanlari bo‘libgina qolmay, o‘quvchi-talabalar ongiga yetkazishning yo‘llarini o‘rgatishi tufayli alohida o‘rin tutadi. Chunki u pedagogik ta’lim metodlarini yaxshi bilishni talab qiladi. U pedagog sifatida, talabalarga o‘qish va

uqishni o‘rgatishi, ularni fanni o‘rganishga qiziqtirishi, ijodiy izlanishga yo‘naltirishi zarur.

Maxsus fanlarni oqitish metodikasi o‘z xususiyatiga ko‘ra mutaxassislik fanlaridan ham pedagogik fanlardan ham ajralib turadi. Uni o‘rganish bir tomondan kasb egallashga qaratilgan mutaxassislik fanlarini puxta bilishni talab qilsa, ikkinchi tomondan, uni yoshlarga o‘rgatish uchun zarur bo‘lgan bilim, amaliy ish-harakat usullarini shakllantirish qonuniyatlari, qoidalari, shakl, metod va vositalarini, xullas, o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil etish, amalga oshirish mahoratiga ega bo‘lish uchun intilishni talab qiladi. Demak, **bu fan** o‘qituvchi zimmasidagi mas’uliyatni yanada kuchaytiradi.

Ma’lumki, pedagogikada metodika umumiy va xususiy metodikaga ajratiladi. Bu jihatdan ham maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi alohida olingan boshqa fanlar metodikasidan ajralib turadi.

Iqtisodiy mutaxassislik magistrlari uchun maxsus mutaxassislik fanlari bu - iqtisodiy fanlar bo‘lgani tufayli “Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi” deganimizda **iqtisodiy fanlarni o‘qitish metodikasi** nazarda tutiladi. U bir tomondan iqtisodiy fanlar, ikkinchi tomondan, pedagogika fanlarini bir-biriga bog‘lovchi fan hisoblanadi.

Umuman olganda global miqyosda barcha mamlakatlarda iqtisodiy bilimlarni o‘rganishga katta e’tibor berilmoqda, ayniqsa, AQSHda. Mamlakatda iqtisodiy ta’lim bo‘yicha Milliy Kengash (National Council for Economic Education (NCEE) faoliyat yuritadi. U 1949 yilda tashkil etilgan bo‘lib, iqtisodiy fanlardan o‘qituvchilar tayyorlashda eng yirik tizimlardan biri hisoblanadi. O‘rta maktab va oily ta’limning quyi kurslarida iqtisodiy ta’limni tashkil etish, rivojlantirish, ta’lim standartlarini ishlab chiqish, o‘quv adabiyotlari yaratish, dars o‘tish metodlarini qo‘llash, takomillastirish, yangilarini yaratishga yordam beradi. Maxsus sayti (http:// www.ncee.net) va uning qator sahifalari, jumladan “Economics International”dan o‘quvchi-talabalar ham, o‘qituvchilar ham juda ko‘p zarur ma’lumotlarni topa olishadi. Undan tashqari The Teaching Economist (Iqtisodchi-o‘qituvchi) electron byulleteni nashr etiladi. U iqtisodiy fanlardan dars o‘tishni samarali va qiziqarli bo‘lishiga yordam beradi. Kadrlar tayyorlashdagi asosiy maqsad zarur bilimlarni o‘zlashtirish bilan birga talabalarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish, ularda mustaqil tanlash va qaror qabul qilish ko‘nikmasini hosil qilish, ijodiy fikrlashga o‘rgatishdir. Iqtisodiyotdagi tarkibiy o‘zgarishlar, ish kuchining bilimi, mahoratiga

bo‘lgan talabning o‘zgarishi o‘z navbatida tayyorlanayotgan mutaxassisga ham alohida talablar qo‘yadi.

Darslikda fanni o‘rganishning ana shu jihatlariga diqqat qaratishga harakat qilindi. Muallif mazkur darslikda iqtisodiy fanlarni o‘qitish metodining o‘ziga xos xususiyatlari, asosiy interaktiv metodlarni tushunarli, aniq, misollar bilan yoritib berishga harakat qilgan. Hozirgi paytda keng qo‘llanilayotgan metodlar, iqtisodiy fanlarni o‘qitishdagi ilg‘or mamlakatlarda to‘plangan tajribalar ham hisobga olingan. Bunda muallif AQShning “Iqtisodiy ta’lim bo‘yicha Milliy Kengashi (National Council for Economic Education (NCEE)”ning “Trening of treners” dasturi qatnashchisi sifatida hamda qator xalqaro seminarlarda to‘plagan tajribasidan kelib chiqib yozilgan.

Mazkur darslik, uning tuzilishi va mazmuni to‘g‘risida bildirilgan fikr va mulohazalar kelajakda uni yanada takomillashtirishga yordam beradi, deb o‘ylaymiz va u haqida bildirilgan fikrlarni bajonidil qabul qilamiz.

I BOB. O‘ZBEKISTONDA KADRLAR TAYYORLASH MODELI VA “MAXSUS FANLARNI O‘QITISH METODIKASI” FANINING PREDMETI, MAQSADI, VAZIFALARI

Iqtisodiy hayot nihoyatda murakkab va ko‘p qirrali. Iqtisodiy muammolarni bilish, o‘rganish o‘z faoliyatida qo‘llash nafaqat iqtisodchi mutaxassislar balki barcha uchun zarur. Chunki u murakkab iqtisodiyot dunyosini tushunishni, iqtisodiy, tahliliy fikr yuritishni o‘rgatadi. Shuning uchun ham yoshlarning iqtisodiy fanlarni chuqur o‘rganishlari muhim ahamiyatga ega. Iqtisodiy fanlarni yoshlar qiziqib o‘rganishlarida bu fanlarni o‘qitish, dars berish metodlari va ularni mahorat bilan qo‘llay olish alohida ahamiyatga ega. Mazkur fan ana shu maqsadga qaratilgan. Kitobning birinchi bobi fanning predmeti, dars o‘tish metodlari, ularga turli jihatdan yondashish, didaktika va uning metodika bilan naqadar bog‘liqligi, o‘qituvchining o‘quv jarayonini tashkil etishdagi rolini o‘rganishga bag‘ishlangan.

1.1. O‘zbekistonda Kadrlar tayyorlash modeli va konseptual asosi

Mamlakatimizda hozirgi paytda yoshlarga ta’lim va tarbiya berishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ta’lim-tarbiya hamisha jamiyat taraqqiyotining asosi bo‘lgan. Chunki, inson jamiyatdagi barcha munosabatlar va aloqalarning markazida turadi. Fan-texnika va axborotdagi revolyutsiya inson va uning ilmiy-ma’rifiy potensialini ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning hal qiluvchi omiliga aylantirdi.

Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichi uchun iqtisodiy o‘sish omillarining sifat jihatdan takomillashib borish jarayoni xosdir. Fan-texnika taraqqiyotining ilg‘or natijalarini qo‘llash, ishlab chiqarishni intensivlashtirish, yuqori samarali texnika-texnologiyalardan foydalanish bilan bir qatorda, eng muhimi yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash bu boradagi muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, xalqaro mehnat taqsimotida munosib o‘rin egallash, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta’minlash muammolari ko‘p jihatdan ish kuchining bilimi, malakasi,

vaziyatga qarab ish tuta olishiga bog‘liq. Kelajakda erishishimiz lozim bo‘lgan buyuk maqsadlarga yetishish uchun eng avvalo yuqori malakali, zamon talabiga javob beradigan mutaxassis kadrlar tayyorlashimiz kerak.

“Biz oldimizga qanday vazifa qo‘ymaylik, qanday muammoni yechish zaruriyati tug‘ilmasin, gap oxir-oqibat baribir kadrlarga borib taqalaveradi. Mubolag‘asiz aytish mumkinki, bizning kelajagimiz, mamlakatimiz kelajagi o‘rnimizga kim kelishiga yoki boshqacharoq aytganda, qanday kadrlarni tayyorlashga bog‘liqdir”[2] Shuning uchun ham ta’lim tizimiga alohida diqqat qaratilib uni isloh qilishga kirishildi.

Ma’lumki, hozirgi kunda butun dunyoda ta’limga e’tibor borgan sari kuchayib bormoqda. Chunki, **bugungi kunda eng ko‘p talab qilinadigan va o‘zini oqlaydigan sarmoya “inson kapitali”ga investitsiya** ekanligini hamma anglab yetdi:

1. Iqtisodiyot nazariyasida Adam Smitning tabiiy resurslarga ega bo‘lgan mamlakatlar shunday resurslari yo‘qlarga qaraganda mutlaq ustun ekanliklarini, David Rikardo esa ana shu resurslar, tabiiy sharoitning mamlakatlardagi farqlanuvchi jihatlarining bir xildagi mahsulot ishlab chiqarish uchun turlicha xarajat qilishga, bu esa o‘z navbatida bu mamlakatlarning bir-birlaridan qiyosiy ustunlikka ega bo‘lishlariga olib kelishini isbotlab berishgan edi.

XX asrning 50-yillarida yuz bergan fan-texnika revolyutsiyasi mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy raqobatni fan, texnika, texnologiya sohasidagi raqobatga aylantirdi. Boshqacha aytganda raqobat intellektual salohiyat o‘rtasidagi raqobatga aylandi.

2. Fan-texnikaning rivojlanishi va jamiyat taraqqiyoti borgan sari mehnatning murakkablashib borishi, shu bilan birga uning sifatini ham oshirishni talab qildi.

3. Axborotlar oqimining borgan sari ortishi, kashfiyot, ixtirolarning, innovatsion g‘oyalarning real hayotga tezda tatbiq etilishi o‘z navbatida bilimni tez eskirishiga olib kelayapti.

[2] Karimov I. A. Barkamol avlod orzusi. T.: Sharq, 1998, - B. 83

4. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish, bu iqtisodiyotga esa noaniqlik doimo yo‘ldosh ekani, bunday sharoitda bilimning ishonchli daromad manbai va ijtimoiy himoya sifatidagi rolining ortishiga olib kelishi tufayli, bir tomondan, unga investitsiya qo‘yishni ko‘paytirishga olib kelsa, ikkinchi tomondan, mutaxassis kadrlar tayyorlashga ham yangi talablar qo‘yadi. Oqibatda taraqqiyotni ta’minlashning dvigateli, raqobatbardoshlikni ta’minlashning asosiy omili sifatida barcha masalalar yechimi kadrlarga ularning bilimi, salohiyati, mamlakatdagi mavjud resurslardan qay darajada oqilona foydalanishi, o‘z vaqtida zarur qaror qabul qila olishiga bog‘liq ekanligini hisobga olgan holda global miqyosda barcha mamlakatlar zamon talablariga mos mutaxassis kadrlar tayyorlashga alohida diqqat-e’tibor qaratishga o‘tdilar.

Hozirgi kunda jahon miqyosida ta’limga alohida ahamiyat berilayotganini 1990-yildan boshlab BMT tomonidan inson taraqqiyoti (kamoloti) indeksi hisoblana boshlaganida ham ko‘rish mumkin[3].

Yoshlar tarbiyasi hamda ularni tarbiyalashda ta’lim tizimining naqadar ahamiyatga egaligi, Birinchi Prezidentimizning Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining “Ta’lim-kelajakka yo‘naltirilgan sarmoya” mintaqaviy konferensiyasi ishtirokchilariga yo‘llagan tabrigidagi ushbu jumlalardan ham anglash mumkin: “Hozirgi paytda bir haqiqatni har qachongidan ko‘ra teran anglab olish muhim ahamiyatga ega. Samarali ta’lim tizimini yaratmasdan turib, jamiyatni isloh etish bo‘yicha belgilangan vazifalar ijrosini tasavvur etish qiyin.

Ushbu sohaga ustuvor ahamiyat berilishi shubhasiz, uning kelgusi taraqqiyoti uchun zamin hozirlashdir”.[4]

[3] Inson taraqqiyoti (kamoloti) indeksi: Talim sifati va aholining savodxonlik darajasi; Kutilayotgan umr uzoqligi; Kishi boshiga tog‘ri keladigan milliy daromad, YaIM kabi ko‘rsatkichlarni o‘z ichiga oladi

Bu indeks pokistonlik iqtisodchi Mahbub ul-Haq boshchiligidagi guruh tomonidan ishlab chiqilgan. Uning konseptual tarkibi Amartiya Sen (Nobel mukofoti laureati, 1998) g‘oyalariga asosan yaratilgan. U BMTning taraqqiyot dasturi asosida tayyorlanadi, uning maxsus dokladlari doirasida foydalaniladi va e’lon qilinadi. Bu jihatdan mamlakatlar taraqqiyotiga baho beriladi. Manba: http://gtmarket.ru/ratings/human-development-index/human-development-index-info. Информационно-аналитический портал. ISSN 2310-1792

[4] I.A.Karimov. Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti “Ta’lim kelajakka yo‘naltirilgan sarmoya” mintaqaviy konferensiya ishtirokchilariga yo‘llangan tabrik // Ma'rifat, № 7aprel, 2004. № 28.

.

Rivojlangan mamlakatlarning tajribasi shuni ko‘rsatadiki, qayerda ta’lim va tarbiyaga e’tibor katta bo‘lsa, o‘sha yerda taraqqiyot, yuksalish bor. Shuning uchun respublikamizning istiqboli uzluksiz ta’limni qay darajada amalga oshirilishiga bog‘liq. Uzluksiz ta’lim barcha fuqarolarni tinimsiz o‘qishini, izlanishini, shaxsni yuqori malakali bo‘lishini talab etadi.

Shuning uchun respublikamizda ta’lim-tarbiya tizimini zamon talablari darajasiga ko‘tarish, har tomonlama sog‘lom va barkamol, salohiyatli avlodni tarbiyalash maqsadida uni isloh qilishga diqqat qaratildi. “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi (1997-yil 29-avgustda) qabul qilindi.

Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridan boshlab yoshlarga ta’lim-tarbiya berishga alohida diqqat-e’tibor qaratilib, u davlat miqyosidagi siyosat darajasiga ko‘tarilgan bo‘lsa hozirgi kunda bu masalaga e’tibor yanada kuchaytirildi.

Jamiyat ehtiyojlari hamda bugungi kun talablariga muvofiq kadrlar tayyorlash esa resurslarga borib taqalishini hisobga olib, respublikamizda ta’lim tizimiga davlat byudjetidan ajratilayotgan mablag‘lar miqdori yildan yilga ortib bormoqda. Ta’lim olishning uzluksizligini ta’minlash, har bir o‘quvchi-talabaning axborot texnologiyalaridan, chet tillarni mukammal o‘rganish orqali jahon tajribasidan keng foydalanish imkoniyatini yaratilishiga alohida e’tibor berilmoqda.

Agarda ta’lim tizimiga yo‘naltirilgan davlat xarajatlarining YAIMdagi ulushi 2000-yili 6,7 % bo‘lib, ijtimoiy sohaga va aholini qo‘llab quvvatlashga jami byudjet xarajatlarining 42,5 foizi yo‘naltirilgan bo‘lsa, undan 54,5 %i yoki yarmidan ko‘pi ta’lim tizimiga sarflangan (1-jadval). Jadval ma’lumotlari ko‘rsatib turibdiki, davlat byudjetidan ta’lim sohasiga ajratilgan mablag‘lar yildan yilga ortib borib, 2015-yili uning miqdori 2000-yilga nisbatan 55 martadan ortiq ko‘paygan. Uning jami o‘quvchi-talabalarning eng ko‘p miqdori 2011-2012-yillarga to‘g‘ri kelib, shu yillarda ta’limga ajratilgan mablag‘larning YAIMdagi ulushi eng yuqori bo‘lgan.

1-jadval

O‘zbekistonda ta’lim tizimiga ajratilgan xarajatlar dinamikasi[5]

Ko‘rsatkichlar	Yillar						2017-yili 2000 yilga nisbatan, %
	2000	2005	2010	2015	2017	2018	
Ta’limga ajratilgan davlat xarajat-larining YAIMdagi ulushi, foiz	6,7	7,0	7,3	7.1	6,4	4,8	X
Davlat byudjetidan ta’lim sohasiga xarajatlar, mlrd so‘m.	220,5	991,3	4464,1	12162,2	15977,7	19507,3	88,5 marta
Ta’lim sohasiga sarflarning byudjet xarajatlaridagi ulushi, %	23,2	28,9	33,3	33,4	32,4	31,4	X
Ta’lim sohasiga sarflarning ijtimoiy soha va aholini qo‘llab quvvatlashga ajratilgan xarajatlardagi ulushi, %	54,5	57,4	56,9	59,5	59,8	56,2	X

Альманах Узбекистан. Т., 2013. С. 169; O‘zbekiston raqamlarda. T., 2015. 27-30-b; O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistikasi qo‘mitasi ma’lumotlari (ttp://www.mf.uz – O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy veb-sayti, Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитасийиллик статистик тўплами 2010 – 2018. -Тошкент, 2019, бет; http://www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi rasmiy veb-sayti asosida muallif tomonidan тузилган.

.

Hozirda ham u ijtimoiy soha va aholini qo‘llab quvvatlashga ajratilgan xarajatlardagi ulushi jihatidan yuqori. 2017-yilga kelib, 59,8 %ni, 2018 yili 56,2 %ni tashkil etdi.

Oliy ta’lim tizimini 2017-2021-yillarga mo‘ljallangan kompleks rivojlantirish dasturini amalga oshirish uchun yo‘naltiriladigan moliyaviy mablag‘lar 1,7 trillion so‘mdan ziyod bo‘lib, ulardan 1,2 trillion so‘mi o‘quv-laboratoriya binolari, sport zallari va talabalar turar-joylarini rekonstruksiya qilish va kapital ta’mirlashga, 500 milliard so‘mdan ortiq mablag‘ esa o‘quv-laboratoriya uskunalari, mebel va inventar bilan ta’minlash, umumiy tartibda foydalanishga mo‘ljallangan, barcha ta’lim muassasalariga xizmat ko‘rsatadigan laboratoriya komplekslarini tashkil etish hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirishga sarflanadi.

Ma’lumki, ta’lim-tarbiya nihoyatda murakkab, qiyin faoliyat va jarayon bo‘lib, juda qadimdan ushbu faoliyatga jamiyatning yetuk kishilari jalb etilganlar. Qadimgi Gretsiya va Rim tarixidan bilamizki, miloddan avvalgi davrlarda ham yosh avlod tarbiyasi o‘zining ma’naviy qiyofasi va aqliy qobiliyati bilan jamiyat a’zolari o‘rtasida yuksak hurmat-ehtiromga sazovor bo‘lgan kishilar, donishmandlar zimmasiga ishonib topshirilgan. Markaziy Osiyoning, xususan mamlakatimizning o‘rta asrlar tarixi ham buni isbotlaydi. Bu yosh avlod tarbiyasi, uning tashkil etilishi va mazmuni nafaqat shaxs kamolotini balki jamiyat taraqqiyotini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega ekanligini qadimdan anglab yetilganini ko‘rsatadi.

Respublikamizda ham tayyorlanayotgan mutaxassis kadrlarning bilimi, ko‘nikmasi, malakasini nafaqat miqdor, balki sifat jihatdan ham kafolatlanishini, buning uchun esa ta’lim jarayonini ilg‘or jahon tajribasidan kelib chiqqan holda tashkil etish, raqobatbardoshlikni ta’minlash maqsadida ta’lim tizimini isloh qilishga kirishildi.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da ko‘rsatilgandek, O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishib, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning o‘ziga xos yo‘lini tanlashi kadrlar tayyorlash tuzilmasi va mazmunini qayta tashkil etishni zarur qilib qo‘ydi va qator chora – tadbirlar ko‘rishni: “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunni joriy etish, yangi o‘quv rejalari, dasturlari, darsliklarini tayyorlash, zamonaviy didaktik ta’minotni ishlab chiqish, o‘quv yurtlarini attestatsiyadan o‘tkazishni va

akkreditatsiyalashni, yangi tipdagi ta’lim muassasalarini tashkil etishni taqozo etdi.[6]

Mamlakatimizda ta’lim tizimining konseptual asoslari belgilandi va muvofiq ravishda ana shu asos: uzluksizlik, uzviylik, yaxlitlikdan iborat ta’lim tizimi yaratildi.

Uzviylik – bu avlodlarning ajdodlar bilan bog‘liqligi, hozirning o‘tmishni konstruktiv inkori, tarixsiz kelajakning yo‘qligi ifodasidir. Ya’ni eski bilimlar yangisi uchun asos, mavjud bilimlarning rivojlanishi, boyib borishi asosida taraqqiyot yuz beradi, bugungisi kelajakda amalga oshadi.

Uzluksizlik – qisqacha xalqimizning ajoyib naqli “Beshikdan boshlab, qabrgacha bilim ol, ya’ni qancha yashasang shuncha o‘rgan”ni real hayotdagi ifodasidir.

Uzluksiz ta’lim kadrlar tayyorlashning asosi, mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta’minlovchi, shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy va ma’rifiy ehtiyojlarini qondiruvchi ustuvor soha bo‘lib, uning muhim bo‘g‘ini – oliy ta’lim ikki: **bakalavriat** va **magistratura** bosqichlariga ajratildi.

Yaxlitlik – bu pedagogikada pedagogik jarayonning sintezlashgan sifati bo‘lib, uning oliy darajadagi taraqqiyoti, subyektlar va obyektlarning faoliyatini bir butunligini ta’minlovchi jarayondir. Shu bilan birga fan, ishlab chiqarish, davlat va jamiyatning ham bir butunligini biri ikkinchisiz yashay olmasligi taraqqiy etolmasligini nazarda tutadi.

Uzviylik va yaxlitlik, uzluksizlik orqali amalga oshiriladi.

Uzluksiz ta’lim kadrlar tayyorlash tizimining asosi, O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta’minlovchi, shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy–texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustuvor sohadir. Aynan uzluksiz ta’lim ijodkor, ijtimoiy faol, ma’naviy boy shaxsning shakllanishi yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi.

Kadrlar tayyorlash milliy modeli[7] markazida o‘quvchi, talaba, malakasini oshiruvchi, xullas “bir so‘z bilan aytganda” – **shaxs** turadi. U

---

[6]. Oliy ta'lim Me'yoriy hujjatlar to‘plami. Sharq. T., 2001. 20 b.

[7] инглиз.“modulus” 1. Намуна (эталон, стандарт; 2. Лекала, шаблон, плазалар;3. Рассом, ҳайкалтарош олдида бирон қиёфада турувчи шахс; 4. Турли соҳаларда мақсадга етиш учун таркиби, тузилишини имитация қилувчи қурилма; 5. Кенг маънода - ҳар қандай образ, аналог (фикр-ўй, хаёлан тасаввур қилиш, шартли: тасвир, баён қилиш, чизма, график, режа, харита ва бошқалар); 6. Математика, мантиқ ва тил ўрганишда кенг қўлланиладиган абстракт объект, тушунча ва ҳоказолар.

kadrlar tayyorlash tizimining bosh subyekti va obyekti. Ta’lim sohasidagi xizmatlarning iste’molchisi, shu bilan birga, ularni amalga oshiruvchisi hamdir.



1-rasm. **Ta’lim modeli**

Davlat va jamiyat – esa ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimi faoliyatini tartibga soladi va nazorat qilishni amalga oshiradi. Shu bilan birga kadrlar tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafili sifatida ham asosiy rol o‘ynaydilar. Model *uzluksiz ta’limni* amalga oshirish bilan ajralib turadi.

Uzluksiz ta’lim – malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo‘lib, ta’limning barcha turlarini, davlat ta’lim standartlarini kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko‘rsatish muhitini o‘z ichiga oladi.

Milliy modelda fanga, uning ahamiyatini hisobga olgan holda alohida o‘rin beriladi. *Fan* – yuqori malakali, mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarni ishlab chiqadi. Kadrlar tayyorlash tizimiga ilm-fanning uzviy ravishda kirib borishi nazarda tutiladi.

Kadrlar tayyorlashning pirovard natijasi, bu – ishlab chiqarish (tovar va xizmatlar) uchun zarur malakali mutaxassislar tayyorlashdir.

Ishlab chiqarish – kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni, shuningdek, ularning tayyorgarlik sifati va saviyasiga nisbatan qo‘yiladigan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliya va moddiy-texnika jihatidan ta’minlash jarayonining qatnashchisi sifatida ishtirok etadi. Shunday qilib milliy modelda fan, ishlab chiqarish, davlat

va jamiyat uzluksiz ta’lim bir butun bo‘lib, bir-biri bilan chambarchas bog‘langan.

Bir bosqichli oliy ta’lim mehnat bozori ehtiyojlarini, ishlab chiqarishdagi tarkibiy o‘zgarishlarni va ilg‘or xalqaro tajribani to‘liq hajmda hisobga ololmadi. Ilg‘or mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib, uni ikki bosqich: bakalavriat va magistratura bosqichlariga bo‘lindi.

1.2. Kadrlar tayyorlash va milliy modelini amalga oshirishda “Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi” fani, uning tutgan o‘rni va ahamiyati

Ma’lumki, “Magistratura to‘g‘risidagi nizom”ga ko‘ra **magistratura ilmiy-pedagogik,** ilmiy-ijodiy, **ilmiy-tadqiqot** va tajriba, ishlab chiqarishda boshqaruv, shuningdek bakalavriat ta’lim yo‘nalishiga muvofiq boshqa faoliyat turlari bo‘yicha ham shug‘ullanishi mumkin. Ko‘rinib turibdiki, magistraturani bitirgan mutaxassislar birinchi navbatda ilmiy-pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanishlari ko‘zda tutilgan edi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyunda qabul qilingan “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-3775-sonli qaroriga ko‘ra “O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, tasarrufida oliy ta’lim muassasalari mavjud vazirlik va idoralarning 2018/2019 o‘quv yilidan boshlab: alohida ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha o‘qish muddati kamida uch yil bo‘lgan bakalavriat hamda kamida bir yil bo‘lgan magistraturani joriy etish, bunda magistraturada mutaxassislar tayyorlashni ishlab chiqarish (amaliy) (kamida bir yil) va ilmiy-pedagogik (kamida ikki yil) yo‘nalishlarga ixtisoslashgan dasturlar asosida tashkil etish”ni amalga oshirilishi tayyorlanayotgan ilmiy-pedagog kadrlarning jamiyat oldidagi mas’uliyatini yanada oshiradi.

Biz **kasb** deganda, maxsus tayyorgarlik va ish tajribalari asosida ma’lum bir sohada faoliyat yuritish uchun o‘zlashtirilgan bilimlar, amaliy ko‘nikma va malaka majmuasini tushunamiz. Demak, kasbni egallash uchun zarur bo‘lgan bilimlar, amaliy ko‘nikma va malakalarni hosil qilish, shakllantirish zarur. Buning uchun esa murakkab xo‘jalik dunyosini aks ettiruvchi fanlarni o‘rganish, bilish, ularni amalda

qo‘llashning uddasidan chiqish kerak. Uni real hayotda amalga oshirish esa ko‘p jihatdan o‘quv jarayonini tashkil etish, ta’lim oluvchilarning o‘rganayotgan fanlarini puxta o‘zlashtirishlariga bogliq. Magistrantlar nafaqat o‘z tanlagan sohalari bo‘yicha chuqur bilim olishlari, balki fanning mazmun-mohiyatini o‘quvchi-talabalar ongiga yetkazib berish malakasiga ega bo‘lishlari lozim.

Ma’lumki, fanni o‘rganishda bir tomondan, didaktik jihat, ya’ni nimani o‘rganish asosiy rol o‘ynasa, ikkincni tomondan, metodik jihat – qanday o‘rganish, o‘qitish asosiy rol o‘ynaydi. Nimani o‘qitishni mutaxassislik fanlari maqsadi, mazmuni ifodalasa, qanday o‘qitish, orgatish vazifasinini maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi fani bajaradi.

Iqtisodiy yo‘nalish bo‘yicha magistrlar tayyorlashda **maxsus** fanlar – iqtisodiy fanlar bo‘lib, ana shu fanlardan dars o‘tish metodikasini o‘rganish ko‘zda tutiladi.

Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi fanining maqsadi – talabalarda iqtisodiy fanlardan dars o‘tishni tashkil etish, dars o‘tish metodlarini o‘rganib, o‘quv jarayonini tashkil qilishda ulardan mahorat bilan foydalanish ko‘nikmasini shakllantirishga, mavzu uchun samarali usullarini tanlab qo‘llash va ularni takomillashtirishni o‘rganishga qaratilgan nazariy-amaliy bilimlarni shakllantirishdan iborat. Fanning vazifasi – talabalarga iqtisodiy fanlarni o‘qitishning tashkiliy shakllari asosiy innovatsion texnologiyalar, interaktiv metodlarini qo‘llash, ko‘rgazmali va tarqatma materiallar, texnologik xarita, loyiha tayyorlash, texnik vositalardan foydalanish, mustaqil ishlashni tashkil etish, o‘quvchi-talabalar bilimini nazorat qilish, sinash baholash, o‘quv uslubiy majmuasini tayyorlash va ularni fanning mavzulari xususiyatlarini hisobga olgan holda shu mavzu, uzviy savolni o‘rganish uchun samarali, moslarini tanlab qo‘llashni va boshqalar haqida nazariy-amaliy bilimlarni o‘rganishga qaratilgan.

O‘quv jarayonini tashkil etish, fan va uning mavzularini o‘rganishda uning xususiyatlariga mos, samarali metod tanlash muhim ahamiyatga ega. Dars o‘tishda to‘g‘ri metod tanlanmasa, nazariy jihatdan o‘qituvchining bilimi yuqori bo‘lishidan qat’iy nazar, kutilgan natijani bermaydi. O‘qituvchining bilimi pedagogik mahorat bilan qo‘shilgandagina o‘quv jarayonini samarali tashkil etishi mumkin. Buning uchun o‘quv jarayonini tashkil etishning turli metodlari va ularni qo‘llashni bilish kerak.

O‘qituvchi DTSda qo‘yilgan talablarni hisobga olgan holda ko‘zlangan maqsadni amalga oshirish uchun vazifalarni rejalashtirish, mavzu bo‘yicha darslar, va ularni o‘tkazish uchun zarur o‘quv-uslubiy materiallarni tayyorlash va ularni qo‘llash malakasiga ega bo‘lishi zarur.

Insondagi o‘zini-o‘zi saqlash instinkti **mehnat qilish uchun zarur bo‘lgan, erishgan, o‘rgangan bilimi, ko‘nikma, malakasini o‘z avlodlariga qoldirish hamda o‘zlashtirishini ta’minlashga obyektiv ehtiyojni vujudga keltirdi**. Bu ehtiyoj oxir-oqibat bilim olish, ko‘nikma, malaka hosil qilish yo‘llari va usullari – metodlarini o‘rgatadigan fanlarni shakllanishiga va uning mazmunini ifodalovchi, ilmiy bilish faoliyatining shakllari va metodlari majmui haqidagi fan metodika deb atalishiga olib keldi.

Metodika yunoncha “methodos” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, tadqiqot yoki bilish yo‘li degan ma’noni anglatadi. Metod deganda fikrimizni qisqacha ifodalasak, biz maqsadga erishish yo‘llari, o‘zlashtirish usullarini tushunamiz.

Shunday qilib metodika **– qo‘yilgan** maqsadga yetish, haqiqatni, reallikni, faoliyatni nazariy yoki amaliy bilish, o‘rganishning usullari yoki operatsiyalari mazmunini o‘rgatuvchi fandir.

Boshqacha, oddiygina qilib aytganimizda, **metodika bu** – biror ishni bajarish, amalga oshirish, ado etish metodlari, usullarining majmui, o‘quv jarayonini tashkil qilish shakllari, usullari, qonun qoidalari va ularni o‘rganadigan fan;

Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi egallayotgan mutaxassislikni o‘rganish metodikasi bo‘lib, o‘quvchi-talabalar egallayotgan kasbini o‘rgatuvchi ixtisoslik ya’ni maxsus fanlarni puxta o‘zlashtirish, mazmun-mohiyatini tushunib yetish yo‘llarini ko‘rsatishga qaratilgan.

Hozirgi kunning eng dolzarb vazifalaridan biri yuqori malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash bo‘lib, aynan uni qay darajada amalga oshirish mamlakatimiz taraqqiyoti, kelajagini belgilab beradi. Bu vazifani amalga oshirishda esa magistraturani bitirgan mutaxassis kadrlarimiz bevosita qatnashadilar. Demak magistrantlar nafaqat o‘z tanlagan sohalari bo‘yicha chuqur bilim olishlari, balki fanning mazmun-mohiyatini o‘quvchi-talabalar ongiga yetkazib berish malakasiga ega bo‘lishlari lozim. Bu vazifani maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi fani bajaradi. **Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi fanining maqsadi iqtisodiy fanlarini o‘rganishda keng**

qo‘llaniladigan metodlar, innovatsion texnologiyalar bilan tanishtirish va kelajakda o‘z faoliyatlarida qo‘llash, yangi modifikatsiyalarini yaratish, o‘quv jarayonini, o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish, olib borish, boshqarish va boshqalarni o‘rgatishdir.

Bu yerda yana shunga diqqat qaratish zarurki, bu fan kelajakda nafaqat ilmiy-pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislar uchun, balki har qanday faoliyat yuritish uchun kerak. Chunki, metodlar har qanday faoliyatni amalga oshirish uchun obyektiv zaruriyatdir.

Iqtisodiy fanlar faqatgina nazariy emas, amaliy fanlardir. Ular bevosita amaliyotga tayanadi, aniq ma’lumotlar, dalillar, raqamlar hisob-kitoblarga asoslanadi. Shuning uchun iqtisodiy bilimlarni o‘rganish, iqtisodiy tafakkurni shakllantirish, real iqtisodiy jarayonlar asosida, ularga mos metodlar yordamida amalga oshiriladi.

1.3. O‘qitish metodlari funksiyasi, strategiyasi va tashkiliy shakllari.

Biz metodika va didaktikani bir medalning ikki tomoni sifatida bilamiz. Didaktika va metodikaning maqsadi umumiy: ta’lim berish, o‘qitish, o‘rgatishni amalga oshirishdir. **Didaktika “nimani?” va “nima uchun?” o‘qitish kerak degan savollar bilan shug‘ullansa, metodika esa u bilan uzviy bog‘liq holda “qay tarzda, qanday?” va “nimalar yordamida o‘qitish?” lozim masalalari bilan shug‘ullanadi.** Didaktik tamoyillar o‘quv ishlarining mazmuni, shakli va metodlarini qo‘yilgan maqsadga va o‘qitishning qonuniyatlariga muvofiq ravishda aniqlab beradi. O‘qitishning tamoyillarini amalga oshirish ta’lim berish nazariyasida ishlab chiqiladi. Barcha fanlarni o‘rganishda didaktik tamoyillar muhim o‘rin tutadi. Ularni shartli ravishda tahlili oson bo‘lishi uchun **“an’anaviy”** va **“hozirgi zamon”** tamoyillariga ajratish mumkin. **Ta’lim berish (didaktika)ning** an’anaviy va **asosiy tamoyillariga** quyidagilar kiritiladi:

Faollik va mustaqillik tamoyili. Inson ta’lim olishining haqiqiy, chinakam mohiyati o‘zining aqliy faoliyati natijasida bilimning yangi-yangi sir-asrorlarini mustaqil ravishda anglab olishidir.

Talaba, o‘quvchi o‘z harakati bilan fanlarni yaxshiroq o‘rganadi va o‘zlashtiradi. O‘quv jarayonini shunday tashkil qilish kerakki, ularning o‘zlari fanga qiziqsin, uni bilishga harakat qilib, intilsin. Buning uchun o‘quvchi-talabalar darsga faol qatnashishi lozim.

Nazariya bilan amaliyotning bir-biri bilan bog‘liqligi. Nazariy bilim doim kasb-hunar amaliyoti bilan bog‘lanishi lozim. Amaliy ta’lim ham o‘z navbatida nazariy bilimlarga asoslangan bo‘lishi kerak. Amaliyot nazariyasiz ko‘r bolsa, nazariya amaliyotsiz qo‘l-oyoqsizdir.

Ko‘rgazmalilik. Bilimlarni iloji boricha ko‘rgazmali va real hayotga yaqin tarzda taqdim etish tilning tushunarliligini va ta’lim jarayonida audiovizual vositalardan foydalanishni, bevosita ish holatida va real obyektlarda o‘qitishni talab qiladi. Darslar ko‘rgazmali qurollar yordamida berilsa, o‘quvchilarning o‘zlashtirishlari osonlashadi.

Tushunarlilik. O‘quv materialining mazmuni shunday tanlangan va tuzilgan bo‘lishi kerakki, o‘quvchilar uni o‘zlaridagi bilimlar bilan bog‘lay olishi va uni tushunishda qiynalmasligi lozim. Ya’ni, o‘quv materialining mazmuni, shuningdek, o‘qituvchining tili va fikrlarini ifodalash usuli o‘quvchi-talabaning bilim saviyasiga mos kelishi lozim. Lekin bu ilmiy terminlardan foydalanilmaydi, degani emas.

Namunalardan foydalanish. O‘quv materialining mazmunini tushuntirish uchun har doim namunalarni tanlashga harakat qilish kerak. Yaxshi model, amaliyotdan olingan tipik misollar, turlicha mahsulotlar ham olingan natijaning sifati qanday bo‘lishini aniq ko‘rsatadi.

Ilmiylik tamoyili. O‘quv materialining mazmuni haqiqiy va ilmiy jihatdan tasdiqlangan yoki ilmiy tadqiqotlar asosida sinalgan bo‘lishi kerak. Shuningdek, fanning yangi yutuqlari va kashfiyotlarini o‘zida aks ettirishi lozim. O‘qituvchining taxminiga yoki subyektiv fikriga asoslangan material qo‘llanilmasligi kerak.

Bilimlarni qo‘llash. O‘quvchi-talabalar olgan bilimlarini amalda qo‘llay olishi kerak. Shuning uchun bu bilimlar qo‘llanilgan va amaliy vaziyatda sinalgan bo‘lishi zarur. Bunday amaliy vaziyatlar o‘qituvchi tomonidan yaratilishi lozim**.**

Natijalarni mustahkamlash tamoyili. O‘qishdagi muvaffaqiyatlar tan olinishi va baholanishi kerak. Bu o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasida doimiy aloqa bo‘lishini talab qiladi. Natijalar esa maxsus “Baholash varaqalari”da qayd qilinishi kerak. Didaktik tamoyillar o‘qituvchi faoliyatining yo‘l-yo‘rig‘i sifatida xizmat qiladi, alohida olganda esa tushunarlilik tamoyilini qo‘llab-quvvatlaydi. O‘qitishning asosiy qoidalari: tushunarlidan – tushunarsizga; yaqindan – uzoqqa; osondan - qiyinga; aniqdan – mavhumga; umumiydan – xususiyga, umumlashtirilgandan yakkaga; xususiydan – umumiyga.

Izchillik tamoyili. O‘quv materialini o‘rganishni ketma-ketligi mantiqiy izchilligi tartibini belgilaydi.

Vorisiylik, ya’ni uzviylik tamoyili. Bilim olishning o‘zi avvalgi o‘zlashtirilgan bilimlarga yangisini qo‘shilishi, uni rivojlantirish, boyitish va kelgusida amalga oshirishni ifodalaydi. Ko‘pincha, o‘qitishni bilim berish tarzida talqin qilinadi. Vaholanki, bilimni tayyor holda berib bo‘lmaydi, chunki odatda sovg‘a beriladi, bilim emas. O‘qitish, o‘rgatish tamoyillari o‘quv mashg‘uloti jarayonida shunday sharoit yaratishga qaratiladiki, natijada ta’lim oluvchilar anglab, tushunib, faol va sabot bilan astoydil tirishib o‘quv materialini o‘zlashtirishga yo‘naltiriladi. Shuning uchun ham tushunarlilik, faollik tamoyillari muhim ahamiyatga ega. Bu tamoyillarning hammasi zamonaviy didaktikada ham o‘z o‘rni va ahamiyati, mazmun-mohiyatini yo‘qotmaydi. Shu bilan birga rivojlanadi, yangi fundamental g‘oyalar bilan boyib boradi. O‘zlashtirishni o‘quvchi-talabalarni faol fikrlash faoliyati, real hayot bilan bog‘lash orqali bu tamoyilga rioya qilish ayni maqsadga muvofiq keladi.

Ayrim klassik tamoyillar hozirgi zamon amaliyotida o‘z dastlabki ma’nosini yo‘qotmagani holda yangi fundamental g‘oyalar bilan boyib boradi va o‘z navbatida didaktik tamoyil statusini oladi. Masalan, natijalarni, ya’ni o‘zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash tamoyili. Bilimni mustahkamlashga qayta-qayta takrorlash tufayli erishiladi. Hozirgi kunga kelib, bilimlarni nihoyatda tez eskirishi sababli yodlashga qaratilgan bilim olish ko‘p jihatdan o‘z ma’nosini o‘zgarishiga olib keldi. Bugungi kundagi bilimimiz “ertaga” eskirishi mumkin. Ertagalik bilim tabiy bizda hali yo‘q.

Lekin biz ta’lim oluvchilar intellektini ertangi bilimlarni qabul qilishga yo‘naltirish bilan uni rivojlantirishimiz mumkin. Aynan o‘qitishning rivojlantiruvchi tamoyili ana shuni ifodalaydi. Biz ularni nafaqat dalillar, reallik asosida fikr yuritish, balki mustaqil ravishda bilim olish shakllari va metodlarini o‘rgatish orqali nazariy jihatdan, metodologik darajada fikrlashga yo‘naltirish orqali bu maqsadga erishamiz. Biz bu bilan ularni intellektual va professional dinamizm bilan qurollantiramiz. Bo‘lg‘usi mutaxassisning professional g‘oyalarni generatsiya qilishga, fan-texnika taraqqiyotida faol qatnashishga tayyorlash ayniqsa muhim ahamiyatga ega. Bu tamoyil yangi bo‘lishiga qaramay, uni shakllanishi Yan Komenskiy, Adolf Disterveg, Konstantin Ushinskiy nomlari bilan bog‘liq.

Yigirmanchi asrning ikkinchi yarmida **qator tamoyillari shakllantirildi** va amaliyotda qo‘llaniladigan bo‘ldi. Ular taniqli va talantli didaktik olimlar va amaliyotchilar nomlari bilan bog‘liq.

Bu tamoyillardan biri ta’lim olish uchun **optimal shart-sharoitlar yaratish** bo‘lib, unda pedagog bilan o‘quvchi-talabalar o‘rtasida, qulay, ijobiy axloqiy-psixologik muhit yaratish, jamoada stixiyali tarzda yuz berishi mumkin bo‘lgan stressli va muammoli vaziyatlarni oldini olish munosabatlarini vujudga keltirishni bildiradi.

O‘quvchi-talabalarning o‘quv jarayoniga ongli ravishda maqsad bilan yondashishi. Har bir o‘qishni yangi boshlagan o‘quvchi-talaba, u birinchi sinfmi, birinchi kursmi, magistrantmi – hali ta’lim jarayonini yangi shart-sharoitlarini tartib-qoidalarini to‘liq o‘zlashtirmagan bo‘ladi. Shuning uchun bosqichma-bosqich ana shu jarayonning subyektlariga asosiy maqsad, vazifalarni, qonun-qoidalarni biladigan, intellektual mehnatning keng qo‘llaniladigan ish tartiblari, asosiy funksiyalari bilan tanishib o‘z vaqt byudjetini to‘g‘ri taqsimlay olish, mustaqil ish faoliyatini mohirlik bilan tashkil etishga yo‘naltiradi.

Tayanchlilik tamoyili. O‘quv jarayoniga yangi bilimga ega bolish uchun unga asos, tayanch bo‘ladigan bilimga, tasavvurga ya’ni boshlan-g‘ich nuqta nimadan boshlanishi kerakligi aniq bo‘lishi kerak. Tuzilgan konspektda esa o‘quv materiali ma’no mag‘zini qisqa lo‘nda, tizimli bayon qilinishi lozim bo‘lib, o‘quvchi-talabalar ular yordamida o‘quv materialini mantiqiy anglagan hamda yaxlit holda o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Bulardan tashqari yana qator tamoyillarni keltirish mumkin, har bir tamoyil o‘ziga xos didaktik vazifani bajaradi. Shuning uchun ularni muhimligi nuqtai nazaridan taqqoslash noto‘g‘ri. Ularga o‘zaro bog‘langanligi va bir-birini taqozo qilishiga ko‘ra tizimli yondashuv maqsadga muvofiq.

Didaktika dars o‘tishda predmetni o‘rganishni nazariy tayanchi sifatida yagona bo‘lsa, predmet metodlari esa o‘tiladigan fanlar va ularning xusuyatiga ko‘ra nihoyatda xilma-xil.

Predmetni o‘rganishning maqsadi uni mazmun-mohiyatini o‘quvchi-talabalarga yetkazish, intellektual rivojlanishi, mutaxassisni, shaxsni shakllantirishdir. Bu maqsadni amalga oshirish uchun fanni o‘rganish metodlarini qo‘llashda didaktikaning tamoyillarini qo‘llash zarur. U o‘rganilayotgan predmetni mazmuni, o‘qituvchining faoliyati –

o‘qitish, o‘rgatish, ta’lim oluvchilarning faoliyati – o‘qish, o‘rganish bilan chambarchas bog‘liq.

Bu jarayonda o‘quv tamoyillari o‘qituvchini o‘rganilayotgan predmetning xususiyatlaridan kelib chiqib, o‘qitishning shakllari, metodlari, usullarini tanlashni taqozo qiladi va unga yo‘naltiradi. Bunda har bir tamoyil pedagogning metodik tafakkuriga didaktik “vektor” bo‘lib xizmat qiladi.

Metodikada didaktik tamoyillarni realizatsiya qilish bir vaqtning o‘zida ham ilmiylik ham san’atdir. O‘qituvchi didaktik tamoyillarning tabiatiga diqqat qaratib, uni fikran tanlashi, mavzuning mazmun mohiyatini ta’lim oluvchilarga yetkazish jarayonini ilmiy izlanish deb qarash mumkin bo‘lsa, u yoki bu fanning predmetini o‘rganishda qo‘llashini san’at deb aytish mumkin. Shuning uchun predmetni o‘rganish metodikasida didaktik tamoyillarni qo‘llashning muvaffaqiyati o‘qituvchining umum-pedagogik madaniyatiga bog‘liq.

Bunday madaniyat o‘z ichiga tashkiliy, kommunikativ, loyihalash, o‘rganilayotgan predmetga xos jihatlarni qamrab oladi. Masalan, fizika, kimyo kabi fanlardan dars berish o‘qituvchidan eksperimentlar o‘tkaza bilish, buning uchun zarur uskunalarni ishlata bilish, texnika xavfsizligini ta’minlashni talab qilsa, iqtisodiyot nazariyasi fanidan dars berish uchun mavzuga muvofiq statistik ma’lumotlarni tanlash, ularni dinamikada tahlil qila bilish, xulosa chiqarish, ilmiy abstraksiyani qo‘llay olish va hokazolar talab qilinadi. Bular o‘z navbatida didaktik tamoyillarga tayanish va ularni mohirlik bilan realizatsiya qilishni talab qiladi.

Didaktik tamoyillarni predmet metodikasi bilan bog‘liqligi ularni o‘zaro ta’sir ko‘rsatishi bir-birini rivojlanishi, boyib borishiga ta’sir ko‘rsatadi.

O‘qitishning qonuniyatlari, tamoyillari hamda mazmuniga ko‘ra o‘quv jarayonining aniq tashkiliy shakli tanlanadi. Agar mashg‘ulot shakli – bu o‘qitishning tashkiliy usuli, yo‘li bo‘lsa, metodlar – bu ta’lim oluvchilar bilan o‘qituvchining bir-biriga o‘zaro ta’siri, hamkorlik qilishning usuli, yo‘lidir. Metod usullarni ma’lum bir ketma-ketlikda qo‘llashni qamrab oladi. Boshqacha aytganda usul – bu metodning uzviy qismidir.

Shunday qilib, nazariya, metod va usullar didaktikaning qonuniyatlari va tamoyillarini realizatsiya qiladi. Ta’lim vositalari – ko‘rgazmali, audiotexnik, kinematik va boshqalar esa didaktikaning

o‘ziga xos tili hisoblanadi. Ular didaktik jihatdan maqsadga muvofiq bo‘lganda o‘quv jarayoni obrazlilik, emotsionallik bilan to‘yinadi, mazmunga boy bo‘ladi.

Didaktikaning an’anaviy “qanday o‘qitish kerak?” degan savoli bizni o‘qitish metodlari kategoriyasiga olib keladi. Metodlarsiz qo‘yilgan maqsadlarga erishib bo‘lmaydi. U qo‘yilgan maqsad bilan natijani bog‘laydi.

Metod deganda voqelikni amaliy yoki nazariy o‘zlashtirish usullari tushuniladi. Faoliyatning turli jabhalarini o‘rganishni qamrab olgani holda ilmiy bilish va uning usullari metodikaning asosiy yo‘nalishidir. Unda ta’lim va tarbiya berish usullari asosiy o‘rinda turadi.

Metod yunoncha “methodos” – tadqiqot yoki bilish yo‘li 1) haqiqatga intilish, bilish, harakat qilish yo‘llari; 2) tabiy va ijtimoiy hayot hodisalarni tadqiq etish, bilish yo‘li; 3) kutilayotgan natijaga erishish usullari; 4) voqelikni amaliy yoki nazariy o‘zlashtirish usullari ma’nosini anglatadi.

Metodlarning obyektiv hamda subyektiv xarakteri haqidagi fikrlar xilma-xildir. Metodlarning obyektiv xarakterini butunlay inkor qilib, uni to‘liq subyektiv xarakterga ega, shuning uchun ham takrorlanmasdir, u har bir pedagogning ijod tarzida yuzaga chiqadi, degan fikr bildiruvchilardan tortib, uning tamomila aksi bo‘lgan, to‘la obyektiv xarakterga ega deydiganlar ham mavjud. *Haqiqat, odatda, barcha fikrlarning o‘rtasida tug‘iladi.*

Metodlarning obektiv jihatlarida barcha didaktik qoidalar, qonunlar, tamoyillar, ta’riflar, mazmun butunligining doimiy komponentlari, o‘quv faoliyatining shakllariga xos bo‘lgan umumiy tomonlar aks etadi.

Metodlarning subyektiv jihati pedagog shaxsi, uning mahorati, ta’lim oluvchilarning o‘ziga xosligi va aniq sharoitga bog‘liq.

Dars jarayoni har ikki tomon bir butun bo‘lib, birlashgan holda tashkil etiladi. Uning amaliy ifodasi qo‘yilgan maqsadga ko‘ra erishilgan natijada o‘z aksini topadi. Metodlarning obyektiv jihatini didaktik tamoyil nuqtai nazaridan talqin etish, uning nazariyasini ishlab chiqish, amaliyotda qo‘llanishi zarur bo‘lgan eng yaxshi metodlarni tavsiya etish, mantiqiy tanlash muammolarini muvaffaqiyatli yechish imkonini beradi.

Metodlarni optimallashtirish uchun esa pedagoglar mahorati, ijodiy yondashish zarur bo‘ladi. Shuning uchun ham o‘qitish metodlari yuqori darajadagi san’at bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qoladi.

Sharq mutafakkirlari ham bilishning metodlariga katta e’tibor bilan qaraganlar. O‘quv jarayonini tashkil etish va o‘qitish metodlariga alohida e’tibor bergan alloma Aristoteldan so‘ng “ikkinchi muallim” deb nom qozongan Abu Nasr Forobiy o‘qitish metodlari haqidagi traktatlarida ta’lim oluvchilarga turli bilimlar berish bilan birga mustaqil holda bilim olish yo‘llarini ham ko‘rsatgan, bilim olish zarurligiga shak-shubhasiz ishontirish lozimligini ta’kidlagan[8].

Hozirgi terminlardan foydalanib, Sharqning qomusiy allomalarining o‘qitish metodlarini bilishning umumiy qonunlariga muvofiqligini aniqlasa bo‘ladi. Ular foydalangan o‘qitish metodlarini bir necha guruhlarga ajratish mumkin. Bular Ibn Sino qo‘llagan ko‘rgazmali-tajriba metodlari, Abu Rayhon Beruniy, Al-Xorazmiyning ko‘nikma va malakalarni shakllantirish metodlari, Forobiy va Al-Xorazmiyning bilimlarni tekshirish metodlari va boshqalardir. Ularning hammasi o‘quvchi-talabalarning faoliyatini kuchaytirish, mantiqiy tafakkurini rivojlantirish maqsadini ko‘zlagan.

Ma’lumki, ta’lim-tarbiyada metodlar qator funksiyalarni bajaradi. Metodlar yordamida qo‘yilgan maqsad amalga oshiriladi. O‘qituvchi o‘quvchi-talabalarni bilim olishga da’vat qiladi. Bilishni faollashtirishning asosiy, ayrim paytlarda esa yagona stimulyatori bo‘lib xizmat qiladi. Metodlar yordamida o‘qituvchi o‘quv jarayonini kechishi va natijasini diagnostika qiladi, zarur o‘zgartirishlar kiritadi.

Pedagog, psixolog mutaxassislarning ta’kidlashlaricha, metodlar o‘quv-tarbiya jarayonida quyidagi funksiyalarni bajaradi:

Ta’lim berish.

Metodlar yordamida ta’limning maqsadi amalga oshiriladi. Metodlar o‘qituvchi va o‘quvchilarning nazariy hamda amaliy bilimini ta’lim olish borasidagi vazifalarni bajarishga qaratadi;

Kamolotga boshlash funksiyasi.

O‘quvchi, talabalarni fikrlash doirasini, bilim olish, aqliy rivojlanish sur’atini tezlashtirishda, qiziquvchanligini oshirishda o‘z ifodasini topadi;

Tarbiyalash funksiyasi.

O‘quv materialini o‘rganish, o‘zlashtirish jarayoniga mustaqil qarash, fikrlash, iroda xususiyatlari, axloqiy, ma’naviy qarashlarning shakllanishiga olib keladi;

Bilim olishga da’vat etish, istak, xohish uyg‘otish funksiyasi.

[8] Аль-Фаробий. Математические трактаты. Алма-ата: Ильм, 1972. С. 327, 328.

Metodlar talabalarni bilim olishga da’vat qiluvchi vosita hisoblanadi. Asosiy, gohida bilishga qiziqtiruvchi, istak, xohish tug‘diruvchi yagona stimulyator vazifasini bajaradi;

Nazorat funksiyasi.

Metodlar yordamida o‘qituvchi o‘quvchi, talabalarning bilimini nazorat qilibgina qolmay, o‘quv jarayoni natijalariga ko‘ra unga zarur o‘zgartirishlar kiritadi.

Metodlar turli-tuman bo‘lib, pedagog olimlar tomonidan turli yondashuvlarga ko‘ra ular tasniflanadi, guruhlarga ajratiladi.[9] Lekin metodning mazmun-mohyatiga ko‘ra eng muhimi u “qanday?” savoliga javob berishi: bunda pedagog qanday faoliyat yuritadi, o‘quvchi-talabachi?

Metodologiya esa (yunon. metodos va logos so‘zlaridan) faoliyatning tarkibi, mantiqiy tuzilishi, metod va vositalari haqidagi ta’limotdir. Metodologik bilim, birinchidan, muayyan faoliyat turlarining mazmuni va izchilligini o‘z ichiga olgan odat va normalar shaklida, ikkinchidan, amalda bajarilgan faoliyatning ta’siri sifatida yuzaga chiqadi. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasida metodologiyaga quyidagicha tarif berilgan: “Metodlar haqidagi ta’limot fanda metodologiya deyiladi”.[10]

“Voqelikning muayyan qismini, biron jihatini o‘rgatuvchi metodologiyaga metafizikani, voqelikni chiziqli rivojlanishi, o‘zgarish jarayonini uni tashkil etuvchi bilimlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorliklarni aks ettiruvchi metodologiyaga dialektikani, voqelikda ro‘y beruvchi, keskin halokatli o‘zgarishlar, nochiziqli rivojlanish jarayonlarini o‘rganishda qo‘llanilayotgan metodologiyaga sinergetikani[11] misol sifatida kiritish mumkin» – deyiladi, mazkur ensiklopediyada. “Metodologiya – tadqiqotning nazariy va amaliy faoliyatini tashkil etish, tiklash tamoyillari va usullari tizimi hamda bunday tizim haqidagi ta’limot”dir.[12]

---

[9] **Д. Стил, К. Мередис, Ч. Темпл.** Чтение, письмо и дискуссия в каждом учебном предмете. (Пер. с анг.) Пособие в 8–томах, Бишкек, 1998 г; Н.Хўжаев, П.З.Хошимов, Т.Т.Джураев, О.Б.Гимранова Методика преподавания экономических дисциплин. Т., 2004; Кукушкин В. С. Теория и методика обучения / В.С. Кукушкин. −Ростов н/Д.: Феникс, 2005; Скибицкий Э. Г., Толстова И. Э., Шефель В. Г Методика профессионального обучения.: Учеб. Пособие, Новосибирск: НГАУ, 2008; Tojiboeva D., Yo‘ldoshev A. Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi. Darslik. N.:Aloqachi, 2009; Áðþ Äæåìñ è Ìàðøà Âåéë. Ïîäëèò îáó÷åíèÿ. Пер. с анг. Москва, 1996. http://www.google.com/search?q=Интерактивные+технологии+и+стратегии+образования&rlz=1C1 enUZ469UZ469&tbm=isch&prmd=i va boshqalar.

[10] O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. O‘ME Davlat ilmiy nashriyoti, T., 2003. 613 bet.

[11] Sinergetika yunoncha synergos – birgalikda harakat qiluvchi, faoliyat yurituvchi, amal qiluvchi.

[12] O‘sha kitob 614-bet.

Metodologiya metodlarga va umuman voqelikka, fan predmetini o‘rganishda qanday ilmiy tamoyillar asosida yondashish yo‘lini o‘rgatadi.

Didaktik tadqiqotlar mashg‘ulot o‘tkazishni dialektik jarayon sifatida o‘rganadi. Unga ko‘ra:

1. O‘qitish metodlari tizimi dinamikada, harakatda, ta’lim tizimida yuz berayotgan barcha o‘zgarishlarni hisobga olgan holda o‘zgaradi, rivojlanadi, deb qaraladi.

2. Barcha metodlar bir-biri bilan aloqador. Biri ikkinchisini to‘ldiradi, biri ikkinchisiga bog‘liq.

3. Metodlarni qo‘llashning turli-tuman modifikatsiyalari mavjud bo‘lib, ular dars o‘tish shakllari va vositalari bilan qo‘shilib ketadi.

Dastlab, dars berish metodlarini tasniflashga an’anaviy jihatdan yondashilib, o‘rganiladigan bilim manbalariga ko‘ra guruhlarga ajratilgan. Bunday guruhlanishning ijrosi qadimgi falsafiy va pedagogik qarashlarga borib taqaladi. Bunday manbalar, qadimda uchta: amalda sinash, ya’ni praktika (tajriba), ko‘rgazmali, og‘zaki (so‘z orqali) ifodalangan. Jamiyat taraqqiyoti tufayli keyinchalik unga kitob bilan ishlash qo‘shildi. So‘nggi 20 yil mobaynida hayotga, shuningdek, ta’limga shiddat bilan yangi metodlar, qog‘ozsiz axborot manbai: video-kompyuter tizimi kirib keldi.

Hozirgi paytda metodlar bilan bog‘liq ravishda **ta’limda strategiya, o‘qitish strategiyasi** so‘zi tez-tez ishlatilmoqda. “Strategiya” termini ko‘proq siyosiy, harbiy sohaga tegishli bo‘lib, uning ma’nosi siyosiy, harbiy lug‘atlarda berilgan. Strategiya yunoncha “strategos” – harbiy san’at, o‘yinda boshqa o‘ynovchilarni, raqiblarni har qanday mumkin bo‘lgan yurishlariga, harakatlariga javob rejasi tarzida talqin qilish mumkin. Umumiy tarzda uni uzoq muddatga mo‘ljallangan asosiy maqsadni amalga oshirishga qaratilgan vazifalarni bajarish uchun tanlangan yo‘l, sa’y-harakatlar majmui va uning dasturi sifatida qaraladi.

“Ta’lim, o‘qitish strategiyasi” termini pedagogik lug‘atlar, o‘quv qo‘llanmalarda yo‘q. U yaqingacha qo‘llanilmagan, bu soha uchun yangilik hisoblanadi.

Mamlakatimizdagi hozirgi zamon ta’lim strategiyasi barcha talabalarga o‘z talantlari, kreativ-ijodiy potensial imkoniyatlari, shaxsiy rejalarini amalga oshirish uchun imkoniyat yaratishga qaratilgan. U kadrlar tayyorlash milliy modeli bilan chambarchas bog‘liq. Yaqin 5-

yillik davomida qo‘yilgan maqsad, ta’lim strategiyasi 2017-2021-yillarga mo‘ljallangan “Harakatlar strategiyasi”da belgilab qo‘yilgan.

Ta’lim strategiyasining muhim tarkibiy qismi o‘qitish strategiyasi bo‘lib, o‘qitish jarayonining ma’lum bir aniq bosqichida maqsad qo‘yish va uni amalga oshirish uchun metodlar, usullar va o‘qitish vositalarini tanlashni ifodalaydi. Ularga ko‘ra strategiya passiv, aktiv va interaktiv[13] bo‘lishi mumkin. Passiv strategiyada o‘qituvchi bilim beruvchi, talaba bilimni qabul qiluvchi va o‘zlashtiruvchi bo‘lsa, aktiv strategiyada o‘qituvchi talaba o‘rtasida hamkorlik va qaytar aloqa ta’minlanishi ko‘zda tutiladi. Interaktiv strategiyada nafaqat o‘qituvchi va talabaning hamkorlikdagi faoliyati, balki talabalarning ham o‘zaro hamkorlikda ishlashlarini ta’minlash nazarda tutiladi.

O‘quv jarayonini tashkil etishning asosiy shakllari

O‘qitish strategiyasi va metodkasining tashqi timsoli o‘qitish shakllarida mujassamlashadi, amalga oshiriladi.

Ta’limni tashkil etish shakllari pedagogik jarayonni tashkil etishning tarixan mavjud bo‘lgan, barqaror va mantiqan tugallangan ko‘rinishi bo‘lib, unga muntazamlik va yaxlitlik, o‘z-o‘zini rivojlantirish, shaxsiylik va faoliyatli xarakter, ishtirokchilar tarkibining doimiyligi, o‘tkazishning muayyan tartibi mavjudligi xosdir.[14] Ta’lim tizimi, o‘qitishning shakl va metodlari majmui o‘quv jarayonining obyektiv qonuniyatlari bilan belgilanadigan yagona didaktik kompleksni tashkil etadi.

Ta’lim jarayoni[15] – ta’lim beruvchi bilan ta’lim oluvchi o‘rtasidagi qo‘yilgan maqsad asosida belgilangan bilim, ko‘nikma va tarbiyani tarkib toptirishga yo‘naltirilgan o‘zaro muloqot, munosabat (ta’sir ko‘rsatish) jarayonidir.

Ta’lim maqsadi ta’lim natijasi sifatida o‘quvchi erishishi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malaka, odob bo‘lib, aynan shular uning shaxsiy fazilatlarini shakllantiradi. Ta’lim olish, yangi bilimlarni o‘rganish jarayonida bilishning turli vositalari, shakllari, bosqichlariga murojaat qilinishi tabiy. Bu jarayon insonning yosh xususiyatlari, ta’lim-tarbiya maqsadlari, uzluksiz ta’lim mazmuni va uning bosqichlariga ko‘ra o‘zgarib, takomillashib boradi. Bu esa so‘zsiz o‘quv jarayonini

---

[13] Interaktiv – ing. interact so‘zidan olingan bo‘lib, inter-o‘zaro, act-faoliyat yuritish, harakat qilmoq, ya’ni o‘zaro harakat qilmoq ma’nosini anglatadi

[14] Ишмуҳамедов Р., Абдуқолиров А., Пардаев А. Таълимда инновацион технологиялар. Т., 2008. 79 б.

[15] Jarayon- lotincha ***processus*** - oldinga harakatlanish, o‘zgarish, natijaga erishish uchun harakat, hodisalarning izchillik bilan o‘zgarishi, sudda ishning ko‘rilishi

tashkil etish shakllari, dars o‘tish metodlarini tanlashda o‘ziga xos xususiyatlarni hisobga olishni zarur qilib qo‘yadi.

Ta’lim jarayonining asosini o‘quv jarayoni tashkil etadi. **O‘quv jarayoni** – murakkab tizim bo‘lib, undagi holat, munosabatlar, aloqalarning rang-barangligi asosida shaxsning yangi bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashini amalga oshirish jarayonidir.

O‘quv jarayoninig bosh komponent (unsur**)lari:** o‘qitish mazmuni; o‘qitish metodlari; o‘qitish shakllari; o‘quvchi-talabalarning o‘quv va ilmiy ishlari, o‘qituvchilarning o‘qitish, o‘rgatish faoliyatini o‘z ichiga oladi. Ularning hammasi bir-biri bilan bog‘liq, biri ikkinchisini to‘ldiradi.

O‘quv jarayoni o‘zaro bog‘langan, biri ikkinchisini taqozo etuvchi ikki faoliyatni qamrab oladi va ta’lim unga tayanadi:

1. O‘quv jarayonini boshqarish va tashkil etish bo‘yicha o‘qituvchi-larning faoliyati;

2. Talabalarning o‘quv va bilim olish faoliyati.

Ta’lim berish jarayonida o‘qitishning asosiy shakllari: auditoriya (sinf)da va auditoriya (sinf)dan tashqarida mashg‘ulot o‘tkazishga bo‘linadi.

O‘quv xonalarida (auditoriya, sinf) o‘qishga – ma’ruza, seminar darslari, amaliy mashg‘ulotlar, laboratoriya ishlari, maslahat darsi, joriy, oraliq, yakuniy baholash, davlat attestatsiya komissiyasining yakuniy baholashi kirsa, auditoriya (sinf)dan tashqari o‘qishga sayyor darslar, o‘quv anjumanlari, ilmiy-amaliy konferensiyalar, davra suhbatlari, o‘quv ishlab chiqarish amaliyoti, kurs ishi, bitiruv malakaviy ishi, auditoriya (sinf)dan tashqari bajariladigan mustaqil ishlar kiradi.

Sanab o‘tilgan o‘quv-tarbiya shakllarining hech biri universal emas. Biri ikkinchisining o‘rnini bosa olmaydi. Shu bilan birga, ular bir biriga bog‘liq, biri ikkinchisini mantiqiy ketma-ketligini taqozo etadi.

Ta’lim-tarbiya berishning bir shakli albatta, ikkinchisiga ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, ma’ruza o‘qish, unda muayyan metodni qo‘llash seminar o‘tkazish saviyasiga katta ta’sir ko‘rsatadi va hokazo.

Dars o‘tishning shakl va metodlari o‘rtasidagi nisbat o‘zgarib turadi. Yuqori kurslarda seminar darslarining va mustaqil ishlarning roli ortadi. O‘quv mashg‘ulotlarining barcha turlari talabalarni bilishning eng yuqori bosqichi baholash darajasigacha ko‘tarilishini ta’minlashdir.

O‘quv jarayonini boshlang‘ich, umumo‘rta ta’lim bo‘g‘nida tashkil etish shakli – bu dars bo‘lib, u – o‘qitishning **sinf-dars** tizimi o‘zagi.

“Dars – maktab ta’limining asosiy shakli. Dars muayyan miqdordagi doimiy o‘quvchilar tarkibi bilan qat’iy tartibda uyushtiriladigan va aniq maqsadga yo‘naltirilgan didaktik tadbirdir.”[16] U darsga qo‘yilgan maqsadni amalga oshirish borasida avvaldan ko‘zlangan natijaga erishishga qaratilgan faoliyat jarayonidir. Shuning uchun bu tushunchadan biz umumiy tarzda nafaqat maktab, balki o‘rta maxsus va oliy ta’limda ham foydalanamiz.

Ta’limning tashkiliy shakli[17]- bu o‘quv jarayonini mavjud bo‘lish yo‘li, uning ichki mohiyati, mantiq’i va mazmuni uchun qobiqdir. Ta’limni tashkil etish shakllari vaqt bilan chegaralangan (dars, ma’ruza, seminar, laboratoriya mashg‘ulotlari va boshqalar), alohida o‘qitish jarayoni tuzilishining aniq o‘quv topshiriq turi, aniq o‘quv materiali mazmuni ustida ishlayotganda o‘qituvchini talabalar bilan o‘zaro harakatini yo‘lga qo‘yishni, tartiblashtirish, tizimga keltirish, ketma-ketligini nazarda tutadi.

Bu o‘quv jarayonini mavjud bo‘lish yo‘li, uning ichki mohiyati, mantig‘i va mazmuni uchun qobiqdir. Bu o‘rnatilgan tartib va aniq tartibotda (rejimda) boruvchi, o‘qituvchi va talabalarning maxsus tashkil etilgan faoliyatini tashqi ifodasi.

Shunday qilib, ta’limning tashkiliy shakli didaktik kategoriya sifatida o‘quv jarayonining quyidagi tashqi tomonlarini, ya’ni:

- uning mavjudlik tarzini – tartib va rejimini;
- o‘qituvchi va ta’lim oluvchining hamkorlikdagi faoliyatining tashqi ifodasini aks ettiradi.

O‘quv yurtlarida o‘quvchi-talabalarga ta’lim berish jarayonida real hayotda sinab ko‘rilgan hamda o‘zini oqlagan o‘qitish shakllari: ma’ruza, seminar, maslahat, amaliyot darslari, laboratoriya ishlari, o‘quv va ishlab chiqarish praktikasi, kurs ishi va bitiruv malaka ishi, auditoriyadan tashqari mustaqil ishlar, joriy, oraliq, yakuniy baholash,

[16] O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 3-jild. T., 2002. 202 b.

Birinchi bo‘lib, XVI asrning oxiri XVII asrning boshlarida buyuk chex pedagogi YA. A. Komenskiy (1592 - 1670) tarixda maktab ta’limida sinf – dars tizimini amaliyotda qo‘llagan. U jiddiy qarshiliklarga qaramay juda tez tarqaldi va ta’limni tashkil qilishning birdan-bir shakli deb e’tirof etildi. Buning eng muhim sabablaridan biri – yoshi, qobiliyati bir-biriga yaqin yoshlarni bir xonada, bir mavzuni o‘rganishidir. Maktabda o‘tiladigan dars 45 minut belgilanib, mantiqiy mazmuni va bilish faoliyatining xarakteriga ko‘ra qo‘llaniladigan dars turlari: kirish darsi; yangi bilimlarni bayon qilish darsi; o‘tilganlarni mustahkamlash darsi; olingan bilimlarni amaliyotda qo‘llashni o‘rganish darsi; o‘quvchilarning bilim, malaka va ko‘nikmalarini tekshirish va baholash darsi; aralash dars (yuqoridagi dars turlarini bir nechtasini birga qo‘llanishi) eng ko‘p qo‘llaniladi. Maxsus o‘rta ta’lim tizimida ham mavzularga ajratilgan vaqtga, belgilangan maqsad, vazifaga ko‘ra qo‘llaniladi.

[17] Shakl (lotincha forma-tashqi ko‘rinish) – tashqi qobiq, tashqi ko‘rinish ma’nosini ifodalaydi

davlat attestatsiya komissiyasi imtixoni, turli konkurslar, olimpiadalar va boshqa shakllaridan hamda turli metodlaridan foydalaniladi.

O‘quv jarayonini tashkil etish shakllari

Tanlangan mezonlar	Faoliyat shakli	Amalga oshirish mazmuni
Qo‘yilgan maqsadni ta’lim jarayonida amalga oshirishning o‘ziga xos jihatllariga ko‘ra	Ma’ruza; Seminar; Amaliy mashg‘ulot, laborotoriya mashg‘uloti; Mustaqil ta’lim kabilar	Ta’limni tashkil etish yo‘li
O‘quvchi-talabalar bilan muloqotda bo‘lish, bilimni qanday yetkazish nuqtai nazardan	Bevosita muloqot orqali: O‘quv xonalarida ta’lim; O‘quv xonalaridan tashqarida ta’lim . Bilvosita muloqot orqali: Texnik vositalar orqali masofaviy ta’lim; Mustaqil ta’lim.	Ta’limni olib borish usuli
Ta’lim (o‘qish, o‘rganish) jarayonida qatnashuvchi-lar soniga ko‘ra	Ommaviy; Jamoaviy; Guruhlarda ishlash; Kichik guruhlarda ishlash; Individual, yakka tartibda.	O‘quv jarayoni, ishni, o‘qish-o‘rganishni tashkil etish yo‘li
Ta’lim berish, mashg‘u-lotning davomiyligiga ko‘ra	45 (yoki 40) minutli; Qo‘shma darslar: 90 (yoki 80) minutli; Tanaffussiz darslar	O‘quv vaqtini belgilash tartibi

O‘qitishning tashkiliy shakllariga turli jihatdan: o‘quvchilarning soni, o‘qitish joyi, o‘quv mashg‘ulotining davomiyligi va boshqa mezonlarga ko‘ra yondashish mumkin.

Sanab o‘tilgan o‘quv-tarbiya shakllarining hech biri universal emas. Biri ikkinchisining o‘rnini bosa olmaydi. Shu bilan birga, ular bir biriga bog‘liq, biri ikkinchisini mantiqiy ketma-ketligini taqozo etadi, to‘ldiradi.

Ta’lim-tarbiya berishning bir shakli albatta, ikkinchisiga ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, ma’ruza o‘qish, unda muayyan metodni qo‘llash seminar o‘tkazish saviyasiga katta ta’sir ko‘rsatadi va hokazo.

O‘quv jarayonini tashkil etishda dars o‘tishning shakl va metodlari o‘rtasidagi nisbat o‘zgarib turadi. Yuqori kurslarda seminar

darslarining va mustaqil ishlarning roli ortadi. O‘quv mashg‘ulotlarining barcha turlari talabalarni, bilishning eng yuqori bosqichi baholash darajasigacha ko‘tarilishini ta’minlashdir.

O‘quv jarayonini tashkil qilishda, ayniqsa, seminar, amaliyot darslarini ko‘ngildagidek o‘tishini ta’minlashda maslahat darslarining ham o‘z o‘rni bor.

Fanda erishilgan natijagina emas, balki unga qanday qilib, qaysi yo‘l bilan erishish, ya’ni uni qanday metodlar yordamida o‘rganish mumkinligi va uni bilish ham katta ahamiyatga ega. Fanni fan sifatida uni mazmunini anglash, o‘zlashtirish va takomillashtirish metodlariga tayansagina tan olish mumkin. Chunki aynan metod fanga uning vazifalari, masalalarini yecnish, o‘z muammolarini yechimini ishlab chiqishga imkon beradi.

Fanni o‘rganishda qo‘llaniladigan asosiy metodlar

Mazkur fanni o‘rganishda **tarixiylik va mantiqiylik metodlaridan** keng foydalanamiz. Ular tahlil (analiz) va sintez metodlari bilan uzviy ravishda qo‘shilib ketadi. Chunki tarixiy faktlar, ma’lumotlar o‘rganilib tahlil qilinadi. Tarbiyaviy jarayonda fanlarni o‘qitishdagi dunyo miqyosidagi tajribalar o‘rganiladi, ulardan foydalaniladi. Sababi, 1) jamiyatni avvalgi taraqqiyot davrini o‘rganmay, milliy an’analar ildizini bilmay hozirgi davr uchun mustahkam asos yaratib bo‘lmaydi; 2) jahon tajribasini o‘rganmay, “velosipedni qaytadan ixtiro qilishga urinish” behuda mehnat, vaqt sarflash, kaltabinlikdir.

Mazkur fanda iqtisodiy fanlar bilan pedagogika, metodika uyg‘unlashib ketgan. O‘z predmeti nuqtai nazaridan yondashilgan holda boshqa fanlar bilan hamkorlikda tadqiqot olib boradi.

Fanning ilmiy-amaliy asoslari adabiyotlar ustida ishlash bilan chambarchas bog‘liq. Unga xos muammolarni tadqiq etish adabiyotlarni o‘rganishdan boshlanadi. Bunda tarixiy pedagogik, iqtisodiy adabiyotlar, arxiv hujjatlari, maorif, ta’lim-tarbiya, metodikaga oid, huquqiy hujjatlar, iqtisodiy ma’lumotlar, ilmiy jurnallar, boshqa mamlakatlarning tajribasini o‘rganish orqali amalga oshiriladi. Adabiyotlarni o‘rganish orqali insoniyat tomonidan bu borada nimalarga erishilgani o‘rganiladi, qanday hal etilmagan muammolar borligi aniqlanadi.

Fanni o‘rganishda qo‘llaniladigan yana bir metod **germenevtika**, ya’ni talqin qilish metodi hisoblanadi. Bu metod insonning tabiatini tushunishga yordam beradi.

Tarixdan o‘rganish bu faqat tarixni o‘rganish emas, tarixni yodda saqlash emas, balki undan yoshlarni iqtisodiy jihatdan tarbiyalashda qanday foydalansa bo‘ladi, degan nuqtai nazardan qarash ham tushiniladi.

Germenevtika fikrni, qarashlarni, yozilgan matnni sharhlash va uni talqin qilish tamoyillari haqidagi ta’limotdir. Talqin qilish – demak nimanidir mazmunini, mohiyatini ochib berishdir.

U voqea, hodisa, jarayonni fan uchun qanday ahamiyatga ega ekanligini tushuntirishni ifodalaydi. Nima sababdan inson faoliyatida zarurligini asoslab beradi.

Bu metod insonni, uni inson sifatida shakllanishi, uni har tomonlama rivojlanishi qonunlari ahamiyatini, mohiyatini o‘rganishga, anglashga, tushunishga imkon beradi.

Talqin qilish san’ati boshqa fanlarda sinalgan, o‘rganilgan bilimlardan pedagogik maqsadlarda foydalanishni ham o‘z ichiga oladi.

Iqtisodiyotni, uni mazmun-mohiyatini tushunib yetish metodlarini o‘rganish-da jamiyat, unda tarkib topgan munosabatlarni, yuz bergan voqea-hodisalar, ularning oqibatlariga diqqat qaratish muhim ahamiyatga ega. Chunki bosh tarbiyachi – alohida pedagog emas, balki jamiyat, umuman olganda bir butun hayotdir. Shuning uchun ham buyuk alloma **Abu Abdullo Rudakiyning:**

“Har kimki hayotdan olmasa ta’lim,

Saboq bera olmas hech bir muallim” degani bejiz emas.

U hamma uchun, qanday kasb egasi bo‘lishidan qat’iy nazar umumiy.

An’analar, axloqiy qoidalar, sotsial sharoit, siyosiy institut, diniy e’tiqodlar, tabiy, ta’lim-tarbiya jarayoniga kirib, turmush tarzi ta’siri natijasida yuz beradi, iqtisodiy tafakkur shakllanadi.

Jamiyat o‘sayotgan insonga qadriyatlar tizimi orqali ta’sir ko‘rsatadi, metodlar orqali uning ongiga singdiriladi.

Eksperiment metodi. Iqtisodiyotni o‘rganishda tajriba-sinov darslari va metodlarini qo‘llashni sinab ko‘ramiz. Natijasini tahlil qilib qaror qabul qilamiz.

1.4. Iqtisodchi-pedagoglarga qo‘yiladigan asosiy talablar.

Bilimdon, madaniyatli, ma’naviy yuksak mutaxassis kadrlarni tayyorlash, inson salohiyatini yuzaga chiqarish esa har jihatdan

ustozlarga, ularning bilimdonlik bilan o‘qitish jarayonini tashkil qilishi va dars berishiga bog‘liq. Ustozlik qilish sharafli, lekin nihoyatda mashaqqatli ish.

Ma’lumki, pedagog mehnati boshqa mehnat turlaridan o‘zining xususiyatlari bilan ajralib turadi:

1. U tabiatning eng buyuk mo‘jizasi bo‘lgan insonni o‘qitish va tarbiyalashga qaratilgan.

2. U o‘zida mutaxassis, pedagog, boshqaruvchi va tadqiqotchini bir butun holda mujassamlashtiradi.

3. O‘qituvchi **gapirib turib, o‘ylashni** bilishi kerak. O‘qituvchilik kasbining, mehnatining, mahoratining o‘ziga xosligi ham shunda. **Dars berishda fikrlash, o‘ylash va gapirish jarayoni qo‘shilib ketadi.** Avval o‘ylab olib, keyin so‘zlashga fursat bo‘lmaydi.

4. O‘qituvchining boshqaruvchilik faoliyati boshqa sohalardagi menejerlardan katta farq qiladi. O‘qituvchini boshqaruvchi sifatida o‘ziga xos tomoni shundaki, a) u har qanday muammoli vaziyatda yagona qaror qabul qiluvchidir. Demak, uning qanday qaror qabul qilishi nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Boshqarishning o‘zi turli-tuman chora-tadbirlarni ma’lum bir miqdor va nisbatda, zarur vaqt va ketma-ketlikda qo‘llash san’atidir; b) o‘qituvchidan o‘z hissiy holatlarini boshqara bilish talab etiladi.

Pedagogning o‘quvchi-talabalar bilan bo‘ladigan muloqoti, rasmiy xarakterga ega bo‘lganligi sababli u doimo ta’lim oluvchilarnigina emas, ota-onalar va jamoatchilik nazoratida ishlaydi. Bularning hammasi bo‘ladigan mashg‘ulotga o‘zini psixofizik nuqtai nazardan moslash, muloqot paytida o‘zininng hissiy holatlarini boshqara olishini talab qiladi;

d) o‘quv jarayoni, ayniqsa dars o‘tishda o‘quvchi-talabalarni boshqarishda, ularga axborotni yetkazishda o‘rganilayotgan mavzuning mazmunini yetkazishda mimika, pantomimika, ovoz ohangini o‘zgartirish, ko‘z qarashlari bilan ta’sir ko‘rsatish alohida o‘rin tutadi.[18] Uning nigohi doimo ta’lim oluvchilarda bo‘lib, ularni diqqat markazida ushlab turishga intilishi, shu bilan birga turli darajadagi bilimga, xohish va irodaga hamda tarbiyaga ega bo‘lgan o‘quvchi-talabalarni ajoyib san’atkor kabi o‘ziga ergashtira olishi zarur.

[18] Mimika – yuz muskullari orqali o‘z sezgisi, fikri, kayfiyatini ifodalash, pantomimika – bu gavda, qo‘l va oyoqlarning harakati.

5. O‘qituvchi loyihachi (rejalashtiruvchi), uni amalga oshiruvchi va baholovchini ham o‘zida gavdalantirishi bilan ajralib turadi. **Loyihalash malakasi** – bu ilmiy izlanishni yoki o‘quv-tarbiya jarayonini modellashtirishning intellektual jihatidir U o‘quv jarayonini samarali tashkil etishi uchun doimo darsni rejalashtirish, uni qanday amalga oshirish va baholashga diqqat qaratishi zarur. Buni Methods for teaching (O‘qitish metodlari) kitobi mualliflari alohida ta’kidlashadi.[19] O‘qituvchi loyihachi sifatida dars o‘tish loyihasini (rejasini), ya’ni texnologik xaritasini ishlab chiqadi. Uni dars jarayonida amalga oshiradi hamda baholaydi. Baholash bir tomondan ta’lim oluvchilarni baholash bo‘lsa, ikkinchi tomondan o‘z-o‘zini baholash, ya’ni o‘tilgan darsni ijobiy jihatlari va kamchiliklarini baholash tarzida kechadi. Muvofiq ravishda qaror qabul qiladi va bu jarayon uzluksiz davom etadi.

6. O‘qituvchining butun pedagogik faoliyati nazariya bilan tajribaning, fan bilan turmushning birligiga asoslanadi.

Ta’lim-tarbiya qarama-qarshiliklarni qamrab olgan murakkab jarayon. U bilmaslikdan bilishga, chala bilishdan to‘liq bilishga, predmetni, obyektiv dunyoni bilishdan uning mohiyati, bog‘lanish qonuniyatlarini o‘rganish jarayonidir. Pedagogik jarayonning maqsadi, faqatgina talabani tarbiyalash, o‘qitishni tashkil qilishdan iborat bo‘lmay, uning o‘qitish uslublarini va ulardagi barcha munosabatlar tizimini aniqlashdan iborat.

Bunday murakkab, mashaqqatli mehnat pedagogik adabiyotlarda ta’kidlanishicha, o‘qituvchidan birinchi navbatda quyidagilarni talab qiladi:

- Jismoniy va aqliy salomatlik;
- Yuksak axloqiy va insoniy fazilatlar;
- Kuchli va keng qamrovli bilim;
- Metodik mukammallik va sayqallangan kasbiy mahorat;
- Nutq madaniyati, notiqlik san’ati va imlo savodxonligi;
- Muttasil o‘z ustida ishlash, malakasini oshirish va boshqalar.

Uzluksiz ta’lim tizimini amalga oshirish jarayonida yosh avlodni ko‘ngildagidek o‘qitish va tarbiyalash haqida gap borar ekan, bunday g‘oyat murakkab va ko‘p qirrali vazifani faqat yuksak malaka va pedagogik mahoratga ega bo‘lgan o‘qituvchi kadrlar bilangina amalga oshirish mumkinligini hayot ko‘rsatib turibdi.

[19] Methods for teaching: promoting student learning in K–12 classrooms/David A. Jacobsen, Paul Eggen and Don Kauchak. – 8th ed, 2009. p.3.

Pedagogning shaxsiy fazilatlari uning ta’lim oluvchilar oldida obro‘sini belgilaydi, ta’lim berish va tarbiyalay olish mahoratiga ta’sir ko‘rsatadi.

O‘qituvchi maxsus pedagogik, psixologik va mutaxassislik ma’lumoti va metodik tayyorgarlikka, shuningdek, yuksak axloqiy fazilatlarga ega shaxs sanaladi.

Uzluksiz ta’lim tizimini amalga oshirish jarayonida yosh avlodni ko‘ngildagidek o‘qitish va tarbiyalash haqida gap borar ekan, bunday g‘oyat murakkab va ko‘p qirrali vazifani faqat yuksak malaka va pedagogik mahoratga ega bo‘lgan o‘qituvchi kadrlar bilangina amalga oshirish mumkinligini hayot ko‘rsatib turibdi.

Qadimgi mashhur yunon faylasuflaridan biri Aflotun, **agar kosib yomon usta bo‘lsa, bundan davlat juda katta narsa yo‘qotmaydi – faqat xalq yomonroq kiyinadi, xolos. Lekin yoshlar tarbiyachisi agarda o‘z vazifalarini yomon bajarsa, u holda mamlakatda nodon, johil, bilimsiz va axmoqlar toifasi vujudga keladi**, degan ekan.[20]

Mamlakatimizda ham o‘qituvchi kadrlarning ma’naviy qiyofasi, aqliy salohiyati hamda kasbiy mahoratiga nisbatan hozirgi kunning zaruriyatidan kelib chiqib, jiddiy talablar qo‘yilmoqda.

Pedagogik mahorat deganda – pedagogik jarayonni bilish, uni tashkil etish, uning yuqori darajada samaradorligini ta’minlagan holda amalga oshiruvchi shaxsning ish sifati va xislatlari sintezini tushunamiz.

Pedagogik mahorat tug‘ma talant yoki nasldan-naslga o‘tuvchi xususiyat emas, balki uning negizida izlanish va ijodiy mehnat yotadi, degan fikrlar mavjud. Bu fikrda jon bor, lekin unga tabiat tomonidan berilgan xislatlar ham nihoyatda muhim rol o‘ynaydi. Buyuk **faylasuf Suqrot** “Hamma kasblarni o‘rgansa bo‘ladi. Lekin uch kasb xudodan”– bular tabiblik (vrachlik), pedagoglik (o‘qituvchilik, muallimlik), sudhyalik (qozilik) degan ekan.[21] Chunki bu kasb egalari faqat o‘qish, o‘rganish tufayli emas, balki tabiatan unga ato qilingan fazilatlar orqali shu kasbni egallashadi va uni real hayotda muvaffaqiyatli qo‘llashadi. Bundan kelib chiqib, o‘qituvchining, pedagogning shaxsiy fazilatlarini ikki guruhga bo‘lishimiz mumkin: tabiy fazilatlar; tabiy fazilatlar asosida o‘qish, o‘rganish, tajriba to‘plash jarayonida orttirilgan xislatlar,

[20] www.dates.gnpbu.ru/2-7/ **Platon**/**platon**.html http://www.sno.pro1.ru/lib/jager/21.htm; http://www.filosense.ru/vzglyadi_platona_na_vospitanie-433.html. Из фундаментального сочинения Платона — «Государство»

[21] http://www.vest-news.ru/article/5481; *https://otvet.mail.ru/question/51142099*

qobiliyat. Pedagogning o‘quv-tarbiya jarayonida inson omiliga ta’sirini ta’minlovchi shaxsiy xislatlariga quyidagilar kiradi

Pedagog uchun zarur xislatlar



Pedagogning shaxsiy fazilatlari, xislatlari uning ta’lim oluvchilar oldida obro‘sini belgilaydi, ta’lim berish va tarbiyalay olish mahoratiga ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun ham pedagogik mahorat hamma o‘qituvchilar uchun standart, ya’ni bir qolipdagi ish usuli emas, balki u har bir o‘qituvchining tabiat bergan fazilatlaridan, xislatlaridan kelib chiqib, o‘z ustida ishlashi, ijodiy mehnati jarayonida tashkil topadi va rivojlanadi. Zamonaviy talab darajasida bilim berish uchun, avvalo murabbiyning o‘zi ana shunday bilimga ega bo‘lishi kerak. **Bu birinchi mezon.**

Yetarlicha bilim qay darajadagi bilim? Amerikalik olimlarni fikricha, bilmaganingdan boshqasini o‘qitishing mumkin, degan fikr uzoq vaqt hukm surgan. (Uni “Mulla bilganini o‘qir” – degan o‘zbek xalq maqoli juda chiroyli ifodalaydi). Hamda savolga javob tariqasida bu daraja fanni o‘qitish uchun siz sarflagan soatlarga asoslanadi, degan fikr bildiriladi. Lekin Rudolf Dreykursning fikricha, predmetni bilish yetarli emas. Bundan tashqari murakkab, qiyin fikr, g‘oyalarni mazmun-mohiyatini anglash, ularni tushunarli mavzuga aylantirishni bilish kerak.[22]

[22] Methods for teaching: promoting student learning in K–12 classrooms / David A.Jacobsen, Paul Eggen and Don Kauchak.—8th ed, 2009. P.3.

O‘qituvchi uchun **ikkinchi mezon** – pedagogik bilim. U o‘z ichiga bilishga oid sohalarni o‘rganish darajasi, o‘quv maqsadi va boshqa maqsadlarni qo‘ya bilish, darsni rejalashtirish, (loyihalashtirish), qo‘llaniladigan metodlarni aniqlash, vaqt taqsimotini belgilash, muammoli savollar qo‘yish, bajariladigan ishlar tartib-qoidalarini ishlab chiqish hamda testlar va boshqa topshiriqlar tayyorlashni oladi.

Uchinchi mezon, o‘qitish, o‘rgatish ko‘nikmasi bo‘lib, qanday strategiya, usullar, metodlar, topshiriqlar yordamida o‘quvchi-talabalarni fanni o‘rganishga jalb eta olishi.

Shuning uchun ham AQSHda **ta’lim sifatini oshirishga o‘qituvchilarning bilimi, ko‘nikma, malakasini oshirish orqali erishishga** hamda o‘qituvchilarning professional kompetentliligini baholashga diqqat qaratildi. Bunda 1987-yili tashkil etilgan ikki yetakchi tashkilot Pedagoglarning professional standartlari bo‘yicha Milliy kengash (**National Board for Professional Teaching Standards** – (NBPTS) va Yosh (boshlovchi) o‘qituvchilarni baholash va qo‘llab-quvvatlash hududlararo konsorsiumi (**Interstate New Teacher Assessment and Support Consortium** – (INTASC) alohida o‘rin egallaydi. Ular birgalikda pedagoglarning milliy standartlarini hamda ularning ana shu qo‘yilgan talablarga muvofiqligini baholash tizimini ishlab chiqishdi.[23]

AQSHda ikki: O‘qituvchilar Akkreditatsiyasi bo‘yicha Milliy Kengash (**National Council for Accreditation of Teacher Education and** (NCATE) hamda O‘qituvchi ma’lumoti bo‘yicha Akkreditatsiyasi Kengashi (**Teacher Education Accreditation Council** (TEAC) standartlarni ishlab chiqildi. Bu standartlar asosida ular tomonidan akkreditatsiyadan o‘tgan tashkilotlar o‘qituvchilarning kompetentlik darajasini aniqlaydilar, malakalarini oshirishga yordam beradilar hamda ularning bilimi, ko‘nikmasi va malakasi darajasi o‘quvchi-talabalarni o‘qitishga yetarli ekanini jamiyat oldida kafolatlaydi.

Respublikamizda ham global miqyosdagi o‘zgarishlar hamda barcha masalalar ko‘p jihatdan kadrlarga borib taqalishini hisobga olib, rivojlangan mamlakatlar va o‘z tajribamizdan kelib chiqib, ta’lim tizimining sifatini oshirishda o‘qituvchilar, ularning bilim va mahorati asosiy rol o‘ynashini nazarda tutib, ularning zamon talablariga javob

[23] Methods for teaching: promoting student learning in K–12 classrooms/David A.Jacobsen, Paul Eggen and Don Kauchak.—8th ed, 2009. P. 24

berishi va uning darajasini aniqlash zarurligi, buning uchun muvofiq ravishda uning mezonlarini ishlab chiqishga diqqat-e'tibor qaratildi

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 28-dekabrdagi 365-sonli "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim hamda oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 2-martdagi 36-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Magistratura to'g'risida"gi nizom, 16-fevral 2017-yil O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PF-4958-sonli farmoni va boshqa me'yoriy hujjatlar aynan ana shu *maqsad-vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan.*

Qo'yilgan talablarni iqtisodiy fanlardan dars beruvch o'qituvchilarga nisbatan qo'llasak, iqtisodchi-pedagog qanday bo'lishi kerakligini XX asrning buyuk iqtisodchisi Jon Meynard Keynsdan ko'ra hech kim yaxshiroq tasvirlay olmagan: **Talantli yoki oddiy bilimdon iqtisodchilar eng kamyob zotlar bo'lishadi. Predmet yengil, lekin unda muvaffaqiyat qozonganlar sanoqli. Paradoks shundaki, ya'ni uni shunday dalil bilan izohlash mumkinki, iqtisodchi-pedagog iste'dodning kamyob kombinatsiyasi egasi bo'lishi kerak. U juda kam hollarda birga qo'shilishi mumkin bo'lgan bir qancha sohada o'z qobiliyati bilan yetuk darajaga erishgan bo'lishi lozim. U matematik, tarixchi, davlat odami, faylasuf, psixolog, pedagog … bo'lishi, simvollar tilini bilishi, o'z fikrini aniq terminlar, tushunchalar orqali ifodalay bilishi kerak. U xususiylikda umumiylikni ko'ra bilishi, bir vaqtning o'zida abstraktlik bilan aniqlikni esida saqlashi zarur. U hozirni kelajak uchun o'tgan davr nigohidan o'rganishni bilishi kerak.** [24] Biz yana bunga u iqtisodni sevishi, uni raqamlar jilosida ko'ra bilishi, vaziyatni tahlil qilish, muqobil variantlar orasidan eng maqbulini tanlash, qaror qabul qilishni o'z o'quvchi talabalari ongiga yetkazishni uddalashi kerak, deya qo'shib qo'yamiz.

Respublikamiz Prezidenti SH.Mirziyoevning 2017-yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha "Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni o'qituvchilar mas'uliyatini yanada oshiradi. Farmonning mazmun-mohiyatini o'quvchi-talabalar ongiga yetkazibgina qolmay, uni amalga oshirilishini ta'minlash va bu yo'lda

[24] economics.studio/...istoriya/predislovie-85732.html.

shaxdam harakat qilish, qadam tashlashga yo‘naltirishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Takrorlash va munozara uchun savollar:

1. Mamlakatimizda kadrlar tayyorlashning milliy modeli va konseptual asosi nimalardan iboratligini aytib bera olasizmi?
2. Nima sababdan global miqyosda ta’limga diqqat-e’tibor qaratilmoqda?
3. Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi fani nimani o‘rganadi? Fanning maqsadi va vazifalarini ko‘rsating. Iqtisodiy fanlarni o‘qitish metodikasi qanday o‘rin tutadi?
4. Metodika deganda nimani tushunamiz? Metodlarning obyektiv va subyektiv jihatlarini ta’riflang.
5. Metodlarga turli jihatdan yondashish nuqtai nazaridan ularni qanday guruhlarga bo‘lish mumkin?
6. O‘quv jarayonini tashkil etishning asosiy shakllari qaysilari, ular qaysi jihatlari bilan farqlanadi?
7. Ta’lim strategiyasi deganda nimani tushunasiz? U dars o‘tish metodlari bilan qanday bog‘liq?
8. Didaktikaning asosiy tamoyillari nimalar?
9. O‘qitish jarayonining obyektiv va subyektiv jihatlarini ko‘rsating.
10. Dars jarayonida o‘qituvchining roli, iqtisodiy fanlardan dars beradigan o‘qituvchilariga qo‘yiladigan talablarni gapirib bering. Sizningcha, o‘qituvchiga yana qanday talablar qo‘yilishi kerak?

II BOB. MUTAXASSIS KADRLARGA QO‘YILADIGAN TALABLAR VA UNING HUQUQIY-ME’YORIY HAMDA O‘QUV-METODIK HUJJATLARDA AKS ETISHI

Jamiyat taraqqiyoti, fan-texnikaning rivojlanishi borgan sari ko‘proq murakkab mehnatni talab qilibgina qolmay, uning sifatini ham yuqori darajada bo‘lishini talab qiladi. Demak, tayyorlanayotgan mutaxassis kadrlarning bilimi, ko‘nikmasi, malakasini nafaqat miqdor, balki sifat jihatdan ham kafolatlanishini buning uchun esa ta’lim jarayonini ilg‘or jahon tajribasidan kelib chiqqan holda tashkil etishni taqozo qiladi.

Ta’limning rivojlanishida davlatning tanlagan yo‘li muhim ahamiyatga ega. Aynan qabul qilingan huquqiy hujjatlarda davlatning ta’limga qay darajada diqqat-e’tibor qaratishi aks etadi. Mazkur bobda qo‘yilgan maqsadga qanday erishishning huquqiy-me’yoriy asoslari va o‘quv-metodik hujjatlarning tutgan o‘rni va ahamiyatini o‘rganamiz.

2.1. Kadrlar tayyorlash tizimining bozor iqtisodiyoti talablariga moslashish zaruriyati. Ta’limda menejment va marketing

Hozir mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy raqobat avval ta’kidlab o‘tganimizdek – fan, texnika va texnologiya sohasidagi raqobatga aylandi. Demak, raqobat intellektual mohiyat kasb etib, ta’lim sohasidagi raqobatga aylandi.

Bir tomondan, fan-texnika taraqqiyoti ta’lim tizimida ham tub o‘zgarishlarni zaruriyatga aylantirgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, bozor iqtisodiyoti qonunlari tayyorlanayotgan kadrlarni ham miqdor, ham sifat jihatdan bozor talablariga mos bo‘lishini zaruriyatga aylantiradi. Bu o‘z navbatida mamlakatimizdagi barcha sohalar kabi ta’lim sohasini ham isloh qilish zaruratini keltirib chiqardi.

1997-yili “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun[25] va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi qabul qilindi hamda qabul qilingan huquqiy hujjatlar asosida ta’lim tizimini isloh qilishga kirishildi. Shu yillar davomida qator huquqiy va me’yoriy hujjatlar qabul qilindi[26]. Chunonchi,

[25] O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 1997. 9-son. 225-modda. 2013. 41-son. 543-modda.

[26] O‘zbekiston Respublikasining «Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi qonunining **2-moddasida** normativ-huquqiy hujjat tushunchasiga quyidagicha ta’rif beriladi: **“**Ushbu Qonunda belgilangan shaklda qabul qilingan, umummajburiy davlat ko‘rsatmalari sifatida qonun hujjatlari normalarini belgilash, o‘zgartirish yoki bekor qilishga qaratilgan rasmiy hujjat normativ-huquqiy hujjat deb hisoblanadi”.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 5-yanvardagi “Uzluksiz ta’lim tizimi uchun davlat ta’lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish to‘g‘risida”gi 5-sonli qarori, 1998-yil 5-yanvardagi “Uzluksiz ta’lim tizimini darsliklar va o‘quv adabiyotlari bilan ta’minlashni takomillashtirish to‘g‘risida”gi 4-sonli qarori, 2001-yil 16-avgustdagi “Oliy ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 343-sonli qarori, 2006-yil 10-fevraldagi “Oliy ta’lim muassasasiga pedagoglarni tanlov asosida ishga qabul qilish tartibi to‘g‘risida”gi nizomni tasdiqlash xususidagi 20-sonli qarori, 2012-yil 26-sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 278-sonli qarori, 2015-yil 10-yanvardagi “Oliy ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida” 2001-yil 16-avgustdagi 343-sonli qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi 3-sonli qarori va boshqalar. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 20-maydagi “Oliy ta’lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–1533-sonli qarori, 2012-yil 24-iyuldagi “Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash va attestatsiyadan o‘tkazish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF–4456-sonli farmoni va boshqalarni ko‘rsatish mumkin.

2006-yili “O‘zbekiston Respublikasi ta’lim muasssasalarini davlat akkreditatsiyasidan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilindi (2011-, 2012-yillari o‘zgartirishlar kiritildi).

Qabul qilingan Nizom O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunining 6 va 25-moddalariga muvofiq idoraviy mansubligi va mulkchilik shaklidan qat’iy nazar, O‘zbekiston Respublikasi hududida faoliyat ko‘rsatayotgan maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar, oliy, kadrlar malakasini oshirish va

---

Quyidagilar normativ-huquqiy hujjatlar hisoblanadi:
a) O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
b) O‘zbekiston Respublikasining qonunlari;
d) O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari;
e) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari;
f) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari;
g) vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarining hujjatlari;
h) mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari.

Normativ-huquqiy hujjatlar qonun hujjatlari hisoblanadi va ular O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari majmuini tashkil qiladi.

ularni qayta tayyorlash ta’lim muassasalarini davlat akkreditatsiyasidan o‘tkazish tartibini belgilab berdi.

2009-yili esa O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining “O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi buyrug‘i e’lon qilindi (2013-yili o‘zgartirishlar kiritildi).[27]

Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida” va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida”gi qonunlari va Oliy ta’limning Davlat ta’lim standartiga muvofiq oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasini o‘tkazish tartibini belgilab berdi.

Shuningdek, “Oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to‘g‘risida”gi nizom. “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalari talabalarining malakaviy amaliyoti to‘g‘risida”gi nizom. “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi to‘g‘risida”gi nizom. Oliy ta’lim muassasalarida mustaqil ta’limni tashkil etish tartibi to‘g‘risida”gi nizom. “Magistratura to‘g‘risida”gi nizom. “Ochiq leksiyalarni tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi nizom va boshqa qator me’yoriy hujjatlar qabul qilindi.

O‘tgan yillar mobaynida mamlakatimizda ta’lim tizimini isloh qilish, kasb-hunar ta’limini rivojlantirish, ta’lim jarayonini modernizatsiyalash va mazmunini yangilashni ta’minlash maqsadida uning huquqiy bazasini mustahkamlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi, iqtidorli yoshlarning xalqaro va respublika olimpiadalari hamda tanlovlarda salmoqli natijalarga erishishlarida ularni manzilli qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qator tizimli chora-tadbirlar ko‘rildi.

Taraqqiyotni ta’minlashning dvigateli sifatida hamda barcha masalalarning yechimi kadrlarga, ularning bilimi, salohiyati, o‘z vaqtida zarur qaror qabul qilishiga bog‘liqligi, jamiyat ehtiyojiga muvofiq kadrlar tayyorlash ko‘p jihatdan tizimning huquqiy-me’yoriy asoslarini yaratilishiga bog‘liq. Chunki, ko‘zda tutilgan maqsad ularga asoslangan holda amalga oshiriladi.

Hozirda zamon nihoyatda shiddatli voqea, hodisalarga boy, bilimlar tez eskirib borayotgani, bozor talablari tez o‘zgarishi ta’lim tizimini tezda takomillashtirish, buning uchun tezlik bilan mos ravishda yangi

[27] O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2009. 23-son. 267-modda. 2015. 44-son. 571-modda.

huquqiy-me’yoriy hujjatlarni qabul qilish hamda zaruriy o‘zgartirishlar kiritishni obyektiv zaruriyatga aylantiradi.

Shuning uchun bu masalaga respublikamizda alohida diqqat qaratilmoqda. Chunonchi, ta’lim tizimini takomillashtirishda rahbar hamda pedagog kadrlarninig naqadar muhim rol o‘ynashini inobatga olib, oliy o‘quv yurtlari professor-o‘qituvchilarining kasb darajasi va malakasini muttasil oshirib borish, ularni zamonaviy talablarga muvofiq muntazam qayta tayyorlashning takomillashtirilgan tizimini joriy etish asosida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 12-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–4732-sonli farmoni e’lon qilindi. Farmonning ijrosini ta’minlash natijasida bu sohada kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishning tubdan yangilangan tizimi shakllantirildi.[28]

Ta’kidlash joizki, 2011–2016-yillarda Oliy ta’lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari dasturini amalga oshirish doirasida 25 ta oliy ta’lim muassasasining 202 ta obyektida yangi qurilish, kapital ta’mirlash va rekonstruksiya ishlari bajarildi. Iqtisodiyotning real sektori talablaridan kelib chiqib, muhandislik, ishlab chiqarish va qurilish yo‘nalishlari va ixtisosliklari bo‘yicha o‘qishga qabul qilish, uning umumiy soniga nisbatan 23 foizdan 33,2 foizga oshdi. Oliy ta’lim sohasida mutaxassislar tayyorlash, shuningdek, pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo‘yicha yangilangan davlat oliy ta’lim standartlari va o‘quv dasturlari joriy qilindi. [29]

Shu bilan birga chuqur tahlil natijalari ta’lim tizimida erishilgan yutuqlar bilan bir qatorda umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi rivojlanishi tizimning bugungi kun talablariga javob bermasligi va tub islohotlarga muhtojligini ko‘rsatdi. Ularni hisobga olgan holda hamda jamoatchilik, ota-onalar va 9-sinflar bitiruvchilari tomonidan keng qo‘llab-quvvatlanishi, muvofiq ravishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-martdagi “O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi

[28] O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2015. 24-son. 312-modda. 2016. 48-son. 548-modda

[29] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909 qarori. Toshkent. 2017. 1 b.

muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori asosida 2017/2018 o‘quv yilidan boshlab 11 yillik majburiy umumiy o‘rta ta’lim tizimiga o‘tildi.

2018-yil 25-yanvarda qabul qilingan “Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-5313-sonli farmoni kadrlar tayyorlashda mazkur muassasalarning o‘rnini belgilash imkonini beradi.

2018/2019 o‘quv yilidan boshlab majburiy umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim umumta’lim maktablarida, shu jumladan, ixtisoslash-tirilgan maktablarda, ixtisoslashtirilgan san’at va madaniyat maktab-internatlarida, ixtisoslashtirilgan olimpiya zaxiralari maktab-internatlarida hamda akademik litseylarda uzluksiz va 11 yillik ta’lim;

2019/2020 o‘quv yilidan boshlab kasb-hunar kollejlariga o‘qishga qabul qilish umumta’lim maktablarining 11-sinflari bitiruvchilari hisobidan, ixtiyoriylik asosida, tegishli mutaxassislikka (kasbga) ega bo‘lish uchun 6 oydan 2 yilgacha bo‘lgan o‘qitish muddatlarida amalga oshiriladigan bo‘ldi.

Prezidentimizning bevosita tashabbusi bilan umumiy o‘rta ta’limda 11 yillik ta’lim tizimi joriy etilishi, kasb-hunar ta’limi tizimini rivojlantirishning yangi mexanizmlari ishlab chiqilayotgani, oliy ta’lim tizimida zamon, bozor talablariga mos malakali kadrlar tayyorlash masalasini tubdan qayta ko‘rib chiqishga olib keldi.

Prezidentimizning 2016-yil 8-oktabrdagi F-4724-sonli farmoyishi bilan tashkil qilingan Ishchi guruh tomonidan oliy ta’lim tizimidagi holatni o‘rganish natijalariga ko‘ra, bir qator oliy ta’lim muassasalarida hali ham ilmiy-pedagogik salohiyatning pastligi, ta’lim jarayonlarini axborot-uslubiy va o‘quv adabiyotlari bilan ta’minlash zamonaviy talablarga javob bermasligi, ularning moddiy-texnika bazasini tizimli yangilashga ehtiyoj mavjudligi aniqlangani;

Oliy ta’lim tizimida o‘z yo‘nalishlari bo‘yicha dunyoning yetakchi ilmiy-ta’lim muassasalari bilan yaqin hamkorlik aloqalari o‘rnatish, o‘quv jarayoniga ilg‘or xorijiy tajribalarini joriy etish, ayniqsa, istiqbolli pedagog va ilmiy kadrlarni xorijning yetakchi ilmiy-ta’lim muassasalarida stajirovkadan o‘tkazish va malakasini oshirish borasidagi ishlar yetarli darajada olib borilmayotgani 2017-yil 20-aprelda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909 qarorida ham aks ettirildi. Keyingi bir yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

va Vazirlar Mahkamasining yetmishga yaqin qaror, farmon va farmoyishlari qabul qilindi. Bu tom ma’noda ta’lim tizimidagi o‘zgarishlar va yangilanishlar jarayonini boshlab berdi.

Bu qaror uzluksiz ta’lim tizimini rivojlantirish, mamlakatimizning izchil rivojlanib borayotgan iqtisodiyotini yuqori malakali kadrlar bilan ta’minlash, barcha hududlar va tarmoqlarni strategik jihatdan kompleks rivojlantirish masalalarini hal qilish borasida oliy ta’lim tizimi ishtirokini kengaytirish yo‘lidagi yana bir muhim amaliy qadam bo‘ldi.

Prezidentimizning 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonida ijtimoiy soha, xususan, ta’lim va ilm-fan sohalarini rivojlantirish, ilg‘or xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar oliy ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish, malakali kadrlar tayyorlash uchun shart-sharoitlar yaratish, bitiruvchilarning bandligini ta’minlash, shuningdek, 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirish, xususan ta’lim tizimini yanada takomillashtirish borasida bir qator vazifalar belgilangan edi. Bu vazifalarni amalga oshirish kelajakda erishishimiz lozim bo‘lgan buyuk maqsadlarga yetish uchun sifat va miqdor jihatidan talabga javob beradigan yuqori malakali kadrlar tayyorlashga qaratilgan.

Iqtisodiyotdagi tarkibiy o‘zgarishlar, uni modernizatsiya qilish va diversifikatsiyalash o‘z navbatida, birinchidan, ishchi malakasi, mahoratining yuqori bo‘lishi, mehnat bozori talabiga moslashuvchan bo‘lishini talab etadi. Ikkinchidan, kadrlarning barcha tarmoq va sohalardagi miqdori talabga mos bo‘lishi, ya’ni mutaxassislar soni talab darajasida bo‘lishini taqozo etadi.

Demak, yosh mutaxassislarni ixtisoslik yo‘nalishlari bo‘yicha iqtisodiyotimizning soha va tarmoqlaridagi amaliy talabga qarab tayyorlash, litsey va kollejlar, oliy o‘quv yurtlarini bitirib chiqayotgan yoshlarni jamiyatda o‘ziga, o‘z kasbiga munosib o‘rin topishiga diqqat qaratish lozim.

Buni hisobga olgan holda mutaxassislarga talabni o‘rganish, uni asosida kadrlar tayyorlashni iloji boricha talab darajasiga yaqinlashtirish uchun chora-tadbirlar belgilandi

Marketing tadqiqotlari asosida mamlakatimizni barqaror taraqqiy toptirish hamda modernizatsiya qilish sharoitida kadrlar tayyorlashning hozirgi holati o‘rganiladi va ularning ixtisoslashuvida tarkibiy

o‘zgarishlar amalga oshirib boriladi. O‘quvchi-talabalar soni talabga mos bo‘lishi va bitiruvchilarni ish bilan ta’minlanishiga alohida ahamiyat berilmoqda.

Ma’lumki, har bir oliy o‘quv yurtida marketing bo‘limlari tashkil etilgan bo‘lib, ular tayyorlangan mutaxassis kadrlarning ishga joylashishi, so‘rovnoma, savolnoma va boshqalar asosida mehnat bozorining talabini o‘rganib, mutaxassis kadrlar tayyorlash haqida o‘z takliflarini ishlab chiqadilar. Yig‘ilgan ma’lumotlar, axborotlar asosida oily ma’lumotli kadrlar tayyorlash miqdori, tarkibi bo‘yicha takliflar tayyorlanadi. Ular muhokama qilinib, umumiy xulosa chiqariladi va qaror qabul qilinadi. U qabul kvotasi bo‘yicha Prezident qarorida aks etadi. Keyingi yillarda oliy ta’limda ixtisoslashuv ishchi kuchi tarkibiga bo‘lgan bozor talabini hisobga olgan holda yondashishga diqqat qaratildi. Uni quyidagi jadval ma’lumotlaridan ham ko‘rish mumkin.

1-jadval

Ta’lim sohalari bo‘yicha oliy ta’lim muassasalarini bitirgan mutaxassislar (ming kishi) tarkibi dinamikasi[30]

	YILLAR								2016-yili 2010-yilga nisbatan, %da
	2010	**2011**	**2012**	**2013**	**2014**	**2015**	**2016**	**2017**	
Jami	76,4	86,3	60,9	63,1	67,6	66,3	**64,1**	**68.4**	**89,5**
Shu jumladan:									
Gumanitar soha	**45,7**	**46,7**	**29,0**	**30,0**	**31,1**	**30,8**	**29,1**	**29,4**	**64,1**
Ijtimoiy soha	**0,9**	**0,9**	**0,7**	**0,9**	**0,8**	**0,7**	**0,7**		
Iqtisod	**6,9**	**7,6**	**8,7**	**7,8**	**8,4**	**7,0**	**6,8**	**7,9***	**92,8***
Huquq	0,8	0,7	1,2	1,0	1,1	0,9	**0,8**		
Ishlab chiqarish va texnik soha	10,3	15,7	11,7	13,0	14,8	16,5	**16,4**	**19,1**	**185,4**
Qishloq xo‘jaligi	3,5	4,0	3,8	4,0	4,4	**4,5**	**4,5**	**5,0**	**142,8**
Sog‘liqni saqlash	3,9	4,3	3,5	3,4	4,2	**3,1**	**3,1**	**3,4****	**80,9****
Ijtimoiy ta’minot	0,3	0,5	0,2	0,1	0,1	**0,1**	**0,1**		
Xizmatlar sohasi	4,1	5,9	2,3	2,9	2,8	**2,7**	**2,6**	**3,6**	**87.8**

Izoh: * Ijtimoiy soha, iqtisod, huquq birgalikda;

** Sog‘liqni saqlash, ijtimoiy ta’minot birgalikda

[30] O‘zbekistonda ta’lim. T. 2015. 207 b; 2017. 197 b. O‘zbekiston Respublikasining statistik axborotnomasi. 2017. Yanvar-dekabr. Ta’lim: 173-187-betlar..

Jadval ma’lumotlariga nazar solsak, oily ta’lim muassasalarini bitiruvchilar 2010-yili 76.4 ming kishini tashkil etgan bo‘lsa, 2011-yili eng ko‘p 86,3 ming kishini, 2012-yili esa eng kam 60,9 ming kishini 2017-yilga kelib, 68,4 ming kishi bitirgan. Tayyorlangan mutaxassislarning gumanitar sohadagi ulushi jamiga nisbatan shu yillar davomida 59,8 %dan 2017-yili 49,8 %ga tushdi, yoki 2010-yilga nisbatan 64,1 %ni tashkil qildi. Ishlab chiqarish va texnik soha aksincha, ulushi ortib 185,4 %ga o‘sdi. Ijtimoiy soha, iqtisodiyot va huquq sohasi ulushi bo‘yicha uchinchi o‘rinda turgani holda ulushi kamayib, tayyorlangan kadrlar 2010-yilga nisbatan 92,8 %ni tashkil etdi. Mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq uzluksiz ta’lim tizimini takomillashtirish va zamon talablariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ta’lim xizmatlarining ochiqligi, shaffofligi va sifati masalalariga davlat tomonidan alohida e’tibor qaratilmoqda.

2017-2021-yillarda oliy ta’lim tizimini kompleks rivojlantirish dasturi qabul qilindi. Yangi tashkil etilgan institut va filiallar hisobidan yurtimizdagi oliy ta’lim muassasalari soni 81taga, xorijiy universitetlar filiallari 7taga yetdi. Shular qatorida Olmaliq shahrida Moskva po‘lat va qotishmalar institutining, Toshkent shahrida esa AQSHning Vebster universitetining filiallarini tashkil etish bo‘yicha kelishuvlarga erishildi. Oliy ta’lim muassasalarida iqtisodiyotning real sektoridagi talab va ehtiyojdan kelib chiqib, sirtqi va kechki bo‘limlar ochildi

Qarorning muhim ahamiyatini ko‘rsatadigan yana bir jihat shundan iboratki, mamlakatimiz Prezidenti tomonidan har bir oliy ta’lim muassasasi bo‘yicha quyidagi konkret parametr va ko‘rsatkichlarni o‘z ichiga olgan manzilli rivojlantirish dasturlari tasdiqlandi. Oliy ta’lim tizimida yangi ta’lim ixtisoslik yo‘nalishlari va mutaxassisliklarning, shuningdek, iqtisodiyot sohalari va hududlarni kompleks rivojlan-tirishning joriy va istiqboldagi ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqilgan va bakalavriat va magistraturaga talabalar qabul qilishning umumiy ko‘rsatkichlarini 2021-yilgacha bosqichma-bosqich 18 foizgacha oshirish nazarda tutadigan 2017-2021-yillarga mo‘ljallangan parametr va ko‘rsatkichlari (2-jadval) ishlab chiqildi.

2-jadval ma’lumotlari ko‘rsatib turibdiki, 2016–2021-yillar davomida oliy ta’lim tizimida tayyorlanadigan jami mutaxassislar 18,4 % ga o‘sadi. Shu bilan birga borgan sari talab ortib borayotgan xizmatlar sohasida deyarli 4 %ga ortadi. Shuningdek, qishloq va suv xo‘jaligi, ishlab chiqarish va texnik sohada oliy ma’lumotli

mutaxassislar tayyorlash muvofiq ravishda 38,5 va 32,8 foizga ko‘paytiriladi. Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy ta’minot 25,7 %ga ortadi. Aksincha, ijtimoiy soha, iqtisod va huquq yo‘nalishlarining kadrlar bilan to‘yinish daradjasini hisobga olgan holda soha uchun oliy ma’lumotli kadrlar tayyorlash miqdori 8,6 foizga qisqaradi.

2-jadval

2017-2021-yillar davomida oliy ta’limda mutaxassislar tayyorlash prognozi

Bilim sohasining nomi	**Yillar**						**2016-yilga nisbatan o‘sishi, %**
	2016	**2017**	**2018**	**2019**	**2020**	**2021**	
Jami	57532	66166	66877	67050	67724	68140	18,4
Gumanitar soha	23762	27318	25084	24723	24507	24589	3,5
Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq	3835	3813	3648	3617	3572	3507	-8,6
Ishlab chiqarish va texnik soha	19085	22652	24100	24406	25030	25340	32,8
Qishloq va suv xo‘jaligi	5380	6402	7174	7259	7408	7450	38,5
Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy ta’minot	2780	2899	3235	3380	3460	3495	25,7
Xizmatlar sohasi	2690	3082	3636	3665	3747	3759	39,7

Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlashning maqsadli parametrlarini shakllantirish, oliy ta’lim muassasalarida o‘qitish yo‘nalishlari va mutaxassisliklarini istiqbolda mintaqalar va iqtisodiyot tarmoqlarini kompleks rivojlantirish, amalga oshirila-yotgan hududiy va tarmoq dasturlarining talabalarini inobatga olgan holda optimallashtirish mo‘ljallangan.

Shu yillar davomida ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash: o‘quv binolari, talabalar turar-joylari, axborot-resurs markazlari va boshqa obyektlarni sport inshootlari, ijtimoiy-muhandislik infratuzilmasi obyektlarini qurish, rekonstruktsiya qilish va kapital ta’mirlash, oliy ta’lim ilm-fanining ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-ilmiy laboratoriyalarini zamonaviy asbob va uskunalar bilan jihozlash orqali yanada mustahkamlash, auditori-yalarni kompyuter texnikasi bilan jihozlash, o‘quv adabiyotlari bilan o‘quv-metodik qo‘llanmalar bilan ta’minlash nazarda tutilgan.

Shuningdek, professor-o‘qituvchilarning kasb mahoratini oshirish, o‘quv dasturlarini yanada takomillashtirish, pullik xizmatlar ko‘rsatish va moliyalashtirishning qo‘shimcha manbalarini izlashda oliy o‘quv yurtlarining vakolatlarini kengaytirish yo‘li bilan ularning mustaqilligi bosqichma-bosqich rivojlantirilib borilishi ko‘zda tutilgan.

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish tarmoqlari uchun muhandis-texnik kadrlar tayyorlash sifatini tubdan oshirish, ixtisoslashgan oliy ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi va ilmiy-texnik salohiyatini yanada mustahkamlash, ta’lim jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, ilmiy-pedagog kadrlar va mutaxassislarning tizimli ravishda malakasini oshirish hamda qayta tayyorlashni tashkil etish maqsadida 2017-yil 24 mayda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qishloq va suv xo‘jaligi tarmoqlari uchun muxandis-texnik kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-3003 qarori;[31]

Respublikamiz hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali kadrlarni o‘z vaqtida zarur ixtisosliklar bo‘yicha iqtisodiyot sohalari va tarmoqlari ehtiyojidan kelib chiqqan holda tayyorlash, oliy ta’lim mazmunini bevosita korxonalar, muassasalardagi texnika, texnologiya, ishlab chiqarish munosabatlariga hamda istiqbolli rivojlanish dasturlariga muvofiq shakllantirish, kadrlarni egallagan kasbi va mutaxassisligi bo‘yicha ishga joylashtirishga doir qator dolzarb masalalarni yyechishga qaratilgan “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarning ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017-yil 27 iyuldagi PQ-3151 qarori;[32]

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Istiqbolli yosh pedagog va ilmiy kadrlarning malakasini oshirish “Iste’dod” jamg‘armasi faoliyatini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 2017-yil 27 iyuldagi PF-5121 farmoni[33] va boshqa qator huquqiy hujjatlar aynan mamlakatimizda ta’lim sifatini yanada yuqori bosqichlarga ko‘tarishga qaratilgan.

Hozirgi kun korxona, tashkilotlarning butun faoliyati ilmiy-texnik, ishlab chiqarish, realizatsiya qilish iste’molchi talabiga, uning kelajakdagi o‘zgarishiga mos bo‘lishi zarurligini talab qilayapti. Shu

[31] *O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 22-son, 421-modda*
[32] *O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 30-son, 729-modda*
[33] *O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 30-son, 723-modda*

sababli ta’lim muassasalarining faoliyati beqarorlikning o‘sishi, tashqi sharoitlarning noaniqligini ortishi, ta’lim xizmatlari bozorida raqobatning kuchayishi, ta’limga byudjetdan tashqari mablag‘larning hajmi oshib borayotgani bilan xarakterlanadi. Shuning uchun muvaffaqiyatli faoliyat olib borayotgan kompaniya uning katta-kichikligidan, qaysi sohaga tegishli ekanidan qat’iy nazar aynan xaridor sifatida diqqat markazida turadi. Marketing xizmatlari axborotning asosiy manbalaridan foydalangan holda yiqqan ma’lumotlarini tahlil qilish asosida korxonaning bo‘limlariga ularni qiziqtiradigan axborotlarni jo‘natadilar.

Ta’lim xizmatlari iste’molchining faol qatnashishini, uning manfaat-dorligini, unga murojaat qilishning motivatsiyaliligini talab qiladi. Bunda nafaqat davlat, balki oliy o‘quv yurtining marketing siyosati muhim rol o‘ynaydi. Iste’molchilar bilan ta’lim xizmati ko‘rsatish jarayonidagina emas, balki bitiruvchining oliy ta’lim muassasani bitirgandan so‘ng ham hamkorlik qilishi muhim ahamiyatga ega.

Bozor iqtisodiyoti ananaviy menejmentdan marketing menejmentiga o‘tishni talab qilmoqda.

Marketing menejmenti:

- iqtisodiyotdagi yuqori sur’atdagi o‘zgarishlar bilan ta’lim tizimi taraqqiyotining past sur’atlari o‘rtasidagi;

- ta’lim xizmatlari ko‘rsatish muassasalarining taklifi bilan ularga bo‘lgan talab o‘rtasidagi qarama-qarshiliklarni yechishga yordam berish imkoniyatiga ega. U zamonaviy marketing konsepsiyasini ishlab chiqish, innovatsion iqtisodiyot taraqqiyoti strategiyasiga muvofiq professional bilim, malakaga bo‘lgan talabni aniqlash, marketing tadqiqotlarini olib borish va unda ilmiy kuzatish, savolnoma, so‘rovnoma o‘tkazishdan keng foydalanish nazarda tutiladi. Muvofiq ravishda mutaxassislikka ehtiyojlar aniqlanadi va “Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari Klassifikatori”ga tegishli o‘zgartirish-lar va qo‘shimchalar kiritiladi. Bunda so‘zsiz 2017–2021-yillarda Oliy ta’lim tizimini kompleks rivojlantirish dasturini o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirilishini ta’minlash bo‘yicha ishlarni samarali muvofiqlashtirish uchun tashkil qilingan maxsus Komissiya muhim rol o‘ynashi zarur.

Oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonlarini takomillashtirish, yoshlarga zamonaviy talablar asosida ta’lim berish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bugungi kunning asosiy masalalaridan biridir.

2.2. Kadrlar tayyorlash maqsadi va uni Davlat ta’lim standartlarida aks etishi.

Mamlakatimizda hozirgi kunda mutaxassis kadrlar tayyorlashga qo‘yilgan talabning maqsadi – rivojlangan demokratik davlatlar darajasida bilim, ko‘nikma, malakaga ega bo‘lgan, shu bilan birga yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi mutaxassislar tayyorlash tizimini yaratishdir. Bu tizim dunyoga yangi ko‘z bilan qaraydigan, ishning ko‘zini biluvchi, vaziyatni tahlil qilib, to‘g‘ri xulosa chiqarib, qaror qabul qiluvchi, kelajakli mustahkam poydevorini quruvchi va jamiyat taraqqiyotini ta’minlovchi kadrlar tayyorlashni eng muhim va mas’uliyatli vazifa sifatida amalga oshirishi lozim.

Bu jihatlar esa ta’lim sifati ko‘rsatkichlarida ifodalanadi. Kadrlarga qo‘yilayotgan talablarni marketing tadqiqotlari orqali aniqlab, miqdor jihatdan unga asoslangan holda ishlab chiqilgan ilmiy prognozlarda aks ettirsak, uning sifat jihatini belgilash uchun biz eng avvalo kimni, qanday bilim, ko‘nikma, malakaga ega kadrlar tayyorlashni aniq tasavvur qilishimiz kerak. Bu maqsad **davlat ta’lim standartlarida** o‘z aksini topadi.

Standart (inglizcha standart – norma, namuna) mahsulotni sifati, tarkibi jihatidan qat’iy belgilangan parametrlardan tashkil topgan, mahsulot, qoida, ko‘rinishdir. Standart keng ma’noda bir-biri bilan taqqoslash mumkin bo‘lgan obyektlarni solishtirish uchun qabul qilingan namuna, etalon, modeldir. Standartlar texnik normativ hujjat sifatida ishlab chiqilib, qabul qilingan ma’lum mezonlar, qoidalar, talablar kompleksidan iborat. Ular vakolatli organlar tomonidan tasdiqlanadi.

Standartlar moddiy shaklda mahsulot etaloni, namuna sifatida bo‘lishi yoki turli normativ, qonun-qoida, talablar tarzida bo‘lishi mumkin. Standartlarni qo‘llashdan maqsad, mahsulotni, bajarilgan ishni sifatini ta’minlash.

Ta’lim tizimida kadrlar tayyorlashning davlat ta’lim standartlarini ishlab chiqilishidan maqsad tayyorlanayotgan kadrlarimizni zamon talabi darajasida bo‘lishini ta’minlashdir.

Bu standartlarda ta’lim dargohini bitirib chiqayotgan o‘quvchi, talabalar qanday bilim, malaka va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi, ularning qo‘lidan nima ish kelishining minimal darajasi belgilab qo‘yiladi.

Bu jihatdan har bir standartni **mutaxassis tayyorlashning modeli** deyishimiz mumkin.

Standartlar ta’lim sifatini boshqarishning va uning uzluksizligini ta’minlashning zarur va muhim instrumenti bo‘lib, uning global tendensiya xarakteriga ega bo‘lishi nisbatan yaqinda XX asrning 80-90 yillaridan boshlandi. U o‘z ichiga AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, Avstraliya, Yangi Zelandiya kabi rivojlangan mamlakat-larnigina emas, Pokiston, Hindiston, Filippin va boshqa mamlakatlarni ham oldi. Ayniqsa, miqyosi jihatidan standartlashtirish jarayoni bo‘yicha AQSHga teng keladigan mamlakat yo‘q. Amerika Konstitutsiyada davlat o‘z fuqarolarini ta’lim olishida mas’ulligi ta’lim standartlarida ham ifodalanadi. Shu bilan birga ta’lim shtatlar kompetensiyasiga kiradi. Qabul qilingan huquqiy hujjatlarda davlatning ta’limga qay darajada aralashuvi chegarasi aniq belgilab qo‘yilgan, jumladan uning sifati, attestatsiya masalalari, litsenziya berish va standartlashtirish ham. Standartlashtirishni milliy ta’limning sifatiga javob beruvchi tashkilot sifatida asosan professional assosatsiyalar tomonidan ishlab chiqiladi.

Ta’limni standartlashtirish bu butun dunyo miqyosida ta’limni isloh qilishdagi eng asosiy tendensiyalardan biri.[34] Unga bozor iqtisodiyoti talablari nuqtai nazaridan yondashiladi. Jamiyat bilan ta’limning o‘zaro moslashishini ta’minlash bugungi kunning nihoyatda jiddiy masalasidir. Ayniqsa, ikki mustaqil bozor: ta’lim va mehnat bozorlarini bir-biriga yaqinlashtirish, shu asosda talab va taklif muvozanatiga erishish nihoyatda muhim va dolzarb masala. Jamiyatda sodir bo‘layotgan yangiliklar, iqtisodiy o‘zgarishlar ta’lim tizimiga yangicha yondashishni taqozo etadi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturining asosiy maqsadi va amalga oshirish lozim bo‘lgan vazifalaridan biri, ta’lim oluvchilarning tayyorgarlik sifati va ixtisosiga talablarni, ularning madaniy va ma’naviy-ruhiy darajalarini aniqlab beruvchi davlat ta’lim standartlarini yaratish va uni tadbiq etishdir.

Davlat standartlari – mutaxassis tayyorlanayotgan yo‘nalish mazmunining bayoni va talabani o‘qitish hamda tarbiyalashga qo‘yilgan talablar, standart ko‘rinishidagi nazorat, uslub va shakllaridir.

[34] (Methods for teaching: promoting student learning in K–12 classrooms / David A. Jacobsen, Paul Eggen and Don Kauchak.—8th ed, 2009, p. 24 Чаптер 1

Davlat ta’lim (tarmoq) **standarti** (DTS) mutaxassisliklarning yozma modeli bo‘lib, kasbiy tayyorgarlik darajasiga qo‘yilgan talablarni hamda shaxsiy fazilatlarni o‘ziga qamrab oladi.

Ta’limni standartlashtirish – bu butun dunyo kasb-hunar ta’limini islohotlashtirishdagi eng yirik tendensiyalardan biridir. Jamiyatda sodir bo‘layotgan bugungi yangiliklar hamda iqtisodiy o‘zgarishlar ta’lim[1] tizimiga xususan oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limiga boshqacha yondashishni talab qiladi.

Xalqaro talablarga javob beruvchi davlat ta’lim standartlarini ishlab chiqish:

1. O‘zbekiston Respublikasi va rivojlangan mamlakatlarda ta’lim ekvivalentligini, turli ta’lim muassasalari diplomlarini taqqoslab, mamlakatimiz ishchi va mutaxassislarini xalqaro mehnat bozorida to‘siqlarsiz ishtirok etishini ta’minlaydi.

2. Ta’lim xizmatlari sifatiga aniq (qat’iy) talablarni belgilab qo‘yilishi kadrlar tayyorlash sifatini oshiradi.

3. Ta’lim muassasalari ishi samaradorligini nazorat qilish tizimini tartibga soladi.

4. Iqtisodiyot va biznes talablarini tezda ilg‘ash va hisobga olish imkoniyatlarini yaratadi.

DTS asosida quyidagilar amalga oshiriladi:

- ta’lim mazmuni tanlab olinadi va shakllantiriladi;
- ta’lim natijalariga qo‘yilgan talablar shakllantiriladi;
- o‘quv jarayonini dasturlashtirish va metodik hujjatlar, ta’lim vositalari ishlab chiqiladi;
- kasbiy tayyorgarlik sifatini nazorat qilish tizimi ishlab chiqiladi;
- ta’lim muassasasi attestatsiya qilinadi;
- kasbiy maslahat, kasbga yo‘naltirish, kasbiy tanlash ishlari tashkil etiladi;
- mutaxassislarning malakasini oshirish shakllari aniqlanadi;
- DTS ning o‘zi esa tasniflagich asosida ishlab chiqiladi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi qabul qilingandan so‘ng uning talablarini amalga oshirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1998-yil 5-yanvarda “Uzluksiz ta’lim tizimi uchun davlat ta’lim standartlari”ni ishlab chiqish va joriy etish to‘g‘risida”gi Qarori qabul qilindi va shu Qaror asosida “Davlat ta’lim standartlari to‘g‘risida”gi nizom ishlab chiqildi.

Nizomning 1.1 bandida: O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida” qonunining 7-moddasida, Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga muvofiq respublikada idoraviy bo‘ysunish va mulkchilik shakllaridan qat’iy nazar, ta’lim muassasalarining barcha turlari uchun majburiy bo‘lgan davlat ta’lim standartlari (DTS) belgilandi.

Oliy ta’limda ham O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida”gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasining “Standartlashtirish to‘g‘risida”gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 5-yanvardagi 5-sonli “Uzluksiz ta’lim tizimi uchun davlat ta’lim standartlarini ishlab chiqish va joriy qilish to‘g‘risida”gi qarori asosida dastlabki standartlar ishlab chiqildi. To‘plangan tajribalar asosida ta’lim standartlari, muvofiq ravishda o‘quv rejalari va dasturlari takomillashtirib borildi.

Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi markazi tomonidan ishlab chiqilgan hamda 1998/1999 va 1999/2000 o‘quv yillarida tajriba-sinovdan o‘tkazilgan davlat ta’lim standarti va unga muvofiq ishlab chiqilgan va tasdiqlangan o‘quv rejalari, o‘quv dasturlari zamon talablariga javob beradigan kadrlar tayyorlashda dastlabki muhim qadam bo‘ldi.

DTS – standartlashtirish obyektiga nisbatan me’yorlar va talablarni belgilaydi hamda “Standartlashtirish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq tasdiqlanadi.

Ta’lim tizimida ta’lim standartlarini ishlab chiqish va qo‘llash dastlab, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 5 yanvardagi “Uzluksiz ta’lim tizimi uchun davlat ta’lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish to‘g‘risida”gi 5-sonli qarori bilan boshlangan edi. 2001-yil esa “Oliy ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 343-sonli qarori va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’limning davlat ta’lim standartlarini

tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi va unga 2013, 2015-yillari o‘zgartirishlar kiritildi.[35]

DTSda kadrlar tayyorlash sifatiga, ta’lim mazmuniga nisbatan qo‘yiladigan talablar, ta’lim oluvchilarning tayyorgarlik darajasi hamda ta’lim muassasalarini bitiruvchilarga nisbatan qo‘yiladigan malaka talablari, o‘quv yuklamasining zarur hajmini, ta’lim muassasalari faoliyatini va kadrlar tayyorlash sifatini baholash tartibi va mexanizmini belgilash qayd etilgan.

Davlat ta’lim standartlari **ta’limning** umumiy o‘rta ta’lim, shu jumladan boshlang‘ich ta’lim; o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi (akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari); oliy ta’lim (bakalavriat, magistratura) turlari uchun ishlab chiqiladi.

Maktabgacha, maktabdan tashqari, oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash uchun davlat boshqaruvining vakolatli organlari tomonidan **davlat talablari belgilanadi**.

Ta’limning standartlashtirish obyektlari:

• ta’lim fanlarining tuzilmasi, mazmuni, o‘quv yuklamasining hajmi, ta’lim oluvchilar va bitiruvchilarning malaka darajasi va tayyorlash sifati;

• talablar, me’yorlar va qoidalar, pedagogik va axborot texnologiyalari, ta’lim usullari va vositalari, shuningdek, ta’lim tizimida foydalaniladigan atamalar, tushunchalar va kategoriyalar;

• ta’lim oluvchilar bilim darajasiga va kasbiy malakasiga tashxis qo‘yish tartibi, bitiruvchilar sifatini, ta’lim faoliyati, pedagog va ilmiy pedagog xodimlar sifatini baholashni o‘z ichiga oladi.

Ta’limni standartlashtirishda ta’limning uzluksizligi va uzviyligi, mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishi, fan – texnika, texnologiyalarning istiqbolli rivojlanishi, jamiyat talablari va ularning zamonaviy holatini hisobga olish, ta’lim, fan va ishlab chiqarishni mujassamligi, fan, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlariga, respublika va chet el ilg‘or tajribalariga mos kelishi kabi tamoyillariga rioya etiladi.

“Oliy ta’limning Davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’limning Davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori” maxsus ilovada ko‘rsatiladi va unga

[35] *Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2001 й., 15-16-сон, 104-модда; 2013 й., 28-сон, 363-модда, 52-сон, 691-модда; 2015 й., 2-сон, 21-модда.*

asosan muvofiq ravishda tasdiqlanadi. Ular O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan oliy ta’lim standartlari toifasini tashkil qiladi.

OT DTS. Asosiy qoidalar kadrlar tayyorlash sifatiga, ta’lim mazmuniga qo‘yiladigan umumiy talablarni; ta’lim oluvchilar tayyorgarligining zarur va yetarli bilim darajasi hamda oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilariga qo‘yiladigan umumiy malakaviy talablarni; o‘quv yuklamasining hajmini; ta’lim muassasalari faoliyati va kadrlar tayyorlash sifatini baholash tartibotlari hamda mexanizmini belgilaydi.

OT DTS o‘quv jarayonini, ta’lim muassasalari faoliyatini, kadrlar, darslik va o‘quv qo‘llanmalari tayyorlash sifatini baholashni tartibga soluvchi tegishli normativ hujjatlar (ta’lim sohalarining davlat ta’lim standartlari, bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari uchun malaka talablari, o‘quv rejalari, o‘quv fanlari dasturlari va boshqalar) yaratish uchun asos hisoblanadi. OT DTS oliy ma’lumotli kadrlar tayyorlashda idoraviy bo‘ysunishi va mulkchilik shakllaridan qat’iy nazar, O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan barcha ta’lim muassasalari uchun majburiy ekanligi belgilab qo‘yilgan.

Oliy ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlanadigan oliy ta’lim standartlari — ta’lim sohalarining davlat ta’lim standartlari bo‘lib, u ikki (bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari) qismdan iborat bo‘ladi.

Muayyan ta’lim sohasining davlat ta’lim standarti quyidagilarni o‘z ichiga olishi lozim:

- zarvaraq (titul);
- mundarija;
- muayyan ta’lim sohasi (soha tarkibi)ning umumiy tasnifi;
- bitiruvchilarning soha bo‘yicha tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan umumiy talablar;
- o‘quv reja tuzilmasi;
- kadrlar tayyorlash sifatini baholashni o‘z ichiga oladi.

Oliy ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlanadigan oliy ta’lim muassasalarining muayyan ish faoliyatini tartibga soluvchi normativ hujjatlar ishlab chiqiladi.

Oliy ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlanadigan bakalavriat ta’lim yo‘nalishi va magistratura mutaxassisligining malaka talablari, o‘quv rejalari va o‘quv fanlari

dasturlari, oliy ta’lim muassasalarining muayyan ish faoliyatini tartibga soluvchi normativ hujjatlar oliy ta’limning normativ hujjatlari hisoblanadi.

DTSda oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari o‘quv rejalari va fanlar dasturlari mazmuniga qo‘yiladigan umumiy talablar ko‘rsatiladi.

Oliy ta’lim bakalavriat tarmoq yo‘nalishi ta’lim standartlari mutaxassis tayyorlashning ta’lim standartlarida mutaxassis tayyorlash maqsadi, ularga qo‘yiladigan talablar, bu talablarga javob berish, zarur bilim, ko‘nikma va malaka hosil qilish uchun fanlar bloklari, integrallashtirilgan kurslar va bloklar, ularga ajratilgan yuklamalar hajmi, nazoratini belgilab beradi.

Umuman DTSga o‘zgartirishlar kiritish respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga muvofiq ravishda ta’lim darajasi va kadrlar tayyorlashga qo‘yiladigan talablar o‘zgarishi belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasi tomonidan amalga oshiriladi.

Standart talablari ta’lim oluvchilarning kasbiy tayyorgarligi sifati va darajasini baholashda hamda o‘quv muassasalarini attestatsiyadan o‘tkazishda asosiy mezon hisoblanadi. Ushbu talablarning bajarilishi oily, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi o‘quv muassasalarining bitiruvchilariga ta’limning tegishli darajasini olganligi to‘g‘risidagi davlat namunasidagi hujjat berilishi uchun asos hisoblanadi. Ma’lumki, DTSlar kamida 5 yil muddatda yuz bergan o‘zgarishlar, mutaxassis kadrlarga bo‘lgan talablarni o‘zgarishini hisobga olgan holda qabul qilinadi. DTSning amal qilish muddati davlat boshqaruvining vakolatli organlari tomonidan DTSni ishlab chiqish, takomillashtirish va joriy etish to‘g‘risida yangi tartib-qoidalar qabul qilingan hollarda o‘zgarishi mumkin.

Shunday qilib, oliy ta’limning davlat ta’lim standarti — bu muayyan ta’lim sohasiga (soha tarkibiga) qo‘yiladigan malaka talablari, ta’lim mazmuni, bitiruvchilar umumiy tayyorgarligining zaruriy va yetarli darajasini, kadrlar tayyorlash sifatini baholash darajalarini belgilaydigan huquqiy-me’yoriy hujjatdir.

DTSda ta’lim sifatiga qo‘yilayotgan talablar va mehnat bozori kon’yunkturasi tez o‘zgarayotgan sharoitda ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv rejalar va fanlar dasturlarining safarbarligi va moslashuvchan bo‘lishini ta’minlashi lozim.

2.3. O‘quv-me’yoriy hujjatlar va o‘quv-metodik ishlar, ularga qo‘yiladigan talablar

Standart talablari o‘zining idoraviy bo‘ysunishi va mulkchilik shakllaridan qat’iy nazar ta’limni boshqarish davlat organlari va ta’lim faoliyati subyektlari tomonidan tatbiq etilishi majburiydir.

DTSning amaliy muhimligini hisobga olib, uni quyidagi tartibda ishlab chiqish tavsiya etiladi:

• mualliflik jamoalarini tuzish;

• alohida bo‘limlarni ishlab chiqish, ularga dastlabki baholash va o‘zgartirishlar kiritish;

• DTS loyihasini tuzish uni ekspert baholashi;

• yakuniy ishlov berish, tahrirlash, rasmiylashtirish va tasdiqlash.

Shunday qilib, tayyorlanayotgan mutaxassis kadrlarga talab va ta’lim mazmunidan kelib chiqqan holda:

* Davlat ta’lim standartlari;

* asosiy qoidalar bo‘yicha tayanch o‘quv rejasi ishlab chiqiladi;

* tayanch o‘quv rejalari ta’lim muassasalarining ishchi - o‘quv rejalarini ishlab chiqish uchun asos hisoblanadi.

Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarida ta’lim yo‘nalishiga ko‘ra kasb faoliyatining aniq sohasi kasblar tasniflagichlari bo‘yicha kasb ta’limi mutaxassislarini tayyorlash amalga oshiriladi. **Kasb** – inson mehnat faoliyati mahsuli bo‘lib, ma’lum bir ixtisoslik (mutaxassislik) bo‘yicha insonning o‘qish-o‘rganish va ish tajribalari asosida egallagan nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalar majmuidir. Bu ta’lim mazmunida o‘z ifodasini topadi.

Ta’lim oluvchilarning o‘qish jarayonida egallab olishi lozim bo‘lgan hamda tizimga solingan bilim, ko‘nikma va malakalarining aniq belgilangan doirasiga **ta’lim mazmuni** deyiladi va u qanday bo‘lishi DTSda aks ettiriladi.

Ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va boshqarish uchun avvalo uni rejalashtirishimiz zarur. U esa qabul qilingan huquqiy-me’yoriy hujjatlar asosida amalga oshiriladi. Me’yoriy hujjat deganda turli faoliyat turlari yoki ularning natijalariga tegishli qoida, umumiy tamoyillar yoki tavsiflarni o‘z ichiga olgan hujjat tushuniladi.

Uni rejalashtiruvchi asosiy hujjat o‘quv reja va dasturlar hisoblanadi. **O‘quv rejasi** oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishni, o‘quv fanlarini alohida

o‘rganish sur’atini ta’minlovchi hujjatdir. **O‘quv reja - Oliy ta’limning muayyan yo‘nalish yoki mutaxassisligi bo‘yicha o‘quv faoliyati turlari, o‘quv fanlari va kurslarining tarkibi, ularni o‘rganishning izchilligi va soatlardagi hajmini belgilaydigan me’yoriy hujjatdir.**

O‘quv reja maqsad va vazifalari, mohiyatiga ko‘ra **tayanch, namunaviy va ishchi o‘quv rejasi**ga bo‘linadi.

Tayanch o‘quv rejasida o‘quv yili 40 hafta va 2 semestrdan iborat, har bir semestr 20 haftani o‘z ichiga oladi.

Oliy o‘quv yurtlarining bakalavriat yo‘nalishida o‘qishning normativ muddati, undan nazariy o‘qish haftasi yoki umumiy soat, bir yilda 2 semestr o‘qilishi, o‘quv davrining umumiy hajmi taqsimlanishi ko‘rsatiladi. Unga muvofiq nazariy ta’lim, attestatsiya, ta’til (bitirgandan so‘nggi ta’tilni ham qo‘shib), malaka amaliyoti, bitiruv malakaviy ishiga ajratilgan soatlar va ularning ulushi ko‘rsatiladli.

Barcha turdagi auditoriya va auditoriyadan tashqari o‘quv ishlarini o‘z ichiga olgan o‘quv yuklamasining eng yuqori hajmi haftasiga belgilangan soat ko‘rsatiladi. Ishlab chiqarishdan ajralgan holda (kunduzgi) o‘qish shakli uchun auditoriya mashg‘ulotlarining eng yuqori hajmi belgilanadi.

Ta’lim muassasalari ilmiy pedagogik kengashlariga ishchi o‘quv rejalarini tuzishda tayanch o‘quv rejalarini ta’lim standartlari talablari doirasida 15 - 20 foizgacha o‘zgartirish huquqi berilgan. U o’quv ishlarini rejalashtirishga asos bo‘lib xizmat qiladi.

O‘quv rejada ta’limning umumiy soatlar hajmi, fanlarni o‘rganish ketma-ketligini belgilaydi. Bu hujjat mazmunida ta’lim muddati, ta’limning tuzilishi va tartibi, o‘rganilayotgan fanlar ro‘yxati ketma-ketligi har bir predmet vaqtlari bo‘yicha har bir predmetga ajratilgan soatlar miqdori ko‘rsatiladi.

O‘quv rejani ishlab chiqish jarayonida “umumta’lim fanlari” blokiga ajratilgan soatlar o‘zgarmasligiga, hamda fanlar o‘rtasidagi uzviylik va fanlararo izchillik tamoyillariga amal qilish lozim. Soatlarni semestrlar va haftalarga taqsimlashda hamda umumiy soatlarni hisoblash jarayonida vertikal va gorizontal soatlar bir-biriga to‘g‘ri kelishiga e’tibor berish kerak.

O‘quv jarayoni grafigini tuzishda o‘quvchi-talabalar nazariy darsga, o‘quv amaliyotiga yuborilishi, ta’tilga chiqishi, bitiruvoldi amaliyoti oliy o‘quv yurtlarida esa bulardan tashqari bitiruv malakaviy ishi yozish va uni himoya qilish lozimligini oldindan bilishlari lozim.

Tayanch o‘quv rejasi namunaviy o‘quv rejalari ta’limi muassasalarining ishchi o‘quv rejalarini ishlab chiqish uchun asos hisoblanadi.

Namunaviy o‘quv rejasiga tushuntirish xatida quyidagilar beriladi:

* O‘quv mashg‘ulotlari boshlanishi tugallanishi vaqti.

* Rus (o‘zbek) tili, xorijiy til, informatika fanlaridan darslar 2 guruhga bo‘lib o‘qitilishi.

Ixtisoslik fanlari ro‘yxatini tuzishda uzviylik va uzluksizlikni ta’minlash yuz bergan innovatsion o‘zgarishlarni va ish beruvchi tashkilotlar talablarini hisobga oladi.

Oliy ta’limning birinchi bosqichida o‘quv rejalari va fanlar dasturlari umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi bilan uzluksizlik va uzviylik ta’minlanishini inobatga olgan holda ishlab chiqilishi va talabaning quyidagi majburiy fanlar bloklarini o‘zlashtirishini nazarda tutishi zarur.

O‘rganiladigan ta’lim fanlarining tarkibi bloklarga bo‘linib, ularga ajratilgan soatlar va ularning ulushi ko‘rsatiladi;

Qo‘shimcha (maxsus fakultativ) fanlar 5% gachani tashkil etadi. O‘quv rejalar majburiy o‘quv fanlari bilan bir qatorda talabalar tanlagan fanlarni ham o‘z ichiga olishi shart.

Kasb faoliyati ko‘nikmalarini egallash uchun malaka amaliyotlari o‘tilishi nazarda tutilishi shart va muvofiq ravishda u o‘quv rejalarida aks ettiriladi.

O‘quv rejadagi fanlarning kurslar va semestrlarga taqsimotini, nazariy va amaliyotga taqsimlanishi, haftalik va yillik yuklamalar taqsimoti amalga oshiriladi. Reja bo‘yicha o‘rganiladigan fanlar bo‘yicha texnologik xarita tuziladi.

DTSda o‘quv fanlari bloklari mazmuniga qo‘yiladigan umumiy talablar belgilab qo‘yiladi.

Mazkur o‘quv reja asosida oliy ta’lim muassasasining ishchi o‘quv rejasi tuziladi. Bunda mazkur o‘quv yuklamasining Ilmiy kengash qarori bilan Oliy ta’lim muassasalari fanlar bloklari bo‘yicha o‘quv dasturini o‘zlashtirish uchun ajratilgan soatlar hajmini 5 foizgacha o‘zgartirish mumkin

Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarning tajribasidan kelib chiqib, mutaxassislik bilan bog‘liq bo‘lmagan fanlarni qisqartirib, o‘quv jarayonining talabalarni o‘z ustida muntazam mustaqil ishlalashlariga qaratilgan tashkiliy shakllariga e’tibor kuchaytirilmoqda. Masalan,

bakalavriat yo‘nalishida avval fanlar guruhi 5 blokga ajratilgan bo‘lsa yuz berayotgan tendensiyaga ko‘ra 4 blokga keltirildi.

Ishchi o‘quv rejasidagi ixtisoslik fanlari, qo‘shimcha fanlarini belgilash, bloklar mazmuni Oliy ta’lim muassasalari tomonidan ishlab chiqiladi.

DTSda 6 ta bilim sohasi ajratilgan bo‘lib, ular:

- Gumanitar soha;
- Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq,
- Ishlab chiqarish va texnik soha;
- Qishloq va suv xo‘jaligi;
- Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy ta’minot;
- Xizmatlar sohasini o‘z ichiga oladi.

Muvofiq ravishda ular ta’lim sohalarini qamrab olgan va u DTS Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatorida ko‘rsatilgan.

Klassifikator – oliy ma’lumotli kadrlar tayyorlash yo‘nalishlari va mutaxassisliklarining tizimlashtirilgan ro‘yxati bo‘lib, ta’lim bosqichlari, bilim va ta’lim sohalari, ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari yettita raqamli kod bilan belgilanadi. Davlat ta’lim standarti sifatida Klassifikator Oliy ta’limning yo‘nalishlari va mutaxassisliklarini tartibga soladi.

Mutaxassislik kodining birinchi uchta raqami kasbiy faoliyat sohasini ifodalaydi (u ta’lim dasturlari bosqichi kodi, bilim sohasi kodi, ta’lim sohasi kodini o‘z ichiga oladi). Keyingi ikki raqam yo‘nalish kodi, oxirgi 2 ta raqam mutaxassislik kodini ifodalaydi.

Ta’limning xalqaro standart klassifikatsiyasiga binoan ta’lim bosqichlari **bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari**da 5 raqami, magistratura **mutaxassislik**larida — 5A (raqam va harf) bilan belgilangan. Masalan: bakalavrlar kodi 5140100, 5211300, 5520400 va hokazo; magistrlar 5A140101, 5A211301, 5A520403 va hokazo.

Tabiy, bilim va ta’lim sohalari xususiyatlariga ko‘ra fan bloklariga ajratilgan soatlar hajmi farqlanadi. Tanlov fanlari uchun belgilangan o‘quv soatlari Kengash qaroriga asosan ajratiladi.

Akademik erkinlik va talabalarni o‘z ustida ishlashga o‘rgatish oliy o‘quv yurti faoliyatining asosini tashkil etadi. Tendentsiya shundayki, nazariy kurs ta’limga ajratilgan vaqtning 15% atrofida. Qolgan vaqtlar, seminar ilmiy faoliyat, mustaqil ishlarni bajarish, talabalarni o‘z ustida

ishlashi kabilardan tashkil topadi. Oliy o‘quv yurtida, ayniqsa, talabalarni o‘z ustida mustaqil ishlashiga alohida diqqat qaratiladi.

Namunaviy o‘quv rejasiga asosan ishchi o‘quv rejani ishlab chiqish jarayonida ta’lim muassasasining imkoniyatlaridan yoki zaruriyatdan kelib chiqib tanlov fanlariga ajratilgan soatlar hajmi, ajratilgan soatlar miqdorini tayyorlov yo‘nalishlaridagi o‘quv va ishlab chiqarish amaliy mashg‘ulotlarining xususiyatlaridan kelib chiqib ta’lim muassasasi kengashi qaroriga asosan o‘quv yoki ishlab chiqarish amaliy mashg‘ulotlariga (zaruriyat tug‘ilsa) qo‘shimcha soat sifatida berilishi mumkin.

Tanlov fanlari uchun ajratilgan soatlar hajmini taqsimlash yoki qo‘shimcha mutaxassislik fani kiritishni ta’lim muassasasi rahbariyati, kafedra mudirlari, fan o‘qituvchilari hamda ishlab chiqarish korxonalari mutaxassislarining takliflariga asosan tanlanadi.

Magistraturada esa o‘qish davrining umumiy hajmining 25–30 %i nazariy ta’lim, 4–7 %i attestatsiya, 50–55 %i ilmiy faoliyatni tashkil etadi.

Ko‘rinib turibdi, magistraturada ilmiy faoliyatga alohida diqqat qaratilgan. Unga o‘quv faoliyatining yarmidan ko‘p vaqti ajratilgan bo‘lib, magistratura talabasining yakka tartibdagi kalendar ish rejasi asosida amalga oshiriladi. Ilmiy faoliyatga ajratilgan vaqtning 70–75 %i ilmiy tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash, 25–30 %i ilmiy-pedagogik ish va malaka amaliyotiga sarflanishi ko‘zda tutilgan.

Nazariy ta’lim hajmi magistratura mutaxassisligiga qarab: 30–35 % umummetodologik fanlar, 40–50 %i mutaxassislik fanlari, 13–30 %i tanlov fanlariga ajratiladi.

Prezidentimizning 2018-yil 5-iyundagi 3775-sonli qaroriga ko‘ra “alohida ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha o‘qish muddati kamida uch yil bo‘lgan bakalavriat hamda kamida bir yil bo‘lgan magistraturani joriy etish, bunda magistraturada mutaxassislar tayyorlashni ishlab chiqarish (amaliy) (kamida bir yil) va ilmiy-pedagogik (kamida ikki yil) yo‘nalishlarga ixtisoslashgan dasturlar asosida tashkil etish” natijasida bu me’yorlar o‘zgarishi mumkin, biz uni taqqoslab, tahlil qilib xulosa chiqarishimiz zarur.

Magistratura mutaxassisliklari o‘quv rejalari va fanlar dasturlari bakalavriat ta’lim yo‘nalishlarining o‘quv rejalari va fanlar dasturlari bilan uzluksizlik va uzviylik ta’minlanishini inobatga olgan holda ishlab

chiqilishi va talabalar tomonidan quyidagi majburiy bloklar o‘zlashtirilishini nazarda tutishi zarur.

O‘quv rejalar va fanlar dasturlari majburiy o‘quv fanlari bilan bir qatorda talabalar tanlagan fanlarni ham o‘z ichiga olishi lozim.

Talabalarning o‘quv rejalar va fanlar dasturlarini o‘zlashtirishida o‘quv fanlarining bir qancha masalalari va muammolari bo‘yicha mustaqil bilim olishi nazarda tutilishi zarur.

Magistratura mutaxassisliklari uning o‘quv rejalariga muvofiq ravishda yakuniy davlat attestatsiyasi bilan tugallanishi shart.

Magistratura mutaxassisliklari talabalarining ilmiy tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash tartibi va malaka amaliyoti (stajirovka)ni o‘tash tartibi oliy ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlanadi.

Magistratura mutaxassisliklarining o‘quv rejalari va fanlar dasturi mazmuni oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlashning birlamchi va boshlang‘ich bosqichi sifatida mutaxassislik bo‘yicha chuqur fundamental va amaliy bilimlar berishni ko‘zda tutgan holda shakllantiriladi.

Ilmiy faoliyat bloki ilmiy tadqiqotlar metodologiyasi o‘zlashtirilishini, talabalar tomonidan ixtisoslashgan ilmiy va ta’lim muassasalarida muayyan ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik ishlar bajarilishini nazarda tutishi lozim.

Ilmiy-tadqiqot ishlari:

• mustaqil tadqiqotchilik faoliyatining amaliy ko‘nikmalarini hosil qilishi;

• axborot texnologiyalarining zamonaviy vositalaridan foydalanib ilmiy-tadqiqotlar o‘tkazish, tadqiqotlar natijalarini tahlil qilish va aks ettirish, ilmiy maqolalar tayyorlashga doir bilimlar va ko‘nikmalarni shakllantirishi;

• talabalarga fan, texnika va texnologiyaning eng yangi yutuqlariga asoslangan axborot bazalarini qo‘llay bilish, ulardan magistrlik dissertatsiyasini bajarishda foydalanish ko‘nikmasini singdirishi lozim.

Ilmiy-pedagogik ishlar:

• zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan, o‘quv-tarbiya ishlarining interaktiv usullaridan foydalangan holda pedagogik faoliyat mahorati va ko‘nikmalarini shakllantirishi;

• o‘quv jarayonini ilmiy-uslubiy jihatdan ta’minlashni tashkil etish uquvi va ko‘nikmalarini hosil qilishi lozim.

Stajirovka ilmiy tadqiqot ishlari taqozo etganda individual ilmiy izlanish va tajriba-sinovlarni o‘tkazish maqsadida tashkil etiladi. Unda ilmiy tadqiqot olib borish, nazariy va amaliy bilimlarni chuqurlashtirishi; iqtisod, fan, madaniyat va sog‘liqni saqlash va boshqa tarmoqlardagi zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan tanishish; amaliy kasbiy va ilmiy-tadqiqot kompetensiyalarni shakllantirish; kasbga samarali moslashuvni ta’minlashi lozim.

Bunda stajirovkaga yo‘llangan magistratura talabasi o‘quv jarayoni jadvalini individual grafik asosida bajarishi ko‘zda tutiladi, dasturlarining o‘zlashtirish darajalari aniqlanadi.

Davlat attestatsiyasi – bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi ta’lim oluvchilarning tayyorlov yo‘nalishi bo‘yicha egallaydigan mutaxassisliklari va kasblari asosida ularning nazariy bilim, ko‘nikma va malakalarini baholash hamda Davlat ta’lim standartlari talablari asosida malakali kadrlar tayyorlashda o‘quv dasturlarining o‘zlashtirish darajalari aniqlanadi.

Bitiruvchilarning Davlat attestattsiyasini o‘tkazishda soha tayyorlov yo‘nalishlaridan kelib chiqib oliy ta’lim professor-o‘qituvchilari muassasalarining pedagoglari hamda ish beruvchi korxonalarning vakillaridan iborat komissiya tuziladi.

Davlat ta’lim standartlari, mutaxassislarning bilim saviyasi va kasb tayyorgarligiga bo‘lgan talablar bajarilishini ta’minlash ta’limni boshqarish bo‘yicha maxsus vakolat berilgan davlat organlari vakolati doirasiga kiradi.

Shunday qilib, DTS va unda qo‘yilgan talablar bo‘yicha o‘quv reja va ishchi o‘quv rejasi, fan dasturi, ishchi o‘quv dasturi va boshqa o‘quv-me’yoriy va o‘quv metodik hujjatlar ishlab chiqiladi va ular o‘zida o‘qish, ma’lumot olish, o‘qitish mazmunini aks ettiradi**.**

O‘quv-uslubiy majmua – bu yagona metodologiya bo‘yicha qabul qilingan DTS bo‘yicha o‘rganiladigan fanning mazmuni va uning xususiyatlariga ko‘ra o‘qitishni tashkil etish bilan bog‘liq bo‘lgan ta’lim mazmunini va o‘zlashtirish jaryonini amalga oshirishda qatnashuvchi barcha vositalarni o‘z ichiga oluvchi metodik hujjat.

O‘quv-uslubiy majmuaning tarkibi quyidagilarni amalga oshirishga qaratilgan:

- ta’limning maqsadi (o‘qitishdan maqsad nima? nima uchun o‘qitamiz?);
- ta’limning mazmuni (nimani o‘qitamiz? nimani o‘rgatamiz?);
- ta’lim metodlari (qanday qilib o‘qitamiz?);
- ta’lim vositalari (nimalar orqali, qanday vositalar orqali o‘qitamiz?).



O‘quv uslubiy majmua, tarkibi, tuzilishi va unda fan dasturlarining tutgan o‘rni

O‘quv-uslubiy majmuaning komponentlari vazifalarni eng ma’qul tarzda, ya’ni eng optimal variantini aniqlash muammosi majmuaning tuzilishini tanlash bilan uzviy bog‘liq. O‘quv-uslubiy majmuaning tuzilishiga bog‘liq ravishda uning komponentlari, vazifalari ham o‘zgarib boradi. **O‘quv-uslubiy majmua**ga o‘quv jarayonining sifatli uslubiy ta’minoti sifatida qaraladi.

Hozirgi paytda o‘quv-uslubiy majmua tarkibi modulli yondashuv asosida shakllantiriladi. Pedagogikada modul bu – o‘quv materialining mantiqan tugallangan birligi. Modul – bu fanning bir-biriga o‘zaro bog‘liq bo‘lgan fundamental tushunchalarini o‘rganishga yo‘naltirilgan va didaktik tamoyil asosida tuzilgan o‘quv materiallari birligi bo‘lib, unda fan bo‘yicha o‘quv dasturlari qisqartirilgan va chuqurlashtirilgan tarzda tabaqalashtiriladi. Natijada bosqichma-bosqich o‘qitish imkoniyati yaratiladi. Pedagoglarning fikricha, agar modul texnologiyasi asosida o‘qitish to‘g‘ri tashkil etilsa, ta’limning har qaysi bosqichida o‘quvchi, talabalar yangi o‘quv materiallarini o‘zlashtiradi, ko‘nikma va malakasini takomillashtiradi. Modullarga ajratib o‘qitishga ishchi o‘quv rejani chuqur tahlili asosida, o‘zaro bog‘liq fanlar guruhi aniqlanadi, ya’ni butun o‘quv rejasi alohida makromodullar to‘plami sifatida

qaraladi. Modullarga ajratib o‘qitishda o‘quvchi-talabalarni o‘z qobiliyatiga ko‘ra bilim olishi, o‘qishni individuallashtirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratiladi. Modul tizimi asosida ta’lim berishning afzalligi shundaki, e’tibor ko‘proq ta’lim oluvchiga, uning o‘z ustida mustaqil ishlashi, hamda o‘z-o‘zini nazorat qilishiga qaratiladi.[36]

Pedagogik adabiyotlarda “modulli o‘qitish” termini xalqaro tushuncha bo‘lib, uning bitta ma’nosi - faoliyat ko‘rsata oladigan o‘zaro chambarchas bog‘liq elementlardan iborat bo‘lgan tugunni bildiradi. Bu ma’noda u modulli o‘qitishning asosiy vositasi sifatida, tugallangan axborot bloki sifatida tushuniladi. Modulli o‘qitish asosan inson bosh miyasi to‘qimalarining modulli tashkil etilganligiga tayanadi. Inson miyasi ham modulli tugunlardan tashkil topgan bo‘lib axborotlar ana shu modullarda assosatsiyalashadi, deyiladi.[37]

Modul asosida o‘qitish ikkinchi jahon urushi tugash arafasida o‘tkirlashib borayotgan sotsial iqtisodiy ehtiyoj tufayli vujudga kelgan. Ayni shu paytda qisqa muddat ichida topshirilgan ishni uddalaydigan professional mutaxassis tayyorlash tizimini yaratish zarur edi. Shuning uchun texnik industrial masalalar chuqur o‘rganilib, ularni yyechish, nazariy va texnologik jihatdan qo‘llash hamda sanoatning turli sohalarida texnik xavfsizlikni ta’minlash uchun yo‘riqnomalar ishlab chiqildi. Bu modul asosida o‘qitishning dastlabki ko‘rinishi edi, lekin ta’lim tizimi va professional o‘qitishni ifodalovchi termin hali ishlatilmagan. Keyinchalik, o‘n yillardan ortiq vaqt o‘tgach, ta’lim va professional o‘qitish sohasining taniqli vakillari ta’lim va professional o‘qitishni modul asosida olib borish tendensiyasiga o‘z munosabatlarini bildirishdi. Modul asosida o‘qitish g‘oyasi dastlab B.F.Skinner asarlarida e’tirof etilgan bo‘lsa, so‘ngra B. va M. Goldshmid, J. Rassel, G. Ouens va boshqalar nazariy jihatdan asoslab berishdi, keyinchalik u yanada rivojlantirildi.[38]

Ular o‘z ilmiy izlanishlari natijasida o‘qitish jarayonining ilmiy-texnik taraqqiyot darajasidan orqada qolishning asosiy sababi - o‘quv-dasturiy hujjatlarning fan-texnika yutuqlari va ishlab chiqarishni tashkil etish texnologiyasi takomillashuviga mos ravishda takomillashib

---

[36] Tojiboeva D., Yo‘ldoshev A. Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi. T.: Fan va texnologiya, 2009. 83 b.

[37] Авлиёқулов Н. Х., Мусаева Н.Н. Касб-ҳунар коллежларида касбий фанларнинг модулли ўқитиш технологиялари. Ўқув-услубий қўлланма. Т.: Янги аср авлоди, 2005. 15 b.

[38] Skinner B.F. The Technology of Teaching. - New York, Appleton. Centery Grofts, 1968. Goldshmid B., Goldshmid M.L. Modular Jnstruction in Higher Education// Hig her Education. - 1972. - 2. Russell J.D.Modular Instruction. - Minneapolis, Minn., Burgest Publishing Co., 1974. . Owens G. The Modele in "Universities Quarterly"// Universities Quarterly, Higher education and society. - Vol. 25. - № 1.

bormayotganligidadir, degan xulosaga kelishgan. Shu bilan birga o‘quv-dasturiy hujjatlarini modulli qoida asosida tuzish ta’lim jarayonini jadallashtirishning muhim omillaridan biri ekanligi ham ta’kidlangan.

Xalqaro Mehnat Tashkiloti mutaxassislari ham o‘tgan asrning 70-yillari boshlarida ishlab chiqarishning doimo o‘zgarib borayotgan ehtiyojlariga mos keluvchi ishchi kadrlar tayyorlashda modulli o‘qitishni joriy etishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaydilar.

Fan bo‘yicha modul ishlab chiqish quyidagi bosqichlarga bo‘linadi:

I bosqichda o‘quv rejasidagi fanlarni makromodullarga ajratiladi.

I bosqichda o‘quv muddatini qisqartirishga intilish va shu tufayli fanlarni o‘rganish optimal ketma-ketligini o‘rnatiladi.

II bosqichda makromodulga kiruvchi fanlarning o‘quv dasturlari orasidagi o‘zaro bog‘liqlik ta’minlanadi.

IV bosqichda fanning moduli tuziladi.

V bosqichda modulning ma’ruza matni, o‘quv-ko‘rgazma qurollari, tarqatma materiali ishlab chiqiladi.

VI bosqichda modullarga ajratib o‘qitish tamoyillari asosida o‘qitish texnologiyasi loyihalanadi, ya’ni texnologik xarita ishlab chiqiladi.

VI bosqichda bir vaqtning o‘zida o‘rganiladigan fanlarning optimal sonini hisobga olib, mashg‘ulot jadvali tuziladi. Har qaysi modul bo‘yicha talabalar bilimini nazorat qilish uchun testlar, individual va mustaqil ishlar uchun topshiriqlar, o‘quv uslubiy tarqatma materiallar, o‘quv-ilmiy adabiyotlar ro‘yxati, tayyorlanadi.

Har qaysi modul uchun tarqatma va tasvirli materiallar to‘plami tuziladi va ular mashg‘ulotdan oldin beriladi. Modul, tavsiya qilinadigan adabiyotlar ro‘yxati bilan ta’minlanadi.

Talabalar materiallarni o‘zlashtira borib, bir moduldan ikkinchi modulga o‘tadi. Modulning amaliy mashg‘ulotlari ma’ruzalar bilan birga tuziladi, ular ma’ruzalar mazmunini o‘rganiladigan yangi material bilan to‘ldiriladi. Talabalar amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘ladi.

Ma’ruzalar matnini tayyorlash, tarkibini aniqlashtirish va tizimlashtirish usullarini qo‘llab, materiallarni blok-sxema, rasmlar bloki ko‘rinishida taqdim etishda materialning o‘zlashtirish samaradorligi oshadi, chunki: modulning maqsadi tushunib yetiladi; o‘quv materialining elementlari orasidagi bog‘lanishlar va uning asosiy jihatlari ajratib ko‘rsatiladi; o‘quv materialining (modulning) butun hajmi o‘quvchining ko‘zi oldida gavdalanadi.

Modulga – tarbiyalash, o‘qitishdan ko‘zlangan maqsadlar va natijalarga nisbatan muayyan mantiqiy tugallikka ega bo‘lgan o‘quv fani (kursi) yoki o‘quv fanlari (kurslari) qismlarining majmuasi sifatida yondashiladi. Uning tarkibi quyidagicha bo‘lishi mumkin:

1. Fan bo‘yicha namunaviy dastur.
2. Fan bo‘yicha ishchi – o‘quv dasturi.
3. Texnologik xarita.
4. Dars o‘tish kalendar rejasi.
5. Nazariy va amaliy darslar rejasi.
6. Ma’ruzalar matni.
7. Asosiy tayanch tushunchalar.
8. Amaliy mashg‘ulot o‘tkazish uchun masala - mashqlar, keyslar, testlar, turli metodlarni qo‘llash uchun topshiriqlar.
9. Mavzular bo‘yicha savollar.
10. Yakuniy nazorat savollari.
11. Fan bo‘yicha oraliq, joriy, yakuniy baholash mezonlari.
12. Yozma ishlarni baholash mezonlari.
13. Fan mavzulari bo‘yicha tayyorlangan slaydlar, chizmalar, taqdimotlar va boshqa namoyish etiluvchi materiallar.
14. Amaliy ish o‘yinlari.
15. Kurs ishi mavzulari.
16. Adabiyotlar ro‘yxati.
17. Yozma ish savollari va boshqalardan iborat.

Fanning xususiyatlari va qo‘yilgan maqsaddan, mutaxassislarni tayyorlashda fanning tutgan o‘rnidan kelib chiqqan holda mazkur ro‘yxat qisqarishi yoki qo‘shimchalar qo‘shilishi mumkin.

Fan dasturi. Har bir fan uchun fan dasturi tuziladi. U o‘quv rejasi asosida ishlab chiqiladi. Fan dasturi o‘quv fanini o‘qitish uchun ajratilgan bilim hajmi, tizimi va g‘oyaviy-siyosiy yo‘nalishini aniqlab beradigan me’yoriy hujjat. Unda o‘quv yili davomida fanlar bo‘yicha o‘quvchilarga beriladigan ilmiy bilim, ko‘nikma va malakalarning hajmi belgilab beriladi. Dasturda fanning mazmuni ma’lum ketma-ketlikda yoritilib beriladi va mavzular orqali ko‘rsatiladi. Mavzu yuzasidan egallanishi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar qisqacha ifodalab beriladi.

Fan dasturi namunaviy o‘quv dasturi va ishchi o‘quv dasturini o‘z ichiga oladi. O‘quv rejadagi fanlar mazmuni mavzular bo‘yicha o‘quv dasturlarida bayon qilinadi. **O‘quv dasturi** - o‘quv predmetining

mazmuni, uni tahsil oluvchilar tomonidan o‘zlashtirilishining eng maqbul tartibi, usullari, axborot manbalarini o‘zida mujassamlashtiruvchi me’yoriy hujjatdir. Ta’lim mazmuni, talabalar tomonidan o‘zlashtirishning maqbul usullari, axborot manbalari ko‘rsatilgan normativ hujjat. U shu nom bilan nomlangan o‘quv predmetiga tegishli bo‘ladi. **O‘quv dasturi –** muayyan o‘quv fani bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalar mazmuni, umumiy vaqtni muhim bilimlarni o‘rganilishi bo‘yicha taqsimlash, mavzularning ketma-ketligini belgilash hamda ularning o‘rganilish darajasini yorituvchi me’yoriy hujjat

Ta’lim standartlarida belgilab berilganidek, umumiy va maxsus talablar, bilim va ko‘nikmalar, o‘quv rejalaridagi fanlarni o‘zaro uzviyligini ta’minlash, fan dasturlarini zamon talablariga mos ravishda oddiydan murakkabga qarab tuzib chiqish, har bir fan dasturlarining mavzulariga muvofiq mustaqil ishlash, o‘quv rejaga muvofiq kurs ishi mavzulari va ularni bajarish, ko‘rgazmali va informatsion ta’minotni tashkil etish aks ettiriladi.

Namunaviy o‘quv dasturi fanni o‘rganishdan qo‘yilgan maqsad, fanning asosiy mazmuni, bajaradigan vazifalarini ifodalaydi. Namunaviy o‘quv dasturi tarkibiy jihatdan o‘z ichiga: kirish, asosiy qism, ma’ruza, seminar, tajriba darslari va mustaqil ish uchun ko‘rsatmalar, kurs ishlari bo‘yicha ko‘rsatmalar, tavsiya etiladigan adabiyotlar ro‘yxatini oladi.

Namunaviy dastur davlat ta’lim standartlariga o‘zgartirishlar kiritilgan taqdirda yoki o‘zga hollarda 3 yilda bir marta qayta ishlab chiqilishi va qabul qilingan tartibga asosan qayta ekspertiza va tasdiqdan o‘tishi zarur.

Namunaviy o‘quv dasturi tasdiqlangan va ro‘yxatga olingan kundan boshlab amalga kiritiladi. O‘quv dasturi fanni o‘rganish bo‘yicha hujjat hisoblanib, bo‘lajak mutaxassisga qo‘yilgan talablarga mos holda ta’lim mazmunini va uni o‘quvchi, talabalar tomonidan o‘zlashtirishni tashkil etish usullarini aks ettiradi. O‘quv dasturlari alohida o‘quv predmetlari bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalar mazmuni va hajmini, ularni o‘rganish ketma-ketligini belgilaydi. Har bir mavzu o‘rganiladigan fanning shu mavzu doirasidagi qisqacha mazmunini ifodalaydi. Dastur fanning mohiyatidan kelib chiqqan holda hamda tarmoq standartlariga muvofiq ravishda shu fan o‘quvchi-talabalarda qanday bilim va ko‘nikmalarni shakllantirilishi zarurligidan kelib chiqqan holda tayyorlanadi.

Fanning o‘quv dasturlari o‘quv jarayonining mazmuni va sifatini belgilovchi me’yoriy hujjatdir. Oliy, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarida ta’lim o‘quv rejasidagi har bir fan, maxsus va fakultativ kurs bo‘yicha tasdiqlangan o‘quv dasturlariga muvofiq olib borilishi shart.

O‘quv dasturlari quyidagi talablarga javob berishi zarur:

Dastur aniq qoidaga asoslangan bo‘lishi kerak. Jamiyat taraqqiyotining tamoyillariga asoslangan holda o‘quv dasturini ishlab chiqish metodikasiga muvofiq bo‘lishi zarur. O‘quv dasturi ishlab chiqishga qo‘yiladigan talablarga javob berishi, unga muvofiq o‘quv dasturi tarkibini belgilash lozim.

Ilmiylik tamoyiliga asoslanishi. Dastur ilmiy jihatdan tekshirilgan, ishonchli dalillar, kuzatishlar, manbalar va materiallar asosida tuziladi.

O‘quv dasturlari ishlab chiqishda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” asosida respublikada joriy etilgan uzluksiz ta’lim tizimining ta’lim turlari (o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi, bakalavriat, magistratura) o‘rtasidagi uzviylik va uzluksizlikni ta’minlash, fanlarda mavzular ketma-ketligiga, oddiydan murakkabga, xususiydan umumiylikka o‘tib borishga, ta’lim turlari bo‘yicha mavzular takrorlanmasligiga alohida e’tibor qaratish kerak.

Dastur fan, texnika, texnologiyaning so‘nggi yutuqlari, ta’lim tizimining rivojlanishi, jahon tendensiyasini hisobga olishi zarur.

Tarixiylik va zamonaviylik. Dasturda fan rivojlanishining xususiyatlari, hissa qo‘shgan olimlar, tarixiy shaxslar faoliyati ham aks ettirilishi, hozirgi rivojlanishi darajasiga muvofiq bilim berishni ko‘zlagan bo‘lishi zarur.

Gumanitarizm va milliylik. Dastur insonparvarlik, ezgulik g‘oyalarini ustun qo‘yib, milliy g‘urur, milliy qadriyatlarni hisobga olish, ularga amal qilishni targ‘ib qilish, mamlakatning rivojlanishini ilmiy asoslangan holda bayon qilishni ko‘zda tutishi kerak.

Izchillik va nazariya bilan amaliyot birligini ta’minlash. Dastur aniq mazmun va mantiqiy qoidalarni o‘zida aks ettirishi, umumiy o‘rta ta’lim va oliy ta’limga taalluqli mutanosib fan dasturlari bilan muvofiqlashtirish, qo‘yilgan mavzularning mantiqiy izchilligini ta’minlash, fanni hayot bilan, nazariyani amaliyot bilan uzviy bog‘laydigan uslubiyotga rioya qilishi zarur.

Xalqaro standart va raqobatbardoshlik. Rivojlangan xorijiy davlatlarda o‘rganilayotgan ana shu fan bo‘yicha amalda bo‘lgan o‘quv

dasturlari bilan taqqoslash, munozara qilish, tajriba almashish asosida, rivojlanayotgan mamlakatlarga nisbatan ilg‘orlikni ta’minlashga qaratilishi zarur.

Innovatsion o‘zgarishlarni hisobga olish. Ilgari surilgan yangi g‘oyalar, tizim yoki faoliyat yo‘nalishini o‘zgatirishga olib kelgan faoliyat ma’lum konseptual yondashuv asosida amalga oshirilib, uning natijasi muayyan tizimning rivojlanishiga yoki uni tubdan o‘zgartirishga xizmat qiladigan yangiliklar dasturda o‘z aksini topishi zarur.

Dasturda fanning nomi.

Mohiyatidan kelib chiqqan holda hamda davlat ta’lim standartlariga, mehnat bozori talabiga muvofiq ravishda fanni o‘qitishdan asosiy maqsad, shu fan o‘quvchi, talabalarda qanday bilim va ko‘nikma shakllantirishi ko‘rsatiladi.

Dasturlar ikki: namunaviy va ishchi o‘quv dasturlariga ajratiladi. Ishchi o‘quv dasturi namunaviy dastur asosida tuziladi. Ishchi o‘quv dasturida har bir mavzu bo‘yicha fan uchun ajratilgan soatdan kelib chiqqan holda, mavzuning mazmunini o‘zlashtirish uchun uning xususiyatlarini, mavzuni murakkabligi, o‘zlashtirish zarur bo‘lgan masalalar, qo‘yilgan muammo va boshqalarni hisobga olib o‘quv jarayonini tashkiliy shakllari bo‘yicha vaqt ajratiladi.

Ishchi o‘quv dasturida fan bo‘yicha rejalashtirilgan o‘quv soatlari asosida mavzularning soatlardagi taqsimoti (ushbu taqsimotni 10% gacha o‘zgartirish imkoniyati hisobiga olingan holda), mavjud o‘quv-uslubiy va texnikaviy ta’minot, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarining soatlaridagi aniq ro‘yxati keltiriladi.

Unda fanni o‘qitishda qo‘llaniladigan yangi pedagogik texnologiyalar va ularning mazmun-mohiyati, fandan o‘tiladigan mavzular va ular bo‘yicha mashg‘ulot turlariga ajratilgan soatlar hajmining taqsimoti, o‘quv materiallari mazmuni: ma’ruza mashg‘ulotlari, amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish bo‘yicha ko‘rsatmalar, mustaqil ta’limni tashkil etishning shakli va mazmuni, kurs ishlari bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar, reyting tizimi bo‘yicha baholash mezonlari, dasturning informatsion-kommunikatsion va uslubiy ta’minoti, tavsiya etiladigan adabiyotlar ro‘yxati beriladi.

Ishchi o‘quv dasturida namunaviy dasturdan farqli ravishda fan bo‘yicha mavzular rejasi qismida mavzular nomi, ajratilgan jami soatlar, dars o‘tish, mashg‘ulot turlari: ma’ruza (nazariy), seminar (amaliy mashg‘ulot), mustaqil ishga ajratilgan soatlar jadval tarzida keltiriladi.

Ma’ruza mashg‘uloti hamda seminar mashg‘uloti mavzularida har bir mavzuda o‘rganilishi zarur bo‘lgan mavzuning o‘quv maqsadidan kelib chiqib, qisqacha mazmuni beriladi. Mavzuni o‘rganish va o‘zlashtirish uchun zarur bo‘lgan adabiyotlar ro‘yxati raqamlarda ifodalanadi.

Shu fanni o‘qitish bo‘yicha lozim bo‘lgan o‘quv vositalari, ko‘rgazmali namoyish materiallari, o‘quv filmlari va boshqa didaktik materiallar ro‘yxati keltiriladi.

Dasturning “o‘zlashtirishni nazorat qilish” qismida, fanni o‘zlashtirish bo‘yicha baholash metodlari va shakllari ko‘rsatiladi.

“Foydalanilgan adabiyotlar” qismida o‘quvchi-talabalar tomonidan fanni o‘rganish va o‘zlashtirish uchun lozim bo‘lgan adabiyotlar ro‘yxati beriladi.

Ishchi o‘quv dasturiga muvofiq ravishda mashg‘ulot (seminar darslari) rejasi, mustaqil ishlar va o‘quv kompleksi tarkibiga kiruvchi boshqa ishlar ishlab chiqiladi.

Fanning har bir mavzusi bo‘yicha qo‘yilgan maqsad, mavzuning xususiyatidan kelib chiqqan holda dars o‘tish metodini o‘qituvchining o‘zi tanlaydi.

Dasturlar o‘rganilayotgan fannig maqsadi, mazmuni va unga erishishning **bosh yo‘lini** ifodalaydi. O‘quv maqsadlariga erishishning barcha yo‘llari, metodlari yaxlit holda o‘quv-uslubiy majmuada aks ettiriladi. Dasturlar unda asosiy rol o‘ynaydi. Chunki majmuadagi boshqa **metodik hujjatlar** dasturda qo‘yilgan maqsad, vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan.

O‘quv-uslubiy (texnologik) xaritalar esa har bir fan bo‘yicha o‘quv yili semestri va xaftalari bo‘yicha fan mavzularini umumiy va mashg‘ulot turlari bo‘yicha o‘rganish rejasi va haqiqatda bajarilishi, baholash shakllari va usullarini ko‘rsatuvchi o‘quv-metodik hujjat.

DTS hamda o‘quv **rejalarni bajarilishini ko‘rsatib turuvchi hujjat - dars jadvali** bo‘lib, uning va texnologik xarita asosida har bir o‘quv guruhi uchun kalendar rejalar tuziladi.

O‘quv-metodik ishlar tizimi va rejasida professor-o‘qituvchining individual ish rejasi muhim o‘rin egallaydi.

Ma’lumki, har bir o‘qituvchi o‘quv yili uchun individual ish rejasini tuzadi. O‘rta maxsus va oliy ta’lim o‘qituvchilari uchun 1 stavkada ishlovchilar yil davomida 1540 soat yuklama bajarishi ko‘zda tutilgan va tarkibi quyidagicha belgilangan:

1. O‘quv ishlari ;
2. O‘quv -uslubiy ishlar;
3. Ilmiy tadqiqot ishlari;
4.Ustoz-shogird ishlari;

Unda rejalashtirilgan soatlar va uni bajarish belgilangan doirada bo‘lishi zarur.

Ta’lim mazmuni va o‘quv dasturlari o‘quv adabiyotlarida aks ettiriladi. Bunday adabiyotlar sirasiga darsliklar va o‘quv qo‘llanmalari kiradi.

Darslik – muayyan o‘quv fani bo‘yicha ta’lim maqsadi, o‘quv dasturi va didaktik talablarga muvofiq belgilangan ilmiy bilimlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni beruvchi manba bo‘lib, u mazmuni va tuzilishiga ko‘ra fan bo‘yicha yaratilgan o‘quv dasturiga mos keladi.

O‘quv adabiyotlari orasida darslik alohida o‘rin tutadi. O‘rganilayotgan fan mazmuni va uni ta’lim oluvchilarga yetkazishda **darslik va o‘quv qo‘llanmalari** muhim rol o‘ynaydi. Darslik o‘quv qo‘llanmasidan fan dasturida ko‘rsatilgan mavzularning barchasini qamrab olishi bilan farqlanadi.[39]

G‘oyaviy va metodik jihatdan mukammal bo‘lgan darslik ta’lim mazmuniga qo‘yiladigan barcha talablarga javob bera olishi, talabalarning ehtiyojlarini qondira olishi, qiziqishini oshirishi, bilim, ko‘nikma va malakalarini boyitishi zarur. Darslikda bayon etilayotgan o‘quv axborotlari lo‘nda, tushunarli va vizual bo‘lishi, talabalarning estetik ehtiyojlariga mos kelishi kerak.

Darslik barqaror, puxta asoslangan tarkibiy tuzilmaga ega bo‘lishi lozim. Mohiyatan darslik barqarorligiga ko‘ra mustahkam asosga ega, mobilligiga ko‘ra asosiy tuzilmaga dahl etmagan holda yangi bilimlarni tezlikda kiritish imkoniyatini namoyon etadi. Ularga qo‘yiladigan talablar turlicha bo‘lsa-da, ular orasida umumiy xususiyatga ega talablar ko‘p.

Yetakchi xorijiy mamlakatlarda muqobil darsliklarning nashr etilishiga alohida e’tibor qaratiladi. Buning boisi pedagog va talabalarga ular orasidan o‘zlari uchun eng maqbul, amaliy ahamiyatga ega bo‘lganlarini tanlab olishga imkoniyat yaratishdir. Respublikamizda, muqobil darsliklarni yaratishda faollik bir qadar sust bo‘lgani holda muqobil yordamchi adabiyotlar (o‘quv, metodik va o‘quv-metodik

[39] Педагогика: 1000 та саволга 1000 та жавоб / Методик қўлл. У.И.Иноятов, Н.А.Муслимов, М.Усмонбоева, Д.Иноғомова. Т.: Низомий номидаги ТДПУ, 2012. 193 б.

qo‘llanmalar)ni yaratish borasida pedagoglar faollik ko‘rsatishmoqda. Ta’lim mazmuni o‘quv materiali darajasida darsliklar bilan bir qatorda turli o‘quv qo‘llanmalarida yoritiladi. Ular darslikning ba’zi tomonlarini kengaytiradi va aniq masalalarni hal etish maqsadiga ega bo‘ladi (axborot, mashq qilish, tekshirish).

Har bir darsning maqsadi, dars o‘tish vositalari va ulardan foydalanish usullari, darsning mazmuni, amaliy mashg‘ulotlar, qo‘shimcha topshiriqlar va boshqalar haqida tavsiyalar bayon qilinadigan, ta’lim muassasasining Ilmiy kengashi tavsiyasi asosida chop etiladigan nashr o‘quv adabiyoti o‘quv qo‘llanma deyiladi. O‘quv qo‘llanmalari bilan bir qatorda uslubiy qo‘llanmalar ham o‘ziga xos o‘rin tutadi.

Hozirgi kunda ta’limga shiddat bilan elektron o‘quv adabiyotlari kirib keldi. Ular zamonaviy axborot texnologiyalari asosida ma’lumot-larni jamlash, tasvirlash, yangilash, saqlash, bilimlarni interaktiv usulda taqdim etish va nazorat qilish imkoniyatlari mavjud manba hisoblanadi.

Dars ishlanmasi – bu ta’limiy mazmunga ega loyiha, shuningdek, o‘qituvchi tomonidan tuzilishi majburiy bo‘lgan hujjat hisoblanadi. Uni tuzishda o‘qituvchining dars jarayonidagi faoliyatini rejalashtirish, dars mazmunini boyitish, ta’lim samaradorligini oshirish **maqsadi** ko‘zlanadi. Dars ishlanmasini yildan-yilga takomillashtirib va mukammallashtirib borish, yangi metodlarni qo‘llash, yangi materiallarni kiritish bilan yangilab turilishi lozim. Binobarin, ta’lim jarayoniga yangi DTS, o‘quv dasturlari, zamonaviy ta’lim texnologiyalarning joriy etilishi, o‘qituvchi tomonidan yangi axborot texnologiyalari, zamonaviy texnik vositalarining qo‘llanishi bilan dars ishlanmalariga qo‘yilgan talablar ham o‘zgarib boradi. Dars loyihasi (ishlanmasi) uchun tayyor, standart qolip mavjud emas. Chunki dars “jonli” tashkil etilishi zarur. Darsning bu xususiyatiga ko‘ra uni hech qanday qolipga solib bo‘lmaydi. U dars turi va tanlangan metodlarga qarab turlicha bo‘lishi mumkin. Ta’lim jarayonini loyihalash, odatda, texnologik pasport va texnologik xaritalar vositasida amalga oshiriladi. O‘quv mashg‘ulotlariga tayyorgarlik ko‘rishning asosiy bosqichi – o‘quv jarayonini loyhalashtirish hisoblanadi. Bu jarayon quyidagi bosqichlarda tashkil etiladi:

1.Darsning maqsadi, vazifalari va natijasini belgilash.

2. Dars o‘tish shaklini tanlash.

3.O‘qitish va o‘qish strategiyasi va metodlarini tanlash.

4.Ta’lim resurslarini tanlash.

5. Nazorat topshiriqlari va baholash mezonlarini ishlab chiqish.

6. Darsning texnologik xaritasini ishlab chiqish.

O‘qitish va o‘qish strategiyasi – belgilangan o‘quv materiallarini talabalar ongiga yetkazish yo‘llarini, ya’ni tanlangan ta’lim metodi, shakllarining amalda qo‘llanilishini ko‘zda tutadi.

Darsning shaklini tanlash – o‘qituvchining mahoratiga ko‘ra darsning didaktik maqsadi, o‘quv materialining mazmuni, dars uchun ajratilgan vaqt, shuningdek, zarur shart-sharoitning tanlanishidir.

Darsning texnologik xaritasi – dars ishlanmasining asosiy o‘zagini tashkil etadi. U dars turi va tanlangan metodlarga qarab turlicha bo‘lishi mumkin. Darsning texnologik xaritasi xususida ma’ruzaning keyingi o‘rinlarida alohida to‘xtalib o‘tiladi. OTMdagi o‘quv mashg‘ulotining texnologik pasporti boshqacha aytganda texnologik modelidir. U ma’ruza darsi va seminar darsi bo‘yicha farq qiladi. Uning asosida texnologik xarita ishlab chiqiladi va mavzuning mazmunini o‘zlashtirish uchun zarur bo‘lgan o‘quv-uslubiy materiallar tayyorlanadi.

Takrorlash va munozara uchun savollar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909 qarori va boshqa me’yoriy hujjatlarda oliy ta’limga qanday talablar qo‘yilgan?

2. Qabul qilingan me’yoriy hujjatlarni fanni o‘rganishning amaliy asoslari deya olamizmi?

3. Davlat ta’lim standartlari deganda nimani tushunasiz? Ularni ishlab chiqish zaruriyati nimada?

4. Davlat ta’lim standartlarining maqsadi va vazifalarini aytib bering.

5. Nima sababdan mutaxassis kadrlar tayyorlashni miqdor va sifat jihatdan bozor talablariga moslashtirish zarur, deb o‘ylaysiz

6. O‘quv reja deganda qanday reja tushuniladi?

7. Ishchi o‘quv dasturi nima? U namunaviy o‘quv dasturidan qaysi jihatlari bilan farqlanadi?

8. Shaxsiy ish reja qanday tuziladi? Siz mustaqil ravishda uni tuza olasizmi?

9. O‘quv-uslubiy majmua nima va uning tarkibiga nimalar kiradi?

10. Dars ishlanmasi nima? Uning tarkibini aytib bera olasizmi?

III BOB. MAXSUS FANLARNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN ASOSIY METODLAR, ULARNI TANLASH VA QO‘LLASH AMALIYOTI

Ko‘zlangan maqsad-vazifalarni amalga oshirish, ijtimoiy-siyosiy hayotda ongli ravishda qatnasha oladigan, ijtimoiy jarayonlarga faol ta’sir eta oladigan, mamlakat taqdiriga javobgar bo‘la oladigan, mas’uliyatni his etadigan, mustaqil va erkin fikrlovchi shaxsni shakllantirishdir.

Shuning uchun ham hozirgi kunda mamlakatimizda shunday ta’limni amalga oshirishning mexanizmi sifatida o‘qitishning sifatiga alohida diqqat qaratilmoqda, talablar qo‘yilmoqda. DTSda magistratura talabalariga qo‘yilgan asosiy talablardan biri zamonaviy axborot tizimlaridan foydalaniladigan pedagogik texnologiyalar va interaktiv ta’lim usullarini egallagan bo‘lishi lozim.

Ushbu vazifalarni amalga oshirish o‘qitish jarayonini texnologiyalashtirishga, ilg‘or o‘qitish texnologiyalari, metodlarini ishlab chiqish va tadbiq etishga olib keladi.

Mazkur bob ana shu masalalarni o‘rganishga bag‘ishlangan.

3.1. Metodika va ta’lim texnologiyasi. Ta’lim tizimiga yondashuvlar

Ta’lim jarayonini, oliy ta’limning o‘quv reja va dasturlarini innovatsion pedagogik texnologiyalar va o‘qitish metodlarini keng joriy etish, magistratura ilmiy-ta’lim jarayonini sifat jihatidan yangilash va zamonaviy tashkiliy shakllarini joriy etish asosida yanada takomillashtirish vazifasi belgilangan.[40] Bu vazifani bajarish esa bevosita samarali ta’lim metodlarini tanlash, ularni yangi modifikatsiyalarini ishlab chiqish, yangi usullarini yaratish va qo‘llash bilan chambarchas bog‘liq.

Ma’lumki, mamlakatimizda Oliy ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor vazifalaridan kelib chiqqan holda, kadrlar tayyorlash mazmunini tubdan qayta ko‘rish, xalqaro standartlar darajasiga mos oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratilishini ta’minlash maqsadida eng muhim vazifalar qo‘yildi.

[40] Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги PQ-2909 қарори. Т., 2017. 2 б.

Hozirgi paytda muvofiq ravishda ta’lim tizimiga, o‘qitish jarayoniga: o‘qitishning belgilangan sifat darajasini egallash; bu darajani ommaviy, ya’ni o‘qitishning belgilangan darajasini bir vaqtning o‘zida ko‘p sonli ta’lim oluvchilar egallashlarini ta’minlash; ta’lim sohasida samaradorlikni oshirish, ya’ni o‘qitishga sarf qilingan harajatlar, albatta yuqori samara berishi lozimligi talablari qo‘yilmoqda.

Ta’lim sifatini oshirish bu iloji boricha ko‘proq bilim to‘plash, axborotga ega bo‘lishgina emas, balki tafakkurni rivojlantirish, nihoyatda katta axborot oqimidan zarurlarini tezda tanlab olish, yo‘nalishni tezda mo‘ljalga olish, vaziyatni baholash, nostandart muammolarni yyechish ko‘nikma va malakasini shakllantirishdir.

Lekin hali hozircha ta’lim tizimida tayyorlanayotgan mutaxassis kadrlarimizning sezilarli qismi bu talablarga to‘liq javob bermaydi. Natijada ular raqobatbardosh bo‘lmagani sababli mehnat bozoridan o‘z o‘rnini topa olmay sarson bo‘ladi.

Ta’lim sifati eng avvalo ta’lim jarayonining asosiy bo‘g‘ini, uning ham obyekti, ham subyektining o‘quv materialini o‘zlashtirish sifatiga bog‘liq.

O‘quv materiali – bu obyektiv axborotni didaktik ishlov berish orqali talabalar tomonidan o‘zlashtirishga tayyorlash natijasidir. Talaba uni o‘zlashtirishi, ya’ni uni qabul qilishi, tushunishi, anglab yetishi, tahlil qilishi kelgusida standart va nostandart muammolarni yyechishda qo‘llashi kerak.

Jamiyat taraqqiyoti natijasida ta’lim tizimiga qo‘yilgan talabning o‘zgarib borishi natijasida ta’lim jarayonini tashkil etishga yondashuvlar ham o‘zgarib, takomillashib boradi.

Ular xilma-xil bo‘lib, ta’lim tizimidagi o‘ziga xos xususiyatlarni baholash mezonlariga ko‘ra, ta’lim jarayonini tashkil etish, o‘qitishga yondashuvlarni turli guruhlarga bo‘lish mumkin. Ulardan eng ommaviy yondashuvlar: ko‘rgazmali - an’anaviy (tushuntiruv-illyustrativ), texnologik , tadqiqiy-ijodiy, hamda modulli yondashuv deya ayta olamiz. Ularning bir-biridan qanday farqlanishini quyida ularga berilgan qiyosiy tavsif orqali ko‘rish mumkin (Ta’limga yondashuvlarning qiyosiy tavsifi 1-chizmada keltirilgan).[41]

Chizma ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, o‘qitishga yondashuvlar konseptual jihatdan bir biridan farq qiladi.

Birinchi yondashuv an’anaviy o‘qitishda:

[41] Чизма тадқиқот асосида муаллиф томонидан тузилган.

1. Yangi materiallarning deyarli hammasi o‘qituvchi tomonidan og‘zaki bayon qilinadi;

- bilimlar talabalarga tayyor holda taqdim etiladi;

- o‘qituvchi turli yo‘llar bilan bu bilimlarning qabul qilinishini tashkil qiladi;

2. O‘quvchi-talabalar bilimni qabul qiladilar (retsepsiya) va ularni ma’nosiga yetadilar, o‘z xotiralarida saqlab qoladilar;

3. Darslik asosan mustaqil ish uchun qo‘llaniladi;

4. Auditoriya mashg‘ulotlari paytida darsliklar: ayrim hollarda pedagog tushuntirishlariga xalaqit bermasligi uchun yoki o‘quvchi, talabalar diqqatini buzmaslik maqsadida qo‘llanilmaydi. Ko‘pincha darslik uyda ham qo‘llanilmaydi, uning o‘rnini dars paytida tuzilgan konspekt bosadi;

5. Bilimlarni tekshirish asosan mashg‘ulot vaqtining sezilarli qismini egallaydigan individual og‘zaki so‘rovlar, hamda uzoq muddatlarda o‘tkaziladigan nazorat ishlari yordamida amalga oshiriladi;

6. Mustaqil ishning nisbiy miqdori juda kam.

O‘quvchi, talabalarni olingan bilim, axborotlarni xotirada saqlab qolish, mustahkamlashga undaladi. Ta’limga an’anaviy-ko‘rgazmali yondashuvda asosan dars o‘tishning an’anaviy (ta’lim jarayoni markazida o‘qituvchi bo‘lgan) metodlari qo‘llaniladi.

Taniqli avstriyalik pedagog Rudolf Shteyner an’anaviy dars haqida: faqat eshitish va ko‘rish metodi bilan ta’lim olgan o‘quvchilar juda passiv zotlarga aylanadilar. Ular hayotiy haqiqat oldida ojiz bo‘ladilar, degan ekan.[42] Yana bir mashhur nemis pedagogi A.F.Disterveg “Noqobil o‘qituvchi haqiqatni shunchaki aytadi-qo‘yadi, yaxshisi esa uni topishga o’rgatadi”, degan.[43] Bu fikrlar hozirgi kun uchun yanada dolzarbdir. Aynan hozirgi kunning, mehnat bozorining talabi ham o‘quvchi-talabalarni mustaqil fikr yuritish, olgan bilim ko‘nikmalarini amalda qo‘llay bilish, qaror qabul qilishga o‘rgatishdir. Mutaxassis kadrlarning qay darajada bilim olishi, ko‘nikma mahoratga ega bo‘lishi ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya jarayonini ko‘p jihatdan qanday tashkil etilishiga bog‘liq. Shuning uchun ham ko‘plab pedagoglar o‘quvchi talabalarga nimani o‘qitish, o‘rgatish kerak, qanday o‘qitish,

[42] Рудольф Штайнер (Rudolf Steiner; 1861—1925) Методика и дидактика. М.: Парсифаль, 1996. http://vp-ch.ru/shtainer

[43] Адольф Дистервег. Руководстве к образованию немецких учителей. 1835. http://www.treko.ru/show_dict_1552, https://psymsuotvety.jimdo.com/педагогика/26-педагогическая-система-выдающихся-немецких-педагогов.

o‘rgatish kerak? Qanday qilib tayyorlayotgan mutaxassis kadrlarning bilimi, malaka darajasi yuqori bo‘lishi ta’minlanadi? degan savol qo‘yib, unga javob topish uchun tinimsiz izlanishlar olib bordilar.

Bunda pedagog olimlar va amaliyotchilar tomonidan ishlab chiqarish texnologiyasini nazarda tutgan holda o‘quv jarayoniga ham “texnologik” jihatdan yondashilsachi? degan fikr ilgari surildi. Pedagog olimlarni diqqatini tortgan, bu fikrga undagan qator sabablar bo‘lib, ulardan eng muhimi quyidagilar:

*Birinchidan***,** loyihada aks ettirilgan xomashyo va unga ishlov berish operatsiyalari og‘ishmay bajarilsa belgilangan standartdagi mahsulot tayyorlanishi, ya’ni mahsulot sifati yuqori darajada kafolatlanishi edi.

Loyiha, ya’ni texnologik xarita - ma’lum bir mahsulotni ishlab chiqarishda texnologik operatsiyalar ketma - ketligini ifodalovchi texnik hujjat bo‘lib, unda ana shu operatsiyalar va ularni qaysi ketma-ketlikda qanday bajarilishi ko‘rsatiladi, ya’ni algoritmi *ishlab chiqiladi. Algoritm* – har qanday masalani yyechishga olib keladigan aniq bajariladigan operatsiyalar, harakatlar ketma-ketligini ifodalashdir.

Texnologik operatsiyalar esa ishchi tomonidan o‘zining ish o‘rnida bajariladigan yakuniga yetkazilgan harakat ko‘rinishidagi texnologik jarayonning bir qismi bo‘lib, uni ana shu texnik hujjat asosida amalga oshirilgan.

Ikkinchidan, erishilgan natijani takrorlash mumkinligi. Ya’ni texnologik xaritada ko‘rsatilgan tarkibdagi xomashyo, materialga ishlov berishda belgilangan ketma-ketlikdagi operatsiyalarni boshqalar ham xuddi shunday bajarishi mumkin.

Natijada pedagoglarning urinishi pedagogikada yangi yo‘nalish – pedagogik texnologiya paydo bo‘lishiga olib keldi. Pedagogik texnologiya mohiyati jihatidan boshqa texnologiyalar bilan bir safda turadi. Biroq, pedagogik texnologiya boshqa texnologiyalardan ishlov beriladigan “**material**” tubdan farq qilib, inson va uning ongi bilan bog‘liqligi bilan ajralib turadi. Shuning uchun ham bilim olish, ta’lim berish sohasi sifatida murakkab va hammaga ham tushunarli bo‘lmagan pedagogik jarayonni ifoda etishi bilan ishlab chiqarish, biologik, axborot va boshqa texnologiyalardan ajralib turadi.

Pedagogik texnologiya deyarli yarim asr davomida tadrijiy ravishda rivojlandi va hozirgi darajaga yetdi.

Birinchisida ta’lim paradigmasi[44] “O‘qituvchi – darslik – o‘quvchi” bo‘lsa, ikkinchisida “O‘quvchi – darslik – o‘qituvchi” bo‘lib, birinchisida o‘quvchi o‘qitishga bo‘ysindirilgan obyekt sifatida qaralsa, ikkinchisida, ta’lim jarayonining teng huquqli, mustaqil hamda faol ravishda ilm olishga intiluvchi subyekti sifatida ko‘riladi.

Birinchisida “bilim olish – yagona maqsad”, xato esa jazolansa, ikkinchisida, “bilim olish – shaxsiy va boshqa muammolarni yyechish vositasi”, xatoni har kim ham qilishi mumkin, inson xatolari orqali o‘rganadi, uni takrorlamaslikka harakat qiladi, degan pozitsiyadan qaraladi.

An’anaviy yondashuvda, odatda, ko‘rgazmali-tushuntiruv, axborot-retseptiv, reproduktiv metodlar kiritiladi. Ularning umumiy tomoni tayyor bilimlarni o‘quvchi, talabaga yetkazish, bayon qilishga asoslangan bo‘lib, o‘quvchi bilim oluvchi rolini bajaradi.

Texnologik yondashuvda esa o‘quv jarayonida o‘quvchi-talabalarning darsda faolligini ta’minlash, qo‘yilgan maqsadga birgalikda harakat qilish orqali erishiladi, ularning o‘qishdagi muvaffaqiyati o‘z faoliyati evaziga ta’minlanadi, buni ular tezda his qilishadi. O‘qituvchining o‘zini ham fikrlash qobiliyatiga va muammolarni yyechish ko‘nikmalariga, vaziyatni tezda baholay olish, hozirjavob bo‘lish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi talab etiladi.

Texnologik yondashuvda pedagog olimlar tomonidan ta’lim texnologiyalari chuqur o‘rganilgan va ularni turli jihatdan guruhlarga bo‘lib, sabablari asoslab berilgan. Ularni atroflicha o‘rgangan taniqli olim G.K.Selevko o‘zining “Zamonaviy ta’lim texnologiyalari” kitobida pedagogik texnologiyalarni turli jihatdan yondashgan holda eng ko‘p 12 ta guruhga ajratgan.[45]

Pedagogik texnologiya:

1. Ma’lum nazariy - ilmiy asosga, konsepsiyaga tayanadi.

2. Tizimlilik, o‘quv-tarbiya jarayoni va uning tarkibiy qismla-rining o‘zaro mantiqiy bog‘liqligi;

3. Samaradorligi, ta’lim standartlariga erishishni kafolatlashi, talab qilinadigan vaqt, kuch va vositalarning me’yor darajasida ekanligi bilan farqlanadi.

---

[44] Парадигма (юнонча paradeigma сўзидан олинган бўлиб, мисол, намуна маъносини беради) воқеликни муҳим хусусиятларини ифодаловчи, уни тушунчалар тизимида мужассамлаштирган қатъий илмий назария; 2) дастлабки концептуал схема, муаммонинг қўйилиши ва ечилиши, маълум бир тарихий даврда илмий жамоада муаммони қўйиб ечиш модели, тадқиқот методлари. Советский энциклопедический словарь. 1986. С. 967.

[45] Селевко С. Современные образовательные технологии. М.: Народное образование, 1998.

3-kontseptual jadval

Ta’limga yondashuvlarning qiyosiy tavsifi

Mezonlar	Ko‘rgazmali an’anaviy yondashuv	Texnologik yondashuv	Tadqiqiy-ijodiy yondashuv	Modulli yondashuv
O‘qituvchining roli	O‘qituvchi bilim beruvchi.	O‘quv jarayonini tizimli yonda shuvdan foydalangan holda loyi halash va uni amalga oshirishg qaratiladi	Diqqat ta’lim oluvchining turli variantlarni baholash va qaror qabul qilish, muammolarni yyechishga qaratiladi.	E’tibor ko‘proq ta’lim oluvchiga uning o‘z ustida mustaqil ishlashi hamda o‘z-o‘zini nazorat qilishiga qaratiladi.
O‘quv maqsadining qo‘yilishi	O‘quv maqsad-vazifalari doimo aniq qo‘yila bermaydi.	Ko‘zlanayotgan natijaga ko‘r maksimal darajada o‘qu maqsadlarini aniq qo‘yilishi.	O‘quv jarayonidan qo‘yilgan maqsadni izlanish, tadqiqot o‘tkazish tarzida tashkil qilish.	Har bir mavzu, ta’limning maqsadiga ko‘ra alohida birlik modullarni izchil holda ketma-ket chuqur o‘zlashtirish
Maqsadga erishish uchun harakatlar	Tayyor bilimlar bayon qilinadi.	O‘qitish o‘quvchi-talabalar-ning faol qatnashishi orqali amalga oshiriladi.	Ma’lumotlar to‘plash, gipoteza va farazlarni ilgari surish va tekshirish.	Ta’lim oluvchilarning izlanishi muntazam mustaqil ishlashin ta’minlash va nazorat qilish baholash orqali amalga oshiriladi.
Ta’lim beris ning ustuv metodlari	Bayon qilish, hikoya, tushuntiri retseptiv, reproduktiv metodlar	Ta’lim jarayonida interaktiv metodlar qo‘llaniladi, vaziyatga ko‘ra tuzatishlar kiritish mumkin	O‘quvchi, talabalarni shaxsi tashabbusi, yangi bilimlarn mustaqil o‘rganishlarini qo‘lla quvvatlovchi metodlar.	Maqsadni amalga oshirish samaradorligi yuqori metodlarn tanlash va moslashtirish.
O‘quvchi, tal baning bili olishini ta’minlash	Axborotlarni to‘plash, xotirada saqlab qolish, mustahkamlashga doimo undash	O‘quvchi, talabani faolligini ta’minlash, mustaqil o‘qishga o‘rgatish	Mustaqil, tahliliy fikrlash faoliyatini yuz berishi uchun muhit yaratish, o‘z ustida muntazam ishlash	O‘z ustida mustaqil muntazam ishlash, ijodiy izlanish uchun qulay muhit yaratish
Dars jarayoni algoritmi	Mashg‘ulotlar asosan akademi xarakterga ega bo‘lib, bo‘lg‘us mutaxassislik faoliyati bila yetarlicha bog‘lanmagan.	Qo‘yilgan maqsadga erishish uchun bajariladigan amallarni rejalashtirish va ma’lum ketma - ketlikda amalga oshirish.	Ta’limda hamkorlik qilish, eksperiment, tajriba – sinov o‘tkazish, modellashtirish asosida dars jarayonini loyihalashtirish	Mavzu va modul bo‘yicha top shiriqlar ishlab chiqish va ularn bajarishni loyihalashtirish, axboro texnologiyalaridan keng foydalanish
Erishila-digan natija	Qanday natijaga erishish ko‘pincha noaniq. Mustaqil fikrlash, qaro qabul qilish ko‘nikmasin rivojlanishiga imkon yaratilmaydi	Rejalashtirilgan natijalarga kafolatli erishish	Tahliliy, tanqidiy, ijodiy fikrlay bilish	Minimal darajada qanday natijaga erishishni aniq belgilash. Qo‘yilgan maqsadga kafolatli erishish.

U an’anaviy ta’lim tizimidan pedagogik texnologiyaning:

* Boshqalar tomonidan qayta amalga oshirish mumkinligi.

* Texnologik tizimning asosiy belgisi avvaldan qilingan maqsadga, kutilgan natijaga erishish, sifatni kafolatlashi bilan ajralib turadi.

* Pedagogik texnologiya o‘quv jarayonining shunday loyihasiki u bir kishi yoki biror ijodiy guruh tomonidan ishlab chiqiladi, undan barcha o‘qituvchilar foydalana oladilar.

* O‘quvchi o‘qitilmaydi – uni mustaqil mutolaa qilishga o‘rgatiladi.

* O‘quvchiga bilimlar tayyor holda berilmaydi, unga bilimlarni manbaalardan mustaqil ola bilishga, fikrlay olish, mustaqil pozitsiyada tura olishga o‘rgatiladi.

* Barcha o‘quvchilarni o‘z qobiliyatlari ehtiyojlari darajasida albatta o‘zlashtirib olishlari kafolatlanadi.

Turli qarashlarni hisobga olgan holda pedagogik texnologiya ta’rifiga yondashsak, “ishlab chiqarish” natijasi “mahsuloti” - ma’lum malakaga ega bo‘lgan mutaxassis tayyorlash uchun ilmiy asoslangan didaktik jarayonni amalga oshirish, ya’ni o‘qitish jarayonini qo‘yilgan maqsadga ko‘ra izchil ketma-ketlikda, turli metodlarni qo‘llash orqali samarali ta’lim natijasiga erishishning ishonchliligini ta’minlovchi pedagogik faoliyat deb tushuntirish mumkin.

Pedagogik texnologiyaning maqsadi – ommaviy ta’lim sharoitida ta’lim jarayonining zaruriy samaradorligini ta’minlash va o‘quvchi-talabalar tomonidan o‘qishning ko‘zlangan natijalariga erishish kafolatidan iboratdir. Ko‘p hollarda metodikani ta’lim texnologiyasi, usulni metodlar bilan aralashtirib yuboriladi. Shu bois bu tushunchalarga aniqlik kiritish zarur. Metodika, jarayonini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar majmuasi bo‘lib, qanday, qay tarzda, nimalar yordamida o‘qitishni o‘rgatadi.

Ta’lim texnologiyasi qo‘yilgan maqsadni amalga oshirish va natijasini ma’lum (hech bo‘lmaganda minimal, 55 %) darajada kafolatlash uchun ta’lim mazmunini o‘quvchi-talabalarga turli metodlar va vositalar orqali yetkazish, o‘qitish jarayonini o‘zaro bog‘liq qismlarini bir butun qilib birlashtirish va ma’lum tartib, tizim asosida izchil, mantiqiy ketma-ketlikda bajarishni ko‘zda tutadi.

Bu jarayon ishlab chiqarish texnologiyasida bajariladigan operatsiyalar ketma-ketligi loyihada aks etganidek, o‘quv jarayoni loyihasi, ya’ni dars o‘tishning texnologik xaritasida ko‘rsatiladi.

Tadqiqiy-ijodiy yondashuvda o‘quvchi, talabalarning muammolarni yyechish qobiliyatini rivojlantirish, ularni yangi bilimlarni mustaqil o‘zlashtirishi, tashabbus ko‘rsatishiga ko‘proq e’tibor beriladi. Shaxsiy tashabbuslari faollashtirilib, qo‘llab-quvvatlanadi va rivojlantiriladi. Ijodiy fikrlashga undaydi. Ta’lim hamkorlikka asoslanadi. Bu yondashuv texnologik yondashuvning ijobiy tomonlarini o‘zida mujassamlashtirgan holda yanada yuqoriroq darajada talabalarni ilmiy izlanishga yo‘naltiradi.

To‘rtinchi yondashuv hozirgi paytda katta diqqat qaratilayotgan, ta’limni rivojlantirishning samarali yo‘nalishlaridan biri—fanlarni modul[46] texnologiyasi asosida o‘qitishdir.

Pedagogikada modul bu – o‘quv materialining mantiqan tugallangan birligi. Modul – bu fanning bir-biriga o‘zaro bog‘liq bo‘lgan fundamental tushunchalarini o‘rganishga yo‘naltirilgan va didaktik tamoyil asosida tuzilgan o‘quv materiallari birligi bo‘lib, unda fan bo‘yicha o‘quv dasturlari qisqartirilgan va chuqurlashtirilgan tarzda tabaqalashtiriladi. Natijada bosqichma-bosqich o‘qitish imkoniyati yaratiladi. Pedagoglarning fikricha, agar modul texnologiyasi asosida o‘qitish to‘g‘ri tashkil etilsa, ta’limning har qaysi bosqichida o‘quvchi, talabalar yangi o‘quv materiallarini o‘zlashtiradi, ko‘nikma va malakasini takomillashtiradi. Modullarga ajratib o‘qitishga ishchi o‘quv rejani chuqur tahlili asosida, o‘zaro bog‘liq fanlar guruhi aniqlanadi, ya’ni butun o‘quv rejasi alohida makro-modullar to‘plami sifatida qaraladi. Modul tizimi asosida ta’lim berishning afzalligi shundaki, e’tibor ko‘proq ta’lim oluvchiga, uning o‘z ustida mustaqil ishlashi, hamda o‘z-o‘zini nazorat qilishiga qaratiladi.[47]

O‘qitishning modul tizimi haqida rasmiy ravishda birinchi marta 1972 yil YUNESKOning Tokiodagi Butunjahon Konferensiyasida o‘qitish texnologiyasi-funksional tizimlar, fikrlashning neyrofiziologiyasi, inson miyasining axborotni kvant ko‘rinishida, ya’ni kichik porsiyalar ko‘rinishida yaxshiroq qabul qilishiga asoslanishiga diqqat qaratilgan edi. YUNESKOning 1974 yili Parijda o‘tkazilgan konferensiyasi ta’limda modul texnologiyasini tatbiq etishga turtki bo‘ldi.

---

[46]Ингл.“modulus” 1. Намуна (эталон, стандарт); 2. Лекала, шаблон, плазалар; 3. Рассом, ҳайкалтарош олдида бирон қиёфада турувчи шахс; 4. Турли соҳаларда мақсадга етиш учун таркиби, тузилишини имитация қилувчи қурилма; 5. Кенг маънода - ҳар қандай образ, аналог (фикр-ўй, хаёлан тасаввур қилиш, шартли: тасвир, баён қилиш, чизма, график, режа, харита ва бошқалар); 6. Математика, мантиқ ва тил ўрганишда кенг қўлланиладиган абстракт объект, тушунча ва ҳоказолар.

[47] Tojiboeva D., Yo‘ldoshev A. Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi. T.: Aloqachi, 2009. 83 b.

Konferensiyada ishlab chiqarish, fan talablariga ko‘ra tez o‘zgaruvchan mahalliy sharoitlarga, ta’lim va professional tahsil olishni ochiq, tez moslashuvchan tarkibini yaratish tavsiya etildi.[48] Bu talablarga nisbatan yuqori darajada javob beradigan yondashuv modul asosida o‘qitish bo‘lib, u ta’limning mazmunini moslashuvchan bloklardan qurib, o‘qitishning tashkiliy shakllari va turlarini integratsiyalash, o‘qiyotganlarning, har bir auditoriyaning o‘ziga xos tomonlarini hisobga olgan holda individual o‘quv dasturi asosida qulay vaqt va sur’atda mustaqil ishlash imkoniyati yaratiladi.

Modul tizimi asosida o‘qitishning davomiyligi ta’lim oluvchining tayyorgarligiga va kasbiy malakani qay darajada egallash istagiga bog‘liq. Uni amalga oshirishning jahon tajribasida **Sillabus** (*Syllabus*) dan keng foydalanilgan.[49] Hozirda bu tajriba bizda ham qo‘llanilmoqda. U fanning qisqacha tavsifiga, o‘rganilayotgan fanning asosiy xarakteristikasiga ega bo‘lgan fan bo‘yicha o‘qish dasturi bo‘lib, o‘qituvchi va talaba orasidagi kommunikatsiya vositasidan iborat. Sillabusda o‘rganilayotgan fanning mazmuni: maqsad, vazifalari, fanni o‘rganishda o‘quvchi-talabalar oldiga qo‘yiladigan talablar, o‘tiladigan asosiy mavzular va ularga ajratiladigan vaqt (ma’ruza, amaliy mashg‘lot, mustaqil ta’lim va bilimni baholash tizimi va asosiy adabiyotlar ro‘yxati, o‘qituvchi bilan muloqot qilish vaqti va boshqa zarur ma’lumotlar beriladi. Undan tashqari har bir modul mavzulari bo‘yicha ajratilgan ballar ko‘rsatiladi. **Modul algoritm asosida ishlab chiqiladi va quyidagi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi: aniq maqsad, nazariy bilim, amaliy mashg‘ulot, uslubiy ko‘rsatma – yo‘l-yo‘riqlar, topshiriqlar, nazorat, o‘zlashtirilgan bilim, malakani sinash, baholash va hokazo.**

Modul texnologiyasi asosida o‘qitish quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

- modulli o‘qitishdagi dastlabki shart-sharoitlarni tahlil etiladi;
- modulning o‘quv maqsadlari va mazmuni aniqlashtiriladi. Modulni to‘la o‘zlashtirish uchun qanday dastlabki tushunchalarga ega bo‘lishi talaba nimalarni o‘rganishi;
- modulni o‘rganib bo‘lgandan so‘ng, u nimalarni bilishi belgilanadi;
- o‘quv-didaktik materiallari va o‘qitish vositalarini tayyorlash;

[48]The Modular approach in technical education. Paris, Unesco, 1989.

[49]Тожибоева Д.Махсус фанларни ўқитиш методикаси. Т.: Фан ва технология, 2007. 400 б.

- nazariy mashg‘ulot o‘tkazish, ya’ni ma’ruza darsi o‘tish uchun ma’ruza matni, mashg‘ulotning texnologik modeli, xaritasi, ko‘rgazmalilikni hamda mavzu mazmunini talabalar ongiga yetkazishni ta’minlash uchun qo‘llaniladigan metodlar asosida taqdimot, texnik vositalar, tarqatma material va boshqalar tayyorlanadi;

- amaliy mashg‘ulotlar, seminar darslarini o‘tkazish uchun uning texnologik moduli, texnologik xaritasi, tanlangan metodlarni qo‘llash uchun topshiriqlar va ularni baholash mezonlari ishlab chiqiladi;

- mustaqil ish topshiriqlari va ularni bajarish muddatlari, baholash mezonlari tayyorlanadi;

- o‘quvchi, talabalarning olgan nazariy bilimi va amaliy ko‘nikmalarini baholash amalga oshiriladi.

Yuqorida keltirilganlarning hammasi ta’lim oluvchilarni fikrlash darajasini kengaytirish, yuz beradigan voqea – hodisalarning sababini anglash, izlanishni o‘rgatishga qaratilgan. Modul tizimining mohiyati shundan iboratki, ta’lim oluvchilar ta’limning alohida birlik modullarini izchil holda ketma-ket o‘zlashtiradilar. *Ta’limda modul tizimini qo‘llash eski modul birligi o‘rniga tezda yangisini ishlab chiqish va amalda qo‘llash imkoniyatini beradi*. Modulli yondashuvni boshqa yondashuvlar bilan taqqoslaydigan bo‘lsak, u o‘zida zamonaviy yondashuvlar, didaktik nazariyaning tadrijiy rivojlanishi natijalari, ularning o‘ziga xos xususiyatlarini sintezlashtirgan. Oqibatda modulli yondashuvda o‘quv jarayonining mazmuni va tashkil etishning turli usullarini tanlash, turli yondashuvlar, konsepsiyalarni bir butun qilib muvaffaqiyatli ravishda biriktirishga muvaffaq bo‘lingan. Bu modul asosida o‘qitishning boshqa konsepsiyalar, nazariyalarga nisbatan izchil bog‘liqlikda ekanini ularni o‘zida mujassamlashtirganini ko‘rsatadi.

Modulning muhim ustunliklaridan yana biri, bu ta’lim tizimini “**On-line**” holatida aks ettirilishi hisoblanib, ta’lim jarayoni real vaqtda aks ettiriladi. Internet orqali o‘qituvchi bilan o‘quvchi-talabaning individual muloqoti ularning mavzu mazmunini chuqur o‘zlashtirishiga yordam beradi, o‘z ustida muntazam ishlashga yo‘naltiradi.

Modul asosida o‘qitishni nazariy jihatdan tahlil qilish asosida uning quyidagi xususiyatlarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

• modul asosida o‘qitish didaktik tizimning har bir komponentini bajarilishi lozim bo‘lgan darajada ishlab chiqish va uning ko‘rgazmali ta’minotini modul dasturi va modullarda taqdim etish;

• o‘qitish mazmunini aniq tarkibini belgilash, o‘quv jarayonida nazariy materialni izchillikda bayon qilish, dars o‘tish metodlarini tanlash, uni metodik materiallar bilan ta’minlash, o‘zlashtirilgan bilimlarni nazorat qilish uchun baholash tizimini ishlab chiqish, zarur bo‘lganda ularga tuzatishlar kiritish;

• modul asosida o‘qitish uni variantliligi, juz’iy o‘zgartirishlar kiritish, o‘quv jarayonini talabalarning individual imkoniyatlari va ehtiyojlari va talablariga moslashtirishdir.

1998 yili 11 martda O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining “Fanlarni modul tizimi bo‘yicha o‘qitish to‘g‘risida”gi 58 sonli buyrug‘ida oliy o‘quv yurtlarida o‘quv jarayonini takomillashtirish hamda xorijiy mamlakatlarning yetakchi oliy o‘quv yurtlarida talabalarga fanlarni modul tizimi bo‘yicha o‘qitishda to‘plangan tajribalarni respublikamizda ham qo‘llash uchun tajribadan o‘tkazish ko‘zda tutilgandi. Shu yillar davomida to‘plangan tajribadan kelib chiqib, hozirgi kunda ta’limda modul tizimini qo‘llashga katta ahamiyat berilmoqda.

Ko‘rinib turibdi, metodlar barcha yondashuvlar, texnologiyaning tarkibiy qismi. ***Ta’lim metodi*** deganda o‘qituvchi va o‘quvchilarning ko‘zlangan maqsadga erishish uchun birgalikdagi faoliyat yo‘llari tushuniladi. Bularning yordamida o‘quvchilar bilim, malaka, ko‘nikma, kasbiy mahoratlarni egallashga erishadilar, aqliy va ijodiy qobiliyat rivojlanadi. O‘quv jarayonida o‘qitish metodlarini tanlash muhim ahamiyatga ega, chunki qo‘yilgan maqsadni qanday amalga oshirish, qanday natijaga erishish aynan qaysi metodni qay tarzda qo‘llash hamda talabalar bilimini nazoratiga bog‘liqdir. Nazorat ham metodga tayanadi.

Ma’ruza, amaliy mashg‘ulot, o‘zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash, tafakkur qilish va ma’lumotlarni qayta ishlash imkoniyatini yaratuvchi, ijodiy ishlashga yo‘naltirish uchun topshiriqlar ham tanlangan metodlar asosida tayyorlanadi. Shuning uchun o‘qituvchi, bizningcha, metod tanlashga alohida diqqat qaratishi zarur. Bunda albatta o‘quv metodlarini tanlashga ta’sir etuvchi omillar hamda ularni qanday o‘rin tutishiga e’tibor berish kerak. Masalan, iqtisodiyotda taqqoslash, hisob-kitob muhim rol o‘ynashini, hisobga olgan holda mikromiqyosda hamda makromiqyosda qabul qilingan qaror, huquqiy hujjatlar ularni qanday o‘zgarishlarga olib kelishini o‘rganishga qaratilgan topshiriqlar tayyorlash zarur.

Fanlarni modul texnologiyasi asosida o‘qitishda o‘quvchi, talabalar bilimi va ko‘nikmalari o‘quv maqsadlariga muvofiq holda muntazam baholanishi kerak. Baholash huquqiy, pedagogik va psixologik tamoyillarga hamda Davlat ta’lim standartlariga asoslanadi. O‘qituvchi har bir topshiriq yoki masala-mashq, keys va boshqa bajarilgan ishlar uchun baholash mezonlarini ishlab chiqishi kerak. Shu bilan birga talabalarga o‘zlarini o‘zlari baholashlarini ham tashkil etish maqsadga muvofiq. Baholash orqali butun modulni o‘rganish jarayoni va uning barcha komponentlari maqbulligi tekshirilib ko‘riladi. Bu bilan modulli o‘qitish kutilayotgan natijani berayotgani yoki bermayotgani aniqlanadi.

O‘qituvchi o‘quvchi-talabalarni bilimni o‘zlashtirishlari uchun motivatsiya yaratishi darkor. Buning uchun ham “da’vat”, “tushunish, anglash”, “mushohada, tafakkur” bosqichini qanday tashkil etishni, qanday metod tanlashni avvaldan rejalashtirib qo‘llash maqsadga muvofiq. Natijalarni guruhlarda ochiq-oydin va samimiy muhokama qilish ham yuqori samara beradi. Modulni o‘rganish oxirida yakuniy suhbat uchun vaqt ajratilishi kerak. Bu – o‘qituvchi va o‘quvchi-talabalar faoliyati natijalari, ularning amalga oshirgan va oshirmagan ishlari yuzasidan mulohaza yuritish uchun yaxshi imkoniyat beradi.

O‘qitish texnologiyasi va metodikaning asosiy farqlari

Ta’lim texnologiyasi o‘ziga xos jihatlari bilan metodikadan farqlanib:

1) u eng avvalo dars jarayonini bir butun holda konstruktiv qurilishini ifodalaydi, ya’ni u darsning texnologik xaritasida aks ettiriladi. Qoyilgan maqsadga ko‘ra butun dars jarayonida bosqichma-bosqich bajariladigan ishlar loyihalashtiriladi.

2) ta’lim texnologiyasi o‘z ichiga:

* o‘quv predmeti, har bir o‘rganiladigan mavzu bo‘yicha maqsad qo‘yish va uni vazifalar orqali ifodalash (ularning ro‘yxatini ishlab chiqish);

* dars o‘tish shakllarini aniqlash;

* o‘quv maqsadiga erishish yo‘llarini - metodlarini tanlash, ishlab chiqish;

* dars o‘tish vositalarini tanlash;

* qo‘yilgan maqsadni topshiriqlarda ifodalash, ya’ni maqsadni amalga oshirish va uni qay darajada bajarilganini nazorat qilish uchun topshiriqlar ishlab chiqish, tayyorlash;

* nazoratni amalga oshirish va erishilgan natijani baholash:

a) xususiy o‘quv maqsad-vazifalarni qayta ko‘rib chiqish va tuzatishlar kiritish;

b) nazorat natijalarini tahlil qilish, muvofiq ravishda tuzatishlar kiritish kabilarni oladi. Ko‘rinib turibdi, metodlar texnologiyaning tarkibiy qismi. Lekin shunga e’tibor qaratish kerakki, o‘qitish metodlari, bu - pedagogik texnologiyaning nerv tomirlari, chunki qo‘yilgan maqsadni qanday amalga oshirish, qanday natijaga erishish aynan qaysi metodni qay tarzda qo‘llash hamda talabalar bilimini nazoratiga bog‘liqdir. Nazorat ham metodga tayanadi.

3) qanday o‘qitish kerak, degan savolga ta’lim texnologiyasida salmoqli qo‘shimcha bilan qanday qilib ko‘zlangan natijaga erishgan holda o‘qitish kerak. O‘quv jarayonini qanday tashkil etish kerak, degan nuqtai nazardan yondashiladi. Bu savollarga javob metodlarni tanlash muvofiq ravishda topshiriqlar ishlab chiqish orqali topiladi.

4) aniq sharoitdan kelib chiqib, taxminiy emas, kafolatlangan, aniq natijaga erishish mo‘ljallangan pedagogik jarayon loyihalashtiriladi va uni amalga oshirishga yo‘naltiriladi. Bu ham metodlar yordamida amalga oshiriladi.

5) erishilgan natijani takrorlash mumkinligi bilan farqlanadi, chunki tayyorlangan texnologik xarita asosida ko‘zda tutilgan metodlar, topshiriqlardan boshqa o‘qituvchilar ham foydalana olish imkoniga ega bo‘ladilar.

6) o‘quvchi-talaba, ya’ni shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyada ularning o‘qishdagi muvaffaqiyati o‘z faoliyati evaziga ta’minlanadi, buni ular tezda his qilishadi.

7) o‘qituvchi eksperiment emas, aniq belgilangan natija uchun harakat qiladi. Qo‘yilgan maqsadni yaratilgan sharoit va belgilangan vaqtda amalga oshirishga shubha qoldirmaslikka asoslangan o‘qitish modeliga tayanadi. O‘qituvchining o‘zini ham fikrlash qobiliyatiga va muammolarni yechish ko‘nikmalariga, vaziyatni tezda baholay olish, hozirjavob bo‘lish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi talab etiladi. Kutiladigan natijaga aniq o‘quv maqsadi qo‘yilib, pedagogik vazifalar belgilanganda va o‘quv jarayonini tashkil etishda zarur sharoit yaratilganda erishiladi.

Ta’lim texnologiyasida ishlab chiqarish natijasi, “mahsuloti”, ya’ni ma’lum malakaga ega bo‘lgan mutaxassis tayyorlash uchun o‘rganiladigan fan mavzulari bo‘yicha mashg‘ulot jarayonini loyihasini ishlab chiqish ko‘riladigan uslubiy tadbirlar majmuasi, boshqacha qilib

aytganda maqsad qo‘yish va unga qanday tarzda erishish ko‘rsatiladi. Uni umumiy tarzda: **Texnologiya → metodologiya → metodika → metod → usul** ketma-ketligida tasvirlash mumkin.

3.2. Dars o‘tish metodlari va ularni tanlashning asosiy mezonlari.

Ma’lumki fanni o‘rganish, bir tomondan, didaktik jihat, ya’ni nimani o‘rganish asosiy rol o‘ynasa, ikkinchi tomondan metodik jihat qanday o‘rganish, o‘qitish asosiy rol o‘ynaydi.

Hozirgi paytda, avval ta’kidlab o‘tganimizdek, dars o‘tishdan asosiy maqsad tayyor bilimni o‘zlashtirish emas, eng asosiysi, o‘quvchi-talabalarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqil tanlash va qaror qabul qilish ko‘nikmasini shakllantirishdir. Bu maqsadni amalga oshirish esa ko‘p jihatdan dars o‘tish metodlarini tanlashga bog‘liq.

Har qanday fanni o‘rganishda turli metodlar qo‘llanilishi zarur. Buning sababi**,** *birinchidan*, dars o‘tishda turli uslublarni qo‘llash uni qiziqarli bo‘lishiga olib keladi, talabalarning diqqati o‘tilayotgan darsni o‘zlashtirishga qaratiladi. Bir xil metodda dars o‘tilaverishi talabalarni zeriktiradi. Psixologlar tadqiqotlariga ko‘ra har qanday mohir o‘qituvchi ham bir xil metodni qo‘llab dars berar ekan, aytaylik, ma’ruza o‘qir ekan, talabalar dastlab 20 daqiqa, so‘ngra darsni tugashidan oldin 20 daqiqa ma’ruzani diqqat bilan eshitar, qolgan paytda xayolga berilib ketar ekan.

Ikkinchidan, talabalarning darsni o‘zlashtirish, bilimni qabul qilish qobiliyatlari har xil.

G‘apb olimlari tomonidan chop etilgan uslubiy adabiyotlarda[50] bilim berish uslubiga ta’sir etuvchi parametrlarga:

a) har bir talabanig individual xususiyatlari;

b) axborotni qayta tiklash qobiliyati;

d) talabalarni bir-biriga o‘zaro ta’sir ko‘rsatishi, hamkorlik qilish xislatlarini kiritishadi.

Yordam bersa, ikkinchilariga boshqa uslub yordam beradi.

*Uchinchidan***,** dars o‘tish metodlari talabalarni fikrlash doirasini shakllantirishga yordam beradi.

[50] Tojiboeva D., Yo‘ldoshev A. Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi. Darslik. T.: Aloqachi, 2009. B. 87.

Shuning uchun ham barcha pedagoglar talabalarga bilim berishning eng samarali yo‘li, dars o‘tishda turli metodlarni qo‘llash zarur degan fikr tarafdori bo‘lib, aynan qaysi metod qaysi kategoriyadagi talabalar uchun qo‘llanilishi ma’qulligi bo‘yicha esa yagona qolip yo‘q, Jahon pedagogikasi tajribasi shuni ko‘rsatadiki, **tahliliy fikr** yuritadigan talabalardangina muvaffaqiyat bilan ishlovchi biznesmenlar, siyosiy liderlar (sardorlar), fan arboblari yetishib chiqadi.

Tahliliy fikrlash mustaqil fikrlashdir. Har bir kishining fikr yuritishi individual xarakterga ega bo‘lib, boshqalarnikidan ajralib turadi. Axborot esa tahliliy fikrlashning boshlang‘ich nuqtasidir.

To‘rtinchidan, tajriba shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchi-talabalarni barkamol, chuqur bilim egasi, mustaqil fikrlaydigan inson bo‘lib shakllanishi faqat individual xususiyatlariga bog‘liq emas. Ta’sir ko‘rsatadigan yana bir muhim omil, ta’lim berish jarayonini tashkil etishdir.

Beshinchidan, pedagog - olimlarning tadqiqotlari bo‘yicha o‘qitish jarayonida berilgan axborotni eslab qolish qo‘llanilgan metodlarga ko‘ra ham katta farq qilar ekan. Biz ma’ruza, doklad eshitar ekanmiz uning 5 foizini, o‘qigan materiallarimizni 10 foizini, video, rasm, ko‘rgazmalarni ko‘rganimizni 20 foizini, tajriba namoyish qilinganida ko‘rgan va eshitganlarimizni 30 foizini, munozaraga kirishsak, birga muhokama qilganimizni 40 foizini, mashq yechar ekanmiz, o‘qigan, yozgan, gapirganlarimizning 50 foizini eslab qolar ekanmiz. Ishbilarmon o‘yin, loyiha metodi, mustaqil o‘qiganlarimiz, tahlil qilganlarimizni muhokama qilish samarali metod ekan. Buning natijasida talabalar ongida ma’lumotning 75 foizi saqlanib qolar ekan. Lekin, o‘quv-amaliy mashg‘ulotlar jarayonida talabalarning bir-birlariga o‘rgatishlari undan ham samaraliroq hisoblanadi, bunda 90 foiz ma’lumot o‘zlashtiriladi.

Ta’lim berish jarayonini tashkil etishda esa o‘qitish shakllari va metodlari asosiy rol o‘ynaydi. Ayniqsa, ta’lim metodlarini tanlash katta ahamiyatga ega. O‘quv metodlarini tanlashda esa uning samaradorligini e’tiborga olish zarur.

Yuzaki qaraganda, har bir mavzuni xohlagan metodni qo‘llab o‘tkazaversa bo‘ladi, lekin amalda buning iloji yo‘q. Bunga qator obyektiv va subyektiv sabablar, mavjud sharoit salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Psixologiya, pedagogika bo‘yicha o‘quv va ilmiy adabiyotlarda dars o‘tish metodini tanlashga ta’sir qiluvchi juda ko‘p omillar ko‘rsatiladi.

O‘qitishning har bir metodi o‘quv jarayonida ma’lum bir funksiyani bajaradi. Shu jarayonda avval ko‘rsatib o‘tganimizdek, bir necha metodlar birgalikda qo‘llaniladi. Chunki ularning biri ikkinchisini taqozo qiladi, biri ikkinchisi bilan bog‘lanib ketadi. Lekin biz u yoki bu mavzuni o‘rganar ekanmiz, ustun darajada rol o‘ynaydigan metodni tanlab olishimiz zarur. Bu masalaga bag‘ishlangan adabiyotlarda metodlarni tanlab olishga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar, ya’ni metodlarni tanlash mezonlari ko‘rsatilgan adabiyotlar talaygina. “Metodika prepodavaniya ekonomicheskix distsiplin” kitobi mualliflarining fikricha ta’lim metodini tanlash yoki aniqlashning oltita umumiy shart-sharoitlarini ajratib ko‘rsatish mumkin.[51]

Bular:

1. O‘qitishning qonuniyatlari va tamoyillari;
2. Fanning mazmuni va o‘rganish metodi, jumladan, uning predmeti va mavzulari;
3. O‘qitishning maqsadi va vazifalari;
4. Talabalarning o‘quv imkoniyatlari (yoshi, tayyorgarlik darajasi, guruhning xususiyatlari);
5. Tashqi sharoitlar (geografik, ishlab chiqarish, atrof-muhit);
6. O‘qituvchilarning imkoniyatlari.

Rossiyalik olimlarning fikricha metodlarni quyidagi jadvalda ko‘rsatilgan omillarning ahamiyatidan kelib chiqib dars o‘tishda qo‘llash uchun tanlangani maqsadga muvofiq.[52]

Turli-tuman omillarning dars o‘tish metodini tanlashdagi o‘rinlarini ierarxik tarzda joylashtiradigan bo‘lsak, ko‘pchilik psixologlar va pedagog olimlarning fikricha, birinchi o‘rinda ta’limning maqsadi turadi. Aynan dars o‘tish maqsadida biz nimaga erishishimiz lozimligi ifodalanadi, erishishimiz zarur bo‘lgan natija belgilanadi. Ikkinchi o‘rinda ta’limning motivatsiya darajasi turadi.

Mavzuni o‘rganish uchun **metodlarni tanlashning asosiy qoydasi** → ta’lim berish maqsadi va o‘rganilayotgan fan hamda mavzuning xususiyatiga mos kelishi; **Tanlangan metodga qo‘yiladigan asosiy talab** → ko‘zlangan natijani berishi; **Metodning natijaviyligi mezoni** → belgilangan vazifani hal etish uchun uni qo‘llashning mosligi va

[51] Н.Хўжаев, П.З.Хошимов, Т.Т.Джураев, О.Б.Гимранова. Методика преподавания экономических дисциплин. Тошкент 2004, с. 16.

[52] Кукушкин В. С. *Теория и методика обучения / В.С. Кукушкин. −Ростов н/Д.: Феникс, 2005; Скибицкий Э. Г., Толстова И. Э., Шефель В. Г Методика профессионального обучения.*: Учеб. Пособие. Новосибирск: НГАУ, 2008. С. 60.

4-jadval

O‘quv metodlarini tanlashga ta’sir etuvchi omillar

Omillar	Omillar ta’siri	O‘rni
O‘qitishning maqsadi va unga erishish zarurligi	0.90	1
O‘qitishning motivatsiya darajasi	0.86	2
O‘qitishning qonuniyatlari tamoyillarini amalga oshirish	*0.84*	*3*
Mavzu mazmuni va qo‘yilgan talablar	*0.80*	*4*
O‘quv axborotlarini murakkabligi va me’yori	*0.78*	*5*
O‘qitilayotganlarning tayyorgarlik daralasi	*0.65*	*6*
O‘qitilayotganlarning qiziqishi, faolligi	*0.65*	*7*
O‘qitilayotganlarning yoshi, ishchanligi	*0.62*	*8*
Mashq qilish, sabr-toqat, bardoshlilik va ko‘nikmalarni shakllantirish,	*0.60*	*9*
Talab etiladigan vaqt	*0.55*	*10*
Moddiy-texnik, tashkiliy sharoitlar	*0.50*	*11*
Metodni avval qo‘llanilganmi yoki yo‘qligi	*0.40*	*12*
Mashg‘ulot tipi va tarkibi	*0.38*	*13*
O‘quv jarayoni qatnashchilarining o‘zaro munosabatlari	*0.37*	*14*
Guruhdagi o‘qitilayotganlar soni	*0.36*	*15*
Pedagogning kompitentlik darajasi	*0.35*	*16*

Tejamkorligidir.

Mavzuni o‘rganish uchun metod tanlashda kompyuterdan foydalanish katta imkoniyatlarga ega. Dars o‘tish metodini tanlashning asosi algoritmlar bo‘lib, o‘qituvchi belgilangan mezonlar orqali mavzu, uzviy savolni o‘rganish uchun kompyuter yordamida optimal metodlarni tanlaydi. Hozirgi paytda 100 dan ortiq metodlarni turli mezonlar asosida tanlaydigan “Metod” dasturlari bo‘lib, ular so‘zsiz o‘qituvchiga dars o‘tish metodini tanlashda katta yordam beradi. Hozirgi zamon talabiga ko‘ra maqsad tayyor bilimni o‘zlashtirish emas, balki asosiysi o‘quvchi-talabalarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishdir. Shu bilan birga ularda mustaqil tanlash, qaror qabul qilish ko‘nikmasini hosil qilish bo‘lib, bunday xislatni tarbiyalash ko‘p jihatdan dars o‘tishda qo‘llaniladigan metodlarga bog‘liq. Insonning xislatlari bir-biridan farqlanadi, olingan axborotni eslab qolish qobiliyatlari ham. Dars o‘tish shakllari, ularda qo‘llangan turli-tuman metodlar esa ana shu xislatlarga muvofiq ravishda ko‘proq axborot olish, uni tushunish, xotirada saqlash taqqoslash, to‘g‘ri qaror qabul qilishga yordam beradi.

Metod bu keng qamrovli, serqirra, murakkab tushuncha. Dars o‘tish uchun metod tanlash ko‘zlangan maqsad, qo‘yilgan vazifalarga, ma’lum bir metodning imkoniyatlari va boshqa qator omillarga ko‘ra belgilangan mezonlar asosida amalga oshiriladi. O‘qituvchi barcha omillarni hisobga olgan holda mavjud mezonlar yordamida dars o‘tish metodini tanlashi lozim.

O‘tgan asrning o‘rtalaridan metodlarni **faol (aktiv) va passiv** guruhlarga ajratishga harakat kuchaydi. Ayniqsa interaktiv metodlarni qo‘llash keng targ‘ib qilina boshlandi. Ko‘pgina pedagog va psixologlarning fikricha, metodlarni aktiv va passiv guruhlarga bo‘lish noto‘g‘ri, uni shunday bo‘lishga aslida o‘qituvchi va o‘quvchi, talabalar sababchi, deyishadi. Umuman olganda metodlarni guruhlarga bo‘lish, ularning u yoki bu jihatlariga ko‘ra shartli ravishda amalga oshirilishini hisobga olsak, bunday guruhlash ham o‘z maqsad, vazifasiga ega.

Dars o‘tishda qo‘llaniladigan metodlarni shartli ravishda: an’anaviy dars o‘tish, faol uslublar, hamda talabalar faolligini oshiruvchi interaktiv metodlarga ajratish nuqtai nazardan qarasak, *an’anaviy dars* o‘tishda darsning asosiy maqsadi ko‘proq tushuntirishga qaratilgan bo‘lib, o‘qituvchi - bilim o‘rgatuvchi, o‘quvchi-talaba bilim oluvchi bo‘lib, ularni o‘rganilayotgan mavzuni qay darajada o‘zlashtirganlarini nazorat qilish jarayonida bildirgan fikrlariga qarab aniqlanadi. Bunday dars **an’anaviy** strategiyaga qurilgan bo‘ladi. O‘qituvchi bilan talabalar o‘rtasida qaytar aloqa ta’minlansa faol, dars jarayonida o‘quvchi, talabalar o‘rtasida hamda ular bilan o‘qituvchi orasida yuqori darajada hamkorlik o‘rnatilsa, interaktiv strategiya qo‘llanilgan hisoblashadi.



1) An’anaviy strategiya **2) Faol strategiya** **3) Interaktiv strategiya**

Odatda bunday hamkorlik u yoki bu muammoni yechish yo‘llarini fikrlashib topishda, qabul qilingan qarorni qay darajada qo‘llasa bo‘lishini muhokama qilishda o‘rnatiladi. Shunga alohida e’tibor berish kerakki, muhokama jarayoni uni javoblaridan ham muhimroq. Ta’limning interaktiv metodlarini maqsadi bilim berish emas, balki o‘quvchi, talabalarda mustaqil ravishda o‘qish, izlanish, savollarga javob topish, qaror qabul qilish ko‘nikmasini shakllantirishdir. Aslida barcha

metodlarni qanday qo‘llash o‘qituvchiga, uning qanday strategiyani tanlashiga bog‘liq. Shuning uchun hozirgi paytda ko‘proq strategiya tushunchasiga urg‘u berilmoqda.

Albatta, dars o‘tish metodlarini tanlayotganimizda fanni o‘rganishga qo‘yilgan talablar va fanning mazmuniga alohida ahamiyat berish lozim. Bir fanni o‘zlashtirishda yaxshi natija bergan metod boshqa fanga talabalarni chuqur o‘zlashtirishlari uchun yaxshi yordam bermasligi mumkin. Shuning uchun ham dars o‘tish metodlarini tanlaganda, albatta, fanning **xususiyatlariga alohida diqqat** qaratish lozim.

Fanni o‘rganishda **o‘quv materialining murakkabligi va miqdori** ham muhim rol o‘ynaydi. Demak, dars o‘tish metodini tanlashda fanning bu jihatlarini ham hisobga olish lozim. Masalan, oliy o‘quv yurtlarida iqtisodiyot nazariyasi, akademik litsey, kasb-hunar kollejlarida iqtisodiyot asoslari fanini o‘rganishda abstrakt tafakkur nihoyatda katta rol o‘ynaydi. Buxgalteriya hisobi, tahlil, soliq va boshqa shu kabi fanlarda amaliy metodlar fanni o‘rganishga katta yordam beradi. Demak, metodlarni muvofiq ravishda tanlash lozim.

Dars o‘tishda qanday metodni tanlash **o‘rganilayotgan fanga, uning xususiyatlariga, o‘rganiladigan mavzularga** bog‘liq. Masalan, statistika fanida iqtisodiy ko‘rsatkichlarni hisoblash asosiy rol o‘ynasa, buxgalteriya hisobi fanida esa hujjatlashtirishga asosiy diqqat qaratiladi. Bir mavzuning mazmuni munozarada chuqur o‘zlashtirilsa, ikkinchisiniki, masala-mashq yechishda ko‘proq tushunarli bo‘ladi.

Dars jarayonini qanday metod asosida tashkil etishda **o‘quvchi - talabalarning o‘rtacha bilim darajasi** ham muhim rol o‘ynaydi.

Guruhda talabalarning bilim darajasi yuqori bo‘lsa, muvofiq ravishda ijodiy izlanishga undaydigan metodlarni qo‘llash zarur. Bu ularni yanada ko‘proq o‘qishga, izlanishga olib keladi. Bilim darajasi past bo‘lsa, ularga fanning mazmunini o‘zlashtirishga yordam beruvchi metodlarni tanlagan ma’qul.

Dars o‘tish qiyin bo‘lgan guruh talabalarning bilim darajasi bir-biridan keskin farq qiladigan guruhdir. Shuning uchun bunday guruhlarda bilimdonlar boshqalarga yordam berishiga erishishga, fanni o‘zlashtirishga ko‘maklashadigan metodlarni ko‘proq tanlashga to‘g‘ri keladi.

O‘qituvchi dars metodini tanlar ekan **talabalarning faolligi, qiziqishini** ham hisobga olishi zarur. Talabalarning qiziqishi past guruhlarda ularning faolligini oshiruvchi, fanni o‘rganishga qiziqish

uyg‘otuvchi metodlarni qo‘llash zarur. Bunda modellashtiruvchi o‘yin turli qiziqarli mashqlar, konkurslar o‘tkazish, talabalarga individual topshiriqlar berish, aytaylik, biron iqtisodiy ko‘rsatkichlarni o‘zgarishidan qanday xulosa chiqishi borasidagi fikrlashlar bilan kechadi.

Talabalarning faolligi yuqori guruhlarda ularni o‘z ustida mustaqil ishlashlarini ta’minlovchi, erishgan darajada qotib qolmay, yanada ko‘proq bilishga undovchi metodlarni qo‘llash muhim.

Suningdek, olinadigan bilim, malakaning zaruriy manbalariga ko‘ra metod tanlash muhim ahamiyatga ega.

Dars o‘tish metodini tanlashda ta’lim berish muddatini ham hisobga olish zarur. Ma’lumki, vaqt inson uchun eng cheklangan resurs. Shuning uchun talabalarni doimo vaqtdan unumli foydalanishga o‘rgatish zarur. Fanni o‘rganishga umumiy qancha vaqt berilgani, shulardan mavzularga qancha vaqt ajratilganiga qarab, dars o‘tish zarur.

Shubhasiz, dars o‘tish metodlarini tanlashda moddiy-texnik baza, o‘qitishning tashkiliy shart - sharoitlari ham muhim o‘rin tutadi. Shuning uchun o‘qituvchi har bir mavzuga ajratilgan vaqtdan kelib chiqib, maqsadga erishish uchun o‘rganilishi zarur bo‘lgan asosiy savollarga ko‘proq vaqt ajratishi, shunga muvofiq dars o‘tish metodini tanlash va uni o‘tkazishni rejalashtirishi zarur.

Dars o‘tish metodini tanlashga ta’sir etadigan yana bir omil darsning shakli va tarkibidir. Albatta, nazariy darsda tanlangan metodni amaliy, darsda ham qo‘llash kutilgan natijani bermaydi. O‘qitish metodini tanlashda **guruhdagi talabalar soni** ham katta rol o‘ynaydi. Kichik guruhlarda muvaffaqiyat bilan qo‘llanilgan metodlar katta guruhlarda kutilgan natijani bermasligi mumkin, yoki umuman qo‘llash qiyin bo‘ladi.

O‘qituvchi, dars beruvchi sifatida har safar qanday qilib, qaysi usul bilan dars o‘tsam qo‘yilgan maqsadga erishaman deb o‘z oldiga savol qo‘yib, o‘ylab ko‘rsa, dars o‘tishning aynan mavzuga mos keladigan uslubini topishi mumkin.

Darsni qanday o‘tish borasida aniq bir qarorga kelishda, asosiy mo‘ljal olishda darsni nimaga qaratilganligi muhim ahamiyatga ega. Agar:

- maqsadga erishish mo‘ljalga olinadigan bo‘lsa, dars jarayonida qanday maqsadlarga erishish kerakligini aniq belgilab olinishi lozim;

- darsda qatnashadiganlar mo‘ljalga olinsa, talabalar (o‘quvchilar) guruhi kimlardan iboratliligiga e’tibor qaratiladi;
- o‘tiladigan mavzu, unga ajratilgan vaqt mo‘ljalga olinsa, qanday o‘quv materialini talabalar ongiga yetkazish zarur va unga qancha vaqt ajratilganiga diqqat qaratiladi;
- o‘quv vositalari mo‘ljalga olinsa, qo‘limizda qanday o‘quv vositalari bor va ulardan qay darajada foydalanishimiz mumkinligini hisobga olamiz;
- talabalar (o‘quvchilar)ning darsga faol yoki passiv qatnashuvi mo‘ljalga olinsa, qanday dars o‘tish uslublarini qo‘llash kerakligini tanlaymiz;
- darsni tashkil etish mo‘ljalga olinsa, qanday tashkiliy shart-sharoitlar mavjudligini hisobga olamiz;
- o‘zlashtirishni nazorat qilish mo‘ljalga olinsa, qanday tartibda talabalar bilimi nazorat qilinadi va baholanadi, diqqat ana shunga qaratiladi.

Dars jarayonida qo‘llaniladigan metodni tanlashda o‘qituvchi bilan talabalar o‘rtasida o‘quv jarayonida shakllanadigan munosabatlarda o‘zaro hamkorlikka diqqat qaratilsa, boshqalarida avtoritarlik ustun. Dars o‘tish metodini tanlashda eng muhim omil bu o‘qituvchining darsga tayyorgarligi darajasidir. Chunki qaysi metodni qo‘llash, qanday qilib dars o‘tish, darsning mazmuni talabalar ongiga yetkazish o‘qituvchiga, uning bilimi, salohiyati, kasbiy ko‘nikmasi, mahoratiga bog‘liq.

Ko‘rinib turibdiki, metodlar tanlab dars jarayonini tashkil etishga ko‘plab omillar ta’sir qiladi.

Bundan tashqari real jarayonga kutilmagan holatlar, sabablar ta’sir qilishi mumkinki, uni avvaldan ko‘rib, hisobga olib bo‘lmaydi. **Dars o‘tishda samarali metodlarni qo‘llash deganda, mavjud turli-tuman metodlarning orasidan qabul qilingan mezonlar bo‘yicha mavjud sharoitda eng yuqori natijaga erishiladigan metodlarni qo‘llash tushuniladi.** Ular har bir fan, mavzu, savol, guruh uchun turli-tuman bo‘lishi mumkin.

Dars o‘tish metodlarini tanlashda yangi mavzuni, materialni o‘rganilishi, uni mustahkamlash, mavzuni umumlashtirish va dars jarayoni bosqichlari ham katta rol o‘ynaydi.

Mavzuni o‘rganish uchun metod tanlashda kompyuterdan foydalanish katta imkoniyatlarga ega. Dars o‘tish metodini tanlashning

asosi algoritmlar bo‘lib, o‘qituvchi belgilangan mezonlar orqali mavzu, uzviy savolni o‘rganish uchun kompyuter yordamida optimal metodlarni tanlaydi. Hozirgi paytda 60dan ortiq metodlarni 35 ta shartlar asosida tanlaydigan “Metod” dasturlari bo‘lib, ular so‘zsiz o‘qituvchiga dars o‘tish metodini tanlashda katta yordam beradi.

Turli-tuman metodlarni qo‘llash barcha sezgi organlari orqali axborot olish va bilish jarayonida qatnashish imkonini beradi.

O‘qituvchining metodik mahorati, dars o‘tishning yangi metodlarini o‘zlashtirishiga yetarli e’tibor berilmas ekan, ta’limga, inson kapitaliga investitsiyalarning qanchalik ko‘payishidan qat’iy nazar ta’lim sifati oshmaydi.

O‘qituvchilarning metodik mahoratini oshirishga qilingan xarajatlar, ularni bunga rag‘batlantirish “minimal xarajat qilib, maksimal samara” olish imkonini beradi. O‘qituvchi dars jarayonini loyihalashtirar ekan, qanday metodlarni qo‘llashni rejalashtirishi zarur. Shuning uchun metodlar va ularni dars jarayonida qo‘llashning mazmunini chuqur o‘rganish hamda fanning va mavzuning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda metod tanlash va muvofiq ravishda topshiriqlar ishlab chiqish, ya’ni o‘tilayotgan mavzuga moslashtirish maqsadga muvofiqdir. Buni o‘tkazilgan eksperimentlar ham tasdiqlaydi. Ayniqsa, iqtisodiy fanlarni o‘rganishda shu yo‘l eng kam vaqt va boshqa xarajatlarni talab qiladi.

Samarali metod – bu mavzuni o‘rganishdan qo‘yilgan maqsadni eng optimal darajada amalga oshirishga yordam beradigan metod deb aytish mumkin. Uni quyidagi asosiy ko‘rsatkichlarga qarab aniqlaymiz:

1. Belgilangan vazifalarni hal etish uchun uni qo‘llashning mosligi va tejamkorligi.

2. Nafaqat eng yaxshi natijalarni ta’minlashi, balki ularga erishishning yuqori ishonchliligini ta’minlay olishi.

3. Darsda o‘quvchi-talabalarning faol qatnashishini ta’minlashi.

4. Mavzuni o‘rganishga o‘quvchi - talabalarda qiziqish uyg‘otishi.

5. Mavzuni o‘quvchi – talabalar tomonidan puxta o‘zlashtirishlarini ta’minlash, ya’ni ularning olgan reyting ballari ko‘rsatkichlarini yuqori bo‘lishi.

6. Darsda o‘quvchi – talabalar davomatining yuqori bo‘lishini ta’minlashi.

7. Modul bo‘yicha berilgan topshiriqlarni mazmun-mohiyatiga tushunib bajarishni ta’minlashi.

Bulardan tashqari ularni qo‘llashda soddalik va osonlik ham muhim rol o‘ynaydi.

Shuning uchun ta’lim texnologiyasini loyihalashtirishda metodni maqsadli tanlash, har bir metodning samaradorligini ko‘ra bilish zarur.

Hozirgi zamon pedagogik amaliyotda o‘qitish metodlari tizimini qurilishi o‘quv jarayonining texnologik mantiqqa asoslanishiga tayanadi. Bunday yondashuv **bir tomondan,** ikki mustaqil, shu bilan birga bir-biriga bog‘liq jarayon: bilim olish va uni amalda qo‘llay olish, mustahkam ko‘nikmaga aylantirishni dasturlash, **ikkinchi tomondan** olingan bilimni o‘quvchi-talabaning qat’iy shaxsiy ishonchiga hamda o‘z fikriga aylanishiga olib keladi. Aynan shu bilan shaxsning rivojlanishi jarayonining bir butunligi ta’minlanadi. Shuning uchun o‘qituvchi fanni, mavzuni o‘qitish uchun metod tanlar ekan, albatta, uning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda yondashishi zarur, predmetning o‘zini o‘rganishda qo‘llaniladigan metodlarni ham nazardan qochirmasligi lozim.

3.3. Maxsus fanlarni o‘rganishda qo‘llaniladigan asosiy universal va xususiy metodlar. Verbal metodlar va uning asosiy usullari

Dars o‘tish metodlari nihoyatda turli-tuman. Ularni barchasini tavsiflash va qo‘llashning iloji yo‘q. Shuning uchun ulardan eng muhimlarigagina to‘xtalib o‘tamiz.

Insoniyatning dunyoni o‘rganishida dastlab qo‘llanilgan metodlar og‘zaki (verbal) metodlar bo‘lib, u metodlar tizimida yetakchi o‘rin egallaydi. Umuman olganda ta’lim-tarbiyada qo‘llaniladigan metodlarni topshiriq berish va unga beriladigan javoblarni ifodalash nuqtai nazaridan qarasak uchta yirik guruhga bo‘lishimiz mumkin. Bular: og‘zaki metodlar, yozma metodlar, aralash: ham og‘zaki, ham yozma uslublar birgalikda qo‘llaniladigan metodlardir. Verbal (og‘zaki) metodlar o‘quv axborotlarini so‘z orqali uzatish va eshitish orqali qabul qilishga qaratilgan metodlardir. Odatda biz ko‘proq o‘quv jarayonida metodlarni qo‘llar ekanmiz, ustun darajada biron-bir metodni qo‘llashimiz mumkin. Chunki, **metodlar doimo bir-birini taqozo qiladi, bir-birini to‘ldiradi, bir-biriga bog‘lanib ketadi**.

Og‘zaki metodlar qisqa muddatda katta miqdordagi axborot berish, muammo qo‘yish va uni yyechish yo‘llarini ko‘rsatish imkoniga ega. So‘z sezgi, xotira, tassavur, fantaziyani faollashtiradi. Og‘zaki metodlar guruhiga o‘quv materialining o‘qituvchi tomonidan og‘zaki bayon

qilinishiga asoslangan hikoya, tushuntirish, ma’ruza, suhbat, munozara, savol-javob va boshqa shu kabilarni kiritish mumkin.

Dars o‘tishda eng ko‘p qo‘llaniladigan metodlardan biri darsni talabalar diqqati, fikrini jamlovchi, qo‘yilgan maqsadni amalga oshirishga qaratilgan savollar asosida olib borishdir.

Savol va suhbat metodi eng ko‘hna, eng universal, o‘quvchi-talabalarni tezda faollashtiruvchi metod ekanligi bilan boshqa metoglardan ajralib turadi. Shu bilan birga u eng ko‘p qo‘llaniladigan metod. Ayniqsa aniq yo‘naltirilgan savol metodi barcha boshqa metodlar bilan ham birgalikda qo‘llaniladi. U bu jihatdan ham boshqa metodlardan farq qiladi. Savollarsiz dars o‘tib bo‘lmaydi. Ta’lim jarayonini qanday metodlar asosida tashkil qilishimizdan qat’iy nazar, albatta savollardan foydalanamiz.

Savolni to‘g‘ri berishning o‘zi fikrlay bilishdan dalolat beradi. Shuning uchun darsda faqatgina o‘qituvchi emas, balki talabalar ham bir-birlariga savol bilan murojaat qilishlari, ayniqsa, kichik guruhlarga bo‘linib dars o‘tganda o‘zaro fikrlashish muhim ahamiyat kasb etadi. Agar talaba savol berishni o‘rganmasa, o‘zining bilimi sayozligi haqida o‘ylab ham ko‘rmaydi.

Savol-javob metodi yana shu jihatdan boshqa metodlardan ajralib turadiki, uning yordamida o‘qituvchi talabalarni fanni o‘rganishga chorlabgina qolmay, uni nazorat qiladi, savol orqali auditoriyani ham boshqaradi. Aynan savollar, ularning mohiyati va vaziyatga ko‘ra qo‘llash, talabalarni diqqatini jamlashga, tahliliy fikrlash qobiliyatlarini rivojlanishiga olib keladi.

Tahliliy fikrlash savol qo‘yishdan boshlanadi, muammo savollar orqali yechiladi. Shuning uchun dars jarayonida savol orqali talabalarda o‘z fikrini asoslash ko‘nikmasini hosil qilish katta ahamiyatga ega.

Iqtisodiy fanlar bo‘yicha amaliy, jumladan seminar darslarida atroflicha suhbat yoki aniq maqsadga yo‘naltirilgan savol-javob asosida dars o‘tish keng qo‘llaniladi. Bu metodni qo‘llashning usullari nihoyatda rang-barang. Buyuk Brinaniyalik tadqiqotchilar fikriga ko‘ra *Eng muhimi* savollarni to‘g‘ri shakllantirish va berish lozim. Ular o‘zaro mantiqiy bog‘liqlikka ega bo‘lishi kerak, savol o‘rganilayotgan mavzuning mohiyatini ochib berishi, mavjud tizimda bilimlarni o‘zlashtirishga yordam berishi kerak. Savollar mazmuni va shakliga ko‘ra ta’lim oluvchilarning rivojlanish darajasiga mos kelishi lozim.

Esda tuting: oson savollar faol bilish faoliyatini rag‘batlantirmaydi, jiddiy munosabat esa bilishga rag‘batlantiradi.[53]

Shuning uchun iqtisodiy fanlarni o‘rganishda aniq maqsadga yo‘naltirilgan savol-javob asosida dars o‘tish keng qo‘llaniladi. Aynan savol-javob orqali biz o‘quvchi-talabalarni mavzuni qiziqib o‘rganishlari uchun motivatsiya hosil qilamiz.[54]

Savol-javob metodini qo‘llash orqali erishiladigan natijalar



Savol-javob ko‘nikmalari yuzaki qaraganda osondek tuyuladi. Lekin bu oson emas. Ko‘pgina umumiy o‘qitish va ijtimoiy muloqot ko‘nikmalari savol-javob qilish ko‘nikmalari bilan bog‘liq. (Brownand Atkins, 1988). Yaxshi savol-javob qilish ham o‘qituvchilardan, ham talabalardan birdek uzluksiz tayyorgarlik, tajriba va mulohazani talab qiladi. Mavzuning asosiy mazmunini savollar tuzib o‘rganish odatda talabalarning o‘z-o‘ziga ishonchini oshiradi. [55]

Uni turli usullar asosida: blits so‘rov, konkurslar o‘tkazish, “zakovat”, “Qilni qirq yorib”, “zanjir”, “zaif bo‘g‘in” va boshqa o‘yinlar tarzida “menga so‘z bering”, “menga oxirgi so‘z bering” va boshqa qator usullarni qo‘llab o‘tkazish mumkin.[56]

---

[53] A Handbook for Teaching and Learning in Higher Education. Enhancing Academic Practice. Third edition. Edited by Heather Fry, Steve Ketteridge, Stephanie Marshall. First edition.This edition published 2009 by Routledge 270 Madison Ave, New York, NY 10016 Simultaneously published in the UK by Routledge 2 Park Square, Milton Park, Abingdon, Oxon OX14 4RN. - p. 81.

[54] Methods for teaching: promoting student learning in K–12 classrooms / David A.Jacobsen, Paul Eggen and Don Kauchak.—8th ed, 2009. p. 214, 216.

[55]A Handbook for Teaching and Learning in Higher Education. Enhancing Academic Practice. Third edition. Edited by Heather Fry, Steve Ketteridge, Stephanie Marshall. First edition.This edition published 2009 by Routledge 270 Madison Ave, New York, NY 10016 Simultaneously published in the UK by Routledge 2 Park Square, Milton Park, Abingdon, Oxon OX14 4RN. P. 82.

[56] Batafsil tanishish uchun qarang: Tojiboyeva D, Yo‘ldoshev A. Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi. Darslik. T.: Aloqachi, 2009.

Og‘zaki javobga asoslangan keng qo‘llaniladigan yana bir metod, suhbat metodidir. Bu metod odatda, nazariy va amaliy mashg‘ulotlarda, maslahat darslarida keng qo‘llaniladi. Bunda bilim o‘qituvchi tomonidan ma’lum bir tizimga solingan holda tushunarli, o‘quvchi-talabalar ruhiyatiga ta’sir etadigan tarzda yetkaziladi.

Suhbat didaktik jarayondagi eng ko‘hna metodlardan hisoblanadi. Suhbat - unda qatnashuvchilarda bilim olishga, o‘qish, o‘rganishga istak tug‘diradi. Shu bois u keng tarqalgan.

Suhbat - dialog (yunoncha: dialog – ikki) yoki polilog, ya’ni bir necha kishilar orasidagi so‘zlashuv, ta’lim berish va o‘rganishning savol – javob tarzida bo‘lib, u savol-javob metodidan qo‘yilgan savolga javobning atroflicha keng qamrovli bo‘lishi bilan ajralib turadi. Suhbat metodi o‘qituvchi tomonidan sinchiklab, diqqat bilan tayyorlangan savollar tizimi orqali o‘quvchi-talabalarni yangi materialni tushunishga, o‘rganganlarini o‘zlashtirishga yoki qay darajada o‘zlashtirilganini aniqlashga qaratiladi. Bunda savollar butun guruh oldiga qo‘yiladi. Bu psixologik jihatdan katta ahamiyatga ega, sababi javobga butun guruh tayyorlanadi. Agar ixtiyoriy ravishda javob bo‘lmasa, 10-15 sekundlik pauzadan so‘ng o‘quvchi-talabalardan familiyasi bo‘yicha chaqiriladi. Agar u javob berishga qiynalsa, undan javobni “sug‘urib” olishning keragi yo‘q - yaxshisi boshqasini chaqirgan ma’qul.

Suhbat metodini buyuk faylasuf Suqrot nihoyatda mohirlik bilan qo‘llagan. Bu metod turli jihatdan qaraganda ham samarali bo‘lib, qo‘yilgan savollar orqali talabalarning xotirasidagi passiv bilimlarni faollashtiradi, yangi bilimlarni o‘zlashtirish, mustaqil fikr yuritish orqali xulosa chiqarish va umumlashtirishga o‘rgatadi. Talabani o‘qituvchi fikrini ilg‘ash, uni davom ettirishga yo‘naltiradi. Maksimal darajada tafakkurni faollashtirish bilan birga olingan bilimni diagnostika qilish vositasi bo‘lib ham xizmat qiladi.

Suhbat: a) talabalarni bilim olish, o‘qish-o‘rganishga chorlovchi (kirish); b) bilim beruvchi; d) bilimlarni mustahkamlashga; e) bilimni nazorat qilishga qaratilgan bo‘lishi mumkin. Suhbat uslubini qo‘llashda savollarni qo‘yish (asosiy, qo‘shimcha, yo‘llovchi va boshqalar), o‘quvchi-talabalarning javob va mulohazalarini muhokama qilish, suhbatdan xulosalarni shakllantirish, javoblarni tuzatish usullaridan foydalaniladi.

Suhbatga uch nuqtai nazardan yondashish mumkin:

suhbatning ma’no-mohiyati jihatidan; iashkiliy jihatidan; suhbatga yuklatilgan vazifaga ko‘ra.

1. Suhbatni ma’no-mohiyati jihatidan quyidagi turlarga bo‘lishadi: evristik (yunoncha-heurikos - izlayman, topaman, kashf etaman) suhbat. O‘qituvchining mohirlik bilan qo‘ygan savollariga talabalarning javoblari orqali yangi bilimlarni jadal o‘zlashtirishlarini ta’minlashga qaratiladi.

Katehyezik suhbat (yunoncha - katechesis – nasihat, o‘git), biron bir ta’limot asoslarini savol, javob shaklidagi bayoni tarzida olib boriladi.

Germenevtik suhbat (yunoncha – hermeneutikos – tushuntiruvchi, talqin etuvchi), o‘qitilayotgan, o‘rganilayotgan uzviy savolni yozilgan matnni sharhlash va uni talqin qilish– demak nimanidir mazmunini, mohiyatini ochib berishga qaratiladi.

Suqrotchasiga va maevtikaga (yunoncha – maieutike – insonda yashiringan bilimlarni yuzaga chiqarishga undaydigan) asoslangan suhbat. Dialektik fikrlashga, bahs-munozara san’atiga o‘rgatish, qat’iyan man qilingan fikrlardan qochishga o‘rgatadigan suhbat.

Suhbatlar tashkiliy shakli bo‘yicha: *o‘quv jarayonidagi suhbat,* Bu suhbat mavzu bo‘yicha aniq savol qo‘yilib, unga batafsil javob olishga qaratilgan. U indiviudal, guruhiy tarzda o‘tkazilishi mumkin. *“Davra suhbatiga” bo‘linadi.* Nomining o‘zi aytib turibdi, u kichik guruhlar bilan yoki guruhiy o‘tkaziladi. “Davra suhbati” o‘quv suhbatidan ishtirokchilarning erkin holatda joylashish tartibi va asosiysi, ular fikrini navbat bilan bildirishi, aniq chegaralanmaganligi bilan farqlanadi. Suhbatni, ayniqsa davra suhbatini unda qo‘yilgan maqsadni amalga oshirishni ta’minlashda boshlovchi-moderator nihoyatda katta rol o‘ynaydi.

Bu uslubni qo‘llashda muayyan pedagogik usullardan foydalaniladi. Masalan, diqqatni faollashtirish, bayon qilish, taqqoslash, asosiylarini ajratish, yakunlash kabi mantiqiy tadbirlar shular jumlasidandir. Uning samaradorligining shartlari: rejani qunt bilan o‘ylab tuzish, mavzuning izchil yoritilishini ta’minlash, ko‘rgazmali materiallarni muvaffaqiyatli tanlash, bayonda kerakli emotsionallikka erishishdir.

Suhbatga yuklatilgan vazifaga ko‘ra yondashsak, uning yetakchi vazifasi – qiziqtirish, maqsadga yo‘naltirilgan va mohirona qo‘yilgan savollar yordamida ta’lim oluvchilarga berilgan mavzu bo‘yicha o‘zlarining bilimlarini eslashga va bayon qilishga harakat qilinadi va

o‘qituvchi rahbarligida boshqa ta’lim oluvchilar bilan muhokama qilinadi.

Suhbatga unga yuklatilgan vazifasiga ko‘ra uch nuqtai nazardan yondashish mumkin.

Suhbatning vazifasiga ko‘ra guruhlari



Ta’lim oluvchilar o‘qituvchi bilan birga qadamma-qadam mustaqil fikrlash, yakunlash, xulosalash va umumlashtirish yo‘li bilan yangi bilimlarni anglaydilar va o‘zlashtiradilar.

Mashg‘ulotga qo‘yilgan maqsaddan kelib chiqib, suhbatning qaysi turidan foydalanish aniqlanadi va individual, guruhiy **shaklda o‘tkaziladi.**

3.4. Guruhlarni juftlik va kichik guruhlarga bo‘lib dars o‘tish va modellashtiruvchi amaliy o‘yinlar metodi

Darsni kichik guruhlarga bo‘lib o‘tish o‘quvchi talabalarni hamkorlikda ishlashni eng yuqori darajaga olib chiqadigan metod hisoblanib, uni bir necha model variantlari mavjud. Metodni qo‘llash natijasida talabalarda birgalikda ishlash ko‘nikmasi shakllanadi. Hamkorlikda ishlash, o‘rganish jarayonida talabalar o‘zaro o‘qituvchi va o‘quvchi bo‘lib bilmaganlarini bir-birlaridan o‘rganishadi.

Iqtisodiy fanlarni o‘rganishda talabalarni darsga faol qatnashishlarini ta’minlovchi hamda boshqa metodlar bilan birgalikda qo‘llash, talabalarni bir-birlariga ta’sir ko‘rsatish imkoni keng metodlardan biri guruhlarni juftlik va kichik guruhlarga bo‘lib dars o‘tish metodidir.

U iqtisodiy fanlarni o‘qitishda muvaffaqiyatli ravishda qo‘llanilayotgan metodlardan biri bo‘lib, ilg‘or mamlakatlar, shuningdek

mamlakatimiz pedagoglarining tajribasi ham kichik guruhlarda ishlash ta’lim oluvchilar o‘rtasida ancha mustahkam munosabatlar o‘rnatilishini ko‘rsatadi.

Kichik guruhlarga bo‘linib oqitishning asosini Buyuk Britaniyalik pedagoglarning fikricha:

1) sotsial o‘zaro bog‘lanish, ta’sir ko‘rsatish nazariyasi;

2) kognitiv taraqqiyot nazariyasi;

3) bixeviorizm nazariyasi tashkil qiladi.[57]

Sotsial o‘zaro bog‘lanish nazariyasi asoschisi X. Erenfels (XIX asr oxiri) va uning Germaniyalik izdoshlari B. Keler, K. Koffka, M. Vertxeymerlar bo‘lishgan. Ularning fikricha, qismlardan iborat dinamik tarkib bo‘lib, ichki kuchlarning ta’siri tufayli imkon qadar mutanosiblikka intiladi. Kurt Koffka guruhlarni ularning a’zolari turlicha bo‘lgan dinamik bir butunlik deb qabul qilishni taklif qildi. U guruhning har bir a’zosi uning boshqa a’zolariga ta’sir ko‘satishini asoslab berdi.

XX asrning 40-yillarida Morton Doytsh birinchi marta bu nazariyani ta’riflab, bog‘lanish ijobiy (kooperativ), salbiy (musobaqa, raqiblik) yoki mavjud emas (individuallik)ligini ko‘rsatib berdi. Ijobiy bog‘lanish guruh a’zolarini bir-biridan o‘rganishi, bir-biriga ta’sir ko‘rsatishi tufayli ularni olg‘a yetaklaydi. Musobaqa esa o‘zaro harakat qarama-qarshilikdan iborat. Individualizmda bo‘lsa o‘zaro bog‘liklik yo‘q, har bir kishi o‘zi faoliyat yuritadi. Shunday qilib, sotsial nazariya kichik guruhlarda aloqadorlik ijobiy, umumiy maqsad ularni hamkorlik qilishga olib keladi, degan fikrni ilgari suradi.

Kognitiv taraqqiyot nazariyasi o‘zaro bog‘lanish, ta’sir ko‘rsatishni bilishning rivojlanishi, sifatini oshirishning zarur elementi sifatida ko‘radi. Bizni o‘rab olgan dunyoni his qilish, uni o‘rganish uchun o‘z-o‘ziga savol berish, uning javobini topishga, sabablarini o‘rganishga intilishga olib keladi, deyishadi, shu nazariya vakillari. Shveytsariyalik psixolog, faylasuf Jan Piaje o‘zaro hamkorlikda foydali tortishuvlar yuz beradi va fikr yuritishni faollashtiradi, istiqbolda kognitiv taraqqiyotni rag‘batlantirishini ko‘rsatadi.

Bixevoristik nazariya o‘qitishni insonning sa’y-harakati, tanlovini uning tashqi ta’sirga nisbatan jismoniy harakat qilish, verbal va

[57] MEC-109 Research Methodsin Economics Indira Gandhi National Open University, 2015 ISBN-978-81-266; Methods for teaching: promoting student learning in K–12 classrooms/David A.Jacobsen, Paul Eggen and Don Kauchak.—8th ed, 2009. p. 3.

emotsional reaksiyasini bir butun holatini ko‘satadi. Bu borada hozirgi paytda qator konsepsiyalar mavjud bo‘lib, ularning orasida insonda iqtisodiy fikrlash, tafakkurni shakllantirish masalalariga alohida diqqat qaratgan yo‘nalish bixeviorizm hisoblanadi. Bixeviorizm[58] - psixologik-pedagogik konsepsiya bo‘lib, insonga texnokratik tarbiya berish, ratsional tanlashga o‘rgatish nuqtai nazaridan yondashadi. U inson haqidagi fanda erishilgan yutuqlarga asoslanib, uning manfaatlari, ehtiyojlari, qobiliyati, sa’y-harakati va tanloviga ta’sir etuvchi omillarni tadqiq etadi va bunda zamonaviy metodlargan foydalanadi.

An’anaviy bixeviorizmga taniqli amerikalik faylasuf va psixolog J. Uotson asos solgan. U insonning sa’y-harakati, tanlovi, reaksiyasi stimulga, uning ruhiyati psixologiyasiga ta’sir qilishiga, unda qandaydir his-tuyg‘ular uyg‘onishiga, qo‘zg‘atilishiga bog‘liqligi haqidagi qoidalar bilan fanni boyitadi.

U aloqa, bog‘lanishlarni umumlashgan holda “**stimul – reaksiya**” tarzida ifodalaydi. Stimulga ko‘ra o‘quvchi-talabalar berilgan topshiriqlar ustida tirishib ishlaydilar. Topshiriqlarni yaxshi bajarish ularga mukofot olib keladi. Bu nazariya vakillari ham kichik guruhlarga bo‘linib ishlash, ayniqsa uning kooperativ modelini qo‘llash, raqobatga yoki individual ishlashga qaraganda yaxshi natija berisini ko‘rsatishadi.

Ko‘p tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, kichik guruhlarda o‘qitish eng murakkab va yuqori malakali o‘qitish texnikalaridan biri (Bligh, 1986; Griffiths and Partington, 1992). U talabalarni o‘qituvchilar tomonidan mas’ulyatni sezishga ruhlantiradi.[59]

Bu metod o‘zaro hamkorlik, bevosita bir-biriga ta’sir ko‘rsatish, axborotlarni guruh bo‘lib birgalikda ishlashga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Bu uslubda mas’uliyat ko‘proq o‘quvchi-talabalar zimmasiga yuklanib, ular faolligini oshirishga qaratilgan. U yana shunisi bilan ajralib turadiki. Kichik guruhlarda ishlash davomida o‘quvchi-talabalar o‘z bilganlarini bir-birlariga o‘rgatadilar. Natijada avval ko‘rib o‘tganimizdek, olingan axborotning 90%igacha **anglab yetish,** eslab qolishga erishiladi. Darsni kichik guruhlarga bo‘lib o‘tish o‘quvchi talabalarni hamkorlikda ishlashini eng yuqori darajaga olib chiqadigan metod hisoblanib, uni bir necha modellari variantlari mavjud. Metodni qo‘llash

[58] Ing. Bihavior – o‘zini tutish, sa’y-harakat, tanlov.

[59] A Handbook for Teaching and Learning in Higher Education. Enhancing Academic Practice. Third edition. Edited by Heather Fry, Steve Ketteridge, Stephanie Marshall. First edition.This edition published 2009 by Routledge 270 Madison Ave, New York, NY 10016 Simultaneously published in the UK by Routledge 2 Park Square, Milton Park, Abingdon, Oxon OX14 4RN. p. 72.

natijasida talabalarda birgalikda ishlash ko‘nikmasi shakllanadi. Hamkorlikda ishlash, o‘rganish jarayonida talabalar o‘zaro o‘qituvchi va o‘quvchi bo‘lib bilmaganlarini bir-birlaridan o‘rganishadi.

Kichik guruhlarga bo‘lib dars o‘tish metodi – guruhni ma’lum bir mezonlar asosida 2-6 o‘quvchi-talabadan iborat kichik guruhlarga bo‘lib, ularni hamkorlikda ishlash, bilish jarayonini puxtalashtirish, boshqalarning fikrini eshitishga o‘rgatadigan, mas’uliyat talabalar zimmasiga yuklanib, ular faolligini oshirishga qaratiladigan dars o‘tish metodidir.

Guruhni kichik guruhlarga bo‘lib dars o‘tish o‘ziga xos xususiyatlari bilan boshqa metodlardan ajralib turadi:

1) o‘quvchi-talabalarni hamkorlikda ishlashga, bilish jarayonini faollashtirishga, ularda kommunikabellik, kirishimlilik, boshqalarning fikrini eshitishni o‘rgatadi;

2) berilgan topshiriqni birgalikda bajarish jarayonida o‘rtoqlari tomonidan bildirilgan fikrlarni muhokama qilishga moyillik paydo bo‘ladi;

3) savollarni aniq shakllantirish, beradigan javoblarni asoslab berishni o‘rganadilar;

4) ta’lim oluvchining potensial imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga yordam beradi. Bilmaganlarini bir-birlaridan so‘rab o‘rganish imkoniyati yaratiladi. Ta’lim oluvchilar bilimini o‘zaro hamkorlikda boyishini ta’minlaydi;

5) tortinchoq o‘quvchi-talabalar o‘z bilimlari, qobiliyatlarini namoyon qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Qobiliyatli, iqtidorlilar esa o‘z mahoratlarini namoyish qilish, boshqalarga yordam berish, ularga o‘rgatishlari va ulardan ham nimanidir o‘rganishlari mumkin. Kichik guruhlarda ishlash talabalarning darsda faolligini ta’minlaydi, eng asosiysi o‘quvchi-talabalar bir-birlariga ta’sir ko‘rsatishadi;

6) kichik guruhlarda ishlash har bir o‘quvchi-talabaga, o‘zini guruhning bir bo‘lagi sifatida his qilish, bir-birlarining muvaffaqiyatlarini ko‘rsatishga o‘rganadilar.

Juftlik ham o‘ziga xos, ikki kishidan iborat kichik guruh. Unda topshiriqlar juftlikka muvofiq tayyorlanadi, ular o‘rtasida muhokama qilinadi. Guruhni juftlikdan iborat eng kichik guruhga bo‘linib ishlashining afzalligi shundaki, ular bir partada o‘tirishadi.



Topshiriqni bajarish, muhokama qilish, maslahatlashish uchun alohida joy, xonaning keragi yo‘q. Savol-javob, mashq (ayniqsa, to‘g‘ri/noto‘g‘ri)larni bajarishda darsni juftlik asosida tashkil qilish samarali bo‘lib, talabalarni faollashtiradi, o‘z fikrini himoya qilish, asoslashga o‘rgatadi.

Ikkinchi model, mozaika modeli, kooperativ kichik guruh deb ham ataladi. Unda har bir kichik guruh a’zosi berilgan umumiy topshiriq, vazifaning bir qismini bajarishga yoki savolni o‘rganishga mas’ul bo‘lib, ekspertlar sifatida qatnashadi. Turli komandalardan shu topshiriq,vazifa yoki savolni olgan talabalar birga yig‘ilib, o‘quv uni ekspertlar guruhida muhokama qiladilar. Guruhning har bir qatnashchisi ekspertlar guruhida o‘zi o‘rgangan masalani kichik guruhning boshqa a’zolariga o‘rgatadi.

Asosiy guruhlarni alfavitdagi harflar bilan, talabalarni raqamlar bilan belgilaymiz. Bu model ko‘proq qo‘shimcha sinf xonasi, auditoriya talab qilgani uchun shunday imkoniyat bor sharoitda qo‘llangani ma’qul.

Guruhning har bir qatnashchisi diqqat bilan o‘rtoqlarining fikrini eshitishga harakat qiladi. Chunki berilgan topshiriqni bajarishning yagona yo‘li o‘rtoqlarining fikrini diqqat bilan tinglab, tahlil qilib, so‘ngra gapirib berishdir. Undan tashqari, har bir talabada o‘z topshirig‘ini mufassal bajarish uchun stimul mavjud. Sababi, u berilgan savol, topshiriqni o‘rtoqlari qay darajada o‘zlashtirishlariga mas’ul. Shu model asosida kichik guruhlarga bo‘lib dars o‘tishda qo‘llaniladigan “Birgalikda o‘qiymiz”, “Ajurli arra”, “Ajurli arra-2”, “Zig-zag”, “Bumerang” kabilar ana shu modelga kiradi. Lekin bu modelda ekspertlarning hamda kichik guruh a’zolarining birgalikda alohida yig‘ilib muhokama o‘tkazishlari uchun vaqt ko‘p ketadi. Shuning uchun bu model bizda nisbatan kam qo‘llaniladi.

Talabalar soni ixtiyoriy bo‘lgan kichik guruh modelida o‘quv topshirig‘ini bajarishni 2 xil tashkil etish mumkin: 1) avval individual tarzda, so‘ngra **kichik guruh** bilan birgalikda bajarish; 2) to‘g‘ridan-to‘g‘ri kichik guruhlarda bajarish. Kichik guruhlarda ishlashning bu

modelida dars o‘tishning boshqa metodlari bilan birgalikda qo‘llash hamda turlicha tashkil qilishning imkoniyati katta. Masalan, kichik guruhlar o‘rtasida musobaqa tarzida tashkil qilish mumkin. “Charxpalak”, “stol ustida ruchka”. ‘zinama-zina”, “3x4” va boshqalar shu modelga kiradi.

Juftlik yoki kichik guruhlarga bo‘lib dars o‘tishning muvaffaqiyatli bo‘lishi ko‘p jihatdan unga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazishga bog‘liq. Tadqiqotchilarning bir ovozdan ta’kidlashicha, bu uslub fanni chuqur bilish bilan birga umumiy mavzu o‘tilyotganda mayda tafsilotlarni ham ko‘zdan qochirmaslikni talab qiladi.[60]

Kichik guruhlarga bo‘linib ishlashning ko‘satilgan ijobiy tomonlari, afzalliklari bilan birgalikda **kamchiliklari** ham bor. Ular:

Birinchidan, hamma o‘quvchi-talabalar ham darsga faol qatnashmasligi mumkin. Buni har bir kichik guruh uchun hamda uning qatnashchisi uchun baholash mezoni ishlab chiqish bilan minimallashtirish mumkin.

Ikkinchidan, o‘qituvchining dars o‘tishdagi, hatto murakkab masalalarni muhokama qilishda ham roli minimal bo‘lishi.

Uchinchidan, talabalar bir-biriga bilmaganini o‘rgatadi. Lekin yangi tushuncha, yangi o‘quv materiali berilganda fanning mazmunini chuqur va yaxshi tushunadigan o‘qituvchi bo‘lishi kerak. Auditoriyada kichik guruhlarga bo‘linib, birgalikda masala, mashq yechish mumkin. Bunda talabalar berilgan topshiriqni ma’nosiga tushundimi yoki yo‘qmi tekshirish, uni bajarishga aniq vaqt belgilash, talabalar o‘rtasida muloqot tashkil etish kerak.

To‘rtinchidan, qo‘yilgan masalani kichik guruhda muhokama qilish uchun qo‘shimcha auditoriya talab qilinadi. Ayniqsa mozaika modelida albatta qo‘shimcha sinf, auditoriya bo‘lishi zarur. Shuning uchun kichik guruhlarga berilgan topshiriqni darsdan tashqari paytda muhokama qilib, seminar darsida oxirgi kichik guruhlar taqdimoti muhokamasini o‘tkazish mumkin.

Beshinchidan, topshiriqning bitta auditoriyada muhokama qilinishi shovqin-suronni kuchayib ketishiga olib keladi.

[60] A Handbook for Teaching and Learning in Higher Education. Enhancing Academic Practice. Third edition. Edited by Heather Fry, Steve Ketteridge, Stephanie Marshall. First edition.This edition published 2009 by Routledge 270 Madison Ave, New York, NY 10016 Simultaneously published in the UK by Routledge 2 Park Square, Milton Park, Abingdon, Oxon OX14 4RN. - p. 82; Methods for teaching: promoting student learning in K–12 classrooms/David A. Jacobsen, Paul Eggen and Don Kauchak. 8th ed, 2009.

Metodning kamchiliklariga nisbatan afzallik tomonlari ko‘p. Kamchiliklarni bartaraf qilish imkoni bor. Shuning uchun ham ta’lim jarayonida bu metod keng qo‘llanilmoqda. Ayniqsa, bu metodni boshqa metodlar bilan birgalikda qo‘llash imkoniyatlari keng.

Modellashtiruvchi amaliy o‘yinlar metodi

O‘yinlar inson o‘zini hayotda namoyon qilishi, o‘z o‘rnini topishi, o‘z-o‘zini boshqarishning fundamental ehtiyojlariga tayanadi. O‘yin deganda ikki va undan ortiq tomonlarning qo‘yilgan maqsadni amalga oshirish uchun o‘z manfaatlarini o‘ylab kurashish jarayonini tushunamiz.

Modellashtiruvchi amaliy o‘yinlar - kasbiy faoliyatning predmeti va sotsial mazmunini ifodalash shakli, unga muvofiq ravishda amalda shakllangan munosabatlar tizimini modellashtirishdir. Turli-tuman kasbiy faoliyat sharoitlari insoniy faollikning yo‘nalishlari va o‘zaro ta’sirini modellashtirish vositasi bo‘lishi bilan birgalikda amaliy ish o‘yinini bajarishning yangi usullarini topish, samarali o‘qitish metodi sifatida namoyon bo‘ladi. U o‘quv predmetining abstrakt xarakteri bilan kasbiy faoliyatning real xarakteri o‘rtasidagi qarama-qarshilikni bartaraf etadi.[61]

O‘yinlar orqali o‘qitish — bu o‘quv jarayonida real voqelikni shartli vaziyat orqali ifodalab, jamiyat erishgan bilim, ko‘nikma, tajribalarni o‘zlashtirishga qaratilgan metod. Hozirgi paytda tez-tez eduteynment (ingl. *edutainment*) so‘zi ham ishlatilmoqda. U o‘yinlar orqali ta’lim olish degan ma’noni bildiradi.

Amaliy ish o‘yinlari – bu oddiy birgalikdagi o‘rganish emas, u birgalikda faoliyat olib borish, hamkorlikda ishlash ko‘nikmalarini hosil qilish jarayonidir.

Amaliy ish o‘yinlarini vujudga kelishida 17-18 asrda shakllangan harbiy o‘yinlar muhim asos bo‘lgan. Bu haqdagi dastlabki manbalarda “harbiy shaxmat”, keyinchalik “xaritada manevrlar, ya’ni dushmanga zarba berish uchun qulay imkoniyat yaratish harakatlari” tarzida foydalanilgani ko‘rsatiladi.

Birinchi amaliy ish o‘yini “Ishlab chiqarish dasturining keskin o‘zgarishi tufayli ishlab chiqarishni tubdan o‘zgartirish” 1932 yili Leningrad muxandislik-iqtisodiyot institutida Mariya Mironovna Birshteyn tomonidan ishlab chiqilgan va u muallif tomonidan “Tashkiliy

[61] Дьюи Дж. Демократия и образование/ Пер. с англ. М.: Педагогика-Пресс, 2000. С.183-190.

ishlab chiqarish sinovi” deb atalgan. O‘yinda talabalar va korxona rahbarlari qatnashgan.

Bu metod tezda ko‘pchilik tomonidan qabul qilinib, keng qo‘llanila boshlandi. Lekin 1938 yili qator ilmiy yo‘nalishlar qatorida taqiqlandi. Faqat 1960 yillardan AQSHda birinchi ish o‘yinlari qo‘llanila boshlagandan keyin (1956 yili, Ch. Abt, K. Grinblat, F. Grey, G. Grem, J. Dyui, R. Dhyuk va boshqalar) bu metoddan foydalanish boshlandi.

Hozirgi paytda, ayniqsa interaktiv metodlardan foydalanish keng qo‘llanilishi bilan ta’lim tizimida amaliy ish o‘yinlarini ishlab chiqish va qo‘llash kuchayib ketdi. Bu metodni qo‘llash nazariy jihatdan qator konsepsiyalar eng avvalo faol o‘qitish metodlarini qo‘llash nazariyasi tomonidan asoslab berildi.

Bugungi kunda mingdan ortiq turli-tuman ish o‘yinlari ishlab chiqilgan. O‘quv qo‘llanmalari, katalog, spravochnik-yo‘riqnomalar nashr qilingan. Muntazam ravishda seminarlar o‘tkaziladi. O‘yinlar va imitatsion modellashtirish bo‘yicha xalqaro assotsiatsiya tashkil etilgan.

Modellashtiruvchi amaliy o‘yinlar nihoyatda turli-tuman. Ularga turli jihatdan yondoshgan holda qator guruhlarga ajratilgan:

* pedagogik o‘yinlar faoliyat turiga ko‘ra: jismoniy, intellektual, mehnat, sotsial, psixologik;

* pedagogik jarayon xarakteriga ko‘ra: o‘rgatuvchi, trening, nazorat qilish, umumlashtirish, bilim olish, tarbiyalash, reproduktiv, produktiv, kommunikativ, ijodiy va boshqalarga;

* o‘yinni tashkillashtirish metodikasiga ko‘ra: fan predmetini o‘rganishga qaratilgan, syujetli, rolli, amaliy, imitatsion, teatrlashtirilgan (rolli) va boshqalar;

* o‘rganiladigan fan predmetiga ko‘ra: matematika, tarix, ekologiya, iqtisodiyot, psixologiya va hokazo guruhlarga bo‘lish mumkin.

O‘yinlarni dars o‘tish metodi tariqasida borgan sari kengroq qo‘llanishiga asosiy sabablardan biri, uning qadimdan insonda turli-tuman bilim, ko‘nikma, mahoratni hosil qilishi va uning xotirasida saqlanish shakli sifatida qo‘llanilib kelishidir.

Modellashtiruvchi amaliy o‘yin – bilim olishga qaratilgan va ma’lum bir pedagogik natijani ko‘zlagan hamda turli (imitatsion, amaliy, rol ijrosiga asoslangan) o‘yinlar yordamida ta’lim jarayonida muayyan maqsadni amalga oshiruvchi faoliyat.

Modellashtiruvchi o‘yin metodining alohida ajralib turuvchi jihati – maqsadni o‘yinlar orqali amalga oshirish natijasida amaliyotga yaqinlashtirish va o‘quvchi-talabalar ongiga yetkazishdir;

U o‘quvchi-talabalarning barchasi faol qatnashishi ta’minlanadi;

Ta’lim oluvchilarning o‘zlari qatnasib, qo‘yilgan maqsadni amalga oshirganlari tufayli “o‘qitish piramidasi”ga ko‘ra 75 %gacha axborotni eslab qoladilar.

Iqtisodiy fanlarni o‘rganishda modellashtirish metodi muhim o‘rin tutadi. Aynan modellashtirishda talabalar iqtisodiy tushunchalarni o‘rganishni eshitish, ko‘rish orqaligina emas, balki o‘zlari ham qatnashib o‘rganadilar. Natijada, birinchidan, eng passiv talabalarni ham darsda faol qatnashishlari ta’minlanadi. Ikkinchidan, talabalar u yoki bu tushunchani, jarayonni o‘rganishda o‘zlari qatnashganlari tufayli u xotiralarida uzoq saqlanib, faol bilim zaxirasini tashkil etadi.

Bilim va malaka o‘qish, faoliyat yuritish jarayonida shakllanadi. Biror malakani egallash uchun unga oid faoliyatni ko‘p marta takrorlash, mashq qilish, muntazam amalga oshirish zarur. Ana shu jarayon natijasida o‘quvchi, talabalarda uquv, ko‘nikma shakllanadi.

Modellashtirilgan amaliy o‘yin metodining muhim tomonlari

Modellashtirish metodining muhim tomoni:

- eng passiv talabalarni ham darsda faol qatnashishlari ta’minlanadi;
- o‘rganishda o‘zlari qatnashganlari tufayli u xotiralarida uzoq saqlanib, faol bilim zaxirasini tashkil etadi;
- iqtisodiy tushuncha, jarayonlarni o‘rganishni eshitish, ko‘rish orqaligina emas, balki o‘zlari ham qatnashib o‘rganadilar.
- modellashtiruvch amaliy o‘yinni qo‘llash induktiv metod. Amaliy o‘yin orqali nazariy xulosa chiqariladi.

Bu jihatdan ham modellashtiruvchi o‘yin metodi katta ahamiyatga ega. O‘yinlarning afzalligi shundan iboratki, o‘yin ishtirokchilari o‘ziga u yoki bu rolni olib, harchand qiziqishlari bir-birinikiga mos tushmasada o‘zaro muloqotga kirishadilar, natijada ziddiyatli vaziyat yaratilib, ehtirosli holat yuzaga keladi va bu o‘yinga qiziqish uyg‘otadi. O‘yin ishtirokchilari beixtiyor ravishda o‘yin davomida o‘z xislatlarini namoyon qiladilar. Bunda ular olgan bilim, kasbiy o‘quv malakalarinigina emas, balki umumiy iqtidorini, o‘z tabiatidagi mavjud jur’at, tezkorlik, kirishimlilik, tashabbuskorlik, faollik kabi xislatlar bor yoki yo‘qligini ham namoyish etadilar.

O‘yinlardan foydalanib dars o‘tish turli **maqsadlarni** amalga oshirishga qaratilgan.

O‘yinning didaktik maqsadi. Talabalarni bilimlarni o‘rganish, tushunish, amaliyotda olgan bilim, malaka, ko‘nikmalarini qo‘llash, ularni rivojlantirish, mehnat ko‘nikmalarini kengaytirishga qaratilgan.

O‘yinning tarbiyaviy maqsadi. Mustaqillikni, irodani tarbiyalash, ma’naviy, estetik dunyoqarashni shakllantirish, jamoaga kirishib keta olish - kommunikabellikni tarbiyalash.

O‘yinning rivojlantiruvchi maqsadi. O‘yin orqali voqea, hodisalarni muhokama, tahlil qilish, xulosa chiqarish, qaror qabul qilishga, unga turli nuqtai nazardan qarashga o‘rgatadi.

Bu yerda yana bir narsani eslatib o‘tish zarur. Matematika fanining, xususan, **amaliy matematika**ning vujudga kelib rivojlanishi uni borgan sari iqtisodiyotda keng ravishda qo‘llanilishi bilan matematik metod – **o‘yinlar nazariyasi** shakllandi va tobora rivojlanib bormoqda. Uning maqsadi o‘yinlar yordamida jarayonlarni tadqiq qilish orqali optimal strategiya ishlab chiqishdir. O‘yinda qatnashuvchilar o‘z tanlovlariga, qo‘llagan strategiyalariga ko‘ra yutishlari yoki boy berishlari mumkin.

O‘yinlar nazariyasi boshqa qatnashuvchilar haqida axborot yig‘ish, ularning resurslari, imkoniyatlarini hisobga olgan holda qanday, qaysi tomonga qadam tashlashlari, ya’ni nimani tanlashlari ehtimolini hisobga olgan holda eng maqbul strategiyani tanlashga yordamlashadi. Masalan, iqtisodiyotda “Hibsga olinganlar dilemmasi”da vaziyatga ko‘ra Nesh va Pareto strategiyasi (yechimini) tanlash. Hozirgi paytda o‘yinlar nazariyasi eng ko‘p iqtisodiyotda qo‘llaniladi. Boshqa sohalarda ham tobora keng qo‘llanib borilmoqda.

O‘qituvchi mavzuni o‘rganishda shu metodni qo‘llasni mo‘ljallar ekan, birinchi navbatda uning ssenariysini yozishi, vaqt sarfiga diqqat qaratishi va eng muhimi uning muhokamasini puxta rejalashtirishi zarur. Nisbatan samarali, fanimiz bilan bog‘liq o‘yin metodi sifatida “IMAK (ishontirish maktabi)”ni qo‘llashni namuna sifatida ko‘rishimiz mumkin (Ilovaga qarang).[62]

3.5. Innovatsion ta’lim texnologiyasida loyihalash va “case stady”metodi

[62] Iqtisodiyot nazariyasi, Buxgalteriya hisobi fanlaridan qo‘llash namunalarini qarang. Tojiboeva D., Yo‘ldoshev A. Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi. T.: Aloqachi, 2009. 224-247-b, 502-514-b.

Innovatsiya (inglizcha **innovation) –** yangilik kiritish, yangilik demakdir. Innovatsiya deb, yangi ko‘rinishda mahsulot (tovar, ish, xizmat) yaratilishini yoki takomillashtirilishini, ishlab chiqarish jarayonining yangi bosqichga ko‘tarilishini tushuniladi. Joriy qilinishini yoki ushbu jarayonning takomillashtirilishini, biznesni yuritishda yangi marketing yoki tashkiliy usullarning joriy qilinishini, ish o‘rinlari tashkil etishni yoki tashqi aloqalar o‘rnatilishini o‘zida mujassamlashtirgan innovatsiyaviy faoliyatning yakuniy natijasi tushuniladi. Shuningdek, novatsiya – bu yangi g’oya, innovatsiya esa uni tatbiq qilib, iarayonga aylantirish, real hayotda qollash, iste’mol darajasiga olib chiqishdir, deb ta’rif bildirilgan o’quv va ilmiy adabiyotlar ham talaygina.

Innovatsiyaviy tovarlar, ishlar, xizmatlar – oxirgi uch yil davomida turli darajadagi texnologik o‘zgartirilgan tovarlar, ishlar, xizmatlardir.

Innovatsiya turlari rang-barang bo‘lib, ular texnologik innovatsiyalar, mahsulotlar bo‘yicha innovatsiyalar, jarayonlar bo‘yicha innovatsiyalar, marketing innovatsiyalari, tashkiliy innovatsiyalar va hokazolarni ko‘rsatish mumkin. **Innovatsiyalar:** yangi g‘oyalar, tizim yoki faoliyat yo‘nalishini o‘zgatirishga qaratilgan aniq maqsadlar, noan’anaviy yondashuvlar, odatiy bo‘lmagan tashabbuslar, ilg‘or ish uslublari tarzida bo‘lishi mumkin.

Ta’lim sohasidagi innovatsiyalar o‘ziga xos bo‘lib, ta’lim tizimida ayni kunda munosib o‘rin egallashiga alohida diqqat qaratilmoqda. “Innovatsion ta’lim” tushunchasi birinchi bor 1979 yilda “Rim klubi”da qo‘llanilgan bo‘lib, ular:

*** faoliyat yo‘nalishiga ko‘ra:** pedagogik jarayonda yoki ta’lim tizimini boshqarishda qo‘llaniladigan;

*** kiritilgan o‘zgarishlarning tavsifiga ko‘ra:** tubdan (radikal), modifikatsiyalashgan, kombinatsiyalashgan;

*** o‘zgarishlarning ko‘lamiga ko‘ra: muayyan soha, modul va tizim;**

*** kelib chiqish manbaiga ko‘ra:** individual, jamoa tomonidan bevosita yaratilgan yoki o‘zlashtirilgan innovatsiyalarga ajratiladi.

Mamlakatimizda hozirgi paytda pedagog olimlar, amaliyotchilar ilmiy asoslangan ta’lim texnologiyalarini o‘z faoliyatlarida keng qo‘llashga intilmoqdalar. Aslida ham ijtimoiy tajriba elementlari - bilim, ijodiy faoliyat, obyektiv borliqqa munosabatlar pedagogik jarayon mahsulidir va ma’lum pedagogik tizim doirasida shakllantiriladi.

Innovatsion faoliyat yangi ijtimoiy talablar bilan an’anaviy me’yorlarning mos kelmasligi yoxud amaliyotning yangi shakllanayotgan me’yorining yuzaga kelgan me’yor bilan to‘qnashuvchi natijasida vujudga kelgan qator muammolarni yyechishga yo‘naltirilgan faoliyat sanaladi. U shaxsning, xususan, pedagogning innovatsion jarayonni tashkil etishga tashkiliy – texnologik, metodik va ijodiy jihatdan tayyorligi hisobiga tashkil etiladi. Pedagogik innovatsiyalarning izchil ravishda pedagogik faoliyatga yangiliklarni olib kirishga imkon berish orqali ta’lim tizimi yoki jarayoni muntazam rivojlanib boradi. O‘qituvchining innovatsion faoliyati pedagogik jamoani harakatga keltiruvchi, olg‘a undovchi, bunyodkorlikka rag‘batlantiruvchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi hamda u ta’lim jarayonining sifatini kafolatlaydi. Shu bois har bir o‘qituvchi innovatsiyalarning mohiyatini to‘la tushungan holda o‘z faoliyatiga izchil tatbiq eta olsa ta’lim jarayoni ham sifat ham samaradorlik nuqtai nazardan taraqqiy etadi. Bu esa o‘z navbatida ta’lim tizimining rivojini ta’minlaydi.

Innovatsion ta’lim pedagogik jarayonga yangilik, o‘zgarishlar kiritish bo‘lib, o‘quvchi-talabalarni ko‘proq mustaqillik, ijodiy, irodaviy va boshqa fazilatlarini rivojlantirishga hamda ta’lim jarayonida ilg‘or jahon tajribalarni qollashda interaktiv uslublardan foydalanishga qaratilgan.

Innovatsion ta’lim haqida to‘xtaganda yana shunga diqqat qaratish kerakki, adabiyotlarda novatsiya va innovatsiyaning farqlanishi ko‘rsatiladi: Agar faoliyat qisqa muddatli, yaxlit tizim xususiyatiga ega bo‘lib, faqatgina tizimdagi ayrim elementlarni o‘zgartirishga olib kelsa u **novatsiya (yangilanish)** deb yuritiladi. Bordi-yu, faoliyat ma’lum konseptual yondashuv asosida amalga oshirilib, uning natijasi muayyan tizimning rivojlanishiga yoki uni tubdan o‘zgartirishga olib kelsa, u holda u **innovatsiya (yangilik kiritish)** deb ataladi.

Rossiyalik taniqli pedagog olim I.P.Podlaso‘yning fikricha ta’limdagi innovatsiyalar quyidagi o‘zgarishlarga olib keladi:

- pedagogik tizimning tamomila o‘zgarishi;
- o‘quv jarayonining o‘zgarishi;
- pedagogik nazariyaning o‘zgarishi;
- o‘qituvchi faoliyatining o‘zgarishi;
- o‘quvchi (talaba) faoliyatining yangilanishi;
- pedagogik texnologiyaning o‘zgarishi;
- ta’lim mazmunining yangilanishi;

- o‘qitish shakl, metod va vositalarining o‘zgarishi;
- ta’lim tizimi boshqaruvning o‘zgarishi;
- ta’lim maqsadi va natijalarning o‘zgarishi.

Respublikamizda hozirgi paytda zamon talabiga mos mutaxassis tayyorlashga alohida diqqat qaratilib, yoshlar tarbiyasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Yuqori malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ta’limning uzluksizligi, uzviyligini ta’minlash, ilg‘or jahon ta’lim tizimi tajribalarini o‘rganish, shuningdek ta’limni o‘quv metodik ta’minotini mustahkamlashga alohida e’tibor berilmoqda, tom ma’nosi bilan innovatsion o‘zgarishlar yuz bermoqda.

- Ta’limda innovatsion rivojlanish, unda qo‘yiladigan pedagogik maqsad va uni amalga oshirishda yangicha qarashlarni, metodlarni targ‘ib qilishda amerikalik taniqli olim J. Dyuining xizmatlari katta.[63] Yana bir tadqiqortchi J. Raven muammolarni hal etishda loyihalash, muammoli vaziyatning yechimini topishga qaratilgan metodlarni yaratish va qo‘llashga sarflagan mehnati mahsulidan dunyo miqyosida pedagoglar foydalanishmoqda. Jumladan biz ham. U loyihalash uslubiga ta’lim texnologiyasini rivojlanishida “oliy darajada e’tiborga loyiq” metod sifatida qaragan.[64]

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o‘qituvchi o‘quvchi, talaba faoliyatiga yangilik, o‘zgarishlar kiritish bo‘lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol uslublardan foydalaniladi. Ana shunday metodlardan biri loyihalash metodidir.

Hozirgi kunda bu metod ta’lim texnologiyasining muhim bo‘g‘iniga aylanmoqda. U talim oluvchilarga hayot tarziga moslashish, mustaqil, ijodiy fikrlash, maqsadni amalga oshirishni rejalashtirish ko‘nikmalarini hosil qilishga yordam beradi.

Loyihalash (lot. projectus – olg‘a tashlangan fikr, g‘oya, obraz), nomini o‘zi aytib turibdiki, kelajakda amalga oshiriladigan ishlarni rejalashtirish bo‘lib, proekt ma’lum bir hisob-kitob, chizma va boshqalarga asoslangan holda tavsiflash, bayon qilish shaklida mujassamlashgan g‘oya, fikrning ifodasidir. U bildirilgan fikrni mohiyatini va uni amalga oshirish imkoniyatlarini ochib beradi.

Ayniqsa bozor iqtisodiyoti sharoitida kelajakda amalga oshiriladigan ishlarning turli-tuman loyihalari orasidan eng samaralisini

[63] Дьюи Дж. Демократия и образование: Пер. с англ. М.: Педагогика-Пресс, 2000.

[64] Равен Дж. Компетентность в современном обществе: выявление, развитие и реализация / Пер. с англ. М.: Когнито-Центр, 2002.

tanlash raqobatni yanada rivojlanishiga olib keladi. Chunki yangi g‘oyalarning qay tarzda amalga oshirilishi aynan ularning mazmun mohiyati, erishiladigan natijani ifodalagan loyihalarda aks etishiga bog‘liq. Qaysi sohani olmang investitsiyani jalb etish tayyorlangan loyihalarning ko‘zda tutilgan mezonlar asosida qo‘yilgan talablarga javob berishi, investorlarning diqqatiga molik bo‘lishiga bog‘liq. Demak ana shunday loyihalarni tayyorlash oddiy o‘quv loyihalaridan boshlanadi. O‘quvchi-talabalarda loyiha tayyorlash ko‘nikmasi o‘quv jarayonida shakllantiriladi. Bu esa loyihalash metodini qo‘llash orqali amalga oshiriladi.

Loyihalash metodi – o‘rganilishi lozim bo‘lgan mavzu, muammo, masalani aniqlab, uni yechish uchun kelajakda amalga oshiriladigan ishlarni rejalashtirish, qo‘yilgan maqsadni va uni bajarish qanday natijaga olib kelishini loyihada aks ettirish hamda uni amalga oshirishni o‘rgatadigan metod.

Bu metodni iqtisodiy fanlarni o‘rganishdagi muhim ahamiyati shundaki, talabalar biznes-reja tuzishni, turli tanlovlarda qatnashish uchun loyihalar ishlab chiqishni o‘rganadilar. Nazariy va amaliy mashg‘ulotlarni qanday tashkil etishning texnologik xaritasini ishlab chiqish, ya’ni darsni qanday o‘tkazishni mufassal rejasini ishlab chiqishni, umuman olganda, o‘z faoliyatlarini rejalashtirishni o‘rganadilar.

Loyiha – aniq reja, maqsad asosida uning natijalanishini kafolatlagan holda pedagogik faoliyat mazmunini ishlab chiqishga qaratilgan harakat mahsuli. Loyiha dastur, model, texnologik xarita va boshqa ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Loyihaning asosini ilmiy yoki ijodiy xarakterga ega g‘oya tashkil etadi.

Loyihalash – qo‘yilgan maqsaddan kelib chiqib, to‘plangan boshlang‘ich ma’lumotlarga asoslanib, kutiladigan natijani taxmin qilish va uni amalga oshirishni rejalashtirish orqali faoliyat yoki jarayon mazmunini ishlab chiqishga qaratilgan amaliy harakat hisoblanadi. Loyihalash **“g‘oya – maqsad – kutiladigan natijani ilmiy taxmin qilish – uni rejalashtirish – rejani amalga oshirishni”** tizimiga asoslanadi.

Uni ikki bosqichga bo‘lishimiz mumkin: Birinchi bosqich, loyihani yaratish; ikkinchi bosqich loyihani amalga oshirish.

Birinchi bosqichni amalga oshirish uchun pedagog:

- maqsadni aniq belgilash;

- maqsadga mos vazifalarni aniqlash;
- jarayonni bosqichma-bosqich yoritish;
- o‘quv materiali mazmunini shakllantirish;
- savol va topshiriqlar tizimini ishlab chiqish;
- jarayon yoki tadbirning metodik tuzilishini asoslash;
- talaba bilim darajasini tashxislash va uning darajasini baholash kabi ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishi zarur.

Loyiha ishi mavzusini o‘qituvchi yoki talabalarning o‘zi tanlashi mumkin.

Ikkinchi bosqichda rejalashtirilgan loyiha ishi amalga oshiriladi, hisobot va taqdimot tayyorlanadi. Guruhda muhokama qilinadi va baholanadi.

Loyihalash metodi ta’lim oluvchilarni quyidagilarga:
- fanning turli sohalaridagi bilimlarni bir butun holga keltirib, muammolarni topish va yechish, axborotlar oqimida mo‘ljal olish;
- faoliyatni tanlash huquqidan foydalanib, turli taxmin, g‘oyalarni ilgari surish, tadqiqot o‘tkazish, tahlil qilish iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligini aniqlash;



- o‘z faoliyati natijasiga mas’ul bo‘lish, mustaqil qaror qabul qilish, yutuqlar va kamchiliklarni aniqlash, uning sabablarini qidirish, xatolarni topish va to‘g‘rilash;
- turli yechim, takliflarning natijalarini ilmiy taxmin qilish (prognozlash) kabilarga o‘rgatadi;
- jamoada ishlash, turli nuqtai nazar, fikrlarning muhokamasida qatnashishga rag‘batlantiradi.

Loyihalash metodi ta’lim jarayonining muhim jihatlaridan biri bo‘lib, o‘qituvchining talabalar bilan individual ishlash imkonini beradi.

O‘qituvchi dars vaqtidan unumli foydalanib, talabalarning individual psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ular bilan yakka tartibda ishlaydi. Bunda ularning kasbiy fanlarni chuqurroq egallashlariga kengroq yo‘l ochib beriladi. Loyihalash ishlarini tashkil etishda didaktik vazifaning qo‘llanilishi va uni hal etish muammolari ko‘rib chiqiladi.

Loyihalash metodini qo‘llab, dars o‘tish jarayonida o‘quvchi, ***talabalarning vazifasi:*** iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq, ijtimoiy ahamiyatga ega ishni bajarish, mahsulot ishlab chiqarish, ilmiy, texnik, iqtisodiy va boshqa muammoni belgilangan vaqt davomida yechish yoki yechish uchun takliflar ishlab chiqish.

O‘qituvchining vazifasi: o‘quvchi, talabalarni mustaqil ijodiy faoliyatlarini unumli bo‘lishi uchun sharoit yaratish.

Bu metodni iqtisodiy fanlarni o‘rganishdagi muhim ahamiyati shundaki, talabalar biznes-reja tuzishni, turli tanlovlarda qatnashish uchun loyihalar ishlab chiqishni o‘rganadilar. Nazariy va amaliy mashg‘ulotlarni qanday tashkil etishning texnologik xaritasini ishlab chiqish, ya’ni darsni qanday o‘tkazishni mufassal rejasini ishlab chiqishni, umuman olganda, o‘z faoliyatlarini rejalashtirishni o‘rganadilar.

Loyihalar rang-barang bo‘lib, ular orasida biz uchun asosiy diqqat qaratadigan loyihalarimiz o‘quv loyihalari bo‘lib, ular ham turli-tuman.

O‘quv loyihasi – 1) talablarning muammolarni izlash, tadqiqot qilish va yyechish, natija (yechim)ni mahsulot ko‘rinishida rasmiylashtirishga qaratilgan mustaqil o‘quv faoliyatini tashkil etish usuli; 2) nazariy bilimlar asosida amaliy topshiriqlarni yyechishga qaratil-gan o‘quv harakati vositasi; 3) rivojlantirish, tarbiyalash, ta’lim berish, bilimlarni boyitish, mustahkamlash va malakalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan didaktik vosita hisoblanadi.

Tadqiqot o‘tkazishga qaratilgan loyihalarning maqsadi muammoga oid ma’lumotlarni to‘plash, ularni tahlil qilish, umumlashtirish, mohiya-tini yoritish, muammoni hal etish usul va vositalarini tavsiflash, ularning ahamiyatini asoslashdir. Natijasi esa ilmiy tezislar, maqola, referat, ilmiy doklad, keys va boshqalar bo‘lishi mumkin.

Axborot berishga qaratilgan loyihalarda ko‘proq muammoga oid ma’lumotlarni to‘plash, ularni tahlil qilish, umumlashtirish, mohiyatini yoritish, muammoni hal etish usul va vositalarini tavsiflash, ularning ahamiyatini asoslash maqsadi qo‘yiladi. Natijasi asosan hisobot, ma’ru-za, keys va boshqalardan iborat.



Amaliyotga yo‘naltirilgan loyihalarda muammoni hal etish usul va vositalarini ishlab chiqish bo‘lib, natija - harakatlar dasturi, biznes-reja, keys, strategiya, tavsiya, takliflar, ma’lumotnoma to‘plami va boshqalarni o‘z ichiga oladi.

Oliy ta’lim muassasalari talabalarining BMIlari, magistrlarning dissertatsiyalarini biz tadqiqot, axborot berish va amaliyotga yo‘naltirilgan, loyihaning integrativ hamda fanlararo, individual bajariladigan loyiha sifatida ko‘rishimiz mumkin.

Talabalar loyiha ustida ishlash jarayonida olgan bilimlaridan, bilish jarayonida xizmat qiladigan amaliy maslahatlardan foydalanishda mustaqil tahliliy fikr yuritishga o‘rganadilar. Ularda yangi g‘oyalar topish, ijodiy fikrlashga, to‘g‘ri strategiya tanlash, aniq masala-muammolarni yechish ko‘nikmasi hosil bo‘ladi. Bunda o‘qituvchi ularning ishini kuzatadi, maslahatlar beradi, qo‘llab quvvatlaydi. Boshqa hech qaysi metod



o‘quvchi-talabalarda bu metodchalik mas’uliyatni his qilishni shakllantirmaydi, tarbiyalamaydi.

O‘qituvchi bu metodni qo‘llashni mo‘ljallar ekan, uni amalga oshirish uchun zarur ko‘rsatmalarni ishlab chiqishi kerak.

Asosiy diqqatimizni mavjud muammolarni o‘rganib, ular orasidan fikrimizcha, dolzarb deb topilgan masalani tadqiq qilib, uni yechish uchun takliflar berish maqsad qilib qo‘yilgan loyiha ishlab chiqishni o‘rganish uchun darsda esa nisbatan uning oddiy, sodda varianti o‘tilayotgan mavzu yoki shu mavzu bo‘yicha mavjud muammolarni o‘rganish uchun loyiha tayyorlashni ko‘rib chiqamiz (Ilovaga qarang). Lekin barcha talabalar turli tashkilot, fondlar o‘tkazayotgan tanlovlarda qatnashish uchun ilmiy tadqiqot loyihasi tuzishni o‘rganishni faqat ijobiy baholash mumkin. Talabalar bu metod yordamida biznes-reja tuzishni o‘rganadilar.

Case stady metodini qo‘llash. Biz “muammo” so‘zini ko‘p eshitamiz va o‘zimiz ham qo‘llaymiz. Muammo bu qo‘yilgan maqsad bilan unga erishish o‘rtasidagi qiyinchilik, yetishmovchilik, imkonsizlikni ifodalaydi. Ular turli-tuman. Biz har qadamda ro‘baro keladigan muammolar bu turmush va ish jarayonidagi muammolardir.

Turmush muammolari – bu asosan maishiy muammolar, uni bartaraf qilish inson uchun nihoyatda dolzarb, lekin ularning yechimi mavjud imkoniyatlarga borib taqaladi, shuning uchun ko‘pincha uni darrovda yyechish qiyin. Xuddi shunday ishlab chiqarish jarayonida yuz beradigan muammolar ham asosan iqtisodiyotning bosh muammosiga borib taqaladi.

Ta’lim tizimida o‘quv jarayonida diqqat qaratadigan asosiy muammolar – bular ilmiy muammo va o‘quv muammosidir.

O‘quv muammosi – bu odatda fan tomonidan yechilgan muammo, lekin u o‘quvchi-talabalar uchun noma’lum, yangi muammo sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘quv muammosi – bu ta’lim oluvchilar uchun izlanish vazifasi, masalasi. Uni yyechish uchun yangi bilimlar zarur. Aynan muammoni yyechish jarayonida bu bilimlar o‘zlashtirilishi kerak.

Bozor iqtisodiyoti har turli vaziyatda to‘g‘ri tanlash va qaror qabul qilish zaruratini keltirib chiqaradi. AQShning XX asr boshlaridagi eng badavlat odamlaridan biri Rokfeller, bizni qanday hayot kechirishimiz qabul qiladigan qarorimizga bog‘liq, degan ekan.

Talabalarni qaror qabul qilishga o‘rgatishda muammoli vaziyat hosil qilib, uni yechishni o‘rganish metodi – Case study method (case - aniq vaziyat, hodisa, study-o‘qitish) – “keys” katta imkoniyatlarga ega.[65]

Keys stadi metodi - o‘quvchi-talabalarni qaror qabul qilishga o‘rgatishda muammoli vaziyat hosil qilib, uni yechishni o‘rganish metodidir.

Taniqli olim G Spenserning “Ta’limning buyuk maqsadi bilim berish emas, balki xatti-harakatlarga o‘rgatishdir” degan fikri aynan ana shu metodda to‘laroq amalga oshadi. **Keys – biror faoliyat, ko‘proq ishlab chiqarishda sodir bo‘ladigan aniq muammoli vaziyatning tafsilotidir**. Jahon pedagogikasida keng miqyosda samarali qo‘llanilayotgan keyslardan foydalanish o‘zlashtirilgan bilimlarni amalda qo‘llashga qaratilgan.

Keys – bu real hayotning “bir parchasidir” (ingl. - TRUE LIFE atamasiga ko‘ra). Keys vaziyatning oddiy haqiqiy bayonigina emas, balki uni tushunish va baholashga imkon beradigan yagona axborot majmuasidir.

Birinchi marta “Case study” metodi Garvard (AQSh) universitetining huquq maktabida 1870 yili, 1920 yili esa Garvarg biznes maktabida qo‘llanilgan.

Huquq rivojlangan mamlakatlarning o‘quv rejalarida keyslar 20%ni, Garvard biznes maktabi o‘qish vaqtining deyarli 90%ini aniq keyslar muhokamasiga sarf etilishi ham ularni iqtisodiyotni o‘rganishda naqadar ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.[66]

Hozirgi vaqtda case study metodining 2 ta: **Garvard** (amerika) va **Manchectr** (Yevropa) klassik maktabi bo‘lib, birinchi metodda yagona to‘g‘ri yechim topishga qaratilsa, ikkinchisi muammoning yechimini ko‘p variantliligini ko‘zda tutadi.

Amerikacha keysllar hajmi katta, 20-25 bet matn, 8-10 bet illyustratsiyani o‘z ichiga oladi. Yevropacha keyslarda ular nisbatan 1,5-2 barobar qisqa.

Ta’lim tizimida keys metodini keng qo‘llanishiga ikki tendensiya mavjudligi sabab. **Birinchisi,** ta’lim rivojining umumiy yo‘nalishda mo‘ljal aniq bilim olishgina emas, katta hajmdagi axborotlar

[65] Education in a federal system: A case-study of Belgium Caroline Varin *University of Pennsylvania*, cvarin19@gmail.com; This paper is posted at ScholarlyCommons. http://repository.upenn.edu/curej/24;
For more information, please contact repository@pobox.upenn.edu.

[66] Case Studies in EducationLeadership and Innovation. 2012 by Richard Smith and David Lynch. 11 p.

to‘plamidan tezda zarur axborotni ajratish ularga ishlov berish ko‘nikmasini shakllantirish. **Ikkinchisi,** mutaxassisga qo‘yilayotgan talablardan, ya’ni turli muammoli vaziyatlardan tezda chiqib ketish uchun optimal yechim topish, turli variantlardan shu sharoit, shu holat uchun eng maqbulini tanlash malakasiga ega bo‘lish.

• Keyslar turli-tuman bo‘lib, muammoni qamrab olish miqyosiga ko‘ra: makro, mikro, mini va umumiy keyslarga, maqsad-mazmuniga ko‘ra: strategik va taktik keyslar, muammoli vaziyatning yuz bergan, bermaganiga ko‘ra: real voqelikka asoslangan, voqelik imitatsiya qilingan va boshqa turdagi keyslarga bo‘linadi.

• Keys nazariy bilimlarni, ko‘nikma va mahoratlarini amalda qo‘llashga o‘rgatadi. Bu metodning yana bir muhim tomoni shundaki, u nazariyani amaliyot bilan bog‘laydi. Shuning uchun ham ko‘pchilik pedagoglar keysga ishlab chiqarishda yuz beradigan aniq muammoli vaziyatning tafsiloti sifatida qarashadi. Keyslar mazmuni, qamroviga ko‘ra: mikrokeys, minikeys, umumiy keyslarga, qo‘yilgan maqsadga ko‘ra taktik, strategik keyslar va boshqa turlarga bo‘linadi.

Keyslarning turlari



• Keys metodning boshqalaridan farqi shuki, talaba muammoli vaziyatni o‘rganib, xulosa chiqarish, qaror qabul qilish, undan qanday chiqib ketishni, turli variantlardan eng maqbulini tanlashni o‘rganadi.

• Keys talabalarga real voqelikdan kelib chiqib, muammoli vaziyatlarni modellashtirish imkonini beradi, amaliyotda aniq vaziyatga tashxis qo‘yish g‘oyalarni shakllantirish, gipotezalar ishlab chiqish, muammolarni ajratish, qo‘shimcha qanday axborotlar to‘plash zarurligini tezda ilg‘ash, muammoni yechish bo‘yicha zarur chora-tadbirlar ishlab chiqishni o‘rgatadi.

• Keys talabalarga muammoli vaziyatlarni tahlil qilish uni yechish, identifikatsiya qilish bo‘yicha erkin yo‘llarini tanlash imkonini beradi.

• Keys talabalarga uni muhokama qilish jarayonida o‘zaro muloqotda bo‘lish, boshqalarni fikrini eshitish va unga o‘z munosabatini bildirishni o‘rgatadi.

Real hayotdan olingan keys voqea-hodisalarni nafaqat to‘g‘ri ko‘rsatish balki bir butun informatsion majmuani ifodalaydi. U to‘liq bo‘lmasa vaziyatning mazmun mohiyatini tushunish qiyin.

Mamlakatimizdagi ta’lim sohasida keys-stadi, asosan, mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimida, ayniqsa boshqaruv sohasida qo‘llaniladi. Keyingi yillarda oliy o‘quv yurtlarida ham o‘qituvchilarning keyslarni ishlab chiqish va amalga oshirishga qiziqishi oshayotganligi kuzatilayapti.

Keys-stadini iqtisodiy oliy o‘quv yurtining ta’lim amaliyotiga keng tatbiq etishning dolzarbligi va zarurligi quyidagi omillar bilan bog‘liq:

Birinchidan, mamlakatdagi iqtisodiy ta’limning umumiy yo‘nalishi, uning nafaqat ta’lim oluvchilarda aniq bilimlarni shakllantirishga, shu bilan birga talabalarda fikrlash faoliyati, nazariy bilimlarini amalda qo‘llashga tayyorlik va bunga qobillikni rivojlantirish, bo‘lg‘usi mutaxassislarda mustaqillik va tashabbuskorlik, boshqaruv va iqtisodiyotdagi tadqiqotlarning turli jihatlari bilan bog‘liq keng doiradagi masalalarni idrok etish qobiliyatini ravnaq toptirishga yo‘naltirilganligi bilan.

Auditoriya sharoitlaridayoq boshqaruvchilik yechimlarini qabul qilishga doir malaka va ko‘nikmalar egallanmasa keyinchalik yaxshi boshqaruvchi bo‘lib chiqish mumkin emas. Kelgusidagi kasbiy faoliyat uchun o‘zining boshqarish siyosatini ishlab chiqish uchun talabalar korxonada va umuman iqtisodiyotda vujudga keladigan turli xil vaziyatlarni tahlil etish malakalari va ko‘nikmalarini egallashi, tahlil qila bilish qobiliyatini o‘stirishi, boshqaruvchiga xos xususiyatlarni orttirish zarur.

“Maslahat berish mumkin, lekin bunday maslahatdan foydalanishga o‘rgatish mumkin emasligi” haqiqatdir. O‘rganib olgach omadli iqtisodchi, moliyachi yoki menejerga aylanib olishga imkon beradigan qandaydir yagona, universal uslub yoki usul mavjud emas.

Talabalarning keyslarni ishlab chiqish texnologiyalarini o‘zlashtirishi, keysda taqdim qilinadigan amaliy muammoli vaziyatlarni tahlil etish, yakka tartibda va jamoa bo‘lib ularni optimal hal qilish

yo‘llarini izlash malakalarini egallashi, bo‘lg‘usi mutaxassisda funksional vakolatlilikni shakllantirish – kasbiy faoliyatda o‘zining boshqarish va tashkil qilish texnologiyalarini loyihalashtirish, kasbiy jarayon mantig‘ini qurish usullari, shuningdek kasbiy vazifalarni mustaqil va mobil tarzda hal etish usullarini hosil qilishga yordam beradi.

Ikkinchidan, bozor iqtisodiyotining nostandart vaziyatlarda bir tizimli asosda va samarali harakat qilish, oqilona yechimlarni qabul qilish qobiliyatini egallagan mutaxassislarga muhtojligi bilan.

Keysda har xil hayotiy vaziyatlar bayoni beriladi va ularning oqibatlari xususida mushohada yuritish yoki qatnashchilar harakatlarining samaradorligini baholash yoxud muammoni hal etish usullarini taklif qilish talab etiladi. Lekin har qanday holatda ham amaliy harakat modeli ustida ishlash ta’lim oluvchilar – bo‘lg‘usi mutaxassislarda mehnat bozori talab qiladigan kasbiy jihatdan muhim xususiyatlarni shakllantirishning samarali vositasi hisoblanadi.

Uchinchidan, jahon tajribasi ko‘rsatib turganidek, keys-stadi talabalarda ijtimoiy yetuklikni rivojlantirish, o‘qishga qiziqish va motivlarni hosil qilish, ularni haqiqiy professionallar sifatida yetishtirishga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Keys-stadining bo‘lg‘usi mutaxassis shaxsining kasbiy va ijtimoiy jihatdan muhim fazilatlarini shakllantirishga ta’sir ko‘rsatadigan usullari va vositalari, nazarimizda1-jadvalda ishonarli tarzda aks ettirilgan.

Keys ishlab chiqishda birinchi navbatda maqsadning qo‘yilishi kutilayotgan natijaga e’tibor beriladi. So‘ngra, muammoning ifodalanishi; keys dasturiy kartasining tuzilishi; institutsional tizim izlanishi va tanlanishi; axborot yig‘ish usullari va vositalarini tanlash; axborot yig‘ish; vaziyat modelining qurilishi; keys matnini yozilishi; keysning natijaviy variantining tayyorlanishi; keysning ta’lim amaliyotiga joriy etilishi; keysolog fikrini berishga diqqat qaratiladi.

Iqtisodiy fanlardan **“Keys stadi”** metodini qo‘llab topshiriq tayyorlash, uni yechish va javobini muhokama qilish haqida to‘xtalar ekanmiz, keys tayyorlashda avvalo nimalarga ahamiyat berishimiz zarurligini aniqlab olishimiz kerak:

1. Keys unga qo‘yilgan maqsadga muvofiq bo‘lishi, aniq mos kelishi;
2. Keysga xos ravishda murakkabligi;
3. Iqtisodiy hayotni bir necha yo‘nalishlarini o‘zida aks ettirishi;

4. Juda tez eskirmasligi;
5. Hozirgi kunda dolzarb bo‘lishi;
6. Tipik vaziyatlarni aks ettirgan bo‘lishi;
7. Tahliliy fikrlashni rivojlantirinshi;
8. Munozarani keltirib chiqarishi;
9. Muqobil javoblar bo‘lishi

Muammoga har bir kishi o‘zicha yondashadi (keys metodini qo‘llash bo‘yicha namunaga qarang). Uning muvaffaqiyati o‘rganilayotgan mavzu yoki o‘quv predmetiga muvofiq bo‘lishi darajasiga qarab, shuningdek unda nostandart, muayyan o‘ziga jalb etishiga ko‘ra nimadir borligiga ko‘ra belgilanadiki, bu unga o‘ziga xoslik baxsh etib, qiziqtiradi va tadqiqotchilik motivatsiyasini hosil qiladi.

3.6. O‘quv va ilmiy adabiyotlar ustida mustaqil ishlash metodlari

Jahon miqyosida ta’lim tizimining hozirgi kundagi muhim tashvishga solayotgan masalalaridan biri yoshlarning borgan sari kitob o‘qishini kamayib ketayotganligir. Kitob ustida ishlash o‘quvchi, talaba uchun murakkab va qiyin metod sanaladi. Juda ko‘p o‘quvchi, talabalar o‘qishni bilganlari holda kitob bilan ishlashni yetarli darajada bilmay yoki o‘qiganlarining ma’nosiga to‘liq yetmagan holda o‘qishni bitiradilar. Bunga sabab nima? Nima sababdan o‘quvchilar ham, talabalar ham o‘quv adabiyotlari bilan ishlashni qiyin ko‘rishadi? Yoshlarni kitob o‘qishini kamayib borishi sababi nimada?

Bir guruh AQSHlik pedagog-metodistlar tadqiqot o‘tkazib, buning ikki asosiy sababini aniqlashdi: **birinchidan,** darsliklar, ko‘pincha noaniq, mujmal yozilgan bo‘ladi, hech bo‘lmaganda matnni tushunish uchun zarur bo‘lgan barcha axborotni kamdan-kam holatda qamrab oladi. Kitobxon noaniq yozilgan matnga, tushunmagan so‘zga duch kelgach, tipik holatda o‘zini passiv tutadi, ya’ni eng osoni kitobni yopib qo‘ya qoladi.

Ikkinchidan, o‘quvchi, talabalar ko‘pincha bir adabiyotdan zarur axborotni barchasini olishni ko‘zlashadi. Bir kitobda hamma axborotlarni berib bo‘lmaydi. Bunday imkoniyatga ega global tarmoq - internetning yaratilishi kitob ustida ishlashni yanada kamayishiga olib keldi. Shuning uchun amerikalik va boshqa mamlakatlar pedagoglari tomonidan o‘quvchi, talabalarni kitob ustida ishlashlarini faollashtirish

maqsadida qator metodlar ishlab chiqildi. Bulardan “muallifdan so‘rang”, “insert”, “B/B/B” jadvali, “Taqriz yozish”, “O‘qigan kitobim va mening egallayotgan kasbim” va boshqa qator metodlarni ko‘rsatish mumkin.

Ma’lumki, bilim olish, malaka va mahoratga ega bo‘lishda kitobga teng keladigan manba yo‘q. Hozirda yoshlar hayotida internet alohida rol o‘ynashiga qaramay u kitobning o‘rnini bosa olmaydi. Germaniyalik olimlarning olib borgan tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, haddan tashqari internet, kompyuter bilan shug‘ullanish insonning intellektual salohiyatini oshirishga emas, aksincha pasaytirishga olib kelar ekan. Bu tadqiqot taniqli fransuz faylasufi D. Didroning “Kimki kitob o‘qishdan to‘xtasa bilingki, u fikrlashdan ham to‘xtagan bo‘ladi” degan fikri bilan naqadar haq ekanligini ko‘rsatadi. Olimlar biz uchun ayon narsa: o‘qish insonni aqlliroq qilishini, boshqa hech qaysi faoliyat miyaning bilish imkoniyatini, qobiliyatini kengaytirishga xizmat qilmasligini, uning miya uchun naqadar foydali ekanligini o‘tkazgan tadqiqotlari asosida isbotlashdi.[67] Yana bir tadqiqot ko‘rsatdiki, qog‘ozga bosilgan kitob elektron kitobga qaraganda simpatik nerv tizimi (yurak faoliyatini qo‘zg‘atadigan)ni 2 marta ko‘p 31dan 68 %gacha ko‘tarilar ekan.[68]

Kitob bilan muloqot – insonning intellektual rivojlanishining oliy va hech nima bilan almashtirib bo‘lmaydigan shaklidir.[69]

Ingliz faylasufi F. Bekon aytganidek, “**O‘qish insonni bilimdon, suhbat – topqir, yozib borish odati – aniq mo‘ljalga oluvchi** qiladi”.[70]

Kitob o‘qish – nutq faoliyatining murakkab turi bo‘lib, uni ustida ishlash mahorati ko‘p jihatdan uning ahamiyati, rolini tushunish, uni o‘qishgacha kitob haqida, uning tarkibiy elementlari haqida bilimga ega bo‘lishga bog‘ liq bo‘ladi. Kitob o‘qish uchun barcha faoliyatni amalga oshirishdan maqsad qo‘yilgani kabi, uni o‘qishdan ham maqsad qo‘yamiz.

O‘quv jarayonida qo‘yilgan maqsad bu – kerakli axborotga ega bo‘lish; buning uchun texnik jihatdan - o‘qish va tez o‘qish ko‘nikmalarini egallashimiz, hamda ijodiy jihatdan – matndan zarur ma’lumotlarni tanlab olish mahoratiga ega bo‘lishimiz kerak.

---

[67] Клэй Диллоу (Clay Dillow) Ученые подтвердили очевидное: чтение полезно для мозга. http://inosmi.ru/usa/20120915/199230530.html

[68] *https://www.kp.ru/daily/26419/3293139/*

[69] D.Didro. http://www.aforism.su/105.html, А.Твардовский http://www.aforism.su/105.html

[70] F. Bekon D. Didro. http://www.aforism.su/105.html

Buning uchun biz dastlab kitobning tarkibi haqida tushunchamiz bo‘lishi zarur. Har bir kitobning tarkibi quyidagilardan iborat bo‘ladi:

1) Sarlavha: kitobning nomi, ilmiy adabiyotlarda ayniqsa, mavzuga urg‘ u beriladi

2) Annotatsiya: titul varag‘ i orqasida joylashtirilib, kitobning qaysi yo‘nalishga qaratilgani ko‘rsatiladi. Uning mazmunini qisqacha tavsifi beriladi. Kimlar uchun mo‘ljallangani ko‘rsatiladi.

3) Mundarija: mavzu rejasi beriladi, u kitob bo‘yicha yo‘l ko‘rsatuvchi bo‘lib xizmat qiladi (ayrim adabiyotlarda oxirida beriladi).

4) So‘z boshi: muallif tomonidan qo‘yilgan maqsad va uni amalga oshirishning naqadar zarurligi va vazifalari bayoni, muallifning nimalarga alohida diqqat qaratgani, uni o‘qish jarayonida kitobxon nimalarga e’tibor berishi va boshqa shu kabilar bayoni;

5) Asosiy qism: Unda kitobning bo‘limlari, boblari, ishning mazmuni bayon qilinadi.

6) Iqtibos keltirish (sitata berish) - matndan so‘zma-so‘z parcha keltirish. Unda albatta chiqish ma’lumotlari beriladi (muallif, ishning nomi, nashr joyi, nashriyot nomi, nashr yili, sahifasi).

7) Xotima (xulosa): qisqacha xulosalar beriladi.

Undan tashqari **izohli lug‘ at** (glossariy), kitobda keng qo‘llanilgan atama, tushunchalarning qisqacha mazmuni, **ilovalar** berilishi mumkin.

Kitob o‘qishdan qo‘yilgan maqsadga ko‘ra uni qanday o‘qish tanlab olinadi.

Kitob ustida ishlash o‘qish, o‘rganishning eng muhim metodlaridan hisoblanadi. U dars jarayonida o‘qituvchi rahbarligida yoki mustaqil ravishda amalga oshirilishi mumkin.

O‘quv va ilmiy adabiyotlarni o‘qish turlari



Ma’lumki, resurslarning cheklanganligi tanlashni, tanlash esa taqqoslashni, tanqidiy nuqtai nazardan qarashni zarur qilib qo‘yadi.

Bozor iqtisodiyoti raqobatga asoslanar ekan, tanlash, har bir narsaga tanqidiy nuqtai nazardan yondashish, mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish yanada dolzarblashadi. Demak, o‘quvchi-talabalarda ana shunday ko‘nikmani shakllantirish zarur. **Bunday ko‘nikmani tanqidiy fikrlashga yo‘naltirilgan metodlar orqali shakllantiriladi.**

Ingliz olimlarining fikricha tanqidiy o‘qish tushunchasi talabalar uchun ancha mavhum tushuncha bo‘lishi mumkin. Shu sababli biz ushbu tushunchani izohlab berishdan boshlab, tanqidiy degani faqatgina o‘qilgan materialdan tashqi dunyoga nisbatan nega degan savol bilan qarash emas, balki o‘zini ham tekshirib, o‘z tadqiqot falsafasini anglab yetish, o‘z ishiga ham tanqidiy nuqtai nazardan qarash ko‘zda tutiladi. Yana bir narsaga ahamiyat berish kerakki, ochiqdan-ochiq vayronkor tanqiddan qochish lozim, maqsad bunyodkor umumiy tasavvurga ega bo‘lishdir.

Talabalar uchun tanqidiy o‘qish oson emas. Bu borada olib borilgan birinchi tadqiqotlar (Keys va Ganstoun, 2003) vaqt talabalar uchun asosiy muammo bo‘lganini ko‘rsatdi. O‘zlashtirishga yuzaki yondashadigan talabalar uchun to‘liq tushunishga mo‘ljallangan vazifalarni bajarish juda ko‘p vaqtni olishini ta’kidlashgan. O‘zlashtirish uchun chuqur yondashadigan talabalar uchun esa qanchalik vaqt ketsa ham bir umrga esda qoladigan qilib o‘rganish ma’quldir.

Ikkinchidan, modul kurslari talabalarda ma’lum bir chegaralarda o‘ylashga majbur qiladi. Bilim va o‘rganishning bunday usullari ham tanqidiy o‘qish uchun to‘siq bo‘lishi mumkin. Uchinchidan, o‘zgacha ta’lim falsafasi asosida o‘qib o‘sgan ba’zi talabalar uchun ular katta bo‘lgan madaniy muhit ham to‘siq vazifasini bajarishi mumkin. O‘z madaniyatida tan olingan olimlarning fikrlariga tanqidiy nazar bilan qarashga o‘rganmagan talabalar uchun tanqidiy o‘ylashni o‘rganishi ancha mashaqqatli bo‘lishi mumkin.[71]

Tanqidiy fikrlash bu mustaqil fikrlashdir. Mustaqil fikrlaydigan kishi vaziyatni o‘rganib, tahlil qilib, zarur qaror qabul qiladi. Agarda muvaffaqiyatsizlikka uchrasa, undan chiqib ketish yo‘llarini izlaydi, topishga harakat qiladi. Qo‘ygan maqsadiga yetish uchun tinmay izlanadi. Shuning uchun ham keyingi yillarda o‘quvchi-talabalarni

[71] A Handbook for Teaching and Learning in Higher Education. Enhancing Academic Practice. Third edition. Edited by Heather Fry, Steve Ketteridge, Stephanie Marshall. First edition.This edition published 2009 by Routledge 270 Madison Ave, New York, NY 10016 Simultaneously published in the UK by Routledge 2 Park Square, Milton Park, Abingdon, Oxon OX14 4RN. P. 396.

tanqidiy fikrlashga o‘rgatuvchi metodlarni dars jarayonida qo‘llashga katta e’tibor berilmoqda. Inson tanqidiy fikrlar ekan, u yoki bu g‘ oyalar bilan tanishadi, ularni amalga oshirishdagi mumkin bo‘lgan salbiy oqibatlarni oldini oladigan bo‘lib boradi.

Tanqidiy fikrlash g‘oya va imkoniyatlarni ijodkorlik bilan uyg‘unlashuvi, konsepsiya va axborotlarni qayta ko‘rishdek murakkab jarayondir. Bu faol va interaktiv bilishning bir necha darajalarida bir vaqtda ro‘y beradigan jarayon bo‘lib ham hisoblanadi.

Tanqidiy nazar metodini qo‘llashning yana bir ijobiy tomoni borki, u g‘oyalar va tavsiflar, fikrlarning turli-tumanligini ta’minlaydi. Agar “yagona bitta javob to‘g‘ri” degan kayfiyat ustunlik qilsa, tanqidiy fikrlashga imkon bermaydi.

Metodni qo‘llaganda eng asosiysi o‘quvchi talabalar olinayotgan axborotlarni ma’nosiga yetishlari lozim. Ularni faol o‘zlashtirganlarida, tushunib ma’nosiga yetganlaridagina eng yuqori natijaga erishishlari mumkin. Bunday natijaga tanqidiy nazar metodini qo‘llash orqali erishish mumkin.

Fikrlash faoliyatini rivojlantirishni turli strategiyalari, usullari, yo‘llari, mavjud. Aynan tanqidiy nazar metodi o‘quvchi-talabalarni bildirgan fikrini anglashga va unga o‘z munosabatini bildirishga yo‘naltiradi.

Ma’lumki, o‘quvchi talabalar o‘z bilimlarini ma’lum bir masalalarni yechishda tadbiq eta olsalargina ularda bilim va ijodiy fikrlash rivojlanadi. Ana shu jarayon bu metodni qo‘llash orqali bildirilgan fikrni ma’nosiga yetishda bilinadi.

Bunda seminar, amaliyot daftari sahifasiga taqqoslanayotgan matnlar soniga muvofiq ustunlari bor jadval chiziladi. O‘qituvchi talabalarga ularga nimalar yozilishini tushuntiradi.

Tanqidiy nazar metodi - matnning mazmunini tadqiq qilish, taqqoslash, shaxsiy tajriba bilan bog‘lash va o‘z munosabatini bildirishni o‘rgatadigan metod. Tanqidiy nazar metodi[72] va uni dars jarayonida qo‘llash quyidagacha amalga oshiriladi:

O‘qituvchi mavzu, savol yoki muammoni, darsda o‘rganiladigan kategoriya kabilarni tanlashi lozim. So‘ngra ajratib olingan savol yoki muammoni qaysi adabiyotdan o‘rganiladi: o‘quv adabiyotidanmi yoki biron bir ilmiy ommabop jurnal yoki gazetada berilgan maqolami,

[72] Metod muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

rejalashtiradi. Taxminan dars qanday o‘tishini texnologik xaritasini ishlab chiqadi.

Dars jarayonidagi dastlab o‘rganiladigan mavzu va uni qanday metod yordamida muhokama qilinishini o‘quvchi – talabalarga yetkaziladi.

Tanqidiy nazar metodi asosida dars o‘tish tafsiloti:

Ajratib olingan savol, kategoriya, tushuncha, masala yoki muammo o‘quvchi talabalarga e’lon qilinadi. Bunda o‘rganilayotgan mavzu, savol, kategoriya, tushuncha va hokazolarga ikki va undan ortiq mualliflarning fikrlarini taqqoslashga diqqat qaratiladi. Uni qo‘yilgan maqsaddan, guruhning salohiyatidan kelib chiqib, soddalashtirilgan yoki murakkablashtirilgan variantlarda qo‘llasa bo‘ladi.

Ayniqsa, iqtisodiy kategoriya, tushunchalarni mazmun-mohiyatini o‘rganishda keng qo‘llash mumkin.

Metodni qo‘llashni misol yordamida ko‘rib chiqamiz.

Aytaylik, biz “Asosiy vositalar amortizatsiyasi auditini” o‘rganayapmiz. Buning uchun “Audit” fanidan nashr etilgan adabiyotlarda ana shu mavzu bo‘yicha tekshirishga qaratilgan bildirilgan fikrlarni taqqoslaymiz.

Dastlab o‘quvchilar asosiy vositalar nima ekanligini, shuningdek ularga amortizatsiya hisoblash tartibi, so‘ngra uni tekshirishga o‘rganishlarini nazarda tutib, quyidagicha topshiriq beramiz:

“Asosiy vositalarga eskirishni hisoblashning to‘g‘riligini tekshirish” mavzusi bo‘yicha topshiriq:

Qo‘lingizda ikkita kitob turibdi. Siz undan har ikki muallif (mualliflar guruhi)ning amortizatsiyaga bergan ta’riflarini toping. Uch ustunli chizma chizing. Birinchi va ikkinchi ustunga ta’riflarni iqtibos tarzida ko‘chiring va manbalarni to‘liq keltiring. Ta’riflarni taqqoslang va o‘z fikringizni bildiring.

Bunda talabalar har ikki muallif bildirgan fikr, g‘oya, nuqtai nazarni taqqoslaydi, ular bo‘yicha o‘z fikrini bildiradi.

O‘qituvchi javob varaqalari yoki daftarlarni yig‘ib olib, baholaydi.

Tanqidiy nazar metodini turli variant, modifikatsiyalarda qo‘llash mumkin. U o‘qituvchining fanni naqadar chuqur bilishi, fantaziyasi va boshqalarga bog‘liq. Bunda bir uzviy savol, muammo, ta’rif kabilarni o‘rganishga bag‘ishlangan o‘quv, ilmiy adabiyot, jurnaldagi maqolalardan foydalanamiz.

1. O‘qituvchi avvaldan talabalarga o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha har bir o‘qilayotgan betdan unga yoqqan matn parchasi asosida, ularni solishtirish orqali eng to‘g‘ri deb, yozilganini ko‘rsatib, o‘z fikrini asoslab berishni topshirishi mumkin.

Topshiriqni bajarish bo‘yicha talabaning javob varaqasi

Birinchi muallif fikri	Ikkinchi muallif fikri	O‘quvchi-talaba nuqtai nazari, izohi
Asosiy vositalar amortizatsiyasi – asosiy vositalarning qiymati ma’lum bir davr ichida ishlab chiqarilgan mahsulot qiymatiga qo‘shilib borishi natijasida uning tabiiy va ma’naviy eskirishidir. (Do‘smurotov R.D. “Audit” ma’ruzalar matni. “O‘zbekiston Milliy ensiklope-diyasi” davlat ilmiy nashriyoti. 2005, 274- bet)	**Asosiy vositalar amortizatsiyasi** – bu asosiy vositalar qiymatini hisobot davri davomida tizimlashgan uslubda bosqichma-bosqich ishlab chiqarilgan mahsulot qiymatiga o‘tkazishdir. (M.M.To‘laxo‘jaeva, SH. I.Ilhomov, K.B.Ahmadjonov, SH, N.Fayziev, M.X.Xo‘jaeva, M.S.Tuliev AUDIT. Darslik. T: DeHaus Print, 2011. 185-b.)	Ikkinchi kitobdagi ta’rif sodda va kengroq. Asosiy vositalar qiymatini bosqichma-bosqich ishlab chiqarilgan mahsulot qiymatiga o‘tkazilishiga urg‘u berilgan. Birinchi kitobdagi ta’rifda asosiy vositalarning qiymati mahsulot qiymatiga qo‘shilib borishi natijasida uning tabi-iy va ma’naviy eskirishi yuz berishi ko‘rsatilgan. Vaholanki, asosiy vositalar ishlatilsa ham, ishlatilmasa ham eskiradi.

2. Darsni “Harakatlar strategiyasi”da ustuvor yo‘nalishlarda nima sababdan aynan shu yo‘nalishga diqqat qaratilganini asoslashga bag‘ishlangan topshiriqlarni unga berilgan izohni individual, kichik guruhlarda, guruhda qo‘llash, muhokama qilish tarzida barcha talabalar fikrini eshitishi shaklida tashkil qilish mumkin.

3. Juftlikda ishlash, ikki talaba birgalikda matn tanlab, izohlarni ham birgalikda yozib, yozgan fikrlarini bayon qilish nima sababdan aynan shu parchani tanlaganlarini ko‘rsatish mumkin. Bunda talabalar o‘rtasida eng “hozirjavob” juftlik tanlanadi.

4. Kichik guruhlarda ishlash. Bunda har bir kichik guruh talabalar soni nechta bo‘lsa, shuncha matndan parcha va uning izohini keltirishadi. Auditoriyada esa guruh vakili taqdim qilgan matn parchasidan eng yaxshi deb, topilganini izohi bilan o‘qib beradi. Nima sababdan guruh aynan ana shu iqtibos va izohni eng yaxshi deb topgani sababini ham bayon qiladi. Kichik guruhlar o‘rtasida berilgan javoblarga ko‘ra, g‘oliblar aniqlanadi.

Tanqidiy nazar metodini qo‘llashning yana bir varianti. Talabalarga darslik yoki ilmiy maqolani o‘qib, kurs ishi, ilmiy doklad,

ilmiy ish, maqolasi uchun kerak bo‘ladigan barcha axborotlarni, qiziqarli fikrlar, faktlar, raqamlar, har xil qarashlarni topish, unga *izoh yozish tarzida tashkil etish mumkin. Bu variant ayniqsa magistrlar uchun qo‘l keladi.*

Bu metodni qo‘llash talabalardan yuqori darajada bilim, Blum taksonomiyasi bo‘yicha tahlil qilish, sintez, baholash darajasida fikr yuritishni talab qiladi. Bu metodni ko‘proq oliy o‘quv yurtlarida qo‘llagan ma’qul, lekin soddalashtirilgan variantlarini akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida ham dars jarayonida qo‘llash mumkin.

Bu metodni qo‘llash orqali o‘qituvchi talabalarni matnni sinchiklab o‘qishga, undagi muammo, uning kelib chiqish sababini muallif qanday izohlagani va uning yechimi sifatida qanday taklif berganini va matn bo‘yicha fikrlashi qanday tarzda kechganini ko‘ra oladi. Aytaylik, o‘qituvchi “Mahalliy byudjet daromadlarini shakllantirish” mavzusida “Moliya” jurnalida chop etilgan ikki maqolani tanladik. Endi ular asosida topshiriq tayyorlaymiz (ilovaga qarang) va bajarishni nazorat qilamiz.

Umuman olganda “tanqidiy nazar” metodini barcha iqtisodiy fanlarni o‘rganishda qo‘llash mumkin. Uni turlicha tashkil etish, topshiriq, vazifalarni turli variantlarda qo‘llashning imkoniyati katta.

Insert metodi. Talabalarni o‘qiyotgan kitoblari, maqola va turli axborotlarni tushunib yetishlari katta ahamiyatga ega. Sir emaski, ko‘pincha talaba o‘qiyotgan materialini oxiriga kelib, nima haqida o‘qiyotganini unutadi. Shuning uchun darsda ularda eslab qolish ko‘nikmasini shakllantirishga yordam beradigan metodlarni qo‘llashning ahamiyati katta. Ana shunday matnni diqqat bilan o‘qish va mustaqil fikrlashga yo‘naltiradigan, talabalarni o‘qiyotgan o‘quv materiallarini qay darajada tushunganliklarini aniqlashga qaratilgan interaktiv metodlardan biri insertdir. Bu metod Abu Nasr Forobiy tomonidan ham ko‘p qo‘llanilgan. Insert metodi - (**Interaktiye Nothing Sistem for Effektive Reading and Thinking**) so‘zlarini bosh harfidan olingan bo‘lib, samarali o‘qish va o‘qiganlarini tahlil qilishga, fikr yuritishga qaratilgan metod ma’nosini beradi.

Insert metodi – o‘quvchi-talabalarni o‘qiyotgan kitoblari, maqola va turli axborotlarni tushunib yetishlari uchun o‘qish jarayonida materialning (darslik, o‘quv qo‘llanma, ilmiy maqola, jadval, sxema kabilar) har bir satr boshi (yoki qismi)ning mazmunini baholash orqali, chiqargan xulosasiga muvofiq ravishda varaqning chetki tomoniga

(hoshiyasiga) qalam bilan belgi qo‘yib borish orqali o‘z munosabatini bildirishga o‘rgatuvchi metod.

O‘qish jarayonida materialning (darslik, o‘quv qo‘llanma, ilmiy maqola, jadval, sxema kabilar) har bir satr boshi (yoki qismi)ning mazmuni baholanib, xulosa varaqning chetki tomoniga (hoshiyasiga) qalam bilan belgi qo‘yib borish orqali bilish darajasi aniqlanadi. Asosiysi, bu belgilar yordamida talaba olingan bilim, axborot to‘g‘risida yaxshi tasavvurini aks ettirishi lozim. Umuman olganda, bir satr boshiga bir necha belgi qo‘yilishi ham mumkin.

Insert o‘quvchi, talabalarga, yangi axborotni o‘qib o‘rganishi jarayonida tushunarli yoki tushunib bo‘lmaydigan, noma’lum yoki e’tiroz bildiradigan guruhlarga ajratib baholash imkonini beradi. Ya’ni, o‘quvchi, talaba o‘qiyotgan materialni shunchaki o‘qishi emas, uni uqishi, ya’ni tushunish, baho berish, umuman olganda, tanqidiy o‘rganishi talab etiladi.

Bu metod:

• matn bilan samarali ishlash ko‘nikmasini hosil qiladi;

• faol, teran fikr yuritib, o‘ylab, o‘qishni o‘rgatadi.

• avval o‘rganilgan, talaba uchun ma’lum bo‘lgan materialni yangisi bilan taqqoslash va baholash qobiliyatini shakllantiradi;

• mavzuni kelgusida o‘rganishni davom ettirishni rag‘batlantiradi.

Insert metodini qo‘llashda chetki hoshiyaga belgilarni qo‘yish bo‘yicha qabul qilingan qoidalar mavjud. Ular quyidagicha:

• O‘qiyotgan matndagi bildirilgan fikrlar sizga ma’lum, siz ularni bilsangiz, bilaman deb o‘ylagan fikringizga mos kelsa, **“V”** belgisini qo‘yasiz.

• O‘qiyotgan jumlalar sizning bilimingizga qarama-qarshi bo‘lsa, yoki bilaman deb o‘ylaganingizga mos kelmasa, **“ - ”** (minus) belgisini qo‘yasiz.

• Agarda o‘qiyotgan matnda siz uchun yangiliklar bo‘lsa, **“+”** (plyus) belgisini qo‘yasiz.

• Siz o‘qiyotgan jumlalar sizga tushunarli bo‘lmasa, ya’ni uni tushunish uchun qo‘shimcha ma’lumotlar talab qilinsa, u holda **“?”** (so‘roq) belgisini qo‘yasiz.

Insert mustaqil o‘qish, ma’ruza tinglash jarayonida olinadigan ma’lumotlarni bir tizimga keltirishga imkoniyat yaratadi. Oldindan olingan ma’lumotni yangisi bilan o‘zaro bog‘lash qobiliyatini shakllantirishga imkon beradi.

Shunday qilib, o‘qish jarayonida talabalar bilganlari va tushunganlariga mos ravishda to‘rt xil belgilar qo‘yib chiqadilar. Har bir qatorni yoki har bir tushunchani belgilab chiqish shart emas. Bu belgilar yordamida o‘qilayotgan matn bo‘yicha umumiy tasavvur ifodalanishi kerak.

Insert metodi o‘qish davomida talabalarga o‘z shaxsiy tushunchalarini faol ko‘rib chiqishga yordam beruvchi kuchli qurol hisoblanadi.

T sxema taqqoslash, baholashni o‘rgatuvchi metodlar orasida alohida o‘rin tutadi. U ayrim adabiyotlarda **“veer”**, ayrimlarida **“yelpig‘ich”** deb ham berilgan. Uncha katta bo‘lmagan maydonda katta ma’noga ega bo‘lgan materialni ikki xil (ko‘pincha bir-biriga zid) ma’lumot: axborot, turli qarashlarni taqqoslashning universal sxema – chizma (jadval) tarzda ifodalash orqali taqqoslash va tahlil qilishni o‘rgatuvchi metod. Shuning uchun odatda ko‘proq sxema, jadval deb yuritiladi.

Bu metod insonning ikki yoqlamaliligiga ham mos tushadi. Insondagi ikkiyoqlamalilik, eng avvalo, ma’naviyat va moddiylikni murakkab tarzdagi o‘zaro birligi va uning bir-biriga o‘zaro ta’siridan kelib chiqadi.

U o‘quvchi-talabalarni axborot, ma’lumotlarga ikki nuqtai nazardan yondashishga, o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha mavjud qarashlarni taqqoslash, ular asosida qaror qabul qilishga o‘rgatadi.

Ayniqsa, farqlanuvchi qarama-qarshi, xilma-xil qarashlarni, ma’lumot va axborotlarni malum bir mezonlar bo‘yicha ifodalash uchun nihoyatda qulay.

Agar ana shu mezonlarni talabalarning o‘zi ishlab chiqsa, dars yanada samarali bo‘ladi. Odatda T-sxema bir-biriga qarama-qarshi (antonim) fikrlar, qarashlar, malumotlar, axborotlarni ifodalaydi. Ularni ha/yo‘q, tarafdor/qarshi, yuqori/ past, minimal/ maksimal kabilar orqali ko‘rsatish mumkin. Bunda qo‘yilayotgan maqsad o‘rganilayotgan mavzu, savol yoki qarashlarni mazmuniga ko‘ra, o‘qituvchi taqqoslash variantlarini ishlab chiqadi.

T-sxema uncha katta bo‘lmagan maydonda katta manoga ega bo‘lgan materialni bir-biriga qarama-qarshi (antonim) fikrlar, qarashlar, malumotlar, axborotlarni ifodalash imkonini beradi. U, ayniqsa, modul yoki ma’lum bir qarashlar mazmunini umumlashtirishda foydalanishga juda qulay. T-sxemani mustaqil tizimi bo‘yicha berilgan topshiriqlar

talabalarni iqtisodiy fikrlashini rivojlantirishga juda katta ta’sir ko‘rsatadi.

Ajratilgan vaqt orasida o‘rganilayotgan mavzuga tegishli axborotlar, ma’lumotlarni ikki nuqtai nazardan yondashib tahlil qilinadi. U tanqidiy mushohada qilish, taqqoslash, xulosa chiqarishga o‘rgatadi. Uni individual, juftlikda qo‘llash, so‘ngra ular asosida butun guruh bo‘yicha yagona T jadval tuzish mumkin. T-sxemaga misol sifatida yuqorida keltirilgan dars o‘tish metodlarining afzalliklari va kamchiliklarini ko‘rsatishimiz mumkin. Ularni ha/yo‘q, tarafdor/qarshi, yuqori/ past, minimal/maksimal kabilar orqali ko‘rsatish mumkin (6-ilovaga qarang).

Adabiyotlarda berilgan “Yelpig‘ich” texnologiyasi ham shunga o‘xshash.

T-sxema (jadval)

Afzallik, ha, tarafdor, yuqori, minimal va hokazo shunga o‘xshashlar	Kamchilik, yo‘q, qarshi, past, maksimal va hokazo shunga o‘xshashlar
Taqqoslanayotgan axborot **(+)**	Taqqoslanayotgan axborot **(-)**

Qarama-qarshi munosabat metodi

“Qarama-qarshi munosabat” metodi talabalarni tez fikrlashga, o‘zlashtirilgan bilimlarni tahlil va sintez qilishga, tushunchalarga tabaqalangan tarzda yondoshish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan usullardandir. Uning mazmuni **“T” sxema metodiga** o‘xshash. Bunda har bir tushunchaga ikki xil nuqtai nazar bilan yondoshiladi. Masalan, biror tushuncha yoki ko‘rsatkich qay darajada muhim yoki muhim emas? Uning ko‘payishi ijobiymi yoki salbiy va h.k. Bu quyidagi tarzda bosqichma-bosqich amalga oshiriladi:

1. Mavzuga oid asosiy tayanch so‘zlar, ko‘rsatkichlar aniqlanadi. Ularning ro‘yxati talabalarga ekran orqali berilishi mumkin.
2. Talabalar har bir so‘zni yoki ko‘rsatkichni o‘zlaricha ahamiyatiga qarab muayyan ketma-ketlikda ifoda etadi.
3. Har bir talaba mustaqil ravishda tushuncha yoki ko‘rsatkichlarni ikki guruhga bo‘lib chiqadilar. Bular muhim tushunchalar va muhim bo‘lmagan tushunchalardir.

O‘quvchi-talabalarni faollashtirish, bilimini oshirish maqsadida qo‘llaniladigan metodlardan yana biri dars jarayonida foydalaniladigan jadvallar va grafiklar bilan ishlashda kerg qo‘llaniladigan metodlardan

biri “Semantik (ma’nosini ifodalovchi) tahlil qilish – semantik jadval metodidir.

Semantik (manosini ifodalash) xususiyatlar tahlili metodi - axborotlarni kuzatishni malum bir maydon - jadval va grafiklar orqali ifodalash va ular yordamida g‘oyalar, tavsiyalar, takliflar berishga o‘rgatadigan metod.

Bu metod toifali jadval metodiga o‘xshash, lekin unda bir tushucha, kategoriyaning tarkibi, mazmun-mohiyati hamda asosan raqamlar bilan ishlash, ularni tahlil qilish asosida takliflar berishga qaratiladi.

Bu metodning mazmuni shuki, bir tushunchaning, sifat jihatini o‘zgarishi uning ma’nosini ham mazmunini ham o‘zgarishga olib kelishini taqqoslash orqali chuqur o‘zlashtirishga yordam beradi.

Bu metod, ayniqsa, iqtisodiy fanlarni o‘rganishda juda qo‘l keladi. Bunda talabalar bilan malum bir mezonlarga ko‘ra tuzilgan jadval ma’lumotlari muhokama qilinadi. Bu muhokamani individual tarzda, kichik guruhlarda olib borish mumkin.

Konseptual (mohiyati, asosini ifodalovchi) jadval, xarita metodi.

U lotincha (**conceptio** – tushunish, tizim) so‘zidan olingan bo‘lib, tushuntirishning ma’lum bir usuli, biron-bir hodisa, voqeani talqin qilish, sharhlash, tushuntirib berishdagi nuqtai nazar, uni yoritishdagi bosh g‘oya, yetakchi fikr, turli faoliyatning konstruktiv tamoyillari tushuniladi.

Bu metod klaster, semantik xususiyatlar tahlili kabi ko‘rgazmalilik orqali fikr yuritish jarayonini ifodalaydi. Fikr yuritish qiyoslash, taqqoslash, tahlil qilish orqali amalga oshiriladi. Uning eng muhim ajralib turuvchi jihati turli g‘oyalar, konsepsiyalar, fikrlarni umumiy mezonlar orqali taqqoslanadi. Misol, shu kitobning 81-betidagi jadval.

Konseptual jadvalda vertikal bo‘yicha, ya’ni ustunlarda taqqoslanadigan tushuncha, axborot, ma’lumotlar beriladi.

Gorizontal, ya’ni qatorda taqqoslash amalga oshirilishi kerak bo‘lganlarni turli xususiyatlari, xarakteristikasi beriladi. Demak, jadvalning bir tomoni nimani taqqoslanishi, ikkinchi tomoni, qanday taqqoslanishini ko‘rsatadi. Yoki jadvalni boshqacharoq tarzda tuzsa ham bo‘ladi. Asosiysi, taqqoslanayotgan fikrning qaysi jihati taqqoslanayotgani aniq ko‘rinib turishi kerak.

Konseptual jadval yoki xarita nihoyatda katta tahliliy axborotni zich, ixcham ravishda joylashtirish imkonini beradi. Bunday jadvallar, ayniqsa, darsda:

1) metodik jihatdan ko‘rgazmalilikni ta’minlaydi;

2) konseptual jadval tizimi bo‘yicha berilgan topshiriq orqali o‘tilayotgan mavzu yoki savolning mazmunini o‘rganish amalga oshiriladi. Konsepsiyalar, taqqoslanuvchi axborotlar, bir maydonda, yonma-yon bo‘lgani uchun ularning mazmunini taqqoslash, umumiy jihatlari va farqlarini tushunish oson bo‘ladi.

Venn diagrammasi

Iqtisodiy fanlarni o‘rganishda taqqoslashga qaratilgan metodlardan Venn diagrammasi (*Venn diagrams*) ham o‘ziga xos o‘rin tutadi. U qator vizuallashtirish metodlari va grafik tarzdagi illyustratsiya usullarining umumiy nomi bo‘lib, ingliz faylasufi, matematigi, mantiqshunosi Jon Venn asos solgan. Hozirda fanlarning turli sohalarida, ayniqsa, matematika, ehtimollar nazariyasi, mantiqshunoslik, statistika, kompyuter va u bilan bog‘liq fanlarni o‘rganishda keng qo‘llaniladi.



Bu diagramma iqtisodiy kategoriyalarning umumiy va farqlanuvchi tomonlarini o‘rganishga ham juda qulay.

Odatda o‘quvchi, talabalar bir-biriga o‘xshash kategoriyalarni farqini ko‘rsatishga qiynalishadi. Undan ayniqsa iqtisodiy kategoriya, tushunchalar, jarayonlar va boshqalarning umumiy tomonlari va farqlanuvchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash, baho berishda keng foydalanish mumkin.

Venn diagrammasining eng oddiy shakli ikki kategoriya, tushuncha, predmet, voqea, hodisalarning o‘xshash va farqlanuvchi tomonlarini ko‘rsatishdir. Mazkur diagrammaning afzalligi shundaki, uning yordamida o‘xshash yoki umumiy tomonlarni talabalar ongiga yetkazish osonlashadi.

Venn diagrammasi asosida ishlashni individual, juftlikda, kichik guruxlar bilan tashkil etish mumkin.

Sinkveyn metodi

O‘rganilayotgan materialni yaxshiroq anglash uchun qo‘llaniladigan metodlardan biri - Sinkveyn (axborotni yig‘ish) metodidir. Murakkab g‘oya, fikr, iqtisodiy tushunchalarni bir nechagina so‘zlar bilan ifodalash, ularga xos sifat belgilari, amalda qo‘llash yo‘llarini ko‘rsatish orqali mavzuni yaxshiroq anglashga, o‘zlashtirishga yordam beradigan metod.

Sinkveyn – (sink - fransuzcha besh) besh qatordan iborat, o‘ziga xos, qofiyasiz she’r bo‘lib, unda o‘rganilayotgan tushuncha, hodisa, voqea, mavzu haqidagi axborot yig‘ilgan holda, o‘quvchi, talaba so‘zi bilan turli variantlarda va turli nuqtai nazar orqali ifodalanadi. XX asrning boshlarida amerikalk shoira Adelaida Krepsi she’rning yangicna besh qatordan iborat shaklini yaratdi. Uning asosida tahliliy fikrlash, qo‘yilgan savollarga guruh miqyosida javob berish, turli strategiyalarni tizimli qo‘llashga qaratilgan bu metodni AQSHlik D. Stil, K. Meredit, Ch.Templ ishlab chiqishgan.[73]

Sinkveyn tuzish murakkab g‘oya, iqtisodiy tushunchalarni bir nechagina so‘zlar bilan ifodalash uchun muhim bo‘lgan malakadir. Sinkveyn tuzish jarayoni mavzuni yaxshiroq anglashga, o‘zlashtirishga yordam beradi. Metodni sinonimi bor iqtisodiy kategoriyalar, tushunchalarni o‘rganishda qo‘llaniladi.

Amaliyotda sinkveyn:

• murakkab axborotni sintezlash quroli;

• talabalar tushunchalar zaxirasini baholash vositasi;

• fikrni ijodiy ifodalash vositasi sifatida juda foydalidir.

Sinkveyn tushunchalar va axborotlarni refleksiyalash, sintezlash va umumlashtirishda tezkor, ayni zamonda muhim qurol hisoblanadi.

Sinkveyn ma’lum bir mavzu o‘rganilgandan so‘ng tuzilsa, uning asosiy xususiyatlari, mohiyati tushunilib, yakunlanadi. Sinkveyn materiallar ustida o‘ylashga, murakkab axborotni sintezlashga yordam beradi. Ijodiy ishlash imkoniyati kelib chiqadi.

Sinkveyn besh qatordan iborat bo‘lib, birinchi qatorda bir so‘z bilan mavzu yoki muammo yoziladi (odatda ot turkumiga oid so‘z bilan).

Ikkinchi qatorda bir so‘z bilan ifodalangan mavzu yoki muammo ikki so‘z bilan tavsiflanadi (sifat turkumiga oid ikki so‘z bilan).

Uchinchi qatorda ushbu mavzu yoki muammo bo‘yicha xatti - harakatlar uch so‘z bilan xarakterlanadi.

[73] **Д. Стил, К. Мередит, Ч. Темпл.** Чтение, письмо и дискуссия в каждом учебном предмете. (Пер. с анг.) Пособие в 8–томах, Бишкек, 1998 .

To‘rtinchi qatorda bir so‘z bilan ifodalangan mavzu, muammoga aloqadorlikni ko‘rsatuvchi to‘rt so‘zdan hissiyotni ifodalovchi gap (ibora) tuzib yoziladi.

Beshinchi qatorda mavzuning mohiyatini takrorlovchi bir so‘zdan iborat sinonim yoki mohiyatini yangicha ifodasi yoziladi.

Sinkveyn metodini nisbatan adabiyot, falsafa, tarix va boshqa shunga o‘xshash fanlarda qo‘llash osonroq. Sababi, ularning sifati va harakati bilan bog‘lovchi sinonim so‘zlarni topish oson. Iqtisodiy fanlardan esa kategoriyalarning sinonimini topish qiyinroq. Lekin uni boshqacha usullar bilan qo‘llasa bo‘ladi. Ana shu qiyinchilik uni qo‘llashni qiziqarli bo‘lishiga olib keladi.

Senkveyn metodidan iqtisodiy kategoriyalarni o‘rganishda foydalanishni quyidagi misol yordamida ko‘rish mumkin (Ilovaga qarang).

Axborotlarni yig‘ishga mo‘ljallangan metodlarga jadval tuzish va ulardan foydalanish ham kiradi (alohida metod sifatida to‘xtalib o‘tdik). Bu metod ayniqsa iqtisodiy fanlardan statistika, buxgalteriya hisobi, tahlil kabi fanlarda keng qo‘llaniladi. Jadval tuzish, qo‘yilgan maqsadga ko‘ra uning ega, kesimini aniqlash qoidalari statistika fanida o‘rganiladi. Biz esa ulardan fanni o‘quvchi-talabalar ongiga yetkazish metodi, fanni o‘rganishda qanday tarzda qo‘llashga ahamiyat berishimiz darkor.

Toifali jadval metodi

Iqtisodiy fanlarni o‘rganish, uning mazmun-mohiyati iqtisodiy kategoriyalar, ko‘rsatkichlar, ularga ta’sir qiluvchi omillar, turli-tuman ma’lumotlar, dalillar bilan chambarchas bog‘liq. Ular raqamlarda ifodalangan axborotlarni yig‘ish, bular asosida hisob-kitoblarni amalga oshirish, taqqoslash, mushohada qilish, baholash oson bo‘lishi uchun qo‘yilgan maqsadga ko‘ra toifalarga, guruhlarga ajratib jadvallarda ifodalaymiz. Jadvallarimiz ham juda katta axborotni o‘zida mujassalashtiradi. Axborotlarni yig‘ishga qaratilgan metodlar orasida o‘ziga xos o‘rin tutuvchi, olingan turli-tuman axborot, ma’lumotlarni o‘rganish, ulani tahlil qilish, xulosa chiqarish va qaror qabul qilishni osonlashtirish maqsadidan kelib chiqqan holda umumiy jihatlari, alomatlari, xususiyatlariga ko‘ra toifa (guruhlar)ga bo‘lib o‘rganishga asoslangan metod – toifali jadval metodidir.

“Toifali jadval metodi” interaktiv metodlar tizimida o‘ziga xos o‘rin tutadi. Toifa - xususiyat va munosabatlarni muhumligini namoyon

qiluvchi umumiy alomatni ifodalaydi. Ajratilgan alomatlar asosida olingan ma’lumotlarni birlashtirishni ta’minlaydi. Tizimli fikrlash, ma’lumotlarni tizimga keltirish, tizimlashtirish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Uni shu nuqtai nazardan taqqoslashga qaratilgan metodlar guruhiga ham qo‘sha olamiz. Talabalar dars da’vomida toifali sharhlashni tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Aqliy hujum, klaster tuzish, yangi o‘quv materiali bilan tanishishdan so‘ng, kichik guruhlarda olingan ma’lumot lavhalarini bitlashtirish imkonini beradigan toifalarni izlaydilar. Toifalarni jadval ko‘rinishida rasmiylashtiradilar. G‘oyalarni ma’lumotlarni toifaga mos ravishda bo‘ladilar. Ish jarayonida toifalarning ayrim nomlari o‘zgarishi mumkin . Yangilari paydo bo‘lishi mumkin. Oxirida esa talabalar ish natijalari taqdimotini havola etadilar.

Toifali jadval tuzish va uni sharhlash qoidasi:

1. **Toifalar bo‘ysha axborot va ma’lumotlarni** taqsimlashning yagona usuli mavjud emas.

2. Bir kichik guruhda toifalarga ajratish boshqasidan farq qilishi mumkin.

3. Ta’im oluvchilarga oldindan tayyorlab qo‘yilgan toifalarni bermagan ma’qul, ular o‘zlari mustaqil tanlagani maqsadga muvofiq.

4. Toifali jadval sharhi yakuniy natija emas, balki jarayon sifatida muhim.

Eng muhimi toifali jadval iqtisodiy fanlarning xususiyatiga juda mos tushadi. Iqtisodiy fanlarning o‘ziga xos jihatlari shundaki, ular taqqoslash, tanlash, xulosa chiqarish, baholash, qaror qabul qilishga o‘rgatadi. Bu bozor iqtisodiyoti sharoitida juda muhim bo‘lib, ana shu

Toifali jadval

Toifalar			
1	**2**	**3**	**4 va hokazo**
Toifali jadval qo‘yilgan maqsad, vazifalar, axborot, ma’lumotlar hajmi, toifaga ajratish mezonlariga ko‘ra turli-tuman bo‘ladi. Muvofiq ravishda jadval ustunlari shakllanadi.			

Masalan, o‘quvchi-talabalar bilimini nazorat qilish metodlarini quyidagi toifalarga bo‘lish mumkin:

Bilimni nazorat qilish metodlari		
Yozma	**Og‘zaki**	**Test**
1. Tayanch tushunchalar asosida yozma ish yozish	1. Savol-javob	1. Maqsadga erishuv testlari
2. Variantlar asosida yozma ish yozish	2. Mashq bajarish (og‘zaki)	2. Ijodiy testlar

3. 5 daqiqali esse yozish	3. Suhbat	3.Uch darajali testlar
4. Asoslangan esse	4. Blits-so‘rov	4. Ochiq testlar
5. Masala va mashq asosida yozma ish		5. Yopiq testlar
Va boshqalar		

ko‘nikmalarni shakllanishida fanni o‘rganishda qo‘llaniladigan metodlar alohida ahamiyatga ega. Aynan ana shunday tahlilni amalga oshirishda toifali jadval metodi muhim o‘rin tutadi. Bu metodni qo‘llashda statistika fanida o‘rganilgan jadval tuzish qoidalari va jadvalning ega va kesimini ajratishni bilish ayniqsa asqotadi. Yuqorida aytib o‘tdik, iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilishda, biz ularni toifalarga ajratib, taqqoslaymiz. Chunki bir turdagi narsanigina taqqoslash mumkin. Aynan taqqoslash mumkin bo‘lgan guruhlarni toifali jadval orqali hosil qilamiz. Ulardan foydalanish orqali biz talabalarga yetkazmoqchi bo‘lgan axborotimizni mazmun-mohiyatini chuqur anglashlariga yordam beramiz. Ularni guruhiy jadval, kombinatsiyali jadval va boshqalar tarzida qo‘llashimiz mumkin. **Guruhiy jadval** deganda o‘rganilayotgan obyektlarni bir belgi asosida guruhlash natijalarini ifodalaydigan jadval nazarda tutiladi. **Kombinatsiya jadvali** – bu ega qismida obyektlarni ikkita va undan ortiq belgilari asosida guruhlash natijalarini aks ettirilgan jadval ko‘zda tutiladi. Fanni o‘rganishda toifali jadval, tuzilgan tayyor jadval emas, uni tuzish jarayoni muhim. Chunki, u o‘rganilayotgan iqtisodiy kategoriya, tushunchalarni taqqoslash, xulosa chiqarish uchun maqsad qo‘yish, undan kelib chiqib, taqqoslanadigan xususiyat, belgi, ko‘rsatkichni guruhlarga ajratib olishga yordam beradi.

Toifali jadvalni pedagogik metodlar guruhida grafik organayzerlarga ham kiritiladi.[74]

Toifali jadvalda barcha fikrlar matnda berilishi mumkin. Biz ularni ko‘proq chizma (sxema) deb ataymiz. Iqtisodiy fanlarda esa iqtisodiy ko‘rsatkichlar, jarayonlar biron ajratilgan toifa bo‘yicha ko‘proq statistik ma’lumotlar, raqamlar yordamida ifodalanadi. Biz ularni tom ma’nosi bilan jadval deb ataymiz. Topshiriqni mana bunday jadvalni tahlil qilish, uning ayrim ko‘rsatkichlarini hisoblash tariqasida ham berish mumkin. Ayniqsa, maxsus, mutaxassislik iqtisodiy fanlarini o‘rganganda bu jihatdan imkoniyat juda katta. Axborotning katta qismi jadval shaklida bo‘ladi. Jadvalda tabiiy, ma’lumotlar hisoblanadi, taqqoslanadi.

[74] Xodiyev B., Golish L. Mustaqil o‘quv faoliyatini tashkil etish usul va vositalari. TDIU, 2010. 38 b.

Axborotlarni yoyish (klaster) metodi

Keyingi paytlarda iqtisodiy fanlardan dars berishda klaster (axborotni yoyish) metodidan ham keng foydalanilmoqda. Klasterlarga ajratish pedagogik strategiya bo‘lib, u keng qamrovli fikr yuritish, o‘rganilayotgan tushuncha (kategoriya, hodisa)lar o‘rtasida aloqa bog‘lash malakasini rivojlantiradi. Mavzu bo‘yicha talabalarni erkin ochiq fikrlashiga yordam beradi.

Klaster tuzilishining asosiy qoidalari



1. Xayolingizga kelgan barcha fikrlarni yozing. Bu fikrlarning ma’nosi haqida o‘ylamang, muhokama qilmang, shunchaki, yozib olavering.
2. Imlo va boshqa xatolarga parvo qilmang. Ular yozishni kechiktiradi.
3. Sizga berilgan vaqt tugaguncha yozishni to‘xtatmang. Agar dilingizdagi barini yozib bo‘lib, fikr kelishi to‘xtab qolsa, u holda yangi fikr, g‘oya kelgunicha qog‘ozga so‘zlar o‘rtasidagi bog‘lanishni chizib o‘tiring.
4. Imkoni boricha ko‘proq aloqadorlikni toping. Bog‘lanish mumkin bo‘lgan so‘z, g‘oyalarni, ularning oqimi va ular o‘rtasidagi bog‘lanishni cheklab qo‘ymang.

Klasterning diqqat qaratadigan tomoni shundaki, biz o‘rganayongan kategoriya, mahsulot xullas obyektga turli jihatdan yondashish, ularning umumiy jihatlarini ko‘ra bilish, bog‘lanish sabablarini tushunish va tahlil qilishga yordam beradi.

U mavjud bilimlarni ifodalash, muayyan mavzu bo‘yicha o‘ylash jarayonida yangicha fikrlar uyg‘otadi. Klaster tarkibiga kiritilgan asosiy tushuncha, g‘oyalar o‘rtasidagi muhim bo‘lgan bog‘lanishlarni aniqlash, keng ko‘lamli fikr yuritishni rivojlantiradi. “Atrof”ga turlicha nazar solishga o‘rgatadi.

Klaster tuzishni mavzuni mukammal o‘rganmasdan turib qo‘llagan ma’qul. Klaster muhokama qilinayotgan tushuncha, mavzuga so‘z yoki jumlaga taalluqli sifatlar malum yo‘nalishi bo‘yicha guruhlanadi.

3.7. Ijodiy fikrlashga o‘rgatuvchi metodlar

Yoshlarda yaratuvchanlik, bunyodkorlik qobiliyatlari va uni realizatsiya qilishga intilish kuchli bo‘ladi. Shuning uchun ham ayrim ma’lumotlarga ko‘ra ixtirolarning asosiy qismi 30 yoshgacha bo‘lgan davrga to‘g‘ri kelar ekan. Bundan kelib chiqib, ularning ijodiy

qobiliyatlarini o‘stirishga qaratish nihoyatda muhim ahamiyatga ega ekanligini his qilish mumkin.

O‘quvchi-talabalarning ijodiy qobiliyatini takomillashtirishga yo‘naltirilgan ta’limni ko‘p adabiyotlarda **kreativ** (lot. creatio – yaratish, ijod qilish) ta’lim deya talqin etiladi. An’anaviy shaklda olib boriladigan ta’limda ko‘proq o‘quvchi-talabalarga ilgaridan ma’lum axborot, bilim, tushuncha, ko‘nikma va malakalarni berishga diqqat qaratilsa, **kreativ** ta’limda ijodiy fikrlash, izlanish, sinab ko‘rish, eksperiment o‘tkazishga bo‘lgan intilish qo‘llab-quvvatlanadi. Albatta, yangilik yaratish uchun avval mavjud bilimlarni puxta o‘zlashtirish, talab etiladi, buni ham yoddan chiqarmaslik kerak.

Yoshlarda ijodkorlikni rivojlantirishda qo‘llaniladigan metodlar alohida rol o‘ynaydi. Aynan kreativ orientatsiyadagi darslar jarayonida ular qabul qiluvchi obyektdan ijodkor (kreativ) subyektga aylanadi. Predmetning mazmunini o‘zlashtirish jarayoni yaratuvchanlik bilan yondashish aylanadi. Har bir fakt-dalillarga, materialga ijodiy hamda tanqidiy qarashga o‘rganadi. Olinayotgan o‘quv materiali unga yangicha qarash, qo‘shimcha materiallarni olish, o‘zlashtirishga yo‘l ochadi. Ko‘pincha bunday hollar o‘zlashtirishga evristik yondashuv bilan uyg‘unlashib ketadi.

Hozirgi taraqqiyot darajasi malakali mutaxassislarni kelajakda olgan bilim, ko‘nikmasining fakat ijrochisigina bo‘lib qolmay, balki o‘z kasbiy faoliyatiga ijodkorlik, yaratuvchanlik nuqtai nazaridan qarashni talab qilmoqda. Shu tufayli ta’lim tizimining bosh va asosiy maqsadi ham ijodiy fikrlaydigan malakali mutaxassislarni va yuksak darajadagi fikr yurituvchi shaxsni tarbiyalash va tayyorlashdan iborat.

Tezkor o‘zgarishlar bilim olishning zamonaviy texnologiyalari, *masofaviy, loyihalangan ta’lim, media ta’limini,* ya’ni shaxsiy ijodkorlikka asoslangan ta’limni joriy qilish ehtiyojini keltirib chiqarmoqda.

Ayniqsa, **resurslarning cheklanganligi** tanlash va tanlov variantlarining muhimligi jihatidan ketma-ketligini aniqlashni obyektiv zaruriyat qilib qo‘yishi, global muammolarning keskinlashib borishi ularni yechish uchun o‘z navbatida ijodkorlikni talab qiladi.

Talabalarda ana shunday ko‘nikma hosil qilish kerak. Bunday ko‘nikmalar ijodkorlikni rivojlantirishga qaratilgan metodlar yordamida amalga oshiriladi. **“Tahliliy –ijodiy vazifalarni guruh bo‘lib yechish” va “Delfa” metodlari** aynan ana shu maqsadga qaratilgan.

Iqtisodiy fanlarni o‘rganishda maqollar

Hozirgi davrda o‘quv jarayonini tashkil etish o‘qituvchidan faqat chuqur bilimgina emas, balki pedagogik mahoratga ega bo‘lishlarini, dars berishning turli metodlarini bilishni hamda o‘z ustida tinmay ishlashni talab qiladi. Jumladan, iqtisodiy fanlardan dars berishda xalq pedagogikasi yutuqlaridan keng ravishda foydalanishni bilish ham muhim ahamiyatga ega.

Xalq pedagogikasi asrlar davomida shakllangan, rivojlangan bo‘lib, xalq tomonidan yaratilgan hayotiy an’analar, udumlar, marosimlar, bayramlar va boshqalarda o‘z aksini topgan, tarbiyaning eng dolzarb masalalarini hal qilishga qaratilgan umumbashariy, umuminsoniy g‘oya va maqsadlarni amalga oshirishga qaratilgan.

Iqtisodiy qarashlar ma’lum bir davrda xalqning an’analari, udumlari yaratilgan tajribalar orqali kishilarga ta’sir etgan bo‘lsa, diniy qarashlarning shakllanishi tufayli ular diniy nuqtai nazardan axloqiy normalar, qonun-qoidalarda mujassamlashgan va kelgusi avlodga yetkazilgan.

Xalqning ta’lim-tarbiya borasidagi tajribalari, qarashlarini o‘zida mujassamlashtirgan, etnopedagogikada alohida o‘rganiladigan, durdona fikrlar bu maqollardir. Xalq yaratgan g‘oyat ixcham, chuqur ma’noli gaplar – maqollardir. G.Fuller fikricha “ Maqollar katta ma’noni uch-to‘rt so‘z bilan ifodalanadigan shaklidir”.

Maqollar odamlarnining hayoti va turmushi jarayonida to‘plagan tajribalari, dunyoqarashi, o‘zi yashab turgan ijtimoiy hayotga munosabati, hayotning ibratli saboqlari, shaxsning ruhiy holati, umid va orzularini ifodalaydi. U xalqning kuzatuvi va xulosasi tufayli yuzaga keladi. Shuning uchun ham yoshlar tarbiyasiga, ayniqsa ularning axloq va odobiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishga qodir. Qadimdan maqollar tarbiyalovchi rol o‘ynagan. Bir tomondan pedagogik g‘oya, ikkinchi tomondan tarbiyaviy ta’sir, ta’lim berish funksiyasini bajargan. Shu tufayli ta’lim-tarbiyada samarali metod sifatida ularni keng qo‘llash ijobiy natija beradi.

Maqollar bu o‘tmish emas, balki xalqning doimiy yangraydigan jo‘shqin ovozi. U bugunnigina emas erta uchun ham ahamiyatini yo‘qotmaydi. Maqollarning o‘ziga xos xususiyati shundaki, u tinglovchiga o‘git-nasihat yo‘sinida badiiy o‘xshatishlar orqali aytiladi. Yoki keng ma’noli fikrni osongina tushunishga yordam beradi.

Barcha xalqlarda mehnatga yo‘llash, halollik pedagogikaning bosh vazifasi. Ular maqollarda ham o‘z ifodasini topadi. Tarixiy va pedagogik tajriba shuni ko‘rsatadiki, mehnat shaxsni axloqiy, aqliy, jismoniy kamol topishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Dangasalik xalqlar tomonidan hayot kechirishga yot bo‘lgan xislat sifatida doimo qoralangan. Mehnat orqali tarbiyalash insonning ulug‘vor, mehnatsevar, izchil va mas’uliyatli bo‘lishiga olib keladi

Xalq mehnatni jamiyat taraqqiyotidagi rolini hisobga olibgina qolmay, mehnatni uning natijasini qadrlashga o‘rgatgan. Barcha xalqlarda mehnat, halollik ulug‘langan. Ularni iqtisodiy pedagogikada, iqtisodiyotni o‘rganishda muvaffaqiyat bilan qo‘llash mumkin.

Shu bilan birga shunday maqollar borki, ular iqtisodiyotdagi murakkab kategoriyalarni osonlik bilan tushunishga yordam beradi. Masalan, iqtisodiyotda marjinal (me’yoriy) naflilikning pasayib borishi mavjud, Ne’matning navbatdagi birligini xarid qilib, tasarrufidagi tovarlarni ko‘paytiradigan xaridor uchun ular qadrining pasayishi bilan bog‘liq. Kundalik hayotda ham qadr-qimmat tushunchasi, odatda cheklangan kamyob ne’matlarga nisbatan qo‘llaniladi. Ehtiyojlar to‘yingan sari nafliligi kamayib boradi. Ular nisbatan murakkab tushunchalar bo‘lib ularni o‘rganishda naflilik nazariyasi mohiyatini ifodalovchi **“Oldingdan oqqan suvning qadri yo‘q”, “Xolvaning ozi shirin”, “Tuya bir tanga qani bir tanga, tuya ming tanga mana ming tanga”** maqollaridan foydalanish mumkin. Yoki iqtisodiyotda resurslarning cheklanganligi, ayniqsa inson uchun eng cheklangan resurs vaqt ekanligiga diqqat qaratilgan **“Vaqting ketdi, naqding ketdi”** yoki sarf-xarajatlarni hisob-kitobini olib borish naqadar muhimligini ifodalovchi **“Hisobini bilmagan hamyonidan ayrilar”, “O‘ylab-o‘ylab jo‘yak olsang, o‘ynab-o‘ynab sug‘orasan”, “O‘ylamay uchgan qo‘narga joy topolmas”** resurslarsiz, ularni birlashtirib ishga solinmasa hech narsa yaratib bo‘lmasligini ta’kidlovchi: **“Buromad bo‘lmasa daromad bo‘lmas”, “Xolva degan bilan og‘iz chuchimas”** kabi maqollarini tegishli mavzu, savollar muhokamasida qo‘llash mavzuning, masalaning mohiyatini o‘quvchi-talabalarga yetkazishda muhim ahamiyatga ega. Ularni o‘rganilayotgan mavzularga bog‘lab qo‘llaniladi. Masalan, byudjet parametrlarini aniqlash haqida fikr yuritganda **“Ko‘rpangga qarab oyoq uzat”,** daromad taqsimotini o‘rganishda **“Daromadga qarab, buromad”**, talab va taklif, bozor narxini shakllanishida **“Uydagi narxni bozordagi baho buzar”**, yer

taklifining mutlaq noelastikligiga diqqat qaratilgan **“Puling bo‘lsa yer ol”** kabi maqollarni qo‘llash mumkin.

Iqtisodiyotda halollikning ahamiyati katta. Iqtisodiy faoliyat ehtiyojlar, manfaatlar, maqsad va ularni realizatsiya qilish uchun qaratilgan faoliyat bilan bog‘liq ekan, o‘z manfaatini ko‘zlagan holda birovni haqiga xiyonat qilish uchun ko‘ngil sust ketishi, yo‘ldan ozish imkoniyati mavjud. Shuning uchun xalqimiz hallolikni ulug‘lovchi uning naqadar katta ahamiyatga ega ekanligini ifodalovchi bir qator maqollar ijod qilgan. Ularni tadbirkorlik va kichik biznes masalalarini o‘rganishda qo‘llash mumkin.

Ayniqsa o‘rganilayotgan mavzuning mazmuni bilan bog‘liq maqollarni qidirib topishni o‘quvchi-talabalarga topshiriq qilib berish ularni qo‘yilgan masalaning mohiyatini tushunishga, ijodiy izlanishga, mustaqil fikrlashga o‘rgatadi.

Xalq maqollari barcha sohalarni qamrab organ. “Xalqning tayanchi-ajdodlarimiz qoldirgan ma’naviy merosning o‘zi bir xazina. Bu xazinadan oqilona foydalanishimiz lozim”.[75]

Iqtisodiy topishmoqlar va paradokslar tanlovi

Iqtisodiy konsepsiyalarni tushunish, real hayotda qo‘llashni o‘rganish uchun eng qulay metodlardan biri “Iqtisodiy paradokslar va topishmoqlar tanlovi” hisoblanadi.

Iqtisodiy fikrlashni shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Buning uchun o‘quvchi-talabalar iqtisodiy konsepsiyalarni bilishlari zarur. Ular o‘quvchi, talabalarni keng qamrovli ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni aniq va izchil tassavvur qilish, fikr yuritishlariga yordam beradi. Buning uchun o‘quvchi-talabalarga ana shunday ko‘nikmalarni shakllantirishga yordam beradigan iqtisodiy paradokslar va topishmoqlar tayyorlashni topshirib, ular o‘rtasida **tanlov** o‘tkazish mumkin.

“Iqtisodiy topishmoqlar va paradokslar tanlovi” metodining mazmuni

Iqtisodiyotni o‘rganishda va tadqiq qilish iqtisodiy topishmoq, paradokslarni yechishda deduktiv fikr yuritishni taqozo qiladi. Bu yerda “deduktiv” fikr deganda, ilmiy jihatdan iqtisodiyot bizni ma’lum tamoyillar, ilmiy taxminlar bilan qurollantiradiki, ulardan masala, muammolarni yechishda foydalanamiz. Ulardan foydalanish o‘quvchilarga go‘yoki start maydoni – foydali va foydasiz mulohazalarni ajratishga yordam beradi.

[75] Karimov I.A. Buyuk maqsad yo‘lidan og‘ishmaylik. T.: O‘zbekiston, 1993. 8 b.

Paradokslar tanlovi iqtisodiyotni chuqur o‘rganishga, nima sababdan u yoki bu qonunni qabul qilish va uning natijasini anglab yetishni o‘rganishga yo‘naltiradi.

Quyidagi ilmiy taxminlar “odamlarni iqtisodiy fikrlash tarzi”dan tadqiqiy masalalarni yechishda foydalaniladi. Iqtisodiy paradokslarning javoblari ularga tayanadi:

1. Kishilar tanlaydilar.
2. Tanlov xarajatlar bilan bog‘liq.
3. Odamlar rag‘batlantirishga qanday qarashlarini oldindan taxmin qilish mumkin.
4. Odamlar iqtisodiy tizim yaratadilar. U o‘z navbatida individual tanlov va stimullarga ta’sir etadi.
5. Odamlar ixtiyoriy almashuvdan doimo yutadilar. Odamlarning tanlovi kelajakda namoyon bo‘ladigan oqibatlarga olib keladi.
6. Bozorning kamchiliklarini hukumat to‘ldirishi mumkin.

Paradokslar va topishmoqlar o‘rganilayotgan mavzular va ularda muhokama qilinadigan savollarga bog‘lab o‘rganiladi.

Iqtisodiy paradokslar va topishmoqlar tanlovini o‘tkazishdan avval albatta o‘quvchi-talabalarga ularni qanday tuzish kerakligini ko‘rsatish lozim.

Paradokslar tayyorlash. Iqtisodiy paradoksni qanday tuzish mumkin?

1. Sizga g‘alati tuyulgan voqea, hodisa, narsalarga diqqat qiling.
2. Muammoni aniqlab, hamma uchun tushunarli dastlabki fikrni ifodalang.

Masalan: Oziq-ovqatga narxlar past bo’lishi kerak. Biz har bir odamni yeyish uchun oziq-ovqati bo‘lishini xohlaymiz.

3. Muammoga boshqa tomondan yondashing. Unga qarama-qarshi fikr o‘ylab toping. U ham birinchi gap, taklif, fikrga o‘xshab mulohazali, oqilona bo‘lishi kerak. Masalan: Qayerda oziq-ovqat mahsulotlarining bahosi bozor muvozanati bahosidan past bo‘lsa, u yerda peshtaxtalar bo‘sh bo‘ladi.
4. O‘quvchi-talabalarga noiqtisodiy g‘oya va fikrlar sabablarini chetda qoldirish, ularga e’tibor bermaslikni maslahat beriladi. Uning o‘rniga “iqtisodiy fikrlash tarsi” tamoyillarini qo‘llab, muammoni iqtisodiy nuqtai nazardan ko‘rib chiqish, tushunishga da’vat qilinadi.

U holda biz iqtisodiy muammoni quyidagicha qo‘yishimiz mumkin:

“Oziq-ovqatga yuqori narxlarni rag‘batlantirish kerak. Biz har bir odamning yeyish uchun oziq-ovqati bo‘lishini xohlaymiz”.

Haqiqatan ham baholar rag‘batlantiruvchi stimul tarzida amal qiladi. Agar baholar haddan tashqari past bo‘lsa, dehqonlarning ixtiyoriy ravishda hamma uchun zarur bo‘lgan ovqat tayyorlanadigan ekinlarni ekishga rag‘bati past bo‘ladi. Nisbatan yuqori baholar ularni ixtiyoriy ravishda bunday ekinlarni ekishni ko‘paytirishga olib keladi. Chunki taklif qonuniga ko‘ra ishlab chiqarish hajmi narxga to‘g‘ri proporsional.

5. Qo‘shimcha misollarni o‘rganib, ko‘rsatilgan iqtisodiy tamoyillardan kelib chiqib, yechimi tekshiriladi. Biz yuqorida “Leontev paradoksi”ni ko‘rib chiqdik.

Paradokslar tanlovining maqsadi:

O‘quvchi, talabalarni mahalliy yoki milliy iqtisodiyot miqyosidagi misollardan foydalanib, iqtisodiy paradokslarni ko‘ra bilish va bundan kelib chiqqan holda o‘ylab topish va ishlab chiqish mahoratlarini aniqlash. Tanlovni quyidagi variantlarda o‘tkazish mumkin:

1. O‘quvchi, talabalarga iqtisodiy paradokslarni topib, tayyorlanib kelish uyga vazifa qilib beriladi. Ular uyda paradokslarni o‘z javob varianti bilan tayyorlab kelib, tanlov hay’ati hukmiga havola qilishadi.

2. O‘quvchi, talabalar iqtisodiy paradokslar va ularning javob variantlarini hay’atga topshirishgach, tanlovda “Iqtisodiy ring” tashkil etiladi. Bunda o‘quvchi-talabalar komandalarga bo‘linishadi. Komandalar konkursning boshqa qatnashchilari tayyorlagan paradokslarga javob berishadi. Komandalar paradokslarni ma’nosini tushuntirib, o‘z javoblarini berishadi.

3. O‘qituvchi yoki hay’at a’zolari konkurs qatnashchilariga iqtisodiy paradokslarga o‘z javob variantlarini berishni taklif qilishadi.

Hay’at vazifani bajarish sifati va raqiblarning savol, javobiga ko‘ra komandalarni baholaydi.

Hay’at a’zolari iqtisodiy paradokslar va topishmoqlarni baholashlari uchun uning mezonlari ishlab chiqilib, ularga tarqatiladi (ilovaga qarang).

Paradokslar kabi **topishmoqlar**ni tayyorlab kelishni o‘quvchi-talabalarning o‘ziga topshirish ularni fikrlashga, u yoki bu kategoriya, tushuncha, atamalarning mazmuni, o‘ziga xos jihatlariga alohida ahamiyatga ega jihatlariga, xususiyatlariga diqqat qaratishga o‘rgatadi.

Topishmoqlar tanlovi

Qadimdan xalq pedagogikasida topqirlikni tarbiyalash, zehnni charxlash, o‘tkirlash, fikrlash qobiliyatini o‘stirishda qo‘llani-ladigan xalqimiz, ayniqsa, yoshlar orasida eng ko‘p tarqalgan janrlardan biri - topishmoq (jumboq)lardir. O‘z xususiyatiga ko‘ra topishmoqlar ikki va undan ortiq kishi o‘rtasida qizg‘in bahslar, tortishuvlar orqali olib boriladi.

Yosh avlodning fikrlash qobiliyatini o‘stirish va mustaqil faoliyatga o‘rgatishda ijodiy fikrlashga yo‘naltirilgan metodlar muhim ahamiyatga ega. Ulardan biri topishmoqlarlardan foydalanish o‘ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi. Odatda topishmoqda narsa, buyumlarning bir necha belgilari aks etadi va unga qarab topishmoq javobi topiladi. Javob topish uchun ularni taqqoslash, chuqur, atroflicha mushohada yuritish talab qilinadi. Topishmoqlardan bog‘chadan boshlab, ya’ni insonda dastlabki mushohada qilish shakllanishidan boshlab to umrini oxiriga qadar foydalanish mumkin.

Topishmoqlar aqlni yuqori darajada bo‘lishini, o‘zida axloqiy g‘oyalarni ifodalashga yordam beradi. U aqliy, estetik va axloqiy tarbiyaga katta ta’sir o‘tkazadi. Qadimda hamma funksiyani bajargan bo‘lsa, keyinchalik ko‘proq aqliy tarbiyalashda qo‘llanilgan. Topishmoqlar fikr yuritishini rivojlantirishga, tahlil qilishga, predmetning, voqea-hodisalarning turli jihatlariga diqqat qaratishga o‘rgatadi.

Aqliy jihatdan topishmoqlarni qo‘llashning afzalligi shundaki, u tabiat, inson, jamiyat haqida ma’lumotlarni faol fikr yuritish jarayonida amalga oshiriladi. Fikr yuritish xotirani rivojlantirishga xizmat qiladi. Topishmoqlar odamning aqlini o‘stirishdagina emas, balki uni shaxs bo‘lib shakllanishida ham katta rol o‘ynaydi. U kuzatish qobiliyatini o‘stiradi. Topishmoqdagi narsa-buyumlarning bir necha belgilari aks etadi. Ularga qarab topishmoqning javobi topiladi. Bu jarayon turli belgilarni qiyoslash, atroflicha fikr yuritish, mushohada qilishga o‘rgatadi.

Iqtisodiyotni o‘rganishda, iqtisodiy tafakkurni rivojlantirishda iqtisodiy topishmoqlarni roli beqiyos, ularni qo‘llashning imkoni keng. Iqtisodiyotni o‘rganishda odatda iqtisodiy kategoriya, tushunchalarni o‘rganishga qaratilgan topishmoqlardan foydalaniladi. To‘g‘ri, iqtisodiy masalalarga bag‘ishlangan xalq tomonidan ijod qilingan topishmoqlar juda kam. Lekin ularni o‘qituvchining o‘zi namuna sifatida tayyorlab, yoki manbasini ko‘rsatishi mumkin.

Iqtisodiy fanlarni o‘rganishda topishmoqlarlardan foydalanish o‘ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi.

Bu metod shunisi bilan qiziqarliki, ana shu topishmoqlar, paradokslarni o‘quvchi – talabalarning o‘zlari tuzishlari, muhokama qilishlari ularni yanada fanni o‘rganishga qiziqtiradi.

Bunda o‘quvchi – talabalar iqtisodiy topishmoqlarni she’r yoki boshqacha tarzda, o‘ziga hos krossvord tarzida tuzishlari mumkin. Bunda ular iqtisodiy kategoriyalarning mazmunini chuqur o‘rganib olishadi.

Odatda topishmoqda narsa, buyumlarning bir necha belgilari aks etadi va unga qarab topishmoq javobi topiladi. Javob topish uchun ularni taqqoslash, chuqur, atroflicha mushohada yuritish talab qilinadi. To-pishmoqlardan bog‘chadan boshlab, ya’ni insonda dastlabki mushohada qilish shakllanishidan boshlab to umrini oxiriga qadar foydalanish mumkin.

Bu metod shunisi bilan qiziqarliki, topishmoqlar, o‘quvchi – talabalar-ning o‘zlari tuzishlari, muhokama qilishlari mumkin. Bu ularni fanni o‘rganishga qiziqtiradi. Bunda o‘quvchi – talabalar iqtisodiy topishmoqlarni she’riy, topqirlik mashqi sifatida o‘ziga xos krossvord yoki boshqacha tarzda tuzishlari mumkin. Bunda ular iqtisodiy kategoriyalarning mazmunini chuqur o‘rganib olishadi. Ularni yanada qiziqtirish uchun alohida o‘quvchi – talabalar tomonidan tayyorlangan iqtisodiy topishmoqlar konkursini o‘tkazish mumkin.

Konkursda qatnashuvchilarga maslahatlar:

Iqtisodiy topishmoqlar o‘ziga xos mashq-savol tarzida quyidagicha tayyorlanishi mumkin. Masalan: uyning egasi uyini ijaraga berib pul topdi. Uyni ijaraga olgan kishi shu yerda kichik korxona ochib, mahsulot chiqarib sotdi va bu faoliyatdan pul topdi. Bu yerda kim tadbirkor hisoblanadi? (Javob: kichik korxona ochgan). Bunday mashq-savol tarzida topishmoqlarni individual tanlov tarzida o‘tkazgan ma’qul. Chunki bunday topishmoq tayyorlash har bir talabaning qo‘lidan keladi.

2. Iqtisodiy kategoriya yoki tushuncha, hodisalarni o‘rganish uchun nazmda ifodalangan topishmoqlar, **topqirlik mashqi sifatidagi** krossvordlar tanlovini kichik guruhlar o‘rtasida o‘tkazish optimal hisoblanadi.

Bunda, guruhni kichik guruhlarga bo‘lib, har bir kichik guruhga topishmoq yoki krossvord tayyorlash vazifa qilib berilishi mumkin.

Bunda baholash mezoni tayyorlab, o‘quvchi, talabalarga beriladi va unga ko‘ra nimalarga diqqat qaratish lozimligi ko‘rsatiladi.

O‘rganilayotgan kategoriya, iqtisodiy tushunchalarni xususiyatlarini qay darajada to‘g‘ri ifodalashlariga va boshqa qator mezonlariga ko‘ra tayyorlangan topishmoqlar baholanadi.

Bunda guruhni kichik guruhlarga bo‘lib, o‘tilayotgan mavzu yoki fan bo‘yicha topishmoq tayyorlash topshiriladi. Tanlovda har bir kichik guruhdan bir vakil chiqib, o‘zlari tayyorlagan topishmoqni aytishadi.

Tanlovda har bir kichik guruhdan bir vakil chiqib, o‘zlari tayyorlagan topishmoqni aytishadi. Barcha kichik guruhlar tayyorlagan topishmoqlar muhokama qilinadi va eng yaxshi deb topilgani boshqa guruhlar bilan o‘tkaziladigan tanlovga tavsiya etiladi. Mavzu bo‘yicha Kasb ta’limi – Buxgalteriya hisobi va audit yo‘nalishidan tayyorlangan topishmoq quyidagicha bo‘lsin:

Tarozining pallasi
Talab qilar tenglikni.
O‘zida qamrab olgan
Iqtisodiy kenglikni.
Oldi-sotdi, o‘zgarish
Hujjatlarda yig‘ilib,
Unda aksinl topar
To‘rda turar kerilib,
Ustav kapitali-yu,
Asosiy vositalar.
Tenglik buzilsa magar,
Demak, qilingan xato!
Sababini ko‘rsating,
Qanday nom unga ato?

Boshqa kichik guruhlar topishmoqni javobini aytishadi hamda topishmoqda o‘rganilayotgan kategoriya qay darajada ifodalanganiga baho berishadi.

(Javob: balans. Tenglik bo‘lishi shartligi xo‘jalikda bajarilgan operatsiyaning albatta ikki yoqlama yozuv - bir schyotning debetida, ikkinchisining kreditida aks ettirilishi). Topishmoq ayrim kamchiliklariga qaramay, unda korxonadagi barcha muomalalar, ular turli hujjatlardan yig‘ilib oxir-oqibat balansda aks etishi, balansning aktiv qismida o‘zining salmog‘i jihatidan asosiy vositalar, passiv qismida ustav kapitali birinchi o‘rinda turishini ko‘rsatishga harakat qilingan.

Mavzu bo‘yicha Kasb ta’limi – Bank ishi yo‘nalisidan taklif etilgan topishmoq quyidagicha bo‘lsin:

Xalqimizda naql bor
«Jigardan bo‘lgan paydo».
Belning kuchi-quvvati
Xohishing qilar ado
Unga ega bo‘lsang gar
Changalda pishmish sho‘rva
Qadri ketsa-chi magar,
Solmoqqa yetmas to‘rva.
Bo‘lar karaxt va garang
Iqtisodiyot usiz
Nomlanadi rango-rang,
Otini toping-chi siz?

(Javob: pul.) Uning sifatlari mohirlik bilan berilgan. Lekin u topishmoqni topishni osonlastirishga ham yordam beradi.

Kasb ta’limi - Moliya yo‘nalisi quyidagi topishmoqni tayyorlashgan

Aniqlangan miqdor-u,
Belgilangan muddat
Paysalga solmay uni,
To‘lamoq kerak albat.
Ma’lum bir holatlarda
Imtiyozlar berilar,
Vaqtida to‘lamasang,
Jarimalar tug‘ilar
Buyuk iqtisodchi Smit
Kamroq to‘lashga doim
Qiladilar harakat.
Barcha uchun majburiy,
Olib borib tadqiqot.
Birinchi tamoyili
Degan ekan, adolat.
Boshqalari haqida
O‘zing so‘zla tafsilot
Amalga oshirish-chun
Davlat berar kafolat.
Olingan daromaddan
Uchgandayin barakat,
Qo‘yib yubormas komi.
Sababini izohlang,
Qanday atalar nomi?

(Javob: soliq). Soliqqa tortishning buyuk iqtisodchi ko‘rsatgan va ko‘rsatmagan, hozirda amal qilishiga e’tibor qaratilayotgan qator tamoyillari bor. Uning fikricha birinchi o‘rinda adolat bo‘lishi kerak. Mashhur Benjamin Franklin “dunyoda ikki narsa haq: o‘lim va soliq” degan ekan.

Topishmoq ayrim kamchiliklariga qaramay, soliqqa xos jihatlar ochib berilgan. O‘quvchi-talabalar iloji boricha soliqning asosiy tamoyillarini sanab o‘tishlariga diqqat qaratish kerak, chunki topishmoqda uning tafsilotini berish so‘ralgan. Shunday tarzda boshqa kichik guruhlarda tayyorlangan topishmoqlar ham topiladi va muhokama qilinib, tayyorlangan topishmoqlar va javoblar baholanadi. Eng yuqori ball to‘plagan guruh aniqlanadi. Ularni qanday taqdirlashni har bir o‘qituvchi o‘zi hal qiladi. Bunday topishmoqlarni quvnoqlar va zukkolar tanloviga ham qo‘yish mumkin.

Iqtisodiy kategoriyalarni o‘rganishga qaratilgan krossvordlarni ham topishmoq, o‘ziga xos topqirlik mashqi sifatida tanlovini o‘tkazish mumkin.

“NILUFAR GULI” chizmasi metodi

Metodning mazmuni Nilufar guli sharqda juda e’zozlanadi. Sharq madaniyatida potensial imkoniyatlarni amalga oshirishni shu gul bilan bog‘lashadi.

Asosiy muammoni (g‘oya, vazifa)ni yechimiga ta’sir etuvchi omillar, potensial imkoniyatlar va boshqalarni aniqlashi ularning o‘zaro aloqasini bir butun holda ko‘rishga o‘rgatuvchi metod. **“Nilufar guli” – g‘oyalar rivojlanishining markazdan qochma jadvali** bo‘lib, 9x9 katakdan iborat. Muammoni hech nimani yoddan chiqarmasdan sinchiklab o‘rganish zarur bo‘lsa ana shu jadvaldan foydalanish qo‘l keladi. U g‘oyalarni o‘ylab topish va ular ro‘yxatini tuzishga yordam beradi. Uning muallifi yaponiyalik **Yasuo Matsumura** bo‘lib, u bu jadvalni biznesda tatbiq qilgan. Keyinchalik bu jadval kishida kreativ fikrlash va moslashuvchanlikni, tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam bergani uchun boshqa sohalarda ham keng qo‘llaniladigan bo‘ldi.

“Nilufar” guli chizmasini tuzish qoidalari

1. Amaliy nuqtai nazardan barcha g‘oyalar ixcham deb tasavvur qilinadi (bitta-ikkitasi bilan chegaralaning), bu ham aql uchun foydali mashq hisoblanadi.

2. Sizga katta qog‘oz varag‘i zarur bo‘ladi. Doimo o‘zingiz mushohadalaringiz natijasini bir varaq qog‘ozda ko‘rish foydali hisoblanadi. Qarama-qarshi holda esa sizga bir varaqdan boshqasiga sakrab yurishingizga va bunda zaruriy biror muhim narsani unutishingizga olib keladi.

“NILUFAR GULI” chizmasi - o‘zida nilufar guli ko‘rinishini namoyon qiladi. Uning asosini to‘qqizta to‘rt burchaklar tashkil etadi. Markaziy to‘rt burchak va uning atrofiga 8 ta to‘rt burchak chiziladi. Markaziy to‘rt burchakka avval asosiy muammoni (g‘oya, vazifa) yoziladi. Uni yechish uchun bildirilgan fiklarlarini esa markaziy to‘rt burchakning atrofida joylashgan sakkizta to‘rt burchaklarga yoziladi. Bular ham nilufar gulining simvoli. Ular bir-biriga bog‘liq, tutashligi bizning ko‘zimizga ko‘rinmaydi. U suvning tagida, biz faqat suvning yuzasidagi gullarni ko‘ramiz.



Chizmada markaziy to‘rt burchakning atrofida joylashgan sakkizta to‘rt burchaklarga yozilgan fikrlar, g‘oyalarni, atrofda joyllashgan sakkizta to‘rt burchaklarning markaziga yoziladi, ya’ni yangi gullarga olib chiqiladi. Shunday qilib, uning har biri o‘z navbatida yana bir yangi muammodek ko‘riladi. ***“Nilufar***

guli” chizmasi mana shunday bo‘lib, uni yana davom ettirish mumkin. Buni natijasida muammoga ta’sir ko‘rsatadigan juda ko‘p omillarni aniqlash imkoniyati kengayadi va ular orasidan eng muhimlari tanlanadi. Uni ham individual, juftlikda, kichik guruhlarda bajariladi. Bunda sxemalar taqqoslanadi va qo‘shimchalar kiritiladi. Umumiy sxemaga jamlanadi. Ish natijalari taqdimoti va muhokamasi o‘tkaziladi.

Baliq skeleti

Keyingi paytlarda keng qo‘llanilayotgan uslublardan biri “Fishboun” (“baliq skeleti, suyagi” deb tarjima qilinadi) yoki **Isikava** (Ishikava) diagrammasi yoki sxemasi bo‘lib, axborot bilan vizual ishlash metodi sifatida qaraladi. U yuz bergan voqea, hodisalarning barcha mumkin bo‘lgan sabablari to‘g‘risida ko‘rgazmali ravishda axborot olishga, ko‘z o‘ngiga keltirishga yordam beradi.

Muammoning butun doirasini ifoda etish va uning yechimini topishga imkoniyat beradi. Tizimli, ijodiy, tahliliy mushohada qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Dastlab o‘quvchi-talabalar sxemani tuzish qoidalari bilan tanishtiriladi, baliq skeleti sxemasi chiziladi. “SUYAK”ning yuqori qismiga muammo ichidagi muammo yoziladi, pastki qismiga esa – ushbu muammo ichidagi muammo amalda mavjud ekanligini tasdiqlovchi faktlar yoki uning kelib chiqish sabablari yoziladi.



Bu metodni qo‘llaganda muammoni baliqning boshiga yozamiz. Skeletning o‘zida yuqori va pastki suyaklari mavjud. Qo‘yilgan maqsadga ko‘ra muammoning namoyon bo‘lishini suyaklarining bir tomoniga, ularning mavjudligiga dalillar yoki unga ta’sir etuvchi omillar kabilarni ikkinchi tomoniga muhokama qilib yozib chiqamiz.

Agarda muammoning kelib chiqishiga turli yondashuvlarning farqini ko‘rsatmoqchi bo‘lsak, bir tomonga pastga yondashuv vakillari, ikkinchi tomonga yuqoriga ularning aytgan fikrlarini, baliqning dumiga muammoning yechimini yozishimiz mumkin.

Yozuvlar qisqa, mazmun va dalillarni ifodalovchi kalit so‘zlar va iboralardan iborat bo‘lishi kerak. Masalan, ekologik muammolar to‘g‘risida fikr bildirilayotgan bo‘lsa, ularning mavjudligini va dolzarbligini tasdiqlovchi aniq ma’lumotlarga suyanish muhimdir. Dalillar mavhum fikrlash to‘g‘risida emas, balki aniq mexanizm to‘g‘risida gapirishga imkon beradi.

Topshiriqni bajarish (izlanish) individual yoki guruhlarda o‘tkazilishi mumkin. Muammolarning o‘zaro aloqasi, ularning umumiy xususiyatini namoyon etuvchi to‘ldirilgan sxemaning taqdimoti muhim bosqich hisoblanadi.

Muammo va qo‘yilgan maqsaddan kelib chiqib, izlanish topshirig‘ini bajarish va to‘ldirilgan sxemaning taqdimoti muhim bosqich hisoblanadi. Shunday qilib, baliqning boshida muammo, sabab, dalil, baliqning dumida xulosa, yechim beriladi.

3.8. Iqtisodiyotni o‘rganishning amaliy metodlari

Iqtisodiy fanlarning boshqa fanlardan ajralib turadigan tomoni ham shundaki, u faktlar, ma’lumotlar, raqamlar bilan ish ko‘radi. Iqtisodchidan ana shu faktlar, raqamlar, ma’lumotlar bilan ishlay bilish, qo‘ygan maqsadiga ko‘ra ular asosida hisob-kitob, matematik amallar, kuzatishlarni amalga oshirish, ularning dinamikasi-o‘zgarishi asosida xulosalar chiqarish, qaror qabul qilish ko‘nikmasiga ega bo‘lish talab qilinadi.

Bu o‘z navbatida iqtisodiy fanlarni chuqur o‘rganish, imkon qadar real voqelikka yaqin tajribalar o‘tkazish, nazariy qonun-qoidalarni sinab ko‘rishni zarur qilib qo‘yadi. Bu jihatdan iqtisodiy fanlarni o‘rganishda masala va mashqlardan foydalanishga teng keladigani yo‘q.

Shuning uchun ham iqtisodiy fanlarning xususiyatlaridan kelib chiqib, ularni o‘rganishda markaziy o‘rinni masala, mashq yechish egallaydi. Sababi:

Birinchidan, masala, mashq yechish fanni o‘rganishning bosh maqsadi - olingan bilimni amaliyotda qo‘llash imkonini ta’minlaydi.

Ikkinchidan, masala, mashq yechish orqali talabalarning bilim olishdagi faolligi ortadi.

Uchinchidan, masala fikrlashni o‘rgatadi.

Shuning uchun ham masala so‘ziga faqat hisob-kitob asosida topshiriqni bajarish, javobini aniqlash emas, balki fikr yuritish obyekti sifatida qaralishi bejiz emas. Aytaylik, yechimini kutayotgan masalalar, hal qilinishi zarur masalalar va hokazo.

To‘rtinchidan, o‘tilgan mavzuni takrorlash, mazmun-mohiyatini anglab yetishda yuqori samara beradi.

Masalaning mazmuni

Masala deganda:

- **bir tomondan** hal etilishi lozim bo‘lgan narsa, ish, muammo tushunilsa;
- **ikkinchidan**, bahs, muhokama, munozara mavzusi;
- **uchinchidan** esa ma’lum sonlar va tegishli amallar asosida no-ma’lum sonlarni topish haqidagi matematik vazifa tushuniladi.

Ayrim fanlar borki, ularni masala-mashq yechmay o‘rganib bo‘lmaydi. Shunday deganda, odatda biz tezda matematika, fizika, kimyo kabi fanlarni ko‘z oldimizga keltiramiz. Iqtisodiy fanlarni ham bu jihatdan ana shu fanlar qatoriga kiritish mumkin. Chunki iqtisodiy jarayonlar, bosh maqsad – aholi farovonligi, qisqacha aytganda, barcha – iqtisodiy ko‘rsatkichlar hisob-kitob qilishni taqozo qiladi. Bu esa o‘quvchi, talabalarda aniq miqdorlar, raqamlar yordamida qonun va kategoriyalarni tushunishni osonlashtiradi. Eng muhimi kelgusi ish faoliyati ham ular bilan bog‘liq.

Masala yechish metodi – berilgan raqamlar, dalillar**,** hujjatlar asosida hisob-kitob qilish orqali noma’lum natijani topish, uni tahlil qilish va xulosa chiqarishni o‘rgatuvchi metoddir.

Masala yordamida fanni o‘rganganda aniq raqamlar, dalillar, hujjatlar asosida tahlil qilish imkoniyati keng. Undan tashqari modellashtiruvchi o‘yin, kichik guruhlarga bo‘lish, konkurs o‘tkazish va boshqa metodlar asosida dars o‘tishda ham masala-mashqlardan keng foydalanish imkoniyati katta.

Masala yechish o‘quvchi-talabalarning bilimlarini aniqlashtirish, iqtisodiy qonunlar va kategoriyalarning mazmun mohiyatini anglash, ularni qanday ko‘rinishda namoyon bo‘lishini ko‘ra bilishga o‘rgatishi bilan ham ahamiyatli. Eng muhimi qabul qilingan iqtisodiy yo‘nalishdagi yuridik qonunlar, me’yoriy hujjatlarning amalga oshirish mexanizmini o‘rganishga yordam beradi.

Masala yechish iqtisodiy fan mavzularini mustahkamroq o‘zlashtirish, mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga, zehnni charxlashga, qo‘yilgan maqsadga erishishda iroda va intiluvchanlikni rivojlantirishga ko‘maklashadi. Fanga bo‘lgan qiziqishni uyg‘otadi, mustaqil ish ko‘nikmalarini egallashga yordam beradi va mustaqil fikrlashni rivojlantiradi.

Masala yechish yangi tushuncha va formulalarni kiritish, o‘rganilayotgan qonuniyatlarni aniqlash, yangi materialni o‘rganishga

yondashish imkonini beradi. Masalalarning mazmuni o‘quvchilarning iqtisodiy voqea-hodisalar haqidagi bilimlari doirasini kengaytiradi. Masala yechish jarayonida o‘quvchi-talabalar iqtisodiy fanlardan olgan bilimlarini hayotda qo‘llash zarurati, nazariya bilan amaliyot orasidagi bog‘lanishni chuqurroq anglash zarurati bilan bevosita to‘qnashadi.

Masalalar turli-tuman. Ularning mazmuni va didaktik maqsadlari, shartni ifodalash usuli va asosiy yechish metodiga va boshqalarga qarab ularni guruhlarga ajratish mumkin. Masalalarni mazmuniga qarab iqtisodiyotning qaysi yo‘nalishida: moliya, bank ishi, buxgalteriya hisobi, audit, qimmatli qog‘ozlar, pensiya ishi va hokazolarga oid masalalarga ajratish mumkin. Masalada uning shartini ifodalash usuli bo‘yicha: matnli, grafik, jadval va rasmli masalalarga bo‘linadi. Sharti so‘z bilan ifodalanib, uni yechish uchun kerakli ma’lumotlar to‘liq beriladigan masalalar matnli masalalar bo‘lib, ular iqtisodiy fanlarni o‘rganishda keng foydalaniladi. Ular o‘z navbatida hisob-kitob talab etiladigan va hisob-kitob talab etilmaydigan masalalarga bo‘linadi. Hisob-kitob talab etilmaydigan masalalar odatda ularni ko‘proq muammo deb ataymiz, mantiqiy fikrlash yo‘li bilan yechiladi. Masalalarning asosiy turlarini murakkablik darajasiga qarab oson, qiyin, murakkab va ijodiy yo‘naltirilgan kabi guruhlarga ajratish mumkin.

Talabalarda malaka, ko‘nikma hosil qilishda alohida o‘rin tutadigan metodlardan biri bu **mashq** hisoblanadi. Bu metodning samaraliligi eng avvalo mashqlarni amaliyot bilan bog‘langanligidir. Mashq qilish deganda o‘zi o‘rganish, malaka hosil qilish uchun qilinadigan ish, tayyorgarlik mashg‘uloti va uni takror va takror bajarishni tushunamiz. **Mashq** - inson oldiga qo‘ygan maqsadni amalga oshirish, ijobiy natijaga ega bo‘lish uchun qilingan mashaqqatli mehnat hamdir. **Mashq** - o‘zining bilimlarini chuqurlashtirish hamda tegishli malaka va ko‘nikmalar hosil qilish, mahoratni oshirish maqsadida harakatlarni og‘zaki va yozma, amaliy ravishda takror va takror amalga oshirishdir. **Mashqlardan foydalanish metodi –** fanni o‘rganish, malaka, ko‘nikmalar hosil qilish uchun tayyorgarlik ko‘rish, takrorlash va sinab ko‘rishni o‘rganishga qaratilgan metod.

Mashq qilish buyuk Xitoy faylasufi Konfutsiyning **“Aytsang, unutaman! Ko‘rsatsang, eslab qolaman! O‘zim bajarsam, anglab etaman!”**degan o‘giti, “Takrorlash – bilimning onasidir” degan xalqimiz naqlini ifodalaydi. Mashq qilmay o‘quv va amaliy ko‘nikma va malakaga ega bo‘lib bo‘lmaydi. Chunki, aynan mashq orqaligina

ko‘nikma, malaka, mahorat shakllanadi. Ular yordamida nazariya amaliyot bilan bog‘lanadi. Fanni nazariy jihatdan o‘rganayotganda

a) formulani tahlil qilish bilan bog‘liq;

b) iqtisodiy kategoriya, qonun-qoidalarni tahlil qilish;

d) axborot, raqamlar, faktlarda ifodalangan ma’lumotlarni tahlil qilishga qaratilgan mashqlardan foydalanish mumkin.

Mashqlar sxema, grafiklarga asoslangan bo‘lishi, keng ravishda jadval ma’lumotlarini tahlil qilishda foydalanish mumkin. Ular orqali u yoki bu kategoriya, tushnchani o‘zlashtirish oson bo‘ladi.

Mashqlar masaladan farqli ravishda barcha fanlarni o‘rganishda o‘quv jarayonining turli bosqichlarida qo‘llaniladi. Ularni qo‘llash metodikasi o‘quv predmetini o‘ziga xos xususiyatlariga, o‘rganiladigan masalalar, mavjud materialga o‘quvchi-talabalarning yoshiga bog‘liq. Mashqlarni ularni bajarishdan qo‘yilgan maqsadga ko‘ra: maxsus, avval bajarilganlarini yodga tushiruvchi, o‘qish, o‘rganish jarayonini faollashtiruvchi mashqlarga bo‘lish mumkin.

Mashqlarni bajarishga ko‘ra esa: amaliy, og‘zaki va yozma mashqlarga bo‘lish mumkin. Mashqlar oqzakimi, yozmami yoki amaliy bo‘lishidan qat’iy nazar aqliy va amaliy ish bajariladi

Og‘zaki mashqlar mantiqiy fiklash, xotira, diqqat va nutq ravonligini rivojlantirishga olib keladi. Ular dinamikligi bilan ajralib turadi, yozish uchun vaqt sarflanmaydi.

Xullas masala, mashqlar, bir tomondan sinalgan, qadimiy dars o‘tish uslubi bo‘lsa, ikkinchi tomondan, imkoniyatlari nihoyatda ko‘pligi tufayli eskirmaydigan, doimo zamonaviy, uchinchidan, universal, barcha iqtisodiy fanlarni o‘rganishda qo‘llash mumkin bo‘lgan metoddir.

Masalalarning muntazam yechib turilishi, mashq bajarish hamda uni muhokama qilish, talabalarning olgan bilimini uzluksiz nazorat qilish, tushunmagan kategoriyalarni tushnib olish imkoniyatini beradi.

O‘qituvchi masala, mashq tuzar ekan, **birinchi navbatda** aniq maqsad qoyishi, **ikkinchidan,** undan kelib chiqib, qanday ma‘lumotlar berilishini puxta o‘ylashi, **uchinchidan,** bajariladigan ishlarni, topshiriqlarni maqsadga ko‘ra tushunarli tarzda qo‘yishi zarur. **To‘rtinchidan**, tuzilgan masala-mashqlarni o‘qituvchining o‘zi yechishi zarur. Bu tuzilgan masala-mashqlarning kamchiliklarini to‘g‘rilashga ularni baholash mezonlarini ishlab chiqishga yordam beradi. Xullas, masala-mashq yechish iqtisodiy fanlarni o‘rganishda markaziy o‘rin egallaydi.

Mashqlarni dastlabki paytdagina oddiy takrorlash, takroran bajarish sifatida ko‘rish mumkin, keyinchalik esa u borgan sari takomillashtirib boriladi. **“Bilishni, o‘rganishni istasang – mashq qil. Har safar avvalgiga qaraganda yaxshiroq bajarishga harakat qil”.** Ana shundagina har bir kishi o‘zi qo‘ygan maqsadga erishishi mumkinligini o‘quvchi-talabalar ongiga singdirish lozim.

Ma’lumki, iqtisodiyotni nazariy jihatdan o‘rganishda ko‘pincha ilmiy abstraksiyadan foydalaniladi. Ko‘pchilik o‘quvchi-talabalar ilmiy abstraksiya metodini tezda tushunaverishmaydi. Matematik ifodalar orqali iqtisodiy hodisalarni o‘zaro bog‘lanishini tushunish esa oson. Masala-mashqlarni mustaqil yechar ekansiz, unga sarflagan intellektual energiyangiz va vaqtingizga achinmaysiz. Chunki ular iqtisodiyotni chuqur o‘rganishga katta yordam beradi.

Masala, mashq yechish jarayonida talabalarning qabul qilingan qonunlar, me’yoriy hujjatlar va yo‘riqnomalarni qay darajada bilishlarini ham aniqlash mumkin. Ulardan munozara, debatlar metodini qo‘llashda ham keng foydalansa bo‘ladi.

Masala-mashqlar talabalar bilimini sinashda ham eng qulay metod. Masala mashqlardan fanni o‘rganish uchun tarqatma material tayyorlashda keng foydalanish mumkin. Ulardan darsda foydalanish turli interaktiv metodlarni qo‘llab dars o‘tishni tashkil etishda foydalanish imkoniyati nihoyatda katta. Masala, mashqlardan foydalanib darsni tanlov o‘tkazish shaklida tashkil etish mumkin.

Masala yechish bilan keys yechishni umumiy tomonlari bo‘lsada, ular bir-biridan ancha farq qiladi. Ular avvalo amaliy, seminar mashg‘ulotlarida qo‘llashdan qo‘yilgan o‘quv maqsadlari bilan farqla-nadi. Aniq muammoli vaziyatlar metodidan foydalanishning asosiy maqsadi talabalarni tadbirkorlik faoliyatiga tayyorlashdir. U har bir talabaga amaliy va kasbiy ta’lim berilishini ta’minlaydi.

Metodni qo‘llashda maqsadni aniqlash va muammoni qo‘yishga alohida e’tibor berish kerak. Qo‘yilgan muammo aniq, barchaga tushunarli bo‘lishi zarur. Muammoni o‘rganish, yechish bosqichlariga ko‘ra, maqsadlar belgilanadi. Bular:

1. Muammo bilan tanishish.

2. Zarur axborot yig‘ish, ular asosida mavjud vaziyat, holatni aniqlash.

3. Olingan bilimni amaliy faoliyatda qo‘llashni o‘rganish.

4. Olingan natijalarni o‘rganish, tahlil qilish asosida qaror qabul qilish.

Masala o‘quvchi-talabalarga o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha alohida nazariya, usul, tamoyillarni o‘rganish imkonini bersa, keyslar keng qamrovli ko‘nikmalarni shakllanishiga yordam beradi. Bu metod talabalardan atroflicha bilimga ega bo‘lishni talab qiladi. Chunki qaror qabul qilish nafaqat iqtisodiyot, balki faoliyatni tashkil etish, ish yuritish, axborot va ular bilan ishlash, sotsiologiya, psixologiya va boshqa fanlardan ham bilimdonlikni talab qiladi.

Masalaning birgina to‘g‘ri yechimi hamda ko‘pchilik holatlarda birgina yechish yo‘li bo‘lsa, keyslar turli yechim va unga olib keluvchi ko‘plab muqobil variantlar bo‘lishini va ular orasidan nisbatan eng maqbulini tanlashni taqozo qiladi

Masalada asosiy maqsad noma’lumni topishga qaratiladi.

Keyslarda muammoli vaziyat yaratilishi ta’lim oluvchini 1) ziddiyatlarni aniqlash, ularning murakkabligini his etishga yo‘naltiradi; 2) muammoli vaziyatlar natijasida talaba ongida muammo shakllanadi, uning yechimini topish uchun yangi ma’lumotlar talab etilishini anglab yetishga olib keladi; 3) muammoni hal etish uchun harakat qiladi.

Talabalarning puxta bilim olishlari, ularning olgan bilimlarini tekshirishdagi qator afzalliklarini hisobga olib, keyingi paytda keng qo‘llanilayotgan mashq turi **test**[76] hisoblanadi.

Test yechish nihoyatda keng qo‘llanilishi sababli alohida metod sifatida qaraladigan bo‘ldi. Mavzuni o‘rganishda testlardan foydalanish, ayniqsa, guruhda test o‘tkazilgach, uning javoblarini muhokama qilish alohida ahamiyatga ega.

Testlar - bu qisqa, standartlashtirilgan yoki standartlashtirilmagan sinov, mashq bo‘lib, qisqa vaqt davomida o‘qituvchiga talabalarning o‘quv jarayoni davomida egallagan bilimlari darajasini baholashga yordam beruvchi metoddir.[77]

“Mantiqiy chalkash zanjir” strategiyasi tushunchalar, bildirilgan fikrlar o‘rtasida bog‘liqlikni yuzaga keltirish, ularni mantiqiy jihatdan ketma-ketlikda to‘g‘ri ifodalashga yordam beradi. Uning mohiyati o‘qituvchi mavzuni yorituvchi ma’lumotlarni to‘g‘ri va noto‘g‘ri tartibda bayon etadi. Talabalarning vazifasi mantiqiy jihatdan noto‘g‘ri

[76] Test (ing. Test – sinov, namuna, tadqiqot)

[77] Masala-mashq, testlar va ularni yechish bo‘yicha batafsil ma’lumot olish uchun qarang: Tojiboeva D., Yo‘ldoshev A. Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi. Darslik. T.: Aloqachi, 2009. 272-305, 487-502-betlar.

ifodalangan ma’lumotlarni to‘g‘ri dalillarga aylantirish, yuzaga kelgan mantiqiy chalkashlikni tuzatish, fikrlarni muayyan ketma-ketlikda to‘g‘ri joylashtirgan holda uzilgan zanjirni “ulash”dan iborat.

Iqtisodiy fanlardan esse yozish va esse uchun savollar tuzish

Ma’lumki, oliy o‘quv yurtini bitirgan mutaxassis berilgan topshiriqni bajarganligi, qilingan ishlar va erishilgan natija, mavjud kamchiliklar va ularni bartaraf qilish yo‘llari bo‘yicha yozma hisobot bera olishi kerak. Shuningdek, xizmat xati, raport, hisobot, turli muassasa, tashkilotlar o‘rtasida yozishmalar, firma, korxona va boshqalar bilan shartnoma kabilarni yozishni bilishi kerak.

Talabalar bo‘lg‘usi mutaxassis sifatida o‘z fikrlarini bayon qilishni, yozma ravishda ifodalashni ham o‘rganishlari kerak. Ayniqsa, iqtisodiy sohada yozma hisobot, turli-tuman tashkilotlar, firma, korxonalar bilan biznes bo‘yicha sheriklar o‘rtasida turli-tuman yozishmalar, xatlar, bildirishnomalar, xizmat yuzasidan aloqalarga tegishli takliflar, tavsiyalar va boshqa yozma hujjatlarni tayyorlashga, yozma ishlarni bajarishga to‘g‘ri keladi. Buning uchun esa ularda ko‘nikma hosil qilish kerak. Bu ko‘nikma talabalarning yozma ish yozishlari orqali hosil qilinadi. Tez-tez yozma ish yozish ularning fikrlashini o‘zgartiradi, ularni kurs ishi, yakuniy nazorat ishi, bitiruv malakaviy ishi, turli yozishmalar, dissertatsiya yozishga tayyorlaydi. Yozma ish ijodiy fikrlashga o‘rgatadi. Uning muallifi o‘zining qarashini, fikrini asoslashga o‘rganadi.

Afsuski, ko‘pincha og‘zaki ravishda o‘z fikrini bemalol o‘rtoqlashadigan kishilar yozma ravishda bayon qilishga kelganda juda qiynalishadi. Ana shunday holni kamaytirishning muhim usuli bu talabalarni **yozma ish** bajarishlaridir.



Har qanday ilmiy ishning natijasi albatta yozma ravishda bayon qilinadi. Bu ilmiy hisobot, referat, maqola, kitob va boshqalar bo‘lishi

mumkin. Iqtisodiyotda esa oylik, kvartal, yarim yillik, 9 oylik, yillik hisobotlar tayyorlanadi. Ularda mo‘ljallangan davr bo‘yicha faoliyat natijasi chuqur tahlil qilinadi, hulosa chiqariladi, qaror qabul qilinadi. Bu talab ikki holat bilan asoslanadi. **Birinchidan,** faqat yozma ravishdagina fikrlarni, erishilgan natijalarni ilmiy tilda bayon qilish mumkin. *Og‘zaki nutqda bunga hech qachon erishib bo‘lmaydi.* Ilmiy ish, kichkinagina maqola yozish, hisobot yozish ham uni yozib o‘rganmagan kishi uchun juda katta qiyinchilik tug‘diradi. Og‘zaki osongina aytiladigan, o‘zicha gapirib beradigan narsalarni yozishni boshlaganda ma’lum bo‘lishicha “yozib bo‘lmas” ekan. Sababi kundalik turmushda qo‘llaniladigan til bilan ilmiy til o‘rtasida farq bor. Og‘zaki so‘zlaganda biz o‘zimiz ham bizni eshituvchilar ham mantiqiy xatoliklarni sezishmaydi. Yozma matn esa qat’iy mantiqiy izchillikda bayon qilishni talab qiladi. Uni bajarish esa ancha qiyin. I**kkinchidan,** har qanday ilmiy ishning maqsadi – tadqiqot asosida yangi ilmiy natijalarga erishish va uni boshqalarga etkazishdir. Agarda bu yangi ilmiy bilim faqat tadqiqotchining boshida qoladigan bo‘lsa, uni hech kim o‘qiy olmaydi. U holda bu bilim talab qilinmagan, demak, yo‘qotilgan hisoblanadi.

Undan tashqari nashr etilgan ilmiy ishlar miqdori va hajmi har qanday ilmiy xodimning (rasmiy) ish ko‘rsatkichi, yozilgan hisobot esa korxonaning, muassasa, tashkilotning faoliyatini aks ettiruvchi hujjat. Demak, ular har bir so‘zni o‘rnida ishlatishni talab qiladi.

Yozma nutq fikrni har tomonlama o‘ylash, aniq ifodalashga, har bir so‘zni o‘rnida ishlatishga o‘rgatadi. Talabalarni tez-tez yozma ish yozishlari ularning fikrlash ko‘nikmalarini tubdan o‘zgartiradi. Ularni kurs ishi, hisobot, bitiruv malakaviy ishi, qolaversa, dissertatsiya ishlarini yozishga tayyorlaydi.

Yozma ishni o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha boshlash kerak. Belgilangan vaqt 10–15 daqiqa. Dastlab, o‘quvchi-talabalar hayollariga shu mavzu bo‘yicha nima kelsa, shuni yozishadi. Buning uchun ularni koyimaslik kerak.

O‘qituvchi yozma ishlarni yig‘ib olib talabalarning intellektual darajasi, mavzuni o‘zlashtirishlarini aniqlaydi.

Dars o‘tishning yangi uslublari orasida **esse yozish** ham o‘ziga xos o‘rin egallab borayapti. U, ayniqsa, yakuniy nazorat ishi yozish uchun tajriba to‘plashda qo‘l keladi.

Esse (fransuzcha - ESSAI - tajriba, xomaki reja, urinish, ocherk, xomaki chizma, ocherk) - muallifning individual pozitsiyasini alohida

ajratib ko‘rsatish orqali erkin, ko‘pincha, **paradoksal bayon qilishga** yo‘naltirilgan falsafiy-estetik, adabiy-tanqidiy, badiy-publitsistik adabiyot.

Esse yozish metodi - muallif muayyan pozitsiyaga ega, u o‘z nuqtai nazarini ishonchli dalillar bilan asoslash va uni himoya qilush, o‘zi bildirgan fikrga boshqalarni ham ishontirish, qo‘llab quvvatlashga undashga qaratilgan yozma ish (insho) yozishni o‘rgatuychi metod.

Esse yozish metodi - muallifning individual pozitsiyasini, dunyoqarashini alohida ajratib ko‘rsatish orqali erkin yozma bayon qilishga yo‘naltirilgan, talabalarni iqtisodiy fikr yuritish va uni yozma ravishda ifodalashga o‘rgatadigan va ularning bilimini baholashda qo‘llaniladigan metod.

Essening maqsadi mustaqil ijodiy fikr yuritish va o‘z fikrini yozma ravishda ifodalashga o‘rgatishdir. Uni yozish muallifga o‘z fikrini aniq va savodxonlik bilan shakllantirish axborot tarkibini tizimlashtirish, asosiy tushunchalardan to‘g‘ri foydalanish, sabab-oqibatli bog‘lanishni ajratish, o‘z xulosalarini misollar, dalillar bilan isbotlashga o‘rgatadi.

Essega turli jihatdan yondashib, har xil guruhlarga ajratiladi. Ulardan eng diqqat qaratiladigani uning qaysi nuqtai nazardan qarashga ko‘ra:

- Shaxsiy, subyektiv esse, uning asosiy jihati muallif shaxsini u yoki bu tomonini ochib berishga qaratilgan;
- Obyektiv esse, shaxsiy yondashish, yozilishi lozim bo‘lgan predmetga yoki biron-bir g‘oyaga bo‘ysundirilgan.

Essening qanday bo‘lishi haqida aniq chegaralar belgilanmagan. Uning hajmi uncha katta emas. Garvard biznes maktabida odatda esse 2 varaqdan iborat bo‘ladi. Boshqalarda undan ko‘proq. Mavzu aniq bo‘lishi, subyektivligi, faqat bir variant, bir fikrni ifodalashi, uni rivojlantirib borish, xulosa berilishi bilan ajralib turadi. U mazmuni, yo‘nalishiga ko‘ra falsafiy, tarixiy, adabiy, badiiy, adabiy-tanqidiy, badiiy-publitsistik, ma’naviy-diniy esselarga ajratilgan.

Nobel mukofoti laureati V. V. Leontevning «Ekonomicheskie esse. Teorii issledovaniya, faktorы i politika» kitobi nashrdan chiqqach, iqtisodiy mavzularda ham esse yozishga e’tibor berila boshlandi. U 50-yillarning ma’lumoti asosida AQSH eksportida mehnat sig‘imi yuqori, importida esa kapital sig‘imi yuqori tovarlar ustun ekanligini ko‘rsatib berdi. Vaholanki, AQSH bilan savdo-sotiq qiladigan boshqa mamlakatlarga qaraganda kapital omili ustun, ish haqi esa nisbatan

yuqoriligi bilan Xeksher-Olin nazariyasiga ko‘ra, AQSH kapital sig‘imi yuqori tovarlarni eksport, mehnat sig‘imi yuqori tovarlarni import qilishi kerak edi. Bu qarama-qarshilik iqtisodda “Leonthev paradoksi”[78] deb ataladi.

Bunga sabab, ishlab chiqarish omillari sifat jihatdan bir xil emas, ayniqsa mehnat omili. U o‘zining sifati – malaka darajasi jihatidan katta farq qiladi. Shuning uchun AQSHdan umuman mehnat sig‘imi yuqori bo‘lgan tovarlar emas, balki yuqori malaka talab qiladigan tovarlar, xizmatlar eksporti ustun. Bu usuldan keyingi paytlarda, talabalarni iqtisodiy fikr yuritishga o‘rgatish va bilimini baholashda keng qo‘llanilmoqda.

Iqtisodiy fanlardan esse qo‘yilgan savolga asoslangan javob mavjud bo‘lgan yozma ishdir. Muallif muayyan pozitsiyaga ega, u o‘z nuqtai nazarini ishonchli dalillar bilan asoslaydi va uni himoya qiladi, o‘z pozitsiyasini quvvatlash uchun bir qator dalillarni taqdim etadi. Maqsad muallif o‘zi bildirgan fikrga boshqalarni ham ishontirish, qo‘llab quvvatlashga undashdir.



Iqtisodiy fanlarni o‘rganishda esse yozishni qo‘llash ularning xususiyatiga mos keladi. Chunki, aynan iqtisodiyotda har bir kishi o‘z nuqtai nazaridan, pozitsiyasidan kelib chiqqan holda, u yoki bu voqeani

[78] Paradoks (yunoncha paradoxos – kutilmagan, g‘alati) – ko‘pchilik tomonidan qabul etilgan an’anaviy fikr, tajribaga o‘z mazmuni, shakli bilan zid bo‘lgan, kutilmagan mulohaza. Har qanday paradoks “shubhasiz to‘g‘ri” (asoslimi, asossizmi, bundan qat’iy nazar) hisoblangan u yoki bu fikrni inkor etishda ko‘rinadi. Antik falsafada har qanday g‘alati, original fikrni ifodalash uchun ishlatilgan.

tushuntirishi variantlari nihoyatda xilma-xildir. Eng muhimi, muallif uni fikriga sizni qo‘shilishga undashi va buni uddasidan chiqishidir.

O‘qituvchi uchun muhimi esa aynan qiziqarli, talabalarni o‘z fikrini bayon qilishga yo‘naltiradigan mavzu tuzish (ilovaga qarang) va uni baholash mezonini ishlab chiqish.

Usulning boshqa usullarga o‘xshab o‘ziga xos afzalliklari va kamchiliklari mavjud.

Metodlar nihoyatda ko‘p. Ularni barchasini qamrab olish qiyin, hammasini ko‘rsatib bo‘lmaydi. Sababi, imkoniyat cheklangan. Topshiriqlarni bajarishda ularni topib qo‘llashni talabalarga taklif qilishimiz kerak. Bu ularga mavzuni o‘rganish uchun samarali metodlarni izlash, tanishish, o‘quv jarayonida qo‘llashni o‘rganish imkonini beradi. Muhimi metodlarni talabalarning o‘zi izlab topib, qo‘llashga yo‘naltirishdir.

Takrorlash va munozara uchun savollar:

1. Dars o‘tishda auditoriya oldiga savol qo‘yishning qanday ahamiyati bor? Savol-javob eng ko‘hna, keng tarqalgan va hech eskirmaydigan metod deb ayta olamizmi?
2. Nima sababdan har qanday bilish faoliyatining asosida savol yotadi, deymiz?
3. Suhbat metodi qanday metod, u aniq yo‘naltirilgan savollar metodidan nimasi bilan farqlanadi?
4. Juftlik va kichik guruhlarga bo‘linib, dars o‘tish qaysi jihatlari bilan boshqa metodlardan ajralib turadi?
5. Talabalarning samarali ishlashi uchun kichik guruhlarda qanday qoidalarga amal qilish kerak?
6. Dars o‘tish metodlari orasida modellashtiruvchi o‘yin metodi, sizningcha, qaysi jihatlari bilan ajralib turadi?
7. Siz loyiha taqdimotida nimalarga ahamiyat bergan bo‘lardingiz? Loyiha uchun berilgan baholash mezonlari sizni qoniqtiradimi, yana nimalarni qo‘shish mumkin?
8. Iqtisodiy fanlardan dars o‘tganda “case stady method”ini qo‘llashning imkoni ham, ahamiyati ham katta degan fikr to‘g‘rimi?
9. Iqtisodiy fanlarni o‘rganishda masala, mashq yechish nima sababdan asosiy o‘rinda turadi?
10. Kitob bilan mustaqil ishlashni bilish qanday ahamiyatga ega deb o‘ylaysiz? Siz o‘zingiz adabiyotlar bilan qanday ishlaysiz?

IV BOB. MAXSUS FANLARNI O‘QITISHNING KO‘RGAZMALI, TEXNIK VA INFORMATSION TA’MINOTI

Iqtisodiy fanlarni o‘rganishda dars o‘tish metodlarigina emas, dars jarayonida foydalaniladigan namoyish etiluvchi va tarqatma materiallardan foydalanish ham muhim ahamiyatga ega. Chunki har bir insonning o‘ziga xos xislati axborot qabul qilishda ham namoyon bo‘ladi.

O‘quvchi-talabalarni chuqur bilim olishlari uchun axborotlarni turli tarzda berish muhim ahamiyatga ega. Axborot texnologiyalari rivojlangan hozirgi davrda dars o‘tishda qanday ta’lim vositalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa texnik vositalarni qo‘llab dars o‘tish o‘quvchi-talabalarning fanni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarini orttirishga, berilayotgan axborotlarni chuqur o‘zlash-tirishga katta yordam beradi. Navbatdagi bob ana shu masalalarni o‘rganishga bag‘ishlangan.

4.1. Maxsus fanlarni o‘qitishda ko‘rgazmalilik, texnik va axborot ta’minotining zaruriyati va tutgan orni

Metodlarni qo‘llashning turli-tuman modifikatsiyalari mavjud bo‘lib, ular dars o‘tish shakllari va vositalari bilan qo‘shilib ketadi. O‘qish, o‘rganish idrok qilish, xayolan qayta jonlashtirish bilan chambarchas bog‘liq. Hayot tajribasi ko‘rsatadiki, inson o‘zi ko‘rib, tasavvur qilgan narsani to‘liq o‘zlashtiradi. Avtomobil yoki traktor haqida qancha o‘qigan, og‘zaki eshitgan bo‘lmang, o‘zini ko‘rib, mashq qilmay o‘rganib bo‘lmaydi. Inson tabiatan shunday yaratilgan ekanki, u biron narsani o‘rganishi uchun uni tasavvurida jonlantira bilishi kerak ekan. Shuning uchun ham iloji boricha o‘rganilayotgan predmetni turli vositalar, tasvir, maket, rasm, chizma va boshqalardan foydalaniladi, ya’ni ta’limning ko‘rgazmaliligi ta’minlanadi.

Ko‘rgazmali (vizual) qurollar - bu axborot olishni ko‘rish (sezgisi) orqali, tasvirni idrok qilish, xotirada jonlantirishga qaratilgan vositalardir.

Ko‘rgazmalilikning muhim ahamiyati shundaki, axborotlarni, ma’lumotlarni tizimlashtirish va tarkibiy guruhlashtirish orqali o‘rganilayotgan tushuncha (hodisa, voqea va shu kabi)lar o‘rtasidagi

aloqa va aloqadorlikni hamda ularni o‘rnatish yo‘li va vositalarini tushunishni osonlashtiradi, yangi variantlarini topishga yo‘naltiradi.

Shaxsiy kompyuter ixtiro qilingach, o‘quv jarayonida texnik vositalardan keng foydalanilishi tufayli grafikli organayzerlar tushunchasi ham keng qo‘llaniladigan bo‘ldi.

Grafikli organayzerlar (tashkil etuvchilar) – *axborotlar, ma’lumotlar, bildirilgan fikrlar, jarayonlarni ko‘rgazmali taqdim etish vositasidir.* Hozirgi paytda ular yordamida jadvallar, diagrammalar, turli ko‘rinishdagi chizmalar qo‘llaniladigan topshiriqlar bajariladi.

Ular yordamida ma’lumotlar, axborotlarning tarkibini aniqlash, o‘rganilayotgan tushunchalar (voqea va hodisalar, mavzular, muammolar) o‘rtasidagi aloqa va o‘zaro bog‘liqlikni aniqlash va ko‘rsatish usul, vositasi sifatida foydalanish mumkin: klaster, toifalash jadvali, insert, B/B/B jadvali kabilar.

Ma’lumotlarni tahlil qilish, solishtirish va taqqoslash usul va vositalari sifatida qo‘llashimiz mumkin: T-jadval, konseptual jadval, semantik jadval, Venn diagrammasi kabilar.

Muammoni aniqlash, uni hal etish, tahlil qilish va rejalashtirish usullari va vositalari sifatida foydalanishimiz mumkin: ularga muammoli “Nima uchun?”, “Baliq skeleti”, “Piramida”, “Nilufar guli” sxemalari, “Qanday?” ierarxik diagrammasi, “Kaskad” tarkibiy-mantiqiy sxema kabilarni kiritishimiz mumkin.

Ularning boshqa ko‘rqazmali materiallardan farqi katta. Sababi ularni nafaqat ko‘rgazmalilikni ta’minlash, balki mavzuni o‘rganishda uning mazmuni, mohiyatini tasvirlash, mantiqiy fikrlash, tayanch tushuncha, ma’lumot, axborotlarni muayyan tizimga keltirish, tahlil qilishni o‘rgatuvchi metodlar sifatida ham qo‘llaniladi.

Ko‘rgazmali qurollar asosida dars o‘tishni ko‘rgazmali metodlar deb ham ataladi. Bu metodlarga o‘quv materialini o‘zlashtirish o‘quv jarayonida ko‘rgazmalilikni ta’minlash bilan bog‘liq metodlar kiradi. Ular og‘zaki va amaliy metodlar bilan birgalikda qo‘llaniladi.

Ta’limning ko‘rgazmali uslublarining o‘ziga xos xususiyati shundaki, ular og‘zaki ifodalash uslubi bilan u yoki bu darajada uyg‘unlashib ketadi. So‘z va ko‘rgazmalilikning chambarchas bog‘liqligi shundaki, obyektiv borliqdagi qonuniyatlar amaliyotda birgalikda qo‘llashni taqozo etadi.

Ta’limning ko‘rgazmaliligini ta’minlashni shartli ravishda ikki

katta guruhga: ko‘rgazmali va namoyish qilish metodlariga bo‘lish mumkin.



Demak, so‘z va ko‘rgazmalilik aloqasining xilma-xil shakllari mavjud. Ta’lim vazifasining o‘ziga xos xususiyati, mavzuning mazmuni, mavjud ko‘rgazmali vositalarning xarakteri, o‘quvchi-talabalar tayyorgarligi darajasidan kelib chiqib, oqilona uyg‘unlashtiriladi.

Ko‘rgazmali qurollar yordamida bir vaqtning o‘zida muhokama qilinayotgan savolni, axborotni ham eshitish, ham ko‘rish orqali qabul qilish shubhasiz talabalarni puxta bilim olishlariga yordam beradi.

Taraqqiyotning o‘zi bir tomondan fanni chuqur o‘zlashtirishni zarur qilib qo‘ysa, ikkinchi tomondan turli - tuman yangi metodlar, ko‘rgazmalilikni oshirish, texnik vositalardan foydalanish, ularni qo‘llashni takomillashtirish orqali bilim olishni osonlashtirish, qiziqarli jarayonga aylantirishga yordam beradi.

Ko‘rgazmali qurollar xilma-xil. Ko‘rgazmalilikni nomoddiy va moddiy guruhga bo‘lishimiz mumkin. Dars jarayonida so‘z orqali yodga tushiriladigani nomoddiy, ya’ni u o‘qituvchining so‘zlari bilan xayolan ko‘z o‘ngida gavdalanadi.

Moddiy ko‘rgazmalilik tasvirlangan ko‘rgazmali qurollar orqali ta’minlanadi. Ularga: nashr etilgan turli-tuman ko‘rgazmali materiallar; texnik vositalardan foydalanib, ko‘rsatiladigan: slaydlar, plyonkaga chizilgan chizma, sxema, model, grafik va boshqalar; oddiy yoki magnitli doskaga chizilgan yozilgan va boshqalar bo‘lishi mumkin. Ulardan tashqari audial (eshitiladigan) magnitofon, plastinka, kompakt disk va boshqalar, audio visual: o‘quv filmi, kompakt diskka yozilgan ma’ruza matnlari, hujjatli film va hokazolarni kiritish mumkin.

Ko‘rgazmali qurollardan foydalanilganda qator shartlarga rioya qilish kerak:

- ko‘rgazmalilik o‘quvchi-talabalarning yoshiga muvofiq bo‘lishi kerak;

- ko‘rgazmalilik me’yorida bo‘lishi kerak, ularni faqat o‘quv jarayonida mavzu bo‘yicha talab qilingan rolda navbatma-navbat ko‘rsatishni nazarda tutib tayyorlash kerak;

- ko‘rgazmali qurollarni tayyorlash jarayonida uni qanday tushuntirishni chuqur o‘ylab qo‘yish kerak;

- ko‘rgazmalilik bayon qilinayotgan materialga mos tushishi kerak;- ko‘rgazmalilikni ta’minlashda o‘quvchi-talabalarni keng ravishda jalb etish zarur.

Dars jarayonida so‘z bilan o‘qituvchi tomonidan yodga tushirish, talabalarning xayolida gavdalantirish mumkin bo‘lgan ichki, xayoliy ko‘rgazmali qurollar: adabiyot, san’at asarlari, badiiy film, badiiy asar qaxramonlari hayotda yuz beradigan turli voqea, vaziyatlardan odatda keng foydalaniladi.

O‘qituvchi yangi mavzuni boshlar ekan, da’vat fazasida talabalar diqqatini jalb qilish, fikrini yo‘naltirish uchun adabiyot, sa’nat asarlari yoki hayotda yuz bergan voqeani gapirib talabalarning xayolan xotirasida tiklash, ko‘z o‘ngiga keltirishga undaydi. Ularning ruhi, kayfiyatini yangi mavzuni o‘rganishga tayyorlaydi. Masalan: “Tovar – pul nazariyasi” mavzusini boshlashdan avval auditoriyaga murojaat qilishi mumkin: suvni hamma biladi. Usiz hayot yo‘q. Shunga qaramay u tekin yoki narxi juda arzon. Brilliantni ko‘z o‘ngizga keltiring. Usiz yashash mumkin. Lekin juda qimmat, nima sababdan?

Bugungi darsda ana shu savollarga javob topishga harakat qilamiz. O‘qituvchi mavzu, uning maqsadi haqida gapirib, so‘ngra dars rejasini beradi.

Mashg‘ulot jarayonida ko‘rsatib, izohlash mumkin bo‘lgan ko‘rgazmali qurollar - jadval, sxema, plakat, chizma, diagramma va boshqalardan foydalanish talabalarning bilimini puxtalashtirishda muhim rol o‘ynaydi.

Darsda doskani ishlatish ko‘p vaqtni oladigan, boshqa texnik vositalardan foydalanish imkoni yo‘q auditoriyalarda plakat, sxemalardan foydalanish maqsadga muvofiq.

An’anaviy ko‘rgazmali qurollar bu sxema va plakatlar bo‘lib, odatda sxemalar standart vatman sathiga qora yoki boshqa ranglarda zarur matn yozilgan yoki jadval, chizma, diagramma, boshqalar

chizilgan bo‘ladi. Plakatlar esa nashr qilingan ko‘rgazmali qurol hisoblanib o‘tiladigan mavzular bo‘yicha tanlab olinadi.

Sxema, plakatlarni tayyorlash moddiy jihatdan qimmat hamda ko‘p vaqtni oladi. Xato qilinsa, o‘zgartirish qiyin. Shuning uchun hozirgi paytda vatmanga chizilgan yoki plakat holida nashr etilgan ko‘rgazmali qurollar o‘rniga yangi, tayyorlash va foydalanish qulay zamonaviy turlari, ayniqsa, dars jarayonida slaydlardan foydalanish keng yoyildi.

Slaydlar ta’lim beruvchi uchun eng yuqori darajadagi taqdimot imkoniyatini beradi. Zamonaviy o‘quv jarayonini bularsiz tasavvur qilish qiyin. Asosiy qulaylik shundaki, ulardan istagan paytda foydalanish, ish o‘rni o‘zgarganda oson ko‘chirish mumkin.

Jadval, sxema, grafik, diagrammalardan foydalanish universal:

- avvaldan slayd plyonkalarga chizib, texnik vositalar yordamida ko‘rsatilishi;
- vatman qog‘ozga chizib, texnik vositalardan foydalanish uchun sharoiti yo‘q auditoriyada foydalanish;
- kserokopiyadan chiqarib, tarqatma material sifatida foydalanish;
- fleshga, diskka kiritib, kompyuter orqali ko‘rish, tahlil qilish mumkin.

Ko‘rgazmali qurollarning afzalligi shundaki, uni dars o‘tishning barcha shakllari, uslublarida qo‘llash mumkin. Ayrim mavzularni esa umuman namoyish qilinadigan materiallarsiz, ko‘rgazmali qurollarsiz o‘tib bo‘lmaydi. Darsni tashkil etishda ko‘rgazmali qurollar muhim o‘rin tutadi. Didaktikaning asosiy tamoyillaridan biri darsning ko‘rgazmaliligini ta’minlash. Ayniqsa, iqtisodiy fanlarni o‘qitishda ko‘rgazmali qurollardan foydalanish talabalarga iqtisodiy kategoriyalarni, muammolarni o‘rganishda katta yordam beradi.

Darsni ko‘ngildagidek o‘tishida ko‘rgazmali materialni qanday namoyish qilish ham katta ahamiyatga ega.

Namoyish qilish – ta’lim oluvchilarni predmet, hujjatlar, turli obyekt, hodisa, jarayonlar va boshqalarni ularning tabiiy ko‘rinishida ko‘rgazmali-hissiy tanishtirishdir. Namoyish usulining ta’limiy vazifasi samaradorligi quyidagilarni bajara olishni ta’minlaydi:

- obyektlarni to‘g‘ri tanlash;
- ta’lim oluvchilar e’tiborini namoyish qilinayotgan predmet, hodisaning muhim tomonlariga yo‘naltirish;

- hamma o‘quvchi-talabalar namoyish qilinayotgan predmet, obyektni ko‘rishlari, iloji boricha faqat ko‘rish emas, balki barcha sezish a’zolari bilan his qilishlariga erishishga harakat qilish kerak;
- namoyish jarayonida eng asosiysi, muhimini ajratib ko‘rsatish zarur;
- ta’lim oluvchilar e’tiborini imkoni boricha o‘rganilayotgan obyektning muhim tomonlariga jalb etish, maksimum darajada diqqatlarini jalb qilishi kerak;
- ta’lim oluvchilarga o‘rganilayotgan obyektni sifatini mustaqil ravishda barolash imkoniyatini ta’minlash kerak.

Namoyish qilish usuli - axborotni, ko‘rgazmali materiallarni ko‘proq kodoskop, proektor, kinoapparat, o‘quv televideniesi, shuningdek axborotni displey bilan aks ettiruvchi kompyuterlarda qabul qilishga asoslanadi.

Real narsalarni namoyish qilish metodi ko‘proq tabiiy, texnika va texnologiya bilan bog‘liq fanlarni o‘rganishda qo‘l keladi. Ayniqsa, talabalarning o‘zi shu predmetlar, buyumlarni o‘z qo‘llari bilan ushlab ko‘rib, uni xossalarini o‘rganishlari bilish jarayonini faol amalga oshishiga yordam beradi.

Iqtisodiy fanlarni o‘rganishda ham ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish jarayonini tashkil qilishni boshqarishni o‘rganishda, sarf-xarajatlar tarkibini, mahsulot sifati va boshqalarni o‘rganishda katta yordam beradi. Iqtisodiy ko‘rsatkichlar raqamlar, ma’lumotlar, statistik ko‘rsatkichlarga asoslanishi hamda qabul qilingan qonun-qoidalar, me’yoriy hujjatlar asosida qabul qilingan shakllarda yuritilishi ularni ko‘rgazmali, namoyish etish yordamida mazmun-mohiyatini tushunishga katta yordam beradi.

Namoyish qilish metodining o‘ziga xos davomi **illyustratsiya** hisoblanadi. Namoyish qilishda ko‘proq predmetlardan foydalaniladi. Illyustratsiya predmet, jarayon hodisalarni simvollar yordamida ifoda qilish bo‘lib, odatda, u plakatlar, karta, portret, fotografiya, rasm, chizma, grafik va boshqalarni o‘z ichiga oladi.

Illyustratsiyaning o‘ziga xos turi adabiyot, kinofilm qahramonlari bo‘lib, ularning obrazlari eslatilganda xotirada ularni jonlantirilishidir.

Illyustratsiya materiallarini oldindan tayyorlanadi, lekin zarur paytida ko‘rsatiladi. Hozirgi paytda ulardan tarqatma material sifatida foydalanish keng qo‘llanilmoqda.

Illyustratsiyaning samaraliligi ko‘p jihatdan uni qanday tarzda qo‘llashga bog‘liq. Ko‘rgazmali qurollar va ularni namoyish qilishni rejalashtirganda uni mavzuni o‘rganishda qanday rol o‘ynashi va didaktik vazifasini yaxshilab o‘ylash kerak. Chunki haddan tashqari ko‘rgazmali materiallar ko‘pligi, talabalarni mavzuni o‘rganishdan chalg‘itadi. Illyustratsiya materiallari oldindan tayyorlanadi, lekin zarur paytda ko‘rsatiladi.

Ko‘rgazmali qurollardan foydalanish darajasi keng, ulardan qanday tarzda, qanday maqsadda foydalanish o‘qituvchiga bog‘liq.

O‘qituvchi ko‘rgazmali qurol tanlar ekan, albatta, avvalo, dars ma’ruzami yoki seminar darsimi - hisobga oladi. Ikkinchidan, mavzu orqali o‘qituvchi talabalar oldiga qanday vazifa qo‘ymoqchi, maqsadi nima, muhokama qilinayotgan muammoni yechishda ko‘rgazmali qurol qanday yordam berishi mumkinligini hisobga olib, tanlashi kerak.

Masalan, jadval raqamlaridan ma’ruzada biron ilmiy taxmin (gipoteza)ni, ilgari surilayotgan fikrni tasdiqlash maqsadida foydalanilsa, seminar darsida masala yoki mashq bajarganda foydalanish mumkin. Bunda ham ko‘rgazmali qurollardan foydalanish darajasi o‘qituvchining mohirligi, fantaziyasiga bog‘liq.

Ko‘rgazmalilikni ta’minlashning o‘ziga xos shakli bu – **ekskursiya.** U o‘quv jarayonini tashkil etishning tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, u bilim olish, ko‘nikma va malakani shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. **Ekskursiya**: a) o‘qish, o‘rganish; b) ko‘rish-tanishish; d) aniq maqsad, mavzu bo‘yicha bo‘lishi mumkin. Ular odatda jamoa bo‘lib, guruh bilan o‘qituvchi yoki maxsus mutaxassis, ekskursovod boshchiligida amalga oshiriladi.

Ekskursiyalar o‘rganishning samarali metodi bo‘lib, u o‘quvchi-talabalarda kuzatuvchanlik, yangi ma’lumotlar to‘plash, vizual taassurotlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Ekskursiya – ta’limini tashkil etishning shunday shakliki, u orqali o‘quvchilar bevosita ishlab chiqarish sharoitida jihozlar bilan tanishib, texnologik va mehnat jarayonlarini tashkil etishni kuzatib boradi. O‘quv-o‘rganishga qaratilgan ekskursiyalar ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish obyektlari bilan tanishishga qaratiladi. Bunda o‘quvchi-talabalar alohida texnologik jarayonlar, asbob-uskunalar, ishlab chiqarilayotgan mahsulot turi, sifati, mehnat sharoitlari bilan tanisha-dilar. Mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish uchun sarflangan resurslar ishlab chiqarilgan mahsulot, ko‘rsatilgan xizmatda qanday aks

etishi, bu korxonalarda buxgalteriya hisobi qanday tashkil etilishi, uning bo‘limlari (bor bo‘lsa) faoliyati, ish haqi uni tashkil etish shakllarini o‘rganadilar. Banklar, sug‘urta kompaniyalari, tovar-xomashyo, moliya birjalari, savdo-sanoat palatasi, tuman moliya bo‘limlari, ofis va boshqa shu kabi muassasa, tashkilotlarga qilingan ekskursiyalar yoshlarni kasbga yo‘naltirish, tanlagan kasbiga muhabbat uyg‘otishda katta ahamiyatga ega. O‘quvchi-talabalar ishlab chiqarish holati, korxonalarni texnik jihatdan qurollangani, zamonaviy ishlab chiqarish ishchi, xodimlarga qanday talablar qo‘yishi, ularning hammasi qanday iqtisodiy ko‘rsatkichlarda aks etishi haqida aniq tasavvurga ega bo‘ladilar.

Ekskursiyalar muzey, teatr, zapovednik, tarixiy obidalar, turli xil ko‘rgazmalar, tabiatning mo‘jizakor joylari va boshqa joylarga tashkil etilishi mumkin. **Ekskursiya** qanday shaklda bo‘lmasin aniq o‘quv-o‘rganish va tarbiyaviy maqsadga qaratilgan bo‘lishi kerak. O‘quvchi-talabalar ekskursiyadan qo‘yilgan maqsadni aniq bilishlari, o‘zlari uchun ekskursiya jarayonida nimalarni bilish, qanday materiallar, ma’lumotlar va ularni qanday shaklda yig‘ish, umumlashtirish, ekskursiya natijasi haqida hisobotni qanday yozishni ko‘z o‘ngiga keltirishlari kerak.

4.2. Tarqatma materiallar, ularning tutgan o‘rni. Ko‘rgazmali va tarqatma materiallar tayyorlash hamda ulardan foydalanish

O‘tilayotgan darsda talabalarga axborot yetkazish, ularni darsni puxta o‘zlashtirishlari va faol qatnashishlarini ta’minlashda tarqatma materiallarning ahamiyati katta.

Darslarda tarqatma materiallardan foydalanish tobora keng qo‘llanilmoqda. Tarqatiladigan materialning muhim ijobiy tomoni shundaki, u bevosita talabaning qo‘lida bo‘lib, uzoqdan ko‘rsatiladigan ko‘rgazmali qurollarga xos kamchiliklardan holi.

Tarqatma materiallar - ta’lim oluvchilar uchun o‘rganilayotgan mavzuga oid asosiy ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan, hajmi uncha katta bo‘lmagan (1-3 varaq) yozma o‘quv materiali hisoblanadi.

Tarqatma materiallarni maqsadi, mazmuni jihatdan shartli ravishda**:** a) axborot beruvchi (AVTM), b) topshiriq beruvchi (TBTM), d) bilimni nazorat qiluvchi (BNQTM) guruhlarga ajratish mumkin.

Tarqatma material – bu o‘rganilayotgan mavzuga tegishli uni puxta o‘zlashtirish uchun xizmat qiluvchi, alohida diqqat qaratish lozim bo‘lgan axborot va ma’lumotlar, topshiriqlarni o‘z ichiga olgan matn.

Axborot ko‘lami katta bo‘lgani sababli qisqa vaqt ichida barcha axborotni talabalarga to‘liq yetkazib berish qiyin. Bunday paytda axborotni tarqatma material sifatida yetkazib berish muhim rol o‘ynaydi. Bunda gaplar qisqacha yozilgan matnlar bo‘lib, darsga tayyorgarlik ko‘rishda, dars davomida yoki bilimlarni mustahkamlashda foydalanish uchun ta’lim oluvchilarga taqdim etiladi.

Tarqatma materiallardan ko‘rgazmali qurol sifatida ham foydalanish mumkin. Ayniqsa, iqtisodiy fanlarni o‘rganishda turli jadval, grafik, chizmalardan juda ko‘p foydalaniladi. Ularni plakat sifatida tayyorlash talabalar uchun anchagina noqulay. Undan tashqari :

- talabalarga raqamlarda ifodalangan ma’lumotlarni og‘zaki yetkazish ularni chalkashtirib yuborishi bilan birga, eslab qolishlariga ham imkon bermaydi;

- Miqdor jihatdan ko‘p malumotlarni doskaga yozib, tushuntirish uchun ko‘p vaqt talab qilinadi. Doskaga yozish paytida o‘qituvchi bilan ta’lim oluvchilar o‘rtasida aloqa uziladi.

- Bu jihatdan ko‘rgazmali quroldan namoyish qilinuvchi hamda tarqatma material sifatida foydalanish qator afzalliklarga ega.

O‘qituvchi raqamlarda, grafik, formulalarda ifodalangan axborotni namoyish qilinayotgan materialga qarab tushuntiradi. Talabalar esa ham namoyish qilinayotgan materialga ham, qo‘llaridagi tarqatma materialga qarashadi. Ma’lumotlar talabalar qo‘lida bo‘lishi, ularni ko‘rib turishi, tushunishi, anglashini osonlashtiradi.

Tarqatma materiallar talabalarga topshiriqlarni hamkorlikda bajarish, shunigdek, o‘z ustilarida muntazam, mustaqil ishlashlarini ta’minlash imkoniyatini ham beradi. Ayniqsa, buning uchun ishchi varaqalar tayyorlanishi va ular asosida dars jarayonida juft bo‘lib yoki individual tarzda ishlashni tashkil qilish, shubhasiz talabalarni darsga faol qatnashishlarini ta’minlaydi. Ular masala, mashq, turli jadvallarni to‘ldirish va hokazolar tarzidagi turli topshiriqlar bo‘lishi mumkin.

Tarqatma materiallar ta’lim oluvchilarni bilimini tekshirish nazorat qilishda ham keng qo‘llaniladi. Bunda nazorat varaqalari tarzida tayyorlangan test savollari, masala va mashqlar bo‘lishi mumkin.

Iqtisodiy fanlarni o‘rganishda o‘z fikrini auditoriyaga yetkazishda ko‘rgazmali qurollar, grafik vositalari: turli jadvallar, xaritalar, chizmalar, matritsalardan keng foydalaniladi. Ayniqsa ma’lumotlarni diagrammalar va ko‘rgazmali qo‘llanmalar orqali ifodalash muhim o‘rin tutadi.

Iqtisodiy tahlilda **diagramma va grafiklarni qo‘llash metodiga mashhur iqtisodchi Alfred Marshall** asos solgan. Yaxshi o‘ylangan va to‘g‘ri tanlangan diagramma jadvallarga qaraganda axborotni aniq yetkazish va tezroq o‘zlashtirishga katta yordam beradi. Ular yordamida o‘quvchi talabalar diqqati o‘rganilayotgan masalaga jalb qilinadi va shu bilan birga ularni ham kelgusida o‘z fikrlarini turli diagrammalar yordamida tushunarli, esda qoladigan darajada bayon qilish ko‘nikmalari hosil qilinadi. Odatda fikrlarni bayon qilishda asosan 5 tipdagi diagrammalar ishlatiladi.[79]

Ular quyidagilar:



U yoki bu axborotni diagramma orqali yetkazishni maqsad qilib qo‘yar ekanmiz, uni to‘g‘ri tanlash uchun birinchi navbatda tinglovchiga qanday fikrni yetkazmoqchimiz, diqqat qaratishimiz kerak.

Birinchi qadam, g‘oyani shakllantirish kerak, ya’ni raqamlar, ma’lumotlardan g‘oyaga;

Ikkinchi qadam, raqamlar, ma’lumotlarni taqqoslash tipini aniqlash darkor, ularning besh xili mavjud: ulushli (komponentli), pozitsion, vaqt, chastotali, korrelyasion.[80]

1. **Komponentli taqqoslash**. U butunning, 100 foizning ulushlari. Bunda biz har bir komponentning butunga nisbatan ulushlarini ko‘rsatamiz. Taqqoslashda eng ko‘p ishlatiladigan so‘zlar; ulushi, jamiga nisbatan, tashkil etadi.

2. **Pozitsion taqqoslash**. O‘rganilayotgan obyektlarning tutgan o‘rni. Bunda o‘rganilayotgan obyektlar bir-biriga nisbatan qanday o‘rin tutadi, ular tengmi, o‘zaro yoki boshqalarga nisbatan kattami yoki kichikmi, ko‘pmi, ozmi va shunga o‘xshash, ko‘rsatiladi. Eng ko‘p ishlatiladigan so‘zlar; nisbatan ko‘p, nisbatan kam, teng kabilar.

[79] Джин Желязны. Говори на языке диаграмм. Пособие по визуальным коммуникациям для руководителей (Перевод с английского) Институт комплексных стратегических исследований. М., 2004. С. 29.

[80] Tojiboeva D., Yo‘ldoshev A. Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi. Darslik. T.: Aloqachi, 2009. 399-402 b.

3. **Vaqtga ko‘ra taqqoslash**. Bunday taqqoslash eng ko‘p tarqalgan, qo‘llaniladigan taqqoslash bo‘lib, diqqat o‘rganilayotgan obyektning vaqt davomida o‘zgarishiga qaratidadi. Iqtisodiy ko‘rsatkichlar hafta, oy, kvartal, yil davomida qanday o‘zgarishini: o‘sadimi, pasayadimi, tebranadimi, o‘zgarmay qoladimi, ko‘rsatiladi. Unda eng ko‘p ishlatiladigan so‘zlar; o‘sgan, pasaygan, o‘zgarmay qolgan, atrofida kabilar.

4. **Sodir bo‘lish, takrorlanish darajasiga (chastotasi) ko‘ra taqqoslash**. Bunday taqqoslashda qanday miqdordagi obyektlar taqqoslanishini aniqlanadi. Misol, qancha ishchilar150-200 ming so‘mdan kam ish haqi oladi yoki aholining qanday qismi 5-10 yoshgacha, qanday qismi 15- 20 yoshgacha bo‘lganlarni tashkil etadi va hokazo. Eng ko‘p ishlatiladigan so‘zlar; …dan … gacha, diapazon, konsentratsiya, farqi kabilar.

5. **Korrelyasion taqqoslash**. U ikki o‘zgaruvchi o‘rtasida bog‘liqlik bormi yoki yo‘qligini ko‘rsatadi. Masalan, sotish hajmining ortishi foydaning ko‘payishiga olib keladi yoki skidkalar belgilanishi sotish hajmini ko‘paytiradi. Tahlilda ishlatiladigan so‘zlar: natija ko‘rsatadiki, … bo‘lganda … o‘zgaradi va boshqalar.

Uchinchi qadam, diagramma tipini aniqlash. Har qanday axborotni yuqorida ko‘rsatilganidek, 5 turdagi diagrammadan birortasi yoki biron tarzdagi interpretatsiyasi orqali ifodalash mumkin.

TAQQOSLASH TIPLARI



Diagrammalardan qaysi birini tanlashni quyidagi matritsa asosida ko‘rib chiqishimiz mumkin. Uning vertikali bo‘yicha asosiy 5 tipdagi diagrammalar, gorizontal bo‘yicha 5 tipdagi taqqoslash keltirilgan. Vaqtga ko‘ra, chastotali, korrelyatsion taqqoslashda asosan ikki tipdagi diagrammadan foydalanamiz. Ular aks ettirilgan axborot hajmi bilan farqlanadi. Agarda axborot oz (olti yoki yetti) bo‘lsa yaxshisi gistogrammada, agarda ko‘proq bo‘lsa grafikda ifodalagan ma’qul. Korrelyasion taqqoslashda esa kamroq axborot taqqoslansa chiziqli diagramma, ko‘proq bo‘lsa nuqtali diagrammani qo‘llagan ma’qul.

Lekin qachon, qanday tipdagi diagrammadan foydalanish bu qabul qilingan qoida emas. Har bir kishi qo‘yilgan maqsad, vazifadan kelib chiqib, diagrammaning asosiy tiplari va uning turli variantlaridan foydalanishi mumkin.

O‘qituvchi biror-bir mavzu bo‘yicha ko‘rgazmali qurol tayyorlar ekan, o‘quvchi-talabalar mavzuning mazmunini tushunib yetishlari uchun uni qanday tasvirlashni ko‘rib chiqadi. Masalan, iqtisodiyotni o‘rganishda sarf-xarajatlarni, ularni o‘zgarishini o‘rganish o‘ta muhim. Umumiy xarajatlar, doimiy xarajatlar, o‘zgaruvchi xarajatlar, me’yoriy xarajatlar, umumiy tushum, xarajatlarni qoplash nuqtasi, yalpi foyda va boshqalarni og‘zaki gapirib o‘tgandan mana bunday chizmani slayd qilib tayyorlab, foydalanish talabalarning mavzuning mohiyatiga tushunishi hamda yodida qolishiga yordam beradi.



Ko‘p miqdorda raqamlarda ifodalangan ma’lumotlarni, taqqoslanishi lozim bo‘lgan har xil qarashlarni turlicha jadvallarda bergan ma’qul. Ularni tushunish, tahlil qilish osonlashadi. Bularni avvalgi boblarda ko‘rib o‘tganmiz.

Agarda iqtisodiy ko‘rsatkichlar ulushini yoki tarkibini ko‘rsatish lozim bo‘lsa, doira shaklidagi diagrammalardan foydalangan ma’qul. Masalan, byudjet daromadlari va xarajatlari tarkibi yoki mahsulot ishlab chiqarishga sarflangan xarajatlar tarkibi, korxonaning asosiy kapitali tarkibi va hokazo. Chunki bunday diagrammada bu ko‘rsatkichlarning salmog‘i aniq ko‘rinadi. Ularni taqqoslash, xulosa chiqarish oson bo‘ladi.





Agarda iqtisodiy ko‘rsatkichlar taqqoslanishi kerak bo‘lsa, ustun tarzidagi diagramma yoki grafik tarzda tasvirlagan ma’qul. Chunki bunday shaklda ko‘rsatkichlarni taqqoslash qulay, ularni qay darajada farqlanishi yaqqol ko‘rinib turadi.

Ayniqsa, POWER POINT, Microsoft Office Excel dasturlari mehnatni ancha yengillashtiradi va ularni nihoyatda turli-tuman tarzda tasvirlash imkonini beradi.

Dasturdan foydalanilganda o‘quvchi-talabalar diqqatini mavzuga qaratish uchun turlicha dizayndan foydalanish mumkin. Slaydlarda mavzuning nomi, rejasi, o‘rganiladigan asosiy tushunchalar, ularni tushunish uchun zarur bo‘lgan tasvirlar, jadval, grafik, diagramma va boshqalarni berish mumkin. Muhim afzalligi ularni rang tasvirda berish imkoniyati katta.

Slaydlarni tayyorlashda shriftlarga, ularning katta-kichikligiga, ranglarning didaktik funksiyasiga, ularning ishlatilishiga, matn beriladigan fon, unda qanday tasvirlardan foydalanishga, ularni o‘quvchi-talabalar kayfiyatiga qanday ta’sir qilishiga, ishlanish usullariga, mantiqiy xarakteriga mosligiga ham ahamiyat berish zarur.

O‘qituvchi tarqatma materiallar tayyorlayotganda, ma’lum qoidalarga rioya qilishi lozim.

Tarqatma materiallarni tayyorlash va qo‘llash qoidalari:

• Ta’lim oluvchilarga haddan tashqari ko‘p tarqatma materiallar bermang.

• Sarlavhalarni bosh harflar bilan yozing, bir matn uchun ikki-uchta tarqatma material tayyorlasangiz, ularga nom-kod bering. Bu ularni ajratishni osonlashtiradi.

• Matn shrifti 12 dan kichik bo‘lmasligi kerak.

• Bir betda 80 tadan ko‘p belgi (harf, qavs, undov belgisi va hokazo) ishlatmang.

• Matnlar tushunarli, qisqa va oddiy bo‘lishi kerak.

• Varaq dizayni e’tiborni o‘ziga tortishi kerak.

Tarqatma materiallarda:

• o‘tiladigan mavzuning asosiy mazmunini berish;

• olingan axborotni dars davomida va darsdan tashqarida talabalar bilan mustaqil muhokama qilish;

• ta’lim oluvchilar diqqatini mustaqil fikrlash, ijodiy izlanishga qaratish;

• o‘quvchi-talabalarni darsga faol jalb qilish;

• o‘quvchi-talabalarning olgan bilimlarini nazorat qilish va sinash;

Bularning hammasi dars jarayonida tarqatma materiallardan keng foydalanishning zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Shu bilan birga dars jarayonida tarqatma materiallardan foydalanishda o‘ziga xos kamchiliklar ham mavjud:

• Tarqatma materiallar tayyorlash o‘qituvchidan ko‘p kuch va vaqt, yuksak mahorat talab qiladi.

• Bir kishiga bitta tarqatma material bo‘lishi kerak. Bu qo‘shimcha katta moddiy xarajatni talab qiladi.

• Tarqatma material asosida o‘zaro muhokama cho‘zilib, mavzuning boshqa qismlariga, savollariga e’tibor pasayishiga olib kelishi mumkin.

Ayrim kamchiliklariga qaramay, darsda tarqatma materiallardan foydalanishning afzalligi ustun.

Ko‘rgazmali qurol yoki namoyish qilinuvchi material va tarqatma materiallardan barcha metodlar asosida dars o‘tishda keng foydalanish mumkin.

4.3. O‘qitish vositalarni tutgan o‘rni, turlari, qo‘llash usullari

Iqtisodiy fanlarni o‘qitishda texnik vositalardan foydalanish alohida o‘rin tutadi. O‘qitish vositalarining mukammallashib borishi natijasida dars o‘tish jarayonini maqsadga muvofiq ravishda tashkil etish imkoni ortib bormoqda.

Ta’lim vositalari – o‘quv mazmunini ko‘rgazmali taqdim etish va shu bilan birga o‘qitish samaradorligini oshiririsga xizmat qiluvchi chop etilgan o‘quv materiallari yordamchi materiallar, real va texnik vositalarni o‘z ichiga oladi.

Texnik vositalardan foydalanish usuliga ko‘ra universal va maxsus texnik vositalarga bo‘linadi.

Universal vositalarga doska, diaskop, kodoskop, proektor, magnitofon, videomagnitofon, kompyuter, televizor kirishi mumkin.

Maxsus vositalar, ma’lum bir masalani, mavzuni yoritishga qaratilgan maket, videofilm, kasseta, disk, disket kabilarni o‘z ichiga oladi.

Axborotni uzatish, tasvirlash nuqtai nazaridan texnik vositalarni tasvirlovchi (kodoskop, proektor, diaprotsessor), tovushli (magnitofon, radio, audio kabilar), audio-video kompleksi, videomagnitofon, kompyuter kabilarga bo‘lish mumkin.

Ta’lim jarayonini amalga oshirishda yordam beruvchi vositalar ta’lim vositalari deb ataladi.

Uning tarkibi quyidagicha bo‘ladi.



Real ta’lim vositalari odatda, iqtisodiy yo‘nalish bo‘yicha ta’lim olish jarayonida kam ishlatiladi, lekin texnik va chop etilgan o‘quv materiallari juda keng qo‘llaniladi.

Ta’limning texnik vositalari (TTV) – o‘quv materialini ko‘gazmali namoyish etishga, uni tizimli yetkazib berishga yordam beradi; talabalarga o‘quv materialini tushunishlariga va yaxshi eslab qolishlariga imkoniyat yaratadi.

O‘quv-uslubiy materiallar (O‘UM) - o‘quv materiallari, o‘zlashtirilgan o‘quv materiallarini mustahkamlash uchun zarur yordamchi materiallar, mashqlar va hokazo. Ular talabalarni mustaqil ishlarini bajarishga, o‘z ustida muntazam ishlashlarini faollashtirishga yordam beradi.

O‘UM turlari va ulardan foydalanishning xususiyatlari

O‘quv-uslubiy material (O‘UM) turlari	Qo‘llanilishi
Yo‘riqnoma berivchi, yo‘l ko‘rsatuvchi	Individual, juftlikda va kichik guruh doirasida topshiriqni bajarishda;
Eslatma	Metodlarni qo‘llashda, topshiriq bajarishda, materialni mus-tahkamlashda, dars yakunida va mustaqil qo‘llash uchun
Nazorat varag‘i	Egallagan bilimlarni tekshirishda
Tezislar,	Mashg‘ulot oldidan – yordamchi qo‘llanma sifatida; O‘quv mashg‘ulot vaqtida – yakun chiqarishda, mashg‘ulotga tayyorlangan materialni mustahkamlash uchun; - qisqa qayd etish uchun faol vosita sifatida; - o‘quv mashg‘ulotidan so‘ng – bilimlarni mustahkam-lash uchun ma’lumotnoma sifatida.

Ta’lim vositalari bir-birini to‘ldiradi va dars jarayonida uyg‘unlashadi. Ta’lim vositalari talabalarning darsni tushunishi, mustaqil ishlashi, o‘quv jarayoniga faol qatnashishiga ko‘maklashadi.



O‘qituvchi qaysi vositadan qachon foydalanishi, qanday vositani qo‘llashini darsning maqsadi, mazmunidan kelib chiqqan holda oldindan belgilab olishi kerak.

Dars o‘tishda doskaning va boshqa texnik vositalarning tutgan o‘rni.

O‘quv jarayonida eng ko‘p qo‘llaniladigan va eng kam chiqim talab qiladigan vosita doska hisoblanadi. Doskadan turli maqsadlarda foydalanish mumkin:

– notanish so‘z, iboralarni yozish;

– turli chizmalar, diagramma, sxemalar chizish;

– rasmlar yordamida illyustratsiya qilish;

– misollar yechish;

– formulalar yozish va boshqalar.

Doska har bir sinf, auditoriyada bo‘lishi kerak. Dars paytida doskadan foydalanish uchun uni darsga tayyorlash lozim. Agarda o‘qituvchi ilgari dars o‘tmagan auditoriyada dars o‘tadigan bo‘lsa, doskaning o‘lchamlari, uning qandayligi bilan tanishishi kerak. Darsda doskadan optimal darajada foydalanishga harakat qilish lozim:

* zarur jumlalarni yozish, grafiklar chizish, bir-biridan ajratish, chiziqlarni rangli bo‘r bilan chizish;

* agar murakkab chizmalar chizilishi kerak bo‘lsa, avval xomaki nusxasini chizib ko‘rish;

* doskadagi tasvir iloji boricha tushunarli, taassurot qoldiradigan bo‘lishi kerak;

Doskaga aniq, talabalar o‘qiy oladigan qilib yozish kerak. Yozayotganda tushuntirishni to‘xtatib, yozib bo‘lgach, gapirish kerak. Chunki auditoriyada talabalarga orqa o‘girgan holda doskaga qarab yozib turib, gapirilgan fikrni ilg‘ash qiyin.

Doska va uning turlari



Dars paytida eng ko‘p foydalaniladigan doska turi – bu yozuv taxtasi bo‘lib, uni ishlatish uchun yozishga bo‘r, o‘chirishga latta kifoya. Doskada ishlashning har bir turining o‘ziga xos afzalliklari va kamchiliklari mavjud.

Avval dars o‘tishda keng qo‘llaniladigan nisbatan oddiy, bir auditoriyadan ikkinchisiga olib o‘tish oson texnik vosita kodoskop va proektor bo‘lgan bo‘lsa hozirgi kunda o‘quv jarayonida, taqdimot qilishda **videoproektor**dan tobora keng foydalanilmoqda. Undan foydalanish uchun kompyuter qurilmalari zarur. Oldindan tayyorlangan o‘quv materiallari va boshqalar videoproektor orqali namoyish qilinadi. U eng yuqori darajada taqdimot imkonini beradi. Namoyish etiladigan materiallarni turli kompyuter dasturlari: Word, Excel, Power Point, Corel Draw va boshqalarda taqdim etuvchining o‘zi tayyorlashi yoki professional darajada tayyorlangan elektron darsliklardan foydalanish mumkin. Bunda katta hajmdagi axborotni disket, kompakt disk, fleshka yordamida ko‘chirish, bir marta tayyorlab, keragicha foydalanish mumkin.

Eng muhim afzalliklaridan tayyorlangan materiallarni kamchiliklarini tezda tuzatish, zarur o‘zgartirishlar kiritish, takomillashtirib borish imkoni borligi, materiallarni kompyuter yordamida turli ko‘rinishda tayyorlash mumkinligi, rangli tasvirdan foydalanish, ularni “jonlantirish” va harakatlantirish imkoni mavjudligidir.

Videoproektor albatta boshqa vositalarga nisbatan qimmat, undan foydalanish uchun ko‘nikma talab etiladi. Ranglarni noto‘g‘ri tanlash oqibatida ko‘z toliqishi, animatsiyani noto‘g‘ri tanlash tufayli asosiy diqqat mazmundan chetga chiqib ketishi mumkin. Videoproektor elektr energiyasini talab qiladi.

Umuman olganda texnik vositalar dars jarayonini ko‘rgazmali qilishga, yuqorida aytganimizdek tasavvur qilishga va xotirada jonlantirishga yordam beradi. O‘rganilayotgan mavzuni o‘zlashtirishni, real hayotga, amaliyotga yaqinlashtirishni ta’minlaydi. Ajdodlarimiz bekorga aytishmagan “Yuz marta gapirgandan bir marta ko‘rgan afzal” deb.

O‘quv yurtlarida muvaffaqiyatli qo‘llanilayotgan vositalardan biri virtual stendlardir. Virtual stend – o‘quv amaliy stendi yoki o‘quv-malaka ustaxonasi bo‘lib, o‘quvchi-talabalarning nazariy bilimlarini mustahkamlashga, kompyuter dastur va texnologiyalari orqali ma’lum yo‘nalishda zaruriy ko‘nikmalarni hosil qilishga yordam beradi. Virtual stendlar har bir o‘quvchi-talaba uchun texnikaga o‘zining kirish parametrlarini “buyurishga”, o‘z bilimlarini nazorat qilishga imkon beradi. Laboratoriya ishini o‘tkazish, uni zarur tartibda tushunish va

hokazolar bilan bog‘liq vaqtdan yo‘qotish esa kompyuter samarasi hisobiga kamaytiriladi.

4.4. INTERNET-axborot texnologiyalar, interaktiv va masofaviy o‘qitish texnologiyalarini tayyorlash va ulardan foydalanish metodikasi

Hozirgi paytda o‘quv materiallari, axborotlarni ekranda ko‘rsatish imkoni vujudga kelishi va rivojlanishi bilan o‘quv jarayonida erishilgan yutuqdan foydalanish keng yoyilib bormoqda. Zamonaviy axborot texnologiyasi kompyuter texnikasi va aloqa vositalari sohasidagi yutuqlarga tayanadi. Ularning gurkirab rivojlanishi turli axborotlardan samarali foydalanishga qaratilgan jamiyatning rivojlanishiga turtki bo‘ldi. Masalan, mamlakatimizda soliq to‘lovchi subyektlar soni katta miqdorni tashkil etadi. Bu o‘z navbatida soliq nazoratini amalga oshirish uchun nihoyatda katta miqdordagi tekshirish, hisob-kitob ishlarini bajarishni talab qiladi. Uni belgilangan muddat va talab qilingan darajadagi sifatini ta’minlashning yagona yo‘li **axborot texnologiyalaridan foydalanishdir.**

XX asrning 70-yillarida amerikalik Stiv Jobs va Stiv Uoznik tomonidan shaxsiy kompyuterning yaratilishi, mikroprotsessor texnologiyasining kashf etilishi va ularni hayotimizga kirib kelishi, yangi axborot inqilobini vujudga keltirdi. Bu inqilob o‘z navbatida barcha sohada katta o‘zgarishlarga olib keldi.

Texnologiyalarning hayotimizning turli jabhalariga kirib borishi axborotlashgan jamiyatni shakllantirishga zamin yaratdi. “Elektron ta’lim”, “Elektron boshqaruv”, “Masofaviy ta’lim”, “Ochiq ta’lim”, “Axborotlashgan iqtisod” kabi tushunchalar hayotimizga keng kirib keldi. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, texnologiyalar jumladan, axborot texnologiyalari, Internetning ta’lim sohasiga kirib kelishi ta’lim xizmatlarini globallashish jarayonlariga katta yo‘l ochib berdi. Rivojlangan davlatlar ta’lim sohasida bo‘layotgan bunday ijobiy jihatlarni e’tiborga olgan holda, ta’lim sifatini yuksaltirish uchun texnologiyalardan ommaviy ravishda foydalanish davr talabiga aylanmoqda.

Buni hisobga olgan holda O‘zbekiston Respublikasining “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi qonunini qabul qilindi. Uni bajarish maqsadida Xalq ta’limi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirliklari

tomonidan qator me’yoriy hujjatlar va dasturlar ishlab chiqilib, qabul qilindi. Shuningdek axborot tarmog‘ini shakllantirish, axborot resurslarini yaratish va Axborot-kommunikativ texnologiyalarni ta’lim jarayonida qo‘llash bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirildi va oshirilmoqda.

Respublikamizning birinchi Prezidenti I.A.Karimov Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 13 fevraldagi majlisidagi ma’ruzasida ta’kidlab o‘tilganidek, “Bugungi kunda zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, ularni har bir mutaxassislik va sohalar bo‘yicha qo‘llash imkoniyatlarini izlash, mazkur texnologiyalarni yanada takomillashtirish jarayonlarida ishtirok etish eng avvalo bu boradagi bilimlarni beruvchi, targ‘ib etuvchi pedagogik kadr va mutaxassislarni taqozo etadi”.[81]

Hozirgi zamon axborotlashgan jamiyatining o‘ziga xos xususiyati shundaki, “sivilizatsiya tarixida birinchi marta bilimlarga erishish va ishlab chiqarishga sarflanadigan kuch energiya, xomashyo, materiallar va moddiy iste’mol buyumlariga sarflanadigan xarajatlardan ortiq bo‘ldi, ya’ni axborot texnologiyalari barcha mavjud texnologiyalar va xususan, yangi texnologiyalar orasida yetakchi o‘rin egallamoqda”.[82]

Axborot texnologiyalari – bu odamlarning bilimlarini rivojlantiradigan, ularning texnik va ijtimoiy jarayonlarni boshqarish bo‘yicha imkoniyatlarini kengaytiradigan ma’lumotlarni tashkil etish, saqlash, ishlab chiqish, tiklash, uzatish usullari va texnik vositalaridir. Yana shuningdek, axborot texnologiyalari deganda, ma’lum bir maqsadga erishish uchun amalga oshiriladigan jarayonlar zanjiridan iborat yaratuvchi faoliyat tushuniladi.

Axborot texnologiyalari, birinchidan, axborotning sirkulyasiyasi va ishlov berish majmui, ikkinchidan, bu jarayonlarning tasviridir.

Zamonaviy axborot texnologiyalarni o‘quv jarayoniga tatbiq etilishi, iqtisodiy samara berish bilan birga ta’limda yangicha o‘quv metodlarini keng ravishda qo‘llashga imkoniyat yaratib beradi. Maxsus ixtisoslashtirilgan auditoriyalar, chunonchi, kompyuter, televizor, videomagnitofon bilan ta’minlangan auditoriyalarda dars o‘tish borgan sari ommalashib bormoqda. Hatto uni alohida videometod sifatida talqin

[81] I.A.Karimov. Yangilanish va barqaror taraqqiyot yo‘lidan yanada izchil harakat qilish, xalqimiz uchun farovon turmush sharoiti yaratish asosiy vazifamizdir // Xalq so‘zi, 13 fevral, 2007.

[82] H.T.Omonov, N.X.Xo‘жaev, S.A.Madyarova, E.U. Eshchonov Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Darslik. T.: Moliya – Iqtisod, 2009. 55 b.

etilmoqda. Ayniqsa, o‘quv jarayoniga kompyuterning kirib kelishi barcha didaktik funksiyalarni muvafaqqiyatli bajarish imkoniga ega videometodni keng qo‘llash imkonini beradi. Buning natijasida uni kompleks didaktik texnologiya deb ham atalmoqda. U:

* talabalarga o‘rganayotgan mavzusi, hodisa, jarayon, faoliyat bo‘yicha to‘liq, ishonchli axborot berish;

* o‘quv jarayonida ko‘rgazmalilikning rolini oshirish;

* talaba, o‘quvchilarni xohish, talab, ehtiyojlari, qiziqishlarini qondirish;

* o‘qituvchining o‘quvchi, talabalarning bilimini, ko‘nikmalarini sinash bilan bog‘liq texnik ishlardan ozod qilish, samarali aloqa o‘rnatish;

* talaba-o‘quvchilarni o‘zlashtirishi bo‘yicha obyektiv hisobot, to‘la va uzluksiz nazoratni tashkil etish imkonini beradi.

XI asr – yuqori darajadagi kompyuter texnologiyalari asri. Hozirgi o‘quvchi-talabalar elektron dunyo, madaniyati qamrovida yashamoqda. Natijada o‘quvchi-talabalarga axborot yetkazishda o‘qituvchining roli o‘zgarmoqda. U endi axborot oqimini muvofiqlashtiruvchi, uyg‘unlashtiruvchi bo‘lishi kerak. Demak, o‘qituvchi zamonaviy metodika, yangi ta’lim texnologiyalari, axborot texnologiyalarini egallashi zarur.

Zamonaviy axborot texnologiyasi kompyuter texnikasi va aloqa vositalari sohasidagi yutuqlarga tayanadi. Hozirda kompyuter texnikasi va axborot texnologiyalarining gurkirab rivojlanishi turli xil axborotdan samarali foydalanishga qaratilgan axborot jamiyatining rivojlanishiga turtki bo‘ldi. Hozirgi zamonda o‘qitishni multimedia texnologiyasisiz tasavvur qilish qiyin. Dars jarayonida axborot texnologiyadaridan foydalanishda asosiy o‘rinda multimedia turadi. Multimedia komponentlaridan foydalanishni ta’minlovchi dasturiy vositalarni yaratilishi kompyuter texnologiyalarining muhim yutuqlaridan biri bo‘ldi. Multimedianing vujudga kelishi amaliyotning talabi, nazariyaning rivojlanishi bilan yuz bergan bo‘lsada, keyingi o‘n yillikdagi keskin ravishda oldinga ketish eng avvalo texnikaning va tizimli vositalarning rivojlanishi bilan bog‘liq. Bu shaxsiy EHMlarning rivojlanishi; xotira hajmini keskin ortishi; tezlik va grafik imkoniyatlarning nihoyatda kengayishi; videotexnika, lazer disk, CD-ROM kabilarda erishilgan yutuqlar, hamda ularni keng ommaviy ravishda tatbiq etilishi natijasidir. Ayniqsa, ma’lumotlarni tez va

samarali kichraytirish (qisish) metodlarini ishlab chiqish nihoyatda katta rol o‘ynadi.

Zamonaviy multimedia-shaxsiy kompyuter to‘la “qurollangan” holda displey-televizor bilan birlashtirilgan stereofonik Hi-Fi uy kompleksini eslatadi. Multimedia tasvirli ma’lumotlar bilan ishlashga qodir bo‘lgan vosita hisoblanadi. “Multimedia” so‘zi lotincha “multum” – ko‘p, “media” – ma’lumot tashuvchi so‘zidan olingan bo‘lib, “ko‘p ma’lumot tashuvchi vosita” degan ma’noni anglatadi. Multimedia informatikaning dasturiy va texnikaviy vositalari asosida audio, video, matn, grafika, animatsiya (obyektlarning fazodagi, ekrandagi harakati) jadvallari asosida ovoz (tovush) effekti orqali o‘quv materiallarini o‘quvchi, talabalarga yetkazib berishning mujassamlashgan holdagi ko‘rinishidir. Uni quyidagicha ifodalash mumkin:

.



1-rasm. **Multimedianing tarkibi**

Kompyuter yordamida o‘quv va didaktik materiallar deyarli professional darajada ishlab chiqilishi mumkin. Bu jarayonda POWER POINT dasturi alohida o‘rin tutadi. Microsoft Power Point – universal, imkoniyatlari keng bo‘lgan, ko‘rgazmali grafika amaliy dasturlari guruhiga kiradi. U matn, rasm, chizma, grafiklar, animatsiya effektlari, ovoz va boshqalardan tashkil topgan slaydlarni yaratish imkonini beradi. Bu dastur multimedia tayyorlashda juda katta imkoniyatlarga ega. Ulardan foydalanib, turli mavzularda multemidia tayyorlash va dars jarayonida qo‘llash keng yoyilib bormoqda. Natijada keyingi paytda alohida videometod sifatida pedagoglar tomonidan ajratib ko‘rsatilmoqda.

Buning uchun biz mavzuda qo‘yilgan maqsaddan kelib chiqqan holda qo‘lyozma shaklida matn uni qanday ko‘rinishda, chizma, grafik, jadval va hokazolarni tayyorlab olamiz. Matn tayyor bo‘lgach, uni

mantni qayta ishlovchi dastur, misol uchun Word dasturi orqali kompyuterga kiritish mumkin. Grafiklarni kiritish uchun Power Point taqdimot dasturidan foydalaniladi. Ikkala dastur birga matn va grafik kombinatsiyasini amalga oshirishga yordam beradi. Natijada o‘quv jarayonida keng qo‘llanilayotgan zamonaviy **taqdimot metodi** vujudga keldi.

Taqdimot (lot. presento – taqdim etish) - bu bir obyekt (narsa, mahsulot, loyiha, tashlilot va b.) kishilar diqqatiga havola qilish ko‘zda tutilgan, mo‘ljallangan hujjat yoki hullatlar to‘plamidir. Taqdimotning maqsadi auditoriyaga taqdim etilayotgan obyekt to‘g‘risida qulay, tushunarli hamda batafsil axborot yetkazish.

Taqdimot kompyutersiz ham amalga oshirilgan. Hozirda ham foydalaniladi. Unda auditoriyani muhokamaga jalb qilish, ularni ijodiy potensialidan foydalanish mumkin.

Taqdimot qadimdan qo‘llanilgan. Qadimda faylasuflar, ayniqsa sarkardalar undan keng foydalanishgan. Dastlab faqat og‘zaki, keyinchalik uni asoslash zaruriyatidan kelib chiqib, faktlar, rasmlar, chizmalar, xaritalar, mulyajlar, real obyektlar va hokazo shunga o‘xshashlar bilan axborotni tinglovchilar hukmiga havola qilingan hamda muhokama olib borilgan. Chunki **taqdimot bajarilgan ish natijasi, obyektni tinglovchilar hukmiga havola qilish, taqdimotchining vazifasi esa ularni o‘z fikri, taklif-tavsiyalariga ishontirishdir.** Buning uchun ularga aytilayotgan fikringizni asoslab berishingiz kerak. Tabiat odamlarni shunday yaratganki, ko‘z bilan ko‘rganga juda tez ishonishadi.

Aynan ana shu jihat – ishontirish – shaxsiy kompyuter ixtiro qilinib, axborot texnologiyalari rivojlanishi bilan uni shu qadar keng qo‘llanilishiga olib keldi. Kompyuter taqdimot tayyorlashda revolyutsiya yasadi, desak xato qilmaymiz. Chunki uning imkoniyati behad katta.

Taqdimot tayyorlash uchun biz mavzuning mazmun-mohiyatini ifodalovchi va uni ochib berishga xizmat qiluvchi slaydlar tayyorlashimiz kerak.

Slayd – ma’lum bir o‘lchamga ega bo‘lgan ko‘zlangan axborotni yetkazishga mo‘ljallangan muloqot varaqlari hisoblanadi. Unda maqsadni ifoda etgan axborot joylanadi.

Slaydlar ketma-ketligidan iborat tayyor taqdimotni kompyuter ekranida, videoproektor yordamida katta ekranda namoyish qilish

mumkin. Taqdimotni tayyorlash — slaydlar ketma-ketligini loyihalash va dizayn bilan jihozlash demakdir.

Power Point dasturi prezentatsiyalar (taqdimot qilish, ya'ni tanishtirish) bilan ishlash uchun eng qulay bo‘lgan dasturiy mahsullardan biridir. Bu dastur orqali barcha ko‘rgazmali qurollarni yaratish, ma'lumotlar bazasi sifatida qo‘llash ayrim hollarda, bu dasturdan multimedia vositalarini boshqarish va ularni qo‘llab, namoyish etuvchi qurilmalarga yuborish vazifalarini ham bajarish mumkin.

Power Point dasturida taqdimot materiallarini tayyorlash uchun birinchi navbatda biz maqsad qo‘yishimiz, qanday axborotni taqdim qilishimizni g‘oyasini yaratishimiz zarur. Quyidagi bosqichlardan iborat:

Taqdimot uchun g‘oyaning shakllanishida mavzuning mazmun mohiyatini ifodalashi, tayyorlanadigan material kimlar uchun mo‘ljallangan va qanday ko‘rinishda bo‘lishi muhim rol o‘ynaydi. Ikkinchi bosqichda material bo‘yicha kerakli ma'lumot yig‘iladi.



2-rasm. **Taqdimot materiallarini tayyorlash bosqichlari**

Ushbu ma'lumotlar mavzuga taalluqli va aniq maqsadga qaratilgan bo‘lishi lozim.

Reja tuzishda materiallar saralanib olinadi va mantiqiy ketma-ketlikda joylashtirish rejalashtiriladi. So‘ngra saralab olingan materiallar ichidan slaydga beriladigan matn tanlab olinadi. Slaydlardagi matnlar haddan ziyoda ko‘p bo‘lishi maqsadga muvofiq emas. Matnlar qisqartirilgan ko‘rinishda tanlab olinadi. Bir slayddagi matnlar 7-8 qatordan oshmasligi lozim. Ta'lim beruvchi dars jarayonida

qisqartirilgan matnlarni og‘zaki to‘ldirilgan holda tushuntirib beradi. Dizayn tanlash bosqichida matnning shrifti, matnga qo‘shimcha rasm, chizma, grafika va ranglar tanlab olinadi. Shundan so‘ng, ya’ni oltinchi bosqichda barcha tanlab olingan materiallarga animatsiya qo‘yiladi. Animatsiyada matn va tasvirlarni harakatlantirish, unga ovoz berish imkoniyatlari mavjud. Animatsiyadan foydalanish materialni yanada jonliroq va qiziqarli bo‘lishiga olib keladi. Bu esa o‘z navbatida ta’lim oluvchiga berilgan materialning uzoq vaqt xotirasida saqlanib qolishiga va ularning motivatsiyasining oshishiga yordam beradi.

Multimedia rivojlanayotgan zamonaviy axborot texnologiyasidir. Uning ajralib turuvchi belgilariga quyidagilar kiradi: 1. Axborotning xilma-xil turlari: an’anaviy: matn, jadvallar, bezaklar, grafiklar, diagramma va boshqalar. Original turlar: nutq, musiqa, videofilmlardan parchalar, telekadrlar, animatsiya va boshqalarni bir dasturiy mahsulotda integratsiyalaydi. Bunday integratsiya turli qurilmalar yordamida amalga oshiriladi.

Multimedia vositalari yordamida ishlashning quyidagi afzalliklari bor:

• berilayotgan materiallarni chuqurroq va mukammalroq o‘zlashtirish imkoni yaratiladi;

• o‘quv jarayonida ma’lumotlarni vizuallashtirish imkoniyati yaratiladi;

• ta’lim olishning yangi sohalari bilan yaqindan aloqa yanada ortadi;

• ta’lim olish vaqtining qisqarishi natijasida vaqtni tejash imkoni yaratiladi;

• olingan bilimlar nisbatan kishi xotirasida uzoq muddat saqlanib, kerak bo‘lganda amaliyotda qo‘llash imkoniga erishiladi;

• ma’lumotlarni doimo yangilab borish imkoniyati katta;

• nashr etish va ko‘paytirish xarajatlari nisbatan kam;

• nusxa ko‘chirish, turli qismlarga bo‘lish mumkin;

• unga faol veb-elementlarni masalan testlarni kiritsa bo‘ladi;

• elektron kutubxona va ta’lim saytlari bilan bog‘lanib, qo‘shimcha adabiyotlar bilan tanishish mumkin.

Shu bilan birga uni qo‘llashning ayrim muammolari ham mavjud. Chunonchi, ta’lim uchun zarur bo‘lgan o‘quv materiallarini hamda boshqa zaruriy ko‘rsatmalarni kompyuter dasturlari tarzida ishlab chiqish;

• maqsad qo‘yiladi, undan kelib chiqib g‘oya shakllanadi;

• g‘oyani asoslash uchun ma’lumotlar yig‘iladi va saralanadi;

• yig‘ilgan ma’lumotlarni ifodalash uchun reja tuziladi;

• bildirmoqchi bo‘lgan fikr matnda ifodalanadi;

• mavzu, o‘rganilayotgan mavzu, muammoga mos, axborotni xotirada saqlanib qolishiga yordam beradigan dizayn tanlash;

• muvofiq ravishda animatsiya tanlash.

A Handbook for Teaching and Learning in Higher Education (Oliy ta’limda O‘qirtish va O‘qish) kitobi mualliflari ma’ruzalarda **PowerPointdan** unumli foydalanish uchun quyidagilarni maslahat berishadi:

• Slaydlar sonini imkon qadar kamaytirishga harakat qiling. Slaydlardan taqdimotni kuchaytirish yoki tasvirlashda foydalaning: agar slayd tayinli narsani aks ettirmasa, u holda uni qo‘shmang.

• Diqqatni o‘ziga jalb qiluvchi orqa fon rasmlarini qo‘llashdan voz keching. Matn va orqa fon rangini mutanosib ravishda tanlaganligingizga amin bo‘ling.

• Ortiqcha grafiklarni ko‘p qo‘llamang.

• Arial yoki Verdana deb nomlanuvchi shriftlardan foydalaning.

• Faqatgina ketma-ketlikni ifodalovchi ro‘yxatlardan iborat slaydlarni taqdim etishdan voz keching.

• Kompleks g‘oyalarni tusuhuntiruvchi grafik shakllantirishda PowerPoint animatsiyalaridan foydalanishni mushohada qilishingiz mumkin.

Avtorlik huquqlari poymol etilmagan holda, rasmlar, ovozli yoki videoli materiallardan foydalanish mumkin.[83]

Multimediadan o‘quv jarayonida foydalanishning rivojlanishi turli-tuman multimedia mahsulotlarini, oxir-oqibatda elektron darsliklar paydo bo‘lishiga olib keldi. Ikkinchi tomondan, axborot texnologiyalarini rivojlanishi internet tarmoqlaridan keng foydalanishga yo‘l ochdi. Shu bilan birga, multimedia vositalaridan keng foydalanishda ayrim obyektiv muammolar ham mavjud. Ulardan eng asosiysi, zarur kompyuter dasturlarining yetishmasligidir.

Qator mavzularni qamrab olgan, real hayotga yaqinlashtirilgan RUSE (AQSh), MEKOM (Rossiya) va boshqa dasturlar mavjud. Ulardan foydalanib, kompyuterlarda ishlash, talabalar o‘rtasida

[83]A Handbook for Teaching and Learning in Higher Education. Enhancing Academic Practice. Third edition. Edited by Heather Fry, Steve Ketteridge, Stephanie Marshall. First edition.This edition published 2009 by Routledge 270 Madison Ave, New York, NY 10016 Simultaneously published in the UK by Routledge 2 Park Square, Milton Park, Abingdon, Oxon OX14 4RN. P. 69.

konkurslar o‘tkazish mumkin. Lekin hali bizda ana shu dasturlarga o‘xshash iqtisodiyotni o‘rganadigan, qo‘llangan chora-tadbirlarning natijasini qanday bo‘lishi mumkinligini taxmin qilish imkonini beradigan dasturlar yaratilgani yo‘q.

Undan tashqari, hozircha bizda iqtisodiy fanlardan dars o‘tishda qo‘llash mumkin bo‘lgan o‘quv videofilmlari juda kam. Lekin ularni talabalar bilan birgalikda yaratish mumkin. Keyingi paytda masofadan o‘qitishning borgan sari yoyilib borishi, darslik, qo‘llanmalarning elektron versiyalarini yaratilishi, o‘qitish jarayonida kompyuterlardan yanada kengroq foydalanishga olib keladi.

Axborot texnologiyalarining, telekommunikatsiyalarni rivojlanishi o‘quv jarayonida telekonferensiyalarni kuzatish yoki bevosita muloqot qilish imkoniyatini ham vujudga keltiradi. Telekonferensiyalarni o‘tkazish uchun quyidagi apparaturalar: terminallar, televezion kameralar, grafik displeylar, katta namoyish ekranlaridan foydalaniladi. Shuningdek, telekonferensiyalar orqali dolzarb masalalar muhokamasini tezkorlik bilan tashkil etish, muhokama uchun istalgan rasmli materiallardan foydalanish, dolzarb masalalarni muhokama qilishda ishtirok etuvchi mutaxassislar doirasini kengaytirish, xalqaro ma’lumotlar banklaridagi istalgan axborotdan foydalanish kabi imkoniyatlar yuzaga keladi.

Bu yerda biz ikkita muhim – sifat va miqdor jihatdan afzallikka erishamiz. Agar audiovizual taqdimot bilan uni so‘z orqali ifodalashni taqqoslasak sifat jihatdan afzalligi ko‘rinib turibdi. Uning miqdor jihatdan ustunligi multimedianing axborot zichligi nihoyatda yuqori bo‘lishi tufayli “ming marta gapirgandan bir marta ko‘rgan afzal”, ya’ni ko‘rishni ta’minlashidir. Shuning uchun multimedia asosida dars o‘tish uning bir butun holdagi uch didaktik maqsadi (bilim berish, rivojlanti-ruvchi, tarbiyalovchi)ni optimal darajada samarali amalga oshirish imkonini beradi.

Zamonaviy ta’lim tizimida multimedia asosida o‘quv jarayonini tashkil etishning texnologiyasi, metodlari, usullari, nihoyatda muhim va dolzarb bo‘lib boradi. Multimediani qo‘llashning metodlari va usullari turlicha, lekin ularning vazifasi bitta – darsni qiziqarli bo‘lishi, o‘quvchi-talabalarni diqqatini jalb qilishni ta’minlashdir. Bunday darslar ustunligi shundaki, ularning sifati yangiliklar evaziga ortadi. Multimedia taqdimoti faqat bilim berish emas, balki uni nazorat qilish, qaytarish, takrorlash, umumlashtirish, tizimlashtirish oxir oqibat didaktik

takrorlash, umumlashtirish, tizimlashtirish oxir oqibat didaktik funksiyalarni muvaffaqiyatli bajarilishiga olib keladi.

Tushuntirish jarayonida shunga e'tibor berish kerakki, taqdimot o'qituvchi bilan, doskani o'rnini bosishga emas, ko'proq so'z bilan ifodalab bo'lmaydigan boshqa vositalar bilan namoyish etib bo'lmaydigan axborotlarni berishga qaratilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Masalan olimlarning chiqishlari, eksperimentlar haqida, videolavhalar, jadvallar, chizmalar, grafiklar, simvollar kabilar. Bunda o'qituvchining tushuntirish texnologiyasi o'zgaradi, u ekrandagi axborotni izohlaydi, kerak bo'lganda zarur qo'shimcha ma'lumotlar bilan boyitadi, doskada yozib ko'rsatadi.

Ustalik bilan tayyorlangan taqdimot o'quvchi-talabalar diqqatini jalb qilishi, ularni o'qishga bo'lgan qiziqishini orttiradi, lekin haddan tashqari maxsus effektlar hamda uzundan-uzoq taqdimot diqqatni chalg'itadi, taqdim etilayotgan materialni samarasini pasaytiradi. Shuning uchun hamma narsani me'yorida bo'lgani afzal. Bu hamma taqdimotlar uchun, ayniqsa o'qitish jarayonida qo'llaniladiganlari uchun juda muhim.

Shuning uchun o'quv taqdimoti umumdidaktik tamoyillarga va dars o'tish metodlarini bir tomondan, telekommunikatsion tarmoq va axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan samarali foydalanishni ikkinchi tomondan hisobga olgan holda yaratilishiga diqqat qaratish zarur. Muhimi didaktik va bilishga qo'yilgan vazifani uddalash. Chunki multimedia didaktik vazifani amalga oshirishning vositasidir (8-ilovaga qarang).

Oliy va o'rta maxsus ta'limida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan xususan, axborot texnologiyalaridan foydalanish o'quv materiallarini o'quvchi-talabalar tomonidan qabul qilish va o'zlashtirish samarasini yuksaltiradi. Shuning uchun ham shaxsiy kompyuterlar qudratli ta'lim vositasiga aylanmoqda. Bu shaxsiy komputer o'qituvchining barcha funktsiyalarini o'z zimmasiga oladi, degani emas albatta. Balki insonning shaxsiy kompyuter bilan o'zaro hamkorlik qilishi ta'lim jarayonini yanada samarali tashkil qilishda keng imkoniyatlar yaratadi. Axborot texnologiyalari, birinchidan, axborotning sirkulyatsiyasi va ishlov berish majmui, ikkinchidan, bu jarayonlarning tasviri bo'lib, so'nnggi yillarda pedagogik faoliyatda axborot texnologiyalaridan keng foydalanish imkoni vujudga keldi. Natijada ular yordamida video tasvirdan foydalaniladigan turli metodlarni qo'llash

mumkin. Masalan. videotopishmoq yoki videolavhada aks ettirilgan muammoni muhokama qilish, mohiyatini anglash uchun izoh yozish, munozara o‘tkazish va hokazolar.

Ayniqsa, yangi mavzuni boshlashda da’vat fazasida uning mazmuniga diqqat qaratishga undaydigan video lavhani namoyish etib, bu muammoning kelib chiqish sabablari va yechimini topishni bugungi mavzuda o‘rganishni e’lon qilish ularni o‘qituvchini gapini e’tibor bilan eshitishga yo‘naltiradi.

Raqamli texnologiyalar

® (Advanced Placement Program) Economics Teacher’s kitobining mualliflari axborot resurslari, axborot va kommunikatsion texnologiyalari (AKT) va ulardan foydalanishni qabul qilingan dasturlar bilan bog‘lashadi.[84]

Ma’lumki, axborot va kommunikatsion texnologiyalardan ta’lim tizimida keng foydalanilmoqda. **Ayniqsa raqamli texnologiyaning yaratilishi**[85] va rivojlanishi natijasida o‘quvchi-talabalarni fanni bilishi, o‘zlashtirishini faollashtirishda ulardan keng foydalanish imkoni vujudga keldi. Shu narsa ayon bo‘ldiki, zamonaviy ta’lim metodlarini qo‘llabgina barkamol shaxsni tarbiyalash mumkin. Bunda raqamli ta’lim resurslarini yaratish alohida ahamiyatga ega. Raqamli ta’lim resursi – bu raqam shaklida saqlanadigan va uzatiladigan axborot ta’lim resursi bo‘lib, u o‘z navbatida barcha o‘quv yurtlarini Internet tarmog‘i orqali ana shu resurslar manbaiga ulashni ko‘zda tutadi.

Olimlar raqamli revolyutsiya butun dunyoni o‘zgartiradi, chunki u axborot oqimiga katta ta’sir o‘tkazadi, deya ta’kidlashadi. Jahon bankining Dilak Mishri va Uve Dayxmann rahbarligidagi jamoa tomonidan tayyorlangan yangi “Jahon taraqqiyoti to‘g‘risidagi doklad – 2016: raqamli dividendlar” tadqiqoti ham buni ko‘rsatib turibdi.

Hozirda butun dunyoda Yagona raqamli ta’lim resurslari tizimli to‘plami - kolleksiyasini (YARTRK) yaratishga diqqat qaratilmoqda, jumladan bizning respublikamizda ham.

Ingliz olimlarining ko‘rsatishicha, biznes ta’limi o‘rgatuvchisi uchun Biznes, menejment, buxgalteriya va moliya (BMBM) fanlari

---

[84] AP® Economics Teacher’s Guide. Peggy Pride St. Louis University High School. St. Louis, Missouri. 2007 The College Board. Web: www.collegeboard.com. pp. 136.

[85] Biz Ingliz tilidagi *digital-raqamli* so‘zini tez-tez eshitadigan bo‘ldik. U lotincha digitus, ya’ni barmoq so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, insoniyat dastlab uzoq yillar davomida hisob-kitob qilishda barmoqlaridan foydalangan. Aynan o‘nlik sanoq tizimi, jumladan hind-arab sanog‘i ham shu asosda yaratilgan. Odatda barmoq bilan butun sonlar hisoblanadi. Shuning uchun “raqamli” deganda diskret sonlar bilan ishlaydigan har qanday obyekt tushuniladi. Raqamli texnologiyani kirib kelishini olimlar raqamli revolyutsiya deb ham atashmoqda.

markazi (Oliy ta’lim akademiyasining bir bo‘limi) juda foydali resurslar mavjud. BMBM biznes o‘qituvchilari uchun axborot texnologiyalaridan qanday foydalanishnigina emas, ta’lim jarayonida foydalanish uchun juda ko‘p onlayn resurslarni ham taqdim etadi.

BMBM ma’ruzachilarni qo‘llab quvvatlash uchun butun Buyuk Britaniyada (qatnashuvchilar uchun bepul tarzda) AKTlardan OTMlarda ham odatiy, ham onlayn darslar jarayonida foydalanish bo‘yicha amaliy maslahatlar va seminarlar o‘tkazadi. BMBM bundan tashqari AKTlardan biznes ta’limini yanada rivojlantirishda qay tarzda foydalanish mumkinligi borasida loyihalar ham olib boradi.[86]

Hozirgi kun o‘qituvchilar oldida ta’lim jarayonida axborot texnologiyalaridan o‘rinli va maqsadga muvofiq samarali foydalanishning yangi va yangi uslublari, yo‘llarini ishlab chiqish vazifasini qo‘ymoqda.

Takrorlash va munozara uchun savollar

1. Dars o‘tishda ko‘rgazmali qurollar qanday o‘rin tutadi?
2. Ko‘rgazmali qurollarni qanday turlarini bilasiz?
3. Ko‘rgazmali qurollarni tanlaganda nimalarga ahamiyat berish kerak?
4. Ko‘rgazmali qurollardan foydalanish qanday afzalliklarga ega.
5. Dars jarayonida tarqatma materiallardan foydalanish haqida nima deya olasiz?
6. Tarqatma materiallar tayyorlaganda qanday qoidalarga rioya qilish kerak?
7. Texnik vositalardan dars jarayonida foydalanish qanday ahamiyatga ega?
8. Ta’lim vositalariga nimalar kiradi?
9. Sizningcha, albatta har bir mavzu bo‘yicha ko‘rgazmali qurol yoki texnik vositalardan foydalanish shartmi?
10. Multimedia nima va undan keng foydalaish sababi nimada?

[86] A Handbook for Teaching and Learning in Higher Education. Enhancing Academic Practice. Third edition. Edited by Heather Fry, Steve Ketteridge, Stephanie Marshall. First edition.This edition published 2009 by Routledge 270 Madison Ave, New York, NY 10016 Simultaneously published in the UK by Routledge 2 Park Square, Milton Park, Abingdon, Oxon OX14 4RN. - p. 399. Biz Ingliz tilidagi *digital-raqamli* so‘zini tez-tez eshitadigan bo‘ldik. Bu bejiz emas. U lotincha Digitus, ya’ni barmoq so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, insoniyat dastlab uzoq yillar davomida hisob-kitob qilishda barmoqlaridan foydalangan. Aynan o‘nlik sanoq tizimi, jumladan hind-arab sanog‘i ham shu asosda yaratilgan. Odatda barmoq bilan butun sonlar hisoblanadi. Shuning uchun “raqamli” deganda diskret sonlar bilan ishlaydigan har qanday obyekt tushuniladi. Raqamli texnologiyani kirib kelishini olimlar raqamli revolyutsiya deb ham atashmoqda.

V BOB. MAXSUS FANLARNI O‘QITISHDA MA’RUZA VA UNGA QO‘YILADIGAN TALABLAR

Dars o‘tishni tashkil etish, metodlarni tanlashda o‘quv jarayonini tashkil etish shakllari muhim o‘rin tutadi. O‘quv jarayonining asosiy bo‘g‘ini, tashkiliy shakli ma’ruza bo‘lib, mazkur bob ma’ruza, uning turlari, unga qo‘yiladigan asosiy talablar, ma’ruza matnini tayyorlash, bayon qilish hamda muammoli izlanish, texnologik yondashuvlar asosida ma’ruza darsi o‘tishni o‘rganishga bag‘ishlanadi.

5.1. Ma’ruza o‘quv jarayonining asosiy bo‘g‘ini. Ma’ruzaning funksiyalari va turlari

Ma’ruza o‘quv jarayonining asosiy bo‘g‘ini, dars o‘tishning asosiy shakllaridan biridir. Ma’ruza bilimni so‘z bilan ifodalash, og‘zaki bayon qilish ko‘zda tutilgan, hajmining kattaligi, mantiqiy qurilishi, umumlashtirishning murakkabligi bilan ajralib turadi. Ma’ruza (arabcha, lot. lectio leksiya - o‘qish) o‘quv materiali, biror masala, mavzu kabilarning mantiqiy izchil, ma’lum bir tizimga solingan bayonidir.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida bu tushunchaga ikkita izoh berilgan: “***Ma’ruza.*** *1. Biror mavzuda ko‘pchilik oldida aytilgan (so‘zlangan) nutq. 2 Rahbar organ yoki boshliqqa berilgan yozma ma’lumot, axborot*”.[87] Lekin bu ikkala izoh ham ta’limda, xususan, oliy ta’limda o‘qiladigan ma’ruza tushunchasining mohiyatini to‘liq ochib bermaydi.

Bu tushuncha O‘zbekiston milliy ensiklopediyasining 5-jildida batafsilroq tavsiflangan. «***Ma’ruza****, leksiya - o‘quv materiali, biror masala, ilmiy, siyosiy mavzularning izchil, tartibli og‘zaki bayoni. O‘quv ma’ruzasi o‘quv jarayonining asosiy shakli; oliy o‘quv yurtlarida dars berish uslublaridan biri»*[88].

TDIUning bir guruh professor o‘qituvchilari ma’ruza haqida to‘xtashar ekan, unga “Ma’ruza - davomli vaqt ichida o‘qituvchi tomonidan katta hajmdagi o‘quv materialini monologik bayon qilish» deb ta’rif berishadi.[89]

---

[87] O‘zbek tilining izohli lug‘ati: J. II. , T. : O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi. 2008. B. 567.

[88] O‘zbekiston milliy entsiklopediyasining 5-jildi. O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi. 2003. B. 541.

[89] “Iqtisodiy fanlarni o‘qitish uslubiyoti” fani bo‘yicha ta’lim texnologiyasi. Prof. B.Hodiyevning umumiy tahriri ostida /“Iqtisodiy ta’limdagi o‘qitish texnologiyasi” seriyasidan./ Uslubiy qo‘llanma –T.: TDIU, 2010, 54, 90-bet.

D. Tojiboeva, A. Yo‘ldoshevlar esa ma’ruzani bilimni so‘z bilan ifodalash, og‘zaki bayon qilish ko‘zda tutilgan, hajmining kattaligi, mantiqiy qurilishi, umumlashtnrnshning murakkabligi bilan ajralib turishini ta’kidlab, “Ma’ruza o‘quv materiali, biror masala, mavzu kabilarning mantiqiy izchil, ma’lum bir tizimga solingan bayonidir”[90]-deb ta’riflashadi.

Bizningcha, birinchi ta’rifda vaqtga, ma’ruzani monolog tarzda bayon qilinishiga e’tibor qaratilgan bo‘lsa, ikkinchi ta’rifda o‘quv materiali, masala, muammo, mavzularni izchil, tizimli ravishda bayon qilinishiga diqqat qaratiladi.

Ma’ruzaga ta’rif berar ekanmiz eng avvalo uning o‘ziga xos jihatlariga diqqat qaratishimiz zarur. Bu birinchidan, ma’ruzaga ikki nuqtai nazardan yondashilishidir: 1) o‘quv jarayonining tashkiliy shakli sifatida; 2) bilimni so‘z bilan ifodalash, og‘zaki bayon qilish metodi sifatida. Demak ma’ruzaga beriladigan ta’rifda ham buni inobatga olish kerak.



Ma’ruza o‘quv jarayonining tashkiliy shakli sifatida qarasak, o‘qitish “piramida”sida ko‘rsatilishicha, biz ma’ruza, doklad eshitar ekanmiz, uning 5 foizini eslab qolamiz.[91] Shunga qaramay ma’ruzani o‘quv jarayonining asosiy bo‘g‘ini, dars o‘tishning asosiy shakllaridan biri sifatida e’tirof etamiz.

Sababi, u yoki bu o‘quv fanining nazariy-uslubiy asoslari bayon etiladigan ma’ruza talabaga axborotlar ummonida yo‘lchi yulduz bo‘lib xizmat qiladi, eng muhim va zarur axborotlarni tanlashga yordam beradi.

[90] D. Tojiboeva, A. Yo‘ldoshev. Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi. Darslik, Aloqachi. 2009. 104 b.
[91] Ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari. Trenerlar uchun qo‘llanma. T., 2002. 67 b.

Ma’ruza o‘quvchi-talabalar bilan muloqotda bo‘lishning alohida shakli va uni boshqa hech qanday o‘quv shakli bilan almashtirib bo‘lmaydi.

Aynan biz ma’ruza jarayonida avvalo fanni, mavzuni o‘rganishdan qo‘yilgan asosiy maqsadni amalga oshiramiz, qolaversa, u dars o‘tish metodi sifatida ham boshqa metodlardan farq qiladi.

Ma’ruzaning mazmuniga o‘qitishnig metodi sifatida quyidagicha ta’rif berishimiz mumkin: **ma’ruza o‘qituvchi tomonidan mavzu yoki muammoning nazariy qonun, qoidalarini dalillar, voqea-hodisalarni tahlil qilish, ular o‘rtasidagi aloqadorlikni ochib berish, turli nuqtai nazarlarni ko‘rsatish va to‘g‘ri pozitsiyalarni asoslab berishga qaratilgan mantiqiy izchillikda bayon qilinishidir**.

Hozirgi kunda ma’ruzaning o‘quv jarayonida tutgan o‘rniga turlicha baho berish kuchaydi. Ayrimlar uni ilgari zarur adabiyotlar yo‘qligida asosiy o‘qitish shakli bo‘lgan bo‘lsa, endi roli tamomila o‘zgardi, degan fikr bildirishadi. Jahon miqyosida hozirgi kunda o‘quv jarayonida ma’ruza o‘qish tendensiyasi faqat yo‘l-yo‘riq ko‘rsatishga asoslangan ma’ruza hukmron.[92] Hamda o‘z fikrlarini XV asrdan boshlab kitob bosish joriy etilgach, ma’ruza avvalgi ahamiyatini yo‘qotgan, kitoblar ko‘p, ma’ruza o‘qishga hojat yo‘q degan, XVII asrda yashagan I.G.Fixte, S.Djonson kabi ko‘zga ko‘ringan faylasuf, filolog, yozuvchilarning qarashlarini keltirishadi. Boshqalar esa aksincha uni o‘rnini hech qachon boshqa o‘quv shakli bosaolmaydi deb, M.V. Lomonosov ma’ruzaning ahamiyatini professor-o‘qituvchining jonli ovozini, so‘zini hech nima bosa olmasligini ta’kidlaganini alohida eslatishadi.[93] Masalan, Angliyada hozirda ham ma’ruza o‘qish uchun universitet o‘qituvchisi ma’ruzaga tayyor matn bilan kelishi va undan o‘z fikrini bayon qilishda keng foydalanish shart ekanligi, ta’kidlanadi.

1980 yillarda o‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida ma’zura o‘qish talabalarni ilm olishida samarali jarayon hisoblanmay, yaqin orada ma’zura tushunchasiga barham beriladi deyilgan fikrlar mavjud edi. Ammo ma’ruza o‘qish ta’limda hali hamon muhim o‘rinni egallab kelmoqda. Shuningdek, bu jarayon talabalar uchun eng qulay o‘rganish tajribasiga aylanib, hattoki masofaviy ta’limda ham video

[92] Свириденко Ю.Ф., Кунцов В.П. Роль лекции в современном высшем образовании. www. edu.ru

[93] Реутова Е.А., Томилова О.Г. Вузовская лекция (методические рекомендации для преподавателей). НГАУ, Новосибирск, 2011. С. 4.

konferensiyalarda ham ma’ruzadan unumli foydalanmoqda.[94] AQSH, Angliya va boshqa mamlakatlarning yetakchi universitetlarida o‘quv jarayonini o‘rganish bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlar ham shundan dalolat beradiki, dars berishda turli innovatsion metodlarni ishlab chiqilayotgani, o‘quvchi-talabalar faolligini oshirish metodlariga qaratilgan adabiyotlarning katta hajmiga qaramay, mashg‘ulot o‘tkazishda standart ma’ruzalar eng ko‘p qo‘llaniladigan variant bo‘lib qolayapti.[95]

Ma’ruza talabalar tomonidan bilim, axborot olishning eng tejamli yo‘li, sababi o‘qituvchi turli-tuman manbalardan olingan, jumladan darslikda ham hali berilmagan ilmiy bilimlarni umumlashtirgan holda yetkazadi. Ma’ruza ilmiy qonun-qoidalar, dalillarni bayon qilishdan tashqari eng muhimi unga ishontirish kuchiga ega. Unda mavzu, muammoga tegishli berilgan ilmiy fikrlar tanqidiy nuqtai nazardan baholanadi, mavzuning, muammoning mazmuni mantiqiy izchillikda ochib beriladi.

Ma’ruza boshqa og‘zaki, so‘z orqali ifodalanadigan metodlardan: a) nisbatan qat’iy belgilangan tarkibi; b) o‘quv materialini mantiqiy izchillikda bayon qilish; d) tasniflash, tarif berish, obrazli isbotlash; e) beriladigan axborotning serobligi; f) materialni yoritib berishning tizimliligi, g) mashg‘ulotning barcha vaqtini qamrab olishi; h) muhim masalalarni ajratib ko‘rsatish, murakkab masalalarni tushunarli bayon qilish imkoni va boshqa jihatlari bilan ajralib turadi.

Ma’ruza metodining asosiy xususiyati uning mashg‘ulotning barcha vaqtini qamrab olishi bo‘lsa, o‘quv jarayonini tashkiliy shakli sifatida uni boshqa metodlardan foydalangan holda bayon qilinishini ifodalashidir.

O‘quv jarayonini tashkiliy shakli sifatida ham, o‘qitishnig metodi sifatida ham ma’ruzaning oldiga qo‘yiladigan maqsad umumiydir.

Qo‘yilgan maqsadni maksimal darajada amalga oshishi uchun, uning funksiyalariga ahamiyat berish kerak. Chunki, uning ahamiyati, tutgan o‘rni u bajaradigan funksiyalarda namoyon bo‘ladi:

---

[94] A Handbook for Teaching and Learning in Higher Education. Enhancing Academic Practice. Third edition. Edited by Heather Fry, Steve Ketteridge, Stephanie Marshall. First edition.This edition published 2009 by Routledge 270 Madison Ave, New York, NY 10016 Simultaneously published in the UK by Routledge 2 Park Square, Milton Park, Abingdon, Oxon OX14 4RN. P. 58.; Methods for teaching: promoting student learning in K–12 classrooms/David A. Jacobsen, Paul Eggen and Don Kauchak.—8th ed, 2009. P.245-246.

[95] Прахов А. И. Преподавание экономики: есть ли альтернатива лекциям? (Обзор подходов) Статья подготовлена в рамках гранта, полученного в результате участия в конкурсе инициативных образовательных проектов «Методика преподавания и академическая работа» кадрового резерва ГУ–ВШЭ. Федеральный портал «Российское образование» www.edu.ru.

1. Professional ta’lim (bilim) berish va dunyoqarashni shakllantirish. Aynan ma’ruzada ta’lim berishning nazariy asosi ta’minlanadi.

2. Talabalar diqqatini asosiy maqsadga yo‘naltirish. Ma’ruzada talabalarning diqqat-e’tibori o‘quv materialining asosiy mazmuni, qonun-qoidalari, ularning nazariy va kelgusidagi amaliyotda, mutaxassislik faoliyatida qanday o‘rin tutishi va ahamiyatiga, uni o‘zlashtirish metodlariga qaratiladi.

3. Idrok, tafakkurni rivojlantirirish. Tinglovchilarda bilmaganini bilishga qiziqish uyg‘otadi. Mantiqiy fikrlash va o‘z fikrini asoslashga o‘rgatadi.

4. Bilim berish, o‘rganayotgan fan bo‘yicha axborot olish, olgan axboroti asosida xulosa chiqarish, umumlashtirishga o‘rgatish.

5. Mavzuni, fanni, masalani o‘rganishda metodologik asos bo‘lish. Ma’ruza jarayonida tadqiqot metodlari taqqoslanadi, qiyoslanadi, ilmiy izlanish tamoyillari aniqlanadi.

6. Talabalarga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish. Ularni axloqiy, ma’naviy jihatdan barkamol bo‘lishi, mehnatga munosabati, ijtimoiy-psixologik xislatlarini shakllantirish.

7. Mustaqil ishlash yo‘nalishlarini shakllantirish. O‘quvchi, talabalar ma’ruza tinglar ekan, u yoki bu masalaga qiziqish, uni chuqurroq o‘rganishga istak paydo bo‘ladi. Undan tashqari ma’ruzachi mustaqil o‘rganish yo‘nalishlarini ko‘rsatishi yoki o‘rganilayotgan mavzuni mustahkamlash uchun topshiriqlar berish orqali o‘quvchi-talabalrni o‘z ustilarida mustaqil ishlashga yo‘naltiradi.

Ma’lumki, ma’ruza turlari rang-barang. Ularga turli jihatdan yondashib, guruhlarga ajratish mumkin. Qo‘yilgan **umumiy maqsadlarga ko‘ra**: targ‘ibot, tashviqot, tarbiyalovchi, rivojlantiruvchi ma’ruzalarga; Mazmunining **ilmiylik darajasiga** ko‘ra: akademik, ilmiy-ommabop; **Ta’sir etishiga** ko‘ra: hissiyotlarga ta’sir etish darajasidagi, tushunish darajasidagi, e’tiqodlar darajasidagi ma’ruzalarga bo‘linadi.

Odatda ma’ruzaga didaktik vazifasi, ta’lim berishning asosiy metod va usullari, tashkiliy jihatlari, axborotni o‘quvchi-talabalarga yetkazish nuqtai nazaridan yondashgan holda guruhlashga ko‘proq e’tibor qaratiladi.

Ma’ruzalarni didaktik vazifasiga qarab: kirish, mavzular bo‘yicha, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadigan, tahliliy, yakunlovchi ma’ruzalarga bo‘lish mumkin.

Ta’lim tizimidagi o‘rniga ko‘ra, ma’ruzalar - mavzuni, bo‘limni, kursni o‘rganishni boshlovchi yoki ta’limning ma’lum bir bosqichini tugallovchi ma’ruzalarga bo‘linadi.

Kirish ma’ruzasi ma’lum bir fanni, mavzuni yoki muammoni o‘rganishga bag‘ishlanib, unda ana shu masala, muammolar haqidagi fikrlar, ularning ijobiy tomonlari, kamchiliklari, yechilmagan muammolar ko‘rsatiladi. O‘rganishni boshlangan fanning predmeti, o‘rganish metodlari bo‘yicha ma’ruza kirish ma’ruzasiga tipik misol bo‘la oladi. Kirish ma’ruzasi – ta’lim berish tuzilishida motivatsion bosqich hisoblanadi. Uning vazifasi – o‘quv fani mazmuni, uning o‘quv jarayonidagi o‘rni va kelgusidagi amaliy faoliyatdagi ahamiyati to‘g‘risida dastlabki tasavvurlarni berish, talabalarni ishlash tizimida yo‘naltirish, oldinda turgan mustaqil ishning uslubiyoti va tashkillashtirlishi bilan tanishtirish, hisobot berish vaqti va baholashni aniqlashtirishga qaratilgan.

Asosiy yondashuvlarga ko‘ra ma’ruza turlari



Mavzular bo‘yicha ma’ruzalar - eng ko‘p o‘qiladigan ma’ruza bo‘lib, unda o‘rganilayotgan mavzuning asosiy mazmuni, amaliyotda sinalgan, qabul qilingan ilmiy qarashlar, mavjud yechimini kutayotgan masalalar bayon qilinadi. Ularni yechishning mavjud yo‘llari ko‘rsatiladi, yangilarini topish tavsiya etiladi.

Yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi ma’ruza - talabalarga mustaqil ishlashni o‘rgatishga qaratiladi. Unda ko‘proq metodik maslahatlar beriladi**.** Tavsiya qilinadigan adabiyotlarni mustaqil o‘qish, ular ustida ishlash jarayonida diqqatni qaratish lozim bo‘lgan masalalar ko‘rsatiladi.

Tahliliy ma’ruza u yoki bu muammo, mavzu yoki ma’lum bir tizimga solingan savollarni ma’lum bir mantiqiy aloqadorlikda bayon qilishga qaratiladi. Ko‘pincha o‘rta maxsus, oliy o‘quv yurtlarida yakuniy nazorat yoki yakuniy attestatsiyalar oldidan o‘tkaziladi.

Yakunlovchi ma’ruza ma’lum bir mavzu, muammoni yoki fanni o‘rganib, uning yakuni bo‘yicha o‘tkaziladi. Muammo yechimlari va fanning predmeti to‘g‘risida asosiy xulosalar bayon etiladi. Yakuniy ma’ruza - qoida bo‘yicha, kursni o‘rganishni yakunlaydi, butun davr mobaynida o‘tilganlarni umumlashtiradi. Yakuniy ma’ruzada o‘qituvchi kursning asosiy g‘oyalarini beradi, kelgusidagi kasbiy faoliyatda olgan bilimlarni qanday qo‘llash yo‘llarini ko‘rsatadi, fan bo‘yicha yakuniy nazorat xususiyatini tushuntiradi, yakuniy nazorat variantlarining murakkab savollarini tushuntiradi.

Axborotni talabalarga yetkazish nuqtai nazaridan **monolog** yoki **dialog** tarzida o‘tkaziladigan ma’ruzalar bo‘ladi. Monolog tarzidagi ma’ruzada asosan ma’ruzachi gapiradi, ko‘rsatadi. Tinglovchilar ma’ruza o‘qish jarayoniga sust ishtirok etadilar. Aksincha, dialog tarzidagi, tinglovchilarning ham fikrini eshitgan holda o‘tkaziladigan ma’ruzalar jonli bo‘lishi, unda tinglovchilar faolligi ta’minlanadi.

Ta’lim berishning asosiy metod va usullari, tashkiliy jihatlariga ko‘ra, ma’ruzalarni - axborot beruvchi, muammoli, jadallashtirilgan, binar (bir-biridan farq qiluvchi ikki xil fikr bildiriluvchi), avvaldan ataylab xato fikr ham bayon qilinishi rejalashtirilgan, anjuman tarzida o‘tkaziladigan va boshqa turdagi ma’ruzalarga bo‘lish mumkin.

Axborot beruvchi ma’ruzada o‘quv ma’lumotini bayon qilish va tushuntirishga diqqat qaratiladi.

Ko‘rgazmali ma’ruzada videofilm, ilmiy-hujjatli film, o‘quv-hujjatli film asosida ma’ruza olib boriladi, ko‘rilayotgan materiallarni ochiq holda va qisqa sharhlash asosida ma’ruza olib boriladi. Bunda ma’lumot mazmunini ta’limning texnikaviy vositalari yoki audio texnikalar yordamida yoritib berish muhim o‘rin tutadi.

Binar ma’ruzada ikki o‘qituvchi yoki nazariy jihatdan 2 maktab vakili yoki olimlar va amaliyotchilar, o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi suhbat, debat, munozara tarzida olib boriladi. Bu ma’ruzada unga qo‘yilgan maqsad va vazifalarni ikki tomon nuqtai nazarlarini taqqoslash

orqali yoritib berish amalga oshiriladi.

Oldindan xato fikr ham bayon qilinishi rejalashtirilgan ma’ruza. Bunday ma’ruzada diqqat o‘qituvchi ma’ruza mazmunida, metodologik yondashishda ataylab yo‘l qo‘yilgan xatolarni talabalar tomonidan topishga qaratiladi. Mavzu ma’ruza yakunida talabalar bilan birgalikda qo‘yilgan xatolarni topib, tahlil qilib xulosa chiqarish orqali o‘zlashtiriladi. Bunday ma’ruzalar shunisi bilan ahamiyatliki, talabalarni taklif etilayotgan ma’lumotlarni diqqat bilan tinglashga, nazorat qilishlariga qiziqish ortadi, ma’ruza mazmunini puxta o‘zlashtirishga olib keladi.

Anjuman tarzida o‘tkaziladigan ma’ruza o‘qituvchi tomonidan tayyorlangan dastur yoki o‘rganilayotgan mavzuning uzviy savollari miqyosida, oldindan belgilangan muammo va ma’ruza mazmuni asosida ilmiy-amaliy mashg‘ulot olib boriladi. Bunday ma’ruza o‘quvchi-talabalarni yangi o‘quv ma’lumotini izlash, mustaqil o‘rganib yoritib berishga tizimlashtirishda qatnashish, o‘z ustida mustaqil ishlashga yo‘naltiradi.

Muammoli ma’ruzada yangi bilimlar o‘rganilayotgan uzviy savollar muammoli vaziyatlar hosil qilish orqali amalga oshiriladi. Bunda talabalar bilan o‘qituvchi hamkorlikda muammo qo‘yish va uni yechish amalga oshiriladi.

Ma’ruza turlari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari, pedagogik vazifalari

Ma’ruza turlari	O‘ziga xos xususiyatlari	Pedagogik vazifalar:
Axborot berish	Ma’ruzaning eng an’anaviy turi	O‘quv ma’lumotini bayon qilish va tushuntirish
Ko‘rgazmali	Bunday ma’ruzani olib borilishi ko‘rilayotgan materiallarni ochiq holda va qisqa sharhlashga olib kelinadi	Ma’lumot mazmunini ta’limning texnikaviy vositalari yoki audio texnikalar yordamida yoritib berish
Binar ma’ruza (bir-biridan farq qiluvchi ikki xil fikr bildiriluvchi);	Bunday ma’ruzani olib borilishi ikki o‘qituvchi (2-maktab vakillari) olim va amaliyotchilar, o‘qituvchi va talabalar o‘rtasidagi suhbatni namoyon qiladi	Yangi o‘quv ma’lumotlarni ikki tomon nuqtai nazarlarini taqqoslash orqali yoritib berish
Anjuman tarzida o‘tkaziladigan	O‘qituvchi tomonidan tayyorlangan dastur asosida, oldindan belgilangan muammo va ma’ruza tizimi bilan ilmiy-amaliy mashg‘ulot olib boriladi. Shu mavzu bo‘yicha o‘quvcni-talabalarni qiziqtirgan sa-vollarni yozib berish taklif qiladi	Yangi o‘quv ma’lumotini yoritib berish, talabalarni yangi o‘quv ma’lumotini izlash va tizimlashtirish-ga yo‘naltirish

Umumlashtiruvchi qisqacha ma’lumot berishga qaratilgan.	Kursni yoki fanning katta bo‘lim-lari bo‘yicha ilmiy-tushunchaviy va konseptual asosini bayon etishga qaratilgan	Ilmiy bilimlarni tizimlash-tirishni amalga oshirish, Ichki va fanlararo aloqa-larni yoritib berish
Avvaldan atay-lab xato fikr ham bayon qilinishi rejalashtirilgan;	O‘qituvchi ongli ravishda yo‘l qo‘y-gan mazmunli, metodologik xatolarni: talabalar tomonidan topishga qaratilgan. Ma’ruza yakunida talabalarning tashhisi va yo‘l qo‘yilgan xatoliklar tahlil qilinadi	Yangi material mazmunini yoritib berish; talabalarni taklif etilayotgan ma’lumotni doimo nazorat qilishlariga qiziqtirish
Maslahat ma’ruza	Turli yo‘l bilan o‘tkazilishi mumkin. 1.Savol-javob. O‘qituvchi ma’ruza davomida butun kurs yoki bo‘lim bo‘yicha o‘quvchi, talabalarning savollariga javob beradi 2.Savol-javob-munozara. Yangi ma’lumotni nafaqat bayon etadi, balki qo‘yilgan savollarga javob izlab topishni tashkillashtiradi 3. O‘qituvchining o‘zi qaysi mavzuda nimalarga e’tibor qaratish kerakligiga diqqat qaratadi	Talabalar bilimini mustahkamlash, rivojlantirish, ularni yangi ma’lumotlar axborotlar bilan to‘ldi-rish, ularga tanqidiy nuqtai nazardan yondashishga o‘rgatish
Muammoli ma’ruza;	Yangi bilimlar voqea-hodisalar, vaziyatlarni muammoliligi orqali amalga oshiriladi. Bunda ma’ruza-dan qo‘yilgan maqsadga erishish-da o‘qituvchining faoliyati talaba-lar bilan hamkorlikda kechadi. Bilish jarayoni dialog tarzida amalga oshirilib, dars tadqiqot faoliyatiga o‘xshab ketadi	Muammoni aniqlash va uni yechish uchun turli nuqtai nazarlarni hisobga olgan holda, tahlil qilish, uni yechish yo‘llarini topish, turli yechim variantlarini taqqoslash, qaror qabul qilishga o‘rgatish
Press-konferensiya tarzida o‘tiladigan ma’ruza	O‘qituvchi ma’ruzaning mavzusini bayon qilib bo‘lgach, o‘quvchi-talabalarga shu mavzuga oid savollar berishlarin so‘rab murojaat qiladi. Buning uchun ularga 3-5minut vaqt beriladi. o‘qituvchi ularni yig‘ib olib, savol-javob o‘tkazish tarzida emas, mavzuning mazmunini bayon qilishda javoblar beriladi	Tahliliy fikrlashga rag‘batlantirish, ma’ruzani eshitishga diqqat qaratish, o‘quvchi-talabalarning qiziqishlari doirasini aniqlash, mavzuning asosiy jihatlariga diqqat qaratishga yo‘naltiradi
Video ma’ruza	Barcha ma’ruza turlaridan foydalanilgan holda o‘qish mumkin	Ma’ruzadan qo‘yilgan maqsadni masofaviy yetkazish

Hozirgi paytda nisbatan ko‘p qo‘llaniladigan yoki borgan sari ommalashib borayotgan ma’ruza shakllari: axborot beruvchi, muammoli va chuqurlashtirilgan (jadallashgan) ma’ruzalar bo‘lib, ulardan hozirgacha eng ko‘p qo‘llaniladigani axborot beruvchi ma’ruzadir. U an’anaviy metodga asoslangan bo‘lib, asosiy vazifa o‘quv axboroti – mavzuning mazmunini talabalarga bayon qilish, tushuntirishdan iborat.

Unda o‘qituvchi asosan bilim beruvchi rolini bajaradi. Bu monolog tarzida bayon qilinadi.

Mamlakatimizda 80-yillardan boshlab ma’ruzalarni muammoli tarzda bayon qilishga e’tibor berila boshlandi. Bunda maqsad yangicha bilim olish, ya’ni yangi mavzuni o‘rganish, muammoli savollar, masalalar qo‘yish, muammoli vaziyat yaratish orqali amalga oshiriladi. Bilish jarayoni dialog tarzida amalga oshirilib, o‘qituvchining faoliyati talabalar bilan hamkorlikda kechadi. Dars tadqiqot faoliyatiga o‘xshab ketadi. Dars o‘tishda pedagogik vazifa – yangi mavzuni muammo sifatida o‘rtaga qo‘yib, turli nuqtai nazarlarni hisobga olgan holda, uni muhokama qilish, yechish yo‘llarini topishga qaratiladi.

An’anaviy ma’ruzani mohirlik bilan o‘qish hammaning qo‘lidan kelmaydi. Juda ko‘p ma’ruzalar monolog tarzida o‘qiladiki, u tinglovchilarni ma’ruzadan qoniqmasliklariga, uni diqqat bilan eshitmasliklariga olib keladi. Ana shu kamchilik, ya’ni tinglovchilarni ma’ruzada passiv emas faol qatnashishlarini ta’minlab, kutilayotgan natijalarga erishish uchun metodikani o‘zgartirishga undaydi.

Masalan, bir masalaga bir-biridan farq qiluvchi ikki xil fikr bildirishga qurilgan binar ma’ruza, muammoli izlanish asosida mavzuni o‘rganishga qaratilgan ma’ruzalar, ma’ruza-press konferensiya va savol-javob tarzidagi ma’ruzalar o‘quvchi-talabalarni diqqatini tortadi, mavzuni o‘rganishga qiziqtiradi. Ta’limda ma’ruza talabalarga nafaqat chuqur va har tomonlama bilim beradi, balki ularni tarbiyalash va rivojlantirishga ham yuqori darajada ko‘maklashadi. Shunga qaramasdan, 60-70% talabalar ma’ruzani mazmuniga tushunmasdan yozib oladi. Ma’ruza mashg‘ulotlarining ahamiyati va o‘ziga xos xususiyatlarini yetarli darajada to‘liq tushunmaslik oqibatida ayrim hollarda ma’ruza va darslik (yoki o‘quv qo‘llanma) o‘zaro bir-birining o‘rnini bosadi degan noto‘g‘ri tushuncha ham shakllanadi. Demak, ma’ruza oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilim oladigan asosiy manba va o‘quv mashg‘ulotlarining asosiy turi bo‘lib, unda mavzuga oid masalalar mantiqan to‘g‘ri va izchil, ko‘rgazmali qurollar, slaydlar, audio-video materiallar va multimedia jarayonlari yordamida mufassal bayon etilishi lozim. Shu bois, bo‘lg‘usi iqtisodchi-pedagoglarda ma’ruza o‘qish san’atini shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

5.2. Ma’ruzaga qo‘yiladigan asosiy talablar

Iqtisodiy fanlarni o‘rganishda talabalarning ijodiy fikrlarini rivojlantirishga ta’sir ko‘rsatishi, ularni jamiyat rivojlanishi iqtisodiy qonun, tendensiyalarini chuqur tushunishi, nazariy masalalar bilan amaliyotni bog‘lash mahoratini hosil qilishlari uchun ma’ruza quyidagi asosiy talablarga javob berishi kerak.

Barcha ma’ruzalarga, jumladan iqtisodiy fanlardan o‘qiladigan ma’ruzalarga qo‘yiladigan asosiy talablarni **ikki guruh**ga ajratish mumkin:

A) Ma’ruza tayyorlash shakli, mazmuniga, boshqacha aytganda ma’ruza matniga qo‘yiladigan talablar;

B) Ma’ruza o‘qishga, uni bayon qilishga qo‘yiladigan talablar.[96]

Ma’ruza matni har bir fanning ishchi o‘quv dasturi asosida, mavzuga ajratilgan vaqtdan kelib chiqib, tayyorlanadi. Buning uchun mavjud adabiyotlar o‘rganiladi, turli manbalardan axborotlar yig‘iladi.

Ma’lum bir yo‘nalishga, iqtisodiyotni asosiy qonunlari, tendensiyalari, tamoyillari, ijtimoiy, iqtisodiy taraqqiyotning muammolarini tahlil qilishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Shuningdek, yosh avlodning dunyoqarashini shakllantirish, hayot kechirish tarzini tanlashning tarbiyaviy ahamiyatini oshirishi lozim. Ilmiyligi jihatdan nazariya asoslarini amaliyot bilan, masalaning qo‘yilishini ilmiylik bilan hamda iqtisodiyotning yangi dolzarb masalalariga ijodiy yondashish bilan, nazariy dalillarning mantiqiylik bilan uzviy birligi ta’minlanishi kerak.

Birinchi guruh, ma’ruza matniga qo‘yiladigan talablar quyidagilardan iborat: o‘qituvchi ma’ruzaning detallashtirilgan rejasi, boshqacha aytganda texnologik xaritasini tuzishi zarur. U aniq va lo‘nda ifodalangan butun ma’ruza mazmunini qamrab oluvchi masalalarni o‘z ichiga olishi lozim.

Bayon qilinishi ko‘zda tutilgan masalalar mantiqiy izchillikda yoritilishi hamda ular qisqacha xulosalar bilan yakunlanishi kerak.

Ma’ruza matni kirish, asosiy va yakuniy qism, ya’ni xulosa qismlaridan iborat bo‘ladi. Ma’ruzaning mazmuni ochib beriladigan asosiy qismida quyidagi jihatlarga e’tibor berilishi lozim:

a) ma’ruzaning g‘oyaviy nazariy jihatlari:

[96] Tojiboeva D., Yoldoshev A. Maxsus fanlarni oqbtish metodikasi. Darslik. T.: Aloqachi, 2009. B. 104-114

* ma’ruzada O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qabul qilingan qonunlar, normativ hujjatlar hamda atoqli davlat arboblari asarlaridan sitatalar keltirilishi;

* mavzuning asosiy tushunchalarini o‘quv dasturiga mos ravishda ochib berilishi;

* ma’ruza matnining ilmiyligi; O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlari mavzularda aks ettirilganligi;

* ma’ruza matnida muammoli vaziyatlarni yuzaga keltiruvchi masalalarning berilishi;

* ma’ruza matnlarida milliy mustaqillik, Milliy g‘urur, Vatanga muhabbat, xalqqa sadoqat kabi bunyodkorlik g‘oyalarini aks etishi;

* nazariyani amaliyot bilan bog‘liqligi;

* o‘rganilayotgan mavzuning tegishli fandagi hozirgi o‘rni belgilanishi va boshqalar.

b) ma’ruzaning metodik jihatlari:

- ma’ruzaning mantiqiydigi va isbot talab qilmasligi;
- materialni savodli va mazmundor tarzda berilishi;
- o‘quvchi-talabalarni idrok qilishlarini faollashtirish usullari;
- tarbiyaviy yo‘nalishga ega ekanligi. Mavzuni o‘rganishning maqsadidan kelib chiqib, zarur savollar qo‘yiladi, mavzuni yoritish metodi tanlanadi.

Ma’ruzada mavzuning asosiy savollari ketma-ketlik asosida yoritiladi. Albatta, ma’ruzaning metodik jihatdan yoritilishi, bayon etilishi qo‘yilgan maqsad, o‘rganilayotgan fanning, mavzuning o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘liq. Ma’ruza faqatgina iqtisodiy rivojlanishning asosiy qonuniyatlarini ochib berish bilan cheklanishi kerak emas, fanning so‘nggi yutuqlaridan foydalangan holda ilmning amaliyotda qanday ahamiyatga ega ekanligini, hayotda real muammolarni yechishdagi ahamiyatini, yechish yo‘llarini ham ko‘rsatishi kerak.

Ma’ruza qanday fandan o‘qilishidan qat’iy nazar, ilmiy xarakterga ega bo‘lishi, turli nazariy yo‘nalishlar, ilmiy maktablarning asosiy g‘oyalarini talabalar ongiga yetkazishi va olgan bilimini ishonchga aylantirishi kerak. Har qanday ma’ruzaning eng zarur sharti auditoriya bilan muloqotga kirishishdir.

Ma’ruza o‘qish, eng avvalo, unga tayyorlanishdan boshlanadi. Bu tayyorgarlik tashkiliy, nazariy, metodik tayyorgarlikdan iborat. Ma’ruzaga tayyorgarlik birinchi navbatda tashkiliy tayyorgarlikdan

boshlanadi. **Tashkiliy tayyorgarlik** - ma’ruza mavzusi bo‘yicha o‘quv, ilmiy adabiyotlar, vaqtli matbuot tanlash hamda ular bilan tanishib chiqishni o‘z ichiga oladi.

Ikkinchidan, **nazariy tayyorgarlik: ma’ruzada o‘quvchi-talabalarga beriladigan axborot,** material mazmunining ilmiylik darajasi yuqori bo‘lishi, muvofiq ravishda mavjud konsepsiyalar, ularning farqlari, ilmiy dalillar va amaliy masalalarni, yangi mavzuni o‘rganishda asosiy e’tibor berish kerak bo‘lgan tushunchalarni yoritishga diqqat qaratish va tayyorgarlik ko‘rishdan iborat.

Uchinchi – metodik tayyorgarlik: Fan bo‘yicha ishlab chiqilgan dasturga ko‘ra, ma’ruza rejasi va reja bo‘yicha matn tayyorlanishi hamda darsni o‘tkazishda qo‘llaniladigan metodlarni tanlab chiqish, dars jarayonini texnologik tizim sifatida tarkibi, ketma-ketligini aniqlash lozim. Undan tashqari ma’ruza turini aniqlashtirish, mavzuga ajratilgan soat miqdori, amaliy, seminar mashg‘ulotlari nisbatini aniqlash muvofiq ravishda ma’ruza matnini tayyorlashda ularni hisobga olinadi:

* mavzuning mazmunini aks ettiruvchi uzviy savollar asosida ma’ruzaning rejasini, texnologik xaritasini tuzish va unga mos ravishda matn va qisqacha konspekt tayyorlash. Ma’ruza rejasi, dasturda nazarda tutilgan o‘quv materialini izchilligi va uni bayon etish mantig‘ini aks ettirishi lozim;

* ma’ruza jarayonida foydalaniladigan metodlarni tanlash, ularni ko‘zda tutgan holda ko‘rgazmali va tarqatma materiallarni tayyorlash va o‘quv vositalarini tanlash darsni jihozlash.

* ma’ruzada fan va fanlararo, bo‘lg‘usi mutaxassisligi, amaliyot bilan bog‘lanishlarni qanday amalga oshirishni rejalashtirish;

* ma’ruza paytida o‘quvchilarning bilish faoliyatini yanada faollashtirish va sinf, auditoriya bilan bog‘lanish va o‘qitishda teskari bog‘lanishni amalga oshirish;

* o‘tilgan darslar va fanlararo aloqani qanday yo‘lga qo‘yish, o‘rganiladigan mavzuning boshqa fanlar bilan va o‘tgan materiallar bilan aloqadorligini aniqlash;

* ta’lim-tarbiya birligiga erishish, foydalaniladigan tarbiya metodlari o‘quvchilar bilimini nazorat qilish va baholash metodlarini aniqlashga ham diqqat qaratish zarur bo‘ladi.

Ma’ruza mavzusi va o‘quv mashg‘ulotini davomiyligi (ajratilgan vaqt) fanning kalendar reja va ishchi dasturi bilan muvofiqligi ta’minlanadi.

Ma’ruza mazmuni quyidagi mezonlarga javob berishi lozim: yangilik, ilmiylik, asoslilik va axborot uchun belgilanganlik; aniq, ishonchli misol, fakt, asosnoma va ilmiy dalillarning mavjudligi, statistik ma’lumotlarga tayanishi. Ayniqsa iqtisodiy fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda qonunlar, qonun osti hujjatlari, me’yoriy hujjatlarga asoslanganligi alohida rol o‘ynaydi.

Ma’ruzani o‘qish va matnni tayyorlash jarayonida qo‘llaniladigan barcha an’anaviy va zamonaviy usullar, yo‘llar hamda texnik vositalar, jumladan multimedia vositalari va ko‘rgazmali o‘quv qurollari bayon qilinayotgan mavzuning asosiy mazmunini ochib berishga qaratilgan bo‘lishi lozim. Ma’ruzaning yakuniy qismi, xulosasida quyidagilar ko‘rsatilishi shart:

* mavzu yuzasidan asosiy xulosalar;

* ma’ruzadagi asosiy tayanch tushunchalar;

* talabalarda bilishga va o‘rganishga qiziqish uyg‘otuvchi hamda o‘zlashtirishlarini nazorat qilish imkonini beruvchi savollar turkumini keltirilishi; Adabiyotlar ro‘yxati ma’ruza mazmunini aks ettirishi lozim.

Ma’ruza talabalarda fanni o‘rganishga qiziqish, ishtiyoq uyg‘otishi kerak.

Ma’ruzani shunday tuzish kerakki, talabada fanni chuqur o‘rganish uchun mustaqil ravishda adabiyotlar topish, ularni ustida ishlash, tushunishga xohish-istak tug‘ilsin. Shuning uchun zarur materiallar, kitoblar, jurnal va boshqa manbalarni tanlash prinsipial ahamiyatga ega.

Ma’ruzaning ijtimoiy-iqtisodiy yo‘nalishi uning ilmiyligi bilan bog‘liq. Ma’ruzachi real hayotning obyektiv tahliliga, iqtisodiy taraqqiyotning asosiy qonuniyatlariga, iqtisodiy hodisalar va xo‘jalik hayotining omillari o‘rtasidagi ichki bog‘lanishlarni aniqlashga, tahlil qilishga asoslanishi kerak.

Tajriba shuni ko‘rsatadiki, talabaga ishonchli dalillar, chuqur tahlil ko‘proq ta’sir qiladi. Har qanday fan, jumladan, iqtisodiy fanlar ham ishonchli dalillar, ma’lumotlar, nazariy va amaliy xulosalarga tayanadi

Ma’ruzada faktlar, real ma’lumotlar o‘rni. Iqtisodiy fanlar bo‘yicha o‘qiladigan ma’ruzada faktlar, real ma’lumotlarning o‘z o‘rni bor. Chunki ular iqtisodiy jarayon, muammolarni mohiyatini ochishga yordam beradi. Lekin ulardan mahorat bilan foydalanishgina kutilgan natijani beradi. Buning uchun qonuniy bog‘lanishlar, tendensiyalarni ko‘rsata oladigan raqamlarni qo‘llash kerak.

Ma’ruza matnini yozishga tayyorlanish va yozish jarayoni



Raqamlar, ma’lumotlar o‘rganilayotgan predmetning mazmunini tasavvur etish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Iqtisodiy fanlar bo‘yicha o‘qiladigan ma’ruzada faktlar, real ma’lumotlarning o‘z o‘rni bor. Chunki ular iqtisodiy jarayon, muammolarni mohiyatini ochishga yordam beradi. Lekin ulardan mahorat bilan foydalanishgina kutilgan natijani beradi. Buning uchun qonuniy bog‘lanishlar, tendensiyalarni ko‘rsata oladigan raqamlarni qo‘llash kerak.

Albatta raqamlardan o‘z fikrini tasdiqlash uchun foydalanish, mumkin. Lekin nazariy qoidalar iqtisodiy hodisa va jarayonlar mohiyatiga tushunishda ham muhim rol o‘ynashini yoddan chiqarmaslik kerak. Har bir pedagog raqamlardan yuzaki, shunchaki foydalanishdan qochishi kerak. Iqtisodchilarning fikricha, dalillar, raqamlar qayta ishlashni talab etadigan ma’lum qurilish materiali, xolos.

Real ma’lumotlar, raqamlar quyidagi talablarga javob berishi kerak:

• hozirgi zamon xo‘jalik hayotining o‘ziga xos ayrim tomonlarini ko‘rsatishi, ko‘z o‘ngiga keltirishiga yordam berishi;

• sinchkovlik bilan ularni tanlab olish hodisani o‘rganishga, uning o‘ziga xos tomonlari, tutgan o‘rnini aniqlashga yordam berishi;

• ma’lumotlar, dalillarni tanlayotganda xilma-xil bo‘lishiga ahamiyat berish, shu bilan birga, tasodifiy faktlardan ehtiyot bo‘lish

kerak. Chunki ular u yoki bu hodisani mohiyatini ochib bera olmaydi, aksincha, talabalarni chalg‘itishi mumkin.

• ma’ruzaga tayyorgarlik ko‘rganda yangiligi nuqtai nazaridan eng so‘nggi raqamlarni keltirish kerak;

• tanlangan dalillar ishonchli, sinalgan bo‘lishi, hech kimda ikkilanish uyg‘otmasligi;

• har qanday ma’ruzada faktlarga nazariy qoidalar mohiyatini ochishga xizmat qiladigan darajada o‘rin berilishiga e’tibor qilish kerak. Agar nazariya bilan faktlar o‘rtasida optimal nisbat buzilsa, talaba faktlarni chalkashtira boshlaydi. Vaholanki, ma’ruzada asosiy maqsad nazariy konsepsiyalarni talabalar ongiga yetkazishdir.

• ma’ruzada negativ faktlarni ham to‘g‘ri sharhlash, ularni qanday oqibatga olib kelishi, bartaraf qilish yo‘llari haqida to‘xtash kerak. Ma’ruzachining vazifasi negativ faktlarni e’lon qilish emas, balki ularni tahlil qilish, xulosa chiqarishga o‘rgatishdir.

Faktlar ma’ruzaga jonli mazmun, hayotiylik nafasini baxsh etadi, uning ahamiyati bu jihatdan bebahodir**.**

Induktiv metod ma’ruzada xususiylikdan umumiylikka, deduktiv metod esa – umumiylikdan xususiylik tomon bayon qilishni ifodalaydi.

Induktiv metod dalillar, xususiy, umumiy xulosa, nazariy qoidalar, aniq faoliyat uchun amaliy xulosalar tarzida bayon qilinsa, deduktiv metod-nazariy xulosa, umumiy, xususiy, faoliyat uchun amaliy xulosa tarzida bayon qilinadi.

Talabalarning iqtisodiy fanlarni o‘rganishlarida, ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda ma’ruzaning roli beqiyosdir. Shu bilan birga, ma’ruzaning mazmunini talabalarga yetkazishda o‘qituvchining rolini uning barcha metodlar, ko‘rgazmali qurollar, tarqatma materiallar va boshqalarni qo‘llashdagi mohirligini hisobga olmay, ma’ruzaning rolini ko‘rsatib bo‘lmaydi.

Birinchi kursdan boshlab, xususiylikdan umumiy mantiqiy xulosa chiqarish o‘rganilar ekan, o‘qituvchi shu tizimni buzmagani holda undan fanni chuqurroq o‘zlashtirish uchun foydalanishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Yana shuni ham hisobga olish zarurki, talabalarda xulosani shoshilinch umumlashtirishga harakat qilish holati uchrab turadi. Ayrim paytlarda talabalar o‘ylab o‘tirmay dangal, umumlashtirib bo‘lmaydigan xususiy faktlarni ham umumlashtirishga harakat qilishadi. O‘qituvchi

ma’ruza o‘qishga tayyorlanar ekan, bu tendensiyani ham hisobga olishi zarur.

Ma’ruzada dasturda ko‘zda tutilgan materialni to‘liq bayon etishga emas, balki asosiy, murakkab savollarni to‘liq yoritishga diqqat qaratish kerak. Chunki ma’ruza materiallarini bir qismini mustaqil o‘rganishga berish maqsadga muvofiq.

O‘qituvchi ma’ruzaga tayyorlanishda ikkinchi navbatda uni bayon qilishga tayyorgarlik ko‘radi.

Ma’ruza o‘qishga qo‘yiladigan **talablar** haqida to‘xtar ekanmiz, uni jarayon sifatida obyektiv va subyektiv tomonlarning birligi ekanligiga diqqat qaratishimiz lozim. Mahoratli pedagoglarning tajribasi shuni ko‘rsatadiki, o‘quv, dars jarayonidan qo‘yilgan maqsadni qay darajada amalga oshirish qo‘yilgan turli-tuman vazifalarni bajarishda topshiriqlarni qanday qo‘yish, guruh bilan, har bir shaxs bilan muloqot qilish, talabalarni intensiv bilish faoliyatiga jalb qilish, o‘qituvchining o‘z kayfiyati, ovozi, mimikasi va boshqalar orqali mohirona yo‘naltirish huhim rol o‘ynaydi. Aynan pedagogik texnika muhim pedagogik masalalarni yechish nozik instrumenti bo‘lib xizmat qiladi.

Pedagogik texnika – bu o‘qituvchining qila olishi, bajara olishi mumkin bo‘lgan ishlarning kompleksi bo‘lib, o‘qituvchi ularning yordamida o‘zining fikri, his-tuyg‘ularini talabalarga yetkazadi**.**

Pedagogik texnika ikki turdagi ko‘nikmalar guruhidan iborat. Birinchisi-o‘zini o‘zi (gavdasi, hissiy holati va nutq texnikasi) boshqara olishi, ikkinchisi-pedagogik vazifalarni hal etishda talabalar bilan hamkorlikda ishlashni uddalash (didaktik, tashkilotchilik malakalari, bevosita ta’sir etish texnikasi).

Ikkinchi guruh shaxs, jamoaga ta’sir qilish, o‘qitish, o‘rgatishning texnologik tomoniga qaratilgan bo‘lib, didaktik, tashkiliy, konstruktiv, kommunikativ jihatdan nimalarga qodir ekani, nimalarni qila olishi pedagogik muloqotni boshqara olishi jamoaning ijodiy ishlarini tashkil etish va shunga o‘xshashlarni o‘z ichiga oladi. Pedagogik texnika usullar to‘plami, nutq va muloqot vositalari esa uni egallash vositalaridir. Pedagogik texnika o‘qituvchining shaxsga ta’sir qila olish jihatlari bo‘lib, ularni quyidagi ikki guruhga bo‘lamiz:

1. Pedagogning o‘z-o‘zini, o‘z xulqini boshqara olishi. Bu guruhga o‘qituvchining:

a) o‘z gavdasini boshqara olishi (mimikalar, pantomimikalar);

b) hissyoti va kayfiyatini boshqara olishi (ortiqcha ruhiy char-chashlarni yo‘qota olishi, ijodiy hissiyotlarni vujudga keltira olishi);

d) ijtimoiy-perseptik qobiliyatlari (diqqat qilish, yuzidan uqib olish, kuzatuvchanlik, tasavvur);

e) nutq texnikasi: nafas olishi, ovozini tinglovchilarga moslashishi, talaffuz tarzi, nutq sur’ati.

2. Pedagogning shaxs, guruh, jamoaga texnologik ta’sir ko‘rsatishi, boshqara olishi:

a) shaxs, guruh, jamoaga didaktik ta’sir ko‘rsatish;

b) tashkiliy;

d) amaliy, kommunikativ muloqot;

e) jamoani boshqarish, ijodiy ishlarga yo‘llash uquvi.

Pedagogik shaxs va jamoaga ta’sir ko‘rsatishi bo‘lib, u ta’lim tarbiyaviy jarayonning texnologiyasini ochib beradi. Unga pedagogni didaktik tashkilotchilik, konstruktivlik, kommunikativ ko‘nikmalari, qo‘yiladigan talablarning texnologik usullari, pedagogik ishlarni tashqil etish va boshqalar kiradi.

Ma’ruza o‘qishning obyektiv tomoniga o‘qituvchiga bog‘liq bo‘lmagan, o‘rganilayotgan fanning mazmuni, dars o‘tish tamoyillari kiradi. Subyektiv tomonlariga esa:

a) o‘qituvchining shu fanni qanday egallagani, bilim darajasi;

b) o‘qituvchining uslubiy tayyorgarligi, metodikaning qonun-qoidalarini qo‘llay bilish mahorati;

d) har bir o‘qituvchining ta’lim-tarbiya jarayonida u yoki bu uslubni qo‘llashdagi individual xususiyatlari kiradi.

Dars berishda pedagog subyektiv omil sifatida namoyon bo‘ladi. Ko‘p jihatdan talabalarning o‘zlashtirishi o‘qituvchining dars o‘tishda tanlagan metodlariga bog‘liq.

Har bir o‘qituvchi o‘z qobiliyatini dars berishda namoyon qilib, ma’ruza va nutqida o‘ziga xos jihatlarini ko‘rsatadi. Ma’lum bir mavzuni yoritishda o‘qituvchi o‘zi yaxshi bilgan yoki o‘zining ilmiy izlanishlari bilan bog‘liq bo‘lgan, lekin shu mavzuga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq bo‘lmagan savolga ko‘p vaqt ajratib, qolgan savollarni ko‘rib chiqish uchun vaqt yetmay qolishi mumkin. Bu - mavzuni bayon qilishda didaktikaning izchillik tamoyillarini buzilishiga olib keladi. Shuning uchun dars o‘tishdagi muhim vazifalardan biri, bu - subyektiv omillar, albatta, obyektiv omillarga bo‘ysinishi, aynan shu fanning

mazmunini ochib berishga xizmat qilishi kerak. Bunda, albatta, to‘plangan metodik tajriba qo‘l keladi.

Iqtisodiy fanlardan ma’ruza o‘qishda o‘qituvchining vazifalari



Ma’ruza samarali bo‘lishi uchun uni bayon qilishga qator qoidalarga rioya qilish kerak. Ma’ruza o‘qish mavzuni, uning rejasi, foydalaniladigan adabiyotlar ro‘yxati, qisqacha uning dolzarbligini bayon qilishdan boshlanadi. Ma’ruzada 3-4, maksimum 5ta uzviy savol qo‘yilishi mumkin. Savollarni haddan tashqari ko‘p bo‘lishi uni zarur darajada yoritilishiga imkon bermaydi. Ma’ruzada asosan nazariy materiallar: maxsus fanlarning asosiy g‘oyalari, tushunchalari, qonunlari, nazariyalari va amaliy masalalari real hayot bilan bog‘lagan holda sabab-oqibatli aloqalarni ochib bergan holda bayon qilinadi. Ma’ruzada muhokama qilinuvchi masalalarni to‘g‘ri tanlash, ularni tizimli tushuntirish, o‘qitishning boshqa shakllari orqali rivojlanishini va mustahkamlanishini ta’minlash, turli ko‘rgazmali, audio-vizual vositalardan foydalanish har bir o‘qituvchi - ma’ruzachining vazifasidir.

Katta guruhlarda ma’ruza o‘qishda o‘qituvchi uchun,- deya ta’kidlashadi, “O‘qitish metodlari” kitobining mualliflari, ikkita muammo vujudga kelishi mumkin:[97]

Birinchidan, modul tizimida ma’ruzada talabalar turli yo‘nalishdagi, ko‘pincha turlicha ko‘nikma va bilimga ega bo‘lganlardan iborat bo‘ladi. Bu ma’ruzachiga ma’ruzani qanday yetkazish va barcha talabalarda qiziqish uyg‘otishni juda qiyinlashtiradi.

[97] Methods for teaching: promoting student learning in K–12 classrooms/David A. Jacobsen, Paul Eggen and Don Kauchak.–8th ed, 2009. P.245.

Ikkinchidan, auditoriyada talabalarni o‘zini tutishi, ayniqsa, o‘qituvchining obro‘siga putur yetkazadigan qiliqlar qiladigan, hattoki ma’ruzani barbod qiladigan darajagacha olib boradiganlarga duch kelishi mumkin.

Shuning uchun ham vaziyatga ko‘ra qaror qabul qilish nihoyatda muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchi sinf, auditoriyani boshqarish uchun doimo kuzatib turishi, agarda o‘quvchi-talabalarning diqqatlari susayguday bo‘lsa, so‘z ohangini o‘zgartirib, unga ko‘proq emotsionallik berishi, savol yoki muammo qo‘yishi, hazil-mutoyiba qilishi va boshqalar bilan diqqatni jalb etish kerak. Buni avvaldan o‘ylab, texnologik xaritaga ham kiritib qo‘yishi kerak. Har bir o‘qituvchining vazifasi tayyor topshiriqni berishgina emas, balki mustaqil ravishda uni tayyorlashni o‘rgatishdir. Ma’ruzaning ijtimoiy-iqtisodiy yo‘nalishi uning ilmiyligi bilan bog‘liq. Ma’ruzachi real hayotning obyektiv tahliliga, iqtisodiy taraqqiyotning asosiy qonuniyatlariga, iqtisodiy hodisalar va xo‘jalik hayotining omillari o‘rtasidagi ichki bog‘lanishlarni aniqlashga, tahlil qilishga asoslanishi kerak.

Psixologlarning kuzatishlaricha bilish, o‘rganish jarayoni fikrlar qarama-qarshiligi asosiga qurilsa, samarali bo‘ladi. Ilmiy munozara talabalar uchun ijodiy muhit yaratadi. Iqtisodchi-pedagoglar uchun mo‘ljallangan ma’ruzada munozarali savollarni qo‘yish, turli nuqtai nazarlarni bayon qilish maqsadga muvofiq. Ma’ruzachining o‘zi ma’lum bir nuqtai nazarni qo‘llab-quvvatlar ekan, talabalarga ham ana shu qarash to‘g‘riligini tushuntirishi, auditoriyani ishontirishi kerak.

Ma’ruzaning ilmiyligi materialni bayon qilishning izchilligi, savollarni aniq, tushunarli qo‘yilishini ko‘zda tutadi. Ilmiy-iqtisodiy jarayonlar, iqtisodiy hayotni tahlil qilishda tarixiylik va mantiqiylikka amal qilishni talab etadi.

Ma’ruzaga tayyorlanish jarayonida o‘qituvchi mavzu bo‘yicha savollarni qanday bayon qilishni, qanday uslublar qo‘llashini ko‘z o‘ngiga keltirishi kerak. Ana shundagina mavzu bo‘yicha adabiyotlar, zarur ma’lumotlarni to‘g‘ri tanlashi mumkin. O‘qituvchi, zarur dalillar, ma’lumotlarga ega bo‘lsada, ularni ishonarli, asoslangan holda bayon qilmasa fandagi dolzarb savollarga javob berishdan chetlab o‘tishi yoki chetga chiqishi mumkin. Bu hol talabalarda ma’ruzadan qoniqmaslikka, uning ishonchliligi va tarbiyaviy ahamiyatini tushirishga olib keladi.

Nazariya bilan amaliyotning o‘zaro bog‘lanishi nihoyatda

murakkab jarayon. U turli-tuman: ichki, tashqi, bilvosita va bevosita, muhim va uncha muhim bo‘lmagan omillar bilan aniqlanadi. Shuning uchun ham ma’ruzaga tayyorlanish paytida ana shu jarayonlarni chuqur tahlil qilishni bilish, u yoki bu hodisani rivojlanishining asosiy tendensiyalarini aniqlash kerak. Mavzudan chetdagi turli-tuman misollar bilan cheklanish yaramaydi.

Nazariyani asoslash uchun xo‘jalik hayotidagi turli-tuman hodisalarni ijobiy yoki salbiy misol sifatida keltirish unchalik qiyin emas. Lekin real voqelikni noto‘g‘ri ko‘rsatish, faqat yuzaki tashqi aloqalarni takidlash bilan cheklanish yaramaydi. Ular masalaning mohiyatini ifodalamaydi va ochib bermaydi. Ma’ruzada materialni qay tarzda bayon qilinishiga qarab dalillar, xususiy, umumiy xulosa, nazariy qoidalar - aniq faoliyat uchun amaliy xulosalarga kelish tarzida berilishi mumkin. Induktiv metodda ma’ruza ko‘pincha qiziqarli, ko‘zga tashlanadigan fakt yoki misoldan, ayniqsa, shu kunning biron dolzarb masalasi bo‘lgan, auditoriyaning diqqatini jalb qiladigan masaladan boshlanadi. Induktiv metod talabalarni xususiy kuzatuvlardan ketma-ket umumiy xulosa chiqarishga o‘rganish imkonini beradi. Ularni mustaqil fikrlashga o‘rgatadi. Deduktiv metodda esa ma’ruza umumiy nazariy masalalardan boshlanadi. Bu metod iqtisodiy fanlarning umumiy qonunlari, qoidalarini real hayotga tatbiq qilish, amaliyotda ko‘rish va baholash, xo‘jalik hayotida qo‘llash, iqtisodiy hayot hodisalari, jarayonlarini, xo‘jalik yuritish siyosatini chuqurroq tushunish imkonini beradi. Tajriba shuni ko‘rsatadiki, ma’ruza ham induktiv, ham deduktiv metod asosida olib borilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Avval ishchi gipoteza, taklif shaklida auditoriyaga umumiy savol tashlanadi, so‘ngra talabalarni mulohazalari dalillari, faktlari tahlil ma’lumotlari shu savolga to‘g‘ri kelishi birgalikda muhokama qilinadi, xulosalar chiqariladi.

Bu holda ma’ruza-asosiy g‘oya, uni dalillar asosida tasdiqlash - xususiy savollarni izchillikda bayon qilish, deduktiv metodda mavzuning umumiy xarakteristikasini berish tarzida tuziladi.

Ma’ruzaning samarasini oshirishda ko‘rgazmali qurollar (jadval, sxema, diagramma, grafik kabilar)ning ahamiyati kattadir. Ko‘rgazmali qurollar orqali axborotni qabul qilish, mavzuni chuqurroq tushunishga, o‘quv materialini xotirada uzoq saqlanishiga yordam beradi. Lekin ko‘rgazmali qurollarga haddan tashqari berilib ketish ham kerak emas, chunki auditoriya bilan muloqot yo‘qoladi va natijada ma’ruzaning samarasi pasayadi. Ammo tanlab olingan, tayyorlangan ko‘rgazmali

qurollar so‘zsiz ma’ruza samarasini anchagina oshiradi.

Ma’ruzaga iloji boricha talabalar diqqatini qaratish kerak. Buning uchun ma’ruzaning kirish yoki uning asosiy qismida masalaning mohiyatini ochib berishga qaratilgan savol qo‘yish maqsadga muvofiq. Pedagoglar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchining mavzuni bayon qilishidan avval yoki bayon qilish jarayonida savol qo‘yishi, uni bayon qilib bo‘lgach, qo‘yilgan savoliga qaraganda to‘liqroq, yaxshiroq natijaga olib kelar ekan. Chunki ilgari qo‘yilgan savol talabani javob qanday bo‘lishi kerak, deb o‘ylantira boshlaydi va javobni o‘qituvchidan eshitishga diqqatini qaratadi.

Ikkinchidan, ma’ruza boshlanganidan 20 daqiqacha vaqt o‘tgach, talabalar diqqati susayadi. Buni hisobga olib, har 15-20 daqiqada yoki har bir uzviy savolni bayon qilishda turli metodlardan foydalanish, talabalar diqqatini jalb qiladigan savollar tashlash maqsadga muvofiqdir.

Dars berish jarayonida misol keltirganda guruhdagi talabalarga bevosita misollar keltirishi diqqatni o‘ziga jalb qiladi. Masalan, “Odiljon bilan Erkinjon biznes bilan shug‘ullanishmoqchi, lekin ishni nimadan boshlashni o‘ylanib turishibdi. Sizningcha, ular nimadan ish boshlashi kerak?”, “Dilbar doimiy o‘rtacha xarajatlar mahsulot ishlab chiqarish hajmi ortgan sayin kamayib boradi, deydi, Dinora esa yo‘q, o‘zgarmaydi, deydi. Sizningcha ularning qaysi biri haq?” singari murojaatlar jonli muloqotga boshlaydi.

Boshqa o‘quv shakllariga qaraganda ma’ruzachining ma’ruzasini his-hayajon, jo‘shqinlik bilan bayon etishi muhim rol o‘ynaydi. Ma’ruzachi his-hayajonini o‘zgartirish, mimikasi orqali talabalarni darsga qiziqishini kuchaytirishi yoki aksincha, susaytirishi mumkin.

1. Ma’ruzaning emotsional ta’siri o‘qituvchining ma’ruza materialini erkin bayon qilishi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq. Erkin bayon qilish orqali auditoriya bilan bog‘lanish yaxshilanadi. Talabalarning aks tasirini kuzatish imkoni vujudga keladi. Og‘zaki nutq xususiyatlari, ya’ni dialogdan foydalanish mumkin bo‘ladi. Aksincha, ma’ruza matniga qarayverish auditoriya bilan kontakt o‘rnatishni qiyinlashtiradi, uni buzadi, chunki yozma nutq, odatda, monolog tarzida bo‘ladi. Bu yerda gap faqat ma’ruzachining tayyorlangan materialni erkin egallagan bo‘lishi, matnni zerikarli tarzda o‘qimasligi haqida bormoqda.

2. Og‘zaki nutq, ya’ni ma’ruza tushunarli, eshitib, qabul qilishga oson, qisqa jumlalardan tuzilgan bo‘lishi kerak, chunki uzun, murakkab

jumlalar fikrni xiralashtiradi. O‘qituvchi bayon qilinayotgan materialni yaxshi bilishidan tashqari o‘z ovozini ham nazorat qilishi zarur. Intonatsiyani goh baland, goh past qilib nutq o‘zgartirish orqali talabalar diqqatini tortish, o‘z vaqtida pauza va boshqa intonatsiyalardan ham foydalanish zarur.

3. Ma’ruzachi o‘zining tashqi ko‘rinishiga ham e’tibor berishni yoddan chiqarmasligi zarur.

4. Ma’lumki, ma’ruzaning jo‘shqinligi, ma’lum darajada uning yorqinligiga bog‘liq. Jo‘shqin, ma’noli nutq faqat aniq, misollar bilangina emas, balki maqol, matal, badiiy obrazlar bilan boyitilishi zarur. Bu hol ma’ruzani qiziqarli qilib, talabalar diqqatini jalb etadi.

Shunday qanotli so‘zlar ham bo‘ladiki, ular nihoyatda ajablanarli darajada nishonga tegishi bilan murakkab hodisalar mohiyatini ochib beradi. Faqat ana shu badiiy so‘z, maqollar, matallar bayon qilinayotgan material bilan bir butunlikni tashkil qilishi zarur. Masalan, me’yoriy naflilikni tushuntirganda talabalarga “Me’yoriy naflilik mazmunini ifodalovchi qanday maqolni bilasiz?” - deb murojaat qilish yoki “Naflilikni darajasi pasayib borishi qonunini ifodalovchi qanday maqolni bilasiz? Naflilik tovarning narxini shakllanishida qanday rol o‘ynaydi?” yoki “Hisobini bilmagan - hamyonidan ayrilar” maqoli nimaga ishora qilyapti? deb murojaat qilish mumkin. Birinchisida talabalardan “holvaning ozi shirin”, ikkinchisida “oldingdan oqqan suvning qadri yo‘q”, uchinchisida, “hisob-kitobning naqadar muhim ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlaydi” javobini olishga ahamiyat berish yoki maqolni bayon qilib, uni bayonini talabalar bilan birgalikda naflilik nazariyasi bilan yoki xarajatlar, foyda va boshqalar hisob-kitobi bilan bog‘lash mumkin.

5. Ma’ruzaning to‘g‘ri tuzilishi, darsning har bir minutidan samarali foydalanish mashg‘ulotlarning muvaffaqiyatini taminlaydi.

6. Auditoriya bilan “qayta aloqa” o‘rnatishda talabalarning savoli va o‘qituvchining javobi muhim rol o‘ynaydi. Odatda, ko‘pincha ma’ruzaning oxirida savollarga vaqt ajratiladi, lekin bu ma’ruza jarayonida savol berilmaydi, degani emas. Savollarga javob berganda javobning qisqa, asoslangan bo‘lishiga ahamiyat berish kerak. Agar savol qo‘shimcha dalillarni talab etadigan bo‘lsa, buni ochiq aytish mumkin, (aytaylik, statistik ma’lumotlar shu daqiqada yo‘q bo‘lsa) sababini ko‘rsatib, kelgusi darsda javob berishga va’da qilsa, buning aybi yo‘q. Agar savol induvidual tarzda bo‘lsa, ma’ruzadan so‘ng yoki

maslahat darsida javob berish mumkin.

Savol-javobda o‘qituvchining nutq ohangidan doimo xayrixohlik sezilib turishi, savoldan salbiy munosabat sezilmasligi kerak, aks holda auditoriyaning ishonchi yo‘qoladi.

7. Har qanday sharoitda (tashqaridagi shovqin-suron, eshik ortidagi g‘ala-g‘ovur, qurilish va hokazo) o‘qituvchi o‘zini tuta bilishi lozim.

8. Nutqda taqliddan qochish, bir gapni bir necha marta takrorlamaslik kerak. 9. Nutqda siyqasi chiqqan so‘zlarni imkon qadar ishlatmaslik zarur. Ma’ruzani bayon qilishda tovushlarning o‘rni, mimika, qo‘shimcha qo‘l harakatlari muhim rol o‘ynagani uchun oyna oldida, diktofon yordamida vaqtni belgilagan holda mashq qilish katta yordam beradi. Hozirgi paytda kompyuter, qo‘l telefonlarining imkoniyatlarini katta ekanligini hisobga oladigan bo‘lsak, ma’ruzani yozib olib, so‘ngra uni ko‘rib, kamchiliklarini to‘g‘rilash imkoni keng.

Ma’ruza o‘qishda darslikda yaxshi yoritilmagan qismlariga, masalalarga alohida diqqat qaratish kerak. Ularni ajratib yozdirish, har bir savolni intonatsiya bilan ajratib ko‘rsatish, harbir savolda asosiylarni (eslab qolish lozim bo‘lganlarni), ikkinchi darajalilarni (namoyish etish uchun), qiziqarli va qiziqarli emaslarni (qiziqarli ko‘rsatish) maqsadga muvofiq. Murakkab va oddiylarni (ahamiyat berib) ajratib ko‘rsatish, atamalarni aniq talaffuz etish va doskaga yozish, har bir haqiqatni har bir o‘quvchiga yetib borishiga erishish, auditoriya munosabatini his etish va tushunish, ma’ruzaning har bir kichik qismidan so‘ng iloji boricha teskari aloqa tamoyilidan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Agar texnik yo‘nalishdagi o‘quv yurtlarida mutaxassislik fanlaridan zarur bo‘lganda tajribalar namoyish qilinsa iqtisodiy fanlarda ko‘proq mavzuga tegishli qabul qilingan qonunlar, me’yoriy hujjatlar, yo‘riqnomalarni o‘rganishga diqqat qaratiladi.

Albatta, ideal tarzda ma’ruza o‘qib bo‘lmaydi. Lekin har bir o‘qituvchi o‘zining barcha imkoniyatini, mahoratini ishga solib, dars o‘tishi shubhasiz, ma’ruzaning ijobiy tomonlarini ustun bo‘lishiga olib keladi.

5.3. Ma’ruza o‘qishga texnologik yondashuv va ma’ruza darsini texnologik xaritasini tuzish

Jamiyat taraqqiyoti talabalarni mustaqil, chuqur mushohada yuritib, turli variantlarni taqqoslab, qaror qabul qilishga o‘rgatishni taqozo

qiladi. Ana shunday ko‘nikmalar hosil qilishga yordam beradigan dars o‘tish metodlarini qo‘llash zaruriyati katta. Aynan tahliliy (tanqidiy) fikrlashga o‘rgatadigan metodlar talabalarga ana shunday ko‘nikmalar hosil qilishga yordam beradi.

O‘qituvchi tomonidan har bir darsni yaxlit holatda ko‘ra bilish va uni tasavvur qilish uchun bo‘lajak dars jarayonini loyihalashtirish kerak. Darsning mazmuni, qo‘llaniladigan metodlar, vositalar, topshiriqlar va hokazolar loyihada aks ettiriladi va uni dars jarayonida amalga oshiriladi. Buning uchun o‘qituvchi bo‘lajak darsni texnologik xaritasini tuzib olishi katta ahamiyatga ega. Chunki darsning texnologik xaritasi har bir fanning, o‘tilayotgan mavzuning xususiyatidan kelib chiqqan holda dars o‘tish vositalari, metodlari tanlanib, topshiriqlar tayyorlangan holda tuziladi.

Texnologik xarita – ma’lum bir mahsulotni ishlab chiqarishda texnologik operatsiyalar ketma-ketligini yorituvchi texnik hujjat.

Texnologik operatsiyalar esa ishchi tomonidan o‘zining ish o‘rnida bajariladigan yakuniga yetkazilgan harakat ko‘rinishidagi texnologik jarayonning bir qismi.

Texnologik xaritada ana shu operatsiyalar va ularni qanday ketma-ketlikda qanday bajarilishi ko‘rsatiladi. Boshqacha aytganda u pedagogik “**yo‘l xaritasi**”dir.

Texnologik xarita tuzish oson ish emas. Uni tuzish uchun o‘qituvchi o‘tilayotgan fanni yaxshi bilishi, mavzularning xususiyatlarini farqlay bilishi, pedagogika, psixologiya, metodika, axborot texnologiyalaridan xabardor bo‘lishi, ko‘plab dars o‘tish metodlari va usullarini yaxshi bilishi kerak. Har bir darsni qiziqarli va rang-barang bo‘lishi uchun puxta o‘ylab turli metodlarni o‘tilayotgan fan va mavzuga moslashtira bilishi zarur.

Darsning texnologik xaritasini qay ko‘rinish (shakl)da tuzish o‘qituvchining tajribasi, qo‘ygan maqsadi va ixtiyoriga bog‘liq. Texnologik xarita qanday ko‘rinishda, qanday tuzilgan bo‘lmasin, unda dars jarayoni yaxlit holda aks etgan bo‘lishi hamda aniq belgilangan maqsad, vazifa va kafolatlangan natija, dars jarayonini tashkil etishning texnologiyasi to‘liq o‘z ifodasini topgan bo‘lishi kerak. Texnologik xarita tuzilishi o‘qituvchini darsni kengaytirilgan konspektini yozishdan xalos etadi. Chunki texnologik xaritada dars jarayoninig hamda o‘qituvchi va o‘quvchi, talaba faoliyatining barcha qirralari o‘z aksini topadi.

Texnologik xaritani batafsil keng ravishda, darsda har bir savolni qanday metod hamda vositalarni qo‘llab ma’ruza o‘qish, nazariy, amaliy dars o‘tish, unda o‘qituvchi va o‘quvchi, talabalarning harakatlari mazmunini bayon qilgan, beriladigan tarqatma materiallar, topshiriqlar ilova qilingan holda tuzish mumkin yoki uning qisqartirilgan variantini ishlab chiqish mumkin. Yoki qisqacha darsning maqsad vazifalari, o‘quv jarayonining mazmuni, uni amalga oshirishning texnologiyasini ko‘rsatib o‘tgan holda tayyorlash mumkin.

Texnologik xaritaning qisqacha variantini tuzish nisbatan oson, kam vaqt talab qiladi

Texnologik xaritaning qisqacha variantida uzviy savollarni qanday muhokama qilish batafsil yoritib berilmaydi.

Dars o‘tishning texnologik xaritasining batafsil varianti murakkab, uni tuzish uchun o‘qituvchi ko‘p kuch, vaqt sarflashi talab qilinadi. Lekin bunday xarita bilan dars o‘tish jarayonini tashkil etish oson kechadi. Bunday texnologik xaritani qanday tuzish “Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi” o‘quv qo‘llanmasi va darsligida bayon qilingan.[98]

O‘rganilayotgan fandan ma’ruza darsining umumlashtirilgan texnologik xaritasi quyidagicha bo‘ladi:

O‘rganilayotgan fandan ma’ruza darsining texnologiyasi modeli

***Mashg‘ulot vaqti* - 2 soat**	**Talabalar soni: 20 – 80 gacha**
Mashg‘ulot shakli	**Axborotli-ko‘rgazmali ma’ruza yoki muammoli ma’ruza, binar ma’ruza va boshqa**
Ma’ruza rejasi	1. Birinchi uzviy savol. 2. Ikkinchi uzviy savol. 3. Uchinchi uzviy savol.
O‘quv mashg‘ulotining maqsadi: Fan mavzusi bo‘yicha umumiy tushunchalarni shakllantirish, mavzuning mohiyatini anglash, mustaqil ravishda yanada chuqur o‘rganishga yo‘naltirish.	
Asosiy tushuncha va terminlar, o‘rganiladigan hujjatlar	O‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha asosiy tushunchalar, terminlar, qabul qilingan qonunlar, me’yoriy hujjatlar va boshqalar ko‘rsatiladi.
Adabiyotlar	Adabiyotlar ro‘yxati beriladi.

[98] Тожибоева Д. Махсус фанларни ўқитиш методикаси. Ўқув қўлланма. Т. Fan va texnologiya, 2007. Тожибоева Д., Йўлдошев А. Махсус фанларни ўқитиш методикаси. Т. Aloqachi, 2009. 142-150-б.

Pedagogik vazifalar: *Mavzuni o‘rganishdan qo‘yilgan maqsadni amalgam oshirish uchun nimalar o‘rganiladi, ya’ni qo‘yilgan har bir uzviy savolda qanday vazifa bajariladi, ko‘rsatiladi. Masalan, ma’ruza darsi o‘tishda quyidagi vazifalar belgilansin deylik :* *ma’ruza o‘quv jarayonining asosiy bo‘g‘ini ekanligini ko‘rsatish. Uning funkstiyalari va turlarini tasniflash. * ma’ruzaga qo‘yiladigan asosiy talablarni yoritish. * o‘qitishning muammoli-izlanish metodlari va ularni qo‘llab ma’ruza o‘qishni * ta’limga texnologik yondashuvga asoslangan holda ma’ruza o‘qish	*O‘quv faoliyati natijalari:* Davlat ta’lim standartlarida ko‘zda tutilgan natijani mo‘ljalga olgan holda mavzu bo‘yicha o‘quvchi-talabalar har bir uzviy savol bo‘yicha nimalarni bilishi ko‘rsatiladi. *Masalan ma’ruza darsi o‘tishda qo‘yilgan uzviy savollarni o‘rganish o‘rqali quyidagi natijalarga erishish ko‘zda tutiladi:* - ma’ruza o‘quv jarayonining asosiy bo‘g‘ini ekanligi, bir tomondan dars jarayonini tashkil etish shakli bo‘lishi, ikkinchi tomondan metod sifatida qaralishi, uning funksiyalari va turlari haqida, ma’ruzani o‘quv jarayonida tutgan o‘rnini yoritib beradi - ma’ruzaga qo‘yiladigan asosiy talablar: a) ma’ruza matniga qo‘yiladigan b) ma’ruzani bayon qilishga qo‘yiladigan talablar sifatida tahlil etib, ma’lumot beradilar. - muammoli-izlanish metodlari va ularni qo‘llab ma’ruza o‘qish mohiyatini tushuntiradilar - ta’lim berish texnologiyasi mazmunini tushuntiradilar, ma’ruza texnologik xaritasini tuzadilar.
O‘qitish metodlari va o‘rganish texnikasi	B/B/B jadvali, insert, savol-javob, muammoli savollar, T-sxema, konseptual jadval, toifali jadval va boshqa mavzu-ning xususiyatiga mos keluvchi metodlar
Ta’lim berish vositalari	Doska, proektor, slaydlar, daftar, kitob, gazeta, ruchka, jurnallar, yozuv qog‘ozlari, ko‘rgazmali, tarqatma material va boshqalar.
Ta’lim berish sharoiti	Tipik yoki O‘TV bilan ishlashga mos-lashtirilgan sinf xonasi, auditoriya
Monitoring va baholash	Mavzu bo‘yicha ko‘zda tutilgan og‘zaki yoki yozma nazorat

O‘rganilayotgan fandan ma’ruza mashg‘ulotining namunaviy texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	***Faoliyat mazmuni***	
	Ta’lim beruvchi	***Ta’lim oluvchilar***
Mavzu bo‘yicha dars o‘tishga tayyorlanish. 10-15 daqiqa**.**	Avvalgi darsning yakunida talabalarga berilgan vazifani tekshirish 1. Qisqacha (blits)-so‘rov metodi qo‘llaniladi yoki ko‘zda tutilgan boshqa metod qo‘lllaniladi 2. Berilgan javoblar umumlashtiriladi 2. O‘quvchilarning darsda faol qatnashishini baholash mezonlarini e’lon qilishi mumkin Baholash jadvali tarqatma material	Og‘zaki yoki yozma javob berishadi. Asosiy tushunchalarning mazmuni aytishadi
1 – bosqich Mavzuga kirish: Mavzuni o‘rganishni motivatsiyasi 5-10 daqiqa *(15 daqiqa)*	Yangi mavzuni o‘tgan mavzu bilan bog‘laydi Mavzuning maqsadi, darsning natijasi va uni o‘tkazish rejasi e’lon qilinadi Savol-javob metodi qo‘llaniladi. Pretest o‘tkazish mumkin. B/B/B jadvali qo‘llaniladi va hokazo, ya’ni o‘qituvchi mo‘ljallagan vazifa.	1.1. Eshitadilar, javob beradilar, yozib oladilar.
2. Asosiy bosqich (50-55 daqiqa) Ma’ruzaning birinchi uzviy savoli muhokamasi: 1.Da’vat fazasi: 2.Anglash, tushuntirish fazasi: 3.Mulohaza, tafakkur fazasi:	2.1.1. Ma’ruzani boshlanishida mavzuni o‘rganishga diqqat qaratiladigan qiziqarli voqea, savol, ma’lumot beriladi 2.1.2. Mavzuning birinchi uzviy savolida o‘rganish ko‘zda tutilgan masalalarni muhokamasi boshlanadi. Savolga tegishli ko‘rgazmali materiallar namoyish etiladi, tarqatma materiallar tarqatiladi. Namoyishi orqali taqdim etilgan materiallarni yozib olish tavsiya etiladi *(ilova.* 2.1.3. Birinchi uzviy savol bo‘yicha sinfga, auditoriyaga savol tashlanadi. Muhokama qilinadi	Tinglaydilar, yozadilar. Savollarga javob beradilar
Ma’ruzaning ikkinchi uzviy savoli muhoka-	2.2.1. Ma’ruzaning ikkinchi uzviy savolini o‘rganishga o‘quvchi, talabalar diqqati jalb etaladi	Tinglaydilar, yozadilar.

masi: 1.Da’vat fazasi: 2.Anglash, tushuntirish fazasi: 3.Mulohaza, tafakkur fazasi:	2.2.2. Ikkinchi uzviy savol muhokama qilinadi. Ko‘zda tutilgan metodlar, vositalardan foydalaniladi *(ilova)* 2.2.3. Ikkinchi uzviy savol bo‘yicha sinfga, auditoriyaga murojaat qilinadi. Muammoli vaziyat yaratiladi Javoblar qabul qilinadi.	Savollarga javob beradilar.
Ma’ruzaning uchinchi uzviy savoli muhoka-masi: 1.Da’vat fazasi 2.Anglash, tushuntirish fazasi 3.Mulohaza, tafakkur fazasi	2.3.1. Ma’ruzaning uchinchi uzviy savolini o‘rganishga o‘quvchi, talabalar diqqati jalb etaladi 2.3.2. Uchinchi uzviy savol muhokama qilinadi. Ko‘zda tutilgan metodlar, vositalardan foydalaniladi *(ilova)* 2.3.3. Uchinchi uzviy savol bo‘yicha sinfga, auditoriyaga murojaat qilinadi. Javoblar qabul qilinadi Va hokazo/	Tinglaydilar, yozadilar Savollarga javob beradilar
3-bosqich. **Yakuniy bosqich** *(5-10 daqiqa)*	3.1. Mavzu bo‘yicha o‘quvchi-talabalarda yuzaga kelgan savollarga javob beradi, yakunlovchi xulosa qiladi 3.2. Darsda faol qatnashgan o‘quvchi-talabalarning ballari e’lon qilinadi 3.2. O‘quvchi, talabalarning diqqatini asosiy masalaga qaratadi, amaliy mashg‘ulot, seminar darsiga, kelgusi darsga tayyorlanishda nimalarga diqqat qaratilish lozimligi haqida, tushunmagan savollarni o‘quv adabiyotlaridan o‘qish haqida ko‘rsatma beradi. Mavzuni o‘rganishni mustahkamlash uchun mustaqil ishlashga topshiriq beradi	Savollar beradilar Vazifani yozib oladilar

Texnologik xaritaga ma’ruza bo‘yicha ko‘zda tutilgan tarqatma materiallar ilova qilinadi.

Ma’ruzaning tarkibiy qismlari: kirish qismi, asosiy qism - materialni bayon etish, xulosa, savollarga javoblardan iborat bo‘lib, kirish qismida mavzuni e’lon qilish, vazifalarni ifodalash, muammoni qisqa tavsiflash, savollar holatini yoritish, ma’ruzaga doir adabiyotlarni aytish, o‘tgan mashg‘ulotlar bilan aloqasini ko‘rsatish ko‘zda tutiladi.

Asosiy qism materialni bayon qilish faktlarni tahlil qilish, zarur axborotlarni keltirish, shakllangan tajribani tahlil qilish, ma’lumotlarni qayerdan izlash kerakligi to‘g‘risida axborot berish, o‘z pozitsiyasini

e’tirof etish, mavjud amaliyot va ilmiy qarashlarga baho berish, amaliyot va hayot bilan bog‘lanishini ko‘rsatish, rivojlanish istiqbollarini ochib berish, ushbu masala bo‘yicha ilmiy izlanishlarni ko‘rsatish kabilarni o‘z ichiga oladi.

Ma’ruzaning asosiy bosqichida har bir uzviy savol muhokamasi: a) da’vat, b) anglash, tushunish, d) mulohaza qilish, tafakkur fazalariga ajratiladi. O‘quvchi-talabalar fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda ularning tahliliy fikrlashini shakllantirishga ahamiyat berish kerak. J.Stil, K.Meredis va CH.Templlarning fikricha, tahliliy fikrlashning asosini ma’ruza jarayonida qo‘yilgan masalani o‘rganishni uch faza asosida tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Bunday ma’ruza: ularning: fikrlashini faollashtiradi; faol munozaraga imkon yaratadi; turlicha fikrlarni eshitishlari uchun imkon beradi; savol bilan murojaat qilishlariga yordamlashadi; axborotlarni qayta ishlanishini ta’minlaydi; mustaqil o‘qishga imkoniyatini oshiradi; faol o‘quv faoliyatini ta’minlaydi; tahliliy fikrlashga imkoniyat yaratadi.[99] Ular quyidagilar:

1. Da’vat fazasi. Unda o‘qituvchi ma’ruzani boshlar ekan, o‘quvchi talabalar diqqatini ma’ruzani eshitishga jalb qiladi. Da’vat fazasining ahamiyati shundaki, u yangi bilimni o‘zlashtirishga, ularni o‘zi mustaqil tanlagan maqsad uchun intilishni kuchaytiradi. Zero, (NLP) - neyrolingivistik pedagogikada ko‘rsatilishicha o‘zlashtirilgan axborotlar bilan bog‘liq bo‘lgan hamda yangisini anglashga asos bo‘lgan bilimlargina mustahkam o‘zlashtiriladi. Da’vat fazasining birinchi maqsadi, o‘quvchi-talaba yangi o‘rganilayotgan muammo bo‘yicha qanday ma’lumotlarga ega ekanligini aniqlashdan iborat.

Da’vat fazasining ikkinchi maqsadi talabani faollashtirishdir. Uni sust faoliyatdan jadallashgan, aniq maqsadga yo‘naltirilgan faoliyatga o‘tishga undash, deb baholash mumkin.

Da’vat fazasining uchinchi maqsadi ham nihoyatda muhim hisoblanadi. Bu fazada muayyan mavzu (o‘quv savolini) o‘rganishga oid motiv vujudga keltiriladi. Ma’ruzaning da’vat fazani qanday tashkil etish har bir o‘qituvchining intellektual, salohiyati, fantaziyasiga bogliq. Masalan uni, “aqliy hujum” metodini B/B/B jadvali bilan birgalikda qo‘llash mumkin. Dastlab o‘quvchi-talabalar mazkur mavzu bo‘yicha nimalarni bilishlari aniqlanadi va “bilamiz” ustuni to‘ldiriladi. Ana shu

[99] Д. Стил, К. Мередис, Ч. Темпл**.** Чтение, письмо и дискуссия в каждом учебном предмете. Пособие в 8–томах, Бишкек, 1998 .

bilimga dars jarayonida yangi bilimlar qo‘shilishi kerak. Shuning uchun ikkinchi ustunga bugungi ma’ruzada nimalarni o‘rganilishini yozamiz. Uchinchi ustun “bilib oldik”ni ma’ruza tugagach to‘ldirilishini ko‘rsatadi. Turli metodlarni qo‘llab, ularni ma’ruzada faol qatnashishga chorlaydi. Bunga 3-5 daqiqa vaqt ajratiladi.

Da’vat fazasini mavzuga mos rivoyatdan boshlash mumkin. Masalan, bir donishmand daryodan baliq tutib o‘tirsa, tilanchi kelib undan baliq so‘rabdi. Shunda u “senga baliq bersam, uni eysan va yana tilanchilikni boshlaysan, senga qarmoq bersam, u sinib qolib, yana tilanchilik qilishing mumkin. Yaxshisi men senga qarmoq yasashni o‘rgataman” degan ekan. Bugun biz sizlar bilan o‘qituvchi mavzuning asosiy uzviy savollarini aytib, ularni birgalikda o‘rganamiz deya, ma’ruzani boshlashi mumkin.

Agarda ma’ruza o‘qiladigan guruh uncha katta bo‘lmasa uning kirish qismida o‘qituvchi yangi o‘tmoqchi bo‘lgan mavzu bo‘yicha 5-6 ta savollardan iborat pre-test yechishni o‘quvchi-talabalarga taklif etadi. Uni ekranda ko‘rsatgan ma’qul. Unga 3-5 minut vaqt ajratamiz. O‘qituvchi uning javoblariga qarab ma’ruza paytida noto‘g‘ri javoblarga diqqat qaratib, nima sabadan noto‘g‘ri javobni belgilanganini so‘rab, ularning mazmun-mohiyatini o‘quvchi-talabalar anglab yetishlari uchun hatafsil tushuntirishga e’tibor beradi. Yoki pre-testda eng yuqori ball olgan o‘quvchi-talabalardan biriga, o‘qituvchi prokuror (qoralovchi) vazifasini, ya’ni bugungi ma’ruzaning kamchiliklarini aytish, ikkinchisiga advokat (oqlovchi) vazifasini bajarishi hamda prokurorning ayblovlariga iloji boricha e’tiroz bildirish va ma’ruzaning afzal tomonlarini ko‘rsatishi lozimligini, boshqalar esa ixtiyori bo‘yicha prokuror yoki advokat tomon bo‘lishi mumkinligini uqtirib, ma’ruzani boshlashi mumkin. Xullas bu fazani qanday tashkil etish o‘qituvchiga bog‘liq.

2. Navbatdagi faza - mazmunni tushunish, anglashdan iborat. Unda yangi axborot da’vat fazasida faollashtirilgan axborot bilan bog‘lanadi. Yangi o‘quv materialining tushunilishiga erishish, bu fazaning eng muhim vazifasidir.

Qo‘yilgan uzviy savol bo‘yicha 15-20 daqiqa davomida ma’ruza o‘qilgach, o‘qituvchi talabalarga turli savollar bilan murojaat etadi, masalan:

* siz uchun hozir eshitganlaringizning qay biri yangilik bo‘ldi?
* eshitganlaringiz bo‘yicha sizning fikringiz qanday?

* sizda eng katta taassurot qoldirgan nima? – kabilar.

3. Uchinchi faza mulohaza qilish, mushohada, tafakkur deb ataladi.

Bu fazada olingan bilimlar mustahkamlanadi. U ko‘pincha avvalgi anglash, tushunish bilan ulanib ketadi. Faqat tafakkur fazasi o‘quvchi-talabaning o‘z mustaqil fikrini aytishi, tahlil qilishi bilan farqlanadi. U o’rganilayotgan masala bo‘yicha talabalarning o‘z tushunchalarini shakllanishiga yordam beradi. Ma’ruza eshitgach, ularning bilimlari kengayib, mustaqil fikrlaydilar, o‘z fikrlarini eshitganlari bilan taqqoslaydilar. Bu bosqichda o‘quvchi-talabalarga fikrlarini tahlil qilishga qaratilgan topshiriqlar beriladi. Ular turlicha bo‘lishi mumkin. “Bu haqda siz nima deb o‘ylaysiz?” “O‘zingiz bilganlar bilan yangi olgan axborotingiz qay darajada bog‘landi?” yoki “Yangi g‘oyalar bilan sizning qarashlaringiz qanday o‘zgardi?” va hokazo tarzidagi savollar berish yoki boshqa topshiriqlar berish mumkin. Bu fazada bilimlar mustahkamlanadi va o‘rganilayotgan masala bo‘yicha oldingi fazalarga nisbatan boshqacha (to‘laroq) tasavvur shakllanadi va u “o‘qiganlik” ning ortishiga olib keladi. Talaba o‘z o‘quv maqsadiga erishgandagina bunday o‘zgarishlar sodir bo‘lishi mumkin. Shunday qilib uchinchi fazada talabani o‘qiganlikning pastroq darajasidan uning yuqoriroq darajasiga o‘tkazish sodir bo‘ladi. Bu o‘quvchi-talabaning yangi g‘oya va axborotlarni o‘z so‘zi bilan ifodalay olishida aks etadi. O‘quvchilar o‘zlariga ko‘proq yoqqan narsani yaxshiroq eslab qoladilar. Bunday tushunish uzoq muddatli ta’sirga ega bo‘ladi. Bu fazaning eng muhim maqsadi o‘quvchilar o‘rtasidagi dialog va polilog bo‘lib hisoblanadi. **Tafakkur** yoki mushohada fazasida muammoli vaziyat yaratib, bir necha variantlarni ko‘rib chiqishga imkon beriladi. Keyingi savollar yoki qismlar ham xuddi shunday uch bosqichga bo‘linib ma’ruza o‘qiladi yoki muhokama qilinayotgan savol bo‘yicha ma’ruza matni tarqatilib, talabalar insert metodi yordamida matnni o‘qib, tahlil qilib o‘z fikrlarini bildiradilar. Matnni o‘qish bosqichi uyga vazifa qilib topshirilib, dars paytida faqat savolni muhokama qilish mumkin. Bu - o‘qituvchi dars jarayonini qanday tashkil etishga qaror qilishiga bog‘liq. Oxirida **yakunlovchi topshiriq** beriladi.

Yakunlovchi topshiriqni ham o‘qituvchi ma’ruzaning mavzusi, mavjud savollar, guruh talabalari va boshqa omillarni hisobga olgan holda avvaldan tayyorlaydi.

Ma’ruzaning xulosa qismida o‘tilgan darsga xulosa yasaladi. Savollarga javob beriladi. Asosiy xulosalarni bayon qilinadi, kelgusidagi bajariladigan mustaqil ishlar belgilanadi, o‘quvchi-talabalarga vazifa beriladi.

5.4. Ma’ruza o‘qishda foydalaniladigan asosiy metodlar

Ma’ruza darsining texnologik xaritasini tayyorlashda va unda qo‘yilgan maqsadni amalga oshirishda tanlangan metodlar va ta’lim vositalari muhim rol o‘ynaydi.

Ma’ruza darsida turli metodlarni qo‘llash cheklangan. Ma’ruza jarayoni mavzuni asosan monolog tarzda bayon qilishga asoslangan bo‘lib, psixologlarning ko‘rsatishicha o‘quvchi-talabalar dastlabki 20 minutda uni diqqat bilan eshitar ekanlar, so‘ngra xayol bo‘linar va darsga taalluqli bo‘lmagan narsalarni o‘ylash yoki yonida o‘tirgan o‘rtog‘i bilan axborot almashishni boshlab yuborar ekan. Shuning uchun o‘qituvchi ma’ruzaning jonli, bo‘lishi, iloji boricha o‘quvchi-talabalar bilan hamkorlikda ishlashni tashkil etishga harakat qilishi lozim. Bunda mavzuning xususiyatidan kelib chiqib, ma’ruzada maqsadni amalga oshirishga yordam beradigan metodlarni qo‘llashga harakat qilinadi.

Buning uchun ma’ruza mantiqiy tugallangan qismlarga bo‘linadi. Bu ma’ruzada qo‘yilgan uzviy savollar bo‘ladi. Ma’ruza o‘qishda qo‘llaniladigan metod va vositalar uzviy savollar bo‘yicha avvaldan loyihalashtirilib, ma’ruza darsining texnologik xaritasida ko‘rsatiladi.

Ma’ruzani boshlashdan avval o‘quvchi-talabalarni o‘rganilayotgan mavzuga diqqatlarini qaratadigan, ularni faolligini oshiradigan metod – bu **“B/B/B (Bilaman, Bilmoqchiman, Bildim)”** jadvali bilan **“aqliy hujum”** metodini birgalikda qo‘llashdir. Talabalarning nimalarni bilishi aniqlanadi (aqliy hujum), yangi mavzu bo‘yicha nimani bilishi zarurligi va dars davomida nimalarni o‘rganilishi ko‘rsatiladi. Uni ma’ruza darsi kirish qismida qo‘llash maqsadga muvofiq. Bu metodni qo‘llab yangi mavzuni avvalgi mavzu bilan bog‘laymiz.

Ma’ruza jarayonida talabalarni faollashtiradigan va hamkorlikda ishlashni ta’minlaydigan metod bu **– insert metodidir**. Matnni diqqat bilan o‘qish va mustaqil fikrlashga yo‘naltiradigan, talabalarni o‘qiyotgan o‘quv materiallarini qay darajada tushunganliklarini aniqlashga qaratilgan interaktiv metodlardan biri insertdir. Bu metod Abu Nasr Forobiy tomonidan ham ko‘p qo‘llanilgan. Bu metodni

qo‘llashda o‘qituvchi ma’ruza matnini bir hafta avval tarqatadi yoki electron variantini o‘qib chiqib, insert jadvalini individual yoki kichik guruhlarda to‘ldirish kerakligi va o‘qituvchining electron pochtasiga ma’ruza darsiga qadar yuborishlari zarurligi, ma’ruzani shu jadval ma’lumotlariga qarab o‘qishini uqtiradi. Ma’ruza darsida o‘qituvchi albatta olgan insert jadvali axborotlari asosida oraliq nazorat ballari qo‘yganini eslatib o‘tadi. Bugungi kunda metodlarni samarali qo‘llashning muhim mezonlaridan biri muammoli vaziyatni vujudga keltirish, muammoni kun tartibiga qo‘ya bilishdir. Pedagoglarning fikricha, muammoli o‘qitish talabaning mustaqilligini, fikrlash doirasini kengaytirishga olib keladi. Ma’ruzada muammoli izlanish hamda “case study” metodlarini qo‘llash o‘quvchi-talabalarni faol bilish jarayoniga undab, tafakkurni ilmiy tadqiqotga yo‘naltirishi bilan ajralib turadi. Mazkur metodlarning o‘ziga xos jihati o‘quvchi, talabalar oldiga muammo qo‘yilishidir.

Muammoli izlanish metodini qo‘llab o‘qiladigan ma’ruza talabani muammoni anglashga, taqqoslashga, yechimini topishga undaydigan ma’ruzadir. U quruq yodlab olish emas, balki o‘z faoliyatida zarur bo‘ladigan amaliy ko‘nikmalarni qo‘llab masalani yechishga o‘rgatishdir.

Muammoli ta’lim deyilganda, o‘qituvchi rahbarligida muammoli vaziyat vujudga keltirilib, mazkur muammo talabalarning faol mustaqil faoliyati natijasida bilim, ko‘nikma va malakalarni ijodiy o‘zlashtirish va aqliy faoliyatni rivojlantirishga imkon beradigan ta’lim jarayonini tashkil etish nazarda tutiladi. Bu jarayonda muammoli vaziyat yaratish muhim ahamiyatga ega.

Muammoli vaziyat muayyan pedagogik vositalarda maqsadga muvofiq tashkil etiladigan o‘ziga xos o‘qitish sharoitida yuzaga keladi hamda o‘rganilgan mavzular xususiyatlaridan kelib chiqib, bunday vaziyatlarni yaratishning maxsus usullarini ishlab chiqish zarur. O‘qitishda muammoli vaziyat shunchaki “fikr yo‘lidagi kutilmagan to‘siq” bilan bog‘langan aqliy mashaqqat holati emas, balki u bilish maqsadlari maxsus taqozo qilgan aqliy taranglik holatidir. Bunday vaziyat negizida avval o‘zlashtirilgan bilim va yangi yuzaga kelgan vazifani hal qilish uchun aqliy va amaliy harakat usullari yotadi.

Muammoli vaziyat muayyan pedagogik vositalarda maqsadga muvofiq tashkil etiladigan o‘ziga xos o‘qitish sharoitida yuzaga keladi. Muammoli vaziyatning mohiyati shuki, u talaba tanish bo‘lgan

ma’lumotlar, bilganlari bilan yangi faktlar, hodisalar o‘rtasida hamda muqobil tanlov zaruriyati vujudga kelishi natijasida qaror qabul qilishning qiyinchiligi oqibatida kelib chiqadigan vaziyatdir.

Muammoli vaziyatning vujudga kelishi talabalarning aqlini peshlaydi. Muammoning kelib chiqish sabablarini, yechimini topishga undaydi. Muammoli ta’limning ilk g‘oyalarini asoslagan muallif taniqli amerikalik psixolog va pedagog olim J. Dyui (1859-1952 yy.) hisoblanadi.[100] U 1894 yilda Chikagoda o‘qitish o‘quv rejasi bo‘yicha emas, balki o‘yin va mehnat asosida olib boriladigan tajriba maktabini tashkil etgan.

J.Dyui muammoli ta’lim asosi sifatida quyidagi yo‘nalishlarni belgilagan:

1) ijtimoiy;
2) konstruktiv;
3) badiiy ifodaviy;
4) ilmiy-tadqiqot.

Muallif ko‘rsatilgan yo‘nalishlarda ta’limni tashkil etish uchun quyidagi vositalardan foydalangan:

1) so‘z;
2) san’at asarlari;
3) texnik qurilmalar;
4) o‘yinlar;
5) mehnat.

O‘tgan asrning 60-yillarida esa muammoli ta’lim L. Rubinshteyn, M.I. Maxmutov, N.M. Skatkin, I.Ya. Lerner kabi tadqiqotchilarning qarashlari negizida yanada rivojlangan. S.L.Rubinshteynning “Tafakkur muammoli vaziyatdan boshlanadi” degan g‘oyasi muammoli ta’limning psixologik asosi sifatida qabul qilingan.[101]

Skatkin M.N. muammoli ta’lim turlari quyidagi guruhlarga bo‘lib:

1. Bilimlarni muammoli bayon qilish (muammoli ma’ruza).

[100] Дьюи Дж. Демократия и образование: Пер. с англ. — М.: Педагогика-Пресс, 2000.

[101] Ильницкая И. А. К 110 летию со дня рождения С. Л. Рубинштейна. Учение С.Л. Рубинштейна и проблемы педпгогической практики. http://www.voppsy.ru/issues/1989/893/893113.htm Теоретические основы проблемного обучения http://www.informio.ru/publications/id582/Teoreticheskie-osnovy-problemnogo-obuchenija. Скаткин М.Н. Проблемы современной дидактики. М.: Педагогика, 1980. 90 с. Лернер И .Я. Проблемное обучение. М.: Знание, 1974. 64 с. Махмутов М.И. Организация проблемного обучения. М.: Педагогика,1997. Научная библиотека диссертаций и авторефератов disserCat http://www.dissercat.com/content/kontseptsiya-problemnogo-obucheniya-m-i-makhmutova-kak-didakticheskaya-sistema#ixzz59Y5RR700

2. Muammoli topshiriqlarni hal qilish (muammoli amaliy mashg‘ulot).

3. Kichik ilmiy tadqiqotlarni olib borish (muammoli tajriba) uni qanday amalga oshirishni ko‘rsatib bergan.

Muammoli savol qo‘yib o‘qitish talabalarning bilimlarni ongli va mustahkam o‘zlashtirishiga, bilish faoliyatini jonlashtirishga, ilmiy izlanishga, tadqiqotga chorlaydi. Shuning uchun ham xoh ma’ruza, xoh amaliy mashg‘ulot, seminar bo‘lsin o‘qituvchining muammo qo‘yishi, yoki muammoli vaziyat vujudga keltirishi katta ahamiyatga ega.

O‘qituvchi o‘tilayotgan darsning shakli, o‘tilayotgan fan, mavzu va uning xususiyatlariga ko‘ra qanday muammo qo‘yishni, muammoli vaziyat vujudga keltirishni o‘zi hal qiladi. Mazkur metodning o‘ziga xos jihati talabalar oldiga muammo qo‘yilishidir. Muammoli ma’ruza muammo qo‘yish orqal boshlanadi. Bu muammo esa o‘quv materialini bayon etish jarayonida ma’ruzachi tomonidan izchil va mantiqiy holda yechib beriladi yoki uni hal etish yo‘llari ko‘rsatiladi.

Muammo o‘quv materialining aniq mazmuni bilan bog‘liq bo‘ladi. Ta’lim jarayonida maqsadga erishish uchun muammoli o‘qitishga qator talablar qo‘yiladi:

* muammoli o‘qitish ta’lim oluvchilar ehtiyojlarini qondirish va faolligini oshirishga yo‘naltirilishi;

* taqdim etilgan muammoning ta’lim oluvchilar uchun aniq va tushunarli bo‘lishi. Bular:

* qo‘yilgan muammoning muhimligi;

* muammo iloji boricha real hayotdan olinishi;

* ta’lim oluvchilar uchun muammo ma’lum ahamiyatga ega bo‘lishi;

* ta’lim oluvchilarning hamkorlikda faol ishlashi;

* muammoga aloqador axborotlar bazasini yaratish;

* muammoning boshqalar uchun ham ahamiyatli ekanini ko‘rsatishi lozim.

Muammoli ma’ruza o‘qituvchining mahorati, uning ilmiy bilimi, iqtisodiy masalalarni yechishga ijodiy yondashuvi darajasini ko‘rsatadi. Muammo va uni yechishni o‘quv adabiyotlarida ko‘rsatib, tayyor javoblarini berilishi bilan muammoning muammoligi qolmaydi. Buni faqat aniq vaziyatdan kelib chiqib, qanday izlanish olib borish metodlarini ko‘rsatish orqali o‘qituvchi bajaradi.

Muammoli o‘qitishning maqsadlari:

- ta’lim oluvchilarning mazmunli va izchil bilim olishini ta’minlash;
- muammo yechimlarini topish va uning boshqa yechimlari bo‘yicha ham istiqbolli hal etish yo‘llarini ishlab chiqish;
- ta’lim oluvchilarni kichik guruhlarga bo‘linib, muammoli vaziyatlardan chiqib ketishga o‘rgatish;
- o‘quvchi, talabalarda shaxsiy mas’uliyat tuyg‘usini uyg‘otish va mustahkamlash.

Muammoli o‘qitishning to‘rt bosqichdan iborat mantiqiy sxemasi quyidagicha:



Talaba javob berolmagan savollarning hammasi ham muammoli vaziyatni vujudga keltira olmaydi. Masalan, “qanday harajatlar tashqi harajatlarga kiradi?” yoki “daromad nima?”, “foydani hisoblang” kabi masalalar yechimini qo‘yish muammoli vaziyat yoki muammo bo‘la olmaydi.

Tajribali pedagoglarning fikricha faqat o‘qitish jarayonida qarama-qarshilik paydo bo‘lgan vaziyatnigina muammoli vaziyat deb ataladi. Talaba o‘qish, bilish jarayonida qarama-qarshiliklarga duch kelsa, uning bilimga bo‘lgan qiziqishi ortadi. Boshqacha qilib aytganda, motivatsiya paydo bo‘ladi. Masalan, nima sababdan davlat tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlagani holda soxta tadbirkorlikka qarshi kurashadi, degan savol muammoli hisoblanadi. Chunki bu savolda qarama-qarshilik bor. U talabani taqqoslashga, tahlil etishga undaydi. Tadbirkorlikning turlarini, uning huquqiy asoslarini, davlatning yuritayotgan iqtisodiy siyosatini o‘rganishga, tushunishga olib keladi. Metodologik jihatdan qaraganda tushunchalar orasidagi qarama-qarshiliklarning asl manbai birlamchi hisoblanadi.

Muammoli ma’ruzada qo‘yilgan maqsadni amalgam oshirishda o‘quv jarayonida muammoni qo‘yish qoidalariga amal qilish maqsadga muvofiq.

O‘quv muammolarini qo‘yish qoidalari:

***** mavzu bo‘yicha muammoni qo‘yish va yechish uchun yangi tushunchalarni talabalarning avvalgi o‘rgangan bilimlari bilan bog‘lash va esga tushirish;

* talabalarga sabab-oqibatli bog‘lanishni aniqlash, mushohada qilish, muammoli vaziyatni tahlil qilishni o‘rgatish;

* talabalar oldiga ular uchun tushunarli bo‘lgan, ma’lum darajada xabardor bo‘lgan muammolarni qo‘yish;

* muammoni yechish uchun uni to‘g‘ri qo‘ya bilishni unutmaslik;

* o‘quv materialida yangilik elementlari (yangi tushuncha, statistik ma’lumotlar, xususiyatlarni ifodalovchi ko‘rsatkichlar va h.k.) bo‘lishi;

* o‘quv materiali muammoli vaziyatni ifodalagan bo‘lishi kerak. Ularni qarama-qarshi fikrlar, faktlar, raqamlar, chizma, savollar kabilarda ifodalash mumkin

Talabalarning ijodiy qobiliyatini shakllantirish uchun ularni doimo o‘zlarida tug‘ilgan savolni berishga undash lozim. Dars oxirida qarama-qarshiliklar oydinlashtirilishi zarur.

Muammoli ma’ruza – muammoli o‘qitishning asosi. Lekin muammoli o‘qish qanday bo‘lishi kerakligi haqida yagona fikr yo‘q. Ba’zilar uni hali fanda yechilmagan muammolar haqida ma’ruza deyishsa, boshqalar muammolarni darsda yechish deb hisoblashadi. Muammoli ma’ruza talabani o‘ylashga, taqqoslashga, yechimini topishga undaydigan ma’ruzadir. U quruq yodlab olish emas, balki o‘z faoliyatida zarur bo‘ladigan amaliy ko‘nikmalarni qo‘llab masalani yechishga o‘rgatishdir. Shuningdek o‘qitish – bunday darslarda ajdodlar ijtimoiy-tarixiy tajribasi ham o‘rgatiladi. Muammoli o‘qitish orqali talabani o‘z fikrini aytishga, fikrini himoya qilishga va baxslashishga o‘rgatish mumkin. Fikrlash jarayonida qarama-qarshilik bo‘lmasa bahs ham, munozara ham bo‘lmaydi. Munozarasiz esa muammoning yechimini topish juda qiyin.

Darsda talabalar o‘qituvchining o‘rgatishga samimiy intilayotganini his qilishi, talabani o‘zi bilan teng ko‘rayotganini bilishlari kerak. Yuqorida zikr etgan ma’ruzani muammoli ma’ruza tarzida bayon qilish, darsga talabalarni faol qatnashishga chorlash uchun ma’ruza o‘qiyotganda muammoli vaziyat yaratish zarur. Buning uchun avvaldan muammoli savol qo‘yib, unga talabalar bilan birgalikda muhokama qilinib javob topiladi.

Pedagogikaga oid adabiyotlarda muammolar qo‘yilishi jihatidan quyidagi darajalarga bo‘linadi:

1. Muammoni o‘qituvchining o‘zi qo‘yadi, uni shakllantiradi, talabalarni uni mustaqil ravishda yechimini topishga, yechish yo‘lini qidirishga yo‘naltiradi. Bunda uncha murakkab bo‘lmagan muammolar qo‘yilishi ko‘zda tutiladi. Muammo darsning ma’lum bir bosqichlarida o‘quvchi-talabalarning qiziqishini uyg‘otish, ham so‘z bilan ham faoliyati bilan o‘rganilayotgan savolga diqqatini jalb qilishga qaratiladi. Muammo yangi material, axborot berish orqali o‘qituvchi tomonidan yechiladi. Muammo qo‘yishning bunday metodida o‘quvchi talabalarning roli passiv, ularni bilishga intilishdagi mustaqilli nisbatan uncha yuqori emas.

2. O‘qituvchi faqat muammoli vaziyatni vujudga keltiradi va uning echimini topish 2 xil usul bilan amalga oshirish mumkin***:***

A) O‘qituvchi aniq muammoni qo‘yadi va o‘quvchi-talabalar uning mohiyatini anglab yetishlari uchun uning yechimini qanday usulda, mantiqiy izchillikda topish kerakligini ko‘rsatadi, bayon qiladi va fikrini davom ettirishni o‘quvchi-talabalarga taklif qiladi. Ular o‘qituvchining fikrini anglagan holda dalillar, ma’lumotlar bilan muammoning echimini topishga harakat qiladilar.

B) O‘qituvchi muammoli vaziyatni yaratadi, o‘quvchi talabalarni uni yechishga yo‘naltiradi, yechimini o‘quvchi-talabalarning o‘zlari topishga harakat qiladilar. Albatta bunda o‘qituvchi turli metodik usullardan, tushuntirish, hikoya, yo‘naltiruvchi savollar berish, texnik vositalardan ko‘rgazmali qurollardan keng foydalanishi talab etiladi. Muammoning yechimi dialog tarzida, o‘qituvchi va o‘quvchilar hamkorligida topiladi.

3. O‘qituvchi ma’lum bir muammoni ko‘rsatmaydi, balki shunday vaziyat hosil qilib, unga talabalarni ro‘baro‘ qiladi, ularni mustaqil faoliyatga yo‘naltiradi. Talabalarning o‘zi mustaqil ravishda muammoni anglaydilar, uni shakllantiradilar va yechimini izlaydilar. Bunda o‘qituvchi bilan o‘quvchi-talabalar o‘rtasida yuqori darajada hamkorlik o‘rnatiladi. Bu metod faol ijodiy, mustaqil izlanishga yo‘naltiradi, o‘z fikrini bildirish va asoslashga, himoya qilishga o‘rgatadi. Hayotiy pozitsiyasi, dunyoqarashini shakllantirishga yordam beradi va tarbiyalaydi.

Ma’ruza o‘qish, ayniqsa muammoli ma’ruza o‘qish uchun o‘qituvchi pedagogik mahoratga ega bo‘lishi kerak. Pedagogik mahorat

- bu faxm-farosat bilan ta’lim-tarbiya jarayoniga rahbarlik qilish, o‘quvchi-talabani qalban his qilish va ularga avaylab, ijodiy dalillik, ilmiy tahlil va istiqbolni hisobga olgan holda yondashishdir. Pedagogik jarayonni mahorat bilan boshqarish uchun pedagog nutq malakasiga ega bo‘lishi, mimikadan ustalik bilan foydalanishi, hissiy-psixik holatni yarata bilishi lozim.

Odatda, ko‘pchilik o‘qituvchilar shaxsni o‘rgatish va tarbiyalashdagi vazifasini o‘z o‘quv fani doirasida o‘quvchini tegishli bilim va ko‘nikma hamda malakalar bilan qurollantirish, ularda tahlil qilish, umumlashtirish va qiyoslash sifatlarini shakllantirishda ko‘radilar. Vaholanki, o‘qituvchining mehnati va uning pedagogik faoliyati keng qamrovlidir. U o‘qitishning **uchta muhim ijtimoiy funksiyasi** - ta’lim berish, tarbiyalash va shaxsni rivojlantirish bilan bog‘liq vazifalarini bajarishga mas’uldir.

Iqtisodiy hayotning yangi qirralari, muammolari ularni yechish yo‘llarini o‘rganish jarayonida beto‘xtov chuqurlashib boradi. O‘quv jarayonida yangi metodlar qo‘llaniladi, yangi o‘quv kurslari kiritiladi. Iqtisodiy fanlardan dars berishni ma’naviy, nazariy tomondan yuqori bosqichga ko‘tarish ko‘p jihatdan ta’lim-tarbiya jarayonida qo‘llaniladigan o‘quv shakllari, metodlari, talabalarni iqtisodchi olimlarning ishlarini o‘rganishlari berayotgan voqelikka jamiyat taraqqiyoti va jahon miqyosidagi jarayonlar birligi nuqtai nazaridan qarashni o‘rganishlari bilan bog‘liq. Bozor iqtisodiyotida iqtisodiy fanlar, ularning rivojlanishi, integratsiyasi nihoyatda oshishiga olib keldi. O‘z navbatida, bu fanlarni o‘qitish zamon talabiga javob berishi zarur. Buning uchun esa har bir o‘qituvchi o‘z ishiga ijodiy yondashishi, o‘z ustida muttasil ishlab, izlanishi, malakasini oshirishi va yuqorida keltirilgan fazilatlarga ega bo‘lishi lozim.[102] Shunday qilib, iqtisodchi pedagoglardan nafaqat iqtisodiyotni, balki iqtisodiy bilimlarni o‘quvchi-talabalar ongiga yetkazish mahoratiga ham ega bo‘lishlari talab qilinadi.

Takrorlash va munozara uchun savollar

1. O‘quv jarayonida ma’ruza qanday o‘rin tutadi?
2. Ma’ruzaga qanday talablar qo‘yiladi?
3. Ma’ruzaning asosiy funksiyalarini ko‘rsating.

[102] Тожибоева Д. Хўжаев Н. Авалова Г. Иқтисодий педагогика.Ўқув қўлланма. Т.: Fan va texnologiya, 2008. 240-б.

4. Ma’ruzaga qanday talablar qo‘yiladi?

5. Ma’ruzani bayon qilish metodlari qanday va ular nimalari bilan farqlanadi?

6. Ma’ruzada real faktlar, ma’lumotlarning o‘rnini aytib bera olasizmi?

7. Qanday ma’ruza muammoli ma’ruza deyiladi?

8. Ma’ruza turlari qaysi jihatlari bilan sizni diqqatingizni tortdi? Ularning kamchiligi, yutuqlari nimada?

9. Ma’ruzani qanday o‘qish haqida shaxsiy fikringiz? Siz o‘qituvchi sifatida ma’ruzani qanday o‘qigan bo‘lardingiz?

10. Ma’ruza darsi o‘tish uchun metodlarini tanlash osonmi?

VI BOB. AMALIY (SEMINAR) MASHG‘ULOTLARGA TAYYORGARLIK KO‘RISH VA UNI O‘TKAZISH METODIKASI

O‘quv jarayonini tashkil etishning asosiy shakllaridan yana biri amaliy mashg‘ulot. Amaliy mashg‘ulot o‘quvchi-talabalarning bilim olish, olingan bilimni puxta o‘zlashtirish, darsga faol qatnashishishlarini ta’minlaydigan turli-tuman metodlarni qo‘llash, nazariy bilimni amaliyot bilan bog‘lash imkoni kengligi, bilan ajralib turadi. Uning asosiy shakli seminar darsi bo‘lib, u amaliy mashg‘ulotlardan ma’lum bir jihatlari bilan farq qiladi. Navbatdagi bob amaliy, seminar mashg‘ulotlariga tayyorgarlik ko‘rish, uni samarali o‘tkazishni o‘rganish masalalariga bag‘ishlanadi.

6.1. Amaliy mashg‘ulot va seminar darslari. Seminarning o‘quv jarayonida tutgan o‘rni, asosiy funksiyalari va turlari

Ma’ruza bilan birgalikda amaliy mashg‘ulot ham o‘quv jarayonining asosiy shakllariga kiradi. Uning muhim xususiyatlaridan biri o‘rganilayotgan masalalarni har bir o‘quvchi-talaba tomonidan teng huquqlik asosida muhokama qilishda faol qatnashish imkoniyatiga egaligidir. Bu jarayonda o‘quvchi-talabalarning o‘qishga yondashuvi muhim ahamiyatga ega. O‘qishga yondashuvni Buyuk Britaniyalik tadqiqotchilar uch guruhga ajratishadi: yuzaki, chuqur, strategik yondashuv. **Yuzaki yondashuv** topshiriqni tezda bajarishga, ma’lumotni mazmuniga ahamiyat bermay eslab qolishga intilish, mavjud bilim va yangi fikrlarni ajratmaslik, topshiriqni majburlab berilgandek yuzaki bajarishni ifodalaydi.

O‘qishda **chuqur yondashuv** tushunishga intilish va ma’no izlash, g‘oyani mavjud tushunchalarga bog‘lashni, mavjud bilimlar va yangi fikrlarni ajratishga harakat qilish, hamda asosiy mavzu va tushunchalarni tanqidiy baholash va aniqlashni o‘zida mujassamlashtiradi. O‘qishga Biggs (1987) baholash bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan o‘rganishning uchinchi yo‘nalishini aniqlagan – **strategik (**yoki maqsadga erishishga intilish**) yondashuvi.** Bu yerda o‘qish, o‘rganish

imtihonda yuqori baho olish maqsadi uchun qaratilishiga urg‘u beriladi.[103]

Demak, muhimi o‘qitish va o‘rganish jarayonida talabalarni o‘qishga chuqur yondashuv tomon yo‘naltirish lozim.

Ikkinchi guruh tadqiqotchilar nazariy yondashuvlarni inobatga olgan holda o‘qish, o‘rganishga motivatsiya katta ta’sir ko‘rsatishini hisobga olib, motivatsion yondashish. O‘qish. o‘rganish uchun motivatsiya yaratish, ya’ni mayl uyg‘otish muhim ahamiyatga ega ekanligini avvalgi bobda ta’kidlab o‘tgandik. Motivatsiyani 3 turga ajratish mumkin: ichki, tashqi va maqsadli motivatsiya (bunda maqsadsiz motivatsiyani maqsadli motivatsiyaga teskari tushuncha deb olinadi).

Ichki motivga ega talabalar fanni chuqur o‘zlashtirishga, vujudga keladigan mushkulliklarni yechishga harakat qiluvchi, o‘qishga qiziquvchi talabalar hisoblanadi. **Tashqi motivatsiyali** talabalar esa, diplom yoki ma’lum darajani qo‘lga kiritish, tashqi mukofot yoki boshqalarning ma’qullashlari maqsadini ustun qo‘yadilar (Harter, 1981). Ta’lim sohasidagi aksariyat olimlar **maqsadli motivatsiyaga** faqat to‘g‘ri yo‘naltiruvchi kuch deb emas, balki motivatsiya qudratini o‘lchovchi ko‘rsatkich sifatida ham qarashadi (Entwistle & Ramsden, 1983).[104] Haqiqiy motivatsiya nafaqat kuchli qudratga ega, balki talabalarni to‘g‘ri yo‘naltiruvchi kuch hamdir. Maqsadli motivatsiyaga ega talaba maqsadsiz motivatsiyasili talabadan tubdan farqlanadi. Ryan va Deci (2000) maqsadsiz motivatsiyaga ega talabalarni universitetga nima uchun borishlarini bilmaydigan, o‘zlarini raqobatbardosh his qilmaydigan va tevarak atrofda sodir bo‘layotgan voqealarni nazorat qilish xususiyatiga ega emasliklari bilan izohlaydi.[105]

Bu fikrlardan shunday xulosa chiqarish mumkinki, o‘quv jarayoni, ayniqsa, o‘quvchi-talabaning o‘zi bajarishini ustun darajada talab etadigan amaliy mashg‘ulot, seminar darslari ularda maqsadli ichki, tashqi motivatsiyani kuchaytirishga yordam beradi. Agarda maqsadsiz

---

[103] First edition.This edition published 2009 by Routledge 270 Madison Ave, New York, NY 10016 Simultaneously published in the UK by Routledge 2 Park Square, Milton Park, Abingdon, Oxon OX14 4RN. P. 10-11.

[104] Shu kitob, P. 29.

[105] A Handbook for Teaching and Learning in Higher Education. Enhancing Academic Practice. Third edition. Edited by Heather Fry, Steve Ketteridge, Stephanie Marshall. First edition.This edition published 2009 by Routledge 270 Madison Ave, New York, NY 10016 Simultaneously published in the UK by Routledge 2 Park Square, Milton Park, Abingdon, Oxon OX14 4RN. P. 386; International Handbook on Teaching and Learning Economics.Edited by Gail M. Hoyt, Professor of Economics, University of Kentucky, US and KimMarie McGoldrick, Joseph A. Jennings Chair in Business and Professor of Economics, University of Richmond, US, 2012.

o‘quvchi-talabada, maqsadni shakllanishiga yordam berilmasa u kelajakda mutaxassis sifatida ishlay olmaydi. Aynan amaliy mashg‘ulotlar bu jihatdan o‘quv jarayonini tashkil etishning boshqa shakllariga nisbatan ko‘proq ahamiyatga ega.

Amaliy mashg‘ulot termini pedagogikaga oid adabiyotlarda tor va keng ma’noda talqin etiladi. Amaliy mashg‘ulot tor ma’noda ifodalasak, o‘quvchi-talabalar tomonidan o‘qituvchi rahbarligida o‘tilgan fanning ilmiy-nazariy asoslarini o‘zlashtirish uchun o‘quv topshiriqlari majmuasini bajarish orqali ularni amalda qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantiruvchi o‘quv jarayonining asosiy shaklidir. Uning maqsadi iloji boricha real amaliy faoliyatga yaqinlashgan holda o‘quvchi-talabalarning o‘qituvchi tomonidan boshqariladigan bilish, o‘rganish faoliyatini tashkillashtirishdir. Odatda amaliy mashg‘ulotlar ma’ruzadan so‘ng, ya’ni ularni bajarish uchun nazariy asos yaratilgandan keyin o‘tkaziladi.

Amaliy mashg‘ulot keng ma’noda turli amaliy mashg‘lotlar, seminar (uning barcha turlari), amaliy mashq, laboratoriya ishi kabilarning umumiy holda ifodalanishidir.

Amaliy mashg‘ulotlar – bu o‘quv mashg‘ulotining asosiy turi bo‘lib, o‘quv va amaliy ko‘nikma, amalda qo‘llash, tajribani shakllantirishga qaratilgan. Amaliy mashg‘ulotlarning ayrimlari ko‘rgazmali tarzda ifodalanib, nazariy materiallarni qayta shakllantiradi va uni amalda qo‘llashni o‘rgatadi. Ma’lum bir toifa amaliy mashg‘ulotlar nazariy materiallarni qo‘llash va mashqlar bajarishning asosiy uslublarini egallash uchun qo‘llaniladi. Amaliy mashg‘ulotlarda mustaqil ishlarni bajarish, darsga tayyorgarlik ko‘rish muhim ahamiyatga ega bo‘lib, katta ulushni tashkil etadi.

Amaliy mashg‘ulotlarga tayyorgarlik: a) o‘quv va ilmiy adabiyotlar darsliklar, ma’ruza konspektidan tegishli nazariy materiallarni o‘zlashtirish;

2) Amaliyotda bajarishni namoyon qilishni o‘z ichiga oladi.

Amaliy mashg‘ulotning eng muhim jihati shundaki, bu darslarda oquvchi-talabalar topshiriqlarni o‘zlari bajarishi orqali mavzuni o‘rganishlari, bilim olishlari tufayli ularning xotiralarida avval ko‘rsatib o‘tganimizdek axborotning 50 - 75%i qoladi.

Laboratoriya mashg‘uloti – bu o‘quvchi-talabalar o‘qituvchi topshirig‘iga binoan asbob-uskunalar, priborlar, maxsus jihozlar, turli texnik moslamalar yordamida har xil tajribalar o‘tkazishga qaratilgan

dars, ya’ni ta’lim oluvchilar tomonidan voqea-hodisa, jarayonlarni maxsus asbob-uskunalar yordamida o‘rganishga qaratilgan mashg‘ulot.

Laborotoriya va amaliy mashg‘ulotlar o‘qitishda muhim rol o‘ynaydi. Ularning ahamiyati shundaki, nazariy bilimlarni amalda qo‘llashga, tajriba o‘tkazishga, yuz berayotgan jarayonlar, hodisalar, ustida kuzatish olib borish, ularning natijalarini tahlil qilish, mustaqil ravishda umumlashtirish, xulosa chiqarish va qaror qabul qilishga o‘rganishadi.

Amaliy va laborotoriya mashg‘ulotlari o‘quv rejasi va muvofiq ravishda o‘quv dasturlari asosida olib boriladi. O‘qituvchining vazifasi maqsadni aniq qo‘yish, unga erishish uchun o‘quvchi-talabalar tomonidan qo‘yilgan vazifalarni amalga oshirilishini metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil qilish hamda ularnining faoliyatini mahorat bilan to‘g‘ri yo‘naltirishdir. Odatda bunday amaliy mashg‘ulotlar va laborotoriya ishlari iqtisodiy fanlarni o‘rganishda ularning xususiyatlaridan kelib chiqib, maxsus uskuna, jihozlar bilan olib borilmaydi. Maxsus laborotoriya mashg‘ulotlari o‘tkazilmaydi.

Iqtisodiy fanlarni o‘rganishda albatta amaliy mashqlar bajarish alohida o‘rin tutadi. Fanni o‘rganishda, xususan, ma’ruza mashg‘ulotlarida olingan nazariy bilimlarni chuqur o‘zlashtirish va mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun amaliy mashg‘ulotda mustaqil ravishda o‘quv, ilmiy adabiyotlar, ma’ruzada olgan bilimlarini mustahkamlash, mashqlarni yechish va hisob-kitob topshiriqlarini bajarishni o‘z ichiga oladi.

Iqtisodiyotga oid fanlardan amaliy mashg‘ulotlar tarkibida namunaviy standart topshiriqlar bilan bir qatorda ijodiy fikrlash va yondashuvlarni rivojlantiradigan topshiriq hamda mashqlar alohida ahamiyatga ega. Ular o‘quvchi-talabalarda fikrlarni umumlashtirish, qayta shakllantirish va rekonstruksiyalash ko‘nikmalarini shakllantiradi. Ularni yechish uchun oldin olingan bilimlar va ko‘nikmalarni eslash, jalb etish zarur.

Amaliy mashg‘ulotlarini o‘tkazishda quyidagi didaktik tamoyillarga amal qilinadi:

- amaliy mashg‘ulotlarining maqsadini aniq belgilab olish;
- talabaga natijani mustaqil ravishda qo‘lga kiritish imkoniyatini ta’minlash;
- talabani nazariy-metodik jihatdan tayyorlash.

O‘quv jarayonini tashkil etishda seminar darslari alohida o‘rin tutadi. Amaliy mashg‘ulotlar qatorida, ta’lim oluvchilar o‘quv materiallarini chuqur o‘zlashtirishi, birlamchi manbalar va hujjatlar ustida ijodiy ishlash ko‘nikmalarini egallashida seminarlar alohida ahamiyatga ega.

Seminar mashg‘ulotlari ko‘proq ijtimoiy-gumanitar fanlardan olib boriladi. Bu degani boshqa fanlardan seminar darslari o‘tilmaydi, degani emas. Iqtisodiy fanlarning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o‘quv jarayonini bu tashkiliy shaklidan keng foydalaniladi.

Seminar darslarining boshqa amaliy mashg‘ulotlardan muhim farqi shundaki, amaliy mashg‘ulotda ustun darajada mavjud, bor bilimlarni o‘qituvchi rahbarligi ostida o‘quvchi-talabalar tomoni-dan puxta o‘zlashtirish, mustahkamlashga diqqat qaratilsa, seminar darslarida bulardan tashqari ustun darajada ilmiy-tadqiqot, ijodiy izlanishga yo‘naltirish nazarda tutiladi.

Seminar mashg‘ulotlari o‘qituvchining ta’lim oluvchilarni mustaqil intensiv ishlashga yo‘naltiruvchi rolini nazarda tutadi va ta’limning moslashuvchan shakli hisoblanadi.

Seminar – bu ta’lim beruvchi bilan ta’lim oluvchilarning qo‘yilgan maqsadni birgalikda amalga oshirishga qaratilgan faoliyatini ta’minlashning tashkiliy shaklidir.

Seminar o‘quv jarayonining talabalar bilimlarini mustahkamlashni ta’minlovchi, ijodiy qobiliyatlarini namoyon qiluvchi shaklidir. Seminar mashg‘ulotlarining maqsadi talabalarning chuqur bilim olishini ta’minlash, olgan bilimni real hayotda qo‘llashga o‘rgatishdir.

Seminar (lot. seminariym – manba, ko‘chatzor, o‘choq, ko‘chma ma’noda – maktab. Hamma so‘zlarni bilim olish bilan bog‘lash mumkin) – o‘quv amaliy mashg‘ulot shakllaridan biri. Asosan oliy o‘quv yurtlarida, ilmiy to‘garak, anjumanlarda qo‘llaniladi. Hozirgi paytda kasb-hunar kollejlarida ham o‘rganilayotgan fanning xususiyatlaridan kelib chiqib, keng qo‘llanilmoqda. Ayrim pedagogik adabiyotlarda seminarlarni kollejlarda 2-3-kurslarda o‘tish maqsadga muvofiq, degan fikrlar ham bor. Seminar kollejda asosiy didaktik maqsad: berilgan mavzu bo‘yicha materialni chuqur o‘zlashtirish, adabiyot bilan ishlashga o‘rgatish, kerakli savol bo‘yicha tayyorlangan ma’lumotlarni mustaqil aytib berish, berilgan savollarga javob berish, o‘rtoqlarining fikrini eshitish, tahlil qilish hamda baho berish kabilarni amalga oshirishga qaratilgan.

Ta’limning seminar shakli qadimgi Yunon va Rim maktablarida paydo bo‘lgan. Keyinchalik G‘arbiy Yevropa universitetlarida rivojlantirilgan. Bu universitetlarda seminar talabaning adabiyotlar, manba ustida ishlashi vazifasini o‘tagan. XX asr boshlaridan seminar darslari talabalarning umumiy ilmiy dunyoqarashini kengaytirishda, ularni muayyan fan tarixidagi muhim muammo va tadqiqotlar bilan tanishtirishda katta rol o‘ynay boshlagan. Hozirgi kunda seminarlarni quyidagi turlarini ko‘rsatish mumkin:



Odatda seminar deganda biz eng avvalo o‘rganilayotgan fan yoki kursni chuqur o‘rganishga yordam beradigan darslarni tushunamiz.

Seminar darsi amaliy mashg‘ulotning shakllaridan biri bo‘lib:

- ma’ruzada bayon qilingan nazariy qonun-qoidalarni mustahkamlash;
- olingan nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘lash va ularni qo‘llashni o‘rganish;
- fan bo‘yicha bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish;
- o‘z nuqtai nazarini asoslash, qarama-qarshi fikrlarni noto‘g‘riligini isbotlashni o‘rganish;
- talabalarni ilmiy tadqiqot, bilish qobiliyatlarini, intellektual salohiyatlarini o‘stirish vazifalarini bajaradi.

Seminar darsi talabalarni bilim olishlari, uni puxta o‘zlashtirishlari va olgan bilimlarini kelgusida real hayotda qo‘llashni o‘rganishlarida alohida o‘rin tutadi. Shuning uchun ham seminar darsini qiziqarli, talabalarni faol qatnashishlarini ta’minlaydigan metodlarni qo‘llab, o‘tish muhim ahamiyatga ega. Seminar darsini qanday tashkil etish fanning, mavzuning maqsadi, vazifalari, xususiyatlari va boshqalarga bog‘liq. Ularni hisobga olgan holda o‘qituvchi seminar – munozara, seminar – dumaloq stol atrofida, seminar konferentsiya, seminar – “aqliy hujum”, seminar – “loyihalash” va hokazolar yoki aralash tarzda o‘tkazish mumkin.

Ayrim muammo, muhim mavzuni o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy seminarlar, ya’ni tadqiqot xarakteridagi seminarlar odatda ma’lum bir muddatda o‘tkazilib, uning qatnashchilari qo‘yilgan mavzuni turli yo‘nalishlar bo‘yicha o‘z nuqtai nazarlari, qo‘ygan maqsadlaridan kelib chiqib, muhokama qilishda qatnashadilar.

Qisqa muddatda dasturga ko‘ra qat’iyan chegaralangan, aniq amaliy malaka va ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan seminar turi **seminar** –treningdir.

“Trening” tushunchasining ma’nosi - bu qisqa muddatli ta’lim bo‘lib, uning dasturida nazariy o‘qitish qisqartirilib, asosiy diqqat ishtirokchilarni kasbiy faoliyatining samarasini oshirishga mo‘ljallangan. Seminar-trening qat’iy chegaralangan aniq amaliy malaka va ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgandir.

O‘quv mashg‘lotining seminar shakli o‘quv jarayonining talabalar bilimlarini mustahkamlashni ta’minlovchi, ijodiy qobiliyatlarini namoyon qiluvchi shaklidir. Seminar mashg‘ulotlarining maqsadi talabalarning chuqur bilim olishini ta’minlash, olgan bilimni real hayotda qo‘llashga o‘rgatishdir.

Buning uchun talaba olgan axborotlarini tahlil qilish, ilmiy tadqiqot o‘tkazish, taqqoslash, xulosa chiqarishni bilishi kerak. Seminar darsining oldiga qo‘yilgan bosh maqsadga erishish uchun dars oldiga qo‘yilgan qator vazifalarni amalga oshirish kerak. Bu vazifalar seminar darslarining tutgan o‘rni, ahamiyati, maqsad, vazifalari u bajaradigan funksiyalarda to‘laroq hamoyon bo‘ladi.

Seminar mashguloti quyidagi funksiyalarni bajaradi:

1) Talabalarga professional ta’lim berish va tarbiyalash;
2) Mustaqil ishlash malakasini o‘stirish;
3) Bilimlarini mustahkamlash ijodiy qobiliyatlarini namoyon qilish;
4) Mantiqiy fikrlashga o‘rgatish;
5) Nutqini o‘stirish, ilmiy munozaralar olib borishga o‘rgatish;
6) Mustaqil fikr yuritish va o‘z fikrini o‘rtoqlashishga o‘rgatish;
7) O‘rtoqlari fikrini tanqidiy baholashga o‘rgatish;
8) Nazariy olgan bilimlarini amaliyot bilan bog‘lash;
9) Talabalar bilimini nazorat qilish va baholash.

Bu funksiyalar bir-biri bilan bogliq. Ular birgalikda mutaxassis kadrlar tayyorlashga qo‘yilgan talablarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Amaliy mashg‘ulotning boshqa turlari bilan seminar mashg‘ulotining maqsadi bir, vazifalari o‘xshash, shu bilan birga u bajaradigan funksiyalar ham ko‘rsatib turibdi, ular o‘rtasida muhim farqlar bor: 1) amaliy mashg‘ulotda asosiy diqqat mavjud bilimlarni o‘rganishga, o‘zlashtirishga qaratilsa, seminar ko‘proq ijodiy fikrlashga yo‘naltiradi; 2) amaliy mashg‘ulot uchun tayyorlangan topshiriqlar B.Blum taksonomiyasining bilish, tushunish, qo‘llash bosqichlari darajasida bo‘lsa, seminar darslarida ko‘proq tahlil, sintez, baholash darajalarini qamrab oladi.

6.2. Seminar darslarining bilim zaxirasiga ta’siri va o‘ziga xos jihatlari

Inson xotirasi – bu bizning biokompyuterdir. Odatda, yangi axborotni qabul qilar ekanmiz, avvalgi axborot qisman xotiradan ko‘tariladi. Axborotlar nihoyatda xilma-xil bo‘lib, inson har kuni o‘z hayotida qabul qiladigan axborotlar miqdori, ularni turlicha qabul qilinishi, xotirada saqlanib qolishi jihatidan bir-biridan farq qiladi. Psixologlarning fikricha, olingan axborot, go‘yoki filtrdan o‘tib, saralanib, ma’lum bir jihatlari bilan ajralib turadiganlari xotirada saqlanar ekan.

Uzoq muddat xotirada qoladigan axborotlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

1) qiziqarliligi, jo‘shqinligi kabi xususiyatlari bilan ajralib turuvchi axborotlar;

2) tasavvur, his-tuyg‘u va shu kabi bir-birini eslatadigan, o‘zaro bog‘lanishdagi axborotlar;

3) inson tomonidan tushunib, mohiyatiga yetilgan axborotlar;

4) faollik bilan qabul qilingan, o‘rganilgan, takrorlanib turiladigan axborotlar.

Aytib o‘tganimizdek, olimlarning ilmiy tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, oddiy inson odatda axborotlarni olgan manbasi, shakliga ko‘ra turli darajada o‘zlashtiradi.

Olingan axborot go‘yo birinchi filtrdan o‘tib, axborot qisqa muddat yodda saqlanadi. Qisqa muddat yodda qolgan bilim ikkinchi filtrdan o‘tgach, sust bilim zaxirasga aylanadi. Shu bilimni yodda saqlash, foydalanish, takrorlash tufayli faol bilim zaxirasiga aylanadi.

Bu bilimdan foydalanib, takrorlab turilmasa, sust bilim zaxirasiga aylanadi va bora-bora xotiradan ko‘tariladi.

Uni quyidagi grafikda ko‘rish mumkin. Bulardan shunday xulosa chiqarish mumkin: talabalarning eng avvalo, o‘quv materialini o‘zlashtirishi, yodda qolishi uchun olinadigan axborotni iloji boricha eshitish va ko‘rish orqaligina emas, balki gapirish, o‘z faoliyatida sinab ko‘rish orqali yetkazish katta ahamiyatga ega. Bunga erishishning yo‘li seminar darslarini turli-tuman metodlar orqali olib borishdir. Aynan seminar darsida talabalar ma’ruza, kitob, jurnal va hokazolar orqali olgan axborotlari, bilimlarini tushungan holda gapirib berish, uni modellashtirish asosida sinab ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.



Seminar darsini o‘tkazishda qo‘llanadigan uslublar turli-tuman bo‘lib, u yoki bu uslubni tanlash, o‘rganilayotgan fanning xususiyatiga; o‘tilayotgan mavzuga, seminar darsiga qo‘yilgan maqsadga, tanlangan uslubni qo‘llash imkoniyatiga bog‘liq.

Hozirgi paytda iqtisodiy fanlarni o‘rganishda nisbatan keng qo‘llaniladigan uslublardan: ekspress savol–javob, savollar tizimiga asoslangan muhokama, seminar mashg‘uloti rejasi bo‘yicha atroflicha suhbat, modellashtiruvchi o‘yin, doklad va referatlarni muhokama qilish, masala, mashq, test yechish va ularning natijasini muhokama qilish, munozara, “case study” va boshqalarni ko‘rsatish mumkin.

Seminar mavzui ma’ruza mavzusi bilan bir xil bo‘lishi shart emas. Ba’zan mavzudagi ayrim savollar ma’ruzada ko‘rib chiqilsa, ayrimlarini seminarda muhokama qilish mumkin. Hozirgi paytda ma’ruzada ko‘rilgan mavzu albatta, seminarda ham muhokama qilinadi. Lekin ma’lum sharoitda seminar darsi va uning mavzusiga boshqacha yondashish mumkin. Aytaylik, adabiyotlar, axborot manbalari mavjud bo‘lsa, seminarda mustaqil o‘rganilgan mavzuni muhokama qilish mumkin.

Seminar darsini muvaffaqiyatli o‘tkazish uchun asosiy va qo‘shimcha adabiyotlarni sinchkovlik bilan o‘rganish zarur. Adabiyotlarni o‘rganish dars jarayonida talabalarning diqqatini qaratish

lozim bo‘lgan masalalarni alohida ajratish, mavzuni qaysi usul asosida o‘rganishni rejalashtirish va darsga tayyorlanish imkonini beradi.

Savollarni murakkablashtirish hamda savollar tizimiga o‘tish orqali mavzu mazmunini chuqur o‘zlashtirish mumkin. Bu esa savolni muhokama qilish jarayonida vujudga kelgan muammoli vaziyatni o‘rganib, uni yechish imkoniyatini beradi. Masalan, iqtisodiyot nazariyasining bosh muammosi nima? - degan savol qo‘yilgan. Bu holda talaba iqtisodiyot nazariyasi fanining bosh muammosi – resurslarning cheklanganligi sharoitida cheksiz ehtiyojlarni qondirish muammosi – deb javob berishi mumkin.

Ana shu savolni aytaylik, quyidagicha savollar tizimi asosida ilgari surish mumkin: Iqtisodiyot nazariyasining bosh muammosi nima? Nima sababdan buni bosh muammo deb ataymiz? Sizningcha, iqtisodiyotda yana qanday muammolar bor? tarzida berish mumkin. Ana shu savollar tizimiga javob berish jarayonida talabalar iqtisodiyot nazariyasining bosh muammosi resurslarning cheklanganligi sharoitida cheksiz ehtiyojlarni qondirish ekanligini, bunga sabab, iqtisodiyotdagi barcha masalalarni qamrab olishi ekanligi oydinlashadi. Ularga misol qilib, tanlash muammosini, har bir uy xo‘jaligi, firma, davlat o‘z oldiga qo‘ygan maqsad va unga erishish muammosini va hokazolarni ko‘rsatish mumkinki, ularning barchasi resurslarning cheklanganligi bilan bog‘liq.

Mavzuni o‘rganishni chuqurlashtirishga savol shaklini o‘zgartirish, uni murakkablashtirish orqali ham erishish mumkin. Aytaylik, savolni iqtisodiyot nazariyasining bosh muammosi nima va uni nega bosh muammo deyiladi?- tarzida qo‘yiladi.

Talabalarning mavzuni, u yoki bu kategoriyani qay darajada tushunganlarini sinash va puxtaroq tushunishlariga yordam berish uchun javoblarni ular bilan birgalikda muhokama qilish asosida mini test o‘tkazish mumkin.

Seminar-darsning iqtidorni namoyon etadigan, nutq so‘zlash, boshqalar fikriga tanqidiy qarashni talab etadigan uslublaridan biri – munozaradir. Bunday usul bilan dars o‘tish o‘qituvchidan katta tayyorgarlik ko‘rish, mahoratni talab qiladi. Umuman olganda, seminar darsi turli metodlar asosida olib borilar ekan, u qiziqarli, barcha talabalarni faol qatnashishga, demak, darsga qunt bilan tayyorlanib kelishga undaydi.

Seminarga tayyorgarlikni boshlashda birinchi navbatda tegishli mavzu bo‘yicha tinglangan ma’ruzani eslash, unda yozilgan konspektni

va darsliklarning tegishli boblarini o‘qib chiqish zarur. Bu mazkur mavzu (muammo)ning o‘rganilayotgan fandagi o‘rni va ahamiyati to‘g‘risida umumiy tasavvurni jonlantiradi. Bu boradagi bilim zaxirasini faollashtiradi. So‘ngra seminar darsining uzviy savollariga diqqat qaratiladi va ana shu savollarni chuqur o‘rganish uchun qo‘shimcha tavsiya etilgan adabiyotlar, manbalardan foydalaniladi, yangilari izlanadi. Ular asosida o‘z fikr-mulohazalarini shakllantiradi.

Ma’ruza darsi va seminar mashg‘ulotlari o‘zaro bog‘liq, qo‘yilgan maqsad umumiy: bilim berish, tarbiyalash, rivojlantirish va boshqalar. Shu bilan birga ular bir-birini to‘ldiradi va farqlanadi:

Ma’ruza va amaliy, seminar mashg‘ulotlarining o‘ziga xos jihatlari

	Mashg‘ulotlarning asosiy farqlari	
	Ma’ruza	**Amaliy mashg‘ulot, seminar**
1.	Ma’ruza darsi ko‘proq monolog tarzida bayon qilinsa	Amaliy mashg‘ulot, seminar darsi dialog va polilog tarzida olib boriladi
2.	Ma’ruzada odatda bayon qilish yetakchi rol o‘ynaydi. Talabalar ma’ruza tinglashda nisbatan passiv rol o‘ynaydilar	Amaliy mashg‘ulot, seminar darsida esa talabalar faol bo‘lishadi. O‘qituvchining asosiy roli qo‘yilgan maqsadni amalga oshirish uchun dars jarayonini boshqarishdir
3.	Ma’ruzada turli metodlarni qo‘llash nisbatan cheklangan bo‘lsa	Amaliy mashg‘ulot, seminar darslarida aksincha turli metodlarni qo‘llash imkoni nihoyatda keng
4.	Ma’ruza darsini o‘tishga tayyorlanishda o‘qituvchi uchun qo‘yilgan talablarga javob beraligan darajada ma’ruza matni tayyorlash va uni bayon etish muhim o‘rin tutsa	Amaliy mashg‘ulot, semiar darslari o‘tish uchun metodlar tanlash va ularni qo‘llab dars o‘tish uchun topshiriqlar tayyorlash, mavzu bo‘yicha qo‘yilgan muammolar muhokamasi asosiy o‘rin tutadi
5.	Uzviy savollar muhokamasida ularni o‘quvchi-talabalar ongiga yetkazish uchun da’vat, anglash, tafakkur fazalarini qanday o‘tkazishga diqqat qaratsak	Amaliy mashg‘ulot, seminar darslarida har bir uzviy savol muhokamasida qanday metodni qullanishi va baholash mezonlarini ishlab chiqishga ahamiyat beramiz

Seminar darsi o‘tishning qisqacha tafsiloti

Seminar darsi fanni o‘rganishning samarali shakli bo‘lib, odatda ma’ruzadan so‘ng o‘tkazilib, uning rejasi talabalarga ularni tayyorlanishi uchun vaqt yetarli bo‘lishini hisobga olgan holda havola qilinadi. Seminar rejasida muhokama qilinadigan asosiy uzviy savollar yoki

mummo, masalalar ko‘rsatiladi. Odatda ular 3-4 tadan oshmasligi maqsadga muvofiq. Adabiyotlar ro‘yxati beriladi. Yoki internet orqali modul tizimi asosida fan bo‘yicha tayyorlangan o‘quv-metodik ishlar, ta’lim texnologiyasiga ko‘ra tayyorlanish tavsiya etiladi.

Seminar o‘tkazish ham 3 bosqichga bo‘linadi: tashkiliy, asosiy, yakuniy.

1. Tashkiliy bosqich.

Talabalar bilan salom-alik qilinadi. O‘qituvchi auditoriyada zarur jihozlar bor-yo‘qligini ko‘zdan kechirib chiqadi. Davomat tekshiriladi. So‘ngra o‘qituvchi darsni boshlaydi.U o‘qituvchi tomonidan kirish so‘zini aytish bilan boshlanadi. Unda o‘qituvchi o‘tgan seminar darsida o‘tilgan mavzuini o‘quvchi-talabalar bilan birgalikda qisqacha takrorlab, yangi mavzu bilan bog‘laydi. Buning uchun o‘qituvchi qaysi metodlardan qay tarzda foydalanishni avvaldan rejalashtirgani bo‘yicha qo‘llaydi. Darsning qisqacha maqsadi, seminarni o‘tkazish tartibi, o‘quvchi-talabalar nimalarga diqqat qaratishlari lozimligi ko‘rsatiladi.

Bu yerda yana bir narsaga e’tibor qaratish kerak: mavzuni o‘tishda o‘quvchi-talabalar diqqatini boshlang‘ich-dastlabki **(**ing. threshold - ostona – undan keyin o‘zgarishlar yuz beradigan nuqta) tushunchaga qaratish.[106] Bu tushuncha o‘rganilayotgan fanning mavzularini o‘rganishda talabalar tomonidan avvalgi mavzularida, fanning boshqa bo‘limlarida, qolaversa boshqa fanlarda oldin tushunish zarur bo‘lgan muhim fikrlar, tushunchalar yoki jarayonlardan tashkil topgan bo‘lib, ularni eslash, yodga olish orqali yangi tushunchaga o‘tishni yoki holatni o‘zgarishini o‘rganamiz. Bu tushuncha Meyer va Land (2006) tomonidan yaratilib, ko‘plab o‘qituvchilar tomonidan turli tartibda, maqsadni amalga oshirishda qo‘llanilmoqda.[107] Hamma tushunchalar ham boshlang‘ich-ostonaviy tushuncha bo‘lavermaydi. Masalan, talabni o‘rganishda ehtiyoj boshlang‘ich tushuncha. Xarajatlarni o‘rganishda resurslar. Boshlang‘ich-ostonaviy nuqta deganda odatda miqdor

[106] Bu tushuncha rus tilida порог (пороговое) – ostona, ya’ni qaysi tomonga qadam tashlashingga qarab, bir tomonga qadam tashlasang uyga kirasan, ikkinchi tomonga qadam tashlasang ko‘chaga. Xozirgi пaytda deyarli barcha fanlarda bu tushuncha ishlatiladi. Iqtisodiyotda ham juda ko‘п ko‘rsatkichlar shu tushunchaga tayanadi.

[107] A Handbook for Teaching and Learning in Higher Education. Enhancing Academic Practice. Third edition. Edited by Heather Fry, Steve Ketteridge, Stephanie Marshall. First edition.This edition published 2009 by Routledge 270 Madison Ave, New York, NY 10016 Simultaneously published in the UK by Routledge 2 Park Square, Milton Park, Abingdon, Oxon OX14 4RN. P. 386; International Handbook on Teaching and Learning Economics.Edited by Gail M. Hoyt, Professor of Economics, University of Kentucky, US and KimMarie McGoldrick, Joseph A. Jennings Chair in Business and Professor of Economics, University of Richmond, US, 2012.

o‘zgarishlarini sifat o‘zgarishlariga olib keluvchi nuqta tarzida ko‘riladi. Masalan, ma’lum bir belgilangan narx doirasida ishlab chiqarish hajmiga ko‘ra zarardan foyda olishga o‘tish, yoki ma’lum bir guruhdan boshqa guruhga o‘tish va hokazo.

O‘tgan seminar darsida biz iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti va uslubi mavzusini yakunladik. Shu mavzuda biz iqtisodiy g‘oyalarning vujudga kelishi, iqtisodiy nazariyaning fan sifatida shakllanish jarayoni, asosiy iqtisodiy maktablarni ko‘rib o‘tdik. Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti, iqtisodiy qonunlar, kategoriyalar, hodisalar va ularni o‘rganishning uslublarini birgalashib muhokama qildik.

Iqtisodiyot nazariyasi barcha iqtisodiy fanlarning poydevori ekanligi, davlatning iqtisodiy siyosatining ilmiy asoslarini ishlab chiqishdagi tutgan o‘rni, normativ va pozitiv iktisodiy nazariyaning farqini o‘rgandik. Ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanish va uning muammolarini aniqlashda iqtisodiyot nazariyasi fanining ahamiyatini bilib oldik.

Bugun biz yangi mavzu: “Iqtisodiy resurslar va jamiyat ehtiyojlari” mavzusini muhokama qilamiz. Bu yerda o‘qituvchi, auditoriyaga murojaat qilib, biz nima sababdan “Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti va metodi” mavzusidan so‘ng aynan mana shu mavzuni o‘rganishdan boshlayapmiz? degan savol qo‘yishi mumkin.

Talabalar tomonidan berilgan fikrlarni umumlashtirib, “Iqtisodiyot nazariyasi” fanini o‘rganishni aynan mana shu mavzudan boshlashimiz bejiz emas, chunki insonning butun hayoti turli-tuman ehtiyojlarini qondirishga qaratilgandir.

Bugungi mavzuda biz ana shu ehtiyojlarning tarkibi, ularning cheksizligi, ehtiyojlarni qondirish uchun zarur ne’matlarni ishlab chiqarish uchun resurslarni cheklanganligi, bundan kelib chiqadigan iqtisodiyotning bosh muammosi, tanlov va qaror qabul qilishni zarurati va boshqa masalalarni o‘rganamiz.

Darsga seminar mashg‘uloti rejasi bo‘yicha tayyorlanib kelish kerak edi. Darsga hamma tayyormi? - deya so‘rab, tayyorlanmay kelganlarni sababini aniqlaydi. Bugungi mavzu muhokamasini boshlaymiz deb, o‘qituvchi kirish so‘zini tugatadi.

Darsning asosiy bosqichi: uzviy savollar muhokamasi boshlanadi.

2. Savollar muhokamasi[108]

Bugungi mavzu muhokamasini “Ehtiyojlarning mazmuni. Ehtiyojlarning tarkibi. Individual, guruhiy va umumjamiyat ehtiyojlari” uzviy savolini muhokama qilishdan boshlaymiz, deya o‘qituvchi nimalarga alohida ahamiyat berish kerakligini tushuntiradi.

Bu savolni an’anaviy uslub suhbat va savol-javob bilan muhokama qilish mumkin. Bunda, avvalo, ehtiyojlar deganda nimani tushunamiz?- degan savol qo‘yamiz.

Savolni muhokama qilish jarayonida talabalar diqqatini kelajakdagi taraqqiyot ana shu tanlov va qabul qilingan qarorlarga bog‘liq bo‘lishiga, u iqtisodiyotning regressiv, doiraviy, progressiv tarzda rivojlanishga olib kelishiga diqqatni tortish zarur.

O‘qituvchi iloji boricha har bir uzviy savol muhokamasini uning xususiyatiga mos tushadigan metodlarni qo‘llab o‘tkazgani ma’qul. Muhokama jarayonida biz odatda vaqt byudjetini qo‘yilgan uzviy savollar miqdoriga qarab proporsional sarflashga harakat qilamiz. Lekin o‘qituvchi savol muhokamasi jarayonida uning murakkabligi, muammolik darajasiga, o‘quvchi-talabalarning o‘zlashtirisi va boshqalarga ko‘ra bir muncha o‘zgartirishi mumkin.

Talabalar tomonidan bildirilgan fikrlar bo‘yicha o‘qituvchi keng munozarali muhokama qilish, faol qatnashishlarini ta’minlashga ahamiyat berishi zarur.

Darsning oxirida o‘qituvchi uni yakunlaydi.

3. Darsga yakun yasash. O‘qituvchi darsni yakunlar ekan, talabalarga «Kimda qanday savol bor?» - deya murojaat qiladi. Talabalarning savoli bo‘lsa, o‘qituvchi javob beradi. So‘ngra guruhning seminar darsiga tayyorgarligini baho-laydi hamda eng faol qatnashganlarni alohida qo‘rsatib, ular to‘plagan ballni e’lon qiladi. Uzviy saollar muhokamasi bo‘yicha o‘z fikrini bildiradi, kamchiliklarni, to‘g‘ri javoblarni bayon qiladi. Talabalar qaysi masalalar, savollar bo‘yicha qo‘shimcha ishlashlari zarurligini ko‘rsatadi. Kelgusi seminar darsi mavzusini, unda qanday metodlar asosida olib borilisini e’lon qiladi, tayyorlanib kelish uchun topshiriqlar beradi.

O‘qituvchi kelgusi darsda javoblarni yig‘ib oladi va tekshirib chiqib, talabalar ishini baholaydi. Umuman olganda seminar darsi turli

[108] Ma’ruza va seminar darsini aniq mavzu bo‘yicha tashkil etish va o‘tish “Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi” darsligida berilgan. Qarang: D. Tojiboeva, A. Yo‘ldoshev. Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi. Darslik. T.: Aloqachi, 2009. B.104-188.

uslublar asosida olib borilar ekan, u qiziqarli bo‘lib, barcha talabalarni faol qatnashishga, demak darsga qunt bilan tayyorlanib kelishga undaydi.

Ta’lim beruvchi seminarni samarali o‘tkazish uchun quyidagilarni hisobga olishi zarur:

• o‘qituvchining tayyorgarligi, uning savol va javob texnikasiga ega bo‘lishi;

• o‘quv guruhining holati: uning motivatsiyasi, tashkil etish xususiyati;

• auditoriyaning texnik jihozlanishi va o‘quv jarayonida texnik vositalardan foydalanish.

Seminar shaklidagi mashg‘ulotga o‘tish o‘zaro harakatni eshittirish (translyatsiya) sxemasidan muloqotga o‘tishni, monologdan dialogga, polilogga o‘tishni anglatadi.

6.3. Seminar darsini texnologik yondashuv asosida tashkil etish

Seminar darsini mfvzuning xususiyatdan kelib chiqib, turli metodlarni qo‘llab tashkil etiladi. Darsni samarali o‘tishi uchun avval to‘xtab o‘tganimizdek, uning loyihasi, ya’ni texnologik xaritasini ishlab chiqishimiz zarur. Unda seminar darsida muhokama qilinishi zarur bo‘lgan barcha savollar qanday tartibda olib borilishi rejalashtiriladi. O‘qituvchi va talabalarning qanaday vazifalarni bajarishi ko‘rsatiladi. Darsning maqsadi, o‘quv faoliyatining natijasi belgilanadi. O‘qitishning metodlari va o‘rganish texnikasi, o‘qitish vositalari aniqlanadi. Mazkur darsni o‘tgungacha talabalar bilishi lozim bo‘lgan bilim va malakalar ko‘rsatiladi. Har bir savolning muhokamasi qanday tartibda o‘tilishi, qanday topshiriqlar berilishi ko‘rsatiladi.

Texnologik yondashuv asosida seminar darsiga tayyorgarlik ko‘rish va o‘tkazishni, darsni loyihalashtirish, ya’ni texnologik xaritasini ishlab chiqishni nazarda tutadi.

Seminar darsi mavzuning xususiyatidan kelib chiqib, turli metodlarni qo‘llab tashkil etiladi. Darsni samarali o‘tishi uchun avval to‘xtab o‘tganimizdek, uning loyihasi, ya’ni texnologik xaritasini ishlab chiqishimiz zarur. Unda seminar darsida muhokama qilinishi zarur bo‘lgan barcha savollar qanday tartibda olib borilishi rejalashtiriladi. O‘qituvchi va talabalarning qanday vazifalarni bajarishi ko‘rsatiladi. Darsning maqsadi, o‘quv faoliyatining natijasi belgilanadi. O‘qitishning

metodlari va o‘rganish texnikasi, o‘qitish vositalari aniqlanadi. Mazkur darsni o‘tgungacha talabalar bilishi lozim bo‘lgan bilim va malakalar ko‘rsatiladi. Har bir savolning muhokamasi qanday tartibda o‘tilishi, qanday topshiriqlar berilishi ko‘rsatiladi.

Seminar (amaliyot) darsi texnologik xaritasi qo‘llash ko‘zda tutilgan metod va tayyorlangan topshiqlarga ko‘ra farqlanadi. Ma’ruza darsining texnologik xaritasida uzviy savol muhokamasidagi da’vat, tushunish, tafakkur fazalarini ajratilmaydi. Bunga hojat yo‘q. Chunki, darsning bu shaklida o‘quvchi-talabalar unga qanday tayyorgarlik ko‘rganlari, egallagan bilimlarini namoyish etishadi va muvofiq ravishda baholanishadi. O‘qituvchi esa darsni tashkil etuvchi va unda qatnashganlarni reyting mezjonlariga ko‘ra baholashni amalga oshiruvchi, qaror qabul qiluvchi hakam sifatida qatnashadi.

Ko‘rinib turibdi, bu yerda dars o‘tish uchun metod tanlash, topshiriqlar tayyorlash, ularni bajarilganini baholashning mezonlarini ishlab chiqish nihoyatda katta ahamiyatga ega.

Tanlangan metod va topshiriqlarga ko‘ra texnologik xarita ham farqlanadi. Savollar muhokamasi individual, kichik guruhlarda ishlash, ilmiy doklad, referat muhokamasi va boshqalardagi farqlar aks etishini quyidagi texnologik xaritalar orqali ko‘rish mumkin:

O‘rganilayotgan fandan seminar (amaliy) mashg‘ulotining namunaviy texnologik modeli (pasporti**)**

<table>
<tr><td>Mashg‘ulot vaqti –
2 soat</td><td colspan="2">Talabalar soni: 20–25</td></tr>
<tr><td>Mashg‘ulot shakli</td><td colspan="2">Seminar</td></tr>
<tr><td>Seminar rejasi</td><td colspan="2">Muhokama qilish ko‘zda tutilgan uzviy savollar
1-uzviy savol
2-uzviy savol va hokazo</td></tr>
<tr><td colspan="3">O‘quv mashg‘ulotining maqsadi: fan mavzusining mohiyatini anglash, mustaqil ravishda yanada chuqur o‘zlastirishga yo‘naltirish, bildirilgan fikrlarni tahlil qilish, o‘z fikrini bildirish, nazariy bilimlarini amaliyot bilan bog‘lash bilimlarini mustahkamlash, ijodiy qobiliyatlarini namoyon qilishni, muammolar yechimi variantlaridan eng maqbulini tanlash va qaror qabul qilishni shakllantirish.</td></tr>
<tr><td>Pedagogik vazifalar:

Mavzuni o‘rganishdan qo‘yilgan maqsadni amalga oshirish uchun nimalar o‘rganiladi, ya’ni qo‘yilgan har bir uzviy savolda qanday vazifa</td><td colspan="2">O‘quv faoliyati natijalari:

Davlat ta’lim standartlarida ko‘zda tutilgan natijani mo‘ljalga olgan holda mavzu bo‘yicha o‘quvchi-talabalar har bir uzviy savol bo‘yicha nimalarni bilishi</td></tr>
</table>

bajariladi, ko‘rsatiladi. Masalan, seminar darsi o‘tishda quyidagi vazifalar belgilansin deylik : • seminar o‘quv jarayonining tashkiliy shakli uning o‘quv jarayonida tutgan o‘rni haqida ma’lumot berish; • Seminar darslarining bilim zaxirasiga ta’siri va seminar mashg‘ulotining asosiy funksiyalari, o‘quv jarayonini tashkil etishning boshqa shakllaridan farqinining muhokamasi; • seminar mashg‘ulotlarini texnologik yondashuv asosida tashkil etish texnologik xarita tuzish.	ko‘rsatiladi. *Masalan ma’ruza darsi o‘tishda qo‘yilgan uzviy savollarni o‘rganish o‘rqali quyidagi natijalarga erishish ko‘zda tutiladi:* seminar mashg‘ulotinining ta’limni tashkil etishda tutgan o‘rni va roli haqida ma’lumot beradilar; • seminar mashg‘uloti mohiyati va uni talabalarning bilim zaxirasiga ta’siri hamda tashkil etish mazmunini tushuntiradilar; • seminar mashg‘ulotlarini texnologik yondashuv asosida tashkil etishni biladilar, tushuntiradilar.
Ta’lim berish usullari	Metodlarni tanlash mezonlaridan kelib chiqib, qo‘llash ko‘zda tutilgan usullar
O‘qitish shakli	Frontal, yakka tartibda, kichik guruh va guruhda ishlash
Ta’lim berish vositalari	Doska, bo‘r, tarqatma materiallar, proektor va boshqalar
O‘qitish shart-sharoiti	Guruhda ishlashga mo‘ljallangan auditoriya
Monitoring va baholash	Rejalashtirilgan nazorat turi: og‘zaki, yozma, savol-javob, tahlil natijalari va hokazo

O‘rganilayotgan fandan seminar (amaliy) mashg‘ulotining namunaviy texnologik xaritasi

Faoliyat bosqichlari va vaqti	***Faoliyat mazmuni***	
	Ta’lim beruvchi	***Ta’lim oluvchilar***
Mavzu bo‘yicha dars o‘tishga tayyorlanish	Mavzu bo‘yicha dars o‘tish metodlarini tanlaydi. Qo‘yildan maqsaddan, uni amalga oshirish uchun tanlangan metoddan kelib cniqib, topshiriqlar, ko‘rgazmali va tarqatma materiallar tayyorlaydi Dars o‘tishning texnologik xaritasini ishlab chiqadi Seminar qatnashchilarini darsni qanday metodlar asosida o‘tkazishni yana bir bor eslatadi	Seminarga tayyorlanishadi
1-bosqich Kirish *(10 daqiqa*	1.1. Yangi mavzuni o‘tgan mavzu bilan bog‘lash maqsadida o‘quvchi-talabalarga o‘tgan mashg‘ulot mavzusi yuzasidan savollar beradi yoki B/B/B jadvali to‘ldiriladi yoki rejalashtirilgan boshqa	Tinglaydilar, yozadilar Savollarga javob

atrofida)	metodlarni qo‘llashi mumkin 1.2. Berilgan javoblarni umumlashtiradi va yangi mavzu, uning maqsadi, mashg‘ulot jarayonida amalga oshirilishi zarur bo‘lgan vazifalar, ko‘zda tutilgan o‘quv natijalarini e’lon qiladi, ularning ahamiyati va dolzarbligini asoslaydi 1.3. Mavzu muhokamasiga o‘tiladi	beradilar Tinglaydilar
2. Asosiy bosqich (55-60 minut)	***Bu bosqich asosiy, maqsadni amaga oshiruvchchi bosqich hisoblanadi*** Mavzuni o‘rganishdan qo‘yilgan maqsad va vazifalar, tanlangan metodlarga ko‘ra asosiy bosqichni o‘tkazish loyihalashtiriladi va tafsiloti bayon qilinadi	.
Seminar darsini mavzuning xususiyatiga ko‘ra tanlab olingan ustun darajada bir metodga asoslanilsa: kichik guruhlarga bo‘linib ishlash, modellashtiruvchi amaliy o‘yinlar o‘tkazish, keys stadi, loyihalash, aqliy hujum, munozara, tadqiqot va boshqa metodlarga ko‘ra o‘tkazishni rejalashtirishiga qarab butun mashg‘ulot jarayoni loyihalashtiriladi. Mavzuni o‘rganish uchun ko‘zda tutilgan metodlar asosida uning jamoaviy muhokamasini tashkillashtiradi. (Bu seminarning eng ahamiyatli qismi bo‘lgani sababli, talabalar faol bilish faoliyatiga jalb qilinadilar). Masalan, mavzuning uzviy savoli muhokamasi **munozara metodini** qo‘llash orqali muhokama qilinadigan bo‘lsa, u texnologik xaritada aks ettiriladi		
	2.1. Avvalo uni qaysi usulda o‘tkazishni o‘quvchi-talabalarga e’lon qiladi. Munozara mavzusi doskaga yoziladi Munozara qatnashchilariga eslatma tarqatiladi Qo‘yilgan muammoning qamrovi dara-jasini, o‘quvchi-talabalar o‘z fikrlarini bildirish jarayonida nimalarga diqqat qaratishlari lozimligini uqtiradi 2.3. Munozara jarayonida, birinchidan, barcha o‘quvchi-talabalarni faol qatnashishlarini ta’minlash; ikkinchidan, qo‘yilgan maqsad, vazifalarni amalga oshirishni ta’minlashga harakat qiladi va uni munozarani boshqarish asosida tashkillashtiradi Zarur paytda ta’lim oluvchilarni qo‘shimcha savollar orqali mavzuning chetlab o‘tilayotgan masalalariga diqqatini tortadi	Har bir o‘quvchi-talaba munozarada faol qatnashadi Jamoaviy muhokama qiladilar, bahslashadilar, o‘z fikrlarini bildiradi O‘rtoqlari bildirgan fikrga tanqidiy yondashgan holda o‘z munosabatini bildiradi Zarur deb topsa, savollar beradi. Berilgan savol javoblariga nisbatan o‘z fikrini bildiradi
Agarda har bir uzviy savolni alohida metod tanlab o‘tkaziladigan bo‘lsa, muvofiq ravishda mashg‘ulot o‘tkazishni rejalashtirishiga qarab butun dars jarayoni loyihalashtiriladi. Masalan, 1-uzviy savol muhokamasi masala-mashq yechish orqali, 2-3-uzviy savol blits-so‘rov metodini qo‘llash orqali amalga oshiriladigan bo‘lsin, desak, u muvofiq ravishda texnologik xaritada o‘z aksini topadi		
2. Asosiy bosqich (55-60 minut)	2.1.1 O‘rganilayotgan mavzuning birinchi uzviy savoli bo‘yicha tayyorlangan masala-mashq beriladi. Ular individual bo‘lishi, kichik guruhlarda yechish yoki jamoaviy tarzda yechish mo‘ljallangan bo‘lishi mumkin. Uni yechish uchun ajratilgan vaqt va boshqa shartlar e’lon qilinadi 2.1.2. O‘quvchi-talabalarning masala-mashq	Topshiriqni oladilar. Shartlarni tinglaydilar

	yechish jarayonini kuzatib boradi 2.1.3. Ajratilgan vaqt tugagach bajarilgan ishlarni yig‘ib oladi 2.2.1. Navbatdagi uzviy savollar “Blits-so‘rov” metodi asosida muhokama qili-nishini, uning shartlarini e’lon qiladi 2.2.2. Savollar kartochkada bo‘lsa, tarqa-tiladi yoki turli qiziqarli usullar bilan o‘quvchi-talabalarning o‘zlari tanlab olishlari tashkil etiladi. Yoki og‘zaki beriladi 2.2.3. Savollarning javoblari yozilgan tarqatma materiallar tarqatiladi va hokazo	Masala-mashqni yechadilar Bajargan ishlarini topshiradilar Shartlarni tinglaydilar Savollarni oladilar, javob beradilar O‘z javoblarini to‘g‘ri javoblar bilan taqqoslaydilar.
3 - yakuniy bosqich *(10 daqiqa atrofida)*	3.1. ***Seminarni yakunlash:*** Seminar mashg‘uloti mavzusi mazmuni bo‘yicha yakun yasaydi: 3.1. Talabalar tomonidan bajarilgan, ish natijalarini baholaydi 3.2. Seminar ishtirokchilari tayyorgarligi, ularni dars paytidagi faolligi hamda seminar natijasiga umumiy baho beradi 3.3. Mavzu bo‘yicha talabalarda yuzaga kelgan savollarga javob beradi, yakunlovchi xulosa chiqaradi. Keyingi seminar mashg‘uloti mavzusi, maqsadi, qanday metod asosida dars o‘tishni e’lon qiladi 3.4. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash hamda kelgusi seminarga mustaqil tayyorlanish, ishlash uchun topshiriqlar beradi	Tinglaydilar. Savollar beradilar Vazifani yozib oladilar

Seminar darsi o‘tish uchun ko‘rgazmali, axborot beruvchi, bilimni nazorat qiluvchi tarqatma materiallar, topshiriqlar ilovalarda beriladi.

Seminar darslarining samaradorligi ta’lim oluvchilarni seminarga tayyorlanish darajasi, sifati bilan bog‘liq. Shuning uchun o‘quvchi-talabalarning tayyorgarligi muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

Agarda seminar darsini o‘rganilishi lozim bo‘lgan masalalarni o‘quvchi-talabalar tomonidan tayyorlangan ma’ruza, referat muhokamasi tarzida o‘tkazish rejalashtirilsa, ta’lim oluvchilar tomonidan tayyorlangan ma’ruza va ma’lumotlarni jamoaviy muhokama qilishni tashkil etishdan iborat bo‘ladi. Uni quyidagicha tuzish mumkin.

Ma’ruza yoki referat tayyorlash orqali muhokama qilishga qaratilgan seminar (amaliy) mashg‘ulotining namunaviy texnologik xaritasi

Faoliyat bosqichlari va vaqti	*Faoliyat mazmuni*	
	Ta’lim beruvchi	*Ta’lim oluvchilar*
Mavzu bo‘yicha dars o‘tishga tayyorlanish	Mavzu bo‘yicha seminar uchun ma’ruza yoki referat mavzulari ro‘yxatini tayyorlaydi, ularni o‘quvchi-talabalarga taklif etadi. Mavzular taqsimlangach, ularga tayyorlanishda nimalarga to‘xtash kerakligini, muhimligini tushuntiradi. Tanlangan mavzu bo‘yicha ma’ruza, referatning batafsil rejasini tuzib chiqishga yordamlashadi. Tayyorlanish uchun adabiyotlar ro‘yxatini beradi. Faqat ma’ruza qilayotgan talabalar tayyorgarligini ta’minlab qolmasdan, balki barcha seminar ishtirokchilariga: seminar mashg‘uloti mavzusiga bog‘liq bo‘lgan ma’ruza mazmunini va qo‘shimcha materiallarni o‘rganish vazifasini beradi. Muhokama qilinayotgan mavzular bo‘yicha tayyor bo‘lishlarini aytadi.	Seminarga tayyorlani-shadi.
1-bosqich. Kirish *(10 daqiqa atrofida)*	1.1. Yangi mavzuni o‘tgan mavzu bilan bog‘lash maqsadida o‘quvchi-talabalarga quyidagi rivoyatni hikoya qiladi. Kunlardan bir kun bir donishmand ko‘l bo‘yida baliq tutib o‘tirsa bir tilanchi kelib ochman, yordam ber debdi. Shunda donishmand baliq bersam, uni eysan, to‘yasan, biroz fursat o‘tgach yana qorning ochadi. Qarmoqni bersam, u sinib qolsa yana tilanchilik qilasan. Shuning uchun men senga qarmoq yasashni o‘rgataman. Bu albatta uzoq va mashaqqatli ish, lekin keyinchalik meni yordamim senga kerak bo‘lmaydi. O‘zing tanla, degan ekan. Mana bugun qarmoq yasashni o‘rganishga ahd qilgan talabalarimiz mavzu bo‘yicha ma’ruzalar tayyorlab kelishgan. Birgalikda eshitib muhokama qilamiz. 1.3. Ma’ruza uchun vaqt belgilanadi. Mavzu muhokamasiga o‘tiladi	Tinglay-dilar, yozadilar Savollarga javob beradilar Tinglay-dilar
2. Asosiy bosqich. (55-60minut)	2.1. Talabalar tayyorlagan ma’ruza taqdimotini tashkillashtiradi. Ma’ruza jaryonida o‘quv materialini mantiqiy yoritib berishini, uni bayon etish yo‘li, iqtisodiy ma’lumotlar qay tarzda berilishi, tinglovchilarning diqqat qaratishlariga e’tibor berib kuzatadi. Ma’ruza yoki yangiliklar mazmuni tinglovchilarni qiziqtirmay qo‘ygan holda, yoki aksincha, ma’ruza vaqtida ko‘tarilgan savol yuqori qiziqishni uyg‘otsa, savollar bormi, deb so‘raydi va savollarga ma’ruzachi va istagan talabalar javob berishi mumkin 2.2. Ma’ruza mazmunining jamoaviy muhokamasini tashkillashtiradi. (Bu seminarning eng ahamiyatli qismi bo‘lgani sababli, talabalar faol bilish faoliyatiga jalb qilinadilar) Bunda talabalar o‘qilgan ma’ruzaga nisbatan o‘z fikrlarini aytadilar: seminar ishtirokchilarini ma’ru-zachiga bergan savollar mazmuni bo‘yicha va o‘qituvchini talabalarga bergan savollariga (odatda, agarda ularning o‘zlari savollar bermaganlarida yoki ularning savollari mavzu mazmunini alohida tomonlariga taalluqli bo‘lsa, talabalarga savollarni tavsiya etadi) javoblari bo‘yicha talabalarga qay darajada tushunarli bo‘lganini baholaydi *Seminarni sekin-asta tashkillashtirilgan munozara shakliga*	Tinglay-dilar Savollar beradilar Muhoka-mada qat-nashadilar O‘z fikr-larini bildiradilar

	o‘tkazadi Har bir ma’ruzani muhokamasini qisqa umumlashtirish, ma’ruzaning asosiy holatlari va muhokama (munozara) natijalarini qayd etish bilan tugatadi	
3-yakuniy bosqich *(10 daqiqa atrofida)*	***Seminarni yakunlash:*** Seminar mashg‘uloti mavzusi mazmuni bo‘yicha yakun yasaydi; Muhokama jarayonida bildirilgan fikrlar, savollarga berilgan javoblarga umumiy xulosa beradi, seminarga ma’ruzachi va ishtirokchilar tayyorgarligigi, ularni munozara vaqtidagi faolligini baholaydi; kelgusida nimalarga diqqat qaratish, qaysi yo‘nalishda izlanishni davom ettirish dozimligini ko‘rsatadi keyingi seminar mashg‘uloti o‘tkazish bo‘yicha topshiriqlar beradi	Savollar beradilar, baholar, muammo bilan tani-shadilar Vazifani yozib oladilar

O‘quvchi-talabalar tomonidan qilingan ma’ruza mazmuni yuzasidan savollarni ikki guruhga bo‘lish mumkin:

- ma’ruza *mazmunini aniqlashtirishga qaratilgan savollar*: bunda ma’ruzaning ayrim bayonini savol muvofiq kengroq, chuqurroq tarzda takrorlash talab etiladi;

- *mazmunni kelgusida rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan savollar*: bu savollarga javob berish uchun ma’ruzani to‘ldirishni talab etadi, ya’ni ma’ruzachining kelgusida o‘z ustida ishlashi yo‘nalishi belgilanishi mumkin.

O‘qituvchi ma’ruzachining savollarga javob berishida avvalo birinchi guruh savollar muhokamasini, so‘ngra jamoaviy ikkinchi guruh savollarga javoblar topishni tashkil etadi va boshqaradi.

Seminarda o‘qituvchi ma’ruzalar bo‘icha muhokamani tashkil etar ekan, quyidagilarga e’tibor berishi lozim:

- berilgan savollarga mustaqil ravishda fikr bildirish va javoblarni asoslab berishlarini ta’minlash;
- javoblarni tushunarli bo‘lishini ta’minlash;
- zarur bo‘lganda aniqlik kiritish, to‘ldirish, o‘zgartirishlarni tushunishni ta’minlash;

O‘qituvchi seminarni samarali o‘tkazish uchun quyidagi omillarni hisobga olishi zarur:

- o‘qituvchining o‘zi ham ma’ruza mavzulari bo‘yicha tayyorgarlik ko‘rishi, savol va javob texnikasiga ega bo‘lishi;
- guruhning seminar darsiga puxta tayyorlanishini tashkil etish;
- o‘quv guruhining holati, uning motivatsiyasi, faoliyatini ma’ruzani diqqat bilan eshitish va mushohada qilishga qaratish;

- o‘quy jarayonini tashkil etish shart-sharoiti, texnik jihozlanganligi, texnik vositalardan foydalanishni tashkil etish.

Seminar darsi o‘quvchi-talabalar tomonidan tayyorlangan ma’ruzalar muhokamasi asosida o‘tkazilar ekan, guruhning tayyorgarligi katta ahamiyatga ega. Seminar mashg‘ulotida ular faol bo‘lishlari, ma’ruzachiga savollar berishlari va jamoaviy muhokamada ishtirok etishlari zarur. Seminarda har bir o‘quvchi-talaba ma’ruza qilishga tayyor bo‘lishi kerak. Talabaning chiqishi erkin, ishonchli va asosli bo‘lishi lozim. Shuningdek, ma’ruzachining ma’ruzasida bayon qilinganlarga o‘zining shaxsiy munosabatini bildirishi, uni asoslab berishi va aytilganlardan to‘g‘ri xulosalar shakllantirishi lozim.

Shuning uchun o‘qituvchi ularni qattiq tayyorgarlik ko‘rishga da’vat etishi, buning uchun reja tuzish (oddiy va batafsil), ko‘chirmalar, tezislar va konspektlardan keng foydalanganlar maqbul ekanliklarini uqtirishi lozim.

Ta’lim oluvchilar seminar bo‘lishi arafasida ma’ruza yozuvlarini va mavzu bo‘yicha tayyorlangan seminar konspektini yana bir marta diqqat bilan o‘qish hamda og‘zaki chiqishlarini puxta o‘ylab ko‘rishlari foydadan xoli emas.

Seminar mashg‘ulotida ishtirok etish – bu ilmiy tavsifdagi ma’ruza eshitish, ma’ruza davomida diqqatga sazovor fikrlarni yozib borish va nihoyat savol-javob bilan yakunlanadi. Ma’ruzachiga beriladigan savollarni shakllantirishda nafaqat ma’ruzani diqqat bilan eshitish, balki avvaldan puxta tayyorgarlik ko‘rgani muhim rol o‘ynaydi.

Shunday qilib, amaliy va seminar mashg‘ulotlarini sifatli tashkil etish bo‘lg‘usi iqtisodchi-pedagoglarning fan bo‘yicha bilimlarini chuqurlashtirish, muayyan masala bo‘yicha shaxsiy nuqtai nazarini shakllantirish va o‘z fikrini himoya qilish, malakali maxsus fanlar o‘qituvchisi bo‘lish kabi ijobiy hislatlarni rivojlantiradi.

Xorijlik va o‘zbekistonlik pedagog-olimlarning fikrlari va amaliyotchi-o‘qituvchilarning tajribalariga asoslangan holda o‘qitishga tabaqalashtirilgan yondashish masalasi ham ko‘tarilgan. Unda darajali tabaqalashtirishning quyidagi turlarini amalga oshirish tavsiya etiladi:

1. Guruhdagi barcha o‘quvchilar ikki guruhga: a) bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar; b) o‘rtacha va yaxshi o‘zlashtiruvchilardan tashkil etilgan guruh;

2. Barcha o‘quvchilar ikki guruhga:

a) iqtidorli o‘quvchi-talabalar;

b) o‘rtacha va bo‘sh o‘zlashtiruvchilardan tashkil topgan guruh;

3. Ta’lim oluvchilardan tashkil etiladigan guruhlar soni ularning tashxis asosida aniqlangan qobiliyatlariga qarab uch, to‘rt, beshga bo‘lishi mumkin;

4. Ta’lim oluvchilar bilan individual ishlashga qaratilgan guruh bo‘lib, bunda o‘qituvchi alohida rejalar asosida har bir o‘quvchi-talaba bilan mashg‘ulot olib boradi;

Tabaqalashtirilgan o‘qitish an’anaviy ta’limdan bir qator jihatlariga ko‘ra farqlanadi. Xususan: tabaqalashtirilgan o‘qitish murakkabroq o‘quv dasturi va uning talablariga muvofiq olib boriladi; muayyan predmet yoki kasb-hunar asoslarining egallanishiga asosiy e’tibor qaratiladi va shu maqsadda yaratiladi. Tabaqalashtirilgan o‘qitishning yo‘nalish xususiyatidan kelib chiqib, o‘quv muassasi yoki ma’lum guruh xonasi jihozlanadi, o‘quv qurollari bilan ta’minlanadi, o‘quv-metodik majmualar: darslik, qo‘llanma yoki ishlanmalarning yetarli darajada bo‘lishiga ahamiyat beriladi, texnika, qurilish kabi yo‘nalishlarga asos-langan tabaqalashtirilgan o‘qitishni yo‘lga qo‘yishda ishlab chiqarish korxonalari bilan ta’lim muassasasi o‘rtasida ijodiy hamkorlik muhim omil hisoblanadi. Hozirda mashg‘ulotda past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar bilan ishlashga alohida e’tibor beriladi. Bunda ularning o‘zlashtira olmayotganiga bilimi va ko‘nikmalaridagi kamchiliklar sabab bo‘lishi mumkin. Avvalo ushbu sababni aniqlash kerak, ko‘pincha bunday sabablar: o‘quvchining material ustida mustaqil ishlashni bilmasligi, o‘z kuchiga ishonmasligi tufayli o‘qishga bo‘lgan qiziqishining so‘nishi, boshqa faoliyat turiga haddan tashqari berilishi, kasalligi, dangasaligi kabilar bo‘lishi mumkin. Shundan keyin o‘quvchilarga bu sabablarni yo‘qotishga yordam beradigan tarbiyaviy ta’sir choralari ko‘riladi.

Past o‘zlashtiruvchi o‘quvchi-talabalar bilan ishlashda individual topshiriqlardan, ularga qo‘shimcha mashg‘ulot tarzida yordam ko‘rsatishdan foydalaniladi. Bunda o‘quv maqsadlariga erisha olmagan o‘quvchi-talabalarni alohida guruhga ajratib, aynan shu to‘la o‘zlashtirmagan o‘quv maqsadlarini amalga oshirish bo‘yicha qo‘shimcha ishlash mustaqil ish salmog‘ini oshirishga alohida e’tibor berish lozim. Seminar darsi o‘tish uchun metodlarni tanlash, uni qo‘llash va texnologik xaritada aks ettirish keyingi boblarda metodlar va ularni qo‘llashni ko‘rib chiqqanimizdan so‘ng yanada tushunarli bo‘ladi. Ular tashkiliy jihatdan ham farq qiladi, muvofiq ravishda

tayyorlanadigan texnologik xaritalar ham farqlanadi. Muhimi o‘quvchi-talabalarni:

- darsni tanqidiy fikrlash asosida o‘zlashtirish darajasini va sifatini yaxshilashga, o‘z ustilarida mustaqil ishlash, izlanishga munosabatlarini shakllantirish;
- o‘zlashtirish darajalari to‘g‘risida ma’lumot olish, o‘rganib borish imkoniyatini yaratish;
- o‘rganishda harakatchanlikni oshirish va o‘z bilimini oshirish majburiyatini his etishlariga sharoit yaratish;
- mutaxassis bo‘lish uchun harakat qilishni kuchaytirishdir.

Takrorlash va munozara uchun savollar

1. Amaliy mashg‘ulotlarini o‘quv jarayonini tashkil etishda qanday o‘rin tutishi va ahamiyatini ko‘rsata olasizmi?
2. Seminar darsi amaliy mashg‘ulotdan qaysi jihatlari bilan farqlanadi?
3. Seminar darsi qanday funksiyalarni bajaradi?
4. Nima sababdan olingan bilimni vaqti-vaqti bilan takrorlab turish lozim?
5. Ma’ruza va amaliy, seminar mashg‘ulotlarining o‘ziga xos jihatlarini ko‘rsating.
6. Seminar darsiga tayyorlanishda adabiyotlar va boshqa ma’lumotlar qanday tanlanadi?
7. Seminar darsi muvaffaqiyatli o‘tishi uchun, sizningcha, nima qilish kerak?
8. Seminar darsi o‘tsangiz, qanday maqsadlarni ko‘zlagan bo‘lar edingiz?
9. Seminar darsini texnologik yondashuv nuqtai nazaridan loyihasini ishlab chiqa olasizmi?
10. Sizningcha, seminar darsining qanlay afzalliklari bor?

VII BOB. METODLAR VA KO‘RGAZMALILIKNI FAN VA UNING MAVZULARIGA MOSLASHTIRISH

.

Iqtisodchi-pedagoglar uchun maxsus fanlarni o’qitish metodikasi – bu iqtisodiy fanlardan dars o‘tishni o‘rganish metodikasi bo‘lib, iqtisodiy fanlarni talabalarning chuqur o‘rganishlari uchun fanning va mavzuning maqsadidan, xususiyatlaridan kelib chiqqan holda qanday metodlar va vositalarni tanlash, o‘tilayotgan mavzuga moslashtirish, muvofiq ravishda topshiriqlar ishlab chiqish va dars jarayonida qo‘llash yo‘llarini o‘rganish, bo‘lg‘usi iqtisodchi-pedagoglar ongiga yetkazishni ko‘zda tutadi. Navbatdagi bobda ana masalalarni o‘rganamiz.

7.1. Iqtisodiy fanlarning fanlar tizimida tutgan o‘rni, umumiy xususiyatlari va bir-biridan farqlanuvchi jihatlari

Hozirgi kunda mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy raqobat - fan, texnika va texnologiya sohasidagi raqobatga aylandi. Chunki, iqtisodiyotning globallashuvi **birinchidan,** arzon moddiy va mehnat resurslaridan foydalanishning afzalligiga asoslangan raqobatni texnologiyaning ustunligiga asoslangan raqobat bilan almashinishiga;

Ikkinchidan, ishlab chiqarishni barqaror vertikal tarzda tashkil etishda faol ravishda moslashuvchan ixtisoslashuvga va kichik korxonalar zanjiri tarzida tashkil etilishiga olib keladi.

Uchinchidan, fan-texnika va axborotdagi revolyutsiya inson va uning ilmiy-ma’rifiy potensialini ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning hal qiluvchi omiliga aylantirdi.

Demak, raqobat intellektual mohiyat kasb etib, ta’lim sohasidagi raqobatga aylandi, desak xato bo‘lmaydi. Bu esa raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashni mamlakat uchun asosiy maqsadga aylantiradi va muvofiq ravishda ta’lim-tarbiya berish, ularni mustaqil fikrlash, taqqoslash, baholash, ijodkorlikka yo‘naltirishni talab qiladi. Bu vazifalar esa ko‘p jihatdan fanni o‘rganish metodlarini qo‘llash, buning uchun esa mavzuning xususiyatlariga mos keluvchi, o‘quvchi-talabalarni faolligini ta’minlovchi metodlarni tanlash va moslashtirish hamda dars jarayonida qo‘llash muhim ahamiyatga ega.

Iqtisodiy fanlar iqtisodiyotning taraqqiyot qonunlari, turli jabhalarida xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini amalda oshirish

jarayonini, uning mazmun-mohiyati, to‘plangan tajribalar asosida sir-asrorlarini organishga, tahlil qilish asosida qaror qabul qilishga o‘rgatuvchi, iqtisodiy tafakkurni shakllantirish va rivojlanishiga xizmat qiluvchi fanlardir.

Iqtisodiy fanlar shakllanishi jihatidan tabiy fanlardan anchagina yosh bo‘lsada, ya’ni tovar ishlab chiqarishni taraqqiyoti tufayli vujudga kelgan bo‘lsada, hozirda fanlar tizimida o‘ziga xos munosib o‘rin tutibgina qolmay, boshqa fanlarning rivojlanishi, yangi fanlarning vujudga kelishiga asos, turtki bo‘lmoqda. Ularning jamiyat hayotida va taraqqiyotida naqadar muhim ahamiyatga ega ekanligini e’tirof etib, 1969 yildan boshlab iqtisodiyot bo‘yicha **Nobel mukofoti** beriladigan bo‘ldi.

Iqtisodiy fanlar faqatgina nazariy emas, amaliy fanlar hamdir. Ular bevosita amaliyotga tayanadi, aniq ma’lumotlar, dalillar, raqamlar hisob-kitoblarga asoslanadi. Shuning uchun iqtisodiy bilimlarni o‘rganish, iqtisodiy tafakkurni shakllantirish, real iqtisodiy jarayonlar asosida amalga oshiriladi.

Iqtisodiyotni o‘rgatuvchi, iqtisodiy bilim beruvchi fanlar xilma xil. Ular bir tomondan umumiy jihatlarga ega bo‘lsa, ikkinchi tomondan o‘ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ularning **umumiy jihatlariga** quyidagilarni kiritish mumkin:

• Barcha iqtisodiy fanlar iqtisodiy qonunlar va ularning amal qilishiga tayanadi;

• Iqtisodiyotning bosh muammosi resurslarning cheklanganligi sharoitida cheksiz ehtiyojlarni qondirish muammosi barcha iqtisodiy fanlar uchun umumiy;

• Barcha iqtisodiy fanlar odamlarning iqtisodiy fikrlash tarziga asoslangan holda qaror qabul qilish va ilmiy taxmin qilishga o‘rgatadi;

• Barcha iqtisodiy fanlar oxir oqibat iqtisodiy samaradorlikni oshirishga qaratilgan;

• Barcha iqtisodiy fanlar iqtisodiy ayniqsa, pul munosabatlari, mablag‘lar harakati (ularning farqlariga diqqat qaratgan holda) va uning natijasiga alohida diqqat qaratadi;

• Barcha iqtisodiy fanlar olingan iqtisodiy axborotlar, faktlar, raqamlar, statistik ma’lumotlar asosida u yoki bu darajada taqqoslash, tahlil qilish, tanlash, baholash, xulosa chiqarishga o‘rgatadi.

Iqtisodiy fikrlash, tafakkurni shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan.

Shu bilan birga iqtisodiy fanlar bir-biridan o‘ziga xos xususiyatlari bilan farqlanadi:

- iqtisodiy fanlar predmeti, maqsadi, vazifalari bilan bir-biridan farq qiladi;
- muvofiq ravishda fanning predmetini o‘rganish metodlarining o‘ziga xosligi;
- fanning obyekti va subyekti hamda ularning o‘ziga xos xususiyatlarining mavjudligi va boshqalar.

Iqtisodiy fanlarni o‘rganish obyektining miqyosi, iqtisodiy bilimlarni qamrab olishi jihatidan shartli ravishda uch guruhga bo‘lish mumkin:

1. Umumiqtisodiy fanlar. Ular iqtisodiyotni, unga xos bo‘lgan iqtisodiy qonunlar, tamoyillarning amal qilishini yaxlit holda o‘rganadi. Bularga, eng avvalo, iqtisodiyot nazariyasi fani kiradi. U barcha iqtisodiy fanlarga fundamental asos bo‘lib xizmat qiladi. Iqtisodiyotning qonun-qoidalarini bilish, shu fanni o‘rganishdan boshlanadi.

O‘rta maxsus o‘quv yurtlarida “Iqtisodiy bilim asoslari”, “Iqtisodiyot asoslari”, oliy o‘quv yurtlarida esa “Iqtisodiyot nazariyasi” o‘rganiladi.

2. Xususiy iqtisodiy fanlar. Bular mikroiqtisodiyot, makroiqtisodiyot, milliy iqtisodiyot, ijtimoiy iqtisodiyot, mehnat iqtisodiyoti va boshqalar bo‘lib, ular iqtisodiyotning u yoki bu sohasini o‘rganadi.

3. Funksional iqtisodiy fanlar. Bu fanlarga buxgalteriya hisobi, moliya, audit, moliyaviy tahlil, soliq, sug‘urta, menejment, bank ishi va boshqalar kiradi. Odatda, ular ko‘proq mutaxassislik fanlari sifatida o‘rganiladi.

Shunga ko‘ra, har bir iqtisodiy fan o‘z predmetini umumfalsafiy, umumiqtisodiy hamda boshqa alohida xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, shu fanga xos bo‘lgan metodlar yordamida o‘rganadi. Fanni o‘rganish jarayonida esa nafaqat fanning predmetini o‘rganishda qo‘llaniladigan metodlar, balki fanni o‘rgatuvchi metodlar ham katta ahamiyatga ega. Chunki o‘qitish jarayonida fanni talabalar ongiga yetkazish, ularni bilim olishga chorlash, qiziqtirish, o‘z ustida ishlashga yo‘naltirish ko‘p jihatdan unda qo‘llaniladigan metodlarga bog‘liq.

Masalan, Moliya fani o‘ziga xos jihatlari bilan boshqa iqtisodiy fanlardan ajralib turadi. Moliya, avvalo – bu doimo pul munosabatlari. Lekin har qanday pul munosabatlari bu moliya emas. Moliya shunday

jihatlari bilan ajralib turadiki, bu uning boshqa pul munosabatlaridan xatosiz ajratib olishni ta’minlaydi. Bu birinchidan, moliyaviy munosabatlar doimo pul munosabatlarini tartibga soluvchi huquqiy, rasmiy hujjatlar asosida olib boriladi. Bundan kelib chiqib, uning asosiy funksiyalari – taqsimlash, nazorat qilish yuzaga keladi.

Nomoliyaviy munosabatlar bunday emas. Bunday munosabatlarning subyektlari ayirboshlashning nisbati, shartlarini o‘zlari belgilaydilar. Masalan, oldi-sotdi, qarz olish va boshqalar.

Ikkinchidan, uning aniq pul shaklida bo‘lishi hamda pul munosabatlarini mablag‘larni real harakatini (naqd pul yoki naqd bo‘lmagan pul o‘tkazmalari, elektron pullar) ifodalashi bilan ajralib turadi. Bunda korxonaning foydasini taqsimlash, fondlar tashkil etish, byudjetga soliq va boshqa to‘lovlar to‘lash va boshqalarda, ya’ni barcha moliyaviy operatsiyalarda pul mablag‘lari harakati yuz beradi.

Uchinchidan, moliyaviy munosabatlarda pul harakati mablag‘ sarfi avvaldan aniq maqsadga qaratiladi hamda uning miqdori rasmiy ravishda belgilanadi.

To‘rtinchidan, moliyaviy munosabatlarda pul harakati bir tomonga qo‘yilgan maqsadni amalga oshirishga qaratilgan. U boshlang‘ich punktga qaytmaydi. Masalan, byudjetdan sarflangan mablag‘lar, korxona fondi xarajatlari. Aksincha, pul munosabatlariga qurilgan kredit munosabatlarida esa aksincha pul boshlang‘ich punktga qaytadi (to‘lovi bilan).

Demak, talabalarga moliyaning mazmun-mohiyatini tushuntirishda ana shu jihatlarga ahamiyat berishimiz lozim.

Dars o‘tish o‘qituvchidan fanni puxta bilishnigina emas, balki o‘z bilimini ustalik bilan talabalar ongiga yetkazishni ham talab qiladi. Talabalar fanni puxta o‘zlashtirishlari uchun uni o‘rganishda qo‘llaniladigan metodlar katta ahamiyatga ega. Shu sababli iqtisodchi–pedagoglar iqtisodiy fanlarni o‘rganish metodlarini puxta egallashlari, ularni mahorat bilan qo‘llay bilishlari kerak. Tabiiy, iqtisodiy fanlarni o‘rganishda universal metodlardan keng foydalaniladi. Shu bilan birga iqtisodiy fanlarni o‘ziga xos jihatlari ularni hisobga olish imkoniyati keng metodlarni qo‘llash zaruriyatini tug‘diradi. Iqtisodiy fanlarning boshqa fanlardan ajralib turadigan tomoni shundaki, u ma’lumotlar, raqamlar asosidagi dalillar, faktlar bilan ish ko‘radi. Bu esa ular bilan ishlay bilish, ularni yig‘ish, hisob-kitob, tahlil qilish va xulosa chiqarishni bilish talab qilinadi. Demak, o‘quvchi-talabalarda mustaqil

fikrlash, taqqoslash, qaror qabul qilish, o‘z ustida mustaqil ishlash, vaziyatni baholay olish, faoliyat jarayonini loyihalash (rejalashtirish) kabi bilim, ko‘nikma, malakani hosil qilish, shakllantirishimiz zarur.

Bu vazifani qanday bajarilishi aynan dars o‘tish metodlarini tanlash va qo‘llay bilish bilan bog‘liq. Darsda o‘quvchi-talabalarning faol qatnashishlariga keng imkon beruvchi, ularni o‘ylashga, taqqoslash, xulosa chiqarish, tanlash, maqbul qaror qabul qilishga undovchi, mustaqil fikr yuritish va o‘z fikrini asoslashga, hamkorlikda ishlashga o‘rgatuvchi metodlarni qo‘llash qo‘yilgan maqsadni amalga oshirishga olib keladi. Iqtisodiy fanlarni o‘rganishda umumiy metodlar shu bilan birga aynan shu fan, mavzuning xususiyatiga mos metodlar tanlanadi.

7.2. Iqtisodiy fanlarning o‘zaro bog‘liqligi, o‘ziga xos xususiyatlari va ularni metodlarni tanlashda hisobga olish

Avvalgi boblarda ko‘rib o‘tdik, fanni va uning mavzularini o‘rganish uchun metodlar tanlashda uning xususiyatlari alohida ahamiyatga ega. Fanlarning o‘ziga xos xususiyatlarini ularni o‘qitish va o‘rganishda hisobga olish zarurligini rivojlangan mamlakatlarning pedagog olimlari ham alohida ta’kidlashadi.[109] Fanning xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan:

* o‘qitish va o‘rganish jarayonida yetkazib beriladigan kontekstni[110] qamrab olgan masalalar;

* ayniqsa ilm-fan sohalarida juda ham muhim bo‘lgan, o‘qitish va o‘rganish usullari;

* mazkur ilm-fandagi o‘qitish va o‘rganishga bog‘liq shu kundagi boshqa masalalarni tahlil qilishga diqqat qaratishadi.

Juda ko‘p pedagoglar fanni o‘rganishda uning xususiyatlarini hisobga olishni predmetning maqsadi va uni o‘rganishga motivatsiyadan keyin uchinchi o‘ringa qo‘yishadi. Bunda iqtisodiy fanlarni qaysi guruhga taalluqligi ham muhim ahamiyatga ega.

Magistratura mutaxassisligini bitirib, kelgusida iqtisodchi-pedagoglikni tanlagan talabalar “Buxgalteriya hisobi”, “Audit”, “Iqtisodiy tahlil”, “Moliya”, “Davlat byudjeti”, “Korporativ moliya”,

[109] A Handbook for Teaching and Learning in Higher Education. Enhancing Academic Practice. Third edition. Edited by Heather Fry, Steve Ketteridge, Stephanie Marshall. First edition.This edition published 2009 by Routledge 270 Madison Ave, New York, NY 10016 Simultaneously published in the UK by Routledge 2 Park Square, Milton Park, Abingdon, Oxon OX14 4RN. P. 226

[110] Nutq yoki asarning tugal fikr anglatuvchi parchasi. Bu erda fan va uni o‘rganish bilan bog’liq masalalar ham ko‘zda tutiladi.

“Bank ishi”, “Banklarda buxgalteriya hisobi va audit”, “Moliyaviy menejment”, “Investitsiyalarni boshqarish”, “Pensiya ishi” va boshqa iqtisodiy fanlardan dars berishadi.

1. Bu fanlarda nazariya bilan amaliyot chambarchas bog‘langan bo‘lib, barcha amaliy faoliyat qabul qilingan qonun va huquqiy-me’yoriy hujjatlar doirasida yuritiladi. Masalan, fondlar mablag‘lari aniq belgilangan maqsad va ko‘rsatilgan miqdor doirasida sarflanadi va hujjatlashtiriladi. Bu ularni boshqa fanlardan ajralib turuvchi xususiyatiga diqqat qaratishni talab etadi. Bu xo‘jalik yurituvchi subyektlarning, tashkilot, muassasalarning barcha muomalalarini hujjatlarda aks ettirishdir. Aynan ana shu hujjatlashtirish orqali uzluksiz hisobga olish ta’minlanadi. Barcha xo‘jalik yurituvchi subyektlar sodir etgan xo‘jalik muomalalari, ular orasidagi hamda yuridik va jismoniy shaxslar bilan olib boriladigan hisob-kitoblar, ya’ni axborotlar hujjatlarda aks etadi. Buxgalteriya hisobida hujjat xo‘jalik muomalasi to‘g‘risidagi yozma guvohlik bo‘lib, u buxgalteriya hisobi ma’lumotlariga yuridik kuch bag‘ishlaydi.

2. Bu fanlarning muhim umumiy tomoni ular pul mablag‘lari, ularning manbalari, pul oqimlari harakati: daromad sifatida topilishi, taqsimlanishi, ishlatilisi bilan bog‘liq. Bu esa pul oqimi hapakatini uzluksiz olib borish, rasmiylashtirish, kuzatisnni talab qiladi.

Shuning uchun, **birinchidan,** hujjatlashtirish buxgalteriya hisobi fanining predmetini o‘rganish metodlari orasida asosiy metod sifatida ko‘riladi. Boshqa metodlar ham hujjatlashtirishga tayanadi.

Ikkinchidan, hujjatlashtirish uzluksiz olib boriladi. Shu asosida xo‘jalik muomalalari ishonchliligi ta’minlanadi.

Uchinchidan, hujjatlar yuridik kuchga ega bo‘lar ekan, demak ular belgilangan ma’lum qonun-qoidalar asosida yuritilishini bildiradi. O‘zbekistonda buxgalteriya hisobini yuritishni tartibga soluvchi huquqiy, me’yoriy hujjatlar to‘rt darajali tizim orqali amalga oshiriladi:

“Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi qonun hamda qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi organlarning boshqa me’yoriy hujjatlari;

I. Buxgalteriya hisobini me’yoriy tartibga solish funksiyasi yuklatilgan O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi va boshqa organlari tomonidan tasdiqlangan buxgalteriya hisobining milliy standartlari;

II. Moliya vazirligi va boshqa organlar tomonidan amaldagi qonunlarga mos ravishda va tegishli obyektlarning hisobini tashkil

qilishga doir metodik ko‘rsatmalari va tavsiyanomalari, yo‘riqnomalari;

IV. Korxonaga bevosita tegishli operatsiyalar va faoliyatga tegishli hisobga doir ishchi yo‘riqnomalar va ko‘rsatmalar, ya’ni korxonalar hisob siyosatini aniqlaydigan hujjatlar. Korxonaning o‘zini buxgalteriya hisobini olib borishdagi birlamchi, ishchi hujjatlari.

Shunday hujjatlashtirish, bank, moliya va boshqa muassasa, tashkilotlariga ham tegishli.

Nazariya bilan amaliyot birligi buxgalteriya hisobichalik boshqa hech bir iqtisodiy fanlarda bunchalik bir butun tarzda ifodalanmaydi. Lekin audit, moliya, bank ishi, banklarda buxgalteriya hisobi va audit va boshqa fanlarida ham ana shu birlikni kuzatish mumkin. Bu o‘z navbatida har bir yangi o‘zgarishni dars jarayonida e’lon qilish muvofiq ravishda topshiriqlar va ularni bajarishga o‘zgartirish kiritishni talab qiladi. Chunki, qabul qilingan har bir qonun, farmon natijasida xo‘jalik yuritish faoliyatida nimagadir ruxsat beriladi yoki nimadandir cheklanadi. Demak, talabalar undan xabardor bo‘lishlari, kelajakda qanday o‘zgarishlar sodir bo‘lishini anglab yetishlari zarur.

3. Bu fanlarning amaliyot hamda pul mablag‘lari harakati bilan bog‘liqligi yana bir umumiy xususiyat – hammasi uchun hisob-kitob qilishni zarurligida ifodalanadi.

Ularning bu faoliyati qabul qilingan qonunlar, me’yoriy-huquqiy hujjatlar asosida olib boriladi. Mamlakatimizda buxgalteriya hisobi va hisobotni tashkil etish hamda yuritish O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida” gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibini hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risida Nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori, Buxgalteriya hisobining milliy standartlari (BXMS) va “Xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy-xo‘jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi schyotlarining rejasi”, asosida amalga oshiradi. Ushbu me’yoriy hujjatlar buxgalteriya hisobi va hisobotni tashkil qilish hamda olib borishning umumiy tartiblarini belgilaydi.

Ayniqsa, “Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliya xo‘jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi schyotlarining rejasi va uni qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnoma” nomli 21-sonli “Buxgalteriya hisobi milliy standartlari”ning ishlab chiqilishi, buxgalteriya hisobi sohasida olib borilayotgan islohotlarning asosiy bosqichlaridan biri bo‘ldi. 2000-yil 30 martda Moliya vazirligining 37- sonli qarori bilan tasdiqlangan va 1 iyun

2000-yili Moliya vazirligida 430 - son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan bu standart buxgalteriya hisobining xalqaro standartlariga mos ravishda ishlab chiqilgan.

Respublikamizda buxgalteriya hisobini yuritish, hujjatlarni rasmiylashtirish davlat tomonidan o‘rnatilgan buxgalteriya qoidalari asosida yuritiladi.

Buxgalteriya hisobi va hisobotga doir qonun hujjatlari buxgalteriya hisobining yagona huquqiy va metodologik asoslarini, uning tashkiliy qismlarini, buxgalteriya faoliyati va moliyaviy hisobot tuzishning asosiy yo‘nalishlarini, shuningdek, xo‘jalik yurituvchi subyektlar buxgalteriya hisobini yuritish va hisobot taqdim qilishining asosini belgilaydi.

Buxgalteriya hisobi va hisobotini tartibga solish, buxgalteriya hisobi standartlarini ishlab chiqish va tasdiqlash O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi zimmasiga yuklangan.

Belgilangan qonun - qoidalarsiz xo‘jalik faoliyatini nazorat qilishni amalga oshirib bo‘lmaydi.

Demak, buxgalteriya hisobining yana bir nihoyatda muhim xususiyati hisob yuritishni qabul qilingan qonun-qoidalar asosida olib borilishidir.

Ko‘rinib turibdiki, o‘qituvchi dars berish, o‘qitish metodlarini tanlar ekan, albatta, ana shu xususiyatlarni hisobga olishi lozim.

Buxgalteriya hisobi hamma korxonalar uchun umumiy bo‘lgan me’yoriy hujjatlar bilan tartibga solinadi. Ammo, har bir xo‘jalik subyektlari faqat o‘ziga xos bo‘lgan, faoliyat shartlari, maqsad va vazifalarini inobatga olib, hisob siyosatini shakllantirishi mumkin. Bitta korxonaga ma’qul va foydali bo‘lgan tavsiyalar, boshqa korxonalar uchun aksincha bo‘lishi mumkin.

Bu fikrlar bank, moliya tashkilotlari faoliyati uchun ham tegishli, ular faoliyati ham qabul qilingan qonun, me’yoriy hujjatlar, muomalalarni ular asosida olib borish, rasmiylashtirish asosiy rol o‘ynaydi.

Ularning shakl-shamoyili qanday, qanday qoidalar asosida rasmiylashtiriladi, bularni og‘zaki aytib tushuntirib bo‘lmaydi. Ayniqsa bank va kassa-pul hujjatlari - tuzatishlar va o‘chirib yozishlarga umuman yo‘l qo‘yilmaydigan hujjatlar hisoblanadi. Demak, qo‘yilgan maqsadga yetishning samarali yo‘li tarqatma materiallar yordamida mashq qilish. Masalan, kundalik hayotimizda eng ko‘p uchraydigan rasmiylashtiriladigan hujjat, to‘lov cheki.



Uni to‘ldirishni o‘rganish uchun ta’lim oluvchilarga tarqatamiz, to‘ldirishni ko‘rsatamiz. Vaqt belgilaymiz. So‘ngra to‘g‘ri rasmiylash-tirilgan chek ko‘rsatilgan tarqqatma materialni tarqatamiz.

Hamma o‘zi to‘ldirgan hujjat bilan solishtirish va xatosini to‘g‘rilashni taklif etiladi.

Hujjatlashtirishni, ularni rasmiylashtirishni tarqatma materialsiz, mashq qilmay o‘rganib bo‘lmaydi.

Iqtisodiy fanlar ayniqsa Buxgalteriya hisobi, Audit, Banklarda buxgalteriya hisobi va audit fanlarining xususiyatlariga ko‘ra ularni o‘rganishda ko‘rgazmali materiallardan hamda axborot va topshiriq tarzidagi tarqatma materiallardan keng ravishda foydalanish talab etiladi. Ayniqsa, hujjatlashtirishni ularsiz og‘zaki tushuntirish yaxshi natija bermaydi. Har bir darsda qanday hujjat, qay tarzda to‘ldiriladi, albatta talabalar bilan ko‘rib chiqish zarur.

Shunday qilib, boshqa hech bir fanni o‘rganish mana shu fanlarchalik namoyish qilinuvchi, ko‘rgazmali material va tarqatma materiallarga muhtoj emas. **Namoyish qilinuvchi, ko‘rgazmali material va tarqatma materiallarda aks etgan hujjatlar, hisob-kitob shakllari va ularni shaxsan har bir o‘quvchi-talaba o‘zi to‘ldirmay, o‘zi sinab ko‘rmay, o‘zi hisob-kitob qilmay bu fanlarni o‘rganib bo‘lmaydi!**

Demak, har bir dars uchun zarur ko‘rgazmali va tarqatma material tayyorlash kerak, masala va mashqlardan keng foydalanishi zarur. Shu bilan birga hisob-kitob yuritish va rasmiylashtirish qabul qilingan qonun-qoidalar asosida olib borilishi kerak.

Ko‘rinib turibdiki, o‘qituvchi dars berish, o‘qitish metodlarini tanlar ekan, albatta, ana shu xususiyatlarni hisobga olishi lozim.

Hamma iqtisodiy fanlarni o‘rganishda masala-mashq yechish markaziy o‘rinda turadi, dedik. Demak, barcha ixtisoslik fanlarida har bir mavzu uchun masala-mashq ishlab chiqish zarur. Agarda masala

tuzish har bir iqtisodiy fanning o‘ziga xos xususiyatiga ko‘ra individual tarzda ishlab chiqilsa, mashqlarni mavzuning maqsadi, mazmuniga, xususiyatiga ko‘ra moslashtiramiz. Masalan, bildirilgan fikrni to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini asoslashga qaratilgan mashqlar mutaxassislik fanlari: buxgalteriya hisobi, audit, soliq, soliqqa tortish, bank ishi fanlarining xususiyatlariga juda mos keladi. Undan tashqari bu mashq bitta partadagi juftlikda olib borilishi unga musobaqa maqomini beradi. Bunda ayniqsa aytilgan fikrni qabul qilingan qonun, farmon, qaror, yo‘riqnomalar bilan asoslash muhim ahamiyatga ega. Aynan bu fanlarning barcha mavzularini o‘rganishda ulardan foydalanish mumkin. Aytaylik, bank ishi yo‘nalishi uchun uni mana bunday tashkil qilish mumkin:

Bank ishi yo‘nalishida “**To‘g‘ri/noto‘g‘ri”** mashqini qo‘llash. U “juftlik asosidagi kichik guruh” da olib boriladi.

Banklarda kreditlash masalalarini o‘rganayapmiz deylik, u holda bu mashq quyidagicha bo‘lishi mumkin. O‘qituvchi birinchi talabaga o‘tilayotgan mavzu bo‘yicha fikr bildirishni, u mavzuga taalluqli, aniq, tushunarli bo‘lishi kerakligini uqtiradi. Ikkinchi talaba o‘rtog‘i tomonidan bidlirilgan fikrga munosabatim bildirib, fikrni to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini aytib, uni asoslab berishi kerak.

Mashqni bajarish jarayoni:

1-o‘quvchi-talaba tomonidan bildirilgan fikr:

Mijozning kreditga layoqatliligi deganda qarz oluvchining olgan qarzini (asosiy qarzi va uning foizini) to‘la va o‘z vaqtida qaytara olish qobiliyatini tushunamiz.

2-o‘quvchi-talabaning javobi:

To‘g‘ri. Jahon va mamlakatimiz bank amaliyotida mijozning kreditga layoqatliligini belgilovchi quyidagi mezonlar o‘rnatilgan:

• mijoz xarakteri (fe’l-atvori);

• mablag‘ni qarz olish qobiliyati;

• joriy faoliyat davomida qarzni uzish uchun mablag‘ ishlab topish qobiliyati;

• mijoz kapitali;

• kreditning ta’minlanganligi;

• kredit operatsiyasini bajarish chog‘idagi sharoitlar;

• qarz oluvchi faoliyatining qonuniy jihatlarini nazorat qilish darajasi.

2. Bildirilgan fikr: Bankning kredit siyosati uni o‘z faoliyatini amalga oshirishda qo‘llagan chora-tadbirlaridir. Kredit siyosati bankning kredit faoliyati maqsadlarini aniq ko‘rsatishi va aniqlab berishi shart.

Javob: To‘g‘ri. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining 2000-yil 2 martdagi “Tijorat banklari kredit siyosatiga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida” gi Nizomiga asosan bankning kredit siyosatiga quyidagicha ta’rif beriladi: Bankning kredit siyosati – kreditlash jarayonida yuzaga keluvchi risklarni boshqarishda bank rahbariyati tomonidan qabul qilinadigan choralar va uslublarni belgilovchi hamda bank rahbariyati va xodimlarini kreditlar portfelini samarali boshqarishga doir ko‘rsatmalar bilan ta’minlovchi hujjatdir.[111]

3. Bildirilgan fikr: Tijorat banki kreditning maqsadi qiziqtirmaydi.

Javob: Noto‘g‘ri. Tijorat banki uchun kreditning qanday maqsadlarga so‘ralayotganligi muhim hisoblanadi. Shartnomada kreditning qaysi maqsad uchun ishlatilishi ko‘rsatiladi. Kreditni qaysi maqsad uchun ishlatilishini korxonalar o‘zlarining biznes rejasida ko‘rsatib o‘tishlari shart. Biznes rejada ko‘rsatilgan maqsad bo‘yicha kredit summasi o‘tkazilib beriladi va korxonaning keyingi faoliyati ham bank tomonidan shartnoma asosida nazorat qilib boriladi. Tarmoqlardagi o‘zaro nomutanosibliklar, o‘sha tarmoqda faoliyat ko‘rsatuvchi korxonalarning holatiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Tijorat banki mana shu omillarni hisobga olishi kerak.

Bunda o‘quv guruhining barchasi fikr bildiruvchi yoki uni to‘g‘ri-noto‘g‘ligini asoslovchi bo‘lib qatnashadi.

Mutaxassislik fanlarining hamma mavzularida qo‘llasa bo‘ladigan, mushohada qilishga o‘rgatadigan, ularning xususiyatlariga mos tushadigan yana bir mashq – bu guruhga taalluqli bo‘lmagan tushuncha, voqea, hodisalarni aniqlashga qaratilgan mashqlardir. Bu mashqni ham bank ishi fanini o‘rganishda qo‘llashni ko‘ramiz:

Mashq-topshiriq:

Quyidagilarni diqqat bilan o‘qing . Ular orasidan guruhga taalluqli bo‘lmagan tushunchalarni aniqlang. Uni guruhdan chiqaring. Sababini ko‘rsating.

Tushunchalar: pul bozoridagi talab va taklifning nisbati; moliyaviy resursning iste’mol qiymati, ya’ni uni ishlatishdan keladigan naf darajasi; qarzni to‘lash muddati va sharti; inflyatsiya darajasi; ipoteka krediti; pul egasining mablag‘iga daromad keltiradigan boshqa sohalarning naflilik darajasi; qarz berishning xatar darajasi, ya’ni mablag‘larning qaytib kelish kafolati.

[111] Ўзбекистон Республикаси банк тизимини ислоҳ қилиш ва эркинлаштириш бўйича қонунчилик ҳужжатлари тўплами. Т.: ЎЗБЕКИСТОН, 2003. 326 б.

Topshiriqning javobi:

Javob: Berilgan tushunchalardan guruhga taalluqli bo‘lmagani, boshqacha aytganda ortiqchasi beshinchi tushuncha: ipoteka krediti. U kredit turlariga kiradi. Qolgan tushunchalar esa, foiz stavkasining o‘zgarib turishiga ta’sir etuvchi omillar moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlarga kiradi.

Iqtisodiy fanlarni o’rganishda paradokslar metodini keng qo’llash mumkin. CHunki, iqtisodiy hayot paradokslarga boy. U “Tekin non qopqonda bo’ladi” yoki “Bir balosi bo’lmasa, shudgorda quyruq na qilur” degan maqollarda ham ifodalangan. Iqtisodiy fanlar tarixida nom qoldirgan mashhur iqtisodchilar nomi bilan bog’liq “A. Smit paradoksi”, “J.M.Keyns paradoksi”, “A. Laffer paradoksi”, “P. Samuelson paradoksi”, “V.Leontev paradoksi” va boshqalarni ko’rsatish mumkin. Bunda biz talabalarga mavzuni o’rganayotganda paradokslar mavjud vaziyatlarni hisobga olib, uni topish uchun topshiriq berishimiz va javobini muhokama qilishimiz mumkin.

Qator metodlar, jumladan kichik guruhlarda ishlash, modellashtiruvchi amaliy o‘yinlar, o‘quv va ilmiy adabiyotlar ustida ishlashga yo‘naltirilgan metodlar barcha iqtisodiy fanlarni o‘rganishda keng qo‘llanilishi qo‘yilgan maqsadni amalga oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

Bu yerda yana bir narsaga diqqat qaratish zarurki, mutaxassislik fanlarini o‘qitish uchun metod, usullar tanlaganda ularga ish beruvchilarning takliflari, e’tirozi va tavsiyalarini hamda bitiruvchilarning ish boshlashga tayyor bo‘lishlarini ta’minlashga yordam berishiga alohida diqqat qaratish zarur.

Angliyalik biznes va iqtisodiy fanlardan dars beruvchi professor U. Lukas fikricha “Mutaxassislik” tushunchasiga nisbatan o‘zgarayotgan ushbu qarashlar, (ya’ni fanni o‘rganish iqtisod, biznes amaliyoti haqida emas, balki uni egallash uchun qobiliyatlarni ishga solishni ko‘zda tutish (D.T. izohi) nafaqat nima o‘rganilayotganligiga, balki u qanday o‘rganilayotganligiga e’tibor qaratadi. Shu tufayli, o‘qitish va o‘rganish metodlari mustaqil o‘rganuvchilar rivojlanishiga yordam berishi kutiladi.[112]

[112] A Handbook for Teaching and Learning in Higher Education. Enhancing Academic Practice. Third edition. Edited by Heather Fry, Steve Ketteridge, Stephanie Marshall. First edition.This edition published 2009 by Routledge 270 Madison Ave, New York, NY 10016 Simultaneously published in the UK by Routledge 2 Park Square, Milton Park, Abingdon, Oxon OX14 4RN. P. 386.

7.3. Tanlangan metodlarni o‘rganilayotgan fan, mavzularga moslashtirish, yangi variantlarini yaratish

Ko‘rib o‘tganimizdek, har bir iqtisodiy fanning, muvofiq ravishda uning mavzularini umumiy jihatlari bilan birga alohida ajralib turuvchi xususiyatlari mavjud. Ulardan kelib chiqqan holda, shu fan mavzusiga xos bo‘lgan metodlar yordamida o‘rganiladi.

Shuning uchun ham pedagogikada umumiy hamda xususiy metodika o‘rganiladi. Umumiy metodika fanlarni o‘rganisning umumiy jihatlariga diqqat qaratsa, xususiy metodika fanning har bir mavzusini qanday o‘rganishni ko‘rsatadi. Ayniqsa, fanning predmetini o‘rganishda qo‘llaniladigan metodlarga pedagogik metodlarning mos kelishi qo‘yilgan maqsadni amalga oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Chunki o‘qitish jarayonida fanni talabalar ongiga yetkazish, ularni bilim olishga chorlash, qiziqtirish, o‘z ustida ishlashga yo‘naltirish ko‘p jihatdan unda qo‘llaniladigan metodlarga bog‘liq.

Buni “Asosiy vositalar hisobi” mavzusi misolida ko‘rib chiqamiz. Biz doskaga jadvalni chizamiz. Birinchi “bilamiz” ustunini to‘ldirishni boshlaymiz. Bunda o‘quvchi-talabalarga boshqa iqtisodiy fanlardan asosiy kapital haqida nimalarni bilishni eslash bilan boshlash mumkin. Yoki o‘tgan mavzuda nimalarni o‘rganganimiz bilan bog‘lashimiz mumkin. Asosiy vositalar hisobidan avvalgi mavzuimiz “Materiallar hisobi» bo‘lgan. Biz o‘quvchi-talabalarga mahsulot (tovar, ish, xizmat) ishlab chiqarish uchun xom ashyo, materiallar sarflashimiz kerakligini bilamiz. Shu bilan birga ularni hisob-kitob qilishni o‘rganganmiz. Uni birgalikda to‘ldiramiz, qani aytinglarchi biz nimalarni bilamiz, deb savol beramiz. Berilgan javoblar asosida biz birinchi ustunni to‘ldiramiz.

So‘ngra mahsulot ishlab chiqarish uchun faqat materiallar kifoya qilmasligi, ularga ishlov berish uchun asbob-uskuna, mexanizmlar, bino-inshootlar, xilma-xil boshqa vositalar kerak. Tabiiy ularni hisob-kitob qilish zarur. Bugungi mavzuimizda ana shu masalani o‘rganishni boshlaymiz. Hozir birgalikda sizlar bilan nimalarni o‘rganishimiz zarurligini mantiqiy ketma-ketlikda sanab chiqamiz va jadvalning ikkinchi ustunini to‘ldiramiz, deya murojaat qilamiz va javoblarni aynan mavzuni o‘rganishga moslashtirib, to‘g‘rilab, ikkinchi ustunni to‘ldiramiz Ma’ruza darsi 2 soatdan oshsa unda har bir ma’ruzada o‘rganiladgan savollarni ajratib ro‘rsatamiz.

“Asosiy vositalar hisobi” mavzusini o‘rganishning “Kirish” boqichida B/B/B jadvalini qo‘llash

Biz nimalarni bilamiz?	Biz nimalarni bilmoqchimiz?	Biz nimalarni bildik?
1. Xomashyo materallar nimaligini, nomenklaturasini 2. Ularni hisob-kitob qilish usullarini (Lifo, fifo, aveko)	1. Asosiy vositalar o‘zi nima, xomashyo materiallardan qanday farqlanadi?	
3. Materiallar harakatiga taalluqli me’yoriy hujjatlarni 4. Materiallar harakatini asosiy hujjatlarda rasmiy-lashtirishi 5. Materiallarni omborda hisobga olishni	2.Asosiy vositalarning tarkibi qanday nima sababdan ular guruhlarga bo‘linadi? 3. Nima sababdan asosiy vositalar turlicha qiymat bilan baholanadi?	
5. Buxgalteriyada materiallar hisobini yuritishda qo‘llaniladigan hisobva-raqlarni 6. Materiallar harakatini ikki yoqlama yozuvda aks ettirish	4. Asosiy vositalar harakati hisobi qanday vazifalarni bajaradi? 5. Ularning harakati qanday hujjatlarda aks ettiriladi va rasmiylashtiriladi?	
7. Qo‘shilgan qiymat soli-g‘ini hisobga olish va boshqalarni.	6.Asosiy vositalarni qabul qilinishi va hisobga olinishi va hisobdan chiqarilishini hisobga olish qanday amalga oshiriladi? 7. Asosiy vositalarni eski-rishini qanday hisobga oli-nadi? 8. Amortizatsiya hisob-lashning qanday usullari bor? 9. Asosiy vositalarni ta’-mirlanishi hisobi qanday yuritiladi? 10. Asosiy vositalarni in-ventarizatsiya qilish nima sababdan zarur va u qanday amalga oshiriladi va hisobi yuritiladi?	

Ma’ruza tugagach, har bir talaba savollarga qay darajada javob olganiga qarab o‘zi uchinchi ustunni to‘ldiradi va nimani tushunmagan

bo‘lsa ko‘rsatadi, savol beradi deb ogohlantiramiz va ma’ruzani boshlaymiz.

Ma’ruzani ana shunday boshlash o‘quvchi-talabalar e’tiborini jalb qiladi, faollashtiradi, kelajakda diqqat qaratiladigan yo‘nalishlarni belgilashni, qo‘yilgan savolga javob berilishiga ahamiyat berishni o‘rganishga yordam beradi.

Dars jarayonida o‘qituvchi bir tomondan, fanning predmetini o‘rganish metodlariga diqqat qaratsa, ikkinchi tomondan ularni metodik jihatdan qo‘llashga ahamiyat berishi zarur. Bunda fanning predmetini o‘rganish metodlari uni o‘rganishning pedagogik metoglari bilan moslashuvini ta’minlash maqsadga muvofiq.

Ma’lumki, bilishning metodlari turli-tuman bo‘lib, ular:

a) umumfalsafiy (metafizik, dialektik);

b) umumilmiy (tarixiy, mantiqiy);

d) fan guruhi va har bir fanning o‘ziga xos jihatlariga ko‘ra qo‘llaniladigan uslublarga bo‘linadi.

Fanning predmetini o‘rganish uslublari uning maqsadi, vazifalarini amalga oshirish uning mazmun. mohiyatini anglab kelgusida mutaxassis sifatda o‘z faoliyatida ulardan foydalanish ko‘zlansa, **fanni o‘rganishning pedagogik metodlari** o‘rganilayotgan fan mavzularining o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, unung mazmun-mohiyatini o‘quvchi-talabalar ongiga yetkazishga xizmat qiladi. Masalan, uni “Buxgalteriya hisobi” fani misolida ko‘raylik:

Fan predmetini o‘rgatuvchi va uni o‘rganishning pedagogik metodlari

Fanning predmetini o‘rganish uslublari (metodlari)	Fanni o‘rganishning pedagogik metodlari
1. Hujjatlashtirish; 2. Invetarizatsiya; 3. Baholash; 4. Kalkulyatsiya; 5. Hisobvaraqlar tizimi; 6. Ikki yoqlama yozuv; 7. Buxgalteriya balansi 8. Hisobot	Savol-javob, suhbat, ko‘rgazmali, namo-yish, tarqatma materiallar, loyihalash, masala-mashqlar, tadqiqot, keys stadi, T sxema, konseptual jadval, toifali jadval, semantik jadval, blits o‘yin, juftlik, kichik guruhlarda ishlash, B/B/B jadval va boshqalar

Xo‘jalik yurituvchi subyektning olib borgan barcha faoliyati uning balansida aks etadi. Korxona faoliyati va uning holati bilan

tanishmoqchi bo‘lganlar bunday axborotni balansdan olishlari mumkin. Balans korxonadagi vaziyatni aks ettiruvchi oyna. Shuning uchun ham buxgalteriya hisobi yuritishni o‘rganishni balansni o‘rganishdan boshlanadi. Bunda buxgalteriya hisobini o‘rganish deduksiyadan induktivlikka borish asosida tashkil qilinadi.

Buxgalteriya balansi xo‘jalik mablag‘lari va ularning turlari, tashkil topish manbalari bo‘yicha muayyan bir davrda pulda ifodalanib, umumlashtirilib aks ettirish va iqtisodiy guruhlarga ajratish usulidir.

Mablag‘lar turlari va ularni manbalarini ajratib ko‘rsatish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2002-yil 7 fevralda 31-sonli buyrug‘i bilan qabul qilingan balans ikki qismdan iborat bo‘lgan jadval shaklida tuzilgan. Uning chap tomonida mablag‘lar turlari va ularni joylanishi keltiriladi. U aktiv qism deb nomlanadi.

O‘ng tomonida mablag‘lar manbalari va ularni qanday maqsadlarga atalgani ko‘rsatiladi. U passiv qism deb nomlanadi. Bu aynan T-sxemani ifodalaydi.

Buxgalteriya hisobi fani mavzularida T - sxemani qo‘llash

BALANS			
AKTIV		**PASSIV**	
Mablag‘lar turi va ularning joylanishi	summa	Mablag‘lar manbai va ularning tayinlanishi	summa
Asosiy vositalar	350000	Ustav fondi	400000
va hokazo		va hokazo	

Buxgalteriya hisobi schyotlarida hisob ikki yoqlama yozuv usulida yuritiladi. Ikki yoqlama yozuv har bir xo‘jalik muomalasining o‘zaro bog‘liq bo‘lgan schyotlarida qayd etish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Bu bilan olib borilgan faoliyat, muomalalar ta’sir etadigan hisob obyektlari o‘rtasida o‘zaro aloqa o‘rnatiladi va bu o‘z navbatida korxona xo‘jalik faoliyati ustidan nazorat qilish va sodir bo‘layotgan jarayonlarni o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. Har qanday xo‘jalik muomalasini ikki yoqlama yozuv bilan aks ettirish buxgalteriya balansi umumiy summasi tengligini ta’minlaydi.

Ikki yoqlama yozuv orqali schyotlar hisobvaraqlar yig‘masidagi o‘zaro bog‘lanishni belgilash schyot (hisobvaraq)lar korrespondensiyasi deyiladi.

Yuz bergan muomalani bir schyotning kirimli - debetida, ikkinchi schyotning chiqimli - kreditida aks ettirilishi buxgalteriya provodkasi deb ataladi.

Schyotlar tizimi va ikki yoqlama yozuvda ham aynan ana shu T-sxemadan foydalanamiz**:**

Debet	**Hisobvaraqning nomi**	**Kredit**
Oy boshidagi saldo Mablag‘larning kamayishi		Mablag‘larning ko‘payishi Oy oxiridagi saldo.

Demak, T sxema fanni o‘rganishda doimo qo‘llaniladi.

Buxgalteriya hisobi fanidan shunday mavzular borki, ularda eng mos tushadigan metod konseptual jadval yoki xarita bo‘lib, u nihoyatda katta tahliliy axborotni zich, ixcham ravishda joylashtirish imkonini beradi. Bu metod Davlat byudjeti, uning parametrlari, daromadlari, xarajatlarini organishda keng qo‘llaniladi. Bunday jadvallar, ayniqsa, darsda:

1) metodik jihatdan ko‘rgazmalilikni ta’minlaydi;

2) konseptual jadval tizimi bo‘yicha berilgan topshiriq orqali o‘tilayotgan mavzu yoki savolning mazmunini o‘rganish, taqqoslash, mavzuning mazmun-mohiyatiga yetish, uni o‘zlashtirish osonlashadi.

Masalan, mahsulot kalkulyatsiyasi turlari, materiallar hisob-kitobi, asosiy vositalar hisobini o‘rganishda ma’ruzada konseptual jadval metodini qo‘llash aynan mavzuning xususiyatlariga mos keladi. Shu mavzuni o‘tganimizda mavzuga uni quyidagicha moslashtirishimiz mumkin:

Amortizatsiya hisoblashning usullari va ularning farqlari

Amorti-zatsiya hisoblash-ning usullari	**To‘g‘ri chiziqli usul**	**Kamayib boruvchi qoldiq usuli**	**Bajarilgan ishlar hajmiga muta-nosib ravishda hisoblab yozish usuli**	**Kumulyativ usul**
Turli usullarni qo‘llash sabablari	Asosiy vositalarning jismoniy va ma’naviy eskirishini hisobga olish, ishlab chiqarish jarayoni va murakkabligi, ishlab chiqarilayotgan mahsulot nomenklaturasi va xarakteri, ishlab chiqarish jarayoning uzun-qisqaligi va boshqa omillarning farqlanishi			
Amorti-zatsiya hisoblash qanday	oddiy	Jadallashtirilgan yoki tezkor	oddiy	Jadallashtirilgan yoki tezkor
Amorti-zatsiya	Asosiy vosita-larni	Muntazam hisob-lab yozilayotgan	Amortizatsiya miqdori faqat	Amortizatsiya summasi hisob-

hisoblash mazmuni	foydali ishlatishning butun davri mobaynida eskirishning doimiy summalarini hisoblab yozishdan iborat.	summalar foydali ishlatish muddati davomida kamayadi.	asosiy vosita qancha marta ishlatilishi yoki qancha mahsulot ishlab chiqarilganiga bog‘liq holda hisoblanadi	lash koeffitsiyentining maxraji bo‘lgan obyektning xizmat muddati yig‘indisi bilan aniqlanadi. Bu koeffitsiyentning suratida obyektning xizmat muddati oxirigacha qoladigan yillar soni teskari tartibda ko‘rsatiladi
Hisoblash tartibi: Asosiy vositaning dastlabki qiymati 50 mln so‘m, tugatish qiymati 2 mln so‘m. Xizmat muddati 5 yil bo‘lsin. Shu davr mobaynida 48 ming dona mahsulot ishlab chiqsin	Asosiy vosita-ning dastlabki qiymatidan tugatish qiymatini ayirib, xizmat qilish muddatiga bo‘linadi. Yillik amortizatsiya summasi As= (50-2) : 5 = 9,6 mln so‘m	**1-yil** (40%*50mln)= 20mln so‘m; **2-yil** (40%*30mln)= 12 mln so‘m; **3-yil** (40%*18mln)= 7,2mln so‘m; **4-yil** (40%*10,8mln)= 4,32mln. so‘m; **5-yil** 4,48 mln. so‘m;	Bu usulda xizmat muddati o‘rnida ishlab chiqarilgan mahsulot, ishlangan soat kabilar asosida hisoblanadi. Yillik amortizatsiya summasi qancha mahsulot ishlab chiqarilganiga bog‘liq. As=(50-2)=48000 48 mln. so’m : 48 ming dona=10 000 so‘m bir dona mahsulot uchun	Kumulyativ usul (yillar yig‘indisi usuli)da 5+4+3+2+1=15 **1-yil** (5/15*48mln) =16 mln. so‘m; **2- yil** (4/15*48mln.) =12,8 mln. so‘m **3-yil** (3/15*48 mln.) = 9,6 mln. so‘m; **4-yil** (2/15*48mln.)= 6,4 mln. so‘m **5-yil** (1/15*48mln.)= 3,2 mln. so‘m
Usulning afzalliklari yoki qachon qo‘llanadi	Amortizatsiya hisoblashning chiziqli usuli boshqa usullardan mahsulot hajmiga bog‘lanmaganini, xizmat qilish mobaynida yillar davomida teng taqsimlanishi bilan farqlanadi	Ushbu usul jadallashgan usuli bo‘lib, ishlab chiqarishga taalluqli asosiy vositalarni hisoblash uchun qo‘llaniladi, chunki mazkur vositalardan foydalanishning birinchi yillarida samaraliroq foydalaniladi va ta’mirlashga xara-	Amortizatsiya hisoblashning bajarilgan ish hajmiga ko‘ra hisoblash usuli obyektlardan foydalanish muddati, ularning tuzilish xususiyatlari bilan cheklangan hamda mazkur aktivlarning xo‘jalik faoliyati hajmi yilma-yil o‘zgargan hollarda qo‘l-	Ushbu usul amortizatsiyaning jadallashgan usuli bo‘lib, ishlab chiqarishga taalluqli asosiy vositalarni hisoblash uchun qo‘llaniladi,

		jatlar unchalik ko‘p bo‘lmaydi.	laniladi.	

Konseptual jadvalni slayd tarzida namoyish etish hamda tarqatma material sifatida tarqatish mumkin. U amortizatsiya hisoblashning usullarini bir-biridan farqini o‘quvchi, talabalarga tushuntirishni osonlashtiradi. Ularni bir-biriga taqqoslashga, xulosa chiqarishga o‘rgatadi. Konseptual jadval orqali o‘z navbatida taqqoslash metodini ham qo‘llaymiz.

Xuddi shunday misolni audit fanidan keltirishimiz mumkin.

Fan tekshirish o‘tkazish va xatolarni aniqlashni o‘rganishga qaratilar ekan, dars o‘tish metodlarini tanlashda ana shu jihatlarga alohida ahamiyat berish zarur.

Eng avvalo auditorlik amaliyotida buxgalteriya hisobi yuritishda eng ko‘p uchraydigan xatolarni aniqlash va dars jarayonida ularga ahamiyat berishga talabalar diqqatini qaratishi zarur. Ma’lumki, yo‘l qo‘yilgan xatolar ikki xil bo‘lishi mumikn: 1. Bilmay, o‘ylab ko‘rmay, bexosdan qilingan xatolar; 2. Ataylab, avvaldan rejalashtirib qilingan xatolar.

Birichisini odatda hisob yozuvlarida va guruhlarda arifmetik yoki mantiqiy xatolar, hisob to‘liqligiga e’tiborsizlik va xo‘jalik faoliyati holatlari, mol-mulkning mavjudligi va holati, hisob-kitoblar noto‘g‘ri taqdim etilishi natijasida moliyaviy ma’lumot bexosdan buzilishi **xato** hisoblanadi.

Ikkinchi guruh xatolari **tovlamachilik, hiylagarlik** sifatida qaraladi.

Hisob va hisobotda tovlamachilik - korxona rahbariyati va xodimlari tarkibidagi bir yoki bir nechta shaxslar tomonidan atayin hisob va hisobot ma’lumotlarining noto‘g‘ri aks ettirish va taqdim etishidir. U hiylagarlik bilan hisob yozuvlarini o‘zgartirish va dastlabki hujjatlarni, registrlarni va hisobotni qalbakilashtirishdan, xo‘jalik operatsiyalari ma’nosini buzib ko‘rsatishga, korxona hisob siyosati yoki amaldagi qonunchilik bilan belgilangan qoidalarni buzishga olib keluvchi hisobdagi yozuvlarni atayin o‘zgartirishdan, aktivlarni, yozuvlarni to‘g‘rilangan natijalarini yoki hujjatlarni atayin yo‘naltirilgan holda baholashdan iborat.

Hisob yozuvlari yuzasidan **hiylagarlik** - hisob va hisobot ma’lumotlarini buzib ko‘rsatish maqsadida, noto‘g‘ri (noaniq) buxgalteriya o‘tkazmalaridan yoki “storno” yozuvlardan bilib turib foydalanish. Buxgalteriya hisobi va yozuvlarni **qalbakilashtirish** - bilaturib

buxgalteriya hisobining noto‘g‘ri yoki sohta hujjatlarni (avizo, hisobvaraqlar, veksellar va hokazolar) va haqiqatni buzib ko‘rsatadigan buxgalteriya hisobi hisobvaraqlaridagi yozuvlarni rasmiylashtirishdir.

Auditor tovlamachilik yoki xato aniqlangan taqdirda bular kelib chiqishi bilan bog‘liq bo‘lgan barcha savollarga korxona rahbariyati va xodimlaridan javob olishi lozim. Demak, auditor uchun tovlamachilik bilan xatoni farq qilish muhim hisoblanadi. Fanni o‘rganish bo‘yicha metodlar tanlash va topshiriqlar tayyorlashda bularni hisobga olish zarur.

Ikkinchidan yo‘l qo‘yiladigan asosiy xatolarni aniqlash lozim.

Auditorlik tekshiruvi o‘tkazish vaqtida aniqlanadigan xatolarning asosiy turlarini quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Hisob yuritishdagi xatolar:

A) Hisob yuritilmaslik - odatda korxona quyi bo‘limi yoki faoliyatining qaysidir bir turi bo‘yicha buxgalteriyada tegishli hisob olib borilmasligi bilan ifodalanadi.

B) Tasodifiy xatolar:

- nihoyatda kam uchraydigan arifmetik xatolar, chunki bu xatolarni, odatda, buxgalterning o‘zi aniqlaydi;
- xo‘jalik faoliyatining qaysidir bir holatini hisobga olishda hisobning to‘g‘ri usulini qo‘llab, noto‘g‘ri o‘tkazma berish;
- takrorlanadigan xatolar.

2. Buxgalteriya hisobini yuritish qoidalarini bilmaslik bilan bog‘liq xatolar. Ulardan eng ko‘p uchraydiganlari:

- ustav kapitalini noto‘g‘ri hisobga olish;
- foydadan soliq va yig‘imlarni to‘lash uchun foydalanish hisobi hisobvarag‘i o‘rniga foydalar va zararlar hisobvaraqlaridan foydalanish;
- sotib olinadigan asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, asbob-uskuna va xo‘jalik jihozlari, materiallar, tovarlar va boshqa aktivlarni hisobvaraqlar rejasi bilan ko‘zda tutilgandan boshqa hisobvaraqlarga kirim qilish.

3. Soliq qonunchiligini bilmaslik bilan bog‘lik bo‘lgan xatolar:

- belgilangan me’yorlar miqdoridan yuqori bo‘lgan xizmat safari bo‘yicha xarajatlar, shaxsiy avtotransportdan foydalanganligi uchun badal haqi, reklama, o‘qitish, vakillik xarajatlari, bank kreditlari bo‘yicha hisoblangan foizlarni xarajatlarga belgilangan me’yorlar miqdorida o‘rniga to‘liq o‘tkazish. Ushbu turdagi xatolarni bevosita bo‘nak hisobotlarini tekshirib yoki me’yorlangan xarajatlar va ularni

tannarxga kiritish bo‘yicha tegishli hisob-kitoblarni talab qilib va tekshirib aniqlash mumkin.

Soliqlar va majburiy to‘lovlarni **noto‘g‘ri hisoblash:** ko‘pchilik hollarda bu bandlik jamg‘armasiga to‘lovlar, reklama uchun soliq, hamkorlik faoliyati shartnomalariga asosan olingan mablag‘lar bo‘yicha qo‘shilgan qiymat solig‘iga taalluqlidir.

Bundan tashqari har bir mavzuni o‘rganish jarayonida ham o‘qituvchi eng ko‘p sodir etiladigan xato va kamchiliklarga e’tibor berishi kerak. Masalan, “Ishlab chiqarish xarajatlari, davr xarajatlari va moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlar”da:

* dastlabki kirim hujjatlarining yo‘qligi yoki ular belgilangan tartiblarga rioya qilmagan holda rasmiylashtirilishi;

* xarajatlarning ayrim turlari mahsulot tannarxiga noto‘g‘ri o‘tkazilishi;

* tugatilmagan ishlab chiqarish qoldiqlari noto‘g‘ri baholanishi;

* xarajatlar hisob davrlari bo‘yicha noto‘g‘ri ajratilishi;

* xarajatlarni hisobga olish va taqsimlash bo‘yicha usul va uslublar hisob siyosatida aks ettirilgan uslublarga nomuvofiqligi;

* ayrim turlardagi xarajatlar asossiz holda tannarxga kiritilishini ko‘rsatish mumkin.

Yoki “Moliyaviy natijalarni shakllantirish va foydadan foydalanish” bo‘yicha xo‘jalik operatsiyalarini auditorlik tekshiruvida odatda yo‘l qo‘yiladigan xatolar ko‘pincha quyidagilardan iborat bo‘ladi:

* moliyaviy xarajatlar tarkibiga *soliq* va boshqa nazorat qiluvchi idoralar tomonidan qo‘llangan jarima summalarini kiritish;

* boshqa daromadlar, moliyaviy faoliyat bo‘yicha daromadlar va xarajatlarni aks ettirilishida hisobvaraqlar noto‘g‘ri korrespondentlanishi;

* foydadan qonunchilikda ko‘zda tutilmagan maqsadlar uchun foydalanish.

Audit fanini o‘rganishda markazda **auditor** shaxsi turar ekan, demak aynan ana shu auditorlik mutaxassisligini egallamoqchi bo‘lgan o‘quvchi-talabalarning aqlini charxlaydigan metodlarni qo‘llash zarur. Mavzuni o‘rganish uchun tayyorlangan masala va mashqlar, turli topshiriqlar mazmunida ana shu xatolar yashiringan bo‘lishi va ular talabalar tomonidan aniqlanishi ko‘zda tutilgan bo‘lishi zarur. Bu jihatdan hujjatlashtirish, hisob-kitobni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilganini yoki xatolarni aniqlashni o‘rgatadigan metodlar fanni o‘rganishda muhim

ahamiyatga ega. O‘qituvchi tomonidan ataylab kamchiliklar bilan to‘ldirilgan hujjat yoki hisob-kitobni xatosini topishga qaratilgan topshiriqlar tayyorlab, darsda qo‘llash alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday topshiriqlarni boshqa metodlar bilan birgalikda qo‘llasa bo‘ladi. Ayniqsa, modellashtiruvchi o‘yinlar tashkil qilib, dars jarayonida qo‘llash mumkin. Ana shunday topshiriqlar asosida darsni kichik guruhlarga bo‘lib o‘tish mumkin.

Auditor uchun audit natijalarini auditorlik hisoboti tayyorlash va auditorlik xulosasi yozishni bilish ham muhim ahamiyatga ega.

Shuning uchun “Auditorlik xulosasi” yozish bo‘yicha **esse** metodini qo‘llagan ma’qul. Metodni qo‘llab dars o‘tish uchun kichik guruhlarga o‘qituvchi korxonani tekshirib, tayyorlangan auditorlik hisobotini tarqatadi.

Hisobotni o‘qib, uning asosida auditorlik xulosasi yozishni taklif qiladi. Auditorlik xulosasi ijobiy yoki salbiy bo‘lishi, auditorlik xulosasini yozishdan bosh tortishi mumkin. Ana shularni talabalar yodiga solib, auditorlik hisobotini sinchiklab o‘qib chiqish so‘ngra kichik guruhda muhokama qilib, auditorlik xulosasi yozish kerakligi uqtiriladi.

Buning uchun 20 minut vaqt beriladi. Amalga oshirilgan auditorlik tekshiruvi natijalari bo‘yicha auditor auditorlik hisoboti va auditorlik xulosasini tayyorlashi lozim. Boshqa turdagi auditorlik xizmatlari ko‘rsatilganda ham auditorlik hisoboti tayyorlanishi mumkin.

Auditorlik xulosasi – moliyaviy hisobotning haqqoniyligi (to‘g‘riligi) va buxgalteriya hisobini yuritish tartibining amaldagi qonunchilikka muvofiqligi to‘g‘risidagi auditorlik tashkilotining fikrini yozma ravishda ifodalagan va xo‘jalik yurituvchi subyektning moliyaviy hisobotidan foydalanuvchilar uchun ochiq bo‘lgan hujjat. Auditorlik xulosasi qabul qilingan qoida asosida yozilishi unda :

- auditorlik xulosasi buyurtmachining barcha kerakli bo‘lgan rekvizitlari ko‘rsatilgan va auditorlik tashkilotining muhri bilan tasdiqlangan holda auditorlik tekshiruvining buyurtmachisiga yo‘llanishi lozim.

Auditorlik xulosasining kirish qismi auditorlik tashkilotining quyidagi rekvizitlaridan iborat:

- auditorlik tashkilotining hududiy manzili va telefonraqami;

- auditorlik tekshiruvini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziya raqami, berilgan sana va ushbu litsenziyani bergan idora nomi;

- auditorlik tashkiloti davlat ro‘yxatiga olinganligi to‘g‘risida guvohnomaning raqami;

- auditorlik tashkiloti hisob-kitob hisobvarag‘ining raqami;

- auditorlik tekshiruvida ishtirok etgan auditor (auditorlar) hamda auditorlik tashkiloti rahbarining familiyasi, ismi, sharifi.

Kirish qismida sana va hisobot davri ko‘rsatilgan holda tekshirilgan moliyaviy hisobotlar ro‘yxati keltirilishi kerak.

Kirish qismida quyidagilar aks etishi lozim:

- xo‘jalik yurituvchi subyekt auditorlik tekshiruvidan o‘tkaziladigan moliyaviy hisobotni tayyorlash va uning haqqoniy bo‘lishi uchun javobgarligi;

- auditorlik tashkiloti auditorlik xulosasi xo‘jalik yurituvchi subyektning moliyaviy-xo‘jalik faoliyati natijalariga muvofiq bo‘lishi uchun javobgarligi.

Auditorlik xulosasining asosiy mazmunini *qayd* etish qismida auditorlik tekshiruvi AFMAga muvofiq amalga oshirilganligi ko‘rsatiladi.

Ma’lumki, har bir auditorlik tekshiruvini boshlashdan avval uning dasturi – rejasi ishlab chiqiladi. Bu esa loyihalash metodini qo‘llashga juda mos tushadi. Uni mavzuga moslashtirib, topshiriq tayyorlaymiz.

Masalan, **moliyaviy qo‘yilmalar** mavzusini o‘rganayapmiz, deylik.

Talabalarga moliyaviy qo‘yilmalar auditining nazorat tadbirlarini rejalashtirishda tekshiruv o‘tkazish yo‘nalishlarini aniqlash, harakatlar ketma-ketligini kerakli bo‘lgan isbotlar manbalarini belgilash lozim. Aniq tadbirlarni tartibga solish va auditorlik tavakkalchiligini kamaytirish maqsadida moliyaviy qo‘yilmalar auditi bo‘yicha maxsus dasturni tayyorlash tavsiya etiladi. Talabalar tomonidan tayyorlangan dastur quyidagicha bo‘lsin (Ilovaga qarang).

Demak, audit fanining xususiyatlariga taqqoslash, esse yozish, loyihalash, semantik jadval, toifali jadval, keys stadi kabi metodlar mos tushadi. Bank ishi, Moliya, Iqtisodiy tahlil fanining muhim xususiyati uni iqtisodiy jarayon, voqea, hodisalarni yuz berishi, rivojlanishi, o‘zgarishini obyektiv va subyektiv jihatlari, sabablarini o‘rganishi, o‘rganilayotgan obyektni bo‘laklarga, qismlarga bo‘lish, taqqoslash, solishtirish, tahlil qilib xulosa chidarish, qaror qabul qilishga o‘rgatishi bilan ajralib turadi. Fanning bu xususiyati uni o‘rganishda taqqoslash, guruhlarga ajratish, tahlil qilishga qaratilgan metodlarni qo‘llashni zarur qilib qo‘yadi. Ayniqsa: masala, mashq, “toifali jadval”, “semantik

jadval", "konseptual jadval", Venn diagrammasi, **"SWOT –** tahlil" jadvali kabilar fanning xususiyatiga juda mos tushadi. Uning asoschisi AQSHlik tadqiqotchi Albert S. Humphrey

Masalan, korxonani istiqbolini aniqlamoqchimiz u holda eng mos metod keladigan metod - bu "SWOT – tahlil" metodi. Uni yordamida biz korxonaning holatini tahlil qila olamiz, xulosa chiqarib, unga baho bera olamiz hamda qaror qabul qilamiz.

Tahlil tarkiblari va natijalarni amalga oshirish

	Tahlil tarkiblari	***Natijalarni amalga oshirishning xususiyatlari***
S	(**strength)** kuchli tomonlari (tashkillashtirishning ichki manbalari)	- barqaror rivojlanishning asosiy mexanizmi bo'lib xizmat qiladi; - yangi loyihalar asosi hisoblanadi; - to'siqlarni yengib o'tishining yo'li bo'lishi mumkin.
W	(**weariness)** ojiz tomonlari (tashkillashtirishning ichki muammolari)	- tashkillashtirish faoliyati aynan shularni yengib o'tishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim; - yangi loyihalar uchun eng muhim maqsad hisoblanadi; - rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishda albatta hisobga olinishi zarur
O	(**opportunity)** imkoniyatlar (tashqaridan)	- moliyalashtirish va qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha ko'rsatkichi yoki tashqi manba bo'lib xizmat qiladi, - ular tashkillashtirishning maqsadi bilan yoki qanchalik murosaga kelishishi bilan qanchalik mos kelishini hisobga olish zarur bo'ladi; - yangi loyihalarning asosi yoxud hamkorlikni izlash manbasi bo'lishi mumkin.
T	**(threat)** Xavflar, tahdidlar (tashqaridan)	- har bir yangi loyihada hisobga olinishi zarur; - ularni yengib o'tish yoki betaraf etish yo'llari ishlab chiqi-lishi kerak; - ba'zida mantiqqa mos kelmaydigan "raqiblar" "ittifoqchilarga" aylanishi mumkin.

Bu metodni "aqliy hujum" hamda kichik guruhlarga bo'linib qo'llash mumkin.

Ko'rinib turibdi, SWOT tahlil korxonaning bugungi taraqqiyot darajasini aniq qurish va kelgusi faoliyt uchun kerakli xulosalar chiqarish imkoniyatini beradi. Metodlarni ana shunday birgalikda qo'llashimiz natijasida o'quvchi, talabalar korxona faoliyatiga bir butun nazar tashlashni, mustaqil fikrlash, o'z fikrini tortinmay aytish, turli

variantlardan eng maqbulini tanlash, har bir korxonaning bugungi ahvolini ko‘ra bilishga, kelajakda diqqat qaratiladigan yo‘nalishlarni belgilashni o‘rganishiga yordam beradi.

Mutaxassislik fanlaridan bir necha mavzu o‘tilgach yoki oraliq nazorat oldidan “**Zaif bo‘g‘in”** o‘yinini qo‘llash mumkin (5-ilovaga qarang). Unda kategoriya, tushunchalarning mazmuni, ta’sir etuvchi omillar, qabul qilingan me’yoriy hujjatlar va boshqalarni takrorlash va bilim, ko‘nikmalarni nazorat qilish, rag‘batlantirish yoki aksincha tanbeh berish kabilar amalga oshiriladi.

Modellashtiruvchi amaliy o‘yin metodini o‘tilayotgan fanga moslashtirib qo‘llash, uni o‘rganishda amaliyotga yaqinlashtiradi.[113]

Ayrim metodlar fan xususiyatiga juda mos tushavermasligi mumkin. Masalan “Aqliy hujum” metodi muammo qo‘yish va uni yechishning turli variantlarini topish va ular ichidan eng muhimlarini ajratishga qaratilar ekan, biz bu metodni iqtisodiy tahlil fanini o‘rganishdagichalik buxgalteriya hisobi fanida qo‘llay olmaymiz.

Sababi, buxgalteriya hisobi fani o‘zining o‘rganadigan predmetidan kelib chiqib, korxona va tashkilotlarda sodir bo‘lgan xo‘jalik muomalalarini, shuningdek mavjud bo‘lgan moddiy boyliklarni hamda boshqa yuridik va jismoniy shaxslar bilan olib boriladigan hisob-kitoblarni hisobga olishni ta’minlash, hisob-kitob qilish amalga oshirilar ekan, ular birinchi navbatda hujjatlarda aks etadi. Hujjatlarda aks ettirish va hisob-kitob qilish esa belgilangan tartibda amalga oshiriladi, chunki ular yuridik kuchga ega. Buxgalteriya hisobi ma’lumotlari va moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlariga isbotlovchi kuch beradi. Ular qabul qilingan qonun, me’yoriy hujjatlar doirasida olib boriladi.

Ko‘rinib turibdiki, bu yerda aqdiy hujum metodini qo‘llash kutilgan darajada samara bermaydi. Bu umuman buxgalteriya hisobi fanidan “aqliy hujum” metodini qo‘llab bo‘lmaydi degani emas. Uni qo‘llash imkoniyati buxgalteriya hisobi fanida boshqa fanlarga nisbatan cheklangan. Uni ko‘proq mashg‘ulotni boshlashda B/B/B jadvali bilan qo‘llagan ma’qul.

Lekin aqliy hujum – g‘oyalarni generatsiya (ishlab chiqish) qilishi, ular orasidan eng muhimlarini tanlashni o‘rgatishi nuqtai nazaridan “Iqtisodiy tahlil” fanini o‘rganishga nihoyatda mos tushadi.

---

[113] Mazkur metodni Buxgalteriya hisobi, Audit fanlarida qo‘llash muallif tomonidan ko‘rsatilgan.Tojiboeva D., Yo‘ldoshev A. Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi. Darslik. T.: “Fan va texnologiya”, 2009. 502-513, 538-545-betlar.

“Aqliy hujum” metodi biror muammoni yechishda ta’lim oluvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to‘plab, ular orqali ma’lum bir yechimga kelishni o‘rgatadigan eng samarali metod hisoblanadi.

Iqtisodiy tahlil fanining deyarli barcha mavzularida iqtisodiy ko‘rsatkichlar, ularga ta’sir etadigan omillar, ularning ta’sirida erishilgan natija, bu natijani ijobiy tomonga o‘zgartirish uchun qaror qabul qilish masalalari o‘rganiladi. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, “Aqliy hujum” metodini juda ko‘p mavzularda qo‘llash mumkin.

Taqqoslash metodlari bo‘lsa, Audit fani xususiyatlariga mos tushadi.

Tadqiqot metodi esa iqtisodiy fanlarni o‘rganishga nihoyatda mos. Ayniqsa o‘rganish, tahlil qilish talab etiladigan fanlarni. Masalan, u “Bank ishi” fani xususiyatiga juda mos tushadi. Chunki kredit so‘rab yozilgan har bir arizani sinchiklab o‘rganib chiqish, mijozning to‘lov qobiliyatini aniqlab qaror qabul qilishning har biri o‘ziga xos tadqiqot. Iqtisodiy hayotni o‘rganish raqamlar, ularni tahlil qilish, solishtirish, xulosa chiqarishga, yangi fikrlar, g‘oyalarni ilgari surish va ularni amalga oshirishga, boshqalarni fikrini tahlil qilib, tanqidiy o‘rganishga tayanadi.

Bunda muhimi topshiriq ishlab chiqish. Topshiriq ishlab chiqish uchun o‘qituvchi muammoni, savolni, maqsad, vazifani to‘g‘ri aniqlashi va qo‘ya bilishi kerak.

Umuman olganda iqtisodiy fanlar predmeti va uni o‘rganish metodlari birgalikda qo‘yilgan maqsadni amalga oshirish uchun xizmat qiladi.

Maxsus fanlar predmetini o‘rganish metodlari va pedagogik metodlarning umumiyligi va farqlari

Umumiy jihatlari	
1. Har ikkisi ham o‘quvchi-talabalarni bilim olish, ko‘nikma, malaka hosil qilishiga qaratilgan. 2. Fanning mazmun-mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi. 3. Fanni o‘zlashtirishga xizmat qiladi.	
Farqlari	
Fanning predmetini o‘rganish metodlari	**Pedagogik metodlar**
1. Predmetning metodlari shu fan o‘z predmetini o‘rganishida qo‘llaniladi	1.Pedagogik metodlar fanning mavzularini o‘quvchi talabalar tomonidan puxta o‘zlashtirishlari uchun qo‘llaniladi
2. Predmetning metodlari fanning	2. Pedagogik metodlar didaktik xatti-

rivojlanishi, yangi qirralarni ochishga qaratilgan	harakatlar bilan bog‘liq
3.Fanning mazmun mohiyatini ifodalovchi masalalarni o‘rganishga, ularning sir-asrorini ochib berishga, tahlil qilishga qaratiladi.	3. Pedagogik metodlar mavzuning xususiyatlariga ko‘ra tanlanib, uning mazmunini yetkazishga xizmat qiladi

Izoh: Shu va shunga o‘xshash chizmalar (sxema)ni Venn diagrammasi orqali ifodalash mumkin.

Shuning uchun o‘qituvchi fanni, mavzuni o‘qitish uchun metod tanlar ekan, albatta, uning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda yondashishi zarur. Predmetning o‘zini o‘rganishda qo‘llaniladigan metodlarni ham nazardan qochirmasligi lozim.

Takrorlash va munozara uchun savollar

1. Nima sababdan fan va mavzularni o‘rganishda metodlarni ualning xususiyatlariga ko‘ra tanlash kerak?
2. Fanning predmetini o‘rganish metodlari bilan uni o‘rganishning pedagogik metodlarining farqi nimada?
3. Har bir fanning va mavzuning o‘ziga xos xususiyatlari qanday shakllanadi?
4. Iqtisodiy fanlarning qanday umumiy jihatlarini bilasiz?
5. Buxgalteriya hisobi fani boshqa iqtisodiy fanlardan qaysi jihatlari bilan ajralib turadi?
6. Audit fanini o‘rganishda qaysi metodlardan eng ko‘p foydalaniladi?
7. Moliya fanining o‘ziga xos jihatlariga nimalarni kiritgan bo‘lar edingiz?
8. Bank ishi fanini o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rsata olasizmi?

VIII BOB. MAXSUS FANLARNI O‘RGANISHDA MUSTAQIL TA’LIMNI TASHKIL ETISH

Hozirgi kunda axborot oqimi nihoyatda katta. O‘rganilayotgan mavzuga tegishli barcha axborotni belgilangan vaqtda o‘quvchi, talabalarga yetkazib bo‘lmaydi; generatsiya tizimi va bilim berish murakkablashdi, taraqqiyot darajasi tezligi, bilimda eskirish tezligi yuqoriligi global miqyosda ta’lim tizimini tubdan o‘zgartirishga, ta’lim olishning uzluksizligini ta’minlash, mustaqil ishlashni muntazamligini asosiy vazifaga aylanishiga olib keldi. Aynan mustaqil ishlash ta’limning uzluksizligini ta’minlaydi.

Mazkur bob mustaqil ishlash, uni tashkil etish turlari va xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlanadi.

8.1. O‘quv jarayonida talabalar mustaqil ishlashining tutgan o‘rni. Mustaqil ta’limga alohida diqqat qaratilishi

Ma’lumki, o‘qitishning asosiy shakllari – ma’ruza, seminar, amaliy mashg‘ulotlar, laboratoriya ishlari, maslahat darsi auditoriyada o‘tkaziladi. Ularni tashkil etish mavzular murakkabligi darajasiga, beriladigan axborot miqdoriga ko‘ra avvaldan rejalashtiriladi, o‘quv soatlari ajratiladi. Ishlab chiqarish amaliyoti auditoriyadan tashqarida o‘tkazilsada, unga ham avvaldan soatlar belgilanadi.

Bilim olish, maxsus malakaga ega bo‘lish o‘quvchi-talabalar dunyoqarashini shakllantirishda auditoriyada o‘tiladigan darslardan tashqari ular tomonidan bajariladigan mustaqil ishlar ham katta rol o‘ynaydi.

Tajriba ko‘rsatadiki, boshlagan ishini sabr-toqat bilan mustaqil ravishda tinmay izlanish orqali oxiriga yetkazadiganlargina hayotda ko‘zlagan maqsadlariga erishadilar. O‘quvchi-talabalarda ana shu xislatni tarbiyalashda mustaqil ishlarni tashkil etish o‘ziga xos alohida o‘rin tutadi. Undan tashqari, hozirgi kunda axborot oqimi nihoyatda kattaligi, fan-texnika taraqqiyoti tufayli o‘qituvchi qanchalik mohir bo‘lmasin dars jarayonida fan bo‘yicha barcha bilim, axborotlarni talabalarga yetkaza olmaydi. Uni to‘ldirishning yagona yo‘li talabalarning o‘z ustilarida mustaqil ishlashlaridir.

Mustaqil ishlashning yana bir ijobiy tomoni u mustaqil fikrlashni ham rivojlantiradi. Mustaqil fikrlash - insonning o‘z oldida turgan muammolarni maqsad va vazifalarini belgilagan holda o‘z bilimi va hayotiy tajribalariga tayanib, turli yo‘l, usul, vositalar yordamida, o‘zining intellektual imkoniyatlari darajasida mustaqil ravishda hal qilishdan iborat bo‘lgan aqliy faoliyatidir. Shuning uchun ham hozirgi kunda o‘quvchi, talabalarni mustaqil ishini tashkil etishga alohida diqqat qaratilmoqda.

Talaba mustaqil ishlash ko‘nikmasini egallamasa, zamon talabi darajasidagi mutaxassis bo‘lib yetisha olmaydi, chunki talabaning o‘qish yillari davomida olgan bilimlarining ko‘p qismi u faoliyat boshlagunga qadar eskiradi, ko‘pgina bilimlar esa unutiladi.

Taniqli olim G. Spenser ta’lim-tarbiya ishida o‘zini-o‘zi takomil-lashtirish jarayoniga katta o‘rin berilmog‘i lozimligini ta’kidlab, insoniyat faqat mustaqil o‘rganish tufayligina taraqqiy etganini ko‘rsatgan.[114]

Adabiyotlarda ko‘rsatilishicha o‘quvchi-talabalar 40–60 % bilimga mustaqil ishlash orqali ega bo‘lishadi. Shuning uchun rivojlangan mamlakatlarda mustaqil ishlashga alohida ahamiyat beriladi.[115] Hozirgi kunda biz ularning tajribasidan keng foydalanishga diqqat qaratayapmiz.

Ayniqsa, ta’lim tizimini takomillashtirish bo‘yicha qabul qilingan huquqiy va me’yoriy hujjatlarda, xususan Prezidentimiz-ning “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida qo‘yilgan maqsaddan kelib chiqib, har bir oliy ta’lim muassasasi jahonning yetakchi ilmiy-ta’lim muassasalari bilan yaqin hamkorlik aloqalari o‘rnatish, o‘quv jarayoniga xalqaro ta’lim standartlariga asoslangan ilg‘or pedagogik texnologiyalar, o‘quv dasturlari va o‘quv-uslubiy materiallarni keng joriy qilish, o‘quv-pedagogik faoliyatga, master-klasslar o‘tkazishga, malaka oshirish kurslariga xorijiy hamkor ta’lim muassasalaridan yuqori malakali o‘qituvchilar va olimlarni jalb qilish, ularning bazasida tizimli asosda respublikamiz oliy ta’lim muassasalari magistrant, yosh o‘qituvchi va ilmiy xodimlarning stajirovka o‘tashlarini, professor-o‘qituvchilarni

[114] G. Spenser. Основные идеи. Воспитание. http://rushist.com/index.php/philosophical-articles/2650-spenser-gerbert-osnovnye-idei

[115] A Handbook for Teaching and Learning in Higher Education. Enhancing Academic Practice. Third edition. Edited by Heather Fry, Steve Ketteridge, Stephanie Marshall. First edition.This edition published 2009 by Routledge 270 Madison Ave, New York, NY 10016 Simultaneously published in the UK by Routledge 2 Park Square, Milton Park, Abingdon, Oxon OX14 4RN; Methods for teaching: promoting student learning in K–12 classrooms/David A.Jacobsen, Paul Eggen and Don Kauchak.—8th ed, 2009.

qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil qilishga diqqat qaratish vazifasi qo‘yilgan.

Mustaqil ish faoliyatida bilimlarni egallash bilan birga, ko‘nikmalarni shakllantirish ham mustaqil amalga oshiriladi. Borgan sari ortib boradigan mustaqil tayyorlanish vaqtini samarali bo‘lishini ta’minlashda ikki narsaga e’tibor qaratish kerak:

A) mustaqil ish - o‘qishning, aqliy mehnatning alohida turi.

B) axborotning asosiy qismini talaba mustaqil ravishda oladi. Ayniqsa, internetning kirib kelishi bilan uning doirasi yanada kengaydi.

Shu nuqtai nazardan qarasak, ***mustaqil ta’lim*** – uzluksiz ta’limning muhim shakli bo‘lib, o‘quv materialini mustaqil o‘zlashtirish, murakkablik darajasi turlicha bo‘lgan topshiriqlar, amaliy vazifalarni ijodiy va mustaqil bajarish asosida nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan tizimli faoliyatdir.

Mustaqil ta’lim uzluksiz ta’limni amalga oshirishning muhim shartidir. Mustaqil ta’lim – bu talabaning mutaxassis sifatida mehnat faoliyatiga tayyorlash uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malakani mustaqil ravishda tizimlashtirilgan holda o‘zlashtirishning natijasidir. Mustaqil ta’lim o‘rganilayotgan mavzu, savol, masala, muammoni talabalar tomonidan o‘qituvchi yoki mutaxassdan davriy maslahat olgan holda yoki ularsiz mustaqil o‘rganishga qaratilgan talabaning tizimli mustaqil o‘quv faoliyatidir.

Mustaqil ta’lim shaxsning o‘zi tomonidan boshqarilishi sababli, o‘z oldiga qo‘ygan maqsadiga ko‘ra bu faoliyat bilan shaxs erkin holda va istagan vaqtida manbalardan o‘zi tanlab, shug‘ullanishi mumkin.

Mustaqil ta’lim olish mustaqil ishlashni tashkil qilish orqali amalga oshiriladi. Ta’lim jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni, o‘qitishning interfaol usullarini qo‘llash o‘qituvchining ijodkorlik mahoratini, qolaversa, mas’uliyatini yanada oshiradi. Bundan kelib chiqadiki, yangi pedagogik texnologiyaning maqsadi o‘qitish emas, balki ularni mustaqil o‘qishga o‘rgatishdir. Demak, ta’lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish o‘quvchilarda mustaqil ta’lim olish malakasini shakllantirishda, muhim omil hisoblanadi.

Talabaning mustaqil ishidan maqsad *– o‘qituvchining rahbarligi va nazorati asosida muayyan o‘quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish, ijodiy ishlash ko‘nikmasini hosil qilishdir*

O‘quvchi-talabalarni o‘z ustida mustaqil ishlashizlanishga yo‘naltirishda ularni mustaqil faoliyatga undovchi omillarga diqqat qaratish muhim ahamiatga ega. O‘quvchi-talabani mustaqil ihlashga undovchi omillar rasmda ko‘rsatilgan bolib, ularning har biri o‘ziga xos ahamiyatga ega. Lekin ulardan eng muhimlari ehtiyoj, motivatsiya, zaruriyat, o‘zini-o‘zi boshqarish bo‘lib, o‘qituvchi ularga alohida diqqat qaratishi zarur. Chunki mustaqil ishlash uchun o‘quvchi-talabaning o‘zida ehtiyoj sezishi, motivatsiya bolishi, zaruriyatni his qilishi, ishni bajarish uchun o‘zini-ozi boshqara olishi kerak. Demak, o‘qituvchi ana shu omillarni ishlashi uchun muhit yaratishi zarur.



Ta’limning baholash tizimi, ayniqsa, o‘qish jarayoniga kirib kelayotgan yangiliklar, axborot hajmining kattaligi talabalardan mustaqil ishlash va vaqtdan to‘g‘ri foydalanishni, uni tejalashtirish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Talabaning mustaqil ish vazifalari quyidagilardan iborat bo‘ladi:

• yangi bilimlarni mustaqil tarzda puxta o‘zlashtirish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

• kerakli ma’lumotlarni izlab topish, ularning qulay usullari va vositalarini aniqlash;

• axborot manbalaridan samarali foydalanish;

• an’anaviy o‘quv va ilmiy adabiyotlar, me’yoriy hujjatlar bilan ishlash;

• elektron o‘quv adabiyotlar va ma’lumotlar banki bilan ishlash;

• internet tarmog‘idan samarali foydalanish;

• berilgan topshiriqni muntazam va me’yorida bajarish;

• ma’lumotlar bazasini tahlil etish;

• topshiriqlarni bajarishga tizimli va ijodiy yondashish;

• natijalarni muhokamaga tayyorlash va ko‘rsatilgan kamchiliklarni qayta ishlash;

• ishlab chiqilgan yechim, loyiha yoki g‘oyani asoslash, mutaxassislar jamoasida himoya qilish va boshqalar.

8.2. Mustaqil ishni tashkil qilishning xususiyatlari va tamoyillari, shakllari

Mustaqil ta’lim va uni tashkil etish o‘quv jarayonining ajralmas qismi bo‘lgani holda uning o‘ziga xos xususiyatlari mavjudki, albatta ularni hisobga olish maqsadga muvofiq. Mustaqil ishlashni tashkil qilishning asosiy xususiyatlari quyidagilar:

1. Talabalarning mustaqil ishini tashkil qilish shakllari turlicha bo‘lib, ularni bir qismi o‘quv rejasida ko‘zda tutilgan. Uni har bir talaba bajarishi shart. Ikkinchi qismi ixtiyoriy, ya’ni talabalar o‘z xohishi bilan mustaqil bajarishlari mumkin.

2. Mustaqil ishni tashkil etishning muhim xususiyati, uni talabaning o‘zi tashkil qiladi. Muvafaqqiyatga erishish uchun talabaning o‘zi sabr-toqat bilan, mashaqqatlardan qo‘rqmay o‘z ustida ishlashi kerak. Buni esa talabaning o‘zi rejalashtiradi va amalga oshiradi. Har bir talaba individual tarzda vaqtini fanlar bo‘yicha tabaqalashtirgan holda rejalashtirishi kerak. Undan kelib chiqib, talaba o‘z haftalik rejasini kunlar bo‘yicha tuzadi. Mustaqil ishlarni rejalashtirish yuzaki qaraganda talabaga hech narsa bermayotganday, hech qanaqa yordami yo‘qday tuyuladi. Lekin tajriba shuni ko‘rsatadiki, a’lochi talabalar o‘z vaqtlarini aniq rejalashtiradilar va uni bajarishga harakat qiladilar.

O‘zlashtirish bo‘yicha fakultet muvaffaqiyatini ham talabalarning o‘z vaqtlarini to‘g‘ri rejalashtirishi, uni bajarishi bilan bog‘lash mumkin.

Shuning uchun uni rejalashtirish, vaqtini ratsional taqsimlashda talabaga yordam berish lozim.

3. Sinf yoki auditoriyada olib boriladigan darslar kabi aniq joy va vaqt belgilanmagan, lekin ularni bajarish muddati jihatidan beriladigan topshiriqlar orqali ta’sir ko‘rsatiladi.

4. Mustaqil ishni bajarish uchun o‘quvchi-talaba o‘zini-o‘zi majbur qilishi kerak. Bunda ham subyektiv omil asosiy o‘rinda turadi. Talabalarni mustaqil ishini tashkil etishda o‘qishni boshqa shakllariga o‘xshab, umumiy tamoyillar mavjud. Mustaqil ishni shu tamoyillar asosida tashkil qilish kerak. Mustaqil ishni tashkil etishda oddiy elementar tamoyillarni o‘zlashtirish birinchi darajali ahamiyatga ega va ana shu murakkab jarayonni to‘laligicha qamrab oladi.

Har bir talaba mustaqil ishni tashkil etishni nimadan boshlashi kerak? Unga qanday maqsad qo‘yiladi? Ish qancha davom etadi? Uni bajarishda qanday usullardan foydalanilishini aniq ko‘z oldiga keltira

olishlari kerak. Yana shuni yoddan chiqarmaslik kerakki, mustaqil ishlarni tashkil qilish qoidalari ishlab chiqildi degani, bu ishni tashkil etildi degani emas.



Mustaqil ishini tashkil etishning asosiy tamoyili uning muntazamligidir, ya’ni doimiy, uzluksiz ravishda amalga oshirishdir. Ma’lumki, o‘quv jarayonini tashkil etishda qat’iy ketma-ketlik, uzviylikni muntazam olib borish talab qilinadi. Talaba auditoriyada olgan bilimini mustahkamlash, shu bilan birga navbatdagi yangi mavzuni puxta o‘zlashtirish uchun har kuni mustaqil ravishda tayyorgarlik ko‘rishi kerak.

Bugungi o‘tiladigan mavzuni yaxshi tushunishi va o‘zlashtirishi uchun o‘tilganlarni o‘z qobiliyati va olgan bilimi darajasini yanada chuqurlashtirishga intilishi, mustaqil takrorlashi, o‘rganishi zarur. Chunki ma’ruzada talabaga yo‘llanma beriladi. Dars davomida mavzuga tegishli barcha asosiy savollarni muhokama qilib bo‘lmaydi. Uning iloji yo‘q, ma’ruzada o‘tilgan, muhokama qilingan masalalarni psixologlarning tadqiqoti natijalariga ko‘ra, atigi 5 foizi talabalar yodida qolar ekan. O‘zi o‘qib o‘rgangani, o‘rganganlarini boshqalarga o‘rgatishi esa bir necha baravar ko‘p yodida qolar ekan. Shundan kelib chiqib, aytish mumkinki, talabaning o‘zini mustaqil tayyorlanib o‘qishi fanni o‘rganishda, uni asosiy mazmunini tushunish va o‘zlashtirishida, tahlil qilishi, o‘z fikrini ifodalashida muhim rol o‘ynaydi.

Mustaqil ishlarni bajarish muddati jihatidan xohlagancha davom etishi mumkin emas. Tajriba shuni ko‘rsatadiki, 17-25 yosh darajasida mehnatni ratsional tashkil etganda bir sutkada 9 soat unumli ishlash mumkin ekan. Haddan tashqari uzoq o‘tiradigan bo‘lsa, mehnat unumi

pasayadi, odam charchaydi, keyingi kunlari charchog‘i yozilishi qiyin bo‘lgani sababli, avvalgiday ishlay olmaydi.

Shuning uchun mustaqil ishni rejalashtirganda auditoriyada o‘tkazgan vaqtini hisobga olishi kerak. Agar, auditoriyada dars soatlari 6 soat bo‘ladigan bo‘lsa, mustaqil ishlash 3 soat, auditoriyada dars undan kam bo‘lsa 3 soatdan ko‘proq, agarda ko‘p bo‘lsa kamroq tarzda rejalashtirish kerak.

Oliy o‘quv yurtlarida haftalik mustaqil ish bajarish vaqti 22-24 soat atrofida bo‘ladi. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’lim muassasalarida o‘quvchilarning xaftalik mustaqil ishlarining umumiy hajmi 16 soatni tashkil etadi.

Albatta, bu vaqt ularni normal tarzda diqqat-e’tibor, g‘ayrat qilib ishlashiga mo‘ljallagan holda belgilanadi. Lekin real hayotda bir talaba o‘zini zo‘rlab dars tayyorlasa, ikkinchisi qiziqib, predmetni o‘rganishga ilhom bilan kirishib ketadi. Uchinchisi esa, umuman dars tayyorlagisi kelmaydi. Bunga qator obyektiv va subyektiv sabablarni keltirish mumkin.

Mustaqil ishni tashkil qilishda ish tartibini belgilash katta ahamiyatga ega. Mustaqil ishlarni bajarish uchun vaqtni semestr davomida kunlar bo‘yicha taqsimlash, uni ratsional tashkil qilishning muhim tamoyili, qoidasi hisoblanadi. Goh umuman dars tayyorlamay, goh haddan tashqari shoshib, shiddat bilan, ayniqsa semestr yakuniga, oraliq nazorat yakuniga yaqin qolganda, bajarmagan ishlarni tezda bajarishga harakat qilish ijobiy natija berishi qiyin. Bu talabaning mehnati samaradorligini, qilgan ishidan qoniqish hissini pasaytiradi. Odatda talabaning kun tartibini dars jadvali belgilaydi. Lekin ko‘p narsa talabaning o‘ziga ham bog‘liq. Masalan doklad, referat, nazorat ishi, seminar darsiga tayyorlanishga har haftada ma’lum vaqt ajratilib, muntazam ravishda olib borilmasa, kutilgan natija bermaydi.

Referat yoki doklad yozish kerak bo‘lsa, uni orqaga surmay tezda kirishish kerak. Bunda o‘qituvchi talabaga, ayniqsa, birinchi kurs talabalariga referat nima, doklad nima, uni qanday yozish, qanday tarzda adabiyot tanlash kerakligini tushuntirishi zarur.

Talabalarga iqtisodiy fanlardan dastur va seminar darslari rejasida ko‘rsatilgan adabiyotlarni taklif qilish mumkin. Bundan tashqari, hozirgi paytda chop qilinayotgan kitoblarning ko‘pchiligida foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati mavjud. Ana shu ro‘yxatdan foydalanib, zarur adabiyotlarni kutubxonada, o‘quv zalida bo‘lsa, olib o‘qish mumkin.

Undan tashqari respublikamizda chop etilayotgan “Bozor, pul, kredit”, “Jamiyat va boshqaruv”, “Moliya”, “Iqtisodiyot va moliya”, “Soliq to‘lovchining jurnali”, “Zamonaviy ta’lim”, TDIUning “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy electron jurnali, Toshkent moliya institutining “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy electron jurnali kabi qator jurnal, hamda “Mulkdor”, “Bank axborotnomasi”, “Hamkor” va boshqa gazetalarni ko‘rsatish mumkin.

Bunda, yangi yoki oldindan ma’lum bo‘lsa-da, ungacha boshqacha nuqtai nazardan qaralgan g‘oya, fikrlarni tadqiq qilish, ya’ni axborotlar to‘plash, ular ustida ishlash, o‘z fikrini bildirishga undaydigan topshiriqlar, vazifalar beriladi.

Mustaqil ishlarning ajralmas qismi bu mustaqil tahsildir. O‘quvchi, talabalarning mustaqil tahsili ularni o‘z bilimlarini kengaytirish, chuqurlashtirish, mavjud malaka va ko‘nikmalarni takomillashtirish hamda ularning yangilarini o‘zlashtirishga bo‘lgan intilishidir.

Mustaqil tahsilning asosiy maqsadi talabalarni shaxsiy va kasbiy sifatlarini shakllantirishda o‘z ustida ishlash ustunligidir. Mustaqil tahsilning asosiy metodi adabiyotlar ustida individual ishlashdir. Bu metod axborotlar oqimida eng zarur axborotni topish, unga baho berish, ushbu axborotdan o‘zining kasbiy faoliyatida foydalanish malakasini shakllantiradi.

Mustaqil ishlar tarkibida talabalardan alohida diqqat-e’tibor bilan ishlashni talab qiladigan mustaqil ish o‘rganilayotgan fandan kurs ishi hamda kasb-hunar kollejlarida diplom ishi, bakalavriat yo‘nalishida bitiruv malakaviy ishi yozish ham bor.

Mustaqil bajariladigan ishlardan biri iqtisodiy masalalarga bag‘ishlangan ilmiy adabiyotlarni yoki o‘quv adabiyotlarini konspekt qilishdir. **Konspekt qilish** - talabani fanni o‘zlashtirishi uchun katta yordam beradi. Lekin talabalar konspekt qilishni to‘g‘ridan – to‘g‘ri ko‘chirish deb tushunmasliklari kerak.

Berilgan topshiriqni bajarish o‘qishdan boshlanadi. O‘qish bu hali o‘zlashtirish emas. O‘qish, o‘qilgan matnni anglash kerak. Tushunish, o‘zlashtirish uchun qo‘shimcha ravishda aqlni ishlatish talab qilinadi. O‘zlashtirish bu yodda saqlash degani emas, albatta u o‘zlashtirishga yordam beradi. Boshqacha aytganda, uqish bu o‘qish emas. Tushunish boshqa, tushunganni o‘zlashtirilganini yodda saqlash esa yana boshqa narsa. Hammasi ham aqlni ishlatishni talab qiladi. O‘qishga minimum vaqt va kuch sarflab, harakat qilib, asosiy diqqatni tushunishga,

tushunganini yozishga, yodda saqlashga harakat qilish kerak. Sarflanadigan vaqt, uni o‘qishga qancha va tushunish uchun o‘ylashga qancha sarflanishi mavzuga, uning murakkablik darajasiga bog‘liq.

Talabalarni iqtisodiy fanlarni o‘rganishlarida iqtisodiy muammolarga bag‘ishlangan eng yaxshi adabiyotlar bilan tanishtirish, yetakchi olimlar bilan uchrashuvlar tashkil etish muhim rol o‘ynaydi.

8.3. Mustaqil izlanishning ijodiy shakllari

Ijodiy ishlarni bajarish talabalarda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirish, aniq vazifalarni bajarishda ulardan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirishda ularning aniq maqsadga qaratilgan mustaqil ishlarni bajarishi alohida o‘rin tutadi.

Talabalarning mustaqil ijodiy ishlariga referat, kurs ishi, doklad, ilmiy tezis, maqola, taqriz, esse, bitiruv malakaviy ishi va boshqa ijodiy ishlar kiradi. Pedagoglarning e’tirof etishlaricha, keyingi yillarda ijodiy izlanishga qaratilgan mustaqil ishlarga e’tibor kuchaydi. Ijodiy mustaqil ishlarning, ayniqsa kurs ishi, ilmiy doklad, bitiruv malakaviy ish, magistrlik dissertatsiyasi kabilarning ilmiy izlanishga yo‘naltirilishi katta ahamiyatga ega ekanligini nazarda tutib, ularni bajarish uchun ilmiy rahbarlar tayinlanadi.

Fanni mustaqil o‘rganishda mustaqil izlanish alohida ahamiyatga ega. Mustaqil ishlash, o‘qishdan mustaqil izlanishning asosiy farqi uni ilmiy yo‘nalishda bo‘lishi fanda, tajribada erishilgan eng so‘nggi yutuqlarni o‘rganishga diqqat qaratilishi hamda o‘z nuqtai nazarini bayon qilish va taklif, tavsiyalar ishlab chiqishga harakat qilishidir.

Mustaqil izlanishning ijodiy shakllari talabalarga mas’uliyat yuklaydi. Rahbarlardan esa o‘qituvchilik rolidan chetlashib, ko‘makchi, maslahatchi o‘rnida bo‘lishni talab qilinadi.[116] Rahbarlik qilish degani bu-izlanish jumboqlarini aniq ifoda etishda talabalarga yordam berishni; metod tanlashni; va nihoyat ma’lumot to‘plami bilan tanishib chiqishni nazarda tutadi.[117]

[116] A Handbook for Teaching and Learning in Higher Education. Enhancing Academic Practice. Third edition. Edited by Heather Fry, Steve Ketteridge, Stephanie Marshall. First edition.This edition published 2009 by Routledge 270 Madison Ave, New York, NY 10016 Simultaneously published in the UK by Routledge 2 Park Square, Milton Park, Abingdon, Oxon OX14 4RN. - p. 153.

[117] Shu kitob. 157-bet;Methods for teaching: promoting student learning in K–12 classrooms/David A. Jacobsen, Paul Eggen and Don Kauchak. 8th ed, 2009.

Talaba ishlarini ilmiy rahbar bilan rejalashtiradi. Rejada amalga oshiriladigan ishlar tartibi, vaqti, bajaradigan ishlar ko‘lami, rahbarlik uchrashuvlari vaqti belgilanadi. Ochiq muloqot uchun qulay uchrashuv joyini ko‘rsatiladi. Rahbar ishni bajarilishini kuzatib boradi, yuzaga kelgan muammolar muhokama qilinadi, o‘z mulohazalarini aytadi, tahlil qanday amalga oshirilayotganiga, reja bajarilishi va vaqt sarfi masalalariga diqqat qaratadi. Savol bilan murojaat qilish uchun imkon yaratadi. Ishni muvaffaqiyatli yakunlanishi uchun maslahatlar beradi.

Mustaqil izlanishning o‘quv shakllaridan biri **kurs ishidir.**

Kurs ishini yozish va himoya qilish jarayonida talabalar iqtisodiy fanlarni yanada chuqurroq o‘rganishadi. Kurs ishining fanni mustaqil o‘rganishdagi muhim ahamiyati shundaki, talabalar adabiyotlar bilan ishlashni, ma’lumotlar to‘plash, ularni jadval, diagrammalarda tasvirlash, xulosa chiqarish hamda o‘tilgan masala yuzasidan o‘z fikrlarini bayon qilishga o‘rganishadi. Ana shu jarayonda talabalar o‘zlari induktiv va deduktiv uslublarni qo‘llab, alohida hodisa va voqealar asosida umumiy xulosa chiqarishni o‘rganadilar.

Kurs ishi tasdiqlangan o‘quv rejada ko‘zda tutilgan ta’lim yo‘nalishlarida bajariladi.

Iqtisodiy fanlardan kurs ishi muayyan mavzu bo‘yicha umumiy yaxlitlikka ega ilmiy-amaliy fikrlarni aks ettiruvchi loyihaviy ish hisoblanadi. Kurs ishi iqtisodiy faoliyat rivojlanishi darajasiga doir masalalarni aks ettirishga mos kelishi talab etiladi.

Kurs ishi mavzuning dolzarbligi va erishilgan natijalarning amaliyotga tadbiqi, uning uslubiy darajasi hamda rasmiylashtirilishiga qarab baholanadi. Kurs ishini bajarishning muhim bosqichi rejada belgilangan savollar yoritilishida o‘zaro nazariy va amaliy aloqadorlikni ta’minlashdir. Kurs ishining tarkibiy tuzilishini to‘g‘ri shakllantirish talabaga uning maqsadi va vazifalarini aniq belgilab olish hamda ko‘zlangan natijaga erishish yo‘llarini, shuningdek, kurs ishini tayyorlash bosqichlarini ketma-ket bajarishga imkon yaratadi. Kurs ishining tarkibiy tuzilishini to‘g‘ri ishlab chiqilishi talabaga izlanishning oldiga qo‘yilgan maqsad hamda natijalarini aniq ifodalash, fikrlarni mantiqiy bayon etish uslublari va kurs ishini tayyorlash bosqichlarini ajratish imkonini beradi.

Kurs ishini himoya qilishga quyidagi umumiy talablar qo‘yiladi:

– muammoni bibliografik tahlil qilish;

– chizma va jadvallarni muayyan tizimga keltirilgan holda rasmiylashtirish;

– to‘plangan materiallarni tanqidiy o‘rganish;

– taklif va tavsiyalarni asoslab berish;

– fikrni ketma-ketlikda, muayyan izchillikda bayon qilish;

– kurs ishini qo‘yilgan talablar bo‘yicha rasmiylashtirish.

Bu mavzuni har tomonlama chuqur o‘rganib, o‘z qobiliyatini, fanni o‘zlashtirishdagi harakatini, intilishini ifodalash imkonini beradi.

Kurs ishi talaba tomonidan tanlanadi. Uning hajmi 25-30 betga (standart yozuv qog‘ozi bo‘yicha) mo‘ljallanadi. Bu mavzuni har tomonlama chuqur o‘rganib, o‘z qobiliyatini, fanni o‘zlashtirishdagi harakatini, intilishini ifodalash imkonini beradi.

- kurs ishi mavzusi faqat darslik doirasida emas, balki qo‘shimcha adabiyotlar, shu mavzu bo‘yicha monografiya, jurnal, gazetalardagi maqolalardan foydalanib yoziladi;

- kurs ishida ilmiy izlanish elementlari, nazariy qoidalar, tajribalar bilan yoritiladi;

- ish bo‘yicha reja tuziladi, reja tarkibi: kirish, asosiy qism (yoritish kerak bo‘lgan masalalar), xulosadan iborat bo‘ladi;

- kurs ishi rasmiy qabul qilingan shaklda bo‘lishi kerak, ya’ni biron bir muallifning fikri keltirilsa, jumlalar o‘zgartirilmay, qanday bo‘lsa shunday ko‘chiriladi va qo‘shtirnoq ichiga olinadi, izoh beriladi. U sahifaning eng tagiga nomerlangan holda berilib, manba ko‘rsatiladi. Unda havola qilingan muallif, asar yoki maqolaning, nashriyotning nomlari, nashr qilingan yili, beti ko‘rsatiladi;

- matn mustaqil yoziladi. Talaba kurs ishi yozishda o‘rganayotgan adabiyotlardan to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chirmay, avval o‘qib chiqib, tushunib, boshqalari bilan taqqoslab, so‘ngra o‘zining fikrini bayon qilmog‘i lozim.

Kurs ishiga qo‘yilgan bosh talab - fanni chuqur o‘rganishga erishish, ilmiy izlanishga havas uyg‘otishdir.

Kurs ishida talabalarda mavzuni o‘rganishga ijodiy yondashish, dastlabki ilmiy izlanish kurtaklarini hosil bo‘lishida kurs ishi rahbari muhim rol o‘ynaydi. Kurs ishi rahbari asosiy va qo‘shimcha adabiyotlarni tanlash, ular ichidan eng muhimlarini ajratish, reja tuzish va tanlangan mavzuni to‘la ochib berish uchun nimalarga diqqat qaratish kerakligi haqida maslahat beradi.

Kurs ishining xomaki nusxasini yozayotganda talaba tushunmagan savol yoki maslahat uchun rahbarga murojaat qiladi. Mavzu bo‘yicha ayrim adabiyotlarni to‘liq o‘qib chiqish, zarur bo‘lsa, ayrimlarini mavzu bo‘yicha u yoki bu bobi yoki sahifalarini o‘qishga, o‘rganishga to‘g‘ri keladi.

Kurs ishida qo‘yilgan savollar o‘rganilayotgan mavzuning mazmunini ochib berishi zarur. Savollar ko‘p bo‘lmasligi, mavzuning mazmunini ochib berishi lozim. Rejada qaysi adabiyotlar bilan ishlash ko‘rsatiladi. Masalan, “Iqtisodiy xarajatlar, ularning tarkibi va turlari” mavzusi bo‘yicha reja quyidagicha bo‘lishi mumkin:

Iqtisodiy xarajatlar, ularning tarkibi va turlari

Kirish

1. Iqtisodiy xarajatlarning mazmuni.

2. Iqtisodiy xarajatlarning tarkibi va ularga turli jihatdan yondashish

3. Iqtisodiy xarajatlarning turlari

4. Ishlab chiqarish omillarining nisbati va xarajatlarni minimallashtirish muammosi

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

Ilovalar

Kurs ishining, umuman olganda ilmiy izlanishning rejasi tanlangan strategiyani ifodalaydi. Unda maqsad, vazifalar belgilanadi va o‘zaro muvofiqlashtiriladi. Ularni amalga oshirish, bajarish uchun mo‘ljal olish, tahlil mezonlarini ishlab chiqish. Bunda o‘qituvchi bilan o‘quvchi-talabaning kelishuvi muhim rol o‘ynaydi. Ishning kirish qismida tanlangan mavzuning ahamiyati, fanni o‘rganishda tutgan o‘rni, ko‘rilayotgan masalaning dolzarbligi, amaliyotdagi ahamiyati ko‘rsatiladi.

“Kirish” qismida tanlangan mavzu bo‘yicha nima maqsad qo‘yilganini qisqacha bayon qilishi kerak. “Xulosa” qismida mavzu bo‘yicha chiqarilayotgan asosiy xulosalarni aniq ifodalash kerak. Ular qisqa, ishning mavzusidan kelib chiqishi lozim.

Kurs ishida ko‘tarilgan masalalar bo‘yicha, matndan kelib chiqib, bildirilgan asosiy xulosalar ishning qadr-qimmatini oshiradi. Talabaning mavzuni chuqur o‘zlashtirganidan, yaxshi bilimga ega ekanligidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida kurs ishi yozishda talaba tomonidan o‘rganilgan barcha adabiyotlar, jurnal, gazetada berilgan maqolalar, monografiya, statistik to‘plam va boshqalar to‘la ravishda muallifning ismi-sharifi, asar yoki maqola va boshqalarning nomi, nashriyot nomi, nashr qilingan yili ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak.

Kurs ishi yozganda Respublikamiz Oliy majlisi tomonidan qabul qilingan qonunlar, me’yoriy hujjatlardan, Prezidentimiz asarlaridan foydalanishga ahamiyat berish kerak.

Talabadan kurs ishida fanda yangilik yoki yangi ilmiy qoida yaratish talab etilmaydi. Talaba savollarni yoritish jarayonida ilmiy adabiyotlardan tushunib foydalanganini, to‘g‘ri umumlashtirib, xulosa chiqara bilishini, nazariy qoidalarni tajriba, amaliyot bilan bog‘lay olishini ko‘rsatishi kerak.

Ana shu jarayonda talabaning ishida ilmiy izlanish elementlari, kurs ishini yozishda mustaqil iqtisodiy fikrlay olishi namoyon bo‘ladi.

Talabalarning iqtisodiy fanlardan mustaqil ishini muhim tarkibiy qismi sifatida **referat** yozish borgan sari keng tadbiq etilmoqda. Referatni talabalarning ilmiy ish yozishi, tadqiqot o‘tkazishini dastlabki shakli sifatida ko‘rish mumkin.

Referat (lotincha **refero -** axborot beryapman) — biror ilmiy asar, o‘qilgan kitob, maqola kabilar mazmunining qisqacha yozma yoki og‘zaki bayoni, o‘rganilgan ilmiy masalaning natijasi haqidagi axborot, tegishli adabiyot va boshqa manbalar obzorini o‘z ichiga olgan ma’lum mavzudagi doklad.

Referat odatda, ilmiy axborot vazifasini o‘taydi. Unda muayyan mavzu bilan birgalikda, tegishli ilmiy nazariyalar, xulosalar yoritilishi va tanqid qilinishi mumkin. Ilmiy tadqiqot muassasalari, oliy o‘quv yurtlarida ilmiy dokladlar sifatidagi referatlar keng tarqalgan. Odatda talabalarning seminar mashg‘ulotlariga tayyorlab keladigan maxsus axborotlari ham referat deyiladi.

Referat yozish bilan talaba ilmiy adabiyotlar bilan ishlashni, statistik ma’lumotlar va boshqa materiallarni to‘plash, ularni qayta ishlash, ya’ni hisob kitob qilish, tahlil qilish, o‘rganilayotgan hodisalarga tanqidiy ko‘z bilan qarashni, baholashni, nazariyani amaliyot bilan bog‘lashni o‘rganadi.

Referat mustaqil yozilib, uni yozish qoidalariga amal qilinsa, darslik bo‘yicha savolga tayyorlanib kelib, seminar darslarda so‘zga chiqishga

qaraganda katta foyda beradi. Talaba referatda bildirgan o‘z fikrini auditoriya oldida himoya qila olishi kerak.

Referat yozish formal bo‘lsa kutilgan natijani bermaydi. Shuning uchun o‘qituvchining rahbarligi katta rol o‘ynaydi. Referatlarga qay darajada talab qo‘yiladi, shunga ko‘ra uni muvaffaqiyatli qo‘llash mumkin yoki aksincha.

Ilmiy doklad, tezis, maqola yozish

O‘quv yurtlarida keng qo‘llaniladigan mustaqil izlanishning yana bir turi **doklad**dir. Dokladga: 1) majlis ahli uchun mo‘ljallangan muayyan mavzudagi axborot, maruza; 2) talabalarning mustaqil ish turi; 3) ilmiy ish turi sifatida qarash mumkin. Talabalar dokladni mustaqil ish turi sifatida seminar darslariga tayyorlab kelishlari mumkin. Lekin doklad odatda ko‘proq ilmiy, amaliy konferensiya, seminarlar uchun tayyorlanadi. Uning asosiy mag‘zi **ilmiy tezis**larda ifodalanadi, anjuman materiallarda chop etiladi.

Doklad tayyorlash jarayonida talaba adabiyotlar bilan ishlash, turli manbalardan olgan materiallarini umumlashtirish, o‘z fikrini yozma ravishda ifodalashga o‘rganadi. Uni tayyorlash uchun o‘quv, ilmiy adabiyotlarni chuqur o‘rganish, fanni nazariy jihatdan puxta o‘zlashtirishi kerak. Tanlangan mavzuga ijodiy yondashib, dalillar, statistik ma’lumotlar to‘planadi. Tahlil qilinayotgan masala bo‘yicha mavjud fikrlar, qarashlar o‘rganilib, talaba ularga o‘z nuqtai nazarini bildiradi. O‘z kuzatishlari, tadqiqotlarini ishlata bilgan holda tayyorlashlari kerak.

Ilmiy doklad mavzuni kurs ishiga qaraganda ham chuqurroq o‘rganish, dalillar, statistik ma’lumotlar to‘plash, ular asosida zarur iqtisodiy ko‘rsatkichlarni hisoblash, ularni tahlil qilish xulosa chiqarish hamda o‘z takliflarini bayon qilish bilan ajralib turadi. Boshqacha aytganda, kognitiv – ya’ni bilishning eng yuqori – baholash darajasida fikr yuritiladi. Unda talaba tadqiqot mavzusi bo‘yicha o‘z takliflarini beradi.

Ilmiy doklad, tezislar yozish, o‘z navbatida talabalarning ilmiy-amaliy konferensiya, seminarlarda faol qatnashishlari, o‘z mavzulari bilan chiqishlariga, o‘z fikrlari, g‘oyalarini himoya qilishga katta imkoniyat yaratadi.

Talabalarning ijodiy mustaqil ishlarining muhim tarkibiy qismi sifatida **ilmiy maqola** yozish borgan sari keng tadbiq etilmoqda. Ilmiy maqola tayyorlaganda nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘lashga,

iqtisodiyotning biron yo‘nalishi bo‘yicha, undagi muammolarni o‘rganishni natijasi sifatida amaliy tavsiya, takliflar berilishi kerak.

Maqola yozish bilan talaba ilmiy adabiyotlar bilan ishlashni, statistik ma’lumotlar va boshqa materiallarni to‘plash, ularni qayta ishlash, ya’ni hisob-kitob qilish, tahlil qilish, o‘rganilayotgan hodisalarga tanqidiy ko‘z bilan qarashni, baholashni, nazariyani amaliyot bilan bog‘lashni o‘rganadi.

Siz maqola yozish uchun o‘zingiz qiziqqan mavzu bo‘yicha chop etilgan nashrlarni sinchiklab o‘rganish, mualliflar keltirgan muammolar va uning taklif etilgan yechimlariga alohida diqqat qaratishingiz zarur.

Navbatda bu masala amaliyotda, real hayotda qanday yechilayotgani, yana qanday muammolar borligi haqida axborot to‘plash zarur. Tadqiqot uchun zarur axborotni olish yo‘llari va tadqiqot etikasini belgilash, tadqiqot obyektining tanlovi, birlamchi yoki ikkilamchi ma’lumot manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi qarorlar, tadqiqot strategiyasini (kuzatish, eksperiment, keys-stadi, savolnoma, etnografik, arxiv tadqiqot va h.k.) aniqlash bo‘yicha ratsional qaror qabul qilish asosida qo‘yilgan muammoning aniq yechimiga olib chiquvchi yo‘lini aniqlashni anglatadi. Ularga asoslanib, tadqiqot muammosi, uning dolzarbligi, tadqiq etish doirasi bo‘yicha sizda aniq tasavvur shakllanadi.

Endi siz tanlab olgan mavzu doirasi bo‘yicha belgilab olgan axborotni olish yo‘llari orqali statistik ma’lumotlar, buxgalteriya hisobotlari, internet saytlari va boshqa manbalar orqali zarur axborotlarn to‘playsiz, ularni o‘rganasiz, tahlil metodlarini tanlaysiz.

Mavzuga oid sinchiklab o‘rgangan adabiyotlaringiz haqida o‘z fikringizni bildirasiz. U mavzu doirasidagi bilimlarni kuchaytiradi va tadqiqot savollarini yanada oydinlashtirishga yordam beradi. O‘z mazmuniga ko‘ra har qanday tadqiqot ayni shu sohada yaratilgan avvalgi bilimlar negiziga quriladi. Adabiyotlar bo‘yicha tahlil asosan sohadagi eng yangi jurnal maqolalari va boshqa turdagi ma’lumot manbalari asosida amalga oshiriladi.

Maqolaning asosiy qismida tadqiqot muammosining yechimiga olib boruvchi bosh rejasini tuzib, aniq belgilangan yo‘l bo‘yicha yiqqan axborotlarni qayta ishlash, iqtisodiy fanlar uchun eng muhim dalillar bu raqamlar bo‘lgani, xulosa chiqarish uchun ularning dinamik o‘zgarishini kuzatish zarurligi, buning uchun iqtisodiy ko‘rsatkichlar tanlash, ularni hisob-kitob qilish, jadvallar, grafik, diagrammalarda ifodalashni talab qiladi.

Maqolada jadval, chizma va rasmlarning berilishi uni o‘quvchisining muammoning namoyon bo‘lishi, uning yechim yo‘nalishini muallif qanday hal etganini tezda anglab yetishi, baho berishiga ko‘mak beradi, maqola sifatini oshiruvchi manba bo‘lib xizmat qiladi.

Metodologiya qismining mukammalligi tadqiqot uchun belgilangan yo‘lning ishonchliligi va aniqliligini ta’minlaydi.

Tanlangan yo‘l bo‘yicha yig‘ilgan ma’lumotlarning tahlili amalga oshiriladi va bayon qilinadi. Topilgan natijalar bo‘yicha muhokama beriladi.

Tadqiqotning maqsad, vazifalari bajarilganligi hamda tadqiqot savollarining o‘z javobini topganligi, tadqiqotning asosiy natijalariga umumiy xulosalar, shu bilan birga, takliflar va ayni tadqiqotdan kelib chiqqan holda kelajak tadqiqot ishi yo‘nalishlari maqola xulosa va takliflari qismining asosini tashkil etishi lozim.

Maqola yakunida tadqiqotda foydalanilgan barcha adabiyotlar ro‘yxati beriladi.

Har bir nashrning maqolaga qo‘yiladigan talablari bir-biridan ma’lum darajada farq qiladi. Lekin barcha nashrlar maqolada qisqacha annotatsiya va tayanch so‘zlar bo‘lishini bir xilda talab qiladi.

Maqolalarning qisqacha annotatsiyasi 8-10 qatordan oshmagan holda o‘zbek, rus va ingliz tillarida beriladi. U maqolaning to‘la mazmunidan kelib chiqqan holda muallifning ilmiy va amaliy hissasining qisqacha mazmuni yoritiladi.

Tayanch so‘zlar maqola mazmuni va maqsadini eng qisqa mazmunda ochib beruvchi kalit so‘zlar hisoblanadi. *scholar.google.com* yoki *google.com* qidiruv tizimida maqola oson va eng birinchi sahifalarda topilishi uchun tayanch so‘zlarning har biri asosiy matn tarkibida o‘rtacha 5-10 marta takrorlanishi tavsiya etiladi.

Shunday qilib, referat, kurs ishi, ilmiy doklad, bir tomondan, ilmiy ishlarning yakuni sifatida, o‘z ustida ishlashlari, izlanishlariga yakun yasasa, ikkinchi tomondan, ularni yanada yangi ishlarga rag‘batlantiradi, dunyoqarashini rivojlanishi, o‘z faoliyatini aniq maqsadga yo‘naltirishga, yanada chuqurroq bilim olish, o‘z ustida ishlashga, iqtisodiy fikrlash, ilmiy izlanishga, fikrini mantiqiy izchillikda ham og‘zaki, ham yozma ravishda bayon qilishga o‘rgatadi.

8.4. Fanga va ilmiy izlanishga qiziqish uyg‘otishda talabalar ilmiy to‘garaklari, olimpiadalar roli va ahamiyati

Barkamol avlodni tarbiyalashda faqat o‘quv materiallarini o‘rganish, darsga qatnashish, berilgan uy vazifalarini bajarish kifoya emas. Ularni mustaqil ravishda ijodiy izlanishga o‘rgatish fanlardan qo‘shimcha mashg‘ulotlarni tashkil etish va o‘tkazish ayniqsa, to‘garaklar faoliyatini tashkil etish muhim o‘rin tutadi.

Ma’lumki, hozirgi paytda birinchidan, axborot oqimi nihoyatda katta, ikkinchidan, bilimlarning tez eskirishi yuz bermoqda. Bu muammoni yechishning muhim yo‘llarilan biri o‘quvchi-talabalarning bo‘sh vaqtidan oqilona foydalanish, ularni o‘z ustilarida muntazam mustaqil ishlashlarini tashkil etish bo‘lib, uni amalga oshirishda to‘garaklar alohida muhim ahamiyatga ega.

To‘garaklar o‘quvchi-talabalarning bo‘sh vaqtlarini oqilona tashkil etish, ularning chuqur bilimga ega bo‘lish, kasbiy va intellektual salohiyatlarini rivojlantirish maqsadini ko‘zda tutadi.

Bunda o‘quvchilarning mashg‘ulotda olgan bilimlarini mustahkamlash, mustaqil ishlash, ijodiy tafakkur, qobiliyatlarini hamda amaliy ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish iqtisodiy fanlarga ayniqsa mutaxassislik fanlariga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish nazarda tutiladi.

Bunday qo‘shimcha mashg‘ulot ko‘rinishlari turlicha. Konferensiya va seminarlar, fan dasturi bo‘yicha ekskursiya o‘tkazish, fan to‘garaklarida qatnashish, kechalar, olimpiada va turli konkurslar o‘tkazish, o‘quv va ilmiy-ommabop kinofilmlar namoyishi, devoriy gazeta va byulletenlar chiqarish va boshqalar. Bu mashg‘ulotlarni tashkil etishda quyidagi tamoyillarga amal qilish kerak:

• ixtiyoriylik;

• o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish;

• har tomonlama barkamol, garmonik ijodiy rivojlanishini ta’minlash;

• qo‘shimcha mashg‘ulotlarning ijtimoiy ijobiy samaraga yo‘naltirilishi;

Bu mashg‘ulotlar orasida o‘quvchi-talabalrni o‘z ustilarida muntazam ravishda ijodiy, ilmiy izlanishga yo‘naltiradigan kafedra tomonidan tashkil etilgan ilmiy to‘garaklar katta ahamiyatga ega. Bunda kafedra o‘rganilayotgan fan bo‘yicha talabalarning qiziqishi, fandagi yangiliklar o‘rganilishi, tadqiq etilishi lozim bo‘lgan muammolarni ilmiy

to‘garaklarda muhokama qilinishini ko‘zda tutishi kerak. Talabalar to‘garakda tayyorlagan ilmiy dokladlarini tinglovchilar hukmiga havola etar ekanlar, to‘garak a’zolari ham uni muhokamasida faol ishtirok etishlarini ta’minlash zarur. To‘garak a’zolarini soni, muhokama qilinadigan masalalar, ilmiy dokladlar miqdori, mavzularning mazmuni va boshqalarga ko‘ra to‘garak rahbari oy davomida ilmiy to‘garaklar majlisi o‘tadigan kunlarni belgilaydi. Eng yaxshi baho berilgan ilmiy dokladlar talabalarning ilmiy konferensiyalarida qatnashishga tavsiya etiladi.

O‘tkaziladigan konferensiyani umumiy mavzusini tasdiqlagach, dokladlarni mavzu yo‘nalishiga ko‘ra guruhlarga ajratgan ma’qul.

O‘tkaziladigan talabalarning ilmiy konferensiyasida eng yaxshi deb topilgan dokladlar rag‘batlantiriladi, keyingi bosqichlarda qatnashishga tavsiya etiladi.

Undan tashqari, ilmiy to‘garak ishini muntazam tashkil etish, talabalarning ijodiy kunlari, ilmiy davralari, anjumanlari, konkurslari olimpiada va ko‘rgazmalarini vaqti-vaqti bilan o‘tkazib turish shubhasiz talabalar faolligini oshiradi. Ularni fanni o‘rganishga rag‘batlantiradi.

Hozirgi kunda o‘quv yurtlarida shu ta’lim muassasasining mutaxassis tayyorlashdagi ishlab chiqqan modeli, maqsadi va qator boshqa talablarni hisobga olgan holda ilmiy to‘garaklarning Nizomlari ishlab chiqilgan hamda ular yuz berayotgan o‘zgarishlarni hisobga olgan holda takomillashtirilmoqda.

Ikkinchidan, to‘garak faoliyatining samaradorligi to‘garak rahbari bo‘lgan ustoz-murabbiyning tashkilotchiligiga, o‘z fanini, kasbini, talabalar, shogirdlarini qay darajada sevishi, tushunishiga bog‘liq.

To‘garak rahbari uning ishini tashkil etar ekan, albatta muvofiq ravishda vaqt sarflaydi, mehnat qiladi. Shuni hisobga olgan holda sarflangan professor-o‘qituvchilarning o‘quv yuklamasining vaqt me’yorlarida o‘z aksini topsa, uning mehnati munosib taqdirlangan bo‘lar edi.

Fan o‘qituvchisining vazifalaridan biri, bu talabalarni **olimpiadalar**ga tayyorlash, ularni tashkil etish va o‘tkazish bo‘lib hisoblanadi. O‘quvchi-talabalarning fanlar bo‘yicha o‘tkaziladigan olimpiadalari ularning bilim darajasini oshirishga yordam beradi, fanga qiziqishlarini shakllantiradi, ma’lum soha bo‘yicha o‘qishni davom ettirish va kasb tanlashida katta ahamiyatga ega. O‘quvchilarning

umumiy ta’lim tayyorgarligini har tomonlama oshirish, fikrlash va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Olimpiada bu avvalo fanlar bo‘yicha o‘quvchi-talabalar o‘rtasidagi musobaqa bo‘lib, unda ular o‘zlariga raqobatbardosh tengdoshlari bilan musobaqalashadi. Olimpiadalarga tanlangan savol va masalalar qiyinlik darajasi, keng qamrovliligi, o‘quvchilardan nazariy bilimni, amaliy ko‘nikma va malakani, keng doirada fikrlay olishni talab etishi bilan ajralib turadi.

Fan olipiadalarini tashkil etish, o‘tkazish uchun aniq metodik ishlanmalar yo‘q. By bir tomondan kamchilik sifatida ko‘rish mumkin, ikkinchi tomondan esa ijobiy, chunki turli o‘quv yurtlari tomonidan to‘plangan tajribalar asosida ularni samarali variantlarini tanlash, yanada takomillashtirish amalga oshiriladi. Olimpiada o‘tkazish q’uyi-dagi maqsadldrni amalga oshirishni ko‘zda tutadi:

* iqtisodiyotni o‘rganilayotgan predmetni keng qamrovli va chuqur o‘rganish;

* o‘quvchi-talabalarni mustaqil ishlashlarini faollashtirish, qo‘shimcha bilim olishga intilishlarini kuchaytirish;

* ijodiy tashabbuskorlikni rivojlantirish va olgan bilimlaridan foydalana bilishga yo‘naltirish;

* eng yaxshi tayyorgarlik ko‘rgan o‘quvchi-talabalarni aniqlash va ularni individual qobiliyatlarini namoyish qilishga imkon yaratish;

* olingan iqtisodiy bilimlar sifatini nazorat qilish;

* bo‘lajak iqtisodchilarning iqtisodiy tafakkurini rivojlantirish va boshqalar. Olimpiada qanday shaklda o‘tkazilmasin, ular o‘qitish sifatini oshirish, o‘quvchi-talabalarni bilim olishga ishtiyoqini kuchaytirishga qaratilgan bo‘lishi kerak.

Olimpiada o‘tkazishda ayniqsa topshiriqlar ishlab chiqish o‘ta muhim ahamiyatga ega. Iqtisodiy fanlar turli-tuman. Shuning uchun topshiriqlar fanning o‘ziga xos xususiyatini hisobga olgan holda:

- og‘zaki, yozma, testlar va boshqalarni o‘z ichiga olgan holda ularni ijodiy tafakkurga yo‘naltirishi hamda o‘quvchi-talabalarning qobiliyatini har tomonlama baholashga imkon berishi kerak;

- topshiriqlar tayyorlashda ularni o‘ta murakkab yoki sodda bo‘lmasligiga e’tibor berish zarur, chunki unisi ham, bunisi ham o‘quvchi-talabalarning o‘z bilim darajalarini baholashlariga ta’sir ko‘rsatadi;

- topshiriqlar ularni fanga taalluqli bo‘lgan axborotlardan har tomonlama xabardorligini, ijodkorligini aks ettirishga yordam berisi kerak;

- topshiqlarni bajarish ajratilgan vaqtga to‘g‘ri kelishi kerak;

- tayyorlangan topshiqlar haqida sir saqlanishi zarur, undan faqat tor doirada bilishi zarur bo‘lgan kishilargina xabardor bo‘lishi kerak;

- ish natijalarini baholash jyuri a’zolarini saylashga, ularning xolis, adolatli qaror qabul qilishlarini ta’minlashni ham nazardan qochirmaslik zarur. Xullas olimpiadalar talabalarni kelajakda turli tanlovlarda qatnashishga ilhomlantirishi, asos yaratishi kerak.

8.5. Talabalar vaqtini taqsimlash va portfoliosini shakllantirish

Talabalarning mustaqil ishlarni bajarishi bo‘sh vaqtni rejalashtirish bilan bog‘liq. Bunda darsdan keyingi vaqtni qanday o‘tkazishni rejalashtirish muhim rol o‘ynaydi.

Prezidentimiz mamlakatimizning qudratli, xalqimizning kuchli bo‘lishi aholining intellektual jihatdan barkamol, yoshlari bilimli, or-nomusli, vatanparvar bo‘lib yetishishi, ularni vaqtini bekor o‘tkazmaslik turli zararli ta’sirlarga tushib, har xil guruhlarga qo‘shilib qolmasligi uchun “… biz o‘z farzandlarimizning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etishimiz, ularni qo‘shimcha o‘qish, kasb-hunarga o‘rgatish, sport bilan band qilishga alohida va doimiy e’tibor qaratishimiz darkor”[118]- deb ta’kidlaydi.

Aqliy mehnat qilib charchaganda kishining miyasi toliqadi. Bu uning psixologiyasiga ta’sir ko‘rsatadi. Surunkali ruhan va aqlan charchash jismoniy charchashga qaraganda ko‘proq sog‘liqqa salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun charchaganda dam olish kerak. Hamma uchun dam olish tartibi bir xil bo‘lmaydi. Bu o‘z-o‘zidan ma’lum. Har bir talabaning o‘zi dam olish va ishlash tartibini belgilaydi. Lekin shunga qaramay har bir talaba yodida tutish kerak: auditoriyada dars jadvali bo‘yicha 6 soat o‘qigach, ma’lum vaqt miya dam olishi kerak. Psixologiya bo‘yicha mutaxassis - olimlarning fikricha kamida 3 soat boshqa yumushlar bilan shug‘ullanishi, dam olishi, ayniqsa ochiq havoda sayr qilishi tavsiya etiladi. Dars tayyorlaganda mustaqil ravishda adabiyotlar bilan ishlaganda har bir yarim soatda 10-15 minut dam olishi maslahat beriladi. Eng yaxshi dam olish shakllari - bu harakatga

[118] Каримов И.А. Хавфсизлик ва тинчлик учун курашмоқ керак. 10-том, Т.: Ўзбекистон, 2002. 98 б.

asoslangan sayr qilish, sport bilan shug‘ullanish, uy yumushlarini bajarishdir. Hatto radio eshitayogan chog‘da ham tik turib harakat qilish, chuqur nafas olish, dam olish paytida o‘rganilayotgan predmet haqida o‘ylamaslik kerak.

Ko‘zlagan ishni bajargandan keyingi dam olish, ishni bajarmay dam olishga qaraganda ko‘ngilliroq bo‘ladi. Buni yoddan chiqarmaslik kerak. Chunki odam bajarilishi zarur bo‘lgan ishning tashvish yukidan xalos bo‘ladi!

Talabaning sog‘lom bo‘lishi, to‘g‘ri kamol topishi, ko‘p jihatdan qat’iy kun tartibiga amal qilishi, gigiena madaniyatiga bog‘liq, qat’iy kun tartibiga amal qilish insonni ritm bilan bir zaylda ishlashga odatlantiradi.

Kun tartibiga rioya qilmaslik yoki uning butunlay yo‘qligi (vaqtida ovqatlanmaslik, yetarlicha uxlamaslik, dam olmaslik aqliy va jismoniy mehnatning betartibligi) - bularning hammasi a’zoi-badanni bo‘shashtiradi, tananing butun hujayralarini, xususan, bosh miya hujayralarini ishlashini yomonlashtiradi.

Kun tartibini rejalashtirishda uyg‘onish vaqti, ertalabki gimnastika, auditoriyada o‘qish vaqti, kuniga 3-4 marta ovqatlanish, ochiq havoda bo‘lish, aqliy mehnatni jismoniy mehnat bilan almashinishini hisobga olish zarur. Kundalik rejim bir qolipda bo‘lmasligi kerak. Talaba kundalik faoliyatini rejalashtirar ekan, albatta mustaqil ishlashni ham hisobga olish zarur.

Unutmang!

1. Dars tayyorlayotganda bir fandan topshiriqni to‘la bajargandan so‘ng tanaffus qiling. Agar topshiriq ko‘p vaqtni oladigan bo‘lsa uni qismlarga bo‘lib bajaring. Chunki tanaffus yana ishga “sho‘ng‘ishingiz” uchun diqqatni jamlashga qo‘shimcha vaqt talab qiladi.

2. Dars tayyorlayotganda boshqa narsalarga e’tibor bermang, maksimal darajada diqqatingizni bajarayotgan vazifangizga qarating.

3. Bajarayotgan ishlaringizni zarurligi va tutgan o‘rniga ko‘ra ketma-ketligini rejalashtiring.

4. Har bir ishni bajarish uchun o‘zingiz muddat belgilang.

5. Bir ishni boshlagach ikkilanmang, chunki ikkilanish ish layoqatingizni yo‘qotadi.

Bu qoidalarga bo‘lajak mutaxassis sifatida o‘zingiz rioya qilishingiz kerak bo‘lsa, kelgusida pedagog sifatida shogirdlaringizni ham rioya qilishga undashingiz zarur.

Talabalar mustaqil ishlarining samaradorligi vaqt byudjetidan oqilona foydalanishiga bog‘liq. Bunda talabalar vaqtdan foydalanish tajribalarini o‘rganishi, ulardan kelib chiqib, vaqtini taqsimlashi zarur.

Talaba-yoshlarning mustaqil mutolaa qilishlari uchun zamonaviy kutubxona, o‘quv zallari, kompyuter markazlari, xalqaro ilmiy axborot markazlari bo‘lishi katta ahamiyatga ega.

Magistrning mustaqil ishining asosiy qismi magistrlik dissertatsiya, ilmiy tezis va maqolalar yozishga qaratilgan. Chunki, magistratura bosqichi o‘quv jarayoninig tarkibiy qismi DTSga muvofiq 50-55 %ini ilmiy faoliyat tashkil etadi.

Ilmiy tadqiqot ishining asosiy maqsadi olingan bilimlarni tizimlashtirish, kengaytirish, mustahkamlash, ilmiy ish, tadqiqot olib borish, ko‘nikmalarini shakllahnirish hisoblanadi. Shuning uchun mustaqil ishlasnni to‘g‘ri tashkil etishni magistr uchun ahamiyati katta.

Ta’lim tizimini modulli yondashuv asosida tashkil etilishi o‘z navbatida o‘quvchi-talabalarning mustaqil ishlari bo‘yicha portfoliosini[119] hamda masofadan o‘qitishni joriy etish orqali mustaqil ishlashni muntazam bajarilishini amalga oshirish imkonini kengaytirdi. **Portfolio –** bu talabaning o‘quv va ijodiy mehnatini natijasi, o‘z imkoniyati, qobiliyatiga ko‘ra mustaqil bajargan ishlari majmuasi bo‘lib, o‘z salohiyatini namoyon qilish vositasidir.

Talabalarning o‘z portfoliolarini shakllantirishlari oldilariga qo‘ygan maqsadlarini amalga oshirishga katta yordam beradi:

1. Istiqbolli ish o‘rniga ega bo‘lishda (rahbariyat va hamkasblar yosh mutaxassis bilan yaqindan tanishish imkoniyatiga ega bo‘ladilar).
2. Ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishda (tadqiqot natijalarini patentlashtirish imkoniyatini ta’minlaydi).
3. Fan olipiadalarda ishtirok etishda (olipiadaning turli bosqichlarida talabaning imkoniyatlarini baholash va chamalashga muvffaq bo‘linadi).
4. Turli nomdor hamda Prezident stipendiyasiga talabgor bo‘lishda (tanlov hay’ati talabaning imkoniyatlaridan to‘la xabardor bo‘ladi).
5. Shaxsiy maqsadlarni amalga oshirishda (qo‘shimcha faoliyat turi bilan shug‘ullanishda hamkorlarga talaba shaxsini yaqindan tanishtirish imkoniyatini yaratadi).

[119] Portfolio ingliz, italyan tilidan olingan bo‘lib, “hujjatlar bilan papka”, “mutaxassis papkasi” degan ma’noni anglatadi. Portfolio – bu asosan uning egasining o‘z imkoniyatlarini namoyon etishga mo‘ljallangan ishlar to‘plami.

O‘quv portfoliosini yaratishga qaratilgan amaliy harakat bir necha bosqichda tashkil etiladi. Ya’ni:

1-bosqich. Talabalarga portfolioning afzalliklari, uni yaratishdan ko‘zlangan maqsad, portfolioning turlari haqida ma’lumot beriladi.

2-bosqich. Talabalar portfolioning tuzilishiga oid ma’lumotlar bilan tanishtiriladi.

3-bosqich. Amaliy harakatlarni tashkil etish asosida talabalar o‘z portfoliolarini yaratadilar.

Mohiyatiga ko‘ra o‘quv portfoliolari bir necha turga bo‘linadi. Ular:

1. Hujjatlar portfoliosi (bunda talabaning indiviudal ta’limiy muvaffaqiyatlari aks ettiruvchi diplom, faxriy yorliq, guvohnoma va boshqalar jamlanadi).

2. Ishlar portfoliosi (unda talaba tomonidan bajarilgan ijodiy ishlar, loyihalar, tadqiqotlar, ularning natijalarini aks ettiruvchi reyting daftarchasi, ijodiy ish daftari, elektron hujjatlar, modellar, loyihalar, ijtimoiy, ishlab chiqarish, pedagogik amaliyotga doir hisobotlar, talaba tomonidan mustaqil yoki guruhdoshlar bilan hamkorlikda to‘plagan adabiyotlar, davriy nashrlarning kseronusxalari, illyustratsiyalar joy oladi).

3. Natijalar portfoliosi (bunda talabaning o‘zi yoki pedagoglar tomonidan jamlangan talabalarning eng yaxshi ishlari o‘rin oladi; natijalar portfoliosi individual va guruhli bo‘lishi mumkin; ushbu portfolioda aks etgan ma’lumotlar asosida “Eng yaxshi talabalar guruhi” tanlovini tashkil etish mumkin).

4. Baholovchi portfolio (u talabaning bilim, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilish maqsadida shakllantiriladi; bu turdagi portfoliodan nazorat ishlari, testlar, chizmalar, krossvordlar va boshqalar o‘rin oladi).

5. Taqrizlar portfoliosi (bunda talaba tomonidan erishgan yutuqlarni baholashga doir xulosa, taqriz, rezyume, esse, tavsiyanoma va tavsifnomalar jamlanadi)

6. On-line portfolio (bu kabi portfolio turli shakllarda namoyon bo‘ladi; masalan: 1) talabalar tomonidan oliy ta’lim muassasasi yoki fakultet saytiga materiallarni qo‘shish; 2) shaxsiy veb-saytlarni yaratish; 3) semestr yakunlari bo‘yicha hisobot tayyorlash).

Portfoliolar yaratilishiga ko‘ra ham turlicha bo‘ladi. Ya’ni ular elektron, bosma va qog‘oz variantlarda yaratiladi. Qaysi variantda portfolioni yaratishni subyektning o‘zi tanlaydi.

Talabalarning portfoliolari quyidagi tuzilishga ega bo‘ladi:

1) titul;

2) mundarija;

3) portfolioning maqsadi;

4) portfolioning bo‘limlari.

Turiga ko‘ra portfoliolar bir necha bo‘limlarni o‘z ichiga olishi mumkin. Masalan, “Ishlar portfoliosi” quyidagi to‘rtta bo‘limdan tarkib topadi:

1. Mening qiyofam (talabaning shaxsiga oid ma’lumotlar talabaning rasmi, esse, anketa, tavsifnomalar asosida beriladi; unda quyidagi lavhalar mavjud: “Mening anketam”; “Tanishing – bu men!”; “Mening o‘ylarim”; - “Men va mening qiziqishlarim”.).

2. Kollektor (talaba tomonidan mutaxassislik fanlari bo‘yicha to‘plagan materiallar (adabiyotlar ro‘yxati, chizma, jadval va rasmlar, maqolalarning kseronusxalari, kursdoshlarining ijodiy ishlari) o‘rin oladi; bo‘lim quyidagi lavhalardan iborat bo‘lishi mumkin: “Ish stoli”; “Bu qiziq”; “Kursdoshlarim ijodidan”; portfolio-kollektor uncha katta bo‘lmagan o‘ziga xos arxiv sanaladi).

3. Ish materiallari (talabaning o‘zi tomonidan yaratilgan, tizimlashtirilgan barcha materiallar kiritiladi; bo‘limning lavhalari quyidagicha bo‘lishi mumkin: “Yozma ishlar”, “Ijodiy ishlar”, “Tadqiqot tajribalari”, “Amaliyot ishlanmalari”).

4. Shaxsiy yutuqlar (talabaning yarim, bir o‘quv yili yoki yaxlit ta’lim davrida erishgan yutuqlari, qo‘lga kiritgan natijalari aks etadi; unda quyidagi lavhalar bo‘lishi mumkin: “Mening bunyodkor g‘oyam”; “Mening ta’lim borasidagi tashabbuslarim”).

Umuman olganda, portfolio har bir pedagog yoki talabaning maksimal darajada erishgan yutuqlari, ularning ijodiy imkoniyatlari, qiziqish hamda qobiliyatlarini yoritadi. Shu bilan birga o‘z ustida muntazam mustaqil ishlashining natijasini ko‘rsatuvchi hujjat. Boshqacha aytganda, portfolio pedagog yoki talaba uchun o‘ziga xos reklama. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyasi, Beruniy, Ibn Sino, Navoiy, Ulug‘bek va Imom al-Buxoriy nomidagi davlat stipendiyalariga ega bo‘lishda ularning iqtidori, mehnatini baholashda, komissiyaning adolatli qaror chiqarishiga yordam beradi.

Takrorlash va munozara uchun savollar

1. O‘quv jarayonida mustaqil ishlarning tutgan o‘rni qanday?
2. Nima sababdan mustaqil ta’limga alohida e’tibor qaratilayapti?
3. Mustaqil ta’limning asosiy maqsadi nima? U qanday vazifalarni bajaradi?
4. Talabalarning mustaqil ishini tashkil etishning qanday asosiy tamoyillarini bilasiz?
5. Kurs ishi, ilmiy doklad, referat va boshqa mustaqil ishlarni bajarish, sizningcha, qanday ahamiyatga ega?
6. O‘quvch-talabalarning mustaqil izlanishida fan to‘garaklarining roli qanday deb o‘ylaysiz? Nima sababdan ixtiyoriylik tamoyiliga alohida diqqat qaratiladi?
7. Fan olimpiadalarini o‘tkazishdan maqsad nima?
8. Talabalar vaqtini samarali taqsimlash deganda nimani tushunasiz?
9. Sizningcha hamma o‘z ustida muntazam mustaqil ishlashini ta’minlash uchun nima qilish kerak deb o‘ylaysiz?
10. Portfolio nima? Uning qanday turlarini bilasiz?

IX BOB. MAXSUS FANLARDAN O‘QUV AMALIYOTINI TASHKIL ETISH VA O‘TKAZISH

Ma’lumki, mutaxassis kadrlar tayyorlashda kasbiy ta’lim jarayonida nazariy bilimlar tizimi shakllantirish bilan birga, amaliy ko‘nikmalar hosil qilishga alohida diqqat qaratiladi. Amaliy ko‘nikmalar odatda amaliy metodlar va amaliy faoliyat asosida shakllantiriladi. Amaliy metodlarga masala, mashqlar, keys stadi, loyihalash metodlari, laborotoriya va amaliy mashg‘ulotlar kirsa, magistrantning professor-o‘qituvchi, tajribali mutaxassisning ilmiy rahbarligi ostida olib boradigan mustaqil ilmiy faoliyati tashkil etadi. Magistratura talabalarida ko‘nikma va malaka hosil qilishda ilmiy-pedagogik ish alohida o‘rin tutadi. Mazkur bobimiz amaliyot o‘tashni o‘rganishga bag‘ishlangan.

9.1. Iqtisodchi-pedagoglar tayyorlashda ilmiy tadqiqot va ilmiy pedagogik ish (amaliyot)ning tutgan o‘rni va roli

Mamlakatimizda hayotga tatbiq etilayotgan demokratik va bozor islohotlari talablariga javob beradigan belgilangan vazifalarga muvofiq kadrlarni tarbiyalash, ularga ta’lim berish va tayyorlash tizimi tubdan isloh qilindi. Respublikamizda uzluksiz ta’lim va yosh avlodni barkamol etib tarbiyalashning milliy modeli yaratildi. Mamlakatimizda faol, o‘z maqsadi sari intiluvchan, serqirra iste’dod va yuksak ma’naviy fazilatlarga ega, zamonaviy bilim hamda kasblarni egallagan – bugungi va ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchi bo‘lgan yoshlarni tarbiyalash uchun alohida e’tibor berilmoqda va buning uchun barcha sharoit va imkoniyatlar yaratilmoqda. Chunki, barkamol avlod – mamlakatimizni rivojlantirishda hal qiluvchi kuch ekanligini birinchi Prezidentimiz I.A. Karimovning tashabbusi bilan tashkil etilgan “Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti” mavzusidagi xalqaro konferensiyaning ochilish marosimida so‘zlagan nutqida ta’kidlaganidek, *“... inson kapitaliga yo‘naltirilayotgan investitsiya va qo‘yilmalarning o‘sishini, hozirgi zamonda demokratik taraqqiyot, modernizatsiya va yangilanish borasida belgilangan maqsadlarga erishishda eng muhim qadriyat va hal qiluvchi kuch*

bo‘lgan bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash vazifasini doimo o‘zining asosiy ustuvor yo‘nalishlari qatoriga qo‘yadigan davlatgina o‘zini namoyon eta olishi mumkin”.[120]

Respublikamizning uzluksiz ta’lim tizimi o‘zining izchilligi bilan yosh avlodning yorqin kelajagini ta’minlashda ishonchli kafolat bo‘lib qolmoqda Bu tizimda oliy ta’lim o‘ziga xosdir, chunki bu tizim avvalo yurtimizda ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlashga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, bu tizim respublikamiz mehnat bozoriga yuqori malakali mutaxassislar yetishtirib bermoqda. Zamonaviy talabga javob beradigan barkamol avlodni tarbiyalash, o‘z kasbini puxta biladigan kadrlar tayyorlashda o‘qituvchining roli beqiyos. U ta’lim va tarbiya berish jarayonida markaziy o‘rin egallagan va doimo shunday bo‘lib qoladi. Shuning uchun ham u har tomonlama ma’lumotli, o‘z fanini chuqur bilgan mutaxassis, o‘z xalqi va Vataniga sodiq inson, pedagogik iste’dod va mahoratga ega bo‘lishi va jamiyatda o‘zining mafkuraviy va kasbiy-pedagogik vazifalarini sidqidildan amalga oshirishi va unga doimo tayyor turishi kerak.

Malakaviy amaliyot nazariy bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlash, mustaqil tajriba o‘tkazish ko‘nikmalarini rivojlantirish maqsadida talabalar o‘tkazadigan amaliy ish turi: Hozirgi kunning muhim talablaridan biri tayyorlanayotgan mutaxassis-larimizni o‘z nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llay bilishlari zarurligidir. Shuning uchun ham ishlab chiqilgan yangi DTSlarda o‘quvchi-talabalarning malakaviy amaliyot o‘tashlariga alohida diqqat qaratiladi. Unda **malaka amaliyotiga** — o‘quv jarayonining nazariy bilimlarni mustahkamlash, amaliy ko‘nikma va o‘quv hosil qilish, o‘quv rejalari va fanlar dasturlarning ma’lum (yakuniy) qismidagi mavzu bo‘yicha materiallar to‘plash uchun o‘tkaziladigan bir qismi sifatida qaraladi.

Magistratura mutaxassisliklarida esa ustoz rahbarligida mustaqil ravishda barcha ishlarni bajarish **“ilmiy faoliyat”** deb ataladi.

DTSda magistratura mutaxassisliklarining o‘quv rejalari va fanlar dasturi mazmuni oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlashning birlamchi va boshlang‘ich bosqichi sifatida mutaxassislik bo‘yicha chuqur fundamental va amaliy bilimlar berishni ko‘zda tutgan holda shakllantirilishi ko‘zda tutilgan.

[120] Каримов И. А. Юксак билимли ва интеллектуал ривожланган авлодни тарбиялаш – мамлакатни барқарор тараққий эттириш ва модернизация қилишнинг энг муҳим шарти. //Ўзбекистон овози, 18 февраль, 2012.

Magistratura mutaxassisligi bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan birga zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan, o‘quv-tarbiya ishlarining interaktiv usullaridan foydalangan holda pedagogik faoliyat mahorati va ko‘nikmalarini shakllantirishi, o‘quv jarayonini ilmiy-uslubiy jihatdan ta’minlashni tashkil etish uquvi va ko‘nikmalarini hosil qilishi lozim, deb belgilab qo‘yilgan.

Ilmiy-pedagogik ish va malaka amaliyotiga ilmiy faoliyatga ajratilgan vaqtning 25 — 30% ini sarflash ko‘zda tutilgan.

DTSda Ilmiy-pedagogik ishlar deganda:

• zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan, o‘quv-tarbiya ishlarining interaktiv usullaridan foydalangan holda pedagogik faoliyat mahorati va ko‘nikmalarini shakllantirish;

• o‘quv jarayonini ilmiy-uslubiy jihatdan ta’minlashni tashkil etish uquvi va ko‘nikmalarini hosil qilishi lozimligi nazarda tutilgan

Yuksak kasbiy mahoratga ega bo‘lgan kadrlar tayyorlashda esa o‘quv jarayonining ajralmas qismi bo‘lgan malakaviy va pedagogik amaliyot alohida muhim ahamiyat kasb etadi.

Talabalarning oliy o‘quv yurtlarida olgan nazariy ta’limlarini amaliyot bilan bog‘lash va DTS talablariga muvofiq malaka va ko‘nikmaga ega bo‘lish uchun o‘z yo‘nalishlari bo‘yicha korxona, tashkilot, muassasalarda nazariy bilimlarini amalda sinash, tajriba to‘plashga, ko‘nikma shakllantirishga yo‘naltirilgan o‘quv jarayoni. Malakaviy amaliyot talabalarning Oliy o‘quv yurtlarida olgan nazariy ta’limlarini amaliyot bilan bog‘lash va DTS talablariga muvofiq malaka va ko‘nikmaga ega bo‘lishlarida kelajakda kasbiy faoliyatini boshlashda muhim bo‘g‘in hisoblanadi.

Ishlab chiqarish, ya’ni malakaviy amaliyotiga barcha oily o‘quv yurtlarida alohida ahamiyat beriladi. Buyuk Britaniyaning ko‘p universitetlari strategiyasida ishlab chiqarish amaliyotlari va tajriba masalasiga ular faoliyatiga bog‘liq holda har xil nazar tashlanadi. Buyuk Britaniya Universitetlari (2007) tavsiyasiga binoan “Ish tajribasi” o‘quv dasturining bir qismi, yoki darsdan tashqari faoliyat hisoblanadi. Ish Tajribasi Milliy Kengashi ushbu sohada asosiy mutaxassis tashkilot bo‘lib hisoblanadi. Lekin hammasida talabaning kelgusida ishga joylanishida tayyorlagan portfoliosidagi o‘zi haqida rezyumesida albatta qayerda ishlagani yoki amaliyot o‘tganiga diqqat qaratiladi.[121]

[121] A Handbook for Teaching and Learning in Higher Education. Enhancing Academic Practice. Third edition. Edited by Heather Fry, Steve Ketteridge, Stephanie Marshall. First edition.This edition published 2009 by Routledge

Malakaviy amaliyotni tashkil etish, rahbarlik qilish, amaliyot natijalarini yakunlash O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 1998 yil 30 oktyabr 305 sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalari talabalarining malakaviy amaliyoti haqidagi Nizomda ko‘rsatilgan. Hozirgi paytda malakaviy amaliyotga ajratilgan soatlar o‘quv jarayoniga ajratilgan jami soatlarning 9,1 - 9,2 foizini tashkil etadi.

Oliy ta’limning “Kasb ta’limi” bakalavriat yo‘nalishi talabalari va magistratura talabalari malakaviy amaliyotdan tashqari pedagogik amaliyot ham o‘tashadi. Bunda amaliyotga ajratilan jami soatning 60-65 foizi malakaviy amaliyotga, 35-40 foizi pedagogik amaliyotga ajratiladi.

Ular malakaviy amaliyotni ta’lim yo‘nalishiga ko‘ra odatda ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish korxonalari, banklar, moliya organlarida o‘tkazishsa, pedagogik amaliyotni maxsus o‘rta, oliy ta’lim maskanlarida o‘tashadi. O‘tkaziladigan pedagogik amaliyoti davri – egallayotgan kasbiga doir bilim, malaka, ko‘nikmalarni takomillashtirish, shu bilan birga o‘zlari o‘rgangan iqtisodiy bilimlarni yanada chuqurroq bilishlari uchun izlanish, uni o‘quvchi-talabalar ongiga yetkazishning eng samarali metodlarini tanlash va dars jarayonida mustaqil ravishda qo‘llash, tajriba o‘rganish davri hisoblanadi. Amaliyot davrida bo‘lg‘usi iqtisodchi-pedagoglar o‘qituvchilik mehnati ko‘p qirrali ekanligi, u fanni o‘qitishdangina iborat emasligiga, o‘qituvchi oldida ko‘pgina murakkab vazifalar turishiga ishonch hosil qiladilar. Amaliyot jarayonida nazariy bilimlari mustahkamlanib, ularni amaliyotda qo‘llash ko‘nikmasi hosil bo‘ladi.

Nazariy kasbiy ta’lim jarayonida nazariy bilimlar tizimi shakllantirilsa, amaliy kasbiy ta’lim jarayonida amaliy ko‘nikmalar hosil qilinadi. Bu ikkala mushtarak jarayon mahsuloti sifatida muayyan kasb va malakaga ega bo‘lgan mutaxassis shakllantiriladi.[122]

Iqtisodchi-pedagoglar tayyorlashda esa kasbiy ta’lim fanlari maxsus iqtisodiy fanlar bo‘lib, ana shu fanlardan dars o‘tish, o‘quv jarayonini tashkil etish, o‘quvchilar bilan ishlash va ta’lim maskanining

---

270 Madison Ave, New York, NY 10016 Simultaneously published in the UK by Routledge 2 Park Square, Milton Park, Abingdon, Oxon OX14 4RN. - p. 108.Methods for teaching: promoting student learning in K–12 classrooms/David A.Jacobsen, Paul Eggen and Don Kauchak.—8th ed, 2009. International Handbook on Teaching and Learning Economics.Edited by Gail M. Hoyt, Professor of Economics, University of Kentucky, US and KimMarie McGoldrick, Joseph A. Jennings Chair in Business and Professor of Economics, University of Richmond, US, 2012.

[122] Авезов Ш. Амалий касбий таълим методикаси мазмуни ва унинг асосий йўналишлари «Касбий таълим: муаммолар ва ечимлар» мавзусидаги Республика илмий-амалий семинарининг маърузалар материаллари ва тезислари тўплами. Тошкент 2011, 11-бет.

boshqa o‘quv-tarbiyaviy ishlari bilan tanishadilar, o‘zlari faol qatnashadilar.

Dars o‘tish o‘qituvchidan fanni puxta bilishnigina emas, balki olgan bilimini ustalik bilan o‘quvchi-talabalar ongiga etkazishni ham talab qiladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida o‘quv yurtlarida amaliyot o‘tish ayrim xususiyatlarga ega bo‘lib: birinchidan, hozirgi davrda amaliyot o‘tish obyektlari bo‘lib, respublikamizdagi nafaqat davlat korxonalari, idoralari va tashkilotlari, balki mulkchilikning boshqa shakllaridagi xususiy korxona va firmalar, aktsionerlik jamiyatlari, tijorat banklari, qo‘shma korxonalar bisoblanadi. Amaliyotni elda bam o‘tish mumkin.

Ikkinchidan, talabalar amaliyoti korxonalar, tashkilotlar, firmalar bilan tuzilgan shartnomalar asosida tashkil etiladi. Amaliyoti boshlanishidan bir oy oldin o‘quv yurti va malakaviy amaliyoti o‘tkazilishi mo‘ljallangan korxona (tashkilot, xo‘jalik, muassasa) bilan amaliyotni o‘tkazish to‘g‘risida shartnoma tuziladi. Shartnomada har ikki tomonning amaliyot o‘tash bo‘yicha majburiyatlari ko‘rsatiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 2-martda “Magistratura to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 36-sonli qarori asosida qabul qilingan Nizomga ko‘ra magistratura talabasining o‘quv-metodik, ilmiy-tadqiqot, pedagogik ishlari, amaliyot, stajirovkani o‘tashi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash bo‘yicha faoliyati magistratura talabasining kalendar ish rejasiga binoan amalga oshiriladi. Kalendar ish rejasi mazmuni ilmiy rahbar bilan birgalikda ishlab chiqiladi va oliy ta’lim muassasasining o‘quv ishlari bo‘yicha prorektori (direktor o‘rinbosari) tomonidan tasdiqlanadi. Magistr uni bajarilishi bo‘yicha har oyda kafedra yig‘ilishida hisobot beradi.

Magistratura talabalarining amaliyotlari, stajirovkasi va magistrlik dissertatsiyalarining tajriba-sinov qismlarini bajarishi o‘quv rejalari va dasturlariga muvofiq oliy ta’lim muassasasi (fakultet, kafedralar) bilan tashkilotlar o‘rtasida tuzilgan shartnomalar va kelishuvlar asosida olib boriladi. Bu jarayoniga O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi ilmiy muassasalari, tarmoq ilmiy-izlanuvchilik va loyiha muassasalarining yetakchi olimlari, shuningdek xorijiy olimlar, yuqori malakali, tajribali mutaxassislar jalb etiladi.

Tabiiy, magistraturada tayyorlanadigan mutaxassis kadrlarga qo‘yiladigan talablardan kelib chiqib, bu bosqichda pedagogik faoliyatga jalb etiladigan o‘qituvchilarga ham yuqori darajada umumiy malaka

talablari qo‘yilgan va ular nizomda aks ettirilgan. Magistraturada pedagogik faoliyat yuritishga ilmiy unvon (ilmiy daraja)ga va kamida 3 yillik uzluksiz ilmiy-pedagogik (ilmiy) ish stajiga ega bo‘lgan, shuningdek xorijiy mamlakatlarning falsafa doktori (Ph.D) yoki unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajali shaxslargina jalb etiladi.

Magistraturada o‘quv jarayoni yuqori (2-bob) da ko‘rsatib o‘tganimizdek DTSga ko‘ra nazariy ta’limdan tashqari ilmiy faoliyatdan tashkil topadi. Ilmiy faoliyat ilmiy tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash, ilmiy-pedagogik ish va ilmiy amaliyot (stajirovka)dan iborat.

Toshkent moliya institutida ishchi o‘quv rejaga ko‘ra magistratura talabalarining ilmiy faoliyatiga 2700 soat vaqt ajratilgan bo‘lib, u barcha yuklamaning 64,1 %ini tashkil etadi. Undan ilmiy-tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlashga ilmiy faoliyatga ajratilgan vaqtning 70 foizini sarflash ko‘zda tutilgan.

4-jadval

Toshkent moliya instituti magistratura yo‘nalishining ilmiy faoliyat tarkibi rejasi (2017-2018 o‘quv yili)

Ilmiy faoliyat turlarining nomi	**Umumiy yuklamaning hajmi, soat**	**Umumiy yuklamaga nisbatan, %da**	**Ilmiy faoliyatga nisbatan, %da**
Ilmiy faoliyat	2700	64,1	100
Shundan:			
1. Ilmiy-tadqiqot ishi va magistr-lik dissertatsiyasini tayyorlash	1890	44,9	70
2. Ilmiy-pedagogik ish	378	8,9	14
3. Ilmiy amaliyot (stajirovka)	432	10,3	16

Jadval ma’lumotlari ko‘rsatib turibdiki, ilmiy pedagogik ish umumiy yuklamaga nisbatan 8,9 %ni, ilmiy faoliyatga nisbatan esa 14%ni, ilmiy amaliyot (stajirovka) muvofiq ravishda 10,3 va 16%ni tashkil etadi. **Pedagogik amaliyot** iqtisodiy fanlardan dars berish va o‘quv jarayonini tashkil qilishni o‘rganish uchun o‘rta maxsus, oliy ta’lim maskanlarida, xususan magistr o‘qiyotgan oliy o‘quv yurti mutaxassislik kafedralarida o‘tkazillishi mumkin.

Ilmiy faoliyat qabul qilingan dastur asosida amalga oshiriladi. Ilmiy faoliyat dasturi “Ilmiy tadqiqot dasturi” va **“Ilmiy-pedagogik ish dasturi**”idan iborat bo‘lib, unda ilmiy tadqiqot va ilmiy pedagogik

ishning maqsadlari va vazifalari hamda ularni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ishlarning tarkibi, ish natijalari bo‘yicha hisobot tayyorlash tartibi aks ettirilgan. Ilmiy-tadqiqot ishi barcha (1-4) semestrga mo‘ljallangan bo‘lib, jami 65 haftani, pedagogik ish uch (1-3) semestr, jami 13 hafta vaqt ajratilgan.

Ilmiy amaliyot (stajirovka)ga yo‘llangan magistratura talabasi DTSga binoan o‘quv jarayoni jadvalini individual grafik asosida bajarishi nazarda tutiladi. U to‘rtinchi semestrda 16 hafta vaqt davomida o‘tkaziladi. Unda ilmiy tadqiqot olib borish, nazariy va amaliy bilimlarni chuqurlashtirish, zamonaviy texnika va innovatsion texnologiyalar bilan tanishish, kasbiy va ilmiy-tadqiqot kompetensiyalarni shakllantirish, magistrantning egallayotgan kasbiga samarali moslashuvini ta’minlash ko‘zda tutiladi.

Magistrant tomonidan o‘rganilgan “Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi” fani uning pedagogik ish faoliyatini amalga oshirishda, ayniqsa, iqtisodiy fanlardan dars berish va o‘quv jarayonini tashkil qilishni o‘rganishda asqotadi.

Pedagogik amaliyot jarayonida ta’lim-tarbiyaning qonuniyatlari va tamoyillarini, nazariy jihatdan o‘rganilgan kasbiy ko‘nikma va malakani amaliy faoliyat jarayonida qo‘llash, amaliy faoliyat tajribasini egallash imkoni yaratiladi. Pedagogik amaliyot talabalarni ixtisoslik fanlaridan olgan bilimlarini amaliyotga tatbiq etish va ularda iqtisodchi-pedagog bo‘lib ishlash ko‘nikmasini hosil qiladi.

Ma’lumki, bo‘lg‘usi iqtisodchi-pedagog o‘zi tanlagan kasbiy yo‘nalish bo‘yicha yetarli nazariy-amaliy bilimga ega bo‘lsa-yu, uni kasbiy faoliyati davrida o‘quvchi-talabalarga talab darajasida yetkaza olmasa, ya’ni qanday o‘qitish kerakligini bilmasa, u holda bizning kelajagimiz bo‘lgan bugungi yoshlar ertaga zamon talabi darajasidagi mutaxassislar bo‘lib yetishishlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun ham pedagogik amaliyot asosiy va muhim bosqich hisoblanadi. Chunki aynan ana shu pedagogik-malakaviy amaliyot davrida bo‘lg‘usi mutaxassis o‘z kasbini amaliy jihatdan chuqur egallashi uchun imkoniyat yaratiladi.

Amaliyot jarayonida o‘qituvchi sifatidagi kasbiy ko‘nikmalar to‘la shakllanish imkoniyatlari ro‘yobga chiqadi. Amaliyotchi-talaba amaliyotni o‘tish davrida mehnat faoliyatini ham o‘rganadi. Chunki bu davrda vaqtincha shu jamoa a’zosi hisoblanib, uning faoliyati ishtirokchisiga aylanadi. Unga jamoa tomonidan mas’ul ishlar

topshiriladi (masalan, guruh murabbiyligi), mutaxassislik fanlari bo‘yicha darslar o‘tish, darsdan tashqari ishlarni tashkil etish va o‘tkazish, jamoa umumiy yig‘ilishlarda qatnashish, umumjamoa tadbirlarini o‘tkazishga tayyorlanish va uni o‘tkazishda faol ishtirok etish bo‘yicha aniq vazifalar beriladi hamda ularni bajarish talab etiladi. Natijada bevosita o‘zi kelgusida mustaqil faoliyat yuritish jarayonida kerak bo‘lgan hayotga o‘rganadi. Bular amaliyotchi-talabaning o‘z kasbiy yo‘nalishi bo‘yicha kerakli malaka va ko‘nikmalarni egallashida muhim o‘rin tutadigan o‘quv jarayoni hisoblanadi.

Fan bo‘yicha dastur talablari va shunga muvofiq darslik, metodik adabiyotlar bilan tanishadi, guruh jurnalini ko‘rib chiqadi, o‘quvchilarning joriy o‘zlatirishlarini tahlil qilib, o‘tilgan materialning guruh jurnalida qayd qilinishi, kelajak mavzular rejasiga muvofiq kelishini hamda bo‘lajak darsda o‘rganiladigan mavzuni aniqlaydi. Darsni tahlil qilish va dars davomida o‘z kuzatishlarini yozishni tahliliy namunasini o‘ylab qo‘yadi.

Pedogogik ish (amaliyot)ni o‘tkazishning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- amaliyotning maqsadi, vazifa va mazmunini talab darajasiga qaratilganligi;
- nazariy fan va kurslarni o‘rganish bilan amaliyotni bog‘lash, amaliyotni nazariy asoslanganligi bilan real o‘quv tarbiyaviy faoliyatning birligini ta’minlashi;
- ijtimoiy-iqtisodiy, pedagogik-psixologik va maxsus fanlar orasidagi aloqalarni amalga oshirishga qaratilgan amaliyotning kompleks xarakteri;
- oliy o‘quv yurti va amaliyot o‘tkaziladigan ta’lim maskani integratsiyasi kabilardir.

O‘tkazilayotgan *pedagogik* amaliyotning maqsadi ishlab chiqarish va ta’lim tizimi uchun raqobatbardosh malakali kadrlarni tayyorlash va talabalarni tanlagan sohalari bo‘yicha bilim, ko‘nikmalarini mustahkamlash hamda takomillashtirish, talabalarning nazariy bilimlarini amaliyot bilan bog‘lash va uni mustahkamlash hamda takomillashtirishdir.

Shunday qilib, ilmiy faoliyat, uning tarkibiy qismi bo‘lgan pedagogik amaliyot ham bevosita o‘quv jarayoni hisoblanib, uni to‘g‘ri tashkil qilish hamda o‘tkazish bo‘lg‘usi yosh mutaxassisning kelgusidagi mustaqil kasbiy faoliyatiga tayyorlashda muhim o‘rin tutadi.

Shuning uchun ham mutaxassis kafedra jamoasi, metodist o‘qituvchilar, pedagog va psixologlar, amaliyot olib boriladigan ta’lim muassasasi jamoasining bu ishga jiddiy yondashishi talab etiladi. Amaliyotni tashkil etish va o‘tkazishning naqadar ahamiyatga ega ekanligini hisobga olgan holda Nizom bo‘yicha unga javobgarlik oliy o‘quv yurtining rektori zimmasiga yuklanadi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda ta’lim jarayoniga quyidagi talablar qo‘yilmoqda:

* sifat, ya’ni ta’limning belgilangan darajasini egallash;

* ommaviy, ya’ni ta’limning belgilangan darajasini bir vaqtning o‘zida ko‘p sonli ta’lim oluvchilar egallashlari lozim;

* samaradorlik, ya’ni ta’limga sarf qilingan xarajatlar, albatta maksimal samara berishi lozim.

Ushbu vazifalarni yechish ta’lim jarayonini texnologiyalashtirishga, innovatsion ta’lim texnologiyalarini ishlab chiqish va tadbiq etishga olib keladi.

Ta’lim jarayonini shaxs rivojlanishiga yo‘naltirilganligi ta’lim sohasidagi taraqqiyot bo‘lib, u:

- ta’lim olish, katta hajmdagi ma’lumotni qayta ishlash qobiliyatlarini rivojlantirish.
- turli vaziyatlarda, sharoitda mutaxassisning qobiliyatlarini, samarali harakat qilish malakasini rivojlantirish.
- ta’lim jarayonini avtoritardan demokratik-kommunikativ o‘zaro faoliyatga o‘tishini ta’minlaydt.

Bu o‘z navbatida maxsus iqtisodiy fanlar o‘qituvchilarga katta mas’uliyat, vazifalarni yuklaydi. Shaxsiy javobgarlikni oshirish, malaka, mahoratini tinmay oshirish, soha sirlarini mukammak bilishga intilishga undaydi. Maxsus iqtisodiy fan o‘qituvchilaridan o‘z faoliyatini qayta ko‘rib chiqish, ta’lim muassasalarida yaratilayotgan sharoitlar, zamonaviy o‘zgarishlar, imkoniyatlardan foydalana oladigan, o‘z ishiga nisbatan talabchanlikni oshirish, o‘z qobiliyati imkoniyatlarini to‘la ishga solishni. Ta’limni ishlab chiqarish bilan bog‘lash, ular o‘rtasida hamkorlikni yo‘lga qo‘ya bilishni talab qiladi.

9.2. Amaliyot (ilmiy pedagogik ish) o‘tovchi talaba hamda unga rahbarlik qiluvchining vazifalari

Magistratura mutaxassisliklari ilmiy pedagogik ishini tashkil etish va uni o‘tkazish ularning ilmiy-pedagogik mahoratlarini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Magistraturada kadrlar tayyorlashda nazariy mashg‘ulotlar bilan bir qatorda pedagogik amaliyot muhim o‘rin tutib, ularning egallayotgan mutaxassisligi bo‘yicha kelgusida mustaqil kasbiy faoliyat yuritishi kerak bo‘lgan sharoitda tashkil etiladi.

Ilmiy pedagogik ishning maqsadi – talabalarning mutaxassislik fanlari, “Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat”, “Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi” kabi fanlardan olgan nazariy bilimlarini ta’lim jarayoniga tatbiq etish orqali dastlabki kasbiy ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, zamon talablariga javob beruvchi ilmiy pedagogik faoliyatga tayyorlashdir.

Pedagogik ish, amaliyotning asosiy vazifalari bo‘lib: qo‘yilgan maqsadga muvofiq qabul qilingan huquqiy-me’yoriy hujjatlarda belgilangan talablarga erishishni ta’minlash; pedagogning muhim kasbiy sifatlarini, tarbiyalash, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish va rivojlantirish; pedagogik faoliyatga ijobiy, tadqiqiy yondashuv hislatlarini uyg‘otishdir.

Bu amaliyot o‘quv dasturida belgilangan vazifalarni bajarilishini hisobga olgan holda amalga oshiriladi, ya’ni oliy o‘quv yurtida olgan nazariy-amaliy bilimlarini chuqurlashtirish va mustahkamlash, ilmiy va kasbiy faoliyatini to‘la amalga oshira olish malaka va ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qilishi lozim.

Bunda:

- talabalar mutaxassislik fanlaridan turli mashg‘ulotlar o‘tkazish bo‘yicha tajriba to‘plashi;
- mashg‘ulot o‘tkazishning texnologik pasporti (texnologik modeli) va texnologik xaritasini ishlab chiqish;
- o‘quv jarayonida axborot texnologiyalari, zamonaviy va innovatsion pedagogik texnologiyalar va interaktiv metodlarni qo‘llash;
- o‘quv jarayonida qo‘llash uchun namoyish etiladigan va tarqatma materiallar ishlab chiqish, zarur texnik va o‘quv vositalarini tanlash;
- mustaqil bilim olish, ko‘nikma va malaka to‘plash uchun zarur tashkiliy, o‘quv-uslubiy ta’minotini o‘rganish va ularni tayyorlashda qatnaqish;

- talabalar bilimlarini nazorat qilish, sinash va baholash tizimini va uni amalga oshirishni o‘rganishi;

- aqliy, ma’naviy, axloqiy, siyosiy, milliy, huquqiy, iqtisodiy, diniy, jismoniy, mehnat tarbiyasini birgalikda amalga oshirishga keng qamrovli yondashish, ta’lim-tarbiya ishlarini olib borish kabi sifatlarni o‘zlarida shakllantirish kabilarga erishishlari talab etiladi.

Amaliyot jarayonida olib boriladigan ta’lim-tarbiya ishlarini kuzatish, ularni tahlil qilish, sintez qilish, aniqlangan ma’lumotlarni umumlashtirish va yakunida mantiqiy xulosa chiqarish uquvi qaror topadi. Ilmiy pedagogik ish uchun uch – 1-3 semestrlar davomida: birinchi kursning birinchi semestrida 4 hafta, 2-semestrda 3 hafta, 2-kurs 3-semestrda esa 6 hafta, jami 13 hafta vaqt ajratilgan. Shu davrda talaba tomonidan bajariladigan vazifalar qadam-baqadam rejalashtiriladi va ilmiy faoliyat dasturida aks ettiriladi.

Ilmiy pedagogik ish davrida amaliyot o‘tovchi talabaning asosiy majburiyat va vazifalalari quyidagilardan iborat:

Ilmiy pedagogik ishni o‘tish uchun: oliy o‘quv yurtining maxsus bo‘limlari va kafedralari tomonidan amaliyot obyektlari bilan tuzilgan shartnomalar, talabalarning ilmiy pedagogik ish o‘tash uchun taqsimoti va ularga rahbar tayinlash haqida rektorning buyrug‘i nusxalari; kafedralar tomonidan tayyorlangan ilmiy faoliyat dasturlari, amaliyot o‘tish kundaligi, talabaning amaliyot obyektida amaliyot o‘tishi uchun yo‘llanma va boshqa hujjatlarni olishlari kerak.

Amaliyot davrida talaba-amaliyotchining faoliyati doimiy ravishda nazorat qilinadi.

– talabalar ixtisoslik fanlaridan olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llashni o‘rganadilar. Bu davr davomida talabalar amaliyotga borgan o‘quv yurtlari haqidagi umumiy tushunchaga ega bo‘lishdan boshlab, dars berish, o‘quv rejasini tuzish darsdan tashqari tadbirlar, tarbiya ishlarini tashkil etishni o‘rganadilar;

– o‘quv jarayonini tashkil etish, o‘qitishning ilg‘or pedagogik va zamonaviy axborot texnologiyalari asosida olib borish, dars berishning zamonaviy uslublarini amalda qo‘llashni o‘zlashtiradilar.

– malakaviy amaliyot joyida ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, tashkilotchilik va tarbiyaviy ishlarni olib borish sohasida zarur bilimlarga ega bo‘lish to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘ladi va o‘rganadi;

– ta’lim muassasalarining o‘quv-uslubiy bo‘limlari hamda u yerda amalga oshiriladigan ishlar xususida tasavvurga ega bo‘ladilar, bajariladigan ish faoliyati bilan tanishadilar;

– iqtisodiy fanlar bo‘yicha tajribali o‘qituvchilar darslarida qatnashadilar va dars jarayonini tahlil qiladilar;

– dars o‘tish uchun fan va mavzular bo‘yicha metodlar tanlash va ularni qo‘llash ko‘nikmasiga ega bo‘ladilar.

Bundan tashqari, ilmiy pedagogik ish davrida talaba yo‘riqnoma va dasturda ko‘rsatilgan ishlarni hammasini bajarishi kerak. Har bir mashg‘ulotga kafedraning darsdan tashqari ishlari, tarbiyaviy ishlari, turli tadbirlarida faol ishtirok etishi, ularni yuqori saviyada o‘tishini ta’minlashda qatnashishi lozim. Talabadan amaliyot dasturini yaxshi bilishi, to‘liq bajarilishi talab etiladi. Agar u dastur talablarini to‘liq bajarmasa, u holda ilmiy pedagogik ish muvaffaqiyatli o‘tdi deb hisoblanmaydi.

Talaba amaliyot davomida o‘sha ta’lim muassasasining, kafedraning ichki tartib qoidalariga to‘la amal qilishi zarur.

Ilmiy pedagogik ish amaliyoti davomida har bir amalayotchi-talabadan dasturga muvofiq ilmiy pedagogik ishni bajarish, bajarilgan ishlarni hujjatlarini yuritish, kundalik daftarda aks ettirishi kerak. Bu vazifalarni bajarish va uning natijalari ilmiy pedagogik ish hisobotiga ilova qilinadi.

Ilmiy pedagogik ish rahbarining majburiyatlari

Ilmiy pedagogik ishga oliy o‘quv yurtining mutaxassis tayyorlovchi kafedrasi tomonidan rahbar tayinlanadi. Rahbar qo‘yilgan maqsaddan kelib chiqib:

• eng avvalo talabalar bilan ilmiy pedagogik ishni o‘tash bo‘yicha suhbat o‘tkazadi va uni o‘tash tartibi bilan tanishtiradi;

• talabalarning ichki mehnat tartibi qoidalariga rioya qilishlarini, bajargan ishlari, dasturdagi ayrim masalalarni to‘liq va chuqur o‘rganishlarini doimiy nazorat qilib boradi;

• mutaxassislik fanidan o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish, o‘tkazishda, dars o‘tish metodlarini tanlash, ko‘rgazmali va namoyish etiladigan materiallarni tanlashda maslahatlar beradi;

• talabada pedagogik faoliyatni boshqarish takomillashtirish, nazariy jihatdan umumlashtirish, takliflar ishlab chiqish masalalariga diqqat qaratib, yo‘l-yo‘riqlar ko‘rsatadi;

• ilmiy pedagogik ish davrida talabalarda vujudga kelgan muammolar va munozarali savollar bo‘yicha tushuntirishlar beradi;

• ilmiy pedagogik ish davrida yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni bartaraf etish, dasturda ko‘zda tutilmagan ishlarni bajarishga yo‘l qo‘ymaslik uchun choralar ko‘radi, maslahatlar beradi;

• talabalar tomonidan dasturni to‘liq bajarilishini nazorat qilib boradi va kundalik daftarining yuritilishini, unda qayd qilinadigan yozuvlarni to‘g‘ri va o‘z muddatida amalga oshirilishini tekshirib turadi;

• ilmiy pedagogik ish natijalari bo‘yicha talabaning hisobotini ko‘rib chiqadi va bajargan ishlari yuzasidan hisobot beradi.

Amaliyot yakunida talaba dasturda ko‘rsatilgan bajarishi lozim bulgan ishlarni, chunonchi kundalik daftari, tavsifnoma, amaliyot jarayonida to‘ldirgan hujjatlar va boshqalarni taqdim etishi lozim.

9.3. Mustaqil dars o‘tishga tayyorlanish va uni o‘tkazish

Ilmiy pedagogik ish o‘tayotgan amaliyotchi talabalarning bajaraligan eng muhim ishlari – bu tajribali o‘qituvchilar darsiga kirib, ulardan darsga tayyorlanish, darsni o‘tkazishni o‘rganish hamda tajriba tariqasida mustaqil dars o‘tishdir.

Amaliyotchi talabaning darsga tayyorlanishi

O‘qituvchi tomonidan har bir darsni yaxlit holatda ko‘ra bilish va uni tasavvur qilish uchun bo‘lajak dars jarayonini loyihalashtirish kerak. U texnologik xaritada aks etadi. Dars berishning mazmuni shu fanda mujassamlashgan obyektiv reallik bilan aniqlanadi. Metodika (uslubiyat) fanning o‘quv jarayonidagi harakati, rivojlanish shaklidir. Fan bilan uni o‘qitish o‘rtasidagi farq shundaki, fan bevosita obyektiv reallik bo‘lib, uning rivojlanish qonunlarini ifodalash bilan birga, o‘quv predmeti sifatida ana shu jarayonni bevosita tasvirlaydi. Umuman olganda, o‘qitish, ilm berish obyektiv dunyoni bilishni shu fan erishgan yutuqlar darajasiga ko‘taradi. Fan doimo rivojlanib yangi kashfiyotlar, bilimlar bilan boyib boradi. O‘z navbatida, talabalarga bilim berish jarayonida ular ongiga ushbu kashfiyotlar singdirib boriladi.

Iqtisodiy hayotning yangi qirralari, muammolari ularni yechish yo‘llarini o‘rganish jarayonida beto‘xtov chuqurlashib boradi. O‘quv jarayonida yangi metodlar qo‘llaniladi, yangi o‘quv kurslari kiritiladi. Iqtisodiy fanlardan dars berishni ma’naviy, nazariy tomondan va uni amalga oshirishni yuqori bosqichga ko‘tarish ko‘p jihatdan ta’lim-

tarbiya jarayonida qo‘llaniladigan o‘quv shakllari, metodlari, talabalarni iqtisodchi olimlarning ishlarini o‘rganishlari darajasiga ham bog‘liq**.**

Ilmiy pedagogik ish davrida ana shularni amaliyotchi talabalar chuqur anglab yetishlari zarur. Amaliyotning muvaffaqiyatli o‘tishi, avvalo, ularning darslarga tayyorlanishiga bog‘liq bo‘lib, uni amalga oshirish quyidagi tartibda bo‘lishi maqsadga muvofiqdir:

a) amaliyot rahbaridan tashkil etiladigan yangi dars bo‘yicha maslahat oladi (yangi mavzuni o‘rganishda asosiy e’tibor berish kerak bo‘lgan tushunchalar, darsni jihozlash, o‘tilgan darslar va fanlararo aloqani qanday yo‘lga qo‘yish, dars jarayonida o‘qitishning qanday metodlaridan foydalanish, ta’lim-tarbiya birligiga erishish, foydalaniladigan metodlari va hokazo);

b) yangi darsda o‘rganiladigan mavzuning mazmunini, aniqlab, uni chuqur o‘rganadi;

d) yangi mavzuga oid ilmiy-metodik adabiyotlar bilan tanishib chiqadi;

e) o‘rganiladigan mavzuning boshqa fanlar bilan va o‘tgan materiallar bilan aloqadorligini aniqlaydi;

f) o‘qitish metodlarini tanlaydi;

g) darsning tuzilishini belgilaydi;

h) yangi dars maqsadini aniqlab, shu asosda dars rejasini tuzadi, mashg‘ulotni loyixalashtiradi, uni texnologik xaritada aks ettiradi va ilmiy rahbari hamda boshqa tajribali mutaxassislik fanlari o‘qituvchilari bilan maslahatlashadi, ularning ochiq darslariga qatnashadi.

i) dars ishlanmasi asosida uni o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan ta’lim vositalarini tayyorlaydi;

j) o‘quvchi-talabalar bilimini nazorat qilish va baholash metodlari, mezonlarini aniqlaydi;

k) mavzu bo‘yicha uy vazifasi va darsdan tashqari ishlar mazmuni, hajmi hamda shaklini aniqlaydi;

l) dars uchun texnologik xarita tuzish va uni amalga oshirish uchun zarur tarqatma materiallar, chunonchi, ma’ruza matni, mavzu bo‘yicha topshiriqlar tayyorlaydi va ularni ilmiy rahbariga tasdiqlatadi.

Ilmiy pedagogik ishni o‘tkazuvchi talabalarning darsni tashkil etishlarida uchraydigan asosiy xato va kamchiliklari

Magistrantlar darsga tayyorlanish va uni tashkil etish jarayonida turli xil xato-kamchiliklarga duch keladiki, ular dars samaradorligini

oshirishga to‘sqinlik qiladi. Ular asosan quyidagi holatlarda namoyon bo‘ladi:

1. Dars uchun texnololgik xarita (reja-konspekt) tuzishda va darsda foydalanish mumkin bo‘lgan jihozlarni tanlashda. Bu asosan dars maqsadini aniq ifodalay olmaslikda, dars jarayonida o‘quvchi-talabalarda qanday yangi tushunchalarni shakllantirish va rivojlantirish, qanday tarbiyaviy vazifalarni amalga oshirish, darsni jihozlashda kerak bo‘ladigan ta’lim vositalarini tanlashdagi noaniqliklarda namoyon bo‘ladi.

2. Magistrantlar, shuningdek yosh o‘qituvchilarning ham darsni tashkil etish jarayonida uchraydigan xato-kamchiliklarning xarakteri jihatidan quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

a) ilmiy xarakterdagi xato-kamchiliklar.

Bunday xato-kamchiliklar asosan yangi mavzuni o‘tishda kuzatiladi. Unda yangi o‘rganilayotgan materiallar mazmunini chuqur bilmasliklari asosiy sabab bo‘ladi;

b) metodik xarakterdagi xato-kamchiliklar.

Bular asosan dars tuzilishi bosqichlarini amalga oshirishda kuzatiladi.

Masalan, bunday xato-kamchiliklar uy vazifalarini tekshirishda (bu ko‘p hollarda yakunlanmay qoladi), ayniqsa, yangi mavzuni o‘rganishda, uni mustahkamlashda, talabalar bilimini baholash jarayonida ko‘proq kuzatiladi.

d) pedagogik texnikasida uchraydigan juz’iy kamchiliklar:

- talaba yoki uning ota-onasi bilan sidqidildan so‘zlasha olmaslik;
- g‘azabni to‘xtata olmaslik yoki uni o‘z o‘rnida ishlata bilmaslik;
- o‘zida ishonchsizlikni yenga olmaslik;
- nutqini ravon emasligi;
- ortiqcha qattiq qo‘llik;
- xushmuomala bo‘lishdan qo‘rqish;
- juda tez gapirish (ayniqsa darsda);
- ortiqcha harakat yoki bir joyda qotib qolish, qo‘llarini qayerga qo‘yishni bilmaslik;
- o‘z gavdasini tutishdagi kamchilik (bukchayib, yerga qarab yurish, befoyda, ortiqcha harakat) turli jismlarni qo‘lida aylantirib yurishi.

Nutqdagi kamchiliklar: aniq talaffuz tarzining yo‘qligi, xona uchun zarur tovush qattiqligini tanlay bilmasligi.

Tovushdagi kamchiliklar**:** monoton-bir ohangni zerikarli, nutqning hayotiy emasligi, ifodali o‘qish malakasini yo‘qligi (diksiya).

e) psixologik xarakterdagi xato-kamchiliklar.

Bunday kamchiliklar asosan o‘quvchi-talabalarning dars jarayoniga qaratilgan diqqati, ishchanlik kayfiyatining ta’minlanmasligida, amaliyotchi-talabalarning tortinchoqligi, no‘noqligida ko‘zga tashlanadi. Shuningdek, o‘quvchi-talabalar bilan muomalada qat’iyatsizlikka yo‘l qo‘yishlari, darsning emotsional holatlariga e’tibor bermasliklari oqibatida yuzaga keladi.

f) tarbiyaviy xarakterdagi xato-kamchiliklar.

Bu kamchiliklar asosan talabalar egallagan bilimlar ularda dunyoqarashini shakllantirishda asos bo‘lib xizmat qiladigan ishonchga aylanishi to‘la ta’minlanmaganda kuzatiladi.

Bu kamchiliklar o‘qituvchi uchun talabalarga samarali ta’sir etishga halaqit beradi. Shuning uchun ularga talabalik davrida barham berishga harakat qilish, maxsus mashqlarni mustaqil ravishda takrorlash, tajribali professor-o‘qituvchilarning darslarini kuzatish natijasida erishiladi.

Darsni tahlil qilish

Amaliyotchi-talaba darsini odatda metodist va mutaxassislik fanlari o‘qituvchisi boshchiligida amaliyotchi-talabalar ishtirokida kuzatish va tahlil qilish muhim ahamiyatga ega.

Magistrant tomonidan tashkil qilingan dars tahlilini quyidagi tartibda amalga oshirish mumkin:

a) uning o‘z darsi to‘g‘risidagi fikri (darsni tashkil etish jarayonida ko‘zlangan maqsadga erishganligi, yo‘l qo‘ygan xato-kamchiliklari, erishgan muvaffaqiyatlari va hokazo);

b) savol-javoblar (bunda darsni kuzatishda ishtirok etgan mutaxassislik fanlari o‘qituvchisi, boshqa magistrant talabalar tomonidan ushbu darsni tashkil etish jarayoni bo‘yicha savollar beriladi);

d) darsni kuzatishda ishtirok etganlarning darsni tashkil etish jarayoni bo‘yicha fikrlari eshitiladi (bunda darsni tashkil etish jarayonida erishilgan yutuqlar, maqsadga erishilganligi, ilmiy, metodik, psixologik, tarbiyaviy xarakterdagi yo‘l qo‘ygan xato-kamchiliklari to‘liq ochib beriladi) ;

e) mutaxassislik fanlari o‘qituvchisi fikrlari;

f) ilmiy rahbar fikri (dars tahlilini umumlashtishtirgan holda o‘z shaxsiy fikrlarini bildiradi. Dars tahlilini yakunlab, uni baholaydi).

Magistrantning sinov darsiga rahbari, darsga qatnashgan professor-o‘qituvchilar uning o‘tgan darsiga taqriz yozib berishadi va kafedrada muhokama qilishlari ham mumkin. Bu taqrizlar amaliyot hisobotiga kiritiladi.

Magistrantda dars berish ko‘nikmasi hosil bo‘lishida dars berish va undan tashqari boshqalarning o‘tgan darsini tahlil qilishda qatnashish, so‘ngra o‘zi ham o‘qituvchilar va o‘rtoqlari tomonidan o‘tilgan darslarni tahlil qilishi muhim ahamiyatga ega.

Magistrant tomonidan berilgan takliflar

Magistrant ilmiy pedagogik ish davrini o‘tash natijasi asosida bu jarayonni takomillashtirish bo‘yicha o‘z takliflarini berishi lozim. Talabaning fikr-mulohazasi uning aynan shu takliflari orqali namoyon bo‘ladi va shu takliflar yordamida olgan tajribasi, o‘rganganlarini baholash imkoni ortadi.

Hozirgi intensiv hayotiy o‘zgarishlar silsilasida chet elliklar tajribasini o‘rganish ham muhim ahamiyatga ega.

Aksariyat hollarda magistrant amaliyot o‘tashga bo‘lajak ish joyiga yuboriladi. Bunda u kelgusida o‘zi ishlaydigan jamoa bilan yaqindan tanishadi. Unda qo‘shimcha rag‘batlantiruvchi omil, amaliyotda tajriba to‘plashga qiziqish, stimul paydo bo‘ladi. Amaliyot o‘tash jarayonida yetarli ko‘nikma olishga, mustaqil ishlashga, faoliyat yuritishga tayyor bo‘lishga harakat qiladi. Bu davr ayniqsa, uning uchun haqiqiy ustoz tanlashiga yordam berish kerak. Nihoyatda bilimdon, og‘ir-bosiq, o‘zi tanlagan mutaxassislikni ardoqlaydigan ustoz talaba tomonidan tan olinadi va shunday insonning shogirdi bo‘lganidan g‘ururlanadi.

Talabalarning amaliyot jarayonidagi faoliyati reyting tizimi asosida baholanib, belgilangan mezon asosida amalga oshiriladi:

Pedagogik-malakaviy amaliyot o‘quv yurti pedagogik kengashida muhokama qilish va oliy o‘quv yurtidagi amaliyot yakuniga bag‘ishlangan kafedra yig‘ilishi o‘tkazish bilan yakuniga yetadi.

Ilmiy pedagogik ish davrida magistrant berilgan vazifalar asosida yozma hisobot tayyorlaydi. Hisobot bo‘limlari va matni ketma-ketligi Ilmiy pedagogik ish dasturida tavsiya etilgan mavzular ketma-ketligiga muvofiq kelishi kerak. Hisobotni rasmiylashtirish uchun ilmiy pedagogik ish yakunida bir hafta muddat beriladi. U to‘liq

rasmiylashtirilgach, talaba tomonidan imzolanib, kafedraga taqdim etiladi.

Ilmiy pedagogik ish hisoboti – bu amaliyot davrida dastur bo‘yicha talab qilingan ishlarni bajarilishi haqida to‘plangan materiallar, hujjatlarni qabul qilingan qoidaga muvofiq ravishda aks ettirilgan matn. U talabaning pedagogik ish davrida bajargan muayyan ishlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar, amaliyot obyekti haqida qisqacha izohi, ular faoliyatining tashkiliy asoslari, ish natijalari bo‘yicha xulosa va takliflarni o‘z ichiga oladi.

Har bir talabaning ilmiy pedagogik ish yakunida yozma hisoboti fakultet dekanati va kafedralarda maxsus jurnalda ro‘yxatga olinadi hamda kafedrada amaliyotga rahbarlik qilgan o‘qituvchiga taqriz uchun topshiriladi.

Rahbar hisobotni tekshiradi va yozma taqriz beradi. Taqrizda hisobotning ijobiy tomonlari va kamchiliklari ko‘rsatiladi. Hisobotni himoyaga tavsiya etilishi yoki etilmasligi haqida xulosa beriladi.

Talaba himoyaga tavsiya qilingan hisobotni kafedra qarori bilan tasdiqlangan komissiyada himoya qiladi va baholanadi.

Ilmiy pedagogik ish hisoboti himoyasi natijalari kafedra yig‘ilishi, fakultet va oliy o‘quv yurti ilmiy-uslubiy kengashlarida muhokama qilish jarayonida chuqur tahlil qilinadi.

Takrorlash va munozara uchun savollar

1. Ta’lim jarayonida ilmiy pedagogik ish qanday o‘rin tutadi?
2. Ilmiy tadqiqot ishi va ilmiy pedagogik amaliyotning qanday umumiy tomonlari va farqlari bor?
3. Ishtisodiy yo‘nalish uchun mutaxassislar tayyorlaydigan oliy o‘quv yurtlari bilan boshqa yo‘nalishdagi oliy o‘quv yurtlarida ilmiy pedagogik ishni tashkil etish va o‘tkazishning qanday umumiy tomonlari va farqlari bor?
4. Magistrantlar nima uchun ilmiy pedagogik ish - amaliyot o‘taydilar?
5. Talabalarning ilmiy pedagogik ish faoliyatidagi vazifalarini sanab bera olasizmi?
6. Ilmiy pedagogik ishning asosiy masalalari nimalardan iborat deb bilasiz?
7. Magistrantlarning darsni tashkil etishida uchraydigan xato va

kamchiliklarini aytib beraolasizmi?

8. Ilmiy pedagogik ish rahbarlarining asosiy vazifalari nimalardan iborat?

9. Ilmiy pedagogik ish faoliyati hisobotda qanday aks ettiriladi?

10. Quyida ilmiy rahbarning majburiyatlari berilgan. Siz unga yana nimalarni qo‘shgan yoki aksincha kiritmagan bo‘lar edingiz? Fikringizni asoslang.

X BOB. KADRLAR TAYYORLASH SIFATI VA UNI NAZORAT QILISH
(Mustaqil o‘qish va tayyorlanish uchun)

Zamonaviy, raqobatbardosh mutaxassis kadrlar tayyorlashda o‘quvchi-talabalar bilimini nazorat qilish, sinash va baholashning ahamiyati katta. Agar uni yaxshi yo‘lga qo‘yilmasa turli-tuman metodlarni qo‘llashimiz, qiziqarli dars o‘tish uchun turli topshiriqlar tayyorlashimizdan qat’iy nazar kutilgan natijaga erishib bo‘lmaydi. Chunki inson ongida har doim o‘z mehnat faoliyatini baholovchi psixologik jarayon ro‘y berib turadi. O‘z ishini natijasi baholanmasa yoki baholanishidan, taqdirlanishidan ko‘ngli to‘lmasa faolligi susayadi, oxir-oqibat “hafsalasi pir” bo‘lishi mumkin. Navbatdagi bob ana shu masalaga bag‘ishlangan.

10.1. O‘quv jarayonida nazoratning o‘rni, roli va tamoyillari

Qo‘yilgan ta’lim maqsadidan kelib chiqib erishilgan natijani nazorat qilish alohida muhim ahamiyatga ega va u pedagogik texnologiyaning asosiy komponentlaridan biri hisoblanadi. O‘quvchi, talabalarning bilimi va ko‘nikmalarini tekshirish, sinash (o‘lchash) va baholash nazorat deb ataladi.

Har qanday o‘qitish modeli “O‘qitish metodlari” kitobining mualliflari ta’kidlaganidek, uch faza: rejalashtirish, uni amalga oshirish va baholashni o‘z ichiga oladi, hamda ular bir-biri bilan chambarchas bog‘liq. Aynan standartda qo‘yilgan maqsadlarni ana shu fazalarni bajarish orqali amalga oshiriladi.[123]

Mamlakatimizda ham kadrlar tayyorlash sifatini nazorat qilishga alohida diqqat qaratilmoqda. U o‘qitish sifatini nazorat qilish, ya’ni talabaning bilim saviyasini tekshirish va uning o‘quv dasturini o‘zlashtirish darajasini aniqlash hamda **ta’lim sifatini nazorat qilish** — o‘qitish mazmuni va natijalarining davlat ta’lim standartlari talablariga muvofiqligini tekshirish orqali amalga oshiriladi.

[123] Methods for teaching: promoting student learning in K–12 classrooms/David A.Jacobsen, Paul Eggen and Don Kauchak.—8th ed, 2009. P. 23-25, 191-194.

DTS talablariga ko‘ra bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha kadrlar tayyorlash sifatini nazorat qilish quyidagilarni o‘z ichiga olishi kerak:

Ichki nazorat. U oliy ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlagan Reyting nazorat tizimi haqidagi nizom asosida oliy ta’lim muassasasi tomonidan amalga oshiriladi.

Tashqi nazorat. U belgilangan tartibda Davlat test markazining Kadrlar tayyorlash sifatini nazorat qilish, pedagog kadrlar va ta’lim muassasalari attestatsiyasi boshqarmasi tomonidan amalga oshiriladi.

Bulardan tashqari **davlat-jamoatchilik nazorati** o‘tkaziladi. U oliy ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organi, jamoat tashkilotlari va kadrlar buyurtmachilari tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Yakuniy davlat attestatsiyasi. U bakalavr yoki magistr darajasiga qo‘yiladigan malaka talablariga muvofiq holda, ma’lum talab va tartibotlar vositasida Yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyasi tomonidan o‘tkaziladi. Yakuniy davlat nazorati oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari bo‘yicha ularning o‘quv rejalariga muvofiq ravishda o‘quv fanlari bo‘yicha davlat attestatsiyasi, bakalavriat talabasi uchun bitiruv malakaviy ishi, magistratura talabasi uchun dissertatsiya himoyasini o‘z ichiga oladi.

Shu bilan birga Oliy ta’lim muassasalarining faoliyati ham baholanadi.

O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalarining faoliyatini baholash tegishli Ta’lim muassasalari davlat attestatsiyasi va akkreditatsiyasi haqidagi nizomga asosan o‘tkaziladi va muvofiq ravishda tartibga solinadi.

Hozirgi kunda ta’lim sifatini oshirish naqadar katta ahamiyatga ega ekanligini nazarda tutib, “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909 qaroriga asosan ta’lim va o‘qitish sifati ustidan samarali davlat nazoratini o‘rnatish maqsadida Davlat test markazining Kadrlar tayyorlash sifatini nazorat qilish, pedagog kadrlar va ta’lim muassasalarini attestatsiya qilish boshqarmasi negizida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tashkil etildi va ta’lim tizimida o‘quv-tarbiya jarayonlari, professor-o‘qituvchilar tarkibi, kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish sifatini nazorat qilish bo‘yicha davlat siyosatini amalga oshirish hamda idoraviy mansubligi va

mulkchilik shaklidan qat’iy nazar, ta’lim muassasalarini attestatsiya va davlat akkreditatsiyasidan o‘tkazish uning asosiy vazifalari etib belgilandi.[124]

Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirishga, respublikada amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar, ijtimoiy va iqtisodiy sohalardagi bo‘layotgan bir qator muammolar, kamchiliklarni bartaraf qilish maqsadida 2018-yil 5-iyunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-3775-sonli qarori e’lon qilindi. Unda oliy ta’lim tizimida o‘qitishni tashkil etish jarayoni, ta’lim olayotgan talabalar bilimini baholash tizimi bugungi kun talablariga javob bermayotganligi, ikkinchidan, professor-o‘qituvchilarning faoliyatini, bilimini va pedagogik ko‘nikmasini baholashning zamonaviy tizimi mavjud emasligi ta’lim sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgani alohida ta’kidlangan.

Ta’lim yo‘nalishlarining o‘ziga xos jihatlarini inobatga olgan holda talabalar bilimini baholashning zamonaviy, shaffof va adolatli (avtomatlashtirilgan, portfolio, test sinovlari, ijodiy ish, antiplagiat va h.k.) usullarini, shu jumladan muayyan fandan dars bergan pedagogning yakuniy nazorat jarayonlaridagi ishtirokini istisno etadigan tizimni joriy etishga; semestr yakuni bo‘yicha akademik qarzdor talabaning qayta topshirishi mumkin bo‘lgan fanlar sonini belgilashga va ularni topshirish muddatini o‘zgartirishga qaratilishi zarurligi ko‘rsatilgan.[125]

Nazorat ta’lim-tarbiya jarayonining ajralmas qismi bo‘lib, qator funksiyalarni bajaradi:

1. Nazoratning asosiy didaktik funksiyasi o‘qituvchi va talaba o‘rtasida **qaytar aloqani** o‘rnatish, o‘quvchi, talabalar tomonidan o‘quv materialini o‘zlashtirish darajasi to‘g‘risida xolisona axborotga ega bo‘lish va ular bilimi, ko‘nikmalaridagi kamchiliklarni aniqlab, ularni bartaraf qilish uchun chora-tadbirlar ko‘rishdir.

O‘quvchi-talabalar bilimini, muntazam tekshirish va baholash ularni predmetni o‘rganishga undaydi**. Baholash -** ta’lim jarayonining o‘quv

[124] Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги PQ-2909 қарори. Т., 2017. 5 б.

[125] Ўзбекистон Республикаси Президентининг«Олий таълим муассасаларида таълим сифатини ошириш ва уларнинг мамлакатда амалга оширилаётган кенг қамровли ислоҳотларда фаол иштирокини таъминлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида» ПҚ-3775-сонли қарори.

maqsadlariga erishilganlik darajasini belgilangan mezonlar asosida o‘lchash, natijalarni aniqlash va tahlil qilishga qaratilgan jarayon bo‘lib, faqat o‘qitish natijalarini nazorat qilish emas, balki o‘quv jarayonining turli bosqichlarida ta’lim oluvchilarning bilish faoliyatiga rahbarlik qilish hamdir.

Baho pedagog uchun o‘qishni rag‘batlantirish, ijobiy o‘quv natijalarini shakllantirish, shaxsga ta‘sir etishning asosiy vositasi bo‘lib hisoblanadi. Baholashning yana bir muhim elementi – bu qayta aloqani ta’minlashdir. Baholashning adolatli bo‘lishi va bilimiga ko‘ra tabaqalanishi, predmetni puxta o‘zlashtirish uchun intilishga olib keladi.

Baholash faqatgina o‘zlashtirish darajasini aniqlash emas, balki pedagog uchun o‘qishni rag‘batlantirish, ijobiy o‘quv motivlarini shakllantirish, shaxsga ta’sir etishning yagona vositasi bo‘lib hisoblanadi. Xolisona baholash ta’sirida talabalarda unga muvofiq bo‘lgan o‘z-o‘zini baholash, o‘z muvaffaqiyatlariga nisbatan tanqidiy munosabatda bo‘lish hissi paydo bo‘ladi.



2. Tashxislovchi funksiyasi. O‘quvchi, talabalarning fan mavzularini qay darajada o‘zlashtirgani, xislat, fazilatlari, o‘quv va ijtimoiy faoliyatining turli jihatlari aniqlanadi. Ilmiy asoslangan axborot olinadi. Tashxislash asosida **kadrlar tayyolash sifati boshqariladi**, yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni bartaraf qilish uchun chora-tadbirlar belgilanadi.

3. O‘qitish-o‘rgatish funksiyasi. Talabalarning o‘zlashtirishiga ta’sir ko‘rsatadi, ularning faolligini oshiradi. **o‘quvchi-talaba** o‘qituvchining savoliga javob beribgina qolmay, topshiriqni bajaradi, o‘rtoqlari javoblarini mulohaza qiladi, o‘zgartishlar kiritadi.

O‘quvchi-talabalarni o‘qish-o‘rganishdan o‘z oldiga maqsad qo‘yish, uni amalga oshirish uchun harakat qilishga, ijobiy fazilatlarini namoyon qilish va uni rivojlantirishga undaydi.

4. Tarbiyalovchi funksiyasi. O‘qituvchi bilimni nazorat qilish, baholash orqali o‘quvchi, talabalarning salbiy tomonlarini minimallashtirish uchun muhit yaratiladi. O‘quv faoliyatini tizimli nazorat qilishda tekshirish va baholash namoyon bo‘lib, u o‘quvchi-talabalarni bajariladigan ishga mas’uliyatini oshiradi, mehnat qilishga, o‘qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni mustaqil yechishga, o‘zining o‘quv imkoniyatlarini to‘g‘ri baholashga o‘rgatadi.

5. Rivojlantiruvchi funksiyasi. O‘quv jarayonida vaqtida o‘tkazilgan nazorat, baholash o‘quvchi, talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, dunyoqarashining kengayishi ijtimoiy tajribasini ortishida o‘z aksini topadi.

O‘quvchi-talabalar bilimini sinash va baholash nihoyatda katta ahamiyatga ega bo‘lib, uni amalga oshirishning qator tamoyillari mavjud. O‘qituvchi ana shu tamoyillarga to‘liq amal qilgandagina ko‘zlagan ijobiy natijasiga erishishi mumkin. Talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning asosiy tamoyillari:



Baholash o‘quv maqsadlariga asoslangan bo‘lishi lozim. Baholashning o‘zi aslida qo‘yilgan maqsadga naqadar erishilganini aniqlashga xizmat qiladi. O‘quv maqsadlariga qarab, baholashning shakli va usullari tanlanadi. Har qanday baholash tizimi loyihalashtirilayotganda, baholash topshiriqlari berilgan ta’lim maz-muni doirasida bo‘lishi talab etiladi.

Talabalar bilimini nazorat qilish va baholashga zamon talabidan kelib chiqqan holda obyektiv, adolatli yondashish talab etiladi. Ta’lim oluvchilarga bir xil murakkablikdagi va hajmdagi topshiriqlar berilishi kerak. O‘quvchilarning bilimini past bahoda baholash o‘quvchini fanga

bo‘lgan qiziqishi va intilishini so‘ndirishi mumkin. Ularni yuqori baho bilan rag‘batlantirish ham ko‘p hollarda o‘quvchilarda fanga nisbatan qiziqish uyg‘otish va o‘z vazifalarini chuqurroq his qilib, o‘qishga harakati ortishiga olib kelishi mumkin.

Muntazam tarzda nazorat va baholashni amalga oshirishga rioya qilish, ularni o‘z ustida tinimsiz ishlash, o‘qish, o‘rganishga undaydi.

O‘qituvchi o‘quvchi-talabalar bilimini sinash va baholash orqali:

* talabalar fan bo‘yicha nimalarni bilishi, qanday savollarni chuqurroq o‘rganishi zarurligi, zaif jihatlari aniqlanadi;

* nimalarni, qanday savol, masalalarni o‘zlashtirgani haqida axborotga ega bo‘ladi;

* ota-onalar farzandlarining muvafaqqiyatlari haqida axborot olishadi;

* ma’muriyat o‘quvchi-talabalarning erishgan natijalari asosida ularning yutuqlari va kamchiliklari to‘g‘risida axborotga ega bo‘ladi;

* o‘qituvchi va o‘quv yurti ma’muriyati tomonidan o‘quvchi-talabalar bilimini baholash orqali ularni kursdan kursga ko‘chirish haqida qaror qabul qilinadi;

* erishilgan natijalarning tahlili asosida butun o‘quv-tarbiya jarayoniga o‘zgartirish kiritish haqida yoki boshqa biror qaror qabul qilinadi.

Bilimlarni tekshirish va baholash muayyan didaktik talablarga javob berishi kerak. Tekshirish va nazorat qilish muntazam ravishda olib borilishi shart. Shu bilan birga talabalarga oshkora va xolisona yondashish kerak. Bu talabga rioya etilmasa, talim oluvchilarning o‘qishga nisbatan munosabati yomonlashadi, bilimlarning sifatiga salbiy ta’sir qiladi. Bilimlarni baholash individual xarakterga ega shu bilan birga barcha ta’lim oluvchilarni qamrab olish kerak.

Baholashni rejalashtirishda:

1) baholash topshiriqlari ta’lim jarayonidan ko‘zlangan o‘quv maqsadlarini to‘la aks ettirishi;

2) o‘quv maqsadlariga muvofiq baholash shakllari, usullari va mezonlari to‘g‘ri tanlanishiga diqqat qaratish kerak.

Hozirgi paytda talabalar bilimini nazorat qilish va baholash, uning barcha tamoyillarini nazarda tutgan holda ta’lim tizimidagi mamlakatimiz va chet el pedagoglari tajribasi asosida ishlab chiqilgan tizimidan foydalanilmoqda.

Ta’lim tizimiga talabalar bilimini sinash va baholash orqali:

- ta’lim oluvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini xolisona baholash;

- mashg‘ulot jarayonini samarali tashkil etish va mahoratli boshqarish;

- ta’lim oluvchilarda bilimlarni mustaqil ravishda egallashga nisbatan ehtiyoj va rag‘batni yuzaga keltirish;

- DTS talablarini to‘laqonli bajarilishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;

- ta’lim oluvchilarning yosh va psixologik imkoniyatlari, shaxsiy iste’dodini yuzaga chiqarish;

- ta’lim oluvchilar o‘rtasida ijodiy raqobatni shakllantirish;

- ularning o‘z-o‘zini nazorat qilishlari, baholay olishlari uchun imkoniyat yaratish;

- o‘quvchi-talabalarda ta’lim jarayoniga nisbatan ijodiy yondashuvni shakllantirish;

- turdosh ta’lim muassasalarida qo‘lga kiritilgan natijalarni taqqoslash va tahlil etish vazifalarini bajariladi**.**

Bilimni nazorat qilish orqali talabalarni**:**

- imkoniyatlarini to‘laqonli namoyon bo‘lishi ta’minlanadi;

- o‘qitilayotgan fanlarni chuqur egallash, topshiriqlarni bajarishga ijodiy yondashish, adabiyotlar ustida muntazam ishlash, darslarga faol qatnashishlarini ta’minlash amalga oshiriladi;

- bir maromda, o‘z ustilarida uzluksiz ishlashga yo‘llanadi;

- ta’lim olishda DTSlarida ko‘zda tutilgan bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantiriladi;

- mustaqil, erkin fikrlash, tafakkur yuritish qobiliyatini tarbiyalaydi;

- mavjud shart-sharoit, omillarni avvaldan hisobga olish, ulardan unumli foydalanib ish yuritishga o‘rgatadi;

- vaqtni to‘g‘ri taqsimlash hamda har bir vaqt oralig‘ida samarali, unumli, sifatli faoliyat yuritishga o‘rgatadi.

Shu bilan birga ikkinchi tomondan, professor-o‘qituvchilarni ma’ruza, amaliy mashg‘ulotlarga puxta tayyorgarlik ko‘rish, dars o‘tishning turli-tuman uslublarini qo‘llash, talabalar bilimini nazorat qilish va baholashda mas’uliyatlarini oshirishga xizmat qiladi. Bularning barchasi esa raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashga erishishga qaratilgan.

Ta’lim jarayonida o‘quvchi-talabalarni o‘qituvchi tomonidan baholanishi va qator baholash metodlari va usullari ba’zi holatlarda

baholashga subyektiv yondoshish imkoniyatini vujudga keltiradi. Bunday yondoshuvda ta’lim beruvchining shaxsiy qarashlari bilan bog‘liq baholash xatoliklari kelib chiqishi mumkin:

Hayrixohlik xatosi – bunda ta’lim beruvchi biror ta’lim oluvchiga nisbatan hayrixohlik bilan qarasa, bu bahoning biroz yuqoriroq bo‘lishiga olib kelishi mumkin.

Yuqori talab qo‘yish xatosi - ta’lim beruvchi o‘ziga nisbatan yuqori talablar qo‘ysa va xuddi shunday yuqori darajadagi talablarni ta’lim oluvchilarga nisbatan qo‘llasa, bu bahoning biroz pastroq bo‘lishiga olib kelishi mumkin.

O‘rtacha baho berish xatosi – bunday holat odatda ta’lim beruvchining o‘ta yaxshi yoki o‘ta yomon baho berishdan qo‘rqishi, o‘rtacha baholashni ustun qo‘yishi tufayli yuz berishi mumkin.

O‘z fikrini o‘zgartirmaslik xatosi - ta’lim beruvchining o‘zining birinchi fikrini o‘zgartirishni xohlamasligi, o‘z nazoratining natijalarini o‘zgarishsiz qoldirishi tufayli yuz beradi. Ko‘pincha bir marta sodir bo`lgan voqea tufayli o‘qituvchida biror ta’lim oluvchi to‘g‘risida qolgan ijobiy yoki salbiy taassurot, keyinchalik uning shaxsiyatiga oid barcha boshqa xususiyatlariga yoki o‘zgarishlarga e’tibor bermasligiga olib keladi.

Yoqtirmaslik xatosi - ta’lim beruvchi biror ta’lim oluvchini yoqtirmasligi yoki unga nisbatan salbiy fikrda bo‘lishi tufayli ta’lim oluvchiga yomon baho qo‘yishida namoyon bo‘ladi. Bu xato “hayrixohlik xatosi”ning aksidir.

Britaniyalik tadqiqotchilarning kuzatuvi (2006 va 2007-yillar) shuni ko‘rsatdiki, talabalarni ta’limdagi eng qoniqmagan narsalari baholash va qayta aloqa bo‘lib chiqdi.[126]

O‘quvchi-talabalar bilimini sinash va baholashdagi xatoliklarining oldini olish uchun:

• baholash mezonlarini aniq ishlab chiqish va ularni to‘g‘ri tanlash;

• baholashdan oldin ta’lim oluvchilar bilan talablar va baholash mezonlarini muhokama qilish;

• baholash tizimi bo‘yicha nazorat varaqasini ishlab chiqish va undan ta’lim oluvchilarni xabardor qilish;

[126] A Handbook for Teaching and Learning in Higher Education. Enhancing Academic Practice. Third edition. Edited by Heather Fry, Steve Ketteridge, Stephanie Marshall. First edition.This edition published 2009 by Routledge 270 Madison Ave, New York, NY 10016 Simultaneously published in the UK by Routledge 2 Park Square, Milton Park, Abingdon, Oxon OX14 4RN. P. 132.

• baholovchining ayniqsa yozma ishlarni baholashda bir emas, balki ikki kishi bo‘lishi;

• baholash usullarini va mezonlarini to‘g‘ri tanlash hamda erishilgan natijani ta’lim oluvchilarga yetkazish;

• o‘quvchi-talabalarga o‘z o‘zini baholashni ham taklif qilish va uni o‘qituvchi qo‘ygan baholar bilan taqqoslash;

• olingan natijalarni, yo‘l qo‘yilgan xatolarni muhokama qilish hamda sababini aniqlash va xatolarni tuzatish chora-tadbirlarini belgilash va amalga oshirish lozim.

Birinchi galda shunga e’tibor berishimiz kerakki, o‘quvchi-talabalar baholashda qo‘llanilayotgan mezon talablaridan xabardor bo‘lishi kerak.

10.2. Ta’lim oluvchilar bilimini nazorat qilish turlari, shakllari va metodlari

Talabaning fan bo‘yicha o‘zlashtirishini baholash semestr, o‘quv yili davomida muntazam ravishda olib boriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirining 2018-yil 9-avgustdagi №19-2018-sonli “Oliy ta‘lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to’g’risidagi nizomni tasdiqlash haqida” buyrug‘i bilan tasdiqlangan Nizomga asosan olib boriladi (Ma’lumki, respublikamizda 2009 yildan Oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to’g’risida nizom (*ro’yxat raqami 1981, 10.07.2009 y.*) qo’llanilgan edi).

YAngi Nizomga ko’ra o’quv jarayoni modul tizimiga asoslangan oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashda qo’llanilmaydi. Masalan, Toshkent davlat yuridik universitetida (*Ular 22.04.2016 yilda qabul qilingan Nizomga (ro’yxat raqami 2780)* asosan reyting tizimi bo’yicha ishlashni davom ettiradi).

Talabalar bilimini baholashda malakaviy amaliyot, kurs ishi, fan (fanlararo) davlat attestatsiyasi, bitiruv malakaviy ishi, shuningdek magistratura bosqichida ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik ishlar hamda magistrlik dissertatsiyasi bo’yicha mazkur Nizomda belgilangan baholash mezonlari qo’llaniladi.

Huquqiy hujjatlarga muvofiq Oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish oraliq va yakuniy nazorat turlarini o’tkazish orqali amalga oshiriladi.

Baholash o‘tkazilish vaqtiga ko‘ra uch turga ajratiladi:

- Joriy, ya’ni har bir dars jarayonida (shakllantiruvchi) baholash;
- Oraliq-belgilangan muddat yoki modul yakuni bo‘yicha umumlashtiruvchi baholash;
- Yakuniy - o‘tilgan fan bo‘yicha umumlashtiruvchi baholash.

Odatda ko‘pincha o‘qituvchilar dars boshlanishida pre-test, blits-so‘rov va boshqa metodlar yordamida boshlang‘ich baholashni o‘tkazishi mumkin.

Boshlang‘ich baholash ta’lim jarayoni boshida ta’lim oluvchilarning dastlabki bilim, ko‘nikma va malakalarini aniqlash uchun o‘tkaziladi. Bunday baholash natijalari ta’lim jarayonining mazmuni, metodlari va shakllarini tanlash imkonini beradi.

Joriy baholash talabaning amaliy, seminar, laboratoriya mashg’ulotlari va mustaqil ta’lim topshiriqlarini bajarishi, shuningdek uning ushbu mashg’ulotlardagi faolligi fan o’qituvchisi tomonidan baholab boriladi. Baholash mazkur Nizomning 15-bandida nazarda tutilgan mezonlar asosida amalga oshiriladi.

Talabaning bilim darajasi	Ball	Baho
talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo’llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo’yicha tasavvurga ega deb topilganda	5	A’lo
talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo’llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo’yicha tasavvurga ega deb topilganda	4	Yaxshi
talaba olgan bilimini amalda qo’llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo’yicha tasavvurga ega deb topilganda	3	Qoni-qarli
talaba fan dasturini o’zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo’yicha tasavvurga ega emas deb topilganda	2	Qoniqa rsiz

muntazam ravishda o‘tkazib boriladi. U ta’lim jarayonidagi yutuq va kamchiliklarni, ta’lim jarayoni samarasini tezkor (operativ) aniqlab borish, o‘quv jarayonini muvofiqlashtirish va ta’lim beruvchi va ta`lim oluvchi o`rtasidagi qaytar aloqani ta`minlash imkonini beradi.

Joriy baholashda fanning har bir mavzusi bo`yicha talabalarning nazariy bilimi va amaliy ko`nikmalarini aniqlab borish nazarda tutiladi va u amaliy, seminar yoki laboratoriya mashg`ulotlarida amalga oshirilishi mumkin. U odatda seminar darslari, amaliy mashg‘ulotlar, laboratoriya ishlari jarayonida amalga oshiriladi. Joriy baholash bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar uchun ajratilgan har bir mavzu bo‘yicha talabaning adabiyotlardan olgan konspekti, bilimi, mustaqil ijodiy fikr-mulohazalari, dars o‘tish metodlari bo‘yicha berilgan topshiriqlarni bajarishi, mustaqil ishi natijalari va amaliy ko‘nikmalarini aniqlab borish nazarda tutiladi va u amaliy mashg‘ulotlarda amalga oshiriladi. YAngi nizomda joriy nazoratning roli pasaytirilganday ko’rinadi, lekin, nizomning 10 bandida «**Talabani oraliq nazorat turi bo’yicha baholashda, uning o’quv mashg’ulotlari davomida olgan baholari inobatga olinadi» - deb belgilab qo’yilgan.**

Bundan tashqari o’z ustida muntazam ishlab, amaliy mashg’ulotlarda faol qatnashish oraliq nazoratni muvaffaqiyatli topshirishning garovidir.

Real hayotda yangi nizom talablariga asoslanish qanday natija berishini yaqin kelajak ko’rsatadi. **Muhimi har bir talaba uchun muhim motivatsiya – bu oliy o’quv yurtini bitirgach, o’z bilimi, ko’nikma, mahoratiga mos ish o’rniga ega bo’lishdir.** Bu jarayon ko’proq talabaning o’zini-o’zi nazorat qilishi bilan bog’liq.

YAna bir diqqat qaratish zarur bo’lgan jihat talabalarda joriy nazorat uncha muhim emas ekan, oraliq nazorat boshqa o’qituvchi tomonidan olib boriladi, hali unga ancha vaqt bor, ungacha o’qib, bilib olaman degan kayfiyatni paydo bo’lishiga yo’l qo’yilmasligi, buni uddalash qiyinligini har bir talaba anglab etishi kerak.

Oraliq baholash. Oraliq nazorat semestr davomida ishchi fan dasturining tegishli bo’limi tugagandan keyin talabaning bilim va amaliy ko’nikmalarini baholash maqsadida o’quv mashg’ulotlari davomida o’tkazilishi ko’zda tutiladi.

Fanning bir necha mavzularini qamrab olgan bo‘limi yoki qismi bo‘yicha nazariy mashg‘ulotlar o‘tib bo‘lgandan so‘ng talabalarning nazariy bilimlari baholanadi va unda talabalarning muayyan savolga javob berish yoki muammo yechish mahorati va qobiliyati aniqlanadi. Oraliq baholash ma’ruza darslarida amalga oshirilishi mumkin.

Oraliq nazorat turini o’tkazish shakli va muddati fanning xususiyati va fanga ajratilgan soatlardan kelib chiqib aniqlanadi va tegishli kafedra tomonidan belgilanadi.

Oraliq baholash semestr, o‘quv yili davomida fanning bir necha mavzusi, qismi, bo‘limi bo‘yicha nazariy mashg‘ulotlar o‘tib bo‘lingandan so‘ng o‘tkaziladi. Unda muayyan savol, muammo, test, masala-mashq, esse va boshqalar yordamida talabaning mavzuni o‘zlashtirish darajasi, qobiliyati, mahorati aniqlanadi va baholanadi.

Oraliq baholashda talabalarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichi ma‘ruzalar, unda talabaning faolligi, otilgan mavzular bo‘yicha og‘zaki, yozma ish, test va talabaning mustaqil ishi nazarda tutilgan holda baholanadi. Oraliq nazorat turini topshirmagan, shuningdek ushbu nazorat turi bo’yicha «2» (qoniqarsiz) baho bilan baholangan talaba yakuniy nazorat turiga kiritilmaydi va u tegishli fan bo’yicha yakuniy nazorat turi o’tkaziladigan muddatga qadar oraliq nazorat turini topshirgan bo’lishlari shart.

Yakuniy (umumlashtiruvchi) baholash - talabaning bilim, ko‘nikma va malakalari umumiy mazmuni doirasida baholanadi. YaB semester yakunida o‘tkaziladi. Muayyan fan bo‘yicha ta’lim oluvchining semester davomida o‘zlashtirish ko‘rsatkichi aniqlanadi va u Baholash daftarida aks ettiriladi.

YAkuniy nazorat turini o’tkazish shakli tegishli fan bo’yicha kafedra tomonidan belgilanadi. Yakuniy baholashga, fanning semestr yoki o‘quv yili davomida o‘tilgan hajmi doirasida talabaning fanni o‘zlashtirish darajasi baholanadi. Yakuniy baholash semestrr yakunida o‘tkazilib, yakuniy baholashda talabaning bilim, ko‘nikma va malakalari ishchi o‘quv dasturidan kelib chiqqan holda fanning umumiy mazmuni doirasida baholanadi.

Nizomda YAkuniy nazorat turi oliy ta’lim muassasasining tegishli fakulьtet dekani yoki o’quv-uslubiy bo’lim tomonidan ishlab chiqiladigan hamda o’quv ishlari bo’yicha prorektor tomonidan tasdiqlanadigan YAkuniy nazorat turlarini o’tkazish jadvaliga muvofiq o’tkazilishi, tegishli fan bo’yicha o’quv mashg’ulotlarini olib borgan professor-o’qituvchi yakuniy nazorat turini o’tkazishda ishtirok etishi taqiqlanishi, YAkuniy nazorat turini o’tkazishda kelishuv asosida boshqa oliy ta’lim muassasalarining tegishli fan bo’yicha professor-o’qituvchilari jalb qilinishi mumkinligi belgilab qo’yilgan. Bu

talabalarni bilimini baholashning ob’ektiv, adolatli, shaffof bo’lishini ta’minlash imkoniyatini orttiradi.

Umumlashtiruvchi baholashni o‘tkazishda quyidagilarga e’tibor berish lozim:

• Ta’lim oluvchi umumlashtiruvchi baholash nima uchun o‘tkazilishi haqida ma’lumotga ega bo‘lishi lozim. U qachon, kim tomonidan va qanday o‘tkazilishini bilishlari muhim ahamiyatga ega. Bu uning baholashga tayyorgarlik ko‘rishga undaydi.

• Ta’lim oluvchi oldindan belgilangan mezonlar yordamida baholanishi lozim.

Baholashni o‘tkazish shartlari unga jiddiy yondashishga, o‘z qobiliyatini namoyish qilishiga imkon beradi.

• Baholash o‘tkazish sharoitida ta’lim oluvchi o‘zini erkin tutishi va noxushlik his etmasligiga imkoniyat yaratish kerak.

• Qo‘yilgan baho o‘quv natijasiga qay darajada erishganlikni tushunish va uni mujassamlashtirish uchun ahamiyatlidir.

O‘quvchi-talabalar bilimini nazorat qilishning quyidagi shakllari mavjud:

Frontal tekshiruv – o‘zlashtirish lozim bo‘lgan (qoida, jadval, yilnomalar) ko‘p bo‘lmagan materialni tekshirish uchun qo‘llaniladi. Odatda u ko‘proq joriy nazoratda qo‘llaniladi.

O‘z-o‘zini nazorat. Ta’limda qayta aloqani ta’minlash bilan o‘z o‘zini baholash ham foydali bo‘lishi mumkin. Bunda o‘quv faoliyatini, erishgan darajasini talabaning o‘zi nazorat qiladi. Odatda u ko‘proq *texnik vosita - kompyuter* yordamida amalga oshiriladi.

Modulda ko‘zda tutilgan nazorat. Bunda modul birligi fandagi bo‘lim yoki mavzu – ya’ni mavzu o‘tib bo‘lingach amalga oshiriladi.

Standart talablarining bajarilishini nazorat qilish kim tomonidan o‘tkazilishiga ko‘ra: ichki nazorat, tashqi nazorat, davlat-jamoat nazorati shaklida bo‘lishi mumkin.

Ta’lim oluvchilar bilimini sinash va baholash metodlari

O‘quvchi-talabalar bilimi, ko‘nikma va malakalarini sinash va baholasi metodlar hamda usullar yordamida amalga oshiriladi. Ularni qanday tarzda bajarilishiga ko‘ra uchta katta guruhga bo‘lish mumkin: og‘zaki, yozma va amaliy.

Ta’lim oluvchilar bilimini sinash va baholashda qanday usulni tanlash, o‘tilayotgan fan, qo‘yilgan maqsad, o‘qituvchining tanlovi kabilarga bog‘liq.

Keng qo‘llaniladigan nazorat uslublaridan **og‘zaki** metodlardir. Og‘zaki nazoratning afzalliklariga shaxsiy munosabat, o‘qituvchining o‘quvchi-talaba bilan jonli muloqoti, uning fikrlarini nutq shaklida ifodalashga mashq qildirish, bilimlarni yanada chuqurroq tekshirish maqsadida pedagog tomonidan qo‘shimcha savollar berish imkoniyatlari kiradi. Bunda talaba bilan jonli muloqot olib boriladi. Talaba o‘z fikrini o‘rtoqlashish, boshqalarning nuqtai nazarini tahlil qilish uchun katta imkoniyatga ega. Pedagog tomonidan qo‘yilgan savolga og‘zaki javob berishga tayyorlanish doimo talabaning faol fikrlashi bilan bog‘langan.

Og‘zaki javob yaxshi tayyorlangan talabaga o‘zining iqtidorini, qo‘shimcha egallagan bilimlarini namoyish etishga imkon beradi. Bevosita muloqot tufayli pedagogda savol-javob davomida talabaning bilimlari to‘g‘risidagi taassurot vujudga keladi, e’tirozlarni, barcha gumonlarni bartaraf etish imkoni bo‘ladi. Lekin bu usulda **subyektiv omil** asosiy o‘rinda turadi.

Talabalar bilimini sinash va baholashning keyingi paytda keng qo‘llanilayotgan usullaridan biri yozma ish, esse yozishdir. Uning afzalligi shundaki, yozma ish uchun savollar oson tuziladi. Talabalarni o‘z fikrlarini ijodiy ravishda bayon qilishlari uchun katta imkoniyat mavjud. Undan tashqari tavakkal qilib, javob berib bo‘lmaydi.

O‘quvchi-talabalar bilimini sinash va baholashda **yozma** metodlardan keng foydalaniladi. Ularning eng muhim afzalligi o‘z fikrini mantiqiy izchillikda ilmiy tilda bayon qilish, har bir so‘zni o‘rnida ishlatishni o‘rganishga majbur qiladi. Bunda nazorat ishi yoki esse yozish va boshqalardan foydalanish mumkin.

Yozma ishning **kamchiligi** uni o‘qib chiqish uchun ko‘p vaqt talab qilinadi. Baholash qiyin. Ko‘p savollarni qamrab olmaydi. U esse tarzida yoki tayanch ibora, atamalar asosida yozma topshiriq tarzida bo‘lishi mumkin.

Esse yoki yozma topshiriq berilar ekan, har bir talabaning ishini obyektiv baholash uchun baholashning mezonlarini ishlab chiqish kerak. Bu mezonlarda talabalarning ishi ball bo‘yicha qanday baholanishi ko‘rsatiladi.

Yozma ishni baholashda ikki xil yondashuv mavjud. Birinchisi, reyting usulidan foydalanish. Bu usulda ishning umumiy sifati qiziqtirib, ayrim tomonlariga e’tibor berish zaruriyati yo‘q bo‘lsa, qo‘l keladi. Odatda, bu usul ko‘proq tayanch iboralar asosida yoziladigan yakuniy

nazorat ishida qo‘llaniladi. Yozma ish sifatiga ko‘ra ish 3-5 kategoriyaga bo‘linadi. So‘ngra ular ishning sifatiga ko‘ra tabaqalashtirib baholanadi. O‘qituvchi yozma ishni talabalarga qanday mezonga ko‘ra baholanishini tushuntirishi kerak.

Yozma ish o‘quv yilining oxirida yakuniy baholash uchun o‘tkazilib, ko‘p variantli usulda qo‘llaniladi. Har bir variantda asosiy savol va tayanch tushunchalar bo‘lib, ularga alohida javob yoziladi.

Qo‘yilgan savolga to‘g‘ri va to‘la javob yozilsa, savolning mohiyati, mazmuni yoritilib, boshqa iqtisodiy hodisa, jarayonlar bilan bog‘lab, hayotiy misollar bilan boyitilib, izchil, mavjud adabiyotlarda yoritilishiga baho berishga intilsa, mantiqiy yaxlitlikka erishilsa, talabaga yakuniy nazorat uchun ajratilgan maksimal 5 ball baholanadi.

Berilgan savolga to‘g‘ri javob yozilsa, qo‘yilgan savollarning mazmuni, sabablari ochib berilsa, boshqa iqtisodiy hodisa va jarayonlar bilan aloqadorligi, bog‘lanishlari ko‘rsatilsa, hayotiy misollar bilan asosan to‘g‘ri yoritilsa, lekin ta’rif berishda va hayot bilan bog‘lashda ayrim noaniqliklarga yo‘l qo‘yilsa, yakuniy nazorat “4 ball” darajasida baholanadi.

Qo‘yilgan savolga asosan to‘g‘ri javob yozilsa, biroq masalaning mohiyati, mazmuni, boshqa hodisa va jarayonlar bilan aloqadorligi to‘la yoritilmasa, hayotiy misollar keltirilmasa yoki qisman keltirilsa, bunday ish “3 ball” darajasida baholanadi.

Berilgan savolga javob yozilmasa, noto‘g‘ri yoki yuzaki javob yozilsa, uning mazmuni, sabablari, boshqa iqtisodiy hodisa va jarayonlar bilan aloqadorligini bayon qilishda, hayotiy misollar keltirishda chalkashliklarga, xatoliklarga yo‘l qo‘yilsa, ish “2 ball” darajasida baholanadi.

Ikkinchi yondashishdagi baholash mezonida, ishning sifati avvaldan ishlab chiqilgan baholash standarti bo‘yicha amalga oshiriladi. Bu usul rubrikatsiyalash deyiladi. Bunda mezonlar alohida rubrikatlarga bo‘linib, har biri qancha ball bilan baholanishi ko‘rsatiladi. Ishni baholashda rubrikatsiya jadvalidan foydalaniladi. Bundy yondashish ko‘proq esselarni baholashda qo‘llaniladi.

Talabalarni avvaldan ularning ishi qanday baholanishi bilan tanishtirib chiqish mumkin. Bu ularga ishni yozishda mo‘ljal bo‘ladi. Yuqori ball olish uchun nima qilish kerak, ishni qanday yozish zarurligini avvaldan chamalash imkonini beradi

Rubrikatsiya[127] jadvali

Mezonlar	Ball
Asosiy g‘oyalar mazmuni aniq bayon qilingan. Muallif mantiqiy izchillikda o‘z fikrini ustalik bilan bayon qilgan. Hayotdan misollar keltirilgan. Ish tushunarli til bilan yozilgan. Statistik ma’lumotlardan foydalanilgan. Lug‘aviy zaxiraga boy. Ish grammatik qoidalarga amal qilingan holda yozilgan. Muallifning bilimli ekani ko‘rinib turibdi.	5
Asosiy g‘oya, mazmun asosan ochib berilgan. Fikr yetarli darajada izchillikda bayon qilingan. Fikr yuritish to‘g‘ri. So‘zlar, iboralar to‘g‘ri tanlangan va ifodalangan. Matnda minimal darajada xatoliklar bor.	4
Asosiy g‘oya, savolning mazmuni noaniq bayon qilingan. To‘plangan material, axborotni bayon qilishda izchillik yo‘q. So‘zlar, iboralar noto‘g‘ri tanlangan. Gaplar noto‘g‘ri tuzilgan, xatolar ko‘p.	3
Asosiy g‘oya, mazmun, savolga javob yo‘q. Fikr uzilib-uzilib, bog‘lanmagan tarzda bayon qilingan. Ishning tili muallifni savodsizligini ko‘rsatib turibdi.	1-2
Ish o‘zining mavzusi emas yoki o‘qib bo‘lmaydi.	0

Talabalar bilimini baholashda **testlar** muhim o‘rin tutadi. Testlar talabalar bilimini baholash, bilim olishga ko‘maklashishdan tashqari masala yechish, referat yozish yoki savolga og‘zaki yoki yozma javob yozish kabilardan quyidagi jihatlari bilan ajralib turadi.

Testlar talabalar bilimini nazorat qilishning **obyektiv** usuli hisoblanadi, sababi unda o‘qituvchi bilan talaba o‘rtasida vujudga kelgan munosabatlar hech qanday rol o‘ynamaydi va talaba bilimini baholashga ta’sir etmaydi.

Testlarni yakuniy nazoratdan tashqari mavzuni boshlashdan avval ham, joriy va oraliq nazoratda ham qo‘llash mumkin.

Mavzu bo‘yicha dars o‘tishdan avval qo‘llanilgan pre-testlar talabalar diqqatini shu testdagi asosiy xatolarga, o‘rganilayotgan kategoriyalarga qaratish imkonini beradi. Pre-testda unga tanish bo‘lmagan g‘oya, tushuncha, gohida alohida so‘z bilan to‘qnash kelib, ularni mustaqil o‘rganishga harakat qiladi. Ular talabani mustaqil ishlashga undaydi, yo‘llanma beradi.

Oraliq testlar darsni o‘zlashtirish jarayoni qanday kechayotganini nazorat qilish imkonini beradi. Oraliq testlarning natijasini muhokama

[127] Lotinча rubber – qizil so’zidan olingan bo’lib, bir butunlikni ma’lum bir tizim asosida qismlarga, bo’limlarga, boblarga, paragraflarga bo’linishi tushuniladi.

qilish jarayonida fandagi asosiy tushunchalarni samarali takrorlash va xotirada saqlash imkoni vujudga keladi.

Testlar talabalar bilimini butun dastur bo‘yicha, shuningdek, tor tanlash doirasida yoki alohida ahamiyatga ega, yoxud an’anaviy o‘zlashtirish qiyin tushuncha, mavzular bo‘yicha nazorat qilish, baholash imkonini beradi.

Testlar talabalar bilimini tez tekshirish imkonini beradi. Bu ayniqsa, oraliq testlar o‘tkazish uchun qulay, chunki test javoblariga ko‘ra o‘qituvchi dastur bo‘yicha o‘z ishini, dars o‘tiladigan savollarni ko‘rib chiqadi, kelgusida dars o‘tishda qaysi savollarga ahamiyat berishni mo‘ljallaydi.

Testlar talabalar bilimini sinash va baholashda qator afzalliklarga ega bo‘lish bilan birgalikda, kamchiliklari ham bor. Test savollarini tuzish ko‘p mehnat, vaqt talab qiladi. Shuning uchun keyingi paytlarda o‘qituvchilar ko‘proq tayyor test savollaridan foydalanishmoqda. Testning yana bir kamchiligi, tavakkal qilib javob topishning mumkinligidir.

Iqtisodiy fanlar, ma’lumki, iqtisodiy mantiqiy fikrlashga o‘rgatibgina qolmay, o‘z fikrini atrofdagilarga tushuntirish, o‘rtoqlashish, nutq so‘zlash, ilmiy munozalar olib borish, boshqa kishilarni fikrini tanqidiy nuqtai nazardan baholashga ham o‘rgatishi kerak. Testlar esa bunday imkoniyatga ega emas.

Mashhur iqtisodchi marjinalizmning asoschilaridan Uilьyam Jevons ta’kidlaganidek, iqtisodiy fanlar miqdorlar bilan ish ko’radi, iqtisodiyotda taqqoslash, hisob-kitob muhim shuning uchun ham u matematikalashtirilgan bo’lishi bilan ajralib turadi. Bu fanlarni masala va mashqlar echmay mazmun-mohiyatini anglash, amaliyot bilan bog’lashning iloji yo’q. SHuning uchun ham nafaqat fanni o’rganishda, balki talabalar bilimini sinash va nazorat qilishda ham masala, mashqlardan keng foydalanish mumkin. Masala – mashqlar talabaning bilimini keng ko‘lamda tekshirish, olgan nazariy bilimini real hayotda qo‘llay bilish imkonini ochib beradi. O‘rganilayotgan savolni mohiyatini talaba tushungani yoki tushunmaganini aniqlaydi.

Bu usulning ham o‘ziga xos kamchiliklari bor. Birinchidan, talabani hisoblash bilan birga keng mushohada yuritishga yo‘naltiruvchi masala-mashqlar tuzish oson emas. Ikkinchidan, talabalar hisob-kitobga haddan ziyod berilib ketib, nazariy jihatdan tahlil qilishga kam e’tibor qaratishadi. Uchinchidan, masala-mashqlar tor doiradagi savollarni qamrab oladi.

Talabalar bilimini sinash va baholashni ijodiy topshiriq berish, tanlov o‘tkazish va uni baholash tarzida ham qo‘llash mumkin. Bu talabalarga keng imkoniyatlar beradi. Ular o‘z qobiliyatlarining turli qirralarini ochadilar. Chunki bunday nomerlarni tayyorlash talabalardan topqirlik, fantaziya, yumorni ilg‘ash xislatlari va boshqalarni talab qiladi. Ularni hamma mavzular uchun qo‘llab bo‘lmaydi. Ularni tayyorlash uchun nihoyatda ko‘p vaqt talab qilinadi. Natijada ko‘zlangan maqsadga erishmaslik mumkin. Baholash qiyin. Talabalar o‘rtasida sifat jihatdan farqni ilg‘ash qiyin.

Baholashning turli metodlarini taqqoslash

Topshiriq turlari	Afzalliklari	Kamchiliklari
Masala, mashqlar	Ballda baholash oson. Talabalar bilimini real hayotda qo‘llay bilishi, ko‘nikmalarini tekshirish, aniqlash mumkin	Yaxshi masala-mashqlarni o‘ylab topish, tuzish oson emas. Talabalar haddan tashqari hisob-kitobga berilib ketishi mumkin. Tor doiradagi savollar qamrab olinadi
Esse uchun savol, mavzu bo‘yicha tayanch iboralar asosida savollar variantlari	Savollarni tuzish oson. Talabalar o‘z fikrini bayon qilish uchun keng imkoniyatga ega. Tavakkal qilib javob topib bo‘lmaydi	Javoblarni tekshirish uchun ko‘p vaqt ketadi. Baholash qiyin
Testlar	Butun dastur bo‘yicha yoki alohida mavzularni qamrab olishi mumkin. Talabalar bilimini tezda tekshirish mumkin. Talabalar bilimi obyektiv baholanadi	Tavakkal qilib javob topish mumkin. Test savollarini tuzish ko‘p mehnat va vaqt talab qiladi. Talabani o‘z fikrini bildirish imkoniyati yo‘q
Ijodiy topshiriq	Fikr yuritishning eng yuqori darajasiga yetishga yo‘naltirilgan bo‘lishi mumkin. Asosiy diqqat bilimni amaliyotda qo‘llashga qaratiladi. Talabaga ijodiy mustaqillik beradi, olgan bilimining turli tuman qirralarini namoyon qiladi	Hamma konsepsiya, mavzular uchun ham qo‘llab bo‘lmaydi. Kutilgan natijani bermasligi mumkin. Baholash qiyin. Ko‘p vaqt ketadi. Talabalar o‘rtasidagi farqni aniqlash qiyin

Baholash metodlarini tanlashda qo‘yilgan maqsad ham asosiy rol o‘ynaydi. Masalan, agar biz talabani izchil va mulohazali dalil keltirish

qobiliyatini tekshirmoqchi bo‘lsak, unda insho, esse yozdirish maqsadga muvofiq. Aniq fanlar bo‘yicha talabani laboratoriya ko‘nikmalarini tekshirmoqchi bo‘lsak, kuzatiladigan samaradorlikni baholash sxemasini qo‘llaganimiz ma’qulroq.

Hozirda kompyuter yordamida baholash usulini qo‘llash borgan sayin keng qo‘llanilmoqda. Ushbu usul orqali talabani ta’lim olishga, fanlar bo‘yicha olgan ko‘nikmalari va qobiliyatlarini amaliyotda qo‘llashga imkoniyat yaratadi va baholanayotgan bilimni ko‘lamini kengaytirish va qayta aloqani yaxshilash imkoniyatlarini beradi, lekin uning ham boshqa baholash uslublari kabi afzalliklari hamda ba’zi kamchiliklari bor.[128]

Eng muhimi, qo‘llanadigan baholash usullariga qanday yondashilganligi. Ular konseptual o‘zgaruvchan, talabaga yo‘naltirilganmi yoki axborot uzatuvchi o‘qituvchiga yo‘naltirilgan yondoshuvga tegishli ekanligi. Shunung uchun ham biz o‘quvchi-talabalarni teran fikrlashga yo‘naltiruvchi yondashuvga e’tibor beruvchi Britaniyalik hamkasblarimiz fikriga qo‘shilamiz.

Baholash, uning mohiyatidan kelib chiqib, ikki xil: a) mezonga asoslangan; b) me’yorga asoslangan baholash shaklida o‘tkazilishi mumkin.

Mezonga asoslangan baholash o‘quvchi-talabaning ta’lim jarayonida qo‘lga kiritgan natijalari, bilim, ko‘nikma va malakalarini oldindan belgilangan o‘quv maqsadlari asosida ishlab chiqilgan mezonlarga ko‘ra taqqoslash va o‘lchashdan iborat baholash shaklidir. Bunda baholash mezonlari qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyasi, metodlar, qo‘yilgan maqsadlardan kelib chiqqan holda aniq belgilanadi hamda umumiy tarzda Nizomda belgilangan mezonlarga keltiriladi.

Mezonlar orqali natijalar to‘g‘ridan-to‘g‘ri va xolis baholanadi, shuningdek, kuchli guruhlarni kuchsiz guruhlardan yaxshiroq farqlash imkonini beradi. Bu baholash shakli ikki bosqichdan iborat bo‘lib, birinchi bosqichda baholanuvchining erishgan natijalari aniqlanadi, ikkinchi bosqichda esa, natijalar ko‘rsatkichlar va mezonlar asosida taqqoslanadi va o‘lchanadi.

[128] A Handbook for Teaching and Learning in Higher Education. Enhancing Academic Practice. Third edition. Edited by Heather Fry, Steve Ketteridge, Stephanie Marshall. First edition.This edition published 2009 by Routledge 270 Madison Ave, New York, NY 10016 Simultaneously published in the UK by Routledge 2 Park Square, Milton Park, Abingdon, Oxon OX14 4RN. P.137.

Masalan, “Maxsus fanlarni o’qitish metodikasi” fanidan talabalarga masala, mashq, testlar tuzishni topshiriq berdik, deylik. U holda ular bajargan ish natijalari quyidagicha baholanishi mumkin:

Tuzilgan masalani baholash ko‘rsatkichlari va mezonlari:

Baholash mezonlari	Maksimal baho
1. Masalaning mavzuga muvofiqligi	1
2. Masalada maqsadni qo‘yilishining aniqligi	1
3. Berilganlar va hisob-kitob qilish uchun ma’lumotlarning to‘g‘riligi va yetarliligi	1
4. Topish zarur bo‘lgan noma’lumning tushunarliligi	1
5. Masalaning nazariy yoki amaliy dars o‘tishda qo‘llanishiga ko‘ra qoidalarga rioya qilinganligi	1
Jami	5

Tuzilgan mashqni baholash ko‘rsatkichlari va mezonlari:

Baholash mezonlari	Maksimal baho
1. Mashqning mavzuga muvofiqliligi	1
2. Mashqda maqsadni qo‘yilishining aniqligi, o‘ziga jalb qilishi	1
3. Mashqni bajarishning murakkablik darajasi	1
4. Mashqni ko‘nikma hosil qilishga ta’siri	1
5. Mashqni bajarishning zavqliligi, qiziqarliligi	1
Jami	5

Test tuzish va ularni baholash ko‘rsatkichlari va mezonlari:

Baholash mezonlari	Maksimal baho
1. Tuzilgan testlarning mavzuga muvofiqligi	1
2. Maqsadni test orqali ifodalash mahorati	1
3. Test tuzish qoidalariga rioya qilish	1
4. Tuzilgan testlarning originalligi	1
5. Tuzilgan testlarning murakkabligi darajasi	1
Jami	5

Dars jarayonida metodlarni qo‘llash bo‘yicha baholash shunday tarzda amalga oshiriladi va talabalarga tushuntiriladi.

Yakuniy nazorat uchun ham yozma, og‘zaki yoki aralash bo‘lishidan qat’i nazar baholash nizom talablariga mos bo’lishi chiqiladi va uning mazmuni nazorat o‘tkazishdan avval talabalarga tushuntiriladi.

Mezonga asoslangan baholashning **afzalliklari** quyidagilardan iborat:

• o‘quv maqsadiga muvofiq baholanadi;

• ta’lim oluvchining o‘zlashtirish darajasini obyektiv baholaydi;

• baholash aniq ko‘rsatkichlar va mezonlarga asoslanadi;

• ta’lim oluvchi olgan bahosida yo‘l qo‘ygan xatolarini yaqqol ko‘rib turadi;

• baholanuvchini ta’lim olishga yo‘naltiradi;

• baholanayotgan mavzudagi yutuq va kamchiliklari xolisona aniqlanadi, ularning o‘z bilimi va malakalariga bo‘lgan ishonchini oshiradi;

• hamma uchun bir xil bilim va malaka talablarini o‘rnatadi;

• ta’lim oluvchilarning o‘z faoliyati natijalariga bo‘lgan mas’uliyatini oshiradi.

Shu bilan birga bunday baholashning **kamchiliklari** ham mavjud bo‘lib, ular quyidagilardan iborat:

• mezonlarni tanlash, ishlab chiqish, ularning obyektivligi, haqqoniyligi va o‘lchanishiga nisbatan talablarning ko‘pligi va ko‘p vaqt talab qilishi;

• ijtimoiy fan yo‘nalishlari bo‘yicha mezonlar ishlab chiqishda qiyinchiliklarga duch kelinadi. Bunda aynan nizomda ko’rsatilgan mezonlar bo’yicha baholash uchun metodlarni qo’llashga mos mezon ishlab chiqishimiz kerak bo’ladi. Va unga ko’ra baholashda yakuniy qaror chiqaramiz

Bunday baholashni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun birinchi navbatda shuni ta’minlash kerakki, talabalar baholashda qo‘llanayotgan mezon talabalara ma’lum bo‘lishi kerak. Bundan tashqari pog‘onaviy (A, B va C pog‘onalari, bizdagi a’lo, yaxshi, qoniqarli (ilovaga qarang) ortib boradigan darajalarni yig‘ish shartlari ham talabalarga ochiq ma’lum bo‘lishi maqsadga muvofiq. Eng kamida, bu baholovchilarga baholash bo‘yicha kelishmovchiliklar bo‘lsa, ularni bafurja kelishgan holda muloqot va suhbat orqali hal qilinadi.[129]

Me’yorga asoslangan baholash nisbiy baholash shakli bo‘lib, baholashdan so‘ng o‘quvchi-talabalarning ta`lim jarayonida qo‘lga kiritgan natijalarini o‘zaro taqqoslash orqali o‘lchashdan iborat. Bu

[129] A Handbook for Teaching and Learning in Higher Education. Enhancing Academic Practice. Third edition. Edited by Heather Fry, Steve Ketteridge, Stephanie Marshall. First edition.This edition published 2009 by Routledge 270 Madison Ave, New York, NY 10016 Simultaneously published in the UK by Routledge 2 Park Square, Milton Park, Abingdon, Oxon OX14 4RN. P. 138.

baholash tartibi o‘quv me’yoriy hujjatlarda aks ettiriladi. U ham ikki bosqichdan iborat bo‘lib, birinchi bosqichda ta’lim oluvchining erishgan natijalari aniqlanadi, ikkinchi bosqichda esa, bu natijalar o‘zaro taqqoslash orqali o‘lchanadi. Me’yoriy baholashda baho bir necha ko‘rsatkichlarga va ta`lim olish shart-sharoitiga ko‘ra o‘zgarishi mumkin. Masalan, joriy, oraliq, yakuniy baholash me’yorlari bir necha marta o‘zgartirildi. 2010-yillarda joriy baholash 43 ball, oraliq baholash 42 ball, yakuniy baholashga 15 balldan me’yor belgilangan bo‘lsa, 2011/2012 o‘quv yillaridan joriy va oraliq baholash 35 balldan, yakuniy baholash 30 ball belgilandi. 2013/2014 oquv yilidan ayrim predmetlardan yozma nazorat va test yechish ko‘zda tutilib, yozma ishga maksimal 6 ball, testlarga esa 24 ball ajratildi. 2016/2017 o‘quv yilidan ON 34, JN 36, YaN 30 ball belgilandi. Reyting jarayobini o’rganish asosida 2018-2019 o’quv yilidan ”5” ballik baholashga o’tildi va unga ko’ra tabaqalashtirildi (344 betga qarang).

Me’yorga asoslangan baholashning **afzalliklariga:**

• ta’lim beruvchining ortiqcha vaqt sarflamasligi;

• turli shart-sharoitga oson moslashtirish mumkinligi;

• baho bo‘yicha ko‘rsatkichlar umumiy tarzda olinishini kiritish mumkin.

Me’yorga asoslangan baholashning **kamchiliklari** esa quyidagilardan iborat:

• bilimlarni obyektiv va haqqoniy baholashning pasayishiga imkoniyat yaratilishi mumkinligi;

• baholashda bilim bilan hulqni baholash aralashtirib yuborilishi, ba’zan hulqni baholash bilimni baholashni belgilab qo‘yishi;

• baholar ta’lim beruvchi tomonidan subyektiv belgilanishi mumkinligi kabilarni kiritish mumkin.

Shuning uchun yangi nizomda yakuniy baholashni dars o’tmagan o’qituvchi tomonidan o’tkazilishi belgilab qo’yildi. SHunday qilib baholash ham mezonga ham me’yorga asoslaniladi. Ular asosida o‘quvchi-talabalarni o‘zlashtirish darajasiga qarab tabaqalashtirish, ta’lim oluvchilar ichidan maqsadga ko‘ra ma’lum bir guruhga mansublarini ajratib olish hamda tahlil qilish imkonini beradi

10.3. O‘quv jarayonini tashkil qilish, talabalar bilimini sinash va baholashda jahon amaliyotini qo‘llash

Hozirgi taraqqiyot darajasi global miqyosda ta’lim tizimini tubdan o‘zgartirishga, ta’lim olishning uzluksizligini ta’minlashni asosiy vazifaga aylanishiga olib keldi.

Keyingi yillarda avval ko‘rsatib o‘tganimizdek:

1) generatsiya tizimi va bilim berish murakkablashdi;

2) mavjud bilim va axborot tizimi bir necha barobar o‘sdi;

3) bilimda eskirish tezligi yuqori.

Shuning uchun olingan fundamental, asosiy bilim ma’lum davrda qo‘shimcha ta’lim dasturi bilan to‘ldirib turilishi va malaka oshirib turilishini talab qiladi.

Ma’lumki, iqtisodiyotdagi tarkibiy o‘zgarishlar o‘z navbatida ishchi kuchi malakasi, mahoratini yuqori bo‘lishini, ishchi kuchiga bo‘lgan talabning o‘zgarishiga moslashuvchan, o‘z malakasini oshirishga intiluvchan bo‘lishni talab etadi. Mehnat bozori ishchi kuchini moslashuvchanligiga alohida talablar qo‘yadi. Shuning uchun jahon tajribasida:

* o‘qish va ish jarayonini yaqinlashtirish va moslashuvchanligini ta’minlash, ularni bir-biri bilan bog‘lash;

* ishchi kuchi safarbarligini ko‘tarish;

* ta’lim berish va bandlikning moslashuvchan shakllarini qo‘llash;

* ish vaqti va ta’lim vaqtini bog‘lash, ta’lim vaqti muddatiga va boshqalarga e’tibor berilmoqda.

Talabalarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqil tanlash va qaror qabul qilish ko‘nikmasini hosil qilish obyektiv zaruriyatga aylandi.

Buning uchun talabalarni mustaqil izlanish, fikrlash, turli qarashlarni taqqoslash, tahlil qilish, xulosa chiqarishga o‘rgatish lozim. Shuning uchun jahon pedagogikasida e’tibor talabalarda ana shu xislatlarni hosil qilish va tarbiyalashga qaratildi. Tajriba talabalarda aynan ana shu xislatlar, ko‘nikmalarni hosil qilishda dars berishning interaktiv metodlarini qo‘llash ijobiy natija berishini ko‘rsatdi. Bu uslublar dars o‘tishni dialog tarzida amalga oshirishga, ayniqsa, talabalarni darsga faol qatnashishlarini ta’minlashga qaratilgan.

Jahon tajribasida o‘qituvchi yuqori darajada darsni tashkil qilishi, bilimi, talabalarni o‘z faniga qiziqtira olishi, shu fanning tayyorlanayotgan mutaxassislik bo‘yicha naqadar zarurligi jihatidan raqobat qila olishiga katta e’tibor beriladi. O‘qituvchining asosiy vazifasi:

1. Talabalarni mustaqil ishini tashkil etish, ularni semestr davomida o‘z ustida ishlashga o‘rgatish.

2. Turlicha dars berish metodlarini qo‘llab, talabalarni darsga faol qatnashishlarini ta’minlash.

Talabalarni mustaqil ishini tashkil qilish va o‘z ustida uzluksiz ishlashi, izlanishini ta’minlashda jahon tajribasida “Sillabus” muhim o‘rin tutadi. **Sillabus bu o‘qituvchi bilan talaba o‘rtasidagi shartnomadir**.

Sillabusda kafedra tomonidan:

a) fan bo‘yicha albatta o‘rganilishi zarur bo‘lgan mavzular ko‘rsatilishi mumkin;

b) o‘qituvchilar dasturda ko‘rsatishlari shart bo‘lgan komponentlarni aniqlab berishi mumkin. Boshqa topshiriqlarni o‘qituvchining o‘zi belgilaydi.

Sillabusda ko‘rsatilishi shart bo‘lgan komponentlar:

1. O‘qituvchi haqida ma’lumot (O‘qituvchining ismi, sharifi, kafedrada bo‘ladigan vaqtlari, muloqotda bo‘lish uchun boshqa axborotlar).

2. Fan haqida ma’lumot: fanning va mutaxassislikning nomi, fanga ajratilgan soatlar, ma’ruza, amaliy (seminar) mashg‘ulot, laborotoriya ishiga ajratilgan soatlar, qaysi semestrda o‘tilishi va dars o‘tiladigan auditoriya.

3. O‘rganilayotgan fanni o‘zlashtirish uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalar majmuasi.

4. Mazkur fanni o‘rganib bo‘lgach, talabaning bilim darajasi, ko‘nikma va xabardor sohalari doirasi.

5. O‘qitiladigan fan haqida qisqacha ma’lumot, uning maqsadi va vazifalari.

6. Ma’ruza, seminar(amaliy), mashg‘ulot mavzulari, ularga ajratilgan soatlar. Mavzular bo‘yicha mustaqil ravishda bajarilishi lozim bo‘lgan topshiriqlar.

7. Adabiyotlar ro‘yxati: asosiy adabiyotlar va qo‘shimcha adabiyotlar, jumladan, elektron adabiyotlar, matbuot nashrlari, internet manbalari;

8. Baholash bo‘yicha axborotlar: bilimni baholash shkalasi, mezonlari, ularni bajarishga bo‘lgan talablar (rubrikatsiya jadvali);

9. Baholash jarayoni va siyosati. U o‘z ichiga quyidagilarni oladi:

• barcha ishlarni baholash qoidalari (maksimal ball, rag‘batlantiruvchi va shtraf ballari);

• imtihon, yakuniy baholashning mezonlari;

• yakuniy baholash va uni appelyasiya qilishning qoidalari;

• darsga kechikib kelish, auditoriyada o‘zini tutish, berilgan topshiriqni muddatida bajarmaslik, imtihonda qatnashmaslik oqibatlari.

Har bir talaba yil boshidan o‘z faoliyatini sillabus asosida tashkil etadi.

Hozir O‘zbekistonda ham jahon tajribasidan kelib chiqqan holda o‘quv jarayoniga uning ayrim elementlarini tatbiq etishga harakat qilinayapti. USAID CAR dasturi bo‘yicha seminar qatnashchilari bo‘lgan o‘qituvchilar bu borada o‘z tajribalari bilan o‘rtoqlashmoqdalar. Albatta talabalar faoliyatini “Sillabus - o‘qituvchi bilan talaba o‘rtasida shartnoma” asosida tashkil etish ularni chuqur bilim olishlari, puxta malakaga ega bo‘lishlariga yordam beradi. Lekin uni tom ma’noda qo‘llash talabalarda tanlov asosida o‘tiladigan fanlar, kurslarni, dars beradigan o‘qituvchilarni o‘zlari tanlash imkoniyatiga ega bo‘lishlarini taqozo qiladi. Hozirda buning uchun imkoniyat yaratishga harakat qilinayapti.

Talabalarga dars berar ekanmiz, ularning individual xislatlarini yanada boyitib, o‘z bilimlarini oshirish uchun o‘zlari harakat qilishlari lozimligini o‘rgatishimiz, to‘g‘ri yo‘lga yo‘naltirishimiz kerak. Ular o‘z oldiga o‘zi maqsad qo‘yib, unga erishish uchun harakat qilishi kerak**.** Ana shuning uchun ham o‘qituvchi bor mahoratini ishga solib, talabalarni individual xislatlariga maksimal darajada ta’sir etib, ularni ana shu maqsadni tanlash va buning uchun o‘z kuchlarini to‘g‘ri yo‘naltirishlariga yordam berishi kerak.

Ta’lim tizimiga modulli yondashuv asosida tashkil etish har bir fan bo‘yicha sillabus hamda baholash tizimini ishlab chiqishni va uni amalga oshirishni talab etadi.

Innovatsion xarakterdagi nazorat metodlari. Taraqqiyot nafaqat ta’lim jarayonini tashkil etishda, shu bilan birga talabalarning o‘quv faoliyatlarini nazorat qilishda ham innovatsion xarakterga ega vosita va metodlardann foydalanishga olib keldi. Rivojlangan mamlakatlarda keng qo‘llanilayotganlaridan biri o‘quv portfoliosi bo‘lsa, ikkinchisi “Assesment” texnologiyasidir.

So‘nggi yillarda ta’limda pedagogning kasbiy, talabaning esa o‘quv faoliyatini mazmunan takomillashtirish, shuningdek, har ikki faoliyat

turining sifatini ma’lum ko‘rsatkichlar asosida yetarlicha, xolis baholashga nisbatan ehtiyoj kuchaydi. Bunda albatta raqobatning kuchayishi, mutaxassisning bilimi, malakasiga haho berishning, tanlash va qaror qabul qilishning borgan sari qiyinlashib borishi ham muhim rol o‘ynaydi. Ana shu qiyinchilikni portfolio va assismentni ta’lim tizimiga kirib kelishi uni yengillashtirish, bartaraf etishga yordam beradigan bo‘ldi.

Portfolio haqida biz avval to‘xtaganmiz, u pedagog hamda talabaning faoliyatiga bilvosita baho berish, qay darajada sifatli va samarali ekanligini tahlil qilish imkoniyatini ta’minlashga xizmat qiladi. Qolaversa, portfoliolar pedagog va talabalarga ularning shaxsi, faoliyati bilan turli ekspertiza (tekshiruv)lar jarayonida komissiya a’zolarini bilvosita tanishish va tanlash imkoniyatini beradi.

Portfolioda talabaning joriy, oraliq va mustaqil ishlari bo‘yicha bajargan topshiriqlari, ularga qo‘yilgan o‘zlashtirish ballari ham jamlanib boriladi. Portfolio yurgizish talabaning semestr (kurs) va o‘quv muddati davomidagi o‘zlashtirishi, mustaqil ish topshiriqlarini muntazam ravishda bajarib borganligi to‘g‘risidagi daliliy hujjat hisoblanadi.

Portfolio pedagogik jarayonda pedagogga talabaning erishayotgan yutuqlari yuzasidan monitoringni olib borish imkoniyatini yaratadi va o‘zlashtirish ballarining haqqoniy, ishonchli bo‘lishini ta’minlaydi. Talabaga esa bilim darajasining qay darajadaligini, uning dinamik o‘sishini kuzatib borish, kasbiy jihatdan shaxsan rivojlanish darajasini mustaqil baholash uchun zarur sharoitni yaratadi.

Ikkinchisi “Assesment” (inglizcha so‘z bo‘lib, “baho”, “baholash” ma’nosini bildiradi) texnologiyasi bo‘lib, uning yaratilish tarixi o‘tgan asrning 30-yillariga borib taqaladi. Dastlab texnologiya mavjud harbiy vaziyatlarni to‘g‘ri baholay oladigan, harbiy harakatlar jarayonini samarali boshqaradigan, zarur o‘rinlarda oqilona harakatni tashkil eta oladigan ingliz hamda nemis harbiylari orasidan bilimdon, tadbirkor, mahoratli harbiylar, shuningdek, ofitserlarni tanlash maqsadida qo‘llanilgan.

Shu davrda psixolog Devid Makkleland (McClelland David C.) u yoki bu o‘ringa talabgorning qobiliyatini baholash uchun qator prinsiplarni ajratib ko‘rsatdi va har qanday diskriminatsiya va sotsial-iqtisodiy omillardan mustasno holda yondashdi. Keyinchalik ushbu texnologiya tadbirkorlik sohasiga ham samarali tatbiq etildi.

Texnologiya birinchi marta 1954-yilda “AT&T” kompaniyasi tomonidan tadqiqot dasturlarini amalga oshirish doirasida qo‘llanilgan. To‘rt yildan so‘ng malakali menejerlarni tanlash maqsadida qo‘llanila boshlangan texnologiya negizida tadbirkorlar psixologlar bilan hamkorlikda mazkur texnologiya yordamida ishlab chiqarish, savdo, maishiy xizmat ko‘rsatish korxona hamda tashkilotlari uchun malakali mutaxassislarni tanlash xizmati – “Assesment-markaz” (“**The Assessment Centre”)**ni yo‘lga qo‘yildi. 1960 yilda “IBM”, “Standart oyl of Ogayo”, “Sirs Robaks” kabi yirik amerika kompaniyalari o‘z faoliyatlariga texnologiyani samarali tatbiq etdilar. Agarda 1980 yilda 2000 ta firma “Assesment-markaz” asosida malakali mutaxassislarni tanlashni ma’qul ko‘rgan bo‘lsa, ayni vaqtda bu texnologiya o‘n minglab korxona, tashkilot, firma va kompaniyalarda samarali qo‘llanilmoqda.[130]

Umuman olganda “Assesment” texnologiyasi kasblarning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, tanlangan, bir-birini to‘ldiruvchi metodlar yordamida qo‘yilgan talablar asosida mutaxassislarni real qobiliyatini, ularning psixologik va professional o‘ziga xos jihatlarini, o‘z lavozimiga muvofiqligini bir necha bosqichda kompleks sinash va baholashdir. U ko‘pincha suhbat bilan yakunlanadi. Hozirda u mutaxassislarni ishga qabul qilish hamda muntazam ravishda o‘z malakalarini oshirayotganlari, innovatsion g‘oyalardan xabardorliklari, intilishlari kabilarni aniqlashda keng qo‘llanilmoqda.

So‘nggi yillarda mazkur texnologiya ta’lim tizimiga ham samarali joriy etilmoqda. **Assesment texnologiyasi** talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalari darajasini har tomonlama, xolis baholash imkoniyatini ta’minlovchi topshiriqlar to‘plami bo‘lib, u biografik anketa, ta’lim sohasidagi yutuqlar bayoni, o‘quv individual topshiriq, bahs-munozara, intervyu, ijodiy ish, test, individual keys, taqdimot, ekspert kuzatish, rolli hamda ishbilarmonlik o‘yinlari kabilardan tashkil topadi. U, quyidagi uch maqsadga, talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalarini:

• har tomonlama, xolis baholash;

• rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlash;

• rivojlantirishga xizmat qiladigan istiqbolli reja (maqsadli dastur)ni shakllantirishga xizmat qiladi.

[130] HTTP://WWW.MENTAL-SKILLS.RU/DICT/ASSESSMENT-TSENTR-TSENTR-OTSENKI/ ; INTERNATIONAL HANDBOOK ON TEACHING AND LEARNING ECONOMICS.EDITED BY GAIL M. HOYT, PROFESSOR OF ECONOMICS, UNIVERSITY OF KENTUCKY, US AND KIMMARIE MCGOLDRICK, JOSEPH A. JENNINGS CHAIR IN BUSINESS AND PROFESSOR OF ECONOMICS, UNIVERSITY OF RICHMOND, US, 2012.

Respublikamiz ta’lim muassasalarida ham talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalari kamida to‘rtta topshiriq bo‘yicha baholanmoqda. Masalan, ular izohli lug‘at, muammoli vaziyat, test, ijodiy ish bo‘lishi mumkin. Bunda albatta portfolio ham baholashning muhim vositasi hisoblanadi.

Takrorlash va munozara uchun savollar

1. O‘quvchi-talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning qanday ahamiyati bor?
2. Nazorat qilish va baholashning qanday tamoyillarini bilasiz?
3. O‘quvchi-talabalar bilimini nazorat qilishning qanday turlarini bilasiz?
4. O‘quvchi-talabalar bilimini sinash va baholashning qanday shakllari bor?
5. Nazorat qilish va baholashning asosiy shakllarini, afzalliklari va kamchiliklarini ko‘rsating.
6. O‘quvchi-talabalar bilimini nazorat qilishning qanday metodlari bor?
7. Baholash mezonlari, me’yorlari nima?
8. Siz talabalar bilimini nazorat qilish, sinash va baholashning qaysi metodlarini ko‘proq qo‘llagan bo‘lar edingiz? Nima sababdan? Izohlang.
9. Sillabus (Syllabus) nima? Siz o‘z faoliyatingizda undan foydalanasizmi?
10. O‘quvchi-talabalarning bilimini sinash va baholashda yana qanday ilg‘or jahon tajribalaridan foydalangan bo‘lar edingiz?

XULOSA

Jamiyatning taraqqiyot darajasi, davrimizning axborot asriga aylanishi, iqtisodiyotdagi tarkibiy o‘zgarishlar shuni ko‘rsatadiki, yoshlarni yetuk, vaziyatni tezda baholaydigan, har qanday holatda ham to‘g‘ri va oqilona qaror qabul qila oladigan malakali mutaxassis qilib tayyorlash uchun faqat an’anaviy uslublarga tayanib dars o‘tish yetarli emas. Bu esa ta’lim tizimida jahon tajribasidan keng foydalanishni talab etadi. Shu talabdan kelib chiqib, magistr mutaxassisliklarida “Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi” fani o‘rganiladi.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, ta’lim tizimi uchun malakali kadrlar tayyorlash borasida respublikamizda katta amaliy ishlar qilinmoqda. Xususan, oliy ta’lim muassasalarida davlat ta’lim standartlariga mos yuqori malakali o‘qituvchilar tayyorlash, o‘qituvchi va rahbar xodimlar malakasini oshirish markazlarining tashkil etilishi va ularning zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlanishi bunga misol bo‘la oladi.

Malakali kadrlar tayyorlashning muhim omillaridan biri – bu ta’lim sifati va samaradorligini oshirishdir. Ta’lim sifati va samaradorligini oshirishda o‘qitishning zamonaviy usullari, shakl va vositalari, o‘yin texnologiyalari, muammoli o‘qitish, xususan, mustaqil ta’limning interaktiv metodlari muhim o‘rin tutadi. Shu bilan saviyasi baland o‘quv adabiyotlari yaratishni ham talab qiladi.

Bu esa oliy ta’lim muassasalarida talabalar mustaqil ta’limi mazmunini ishlab chiqish va uni tashkil etish hamda amalga oshirish usullarini takomillashtirish borasida ilmiy-pedagogik izlanishlar olib borishni taqozo etadi.

Hozirgi zamon talabiga ko‘ra maqsad tayyor bilimni o‘zlashtirish emas, balki asosiysi o‘quvchi-talabalarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishdir. Shu bilan birga ularda mustaqil tanlash, qaror qabul qilish ko‘nikmasini hosil qilish bo‘lib, bunday xislatni tarbiyalash ko‘p jihatdan dars o‘tishda qo‘llaniladigan metodlarga bog‘liq. Shuning uchun ko‘proq ana shu masalalarga diqqat qaratildi.

Aynan buyuk faylasuf Konfutsiy ta’kidlaganidek: **“Ajoyib nozne’matlar bo‘lishi mumkin, ammo tatib ko‘rmasdan uning lazzatini tushunmaysan; oliy haqiqat bor, lekin o‘qib o‘rganmay, izlanmay,**

uning ruhingga orom beruvchi, seni qoniqtiruvchi jihatlarini tushunmaysan. Shu sababli faqat o‘qish, o‘rganishni boshlabgina o‘zingni ko‘p narsalarni bilmasligingni his qilasan; Faqat boshqalarni o‘qitish, o‘rgatishni boshlabgina uni qanchalar qiyin, mashaqqatliligini anglaysan. Ammo o‘zingni barkamol emasligingni bilgach, o‘z ustingda ishlashing mumkin; mashaqqat, qiyinchiliklarni boshdan kechiribgina, bardoshli, kuchli bo‘lishni o‘rganishing mumkin” .

Shu nuqtai najzardan mazkur darslikning mazmunini iqtisodchi-pedagoglarning o‘quv jarayonini tashkil etish uchun zarur bo‘lgan bilim olishlari, ko‘nikma va malaka hosil qilishlari nuqtai nazaridan yoritildi. O‘qituvchidek, mashaqqatli va sharafli kasbni egallashga mazkur darslik ma’lum darajada yordam beradi, deb umid qilamiz.

IZOHLI LUG‘AT (GLOSSARIY)

Akademik litsey – o‘quvchilarning intellektual qobiliyatlarini jadal o‘stirish, ularning chuqur tabaqalashtirilgan va kasb-hunarga yo‘naltirilgan bilim olishlarini ta’minlaydigan o‘rta maxsus o‘quv yurti.

Akkreditatsiya – faoliyat yuritishga ishonch bildirish va muvofiq ravishda berilgan hujjat, ya’ni faoliyat darajasining qo‘yilgan mezon va talablarga javob berishini davlat tomonidan e’tirof etilishi.

An’anaviy dars o‘tish - darsning asosiy maqsadi ko‘proq tushuntirishga qaratilgan, o‘qituvchi bilim beruvchi, o‘quvchi-talaba - bilim oluvchi rolini bajaruvchi dars o‘tish

Attestatsiya – mutaxassislarning ishga layoqatini, malakasini, bilim darajasi va xulq-atvorini aniqlash va shu asosda ishga tayinlash yoki unvon berish.

Axloq - shaxsni jamiyatga va boshqa kishilarga nisbatan burchini belgilab beruvchi me’yorlar tizimi, ma’naviy xulq qoidalari, ijtimoiy ong shakllaridan biri.

Aqliy hujum metodi – qo‘yilgan muammo, masala, savolga nisbatan barcha o‘quvchi-talabalarning o‘z fikrini bildirishini ta’minlash asosida ularni darsga faol qatnashish, o‘z nuqtai nazaridan yondashishga yo‘naltirish, bildirilgan fikrlarni saralashga o‘rgatuvchi metod.

Bayon qilish - o‘qituvchi tomonidan o‘rganilayotgan mavzu, materialning mazmunini izchil so‘zlab berish metodi.

“Bilaman, Bilmoqchiman, Bildim (B/B/B)” metodi - kitob, ilmiy maqolalarni o‘qishga, bilmaganlarini o‘rganishga harakat qilishga yo‘naltiradigan metod.

“Blits-o‘yin” metodi - mantiqiy mustaqil fikrlashga, harakatlar ketma-ketligini to‘g‘ri tashkil etishga va baholashga o‘rgatuvchi metod.

Vazifa - qo‘yilgan maqsadni amalga oshirish bosqichlarining mazmuni.

Verbal - og‘zaki ifodalash.

Davlat ta’lim standartlari - uzluksiz ta’limning muayyan bosqichida tayyorlanayotgan kadrlarning minimal darajada ega bo‘lishi lozim bo‘lgan bilim va ko‘nikmalar.

Dars o‘tishning samarali metodi - mavjud turli - tuman metodlarni orasidan qabul qilingan mezonlar bo‘yicha mavjud sharoitda eng yuqori natijaga erishiladigan metodlar.

Darsni savollar asosida olib borish metodi - o‘quv rejasi bo‘yicha savol-javoblar yordamida talabalarni o‘quv jarayoniga jalb etish, ularda fikr–mulohaza yuritish, o‘qish, o‘rganish, o‘z fikrini izohlashga ishtiyoq uyg‘otadigan metod

Delfa metodi - O‘quvchi-talabalarni ijodiy fikr yuritish, bildirilgan fikrlarni taqqoslab, baho berish ko‘nikmalarini shakllantirishga o‘rgatadigan metod

Didaktika (yunon-didaktikos - o‘qitadigan, o‘rgatadigan) - pedagogikaning bilim olish, ta’lim va tarbiya nazariyasiga oid tarkibiy qismi. Didaktika “nima?” va “nima uchun?” o‘qitish kerak degan savollar bilan shug‘ullanadi.

Izohlash, tushuntirish – tushuncha, so‘zning qisqacha ma’nosini ifodalash: og‘zaki izoh, yoritilishi lozim bo‘lgan turli materiallarni izohlash, isbotlash, tahlil qilish.

Insert metodi – o‘quvchi-talabalarni o‘qiyotgan kitoblari, maqola va turli axborotlarni tushunib yetishlari uchun o‘qish jarayonida materialning (darslik, o‘quv qo‘llanma, ilmiy maqola, jadval, sxema kabilar) har bir satr boshi (yoki qismi)ning mazmunini baholash orqali, chiqargan xulosasiga muvofiq ravishda varaqning chetki tomoniga (hoshiyasiga) qalam bilan belgi qo‘yib borish orqali o‘z munosabatini bildirishga o‘rgatuvchi metod.

Interaktiv dars o‘tish metodlari - dars jarayonida o‘quvchi, talabalar hamda o‘qituvchi orasida yuqori darajada hamkorlik o‘rnatiladigan dars o‘tish metodlari.

Ilmiy muammo – fanda tadqiqot orqali hal qilinadigan asosiy ziddiyatlar.

Iqtisodiy paradokslar va topishmoqlar tanlovi metodi - o‘quvchi, talabalarni keng qamrovli ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni aniq va izchil tassavvur qilish, fikr yuritish, iqtisodiy konsepsiyalarni tushunish, real hayotda qo‘llashni o‘rganishlarini shakllantirishga yo‘naltirilgan metod.

Iqtisodiy fanlarni o‘qitish metodikasi (uslubiyati) - iqtisodiy-nazariy ta’lim berishning qonuniyatlari, fanni o‘qitish, o‘rganishda qo‘llaniladigan turli metodlar va ularni dars jarayonida qo‘llashni o‘rganuvchi fan.

Iqtisodiy faoliyat - insonning ehtiyojini qondirish, ya'ni tirikchilik, hayot kechirishini ta'minlashning vosita va usullari majmui.

Kasbiy bilimdonlik - pedagogik faoliyat yuritish uchun zarur bo‘lgan nazariy va amaliy tayyorgarlik birligi.

Kasb-hunar kolleji - o‘quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, mahorat va malakasini chuqur rivojlantirishni, tanlagan kasblari bo‘yicha bir yoki bir necha ixtisos olishni ta'minlaydigan o‘rta maxsus, kasb-hunar o‘quv yurti.

Kasbiy-pedagogik muloqot - pedagog va tarbiyalanuvchining o‘zaro uzluksiz, doimiy hamkorlik ijtimoiy-psixologik aloqasi tizimi bo‘lib, uning mazmuni axborotlar ayirboshlash, tarbiyaviy ta'sir o‘tkazish, kommunikativ vositalar yordamida o‘zaro munosabatlarni tashkil etish hisoblanadi.

Kasbiy tayyorgarlik - bo‘lajak mutaxassisning psixologik, jismoniy hamda ilmiy-nazariy va amaliy tayyorgarligi.

Keys stadi metodi "case study method" - o‘quvchi-talabalarni qaror qabul qilishga o‘rgatishda muammoli vaziyat hosil qilib, uni yechishni o‘rganish metodi.

Kitob ustida mustaqil ishlash metodi - o‘quv axborotini o‘quvchi-talaba uning o‘ziga xos sur'atda va qulay vaqtda olishini ta'minlashini hisobga olib, kitob ustida mustaqil ishlashni o‘rgatish asosida fanni o‘rganishga qaratilgan metod.

Kichik guruhlarga bo‘lib dars o‘tish metodi – guruhni ma'lum bir mezonlar asosida 3-6 o‘quvchi-talabadan iborat kichik guruhlarga bo‘lib, ularni hamkorlikda ishlash, bilish jarayonini puxtalashtirish, boshqalarning fikrini eshitishga o‘rgatadigan, mas'uliyat talabalar zimmasiga yuklanib, ular faolligini oshirishga qaratiladigan dars o‘tish metodi.

Klaster (axborotlarni yoyish) metodi - keng qamrovli fikr yuritish, o‘rganilayotgan tushuncha (kategoriya, hodisa)lar, g‘oyalar o‘rtasida muhim bo‘lgan bog‘lanishlarni aniqlash, keng ko‘lamli fikr yuritish malakasini shakllantirishga qaratilgan metod, pedagogik strategiya.

Konseptual (mohiyati, asosini ifodalovchi) jadval, xarita asosida fanni o‘rganish metodi – o‘quv materiallarida ko‘rgazmalilik orqali fikr yuritish, qiyoslash, taqqoslash, tahlil qilish, baho berishga o‘rgatadigan metod.

Kuzatish - biror (pedagogik va boshqa) hodisa, jarayon bo‘yicha aniq faktlar, dalillar, axborot olish maqsadini ko‘zlagan idrok etishning shakli.

Ko‘nikma - o‘rganish natijasida qo‘lga kiritilgan, biror harakatni nazoratsiz, avtomatik tarzda bajarish qobiliyatlari.

Laboratoriya ishi - asbob-uskunalar va boshqa texnik moslamalardan foydalangan holda tajribalar o‘tkazish, biror hodisani maxsus jihozlar yordamida o‘rganish.

Loyihalash metodi – o‘rganilishi lozim bo‘lgan mavzu, muammo, masalani aniqlab, uni yechish uchun kelajakda amalga oshiriladigan ishlarni rejalashtirish, qo‘yilgan maqsadni va uni bajarish qanday natijaga olib kelishini loyihada aks ettirish hamda uni amalga oshirishni o‘rgatadigan metod.

Mavzuni o‘rganishdan qo‘yilgan maqsad – mavzuni o‘rganish tufayli erishiladigan natijani oldindan fikran belgilash.

Malaka - shaxsning o‘zi egallagan bilimlari asosida ma’lum bir faoliyatni yangi sharoitdagi yangiliklar bilan birga, samarali bajarish qobiliyati.

Malaka amaliyoti – o‘quv jarayonining nazariy bilimlarni mustahkamlash, amaliy ko‘nikma va uquv hosil qilish, ta’lim dasturining ma’lum yakuni, qismidagi mavzu bo‘yicha materiallar to‘plash uchun o‘tkaziladigan qismi

Masala yechish metodi – berilgan raqamlar, dalillar**,** hujjatlar asosida hisob-kitob qilish orqali noma’lum natijani topish, uni tahlil qilish va xulosa chiqarishni o‘rgatadigan metod.

Masofadan (distansion) o‘qitish - talabani mustaqil bilim olishga asoslangan ta’lim jarayonini yangicha tashkil etish bo‘lib, ko‘pincha yoki doimo o‘qituvchidan vaqt va masofa jihatidan ajralgan holda, o‘quv materialini xatlar, topshiriqlar yoki audiovizual vositalar orqali mustaqil o‘rganishdir.

Mafkura - g‘oya va qarashlar tizimi.

Ma’ruza (arabcha, leksiya (lot. lectio) - o‘qish) - o‘quv materiali, biror masala, mavzu kabilarning izchil, ma’lum bir tizimga solingan bayoni.

Mashq - o‘zining bilimlarini chuqurlashtirish hamda tegishli malaka va ko‘nikmalar hosil qilish maqsadida harakatlarni og‘zaki va yozma ravishda takror amalga oshirish.

Mashqlardan foydalanish metodi – fanni o‘rganish, malaka, ko‘nikmalar hosil qilish uchun tayyorgarlik ko‘rish, takrorlash va sinab ko‘rishga qaratilgan metod.

Maqsad - faoliyat natijasini oldindan fikran belgilash.

Maqtov – foydali ish qilgan shaxsni, jamoani og‘zaki taqdirlash.

Metod yunoncha “methodos - tadqiqot yoki bilish yo‘li, nazariya, ta’limot” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib: 1) tabiiy va ijtimoiy hayot hodisalarini tadqiq qilish, bilish yo‘li; 2) haqiqatga intilish, bilish, harakat qilish yo‘llari; 3) kutilayotgan natijaga erishish usullari; 4) voqelikni amaliy yoki nazariy o‘zlashtirish usullari

Metodika - pedagogikaning tarkibiy qismi bo‘lib, shaxsni shakllantirishda muayyan maqsad sari qaratilgan sistematik faoliyat to‘g‘risidagi hamda ta’lim-tarbiya berishning mazmuni, shakli va metodlari (uslublari), qisqacha aytganda, ilmiy bilish faoliyatining shakllari va metodlari majmui haqidagi fan. U “qay tarzda?” va “nimalar yordamida o‘qitish?” lozim degan masalalar bilan shug‘ullanadi.

Metodologiya (yunon. methodos va logos) - faoliyatning tarkibi, mantiqiy tuzilishi, metod va vositalari haqidagi ta’limot.

Metodologiya - 1) dunyoni ilmiy bilish metodi haqidagi ta’limot; 2) biror fanda, shu jumladan, pedagogikada qo‘llaniladigan metodlar majmui.

Modellashtiruvchi o‘yin - bilim olishga qaratilgan va ma’lum bir pedagogik natijani ko‘zlagan hamda turli (imitatsion, amaliy, rol ijrosiga asoslangan) o‘yinlar yordamida ta’lim jarayonida muayyan maqsadni amalga oshiruvchi faoliyat.

Motiv - ma’lum ehtiyojlarni qondirish uchun asos bo‘ladigan kishining ichki faoliyat mazmuni.

Motivatsiya – biologik jihatdan insonning irsiy va to‘plangan tajribasi asosida individual va guruhiy ravishda ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirilgan, undaydigan tuyg‘u.

Muammoli vaziyat – hayotdagi yoki o‘quv vaziyati bo‘lib, u mashaqqat bilan hal qilinadigan masala tufayli yuzaga keladi.

Muammoli ma’ruza - talabani o‘ylashga, taqqoslashga, yechimini topishga undaydigan ma’ruza.

Muammoli o‘qitish - o‘quv mashg‘ulotini tashkil etish shakli bo‘lib, unda pedagog rahbarligida muammoli vaziyat yuzaga keltiriladi va uning hal qilinishida ta’lim oluvchilar faol mustaqil harakat qiladilar.

Munozara - 1) matbuotda, suhbatda biror bahsli masalani muhokama qilish, bahs; 2) muayyan muammo bo‘yicha fikr almashishga asoslangan ta’lim metodi.

Mustaqil ishlar - bilimlarni egallash bilan birga ko‘nikmalarni shakllantirish ham mustaqil amalga oshiriladigan faoliyat, vazifa.

Nazariy tahlil - pedagogik hodisalarni alohida jihatlari, belgilari, xususiyatlari, o‘ziga xosligini aniqlash va tahlil etish.

Oliy ta’lim muassasalarining akkreditatsiyasi – oliy ta’lim muassasi faoliyat darajasining OT DTS mezon va talablariga javob berishining davlat tomonidan e’tirof etilishi.

Oliy ta’lim muassasalarining attestatsiyasi – oliy ta’lim muassasasida kadrlar tayyorlash mazmuni, darajasi va sifatini oliy ta’lim davlat ta’lim standartlari talablariga muvofiqligini aniqlovchi tadbir.

Pedagog - tarbiyachi, o‘qituvchi, dars beruvchi.

Pedagogik mahorat - pedagogik jarayonni bilish, uni tashkil eta olish, harakatga keltira olish (A.S. Makarenko), pedagogik jarayonning yuqori samaradorligini ta’minlovchi shaxsning ish sifati va xususiyatlari sintezi.

Pedagogik texnologiya – “ishlab chiqarish” natijasi “mahsuloti” - ma’lum malakaga ega bo‘lgan mutaxassis tayyorlash uchun ilmiy asoslangan didaktik jarayonni amalga oshirish, ya’ni o‘qitish jarayonini qo‘yilgan maqsadga ko‘ra izchil ketma-ketlikda turli vosita, metodlarni qo‘llash orqali samarali ta’lim natijasiga erishishning ishonchliligini ta’minlovchi, kafolatlovchi pedagogik faoliyat.

Pedagogik faoliyat - ta’lim maqsadlarini amalga oshirishga qaratilgan ijtimoiy faoliyatning alohida turi.

Semantik (manosini ifodalash) xususiyatlar tahlili metodi - axborotlarni kuzatishni malum bir **maydon** - jadval va grafiklar orqali ifodalash va ular orqali g‘oyalar, tavsiyalar, takliflar berishga o‘rgatadigan metod.

Seminar (lot. seminariym – manba, ko‘chma ma’noda - maktab) – o‘quv amaliy mashg‘ulot shakllaridan biri. Asosan oliy o‘quv yurtlarida, ilmiy to‘garak, anjumanlarda qo‘llaniladigan turli-tuman dialog asosida olib boriladi. Odatda seminar darsida talabalarning bilimi, o‘z ustida ishlash darajasi aniqlanadi, nazorat qilinadi.

Sinkveyn (axborotni yig‘ish) metodi - murakkab g‘oya, iqtisodiy tushunchalarni bir nechagina so‘zlar bilan ifodalashni o‘rganish orqali mavzuni yaxshiroq anglashga, o‘zlashtirishga yordam beradigan metod.

Stimul (turtki) - shaxs psixikasi motivlarining shakllanishini ta’minlovchi tashqi ta’sir.

Suhbat metodi - kuzatuv chog‘ida yetarli darajada aniq bo‘lmagan zarur axborotni olish uchun qo‘llanadigan muloqot, tadqiqot metodi. Og‘zaki javobga asoslangan, keng tarqalgan shakli hikoya va bayon qilishdir.

Tadqiqot metodi – axborotlar, dalillar, ma’lumotlar asosida tadqiqot o‘tkazish jarayonida qatnashish orqali dars o‘tishning talabalarni axborot to‘plash va uni ustida ishlash, xulosa chiqarib, baholashga o‘rgatish jarayonida mavzuning mazmunini o‘zlashtirishga, ilmiy izlanishni o‘rganishga qaratilgan metod.

Tadqiqot obyekti – ziddiyat va muammoli vaziyat tug‘diruvchi, bilishga qaratilgan ilmiy tahlilga muhtoj obyekt.

Tadqiqot predmeti - bevosita o‘rganilishi lozim bo‘lgan va amaliy yoki nazariy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadigan obyektning mohiyati, ma’lum bir tomoni, xususiyati.

Talqin qilish – biror hodisa yoki narsani izohlash, tushuntirish.

Tanqidiy nazar metodi – matnning mazmunini tadqiq qilish, taqqoslash, shaxsiy tajriba bilan bog‘lash va o‘z munosabatini bildirishni o‘rgatadigan metod.

Ta’lim – 1) shaxsning jismoniy va ma’naviy shakllanishining yagona jarayoni, ijtimoiy etalonlarning ijtimoiy ong sifatida u yoki bu darajada qayd qilingan, tarixan shartlangan ideal timsollarga ongli yo‘naltirilgan ijtimoiylashish jarayoni; 2) muayyan bilimlarni egallash g‘oyaviy-axloqiy, qadr, malaka, ko‘nikma, axloq me’yorlariga qaratilgan jamiyat a’zolarining ta’lim va tarbiyasi vazifasini bajaradigan nisbiy mustaqil tizim.

Ta’lim dasturi – o‘quv fanlarining bakalavriat yo‘nalishlari yoki magistratura mutaxassisliklariga qo‘yiladigan malaka talablariga muvofiq kadrlarning zaruriy va yetarli darajada tayyorgarligini ta’minlovchi bloklarga jamlangan ro‘yxati.

Ta’lim maqsadi – ta’lim berishdan(olishdan) ko‘zlangan muddao.

Ta’lim mazmuni – o‘qitish jarayonida egallash lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malakalar ma’nosi, hajmi va xarakteri.

Ta’lim sifatini nazorat qilish – o‘qitish mazmuni va natijalarining davlat ta’lim standartlari talablariga muvofiqligini tekshirish.

Tafakkur - inson aqliy faoliyatining oliy shakli, insonlarni o‘rab olgan dunyodagi o‘zaro bog‘langan narsa va hodisalarning bilish

jarayoni, muhim hayotiy jarayonlarni his qilish va muammolarni hal qilish, ma’lum bo‘lmagan voqea-hodisalarni qidirish, kelajakni ko‘ra olish. Tafakkur tushuncha, hukm, xulosa shakllarida namoyon bo‘ladi.

Tahliliy – ijodiy vazifalarni guruh bo‘lib yechish metodi – iqtisodiy fikrlashni muvofiq ravishda bildirilgan fikrlarning eng maqbulini tanlash va tavsiyalar ishlab chiqishni o‘rgatishga qaratilgan metod.

Test – 1) standart shakldagi topshiriqlar bo‘lib, aqliy taraqqiyot, qobiliyat, bilim va malakani aniqlash maqsadida o‘tkaziladigan sinovdir; 2) aniq sotsiologik tadqiqotlarda foydalanadigan tarqatma material, savolnoma; 3) shaxs ruhiyati va xulqining aniq miqdoriy va ma’lum sifat baholarini oldindan berilgan ba’zi standart-test me’yorlari bilan qiyosiy o‘rganishga mo‘ljallangan psixologik tadqiqotlarning standartlashtirilgan metodi.

Test metodi - ko‘zlangan maqsadga ko‘ra, savol qo‘yib, unga bir-biriga yaqin bir necha, lekin to‘g‘risi bitta bo‘lgan javoblar mujassamlangan topshiriq, mashqni bajarish orqali fanni, mavzuni o‘rganishga, o‘quvchi-talabalar bilimini sinashga qaratilgan metod.

Tushuncha - atrof-muhitdagi hodisalar, predmetlarning muhim xususiyatlarini, ular orasidagi aloqa va munosabatlarni bilish.

Faoliyat – 1) ongli maqsadga ko‘ra boshqariladigan kishining ichki (ruhiy), tashqi (jismoniy) faolligi; 2) atrof-muhitni kishilar tamonidan maqsadga muvofiq qayta bunyod etish.

FSMU metodi - o‘quvchi-talabalarni mustaqil, erkin fikrlash va o‘z fikrini himoya qilishga, o‘quv jarayonida egallagan bilimlarini baholashga, bahslashish madaniyatini va unga rioya qilishni o‘rgatadigan metod.

Shaxsiy fazilat - shaxs tomonidan o‘zining axloqiy, ruhiy va ishchanlik qobiliyatining ijtimoiy ahamiyatini, jamiyatdagi o‘rnini anglay olish xususiyati.

Esse yozish metodi - muallifning individual pozitsiyasini, dunyoqarashini alohida ajratib ko‘rsatish orqali erkin yozma bayon qilishga yo‘naltirilgan, talabalarni iqtisodiy fikr yuritish va uni yozma ravishda ifodalashga o‘rgatadigan va ularning bilimini baholashda qo‘llaniladigan metod.

E’tiqod - shaxs amal qiladigan bilim, tamoyil va ideallarning haqqoniyligiga qalban va asosli ishonch bilan bog‘langan, uning atrof-muhitga hamda o‘zining xatti-harakatlariga bo‘lgan subyektiv faoliyati.

Yakunlovchi davlat attestatsiyasi – bakalavr yoki magistr darajasiga qo‘yiladigan malaka talablariga muvofiq holda ma’lum talab va tartiblar vositasida (fanlar bo‘yicha davlat attestatsiyasi, bitiruv malaka ishi yoki magistrlik dissertatsiyasi himoyasi) bitiruvchi tomonidan ta’lim dasturining bajarilishi sifatini baholash.

Yaxlitlik - pedagogik jarayonning sintezlashgan sifati bo‘lib, uning oliy darajadagi taraqqiyotini, undagi subyektlar, obyektlar faoliyatini bir butunligini ta’minlovchi jarayon.

Yaxlit pedagogik jarayon - tarbiya jarayonida ta’lim va ta’lim jarayonida tarbiya berishning o‘zaro singib ketgan, yaxlit holga kelgan jarayoni.

O‘zlashtirish – 1) o‘ziga singdirish, tushunish, bilish; 2) muayyan bilim, ko‘nikma, malakalarni egallashga qaratilgan jarayon; 3) ijtimoiy tajriba natijalari bilan shaxsiy tajriba natijalarini qo‘shilishi.

O‘yin – faoliyatning bir turi bo‘lib, ijtimoiy tabaqalarni o‘zlashtirish va bunyod etishga, o‘z xatti-harakatlarini takomillashtirishga qaratilgan bo‘ladi.

O‘z-o‘zini baholash – shaxsning o‘z psixologik sifatlari, xulqi, yutuqlari va muvaffaqiyatsizliklari, qadr-qimmati, kamchiliklarini baholay olishi.

O‘qitish – o‘qituvchining ta’lim oluvchining bilish faoliyatini boshqarishga qaratilgan faoliyati. O‘qitish: 1) ta’limning o‘ziga xos usuli bo‘lib, shaxsga nazariy va amaliy bilimlar berish jarayonida uning rivojlanishi ta’minlanadi; 2) o‘quvchi va o‘qituvchi, o‘quvchining boshqa o‘quvchilar bilan aloqasi natijasi o‘laroq atrof-muhit, uning qonuniyatlari, taraqqiyot tarixi va ularning o‘rganilish usullarini bilishning muntazam boshqarilish jarayoni.

O‘qitish sifatini nazorat qilish – talaba bilim saviyasini rejalashtirish va uning o‘quv dasturini o‘zlashtirish darajasini aniqlash.

O‘qish – o‘quvchining o‘z qobiliyati, bilimi, malaka va ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan harakat.

O‘quv-bilish faoliyati – insoniyat tomonidan to‘planilgan madaniy boylikni egallash bilan bog‘liq faoliyat.

O‘quv rejasi – ta’limning muayyan yo‘nalish yoki mutaxassislik bo‘yicha o‘quv faoliyati turlari, o‘quv fanlari va kurslari tarkibi, ularni o‘rganishning izchilligi va soatlardagi hajmi belgilangan normativ hujjat.

O‘quv fani dasturi – ta’lim mazmuni, talabalar tomonidan o‘zlashtirishning maqbul usullari, axborot manbalari ko‘rsatilgan normativ hujjat.

O‘quv faoliyati – shaxsning yangi bilim, malaka va ko‘nikmalarni egallash jarayoni.

O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish - o‘quvchi-yoshlarga kelajakda o‘z kasblarini aniqlab olish uchun yordam ko‘rsatishga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy, psixologik, pedagogik, tibbiy-biologik va ishlab chiqarish-texnik tadbirlarning asoslangan tizimi.

Qiziqish - shaxs harakatiga sabab bo‘ladigan faoliyat yo‘nalishining ongli shakli.

II, III, VII, X BOB UCHUN ILOVALAR

II BOB. MUTAXASSIS KADRLARGA QO‘YILADIGAN TALABLAR VA UNING HUQUQIY-ME’YORIY HAMDA O‘QUV-METODIK HUJJATLARDA AKS ETISHI

O’QUV JARAYONINI TASHKIL ETISHDAGI ASOSIY ME’YORIY HUJJATLAR:

O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi

Toshkent Moliya Instituti “Kasbiy ta’lim” kafedrasi

Kafedra tomonidan **Magistraturaning barcha mutaxassisliklari uchun**

2-kurs 3-semestrida o‘qitiladigan **“MAXSUS FANLARNI O‘QITISH METODIKASI**

fani bo‘yicha **O‘QUV-USLUBIY (TEXNOLOGIK) XARITA**

Tuzuvchi: **i.f.n., prof. Tojiboyeva D.**

Kafedra majlisida tasdiqlandi: **Bayonnoma №2 24 avgust 2019-yil.** Kafedra mudiri:**_____ i.f.n., dots. X. Asatullaev**

Fakultet dekani: **_____ i.f.n., dotsent** O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i:**_____dots.**

Eslatma: Xarita 2 nusxada tuziladi. Nusxalari kafedrada va o‘quv-uslubiy boshqarmada saqlanadi.

Hafta-lar t/r	Fanning mavzulari (ishchi o’quv dasturi bo’yicha) va nazorat turlari (J.N., O.N., Ya.N.)	Mavzu bo’yi-cha umu-miy soatlar	Mashg‘ulot turlari bo’yicha rejalashtirilgan va haqiqiy bajarilgan yuklama va nazoratshakllari:														Mavzu bo’yi-cha bajaril-gan umumiy soatlar	Mavzu bo’yicha asosiy o’quv adabiyotlari (ishchi o’quv dasturiga asosan) tartib raqamida (1, 21 va h.)
			Ma’ruza		Shu jumla-dan, tarqatma material asosida		Nazorat shakli	Amaliy (seminar mashg‘ulot)		Shu jumla-dan, interfaol metodlar asosida		Nazor at shakli	Mus-taqil ta`lim		Nazorat shakli			
		reja	r	h	r	h		r	h	r	h		r	h			haqiqiy	
	2-KURSNING 3-SEMESTRIDA																	
1	O‘zbekistonda kadrlar tayyorlash modeli va “Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi” fanining predmeti, maqsadi, vazifalari	6	2				Og‘ zaki so’ rov, test, yozma ish	2		1		Og‘ zaki so’ rov, test, yozma ish	2		Referat, mustaqil ish, testlar tayyorlash,			1-6,9,12,16
2-3	Mutaxassis kadrlarga qo‘yiladigan talablar va uning huquqiy-me’yoriy hamda o‘quv-metodik hujjatlarda aks etishi Va boshqalar	8	2		1		Og‘ zaki so’ rov, test, yozma ish	4		1		Og‘ zaki so’ rov, test, yozma ish	2		seminar darsi o’ tishga o’ quv materiallari			1-6,16

“TASDIQLAYMAN”
_____i.f.n., dots. X. Asatullayev
Kafedra mudiri
“24” avgust 2019 y.

“MAXSUS FANLARNI O‘QITISH METODIKASI” fanidan
O‘QUV DASTURI BAJARILISHI BO‘YICHA
K A L E N D A R R E J A
(Ma’ruza mashg‘ulotlari uchun)

Magistraturaning 2-kurs _____ akademguruhlari uchun
Ma’ruzachi pedagog-xodim: **Tojiboeva D.**
Amaliy mashg‘ulotlarini olib boruvchi pedagog-xodim: **Tojiboeva D.**

№	Fanning mavzulari (ishchi o‘quv dasturi bo‘yicha)	Soatlar	Reja	Haqiqat	Imzo
1.	O‘zbekistonda kadrlar tayyorlash modeliva “Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi” fanining predmeti, maqsadi, vazifalari	2			
2.	Mutaxassis kadrlarga qo‘yiladigan talablar va uning huquqiy-me’yoriy hamda o‘quv-metodik hujjatlarda aks etishi	2			
3.	Va boshqalar				

“TASDIQLAYMAN”
_____i.f.n., dots. X. Asatullayev
Kafedra mudiri
“24” avgust 2019 y.

“MAXSUS FANLARNI O‘QITISH METODIKASI” fanidan
O‘QUV DASTURI BAJARILISHI BO‘YICHA
K A L E N D A R R E J A
(Seminar mashg‘ulotlari uchun)

Magistraturaning 2-kurs _____ akademguruhi uchun
Ma’ruzachi pedagog-xodim: **Tojiboeva D.**
Amaliy mashg‘ulotlarini olib boruvchi pedagog-xodim: **Tojiboeva D.**

№	Fanning mavzulari (ishchi o‘quv dasturi bo‘yicha)	Soat-lar	Reja	Haqiqat	Imzo
1.	O‘zbekistonda kadrlar tayyorlash modeliva “Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi” fanining predmeti, maqsadi, vazifalari	2			
2.	Mutaxassis kadrlarga qo‘yiladigan talablar va uning huquqiy-me’yoriy hamda o‘quv-metodik hujjatlarda aks etishi	2			
3.	Va boshqalar				

IXTISOSLIK FANLARI DASTURI SARVARAG‘I

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ

Рўйхатга олинди:
№ БД – 5230600 – 3.15
2017 йил "2" 06

Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги
2017 йил "28" 06

МОЛИЯ

ФАН ДАСТУРИ

Билим соҳаси:	100000	– Гуманитар соҳа;
	200000	– Ижтимоий соҳа, иқтисод ва ҳуқуқ
Таълим соҳаси:	110000	– Педагогика;
	230000	– Иқтисод
Таълим йўналиши:	5111000	– Касб таълими (5230600-Молия, 5230700-Банк иши, 5230900-Бухгалтерия ҳисоби ва аудит, 5231200-Сугурта иши);
	5230200	– Менежмент (хизматлар соҳаси);
	5230600	– Молия;
	5230700	– Банк иши;
	5230800	– Соликлар ва соликка тортиш;
	5230900	– Бухгалтерия ҳисоби ва аудит (тармоқлар бўйича);
	5230900	– Бухгалтерия ҳисоби ва аудит (сув хўжалигида);
	5231200	– Сугурта иши;
	5231300	– Пенсия иши;
	5231500	– Баҳолаш иши;
	5232000	– Давлат бюджетининг газна ижроси

Тошкент – 2017

Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлигининг 2017 йил "26" 06 даги 436-сонли буйруғининг 1 -иловаси билан фан дастури рўйхати тасдикланган.

Фан дастури Олий ва ўрта махсус, касб-ҳунар таълими йўналишлари бўйича Ўкув-усдубий бирлашмалар фаолиятини Мувофиклаштирувчи Кенгашнинг 2017 йил "2" 06 даги 3 -сонли баённомаси билан маъкулланган.

Фан дастури Тошкент молия институтида ишлаб чикилди.

Тузувчилар:

Т.С.Маликов – ТМИ, "Молия" кафедраси профессори, иктисод фанлари доктори, профессор.
Ж.Х.Атаниязов – ТМИ, "Молия" кафедраси доценти, иктисод фанлари номзоди, доцент.

Такризчилар:

Ф.Насриддинов – ТДИУ, "Банк иши" кафедраси мудири, иктисод фанлари номзоди, доцент *(турдош ОТМ)*;
А.Исламкулов – Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошкаруви академияси "Монетар ва фискал сиёсат асослари" кафедраси доценти, иктисод фанлари номзоди, доцент *(турдош ОТМ)*;

Фан дастури Тошкент молия институти Кенгашида кўриб чикилган ва тавсия килинган (2017 йил "30" августдаги "8" -сонли баённома).

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA’LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

O‘quv-uslubiy bo‘lim tomonidan ro‘yxatga olindi №_____ 2018 yil "____" _____	**Toshkent moliya instituti O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor** _____I.Qo‘ziyev 2018 yil "____" _____

MOLIYA

ISHCHI O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi:	100000	– Gumanitar;
	200000	– Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq.
Ta’lim sohasi:	110000	– Pedagogika;
	230000	– Iqtisod.
Ta’lim yo‘nalishlari:	5111000	– Kasb ta’limi (5230600 – Moliya);
	5111000	– Kasb ta’limi (5230700 – Bank ishi);
	5111000	– Kasb ta’limi (5230900 – Buxgalteriya hisobi va audit).

Toshkent-2018

Fanning ishchi o‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi 201__ yil "___" _____dagi ___ -sonli buyrug‘i (buyruqning ___ -ilovasi) bilan tasdiqlangan "Moliya" fani dasturi asosida tayyorlangan.

Fanning ishchi o‘quv dasturi Toshkent moliya instituti Kengashining 2018 yil "___" _____ dagi "___" -sonli bayoni bilan tasdiqlangan.

Tuzuvchilar:		
Sh.Allayarov	–	TMI, "Kasbiy ta’lim" kafedrasi mudiri, i.f.n., dotsent;
E.Bo‘riboyev	–	TMI, "Kasbiy ta’lim" kafedrasi o‘qituvchisi.
Taqrizchilar:		
S.Xudoyqulov	–	TDIU, "Moliya va soliqlar" kafedrasi mudiri, dotsent *(turdosh OTMdan)*;
A. Mahmudov	–	Toshkent bank kolleji direktori, i.f.n., dotsent *(kadrlar buyurtmachisi)*.

Fanning ishchi o‘quv dasturi kafedraning 201__ "____" _____ dagi "___" – sonli majlisida muhokama etilib, fakultet Kengashida ko‘rib chiqishga tavsiya qilingan.

"Kasbiy ta’lim" kafedrasi
mudiri: **dots., Sh.A.Allayarov**

Fanning ishchi o‘quv dasturi "Moliyaviy menejment" fakultet Kengashining 201_ yil "___" _____dagi "____" – sonli majlisida muhokama etilib, institut o‘quv-uslubiy Kengashida ko‘rib chiqishga tavsiya qilingan.

"Moliyaviy menejment"
fakulteti dekani: **dots., O.T.Astanakulov**

Fanning ishchi o‘quv dasturi institut o‘quv-uslubiy Kengashining 201_ yil "___" _____ dagi "____" – sonli majlisida muhokama etilib, institut Kengashida ko‘rib chiqishga tavsiya qilingan.

O‘quv-uslibiy bo‘lim boshlig‘i: **dots., T.M.Baymuratov**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

TASDIQLAYMAN
Toshkent moliya instituti rektori U. Azizov
_____
___
201__yil
«__»_____
m.o‘.

ISHChI O‘QUV REJA
(2018-2019 o‘quv yili uchun)

Ta’lim yo‘nalishi:
5230600 - Moliya

Akademik daraja - BAKALAVR
O‘qish muddati - 4 yil
Ta’lim shakli - kunduzgi

I. O‘QUV JARAYONI JADVALI

| Kurs | Haftalar | | |

II. O‘QUV REJASI

T/r	O‘quv bloklari, fanlar va faoliyat turlarining nomlari	Talabaning o‘quv yuklamasi (soatlarda)									Soatlarning kurs, semestr va haftalar bo‘yicha taqsimoti							
		Umumiy yuklamaning hajmi		Auditoriya mashg‘ulotlari (soatlarda)						Mustaqil ta’lim	1-kurs		2-kurs		3-kurs		4-kurs	
											Kurslardagi haftalar soni							
											43		43		44		42	
											Semestrlar							
											1	2	3	4	5	6	7	8
											Semestrdagi auditoriya mashg‘ulotlari haftalarining soni							
		soat	%	Jami	Ma’ ruza	Amaliy mashg‘ ulot	Laboratoriya ishi	Seminar	Kurs loyihasi (ishi)		18	18	18	14	16	14	12	10
1.00	**Gumanitar va tabiiy-ilmiy fanlar**	**1790**	**27,62**	**1136**	**326**	**656**	**72**	**82**	**0**	**654**	**26**	**16**	**10**	**10**	**2**	**2**	**0**	**0**
1.01	*Fuqarolik jamiyati*	94		54	26			28		40	3							
	Va boshqalar																	
2.00	**Umumkasbiy fanlar**	**2334**	**36,02**	**1232**	**568**	**664**	**0**	**0**	**0**	**1102**	**4**	**10**	**14**	**8**	**12**	**16**	**10**	**8**
2.01	Iqtisodiyot nazariyasi	338		180	72	108				158	4	6						
	Va boshqalar																	
3.00	**Ixtisoslik fanlari**	**2010**	**31,02**	**1028**	**524**	**524**	**0**	**0**	**0**	**982**	**0**	**0**	**4**	**12**	**16**	**8**	**20**	**18**
3.01	Moliya	660		336	168	168				*324*			4	4	4	4	4	4
	Va boshqalar																	
4.00	**Qo‘shimcha fanlar**	**346**	**5,01**	**204**	**102**	**102**	**0**	**0**	**0**	**142**	**0**	**4**	**2**	**0**	**0**	**4**	**0**	**4**
4.01	*Maxsus kurslar*	**238**		*140*	*70*	*70*				*98*		*2*	*2*			*2*		*4*
	Jami	**6480**	**100,00**	**3600**	**1520**	**1946**	**72**	**82**	**0**	**2880**	**30**	**30**	**30**	**30**	**30**	**30**	**30**	**30**
	Malaka amaliyoti	1620																
	Bitiruv malakaviy ishi	216																
	Attestatsiyalar	972																
	Jami	**2808**																
	Xammasi	**9288**																

O‘quv jarayonining tarkibiy qismlari	Haftalar soni	Semestr	Davlat attestatsiyasi
Nazariy va amaliy ta’lim	120	1-8	Bitiruv malakaviy ishini himoya qilish
Malakaviy amaliyot	30	4, 6, 8	
Attestatsiyalar	18	1-8	
Bitiruv malakaviy ishi	4	8	
Ta’til	32	1-8	
Jami	**204**		

O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor

Monitoring va ichki nazorat bo‘limi boshlig‘i

O‘quv-uslubiy bo‘lim boshlig‘i

Fakultet dekani

Kafedra mudiri, ta’lim yo‘nalishi rahbari

O‘quv uslubiy bo‘lim metodisti

Toshkent moliya instituti Kengashida
ma’qullangan 201 __ yil “__” ____ dagi
____ sonli bayonnoma

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

“TASDIQLAYMAN”
Toshkent moliya instituti

rektori
_____U.Azizov
201__yil
«__»_____
m.o‘.

IShChI O‘QUV REJA
(2018-2019 o‘quv yili uchun)
Mutaxassislik:
5A230902 – Audit (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)

Akademik daraja - MAGISTR
O‘qish muddati - 2 yil
O‘qish shakli - kunduzgi

I. O‘QUV JARAYoNI JADVALI

Kurs	Haftalar: Sentyabr	Oktyabr	Noyabr	Dekabr	Yanvar	Fevral	Mart	Aprel	May	Iyun	Iyul	Avgust	Jami	O‘quv jarayoni (haftalarda): Nazariy ta’lim va ilmiy faoliyat	Ilmiy amaliyot (stajirovka)	Attestatsiyalar	Ta’tillar	Hammasi
	0 1 2 3 4 5	6 7 8 9	0 1 2 3 4	5 6 7 8	9 0 1 2 3	4 5 6 7	8 9 0 1 2	3 4 5 6	7 8 9 0	1 2 3 4	5 6 7 8	9 0 1 2	2	0			10	52
I													2	0			6	48
												JAMI:	**4**	0			**16**	**100**

Nazariy ta’lim va ilmiy faoliyat — Davlat attestatsiyasi — Ilmiy amaliyot (stajirovka) — Attestatsiya — Ta’tillar

II. O‘QUV REJASI

T/r	O‘quv bloklari, fanlar va ilmiy faoliyat turlarining nomi	Talabaning o‘quv yuklamasi (soatlarda)									Soatlarning semestrlar va haftalar bo‘yicha taqsimoti				Ma’sul kafedra
		Umumiy yuklama-ning hajmi		Auditoriya mashg‘ulotlari (soatlarda)						Mustaqil ta’ lim	1 kurs		2 kurs		
											1	2	3	4	
											Semestrdagi haftalar soni				
		Soat	%	Jami	Ma’ ruza	Amaliy	Labora-toriya	Semina r	Kurs ishi		20	20	20	18	
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	
1.00	**Umummetodologik fanlar**	**450**	**30**	**300**	**100**	**190**	**10**			**150**	**8**	**4**	**3**		
1.01	O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasi	60		40	20	20				20	2				F. O‘djqna
	Va boshqalar														
2.00	**Mutaxassislik fanlari**	**830**	**55**	**560**	**280**	**280**			**2 Ki**	**270**	**13**	**7**	**8**		
2.01	Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari	186		120	60	60				66	4	2			Buxg.
	Va boshqalar														
3.00	***Tanlov fanlari***	***232***	***15***	***140***	***60***	***80***				***92***		***4***	***3***		
3.01															
	Jami	**1512**	**100**	**1000**	**440**	**550**	**10**		**2 Ki**	**512**	**21**	**15**	**14**		
4.00	**Ilmiy faoliyat**	**2700**		**1808**						**892**	**15**	**21**	**22**	**36**	
4.01	Ilmiy-tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash	1890		1260						630	11	18	16	20	
	HAMMASI	**4212**	**100**	**2808**						**1404**	**36**	**36**	**36**	**36**	

DAVLAT ATTESTATSIYASI:
1. Fanlar (yoki fan) bo‘yicha davlat attestatsiyasi
2. Magistrlik dissertatsiyasini himoya qilish

O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor

Monitoring va ichki nazorat bo‘limi boshlig‘i

O‘quv-uslubiy bo‘lim boshlig‘i
Magistratura bo‘limi boshlig‘i
Kafedra mudiri, mutaxassislik rahbari
O‘quv-uslubiy bo‘lim metodisti

Toshkent moliya instituti Kengashida
ma’qullangan

201 ___ yil “___” ___ dagi
_____ sonli bayonnoma

III BOB. MAXSUS FANLARNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN ASOSIY METODLAR, ULARNI TANLASH VA QO‘LLASH AMALIYOTI

VII BOB. METODLAR VA KO‘RGAZMALILIKNI FAN VA UNING MAVZULARIGA MOSLASHTIRISH

METODLARNI QO‘LLASH BO‘YICHA NAMUNALAR:

1. SAVOL-JAVOB METODINI «ZAIF BO’G’IN” O’YINI TARZIDA QO’LLASH

Buning uchun o‘qituvchi darsning maqsadiga ko‘ra, bir necha mavzu, ma’lum bo‘lim bo‘yicha kategoriyalar va tushunchalar hamda uning ma’nosini yozib keladi. Talabalarga o‘yinning qanday o‘tishini tushuntiradi. O‘qituvchi tushuncha, kategoriyaning mazmunini aytadi, talabalar uning nomini aytishi kerak. Yoki aksincha. Ya’ni, o‘qituvchi kategoriya, tushuncha, terminni aytadi. Talabalar esa uning mazmunini aytib berishlari lozim bo‘ladi. Oxirida 2 talaba qolguncha o‘yin bosqichma-bosqich, aylanib davom etadi. Kim noto‘g‘ri aytsa, o‘yindan chiqadi. O‘yinda avval osonroq tushunchalar, borgan sari murakkab tushunchalar aytilishi mumkin. Bu o‘yinni qo‘llash uchun darsga o‘qituvchi ham talabalar ham puxta tayyorlanib kelishlari kerak. Bo‘lmasa dars kutilgan natijani bermaydi. O‘qituvchi savollarni izohli lug‘at tarzida quyidagicha tayyorlagani ma’qul.

“Moliyaviy nazorat” fani misolida “Zaif bo‘g‘in” o‘yinini qo‘llash uchun tayyorlangan topshiriq:

Kategoriya, tushunchalar va ularnig mazmuni:

1. Moliyaviy nazorat (nazariy jihatdan) - iqtisodiy kategoriya sifatida moliyaga obyektiv xos bo‘lgan nazorat xususiyatining amalda namoyon bo‘lishi

2. Moliyaviy nazorat - barcha iqtisodiy subyektlarning (davlat, korxona va tashkilotlarning) moliyaviy faoliyati ustidan qonunchilik va ijroiya hokimiyati organlarining turli darajalari, shuningdek maxsus tashkil etilgan muassasalar tomonidan amalga oshiriladigan nazorat

3. Davlat moliyaviy nazoratining bosh maqsadi - davlat xazinasiga resurslarni tushirishni maksimallashtirish va davlat boshqaruv xarajatlarini minimallashtirish;

4. Nodavlat moliyaviy nazoratining bosh maqsadi – joylashtirilgan kapitalning foyda normasini oshirish maqsadida davlat foydasidan ajratmalar va boshqa xarajatlarni minimallashtirish

5. Moliyaviy nazoratga ikki nuqtai nazardan qarashning birinchisi - barcha iqtisodiy subyektlarning moliyaviy qonunchilik va moliyaviy intizomga rioya qilishi ustidan maxsus tashkil etilgan nazorat organlarining qat’iy tartibga solingan (reglamentatsiya qilingan) faoliyati

6. Moliyaviy nazoratga ikki nuqtai nazardan qarashning ikkinchisi - moliyaviy operatsiyalarning samaradorligini va maqsadga muvofiqligini ta’minlash maqsadida makro- va mikrodarajada moliya hamda pul oqimlarini

boshqarishning ajralmas elenmenti

7. Moliyaviy nazoratning birinchi navbatda ko‘zda tutilgan maqsadi - pul fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanish jarayonida moliyaviy-iqtisodiy qonunchilikka rioya etilishi, moliyaviy-xo‘jalik operatsiyalarining samaradorligini baholash va amalga oshirilgan xarajatlarning maqsadga muvofiqligi ustidan nazoratni qamrab olishi.

8. Moliyaviy nazoratning qiymat shaklida amalga oshirilishi - ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonining barcha sohalarida amalga oshiriladi va pul fondlari harakatining barcha jarayonlari, jumladan, moliyaviy natijalarni kuzatish imkonini berishi sababi.

9. Moliyaviy nazoratning obyekti - ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonining barcha sohalaridagi pul munosabatlari

10. Moliyaviy nazoratning predmeti - moliyaviy ko‘rsatkichlar: turli darajadagi byudjetlarning daromadlari va xarajatlari; soliq to‘lovlarining hajmlari (miqdorlari, o‘lchamlari); xo‘jalik yurituvchi subyektlarning daromadlari; xo‘jalik yurituvchi subyektlarning muomala xarajatlari; tannarx va foyda; uy xo‘jaliklarining daromadlari va xarajatlari va boshqalar

11. Umumdavlat moliyaviy nazorati - bu davlatning asosiy qonunlariga tayanadigan va hokimiyat hamda aniq belgilangan boshqaruv organlari iqtisodiy-huquqiy harakatining kompleksli va maqsadga yo‘naltirilgan tizimi

12. Mamlakatning Konstitutsiyasi - davlat moliyaviy nazoratini tashkil etishda hal qiluvchi rol o‘ynovchi, uning huquqiy reglamenti davlatning tipiga, uning sotsial-siyosiy yo‘naltirilganligiga, iqtisodiy tarqqiyot darajasiga, mulkchilik shakllarining nisbatiga bog‘liq asosiy qomusiy hujjat

13. Davlat moliyaviy nazorati – mamlakatda YAIM taqsimlanishining qiymat nisbatlarini kuzatishga, davlat moliyaviy resurslarini shakllantirish, ularning to‘liq va o‘z vaqtida tushib turishi va ulardan maqsadli foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan pul resurslari harakatining barcha yo‘nalishlarini qamrab olinishiga qaratilgan nazorat

14. Davlat moliyaviy nazorati maqsadi - davlatning moliya siyosatini amalga oshirish va moliyaviy barqarorlik uchun sharoitlarni yaratishga qaratilgan maqsad

15. Davlat moliyaviy nazorati maqsadining namoyon bo‘lishi - barcha darajalardagi byudjetlar va nobyudjet fondlarni ishlab chiqish, muhokama qilish, tasdiqlash va ijro etish, korxona va tashkilotlar, banklar va moliyaviy korporatsiyalarning moliyaviy faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish va boshqalar. Ular guruhdagi o‘quvchi-talabalar soniga nisbatan 3-4 marta ko‘p bo‘lgani ma’qul.

2. KICHIK GURUHLARDA “CHARXPALAK" METODINI QO’LLASH.

Kichik guruhlarga bo‘lib, dars o‘tishni “charxpalak” texnologiyasini qo‘llab quyidagicha tashkil etishimiz mumkin. Avval ko‘rib o‘tgan qoidalarimiz bo‘yicha kichik guruhlarni tashkil etamiz. Tayyorlangan vazifa, topshiriqlarni guruhlarga

tarqatamiz. U quyidagicha bo‘lsin:



Har bir guruh a’zolari o‘z javob varaqlariga guruh raqami, ishtirokchining belgisini qo‘yib, fikrlarini yozadilar. Buning uchun 3-5 daqiqa vaqt beriladl. Vaqt o‘tgach, o‘qituvchi yozishni to‘xtatish haqida komanda beradi. Kichik guruhlar ishni to‘xtatishadi va javob varaqlarini yonlaridagi guruhga uzatishadi. Hamma kichik guruhlar endi boshqa guruhning javob varag‘iga o‘z guruhlari nomerini yozib yoki belgisini qo‘yib (ayrim adabiyotlarda turli rangli ruchkalardan foydalanish tavsiya etiladi) avvalgi berilgan javoblarni o‘rganib, to‘ldiradi, yonidagi guruhga uzatadi. Shunday qilib, bir guruhga berilgan topshiriq barcha guruhlar qo‘lidan o‘tib aylanib, oxirida dastlabki guruh qo‘liga keladi, ya’ni “charxpalak” kabi aylanadi. Har bir kichik guruhda shu guruh va boshqa guruhlarning fikri yozilgan javob varag‘i bo‘ladi. U quyidagicha bo‘lsin:

1-kichik guruhning javob varag‘i
2-kichik guruhning javobi:
3-kichik guruhning javobi:
4-kichik guruhning javobi:

1-kichik guruhning javobi:

Har bir kichik guruh a’zolari o‘z javoblari bilan boshqa guruhlar yozgan javoblarni taqqoslab, tahlil qiladilar hamda o‘z fikrlarini yozadilar yoki butun guruh oldida taqdimot qiladilar. Topshiriqlar javoblari bilan o‘qituvchiga topshiriladi. Bu texnologiyani qo‘llaganda o‘qituvchi vaqt sarfiga alohida diqqat qaratishi va oldindan reglament belgilab qo‘yishi kerak.

Ayrim adabiyotlarda “Stol ustida ruchka” metodi berilgan u xuddi “charxpalak” kabi. Lekin unda stollar nomerlanib, kichik guruh soni bo‘yicha, ular ustiga topshiriqlar yozilgan varaqlar qo‘yilgan bo‘lib, barcha kichik guruhlar ularni navbatma-navbat bajaradilar. So‘ngra bajarilgan ish muhokama qilinadi.[131]

3. REZYUME METODI (TEXNOLOGIYASINI QO’LLASH.[132]

Rezyume fransuzcha resume, resumer so‘zidan olingan bo‘lib, qisqacha bayon qilish, qisqacha xulosa chiqarish, xulosa qilish degan ma’noni bildiradi. U ko‘proq muammoli mavzularni turli jihatdan yondashib o‘rganishda keng qo‘llanilishi mumkin.

Masalan, ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik va kamchiliklari, foyda va zararlari, minimal va maksimal belgilanadi. Bu jihati bilan T-sxemaga ham o‘xshab ketadi. Undan farqli jihati shundaki, biz qo‘yilgan maqsad bo‘yicha mavzuni yoki uzviy savolni o‘rganib bo‘lganimizdan so‘ng yakuniy xulosa chiqarishga qaratilgan. Buning uchun har qanday jarayonning, chora-tadbirning, omil va hokazolarning ikki tomoni borligiga diqqat qaratib, ularning ijobiy va salbiy tomoni, afzalligi va kamchiligini ko‘rsatib xulosa chiqarib, qaror qabul qilishga qaratiladi.

U o‘quvchi, talabalarni erkin, mustaqil tanqidiy fikrlashga, jamoa bo‘lib ishlashga, izlanishga, fikrlarni jamlab taqqoslash uslubi yordamida mavzudan kelib chiqqan holda o‘quv muammosini yechimini topishga hamda kerakli xulosa yoki qaror qabul qilishga jamoaga o‘z fikri bilan ta’sir etishga, uni ma’qullashga, shuningdek, berilgan muammoni yechishda, mavzuda umumiy tushuncha berishda o‘tilgan mavzulardan egallagn bilimini qo‘llay olishga o‘rgatadi.

Uni barcha mashg‘ulot shakllarida individual, juftlik yoki kichik guruhlarda, uyga vazifa berishda qo‘llash mumkin.

Mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi:

- • o‘qituvchi o‘quvchi-talabalarning soniga qarab 3-5 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratadi;

[131] Boshqa qator metodlar, jumladn “bosqichma-bosqich (zinama-zina), “3x5 metodi” kabilar “Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi ” kitobiga qarang.

[132] Bajariladigan operatsiyalar ketma-ketligi bayoni nuqtai nazaridan texnologiya deymiz. Uni amalda bajarish mazmuni, yo‘li jihatidan metod.

- o‘quvchi, talabalarni mashg‘ulotning maqsadi va o‘tkazilish tartibi bilan tanishtiradi va har bir kichik guruhga asosiy muammo va undan kelib chiqadigan muammolar va ularni yechish yo‘llari belgilangan, xulosa yozma bayon qilinadigan varaqlarni tarqatadi.
- har bir guruh a’zolari ularga tushgan varaqlardagi muammolarning afzalligi va kamchiliklarini aniqlab, o‘z fikrlarini yozma bayon etadilar. Yozma bayon etilgan fikrlar asosida ushbu muammoni yechimini topib, eng maqbul variant sifatida umumiy xulosa chiqaradilar.
- Kichik guruh a’zolaridan biri tayyorlangan materialni jamoa nomidan taqdimot qiladi. Guruhni yozma bayon etgan fikrlari o‘qib eshittiriladi, lekin xulosa qismi bilan tanishtirilmaydi.

Masalan, qo‘ygan muammoimiz va uni yechish uchun tayyorlangan topshiriq quyidagicha bo‘lsin:

Davlatning inflyatsiyani jilovlashga qaratilgan uzoq muddatli (strategik) chora-tadbirlari							
Ishlab chiqarishni rag‘batlantirishga qaratilgan		Byudjet taqchilligini kamaytirishga qaratilgan tadbirlar		Pul massasini tartibga solishga qaratilgan tadbirlar		Tashqi omillar ta’sirini kamaytirishga qaratilgan tadbirlar	
Afzalligi	Kamchiligi	Afzalligi	Kamchiligi	Afzalligi	Kamchiligi	Afzalligi	Kamchiligi
1. 2.	1. 2.						
Xulosa:							

- O‘qituvchi boshqa kichik guruhlardan taqdimot etgan guruhning xulosasini so‘rab, ular fikrini aniqlaydi, guruhlar fikridan so‘ng taqdimot guruhi o‘z xulosasi bilan tanishtiradi.
- O‘qituvchi kichik guruhlar tomonidan berilgan fikrlarga yoki xulosaga izoh berib, ularni baholaydi, so‘ngra mashg‘ulotni yakunlaydi.

4. MASHG’ULOTNI “ISHONTIRISH MAKTABI” ROLLI O’YINI ASOSIDA TASHKIL ETISH SSENARIYSI.

Iqtisodiy fanlardan dars beruvchi mutaxassislar tayyorlashda bu usulni qo‘llash ularni guruh faoliyatini boshqarish, yuz bergan turli ziddiyatli

vaziyatlardan chiqib ketishni o‘rgatishi, ana shunday ko‘nikmalarni hosil qilishi bilan ajralib turishi jihatidan o‘ziga xos xususiyatlariga mos tushadi.

O‘yinlarni tayyorlash va o‘tkazishda o‘qituvchining o‘zi ham bir necha rolni bajaradi: u ssenarist qaysi mavzuni o‘rganish jarayonida amaliy o‘yindan foydalanadi, qanday qilib? degan savolni qo‘yib, ssenariy yozadi yoki ssenariy bo‘lsa mavzu, guruhga moslashtiradi. U instruktor sifatida o‘yinning maqsadi, qonun-qoidasi, natijasini tushuntiradi. O‘yinning mazmunini ipidan ignasigacha tushuntirish kerak emas. Chunki maksimal darajada tushuntirish vaqt ketkazadi, ko‘p narsalar, qoidalar o‘yin davomida oydinlashadi. Haddan tashqari tushuntirish ularni chalkashtirishi yoki o‘yinga bo‘lgan qiziqishni pasaytirishi mumkin. Shuning uchun o‘yinning qonun-qoidasini tushuntirish me’yorida bo‘lgani ma’qul. O‘qituvchi o‘yinda barchaning faol qatnashishiga e’tibor berishi kerak. Aynan, uni tashkiliy tomoni o‘yinning natijasida aks etadi.

O‘yinda o‘qituvchi sudya-referi vazifasini bajaradi. U qoidani buzilma-yotganini nazorat qiladi. U trener vazifasini bajaradi. O‘yinning imkoniyatidan to‘liq foydalanish uchun maslahatlar beradi. Boshlovchi rolini o‘ynab, o‘yinni boshlash, o‘tkazish va yakunlashni tashkil etadi. Ayniqsa, o‘yin muhokamasi muhim ahamiyatga ega. Bunda o‘qituvchi xulosani o‘quvchi-talabalar chiqarishiga diqqat qaratishi kerak. U shunday savollar qo‘yishi kerakki, shu savollar orqali real hayot bilan o‘yin natijalarini taqqoslash, xulosa chiqarish mumkin bo‘lsin.

O‘yinni o‘tkazish bo‘yicha **IMAK** (**ishontirish maktabi**) metodini (ayrim adabiyotlarda texnologiya) tanladik. Biz uni o‘yin tarzida ishlab chiqdik. Maqsad o‘quvchi-talabalarni mavzuni chuqur o‘rganishga yo‘naltirish, o‘z fikrini dalillar bilan asoslash, o‘quvchi-talabalarni o‘qituvchi rolini bajarishga tayyorlash, unga boshqalarni ishontirish, jamoada har qanday vaziyatda o‘zini tuta bilish, uni boshqara olish malakasini, tashkilotchilik qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan.

O‘yinni o‘tkazish uchun o‘qituvchi o‘tiladigan fan mavzularidan birini tanlaydi. Guruhdagi a’lochi o‘quvchilardan biri o‘qituvchi rolini o‘ynaydi. Bu rolga avvaldan ixtiyoriy ravishda nomzod tanlanadi. U o‘zi xohlab, ko‘ngilli ravishda tanlashi yoki o‘qituvchi iqtidoriga ko‘ra tanlab, taklif qilishi mumkin. Kasb ta’limining moliya yo‘nalishidan “o‘qituvchi” moliya fanidan yoki unga yaqin fanlardan, bank ishi yo‘nalishi bo‘yicha “bank ishi” fanidan, “buxgalteriya hisobi” yo‘nalishi bo‘yicha esa shu fanning mavzularidan biri bo‘yicha dars o‘tishga tayyorlanadi. O‘qituvchi o‘quvchi-talabalarni shu mavzu bo‘yicha seminar darsiga tayyorlanishlarini uqtiradi. Dars ochiq dars sifatida o‘tiladi. Buning uchun darsga a’lochi o‘quvchilardan 4 nafari ochiq darsga kiruvchi o‘qituvchilar, fakultet dekani yoki dekan o‘rinbosari rolini o‘ynashadi. Yana 3 nafari ekspert rolini

o‘ynashadi. Ular darsga kirgan o‘qituvchi, dekan va boshqalarning muhokamada bildirgan fikrlarini taxlil qilib, baho berishadi.

O‘quv jarayonida o‘qituvchi o‘quvchi-talabalarni mashg‘ulotni o‘tkazish qoi-dalari bilan tanishtiradi. Qolgan ishtirokchilar ziddiyatli holat, munozarali vaziyatni yaratuvchi masalani o‘ylab chiqadilar, muhokama qiladilar. Muammoli vaziyatni rollarga bo‘lingan holda ijro etishga tayyorgarlik ko‘radilar. Qolgan o‘quvchi-talabalar o‘zlarining rolini o‘zlari o‘ynashadi.

Mashg‘ulot boshlangach, uni auditoriyaga taklif etiladi. O‘quvchi-talabalar tomonidan tayyorlangan mavzu muhokama qilinadi. Unda muammoli vaziyat yaratilishi va uni yechimini topishga ham e’tibor beriladi. Bunda, bir tomondan, guruh a’zolarining o‘z rollarini qay darajada o‘ynashlari, muammoli vaziyatni yaratib, o‘zlarini tutishi, turli xarakterdagi o‘quvchilar rolini bajarib, unga boshqalarni ishontirishi sinalsa, ikkinchi tomondan, o‘qituvchi yoki guruh murabbiysi yoxud dekan muovini rolini o‘ynayotgan talaba ijro etilayotgan roliga ko‘ra o‘zining tashkilotchilik qobiliyati, o‘zini qanday tutishi, boshqalarni o‘z fikriga ishontira olishi, turli vaziyat va sharoitlarda o‘zini tuta bilishi, “o‘qituvchi”ning esa guruhni boshqara olishi, ziddiyatli holatdan tarbiyaviy usullardan foydalangan tarzda chiqib ketishi, muammoning ijobiy yechimini topishga erishishini namoyon qila bilishlari kerak. Ya’ni u ham o‘quvchi-talabalarni o‘z fikriga, o‘ynayotgan roliga ishontirishi kerak.

Ajratilgan vaqt tugagach, o‘yinning muhokamasi boshlanadi. Bunda avval “ochiq dars”ga qatnashgan o‘qituvchilar o‘z fikrlarini aytishadi. So‘ngra dekan yoki uning muovini rolini o‘ynagan talaba, ekspertlar o‘tilgan darsning yutuq kamchiliklarini ko‘rsatishadi. O‘qituvchi muhokamada rollar qay darajada bajarilgani, qo‘yilgan maqsad, rejalashtirilgan vazifalar qay darajada bajarilgani, shu bilan birga eng muhimi o‘rganilayotgan mavzuning mazmun mohiyatini qay darajada o‘zlashtirganlariga ahamiyat berishi va muhokamada qatnashayotganlarni unga diqqat qaratishlariga erishishi zarur. U muhokamaga yakun yasaydi va baho beradi, qo‘ygan ballarini e’lon qiladi.

Metod ayniqsa, **iqtisodchi-pedagoglar** uchun juda mos tushadi. Eng muhimi bunda har bir talabaning o‘qituvchi rolini o‘ynashi uchun imkoniyat yaratiladi. Bunda kelgusida dars berishlari mumkin bo‘lgan iqtisodiy fanlarni chuqurroq o‘rganishga hamda “Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi” fanidan o‘rganilayotgan dars o‘tish metodlarini guruh talabalari bilan birgalikda qo‘llab, amalda sinab ko‘riladi.

Bu o‘yinda o‘qituvchi rolini o‘ynayotgan talabaga boshqalarga qaraganda ko‘proq mas’uliyat yuklanadi. U darsga nihoyatda puxta tayyorlanishi zarur. Chunki u o‘tilishi kerak bo‘lgan mavzuni o‘zini puxta bilib qolmay, qo‘llashi talab

etilgan metodlardan qanday foydalanishni ham bilishi, buning uchun zarur tarqatma materiallar, topshiriqlar tayyorlashi kerak. Bundan tashqari guruhdoshlarini fe'l-atvorini biladi, shuning uchun ularni turli muammoli vaziyatlarni yaratishi va ulardan qanday chiqib ketishni ham o‘ylab qo‘yishi kerak.

Diqqat qaratilishi muhim tomoni shundaki, o‘qituvchi-talaba dars o‘tib bo‘lgach, uning natijasi barcha guruhlar o‘rtasida muhokama qilinadi. Guruhdoshlari tomonidan aytilgan maqtovlar hamda e'tirof etilgan kamchiliklar "o‘qituvchi"mizga kelajakda ana shu kamchiliklarni bartaraf etish va takliflarni hisobga olishga yordam beradi. Ekspertlarning faoliyati ham hammaning darsga qatnashishiga baho berishdan tashqari, darsga kirgan o‘qituvchilar rolini o‘ynagan, ularning muhokamada bildirgan fikrlariga munosabatlarini aniq, tushunarli qilib bayon qilishlariga e'tibor berish kerak.

"Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi" fanidan amaliy mashg‘ulotlarda ana shu o‘yinni qo‘llash kelajakda haqiqiy mutaxassis, iqtisodchi-pedagog bo‘lib etishishlariga katta yordam berishiga ishonchimiz komil. Bu darsni videokameraga tushirib muhokama qilish ham mumkin. Sababi, uni kompyuterda tomosha qilish, dars bergan "o‘qituvchi"miz va boshqalarni ham o‘ziga chetdan qarab, baho berish imkoniyati yuzaga keladi.

Umuman olganda bu interaktiv uslubni nafaqat iqtisodchi-pedagog, balki barcha yo‘nalishlarda qo‘llasa bo‘ladi. Faqat uni mutaxassislikka moslashtirish zarur.

5. LOYIHALASH METODINI QO‘LLASH (*O‘quv loyihasi tuzish misolida)*

O‘qituvchi o‘quv loyihasini ishlab chiqish uchun **uning uslubiy pasporti** ishlab chiqadi. U quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

* pedagogik annotatsiyasini tayyorlaydi;
* loyiha topshirig‘i;
* talabalarga uslubiy ko‘rsatmalar;
* baholash mezoni ko‘rsatkichlari;
* loyihalash metodi asosida o‘tiladigan mashg‘ulotning texnologik xaritasi.
* o‘quv loyihasining **algoritmini aniqlaydi,** ishlab chiqadi. U quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi: loyiha konsepsiyasini ishlab chiqish; loyihaviy faoliyatni tashkil etish; loyihaviy faoliyatni rejalashtirish; loyihaviy vazifalarni hal etish; Erishilgan natija (mahsul)ni rasmiylashtirish; hisobot tuzish; bajarilgan ishni ekspertlarga taqriz uchun topshirish; natijalar taqdimotini tayyorlash. Loyihaning muhokamasi: taqdimoti, himoyasini o‘tkazish va baholash.

I. LOYIHALASH BO‘YICHA PEDAGOGIK ANNOTATSIYA
Mavzuning nomi: “KORXONA (FIRMA) XARAJATLARI VA ULARNI OPTIMALLASHTIRISH”

Ishtirokchilar: “Magistr” mutaxassisligi yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar.

Loyiha tayyorlash va uni amalga oshirishning maqsadi: talabalarning xarajatlar, ularning tarkibi, turlari, ularni rejalashtirish haqidagi bilimlarini chuqurlashtirish, xarajatlar sarfining optimal darajada bo‘lishiga erishish omillarini aniqlash va muvofiq ravishda tavsiyalar ishlab chiqish; xarajatlarning foyda miqdoriga ta’sirini o‘rganish, kelgusida amaliyotda qo‘llay bilish.

Rejalashtirilayotgan o‘quv natijalari: xarajatlar, ularning tarkibi, turlari, guruhlarga ajratishning sabablari, foyda miqdoriga ta’siri, ularni pasaytirishning ahamiyati va omillari, ularning qanday iqtisodiy ko‘rsatkichlarda aks etishi, buxgalteriya va statistik ma’lumotlar asosida ularning o‘zgarishi korxona faoliyatidan tortib, tarmoq darajasida ifodalanishi, bu ma’lumotlarni tahlil qilish asosida qanday muammolar borligi haqida chuqur bilim, axborotga ega bo‘ladilar va uni yechish yo‘llarini topishga harakat qilishga yo‘naltiradi. **Yakuniy natija:** Xarajat va foyda, ularning turlarini aniqlash, ishlab chiqarishni o‘sishida tutgan o‘rnini ko‘rsatish, xarajatlarni minimallashtirish va samaradorligini oshirishni o‘rganish va ular asosida takliflar ishlab chiqish.

Loyihalashtirish faoliyati bo‘yicha quyidagi amaliy ko‘nikmaga ega bo‘ladi: muammoni shakllantirish va vazifalarni aniqlash; vazifalarni amalga oshirishdagi usullarni, iqtisodiy ko‘rsatkichlarni tanlash va ulardan foydalanish; faoliyatni rejalashtirish; ma’lumot manbalarini aniqlash, tizimga keltirish va tahlil qilish; natijalarni talab darajasida rasmiylashtirish va kerakli ko‘rinishda taqdim etish.

Talabalar loyihani muvaffaqiyatli bajarishlari uchun bilishlari lozim bo‘lgan bilim va ko‘nikmalar quyidagilardan iborat:

Quyidagi tayanch bilimlarni bilishi kerak: ishlab chiqarish, resurslar, iqtisodiy resurslar, omillar, tadbirkorlik, biznes, yirik biznes, kichik biznes, korxona, firma, asosiy kapital, aylanma kapital va boshqalar.

Quyidagi ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari kerak: mikroiqtisodiy, makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar va ularni hisob-kitob qilish, ulardan foydalanish, tahlil qilish.

Loyihani bajarish tartibi: talabalar loyihani auditoriyada ishlab chiqadilar. Auditoriyadan tashqari mustaqil faoliyatlarida bajarishadi. Seminar mashg‘ulotida taqdim etiladi (ko‘zda tutilgan bo‘lsa). Yoki loyiha natijalari tanlovi tarzida alohida ilmiy seminar muhokamasini o‘tkazish mumkin, yoki o‘qituvchi rahbarligida loyiha auditoriyadan tashqarida ishlab chiqiladi, bajariladi. Seminar darsida esa muhokama qilinadi.

I. LOYIHA TOPSHIRIG‘I[133]

Kirish. Siz oliy o‘quv yurtini bitirib, pedagogik faoliyat olib borishingiz yoki iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida iqtisodchi mutaxassis sifatida faoliyat yuritishingiz mumkin. Buning uchun siz bu fanlarni chuqur bilishingiz zarur. Har bir mavzu shu fanni o‘rganishda o‘ziga xos o‘rin tutadi, lekin ularni orasida shunday mavzular borki, ular integral xarakterga ega bo‘lib, ularni puxta o‘zlashtirish keyingi bosqichlarda ham alohida ahamiyatga ega. Ana shunday mavzulardan biri iqtisodiyot nazariyasi fanidan o‘rganiladigan “Korxona (firma) xarajatlari va foydasi” mavzusi hisoblanadi. Shuning uchun bu mavzuni har tomonlama chuqur o‘rganish zarur. Uni nazarda tutgan holda quyidagi o’quv loyiha mavzulari ishlab chiqildi:

1. Xarajatlar, ularning tarkibi, turlari va ularni guruhlashga asosiy yondashuvlar.

2. Doimiy va o‘zgaruvchi, marjinal xarajatlar, korxona istiqbolini belgilashda ularning tutgan o‘rni.

3. Ishlab chiqarish omillarining nisbati va uni belgilashda tadbirkorning roli.

4. Xarajatlarni minimallashtirish nazariyasi va undan amaliyotda foydalanish.

5. Foyda va foyda normasi haqidagi nazariyalar va amaliyotda foyda miqdorini aniqlash.

6. Xarajatlarni optimallashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo‘llari.

Loyiha doirasida o‘z yechimini topuvchi muammo: ishlab chiqarish xarajatlari, ularning tarkibi, turlari, ularni guruhlarga bo‘lishdagi asosiy yonda-shuvlar, xarajatlarni minimallashtirish nazariyalarini o‘rganish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda qo‘llash

Foydalanuvchilar: oliy o‘quv yurti talabalari va professor-o‘qituvchilari

O‘quv loyihaviy faoliyatning protsessual (jarayon) tuzilmasi:

1. ***Tayyorlov, “rejalashtirish” bosqichi***

Bu bosqichda talabalar o‘qituvchi rahbarligi ostida loyiha ustida ishlash shakllarini tanlashadi: **individual** yoki **kichik guruhlar**ga bo‘linib ishlash.

Agar kichik guruhlarda ishlash tanlansa:

- kichik guruhlar tashkil etiladi.
- loyiha bo‘yicha ish turlari ajratilib, qatnashchilar orasida taqsimlanadi;

[133] Muammo va ilmiy loyiha тayyorlashni batafsil D.Tojiboeva va A. Yo‘ldoshev. Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi. T.: Aloqachi, 2009.

- loyiha bajarish bo‘yicha ishchi rejasini ishlab chiqishadi;
- axborot to‘plash uchun manbalar aniqlanadi;
- uni bajarishning optimal usullari va vositalarini tanlanadi;
- natija taqdimotini rasmiylashtirish usullari va shakllarini belgilashadi;
- loyiha mas’uli, hisobot va taqdimotni baholash mezonlarini muhokama qilishadi.

Loyihani bajarish bo‘yicha ish rejasi

Ishtirokchilar (kichik guruh sardorlari)	**Loyihada bajaradigan vazifa**	**Ish mazmuni**	**Bajariladigan ish natijasi**	**Bajarish muddati**
Nishonov I. Ishtirokchilar 3-5 talaba	1. Xarajatlar, ularning tarkibi, turlari va ularni guruhlashga asosiy yondashuvlar	Xarajatlar va uning mohiyati, tarkibi, asosiy guruhlarini o‘rganish. Xarajatlarni guruhlarga bo‘lishdan maqsad nima? degan savolga javob	Xarajatning mazmuni, tarkibi, turlari va ularni guruhlashning maqsadi asoslab berilgan chizma, jadval, diagramma va boshqalardan foydalanilgan, taklif, tavsiyalar berilgan matn	1 hafta
Ochilov F. Ishtirokchilar 3-5 talaba	2. Doimiy, o’zgaruvchi, marjinal xarajatlar, korxona istiqbolini belgilashda ularning tutgan o‘rni	Doimiy va o‘zgaruvchi xarajatlarning maz-mun mohiyati, umumiy jihatlari va farqlari, alohida guruhga ajratilishining zarurati asoslab beriladi	Ish mazmunini aks ettirgan matn, jadval, chizma, grafik diagrammalarni o‘z ichiga olgan axborot, taklif, tavsiyalar berilgan matn	1 hafta
Qaxxorov T. Ishtirokchilar 3-5 talaba	3. Ishlab chiqarish omillari nisbati va uni belgilashda tadbirkorning roli	Ishlab chiqarish omillari nisbati unga ta’sir etuvchi omillar, ularning optimal variantlarini shakllantirishda tadbirkorning rolini ko‘rsatish	Qo‘yilgan vazifani aks ettirgan , uning mazmun-mohiyatini dalillar, ma’lumotlar bilan asoslangan, taklif, tavsiyalar berilgan matn	1 hafta
Mavlonov I. Ishtirokchilar 3-5 talaba	4. Xarajatlarni minimallashtirish nazariyasi va undan amaliyotda foydalanish	Xarajatlarni minimallashtirishning mazmuni, uni amaliyotda qo‘llash imkoniyati, yo‘llarini o‘rganish	Xarajatlarning minimallashtirishning mazmuni, maqsadi, imkonyati, yo‘llari iqtisodiy ma’lumotlar, dalillarga asoslangan, taklif, tavsiyalar berilgan matn matn	1 hafta
Tursunov O. Ishtirokchi-	Foyda va foyda normasi haqidagi nazariyalar va	Foyda va foyda normasi haqidagi nazariyalarni o‘rganish,	Ko‘zda tutilgan maqsadni ifodalagan, normal foyda, buxgalte-	1 hafta

lar 3-5 talaba	amaliyotda foyda miqdorini aniqlash.	ularning umumiy jihatlari va farqlarini o‘rganish, foyda miqdori va turlarini aniqlash	riya foydasi, sof foyda va boshqalar hisob-kitob, ma’lumotlar bilan asoslangan taklif tavsiyalar berilgan matn.	
Nuraliev B. Ishtirokchi-lar 3-5 talaba	6. Xarajatlarni optimallashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo‘llari	Xarajatlarni optimal-lashtirish yo‘llari va samaradorlikni oshirish zaruriyati, mazmunini o‘rganish va uning aso-siy yo‘llarini aniqlash	Mahsulot ishlab chi-qarish va xizmat ko‘r-satish uchun sarflar dinamikasi asosida tayyorlangan tahliliy axborot, taklif, tavsi-yalar berilgan matn	1 hafta
Loyihani tayyorlash va amalga oshirishda foydalaniladigan axborot manbalari: o‘quv va ilmiy adabiyotlar, statistik ma’lumotlar, korxonaning buxgalteriya hisobi ma’lumotlari va boshqalar. Matn oxirida ularning ro‘yxati beriladi.				

Odatda loyihani amalga oshirish uchun zarur moliyaviy resurslar va ularning manbalari ko‘rsatiladi. Unda har bir bosqich uchun va jami talab qilinadigan mablag‘lar alohida ko‘rsatiladi. Ko‘rsatilgan summalar asoslangan bo‘lishi kerak. Agar manbalari aniq bo‘lmasa faqat sarf-xarajatlar asoslangan ravishda ko‘rsatiladi. Tanlov hakamlari va a’zolari ularni realligiga ishonch hosil qilishlari kerak. Moddiy xarajatlar va mehnat haqi, tadqiqot yuzasidan xizmat safarlari xarajatlari va boshqalar alohida ko‘rsatiladi.

Bizning loyihamiz o‘quv loyihasi bo‘lgani sababli biz unda mablag‘lar sarfini rejalashtirmadik.

2-bosqich. Loyihani bajarish

Loyihaning ushbu davrida talabalar o‘zlarining vazifalari bilan muvofiq tarzda o‘qituvchi rahbarligida faol va mustaqil ishlaydilar:

- turli manbalardan axborot to‘plash, tahlil etish ishlarini olib boradilar;
- tadqiqot o‘tkazadilar, hisob-kitoblarni bajaradilar;
- zarurat tug‘ilganda maslahatlashadilar;
- oraliq natijalarni muhokama qiladilar;
- hamma loyiha qatnashchilarining olingan natijalar to‘planadi va muhokamasi o‘tkaziladi;
- qo‘yilgan maqsad, vazifalarni to‘plangan axborot, ma’lumotlar asosida umumlashtirgan holda matnda ifodalanadi.

3-bosqich. O‘quv loyihaviy faoliyatning natija bosqichi

Bu bosqich quyidagilarni o‘z ichiga oladi.

- loyiha faoliyati natijalarini rasmiylashtiradilar;
- loyiha bo‘yicha hisobot va taqdimot tayyorlashadi;
- loyihaga ichki taqriz (ekspert baholashi) olinadi;

- loyihaga tashqi (ekspert baholash) taqriz olinadi.

4-yakuniy bosqich. Loyiha taqdimoti va muhokamasi, loyiha va uning qatnashchilarini baholash. Bu bosqichda talabalar:

-loyiha guruh, jamoa e'tiboriga taqdim etiladi;

- taqdimot va natijalar muhokamasi o'tkaziladi;
- loyiha hisoboti va taqdimotini baholanadi;
- loyiha qatnashchilarini baholanadi.

Loyiha faoliyati natijalari to'g'risida taqdimot axboroti **og'zaki** yoki **MS Power Point** da tayyorlash orqali amalga oshirilishi mumkin. Loyiha taqdimoti vaqtida talabalar muammo, maqsad va vazifalarni tushunishlari, ishni rejalashtirish va amalga oshirishni, yechimlarni izlash jarayonini tahlil qilishni bilishlarini namoyish qilishlari zarur.

Bunda ular faoliyat va natijaning refleksiyasini, ya'ni ish davomida va yakunida yuzaga kelgan yutuqlarini anglash, yo'l qo'yilgan xatolarni tahlil qilish, shaxsiy o'zgarishlarini anglashlarini namoyon etishadi.

O'quv jarayonida bu metodni qo'llaganda, mavzuni o'rganishga ajratilgan vaqt, guruhdagi talabalarning iqtidoriga qarab, o'qituvchi uning annotatsiyasi va rejasini, ya'ni birinchi bosqich natijasi yoki loyihani to'liq amalga oshirish natijasini muhokama qilishni tashkil etishi mumkin.

Loyihani to'liq amalga oshirish mo'ljallanganda, kichik guruhlarda o'qituvchi rahbarligida u mustaqil tayyorlanib, seminar mashg'ulotida to'rtinchi bosqich, ya'ni loyiha natijasi va uning taqdimoti muhokama qilinadi.

II. LOYIHA TOPSHIRIG'INI BAJARISH BO'YICHA TALABALARGA USLUBIY KO'RSATMALAR

I. Loyiha tuzish uchun mavzu tanlash va uni loyihada aks ettirish bo'yicha ko'rsatma

Iqtisodiyotning bosh muammosi - resurslarni cheklanganligi sharoitida cheksiz ehtiyojlarni qondirish muammosi har bir qadamda yangi muammoni vujudga keltiradi. Resursdan, jumladan inson uchun eng cheklangan resurs vaqtdan samarali foydalanishni, **innovatsion** texnologiya, mahsulot yaratishni taqozo qiladi. Demak har bir faoliyatimizni chuqur tahlil asosida rejalashtirishimiz, yangi-yangi loyihalar yaratish va mavjud muammolarni yechishimizni talab qiladi.

Loyihalash metodini qo'llash innovatsion metodlardan hisoblanib, u tadqiqot metodi bilan chambarchas bog'lanib ketadi. Uni tadqiqot loyihasini ishlab chiqish va amalga oshirish tarzida ham ko'rish mumkin.

1. Loyiha tuzish uchun mavzu tanlashda sizga taklif etilgan bosh mavzu bo'yicha mavjud muammolarni aniqlang.

2. Ular orasidan sizni qiziqtirgan hamda dolzarb deb bilan muammoni tanlang.

3. Muammoni yechish maqsadini qo‘yib, o‘qituvchi bilan maslahatlashib, mavzu nomini shakllantiring.

4. Loyihalash kichik guruhlarda bajarilishi nazarda tutilgan bo‘lsa, o‘z maslakdoshlaringizni toping va ular bilan yagona qarorga keling.

I. Loyiha faoliyatini bosqichma-bosqich bajarish uchun yo‘riqnoma

1 bosqich. Tayyorgarlik

1.1. Loyiha faoliyati jarayonida yechimini topish talab etiladigan muammoning maqsad, vazifa va loyiha natijalarini belgilang.

1.2. Loyiha faoliyati ishtirokchilari va ularning vazifalarini aniqlang.

1.3. Axborot manbalarini aniqlang.

2 bosqich. Loyiha faoliyatini rejalashtirish

2.1. Maqsadga erishish yo‘lini ishlab chiqing.

2.2. Ish rejasini tuzing:

2.3. Ishtirokchilar o‘rtasida loyihani ishlab chiqish bo‘yicha hamda uni rasmiylashtirish, taqdimotga va hisobotga tayyorlash bo‘yicha vazifalarni taqsmilang.

2.4. Erishiladigan natija va bajarish vaqtini aniqlang.

Loyihani bajarish bo‘yicha ish rejasi

Ishtirokchilar F.I	Vazifa	Ish mazmuni	Tayyor mahsul turi	Bajarish muddati

3 bosqich. Amalga oshirish

3.1. Olingan axborotni yig‘ing va ular asosida o‘z fikrlaringizni matn, jadval, chizma hamda sharhlash ko‘rinishida ifodalang, o‘z takliflaringizni bering.

3.2. Yakuniy natijalarni rasmiylashtiring (oxirgi mahsul).

3.3. Hisobotni tayyorlash yo‘riqnomasi asosida uni tayyorlang.

3.4. Loyihani Microsoft Power Point bo‘yicha tayyorlash yo‘riqnomasidan foydalanib, taqdimot tayyorlang.

3.5. Loyiha taqdimotida guruh a’zolari o‘rtasidagi vazifalarni aniqlang. Og‘zaki taqdimotga tayyorgarlik vaqtida uning qoidalariga rioya qiling, og‘zaki taqdimot sirlarini esdan chiqarmang.

II. Loyiha ishi to‘g‘risida hisobotga tayyorgarlik bo‘yicha yo‘riqnoma

1. Siz taklif, va tavsiya etayotgan loyihani tatbiq etishni isbotlovchi, xulosalarni (1 betdan ko‘p bo‘lmagan matn) asosida ifodalang.

2. Siz hal etmoqchi bo‘lgan muammoni 5-6 so‘z bilan asoslang**.**

3. Loyiha maqsadingizni, uni nima uchun yaratilishi, oxirgi mahsulni qanday bo‘lishi va u kimga qaratilganligini (1-3) taklif orqali ko‘rsating.

4. Loyiha vazifalarini (qisqa va lo‘nda) ifodalang.

5. Loyihaning ish rejasini (jadval) bayon eting.

6. Vazifani yechimi natijalarini va loyihada bajarilgan ishlarni ko‘rsating.

7. Siz taklif etgan loyiha mahsulini tatbiq etish imkonini tasdiqlovchi, xulosalarni shakllantiring.

8. Bajarilgan ish bo‘yicha foydalanilgan manbalar ro‘yxatini bering.

9. Baholang:

- loyiha sifatini;

- loyiha ustida ishlash jarayoni: ishning natijaviyligi, qiyinchiliklar va uni yengib o‘tish yo‘llarini.

10. Ilovalarni tarkiblashtiring: loyiha ishtirokchilarining anketalari va loyiha ishining ish materiallarini kiriting (xohishingizga ko‘ra).

IV. Loyihani MS Power Point da taqdimotga tayyorlash bo‘yicha yo‘riqnoma

1**.** Loyiha faoliyati natijalari to‘g‘risida MS Power Pointda taqdimotga ***tayyorlash jarayoni*** quyidagilardan iborat:

- taqdimot turini tanlash;
- taqdimotni umumiy rasmiylashtirishni tanlash;
- slaydlarni mazmuniga ko‘ra tanlash va tayorlash;
- zarur bo‘lganda slaydlarni rasmiylashtirshni o‘zgartirish, yangilarini qo‘shish;
- slaydlarni namoyish etish vaqtida turli ovozli animatsiyalarni yaratish.

2. Slaydlarni ***texnik namoyish etish*** quyidagi tavsiflarga javob berishi kerak:

➢ Slaydlar miqdori (8-12).

➢ *Slaydlarni mazmunli ko‘rsatkichlari:*

- birinchi slayd: loyiha nomi, muallif(lar) familiyasi, o‘quv guruhi, yaratilgan vaqti;
- oxirgi slayd axborot manbasiga bag‘ishlangan;
- boshqa slaydlar loyiha mazmunini ixtiyoriy shaklda aks ettiradi.

➢ Slaydlar o‘z-o‘zidan ishlash tartibida namoyish ettiriladi.

3. Taqdimotni rasmiylashtirish qoidasi

➢ Agarda, matn og‘zaki bo‘lsa, quydagicha bo‘lishi zarur:

- axborotga boy;
- aniq va qisqa;

- oddiy sintaktik qoidaga amal qilish (...quyidagilarga e'tibor bering, quyida taqdim etilayotgan... ro'yxatlar kabi aylantiruvchi kirish so'zlari kamroq bo'lishi) bularni barchasini ma'ruzachini o'zi gapirishi mumkin. Oddiy tuzilgan gaplar o'rni bilan tanishtiradi va yozuvni kattaroq qilishga imkon beradi;
- tushunarli, mantiqiy, aniq bo'lishi zarur. Jamoaga taqdim etish oldidan matnni tekshirishga erinmang.

➢ Ovoz tiniq bo'lishi kerak, taqdimotni ovozli qilish kerak emas, bunda sharhlovchini ovozini eshitib bo'lmaydi, eng yaxshisi ma'ruzachini jonli ovozi hisoblanadi.

➢ Rasmlar aniq va yetarlicha kattaroq bo'lishi zarur. Rasmlarni o'lchamini katta qilishga urinmang –faqatgina sifatni yo'qotasiz.

➢ *Video- tasmalar* taqdimot oynasini uch qismini egallashi zarur. Rasmlar namoyishli bo'lishi kerak. Bezaklar chalg'itishi mumkin.

➢ *Jadvallar* ajratuvchi ma'lumotlarni, xuddi shunday aniq, ularning tagiga yirik yozuvlardan, jadvallar nomlanishi zarur.

Jadvallarni haddan ziyod ma'lumotlar bilan to'ldirish kerak emas! Jadvalga qancha ko'p ma'lumotlar kiritilsa, ularni ekrandan qabul qilish qiyin bo'ladi.

Taqdimot boshlashdan avval auditoriyada o'tirganlarga jadval va rasm nusxalaridan tarqatish zarur.

➢ Chizmalar bir bo'limdan boshqa bo'limga aniq va mantiqiy ravishda o'tishga moslashtirilishi kerak. O'tish chiziqlari ekranda yaxshi ko'rinishini tekshiring.

V. Og'zaki taqdimotga tayyorlanishda rioya etiladigan, qoida

Og'zaki taqdimot qoidasi *(taqdimotda nimalar bo'lishi zarur?)*

* Muammo, loyiha maqsadi va vazifalarini ko'rsatish; ishni rejalashtirilishi va amalga oshirishini ko'rsatish;

* keltirilgan chizma, jadval, diagramma kabilarga sharh berish;

* muammoning yechimini topish jarayonining tahlili, natijalari;

* topilgan yechim, takliflar;

Shuningdek, taqdimotda qabul qilingan reglamentga rioya qilish zarur. Guruh a'zolarining tartibli chiqishini ta'minlash, harakatlarini kelishib olish.

Tugallangan jumla bilan hamda muhim joylariga urg'u berib, ajratgan holda fikrni ifodalash;

Taqdimot qilish madaniyatiga rioya qilish

Taqdimotda nima bo'lmasligi kerak?

1. Loyiha ishini batafsil yozilishi va loyiha mahsuli mazmunini qayta

gapirib berish; 2. Ishtirokchilarning chiqishlarida qarama-qarshiliklar; 3. Tushunib bo‘lmaydigan, noaniq fikrlar.

VI. Baholash mezoni va ko‘rsatkichlari

Baholash ko‘rsatkichlari o‘qituvchi tomonidan subyektiv ravishda uning tamoyillariga asoslangan holda ishlab chiqiladi. Shuning uchun ularning tanlanib olingan mezonlari bir-biridan farqlanishi mumkin. Lekin talabalar mazkur metod asosida bajargan ishlari qanday baholanishini oldindan axborotga ega bo‘lishlari oxirgi natijaviy yakunga katta ta’sir ko‘rsatadi.

Loyihada quyidagilar baholanadi:

- O‘quv loyihaviy faoliyati ***“tayyorlov, “rejalashtirishbosqichi”*** (maksimal, 5 ball);
- Natija mahsuli, hisobot (eng yuqori 10 ball);
- loyiha taqdimoti: og‘zaki taqdimot (eng yuqori 3 ball);

MS Power Point da bajarilgan taqdimot (eng yuqori 5 ball);

Ular asosida har biri uchun alohida mezon ishlab chiqiladi.

Loyihani bajarish bo‘yicha ish rejasini baholash mezoni va ko‘rsatkichlari

M E Z O N L A R	**Eng yuqori ball**
1. Tanlangan muammo va uning dolzarbligi	1
2. Loyiha mavzusi, ya’ni muammo, loyihada bajararidigan vazifa-ning mazmuni, natijaning uning rejasila ifodalanishi	2
3. Ish mazmuni qisqa, aniq, lo‘nda ifodalanishi	1
4. Loyiha topshirig‘ining kirish qismida maqsad va vazifalarni aniq, tushunarli tarzda qo‘yilishi	1
Jami	5

Talabalar tomonidan tayyorlangan loyiha natijasini baholash mezonlari:

M E Z O N L A R	Eng yuqori ball
1. Maqsad va vazifalar, ish natijasini aniq, tushnarli tarzda bayon qilinishi	1
2. Mazmunning belgilangan maqsadga muvofiqligi	0.5
3. Loyihaning mavzuga oid bo‘lgan yetarli miqdorda, sifatli axborot bilan ta’minlangani	1
4. Axborotlarning talab darajasida rasmiylashtirilishi	0.5

5. Xulosalarni ifodalash, muammoni yechish uchun berilgan taklif va tavsiyalar	**0.5**
6. Hisobot va uni rasmiylashtirish sifati	**1**
7. Foydalanilgan manbalar ro‘yxatini tuzish	**0,5**
8. Ilovalarning borligi	
Jami	5

Bajarilgan loyihaning og‘zaki taqdimoti va bajarilgan loyiha himoyasini baholash

M E Z O N L A R	Eng yuqori ball
1. Og‘zaki taqdimot qoidasiga rasmiy rioya etish	2
2. Taqdimotda barcha guruh a’zolari ishtirok etishi	**2**
3. Savollarga javoblarning asoslanganligi, mukammalligi, aniqligi	**1**
Jami	**5**

Loyihani MS Power Point da bajarilgan taqdimotini baholash

M E Z O N L A R	Eng yuqori ball
1. Loyiha taqdimoti bo‘yicha yo‘riqnomaga rasmiy rioya etilishi	1
2. Taqdimot slaydlarida loyiha maqsadi, mazmunining aks ettirilishi	2
Taqdimotda barcha guruh a’zolarining ishtirok etishi	**1**
Savollarga javoblarning asoslanganligi, mukammalligi, aniqligi	**1**
Jami	**5**

O‘qituvchi loyihada erishilgan natijalar bo‘yicha talabalarning o‘zini-o‘zi baholashni ham taklif etishi mumkin.

6. “KEYS STADI (CASE STUDY METHOD)” METODINI QO‘LLASH (*O‘quv loyihasi misolida)*

O‘qituvchi keys stadi metodini qo‘llash uchun uning **pedagogik pasporti (**tashkiliy-uslubiy ta’minoti**)ni** ishlab chiqadi. U quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

* keys bo‘yicha pedagogik annotatsiya;
* keys stadi topshirig‘i;
* talabalar uchun uslubiy ko‘rsatmalar;

* keys bilan ishlash natijasini baholash mezoni, ko‘rsatkichlari;

* keys stadi metodi asosida o‘tiladigan mashg‘ulotning texnologik xaritasi;

* o‘qituvchi tomonidan keysni yechish va tahlil qilish varianti.

I. KEYS BO‘YICHA PEDAGOGIK ANNOTATSIYA

Fanning nomi: “Iqtisodiyot nazariyasi”

Mavzuning nomi: “Ishchi kuchi bandligi va ishsizlik ”

Keys mavzusi: “O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligida bandlik muammosi”

1. Yaratilgan keysning maqsadi: talabalarning nazariy bilimlarini chuqurlashtirish hamda bandlik va ishsizlikni tahlil qilishni o‘rganish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni hosil qilish va ishsizlikni kamaytirish uchun takliflar ishlab chiqishdan iborat.

2. Keys o‘z yechimi muvaffaqiyatli topilganda talabalar quyidagi natijalarga erishadilar:

- mavzu bo‘yicha muammoni mustaqil aniqlashtiradi va hal etish qobiliyatini shakllantiradi;
- muammoli holatlarda harakat qilish qobiliyatini rivojlantiradi;
- ishchi kuchi kategoriyasi, uning miqdor va sifat o‘lchamlarini tahlil qilishni o‘rganadi;
- band bo‘lgan aholining iqtisodiyot sektorlari bo‘yicha taqsimlanishi;
- ishsizlik darajasini o‘lchashni o‘rganadi;
- ishsizlikning shakllanishi bilan bog‘liq muammoli vazifalarni hal etishda nazariy bilimlarini qo‘llaydi;
- ishsizlikni kamaytirish bo‘yicha takliflar berishni o‘rganadilar.

Mazkur keys statistik ma’lumotlar asosida modellashtirilgan vaziyatga ko‘ra ishlab chiqilgan.

Keysda foydalanilgan ma’lumotlar manbai*:*

O‘zbekiston Davlat statistika qo‘mitasining ma’lumotlari

Ushbu keysni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun oldindan talabalar quyidagi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lmoqlari zarur:

Talaba bilishi kerak:

- ishchi kuchi, mehnat resurslari, uning miqdor va sifat o‘lchamlari ta’sir etuvchi omillarni bilishi;
- mexnat resurslari bilan iqtisodiy faol aholini farqlay olishi;
- ishchi kuchini takror hosil qilish va uning xususiyatlari;
- - ishsizlik va uning turlari. Ishsizlik darajasini aniqlash;
- - ishsizlikning iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlari;

Talaba amalga oshirishi kerak:

- band bo‘lgan aholining iqtisodiyot sektorlari bo‘yicha taqsimlanishini ko‘rib chiqadi;
- ko‘rsatkichlarni aniqlashtirishda jadvallardan foydalanadi;
- agrar sektorda ishsizlikka ta’sir etuvchi omillarni aniqlaydi.

Talaba ega bo‘lmog‘i kerak:

- kommunikativ ko‘nikmalarga;
- taqdimot ko‘nikmalariga;
- hamkorlikdagi ishlash ko‘nikmalariga;
- muammoli holatlarni tahlil qilish ko‘nikmalariga.

Manbalardan foydalanish uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Jo‘raev T., Tojiboeva D. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: Fan va texnologiya, 2-qism, 2015.

2. Tojiboeva D. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2-qism, 2003.

3. Shodmonov Sh. G‘afurov U. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: Fan va texnologiya, 2010.

4. O‘lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: Iqtisod-Moliya, 2014.

5. O‘zbekiston iqtisodiyoti. Statistik to‘plam. T., 2016.

6. Internet saytlari.

Bu oquv adabiyotlaridan tashqari talabalar mavzuga muvofiq ilmiy adabi-yotlar: monografiya, ilmiy jurnal maqolalarinini izlab topishlari, foydala-nishlari va ro‘yxatga kiritishlari zarur.

Texnologik xususiyatlardan kelib chiqqan holda keysning tavsifnomasi:

Ushbu keysning asosiy manbai kabinetli, lavhali bo‘lib, iqtisodiy vaziyatlar asosida bayon etilgan. Keysning asosiy obyekti qishloq xo‘jaligi tarmog‘i hisoblanadi. Mazkur keys tashkiliy institutsional bo‘lib, ma’lumotlar vaziyatlar va savollar asosida tuzilgan. Hajmi o‘rtacha, tizimlashtirilgan bo‘lib, treningga mo‘ljallangan o‘quv mavzusi bo‘yicha bilim va ko‘nikmalar hosil qilishga qaratilgan. O‘quv mavzusi bo‘yicha malaka va ko‘nikmalar orttirishga mo‘ljallangan. Shuningdek, keysni tahlil va baholashga o‘rgatuvchi, muammoni ajratish va yechish, boshqaruv qarorlari qabul qilishga o‘rgatuvchi sifatida ko‘rsatish mumkin.

Ushbu keysdan “Iqtisodiyot nazariyasi”, “Mehnat iqtisodiyoti” kabi fanlarni fanlarining amaliy mashg‘ulotlarida keng foydalanish mumkin.

KIRISH

“Bandlik va ishsizlik” mavzusi fanni o‘rganishda, iqtisodchilar tayyorlashda alohida ahamiyatga ega mavzu hisoblanadi, chunki bandlik avvalo har bir kishi, oilaning turmush darajasini belgilasa, qolaversa butun mamlakat taraqqiyotida asosiy rol o‘ynaydi.

Mamlakatimizda kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, fermerlikni shakllantirish va rivojlanishi, yirik davlat korxonalarini aksiyadorlik jamiyatlariga, kolxoz va sovxozlarni avval jamoa xo‘jaliklariga aylantirish, so‘ngra qishloqda fermer xo‘jaliklarini tashkil etilishi, institutsional islohotlar amalga oshirilishi natijasida iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarida turli mulkchilik shakllariga asoslangan korxonalar, xo‘jalik yuritish shakllari vujudga kelishiga olib keldi. Natijada respublikamizda ishchi kuchi va bandligi bo‘yicha ham tub o‘zgarishlar yuz berdi.

Ma’lumki, bozor iqtisodiyotining amal qilishida talab va taklif qonunlari muhim o‘rin tutadi. Mehnatga talab ham uning taklifi orqali qondiriladi.

Mamlakatimizda iqtisodiyot tarmoqlarida band bo‘lganlarning tarkibiga qaraydigan bo‘lsak, uning eng katta ulushi 27,7 foizni qishloq xo‘jalik tarmog‘i tashkil etadi. Shu bilan birga bu tarmoq qisqaruvchi tarmoq, ya’ni YAIMda ulushi kamayib borayotgan tarmoq bo‘lib, bu shu tarmoqdagi bandlik muammosini o‘tkirlashtiradi. Shuning uchun ham bu masalaga jiddiy e’tibor berilmoqda. Mazkur keysda ham aynan shu tarmoqda bandlik muammosini o‘rganish va yechish yo‘llarini ko‘rsatishga diqqat qaratiladi.

Keysning asosiy vazifasi - bozor iqtisodiyoti sharoitida ishsizlikni tabiiy darajasi, ishsizlikni tabiiy darajadan ortib ketishi qanday myammolarni keltirib chiqarishini hamda ularni yechimini topishga yo‘naltirish.

Mazkur keysni yechish orqali quyidagi o‘quv natijalariga erishish ko‘zda tutiladi:

- O‘rganilgan mavzu bo‘yicha bilimlarni mustahkamlash;
- Respublika aholisi dinamikasi, mehnat resurslsri, iqtisodiy faol aholi, ish bilan bandlik va ishsizlik turlari va darajasi hamda muammolari o‘rganiladi. Yig‘ilgan axborotlar, statistik ma’lumotlar, hisob-kitoblar tahlil qilinadi.
- Muammoni ilg‘ash, tahlil qilish, qaror qabul qilish ko‘nikmalari shakllantiriladi.
- Mavzu bo‘yicha o‘quv ma’lumotlarini o‘zlashtirish natijalari aniqlanadi.
- Agrar sektorda bandlikning samarasini oshirish uchun takliflar ishlab chiqiladi;
- Olgan bilimlari amaliy ish yordamida mustahkamlanadi va ishlab chiqarishga borganda amaliyotda qo‘llash ko‘nikmasi hosil bo‘ladi.

II. VAZIYAT VA MUAMMO TAVSIFI

“Bandlik va ishsizlik” mavzusi fanni o‘rganishda, iqtisodchilar tayyorlashda alohida ahamiyatga ega mavzu hisoblanadi, chunki bandlik avvalo har bir kishi, oilaning turmush darajasini belgilasa, qolaversa butun mamlakat taraqqiyotida asosiy rol o‘ynaydi.

Bozor iqtisodiyoti ma’lum darajada ishsizlik bo‘lishi, mehnat omilining rezerv armiyasining mavjud bo‘lishini taqozo etadi. Sababi, bozor iqtisodiyotida xaridorning izni ustun turadi. Buning uchun xaridor tanlab olish inkoniyatiga ega bo‘lishi kerak. Shunday imkoniyat ish kuchi taklifi talabga qaraganda ko‘p bo‘lgandagina vujudga keladi.

Ishsizlikni mavjudligi tufayli ish bilan band bo‘lganlar mehnat intizomini buzmaslikka, sifatli mehnat qilishga intilishadi. Ishsizlik kishilarni zarur malakaga ega bo‘lishga, o‘z ustilarida ko‘proq ishlashga undaydi. Ana shu ma’lum miqdordagi ishsizlik deb ataldi. Iqtisodchilarning fikricha u 4-5%ni taskil etishi kerak.

Respublikamizda ishsizlik darajasi quyidagicha:

1-jadval

O‘zbekistonda ishsizlik darajasi, (2010–2018-yillar)

Ko‘rsatkichlar	Yillar			
	2010	2015	2017	2018
Iqtisodiy faol aholi (ming kishi)	12286,6	13737,3	14357,3	14641,7
Iqtisodiyot tarmoqlari bo‘yicha bandlar (ming kishi)	11628,4	13058,3	13520,3	13273,1
Ishsizlar soni (ming kishi)	658.2	679.0		
Ishsizlik darajasi, %	5.4	5.2		

Manba: O‘zbekistonda mehnat va bandlik. **Statistik to’plam.** -Toshkent, 2015, 2019 yillar.

Ko‘rinib turibdi, ishsizlik darajasi tabiiy darajadan oshmayapti, lekin shunga qaramay bandlik muammosi nafaqat bizni respublikamizda, balki barcha mamla-katlarda doimo dolzarb masala hisoblanadi. Ayniqsa, qishloq xo‘jaligi yalpi mahsuloti YAIMning 17% atrofida tashkil etgani holda milliy iqtisodiyotda band bo‘lganlarning 26,7-27.7 % tashkil etadi. Buni quyidagi statistik ma’lumotlar ham ko‘rsatib turibdi.

2-jadval

Bandlikning tarmoqlararo tarkibi, %da

Tarmoqlar	Yillar			
	2010	2015	2017	2018
Iqtisodiyotda jami bandlik	100	100	100	100
- sanoatda	13.2	12.8	13,5	13,5
- qishloq xo‘jaligi*	26.9	27.7	27,2	26,6
- transport va aloqa	5.2	5.4	5,3	5,4
- qurilishda	9.2	9.6	9,5	9,1
- savdoda, maishiy-ovqatlanishda, ta’minotda	10.7	11.3	11,0	10,6
Uy-joy va kommunal xo‘jaliklarida, noishlab chiqarish maishiy xizmat ko‘rsatishda	3.4	3.7	2,3	2,3
Sog‘liqni saqlashda, jismoniy tarbiya va sportda, ijtimoiy ta’minotda	7.7	7.1	4,5	4,5
Ta’lim, madaniyat, san’at, ilm-fan va ilmiy ta’minotda	13.8	12.6	8,7	8,9
Moliya, kredit, sug‘urta va nafaqa ta’minotida	06.	0.5	0,5	0,5
Davlat va ma’muriy boshqaruv tashkilotlarida	…	…	…	…
Boshqalarda	9.3	9.9	17,6	18,6
*Izoh: 2016-yildan boshlab qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaliklari				

Manba: O‘zbekistonda mehnat va bandlik. T., 2015, 35-bet, O‘zbekiston raqamlarda. T.,2016.62-bet.

Siz umidli, malakali yosh iqtisodchi sifatida bu masalaga qanday yondoshgan bo‘lar edingiz? Agrar tarmoqda shuncha ish kuchining band bo‘lishi natijasi qanday oqibatlarga olib keladi, deb o‘ylaysiz?

Bu muammoni qanday yechishni taklif qilasiz?

III. TALABA UCHUN UCHUN USLUBIY KO‘RSATMA VA YO‘RIQNOMA

Bunda to‘g‘ri qaror qabul qilish uchun vaziyatni to‘g‘ri baholay olish, buning uchun zarur axborotlarni to‘plash, hisob-kitob qilish, ularni tahlil qilish, asosiy yo‘halishlarni belgilash talab etiladi.

Keysni yechish uchun talabalarga ko‘rsatmalar:

Keys statistik ma’lumotlar jamlanmasi asosida tuzilgan bo‘lib, uning obyekti O‘zbekistonning aholisi va mehnat resurslari va ularning tarmoqlar

bo‘yicha taqsimlanishi hisoblanadi. Mamlakat hududi va alohida mintaqalari subyektlari hisoblanadi.

Keys stadini pedagogik annotatsiyasidan boshlab so‘nggi qismgacha to‘liq o‘rganib, diqqat bilan o‘qib chiqing. Pedagogik annotatsiya va kirish qismlaridagi ma’lumotlar ushbu keysni bajarishingiz va amaliyotda qaysi paytlarda qo‘llashingiz mumkinligi haqida, shuningdek, keysning maqsadi va zarurati to‘g‘risidagi tasavvuringizni boyitadi. Axborot qismida esa keysning umumiy topshiriqlari uchun axborotlarni hamda uni bajarishda qo‘l keladigan nazariy va amaliy manbalarni o‘rganasiz. Shuningdek, muammolar va ularni bajarish topshiriqlari ham axborot qismida yoritib o‘tilgan. Uslubiy qismda esa keysni bajarishning konseptual asoslari va texnologiyasi bilan tanishtiriladi. Shu bilan bir qatorda keysni yechimini topgan talabalarning baholanish siyosati ham keltirib o‘tilgan.

Berilgan vaziyat bilan tanishishda axborot qismini diqqat bilan o‘rganing. Mazkur qismda keysni bajarishning nazariy ma’lumotlari aniq ko‘rsatib o‘tilgan bo‘lib, mazkur jarayonni yengillashtiradi va yechim topishga sarflanadigan vaqt sarfini kamaytiradi. Amaliy axborot esa topshiriqni bajarishda birlamchi axborot manbaalari bo‘lib hisoblanadi. Har bir raqam va ko‘rsatkichlarga diqqat bilan nazar soling, ularning orasidagi o‘zgarishlarga o‘z e’tiboringizni qarating. Shunda topshiriqlarni bajarish jarayoni yengillashadi.

Qo‘yilgan muammoni yechish uchun *talabalar quyidagi ketma-ketlikka rioya qilishlari zarur:*

1. Keys va uning axborot ta’minoti bilan tanishish:

* Vaziyat haqida to‘liq tasavvurga ega bo‘lish uchun eng avvalo axborot to‘planib, ularni sinchiklab o‘rganib chiqiladi. Axborotni o‘rganish jarayonida uni tahlil qilishga urinmaslik kerak.

* Davlatning bandlik siyosati. Davlat tomonidan ko‘riladigan aktiv va passiv tadbirlar, bandlik bo‘yicha qabul qilingan qonun va me’yoriy hujjatlar o‘rganiladi.

* Yig‘ilgan axborotni qayta ko‘zdan kechirib, muhim ahamiyatga ega deb topganlaringizni alohida ajrating.

2. Berilgan vaziyat bilan tanishish.

Vaziyatni tavsiflashga harakat qiling. Uning mohiyati nimada? Asosiy muammo nima? Qaysi biri ikkinchi darajali, aniqlang. Asosiy muammo va undan kelib chiqqan qanday muammolar borligini yozib qo‘ying.

3. Ko‘rsatkichlarni tushunib olish va aniqlik kiritish.

Hamma dalillar, faktlarni hisobga oling. Shnday qilinsa, axborotlar, ma’lumotlar bog‘liqligini aniqlash oson bo‘ladi.

4. Tahlil uchun zarur ko‘rsatkichlar hisob-kitobini bajaring, dinamik o‘zgarishlarni ko‘rsatish uchun jadval va diagrammalar ishlab chiqing. Muammoni hal etish uchun statistik ma’lumotlar to‘plash va hisob-kitoblarni amalga oshirish talab etiladi.

5. Tavsiya etilgan yechimlarni to‘g‘riligini aniqlash mezonlarini ishlab chiqing. Bandlikning noan’anaviy shakllariga diqqat qarating.

6. Muammoli vaziyatning tahlili:

***** Muqobil variantlarni topishga harakat qiling. Ulardan qaysi biri mezonlar bo‘yicha qaror qabul qilish uchun ko‘proq to‘g‘ri keladi, tanlang.

* Amaliy tadbirlar ro‘yxatini ishlab chiqing. Ko‘pincha, qabul qilingan qaror asosida erishilgan natijalar zarur. Amaliy chora-tadbirlar ko‘rilmagani tufayli muvaffaqiyatsizlikka olib keladi.

Keys yechishni tashkil etish:

Keysni individual, kichik guruhlarda yechishni tashkil etish mumkin. Guruhni kichik guruhlarga bo‘lib yechish rejalashtirilsa ko‘zda tutilgan masalalarni hal etish uchun vazifalar taqsimlanadi.

Har bir kichik guruh o‘z ish rejasini ishlab chiqadi. Muvofiq ravishda qanday axborotlar zarurligini aniqlaydi, to‘playdi. Axborotlar ustida ishlaydi, hisob-kitob qiladi, ular asosida jadvallar va chizmalar, diagrammalar tayyorlaydi. Iqtisodiy ko‘rsatkichlarni tahlil qiladi, ular asosida xulosa chiqarishadi. Muammoni yechish variantlari ko‘rsatiladi. Taqdimot tayyorlanadi.

Ish natijalari bo‘yicha kichik guruhlar taqdimoti va muhokamasi.

1.Kichik guruhlar taqdimot qiladilar, muammoni yechish variantlarini tavsiya etadilar.

2. Taqdimotlar va berilgan takliflar muhokama qilinadi.

3. Keysolog tomonidan berilgan keys yechimi (taklifi) bilan solishtiriladi.

IV. KEYSOLOGNING XUSUSIY JAVOB VARIANTI

Keysolog taklifi. Band bo‘lganlarning asosiy qismi qishloq xo‘jaligida bo‘lib, umumiy ish bilan bandlarning 26,7 foizini tashkil etadi. Qishloq xo‘jaligining YaIMdagi hissasi esa 17,5%. Shuning uchun bandlik myammosini hal etishda birinchi navbatda qishloq xo‘jaligida bandlikka diqqat qaratish zarur. Buning uchun:

1. Qishloqda infratuzilmani rivojlantirish.

2. Ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash orqali qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlashni rivojlantirish.

3. Ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklarini tashkil etish.

4. O‘zini o‘zi band qilishni moliyaviy qo‘llab quvvatlash.

V. KEYS BILAN ISHLASH JARAYONINI BAHOLASH MEZONLARI VA KO‘RSATKICHLARI

Ish natijalari va taqdimotni baholash.

Baholash mezonlari va ko‘rsatkichlari

Mezonlar	Maks. ball	Guruhlar ballari				
		1	2	3	4	5
1 Tanlangan muammo va uning dolzarbligi	**1**					
2.Keys yechish uchun dastur ishlab chiqish:	**1**					
- zarur axborotlar va iqtisodiy ko‘rsatkichlarni to‘g‘ri aniqlash						
- bajariladigan vazifalarni to‘g‘ri belgilash						
3.Yig‘ilgan axborotlar bilan ishlash	**2**					
- statistik ma’lumotlar bilan ishlash	0,5					
- hisob-kitoblarni jadval. grafik va diagrammalarda aks ettirish	0,5					
- axborotni mantiqiy izchillikda bayon qilish, ma’lumotlarni tahlil qilib, xulosa chiqarish	0,5					
- yechim variantlarini taklif qilish	0,5					
4. Taqdimot	**1**					
- bayon qilishda mantiqiy izchillik, aniqlik	0,2					
- ish mazmuni qisqa, aniq, lo‘nda ifodalanishi	0,2					
- muhokamalarda faollik	0,2					
- taklif va tavsiyalarni qo‘ya bilish	0,2					
- reglamentga rioya qilish	0,2					
Jami	**5**					

Real hayotda o‘zi duch kelgandagi vaziyatga qaraganda o‘qish jarayonidagi yaratilgan muammoli vaziyat, ya’ni ana shunday vaziyat ifodalangan topshiriqda berilgan muammolar bo‘yicha axborotlar kam bo‘lishi mumkin. Lekin bu muho-kama jarayonida qo‘shimcha axborotlar olib bo‘lmaydi degani emas. Qaror qabul qilish uchun axborot yetarli bo‘lmasa uni to‘ldirish mumkin.

Undan tashqari shunday muammoli vaziyatdan avval qanday qilib chiqib ketilgani, qandoq chora-tadbir ko‘rilganini aytib, uni ham muhokama qilish mum-kin. Lekin bu degani, yana aynan ana shu yechim qabul qilinadi degani emas. Undan tashqari u yechim yaxshi yoki yomon ekanligini albatta muhokama qilish shart emas.

7. “TANQIDIY NAZAR” METODINI QO’LLASH

Magistrlar uchun quyidagicha topshiriq tayyorlaymiz.

1-topshiriq: Qo‘lingizda “Moliya” ilmiy jurnalining 2014-yil, 4-soni turibdi. Unda bir-biriga yaqin mavzuda ikki maqola berilgan. Biri Sh. Musalimovning “Tartibga soluvchi soliqlarning mahalliy byudjet daromadlarini shakllantirishdagi ahamiyati”, ikkinchisi, A. Islamkulovning “Bevosita soliq tushumlarining mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantirishdagi ahamiyati” deb ataladi. Matnda qanday masala, muammo qo‘yilganini, uni kelib chiqish sabablari, muallifning takliflarini aniqlang.

2-topshiriq. Har ikki muallifning takliflarini solishtiring. Ularning umumiy jihatlari va farqlarini aniqlang.

3-topshiriq. Masalani, muammoni yechish bo‘yicha muallif fikridan farqlanuvchi o‘z taklifingizni bering. Uni individual javob varaqasida aks ettiring**.**

4-topshiriq. Individual javoblarni kichik guruhlarda muhokama qiling. 2014-yildan boshlab bu sohada qanday o‘zgarishlar yuz berdi, ko‘rsating. Ulardan eng to‘liq fikr, yangi g‘oya bildirilganlarini tanlang va guruhda taqdimot qiling.

1-topshiriq:

Individual javob varaqasi

SH. Musalimov. Tartibga soluvchi soliqlarning mahalliy byudjet daromadlarini shakllantirishdagi ahamiyati. Moliya, 2014-yil, №4, 70-74-betlar.		
1-muallif tomonidan qo‘yilgan muammo, masala	Muammoning kelib chiqish sabablari	Mummoni yechish uchun 1 muallif tomonidan bildirilga fikr
1	2	3
A. Islamkulov. Bevosita soliq tushumlarining mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantirishdagi ahamiyati. Moliya, 2014-yil, №4, 74-78-betlar.		
2-muallif tomonidan qo‘yilgan muammo, masala	Muammoning kelib chiqish sabablari	Muammoni yechish uchun 2 muallif tomonidan bildirilga fikr
1	2	3

2-topshiriq:

Individual javob varaqasi

Har ikki muallif fikrlarining umumiy jihatlari	Mualliflar fikrlaridagi farqlar	Muammoni yechish uchu magistr tomonidan bildirilga fikr
1	2	3

3-topshiriq. **Kichik guruhning javob varaqasi**

Kichik guruh a’zo-larining individual javoblari	2014-yildan boshlab shu sohada yuz bergan o‘zgarishlar	Kichik guruh tomonida tanlangan javob
1	2	3

Ajratilgan vaqt tugagach, javoblar muhokamasi boshlanadi. Kichik guruh taqdimotini uning a’zolari kelishuviga ko‘ra tanlangan magistr og‘zaki yoki mulhtimedia yordamida bajarishi mumkin. Unda guruhning muallif fikridan tashqari muammoni yechish uchun qo‘shimcha qanday fikri bo‘lsa, uni qo‘llab quvvatlasa yoki aksincha bo‘lsa u ham guruh diqqatiga havola qilinadi.

O‘qituvchi topshiriqni baholash jadvalini ham tarqatma material tariqasida tayyorlashi mumkin.

Barcha kichik guruhlar taqdimot qilishadi. Muammolar bo‘yicha guruhda fikr almashiladi. Har bir kichik guruh o‘zlarini va boshqa kichik guruhlarning javoblarini baholashadi. O‘qituvchi ish natijalarini tahlil qilib, ballarini e’lon qiladi, darsni yakunlaydi.

8. “SINKVEYN” METODINI QO’LLASH

Aytaylik, xarajat uning sinonimi sarf. O‘qituvchi sinonimni talabalarga aytmaydi.

O‘qituvchi “Xarajat” deb doskaga yozib, talabalarga murojaat qiladi. Qanday xarajatlar bor? Bunda har bir o‘quvchi-talabadan xarajatning sifat ko‘rsatkichlarini keltirish, faqat aytilganlarni takrorlamaslik ko‘rsatiladi.

O‘quvchi-talabalar xarajat turlarini: o‘zgaruvchi, doimiy, me’yoriy, ichki, tashqi, moddiy, umumiy, o‘rtacha, davr va hokazolarni keltirishlari mumkin. Ana shu ifodalangan variantlardan o‘qituvchi eng muhimi 2 tasini ajratib ko‘rsatishni taklif qiladi. O‘quvchi-talabalar umumiy va doimiy xarajatlarni taklif qilishsin.

U xolda sinkveynimiz quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi.

Xarajat

umumiy, doimiy

Agarda variantlar ichidan ta’lim oluvchilar ahamiyati jihatidan noto‘gri tanlashsa, o‘qituvchi qo‘shimcha savollar bilan to‘g‘risini tanlashga yordam beradi.

Navbatdagi savol “Xarajatlar nima qilinadi?” harakatlarni ifodalovchi so‘zlar, ya’ni xarajatlar bilan bajariladigan amallarni topishimiz zarur bo‘ladi.

O‘quvchi-talabalar: aniqlash, taqqoslash, solishtirish, kamaytirish, ko‘paytirish, belgilash, hisoblash, bo‘lish, olish, rozi bo‘lish, chora ko‘rish va hokazolarni keltirishsin. O‘qituvchi endi ana shu ko‘rsatilganlardan xarajatlarga nisbatan eng muhimlarini ajratib ko‘rsatishni taklif qiladi.

O‘quvchi-talabalar hisoblash, taqqoslash, kamaytirishni taklif qilishdi deylik. U holda sinkveynimiz quyidagicha ifodalanadi.

Xarajat
umumiy, doimiy
hisoblanadi, taqqoslanadi, kamaytiriladi

Navbatdagi bosqich xarajat bilan aloqadorlikni, uning mazmun-mohiyatini ifodalovchi 4 so‘z (so‘z birikmasi)dan iborat gap, jumla tuzishimiz kerak. O‘qituvchi o‘zi misol keltiradi, so‘ngra o‘quvchi-talabalarga tuzgan gaplarini aytishlarini taklif etadi. Agarda ularning soni guruhda ko‘p bo‘lsa, kichik guruhlarga ajratiladi. Kichik guruh o‘z fikrini bildiradi. Bo‘lmasa vaqtni ko‘p ketkazib qo‘yish mumkin. Aytaylik, talabalar quyidagicha tuzilgan gaplarni keltirishsin:

1. Xarajatning ko‘payishi narxlarni ko‘taradi.
2. Narxning shakllanishi xarajatlarga bog‘liq.
3. Davr xarajatlari foydadan qoplanadi.
4. Raqobatda muhim omil hisoblanadi.
5. Odamlarni manfaatiga ta’sir ko‘rsatadi.
6. Xomashyo o‘zgaruvchan xarajatga kiradi.
7. Amortizatsiya doimiy xarajat hisoblanadi.
8. Er solig‘i doimiy xarajat.
9. Xarajat summasi narxga bog‘liq.
10. Xarajatlarni tejovchi tadbirkor yutadi.
11. Xarajatlarning ko‘payishi raqobatbardoshlikni pasaytiradi va hokazolar.

Ularni orasidan eng yaxshi, xarajatning mazmunini, xususiyatlarini ochib berishga yordam qiladigan deb qaysi birini tanlaymiz, deya murojaat qilinadi. Aytaylik, 11 gap talabalar tomonidan tanlansin. U holda sinkveynimiz quyidagicha bo‘ladi:

Xarajat
o‘zgaruvchan, doimiy
hisoblanadi, taqqoslanadi, kamaytiriladi
Xarajatlarning ko‘payishi raqobatbardoshlikni pasaytiradi

Endi xarajatga sinonim so‘zni topamiz yoki mavzu mohiyatini takrorlovchi, ma’nosi unga yaqin bo‘lgan bitta gap yoziladi (mavzuga doir sinonimlar asosida gap yoziladi)

U sarf. Bizning sinkveynimiz to‘laligicha quyidagicha bo‘ladi:

Xarajat

o‘zgaruvchan, doimiy;

hisoblanadi, taqqoslanadi, kamaytiriladi;

Xarajatlarning ko‘payishi raqobatbardoshlikni pasaytiradi

Sarf

Bu yerda o‘quvchi-talabalarga o‘qituvchi xarajatning yana bir sinonimi borligi, uni ikki harfini almashtirilsa, xarajatga qarama-qarshi kategoriya hosil bo‘lishi, ana shu kategoriyalar qatnashgan uch so‘zdan iborat o‘zbek xalq maqolini bilasizmi? deb murojaat qilishi mumkin.

Bu maqol “Daromadga qarab buromad”

Bu metodni boshqacha usul bilan sinonim so‘z, kategoriya bilan emas, balki antonim so‘z, kategoriya topish tarzida o‘tkazish mumkin. Ayniqsa, iqtisodiy fanlarda bunday kategoriyalar mo‘l.

Uni 2 xil yo‘l bilan o‘tkazish mumkin:

1. Birinchi qo‘yilgan so‘z kategoriyaga xos sifat, harakat, gap tuzish yo‘li bilan;

2. Aksincha unga zid bo‘lgan sifat harakat, jumla bilan. Senkveynning modifikatsiyasi quyidagicha bo‘ladi:

Misol:

Foyda	Zarar
qonuniy, yalpi	kutilmagan, yalpi
hisoblanadi, olinadi, taqsimlanadi	hisoblanadi, olinadi, qoplanadi
Firmaning mavqeiga ta’sir qiladi	Firmaning mavqeiga ta’sir qiladi
Zarar (foydaning aksi)	Foyda (zararning aksi)

Xullas, bu metodni ham turli variantlarda qo‘llash mumkin. U o‘qituvchining mahoratiga bog‘liq.

9. “NILUFAR GULI” CHIZMASI METODINI QO’LLASH

“Nurafshon” firmasi mahsulotlariga raqobat kuchaydi. Raqobatbardosh-likni oshirish uchun unga ta’sir ko’rsatuvchi omillar va muammolarni aniqlash zarur.

“NURAFSHON” firmasida muammoni hal qilish uchun mo‘ljallangan choralarni ishlab chiqish



Masalan. “Fayz” korxonasi mebel ishlab chiqarish uchun zarur xomashyo 500 kv.m. laminatsiyalangan DSP ishlab chiqarish uchun quyidagi xarajatlarni sarfladi: xomashyo va materiallarga 15 009 ming so‘m, yonilg‘i va elektroenergiyaga 600 ming so‘m, asosiy ish haqi va unga ajratmalar 1009 ming so‘m, bilvosita (egri) material xarajatlari 140,8 ming so‘m, bilvosita (egri) ish haqi xarajatlari 350,8 ming so‘m. Ayrim ishlarni yordamchi ishlab chiqarishda bajariladi. Uning xarajatlari 400 ming so‘m. Ma’muriy xarajatlar 300 ming so‘m. Qo‘shilgan qiymat solig‘i 1522 ming so‘m. Mahsulotning ishlab chiqarish tannarxini hisoblang va schyotlar korrespondensiyasida ifodalang.

Berilganlar:		
	Xarajatlar	Summasi, ming so‘m
1.	Xomashyo va materiallarga	15009
2.	Yonilg‘i va elektroenergiya	600
3.	Asosiy ish haqi va ish haqiga ajratmalar	1009
4.	Bilvosita (egri) material xarajatlari	140,8
5.	Bilvosita (egri) ish haqi xarajatlari	350,8
6.	Yordamchi ishlab chiqarish	340
7.	Ma’muriy xarajatlar	300

8.	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	1522
Topish kerak: Mahsulotning ishlab chiqarish tannarxini ?		

Yechish: Mahsulotning ishlab chiqarish tannarxini hisoblash uchun jami xarajatlarni topib, ishlab chiqarilgan mahsulot miqdoriga bo‘lamiz. Buning uchun mahsulotning tannarxiga qo‘shiladigan va qo‘shilmaydigan xarajatlarni aniqlashimiz kerak.

Bizda ma’muriy xarajatlar tannarxga qo‘shilmaydi, ular foydadan qoplanadi. Qo‘shilgan qiymat solig‘i ishlab chiqarish tannarxiga kiritilmaydi. U tannarx ustiga qo‘shiladi va korxonaning ulgurji bahosida aks etadi.

Qolgan xarajatlarimiz tannarxga kiradi va ularni qo‘shib jami xarajatlarni topamiz. U holda hisob-kitobimiz quyidagicha bo‘ladi: Jami xarajatlar = 15009+600+1009+140,8+ +350,8+340 = 17449,6 ming so‘m.

Bir kvadrat metr DSPning ishlab chiqarish tannarxi 17309,6: 500= 35,6 ming so‘m. Javob: DSPning tannarxi: 35,6 ming so‘m.

Xarajatlarni schyotlar korrespondensiyasida ifodalashimiz quyidagicha bo‘ladi:

№	**Xo‘jalik muomalalarining mazmuni**	Summa, ming so‘m	Schyotlar korrespon-densiyasi	
			Debet	Kredit
1.	Xomashyo va materiallarga	15009	2010	1010
2.	Yonilg‘i va elektroenergiya	600		
3.	Asosiy ish haqi va ish haqiga ajratmalar	1009	2010	6710 6520
4.	Bilvosita (egri) material xarajatlari	140,8	2010	2510, 1010
5.	Bilvosita (egri) ish haqi xarajatlari	350,8	2010	2510, 6710
6.	Yordamchi ishlab chiqarish	340	2310	6710; 6520;
	Mahsulot tannarxiga yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari qo‘shiladi	340	2010	2310
	Tayyor mahsulotning omborga topshirilishi aks ettiriladi	17449,6	2810	2010

Agarda umuishlab chiqarish xarajatlarini tannarga qanday qo‘shilishini ham o‘rganishni ko‘zda tutadigan bo‘lsak, material xarajatlari, ish haqi xarajatlari va boshqa tannarxga qo‘shiladigan xarajatlarni umumiy summasi bilan birga uni hisoblash uchun zarur boshqa ko‘rsatkichlarini ham beramiz va muvofiq ravishda hisob kitobni amalga oshirib, tannarxga qo‘shiladigan xarajatlarni aniqlash ko‘zda tutiladi.

8. Esse yozish metodini qo‘llash

Esse - muallifning individual pozitsiyasini, dunyoqarashini alohida ajratib ko‘rsatish orqali erkin yozma bayon qilishga yo‘naltirilgan, talabalarni iqtisodiy fikr yuritish va uni yozma ravishda ifodalashga o‘rgatadigan va ularning bilimini baholashda qo‘llaniladigan metod.

Uni yozish muallifga o‘z fikrini aniq va savodxonlik bilan shakllantirish axborot tarkibini tizimlashtirish, asosiy tushunchalardan to‘g‘ri foydalanish, sabab-oqibatli bog‘lanishni ajratish, o‘z xulosalarini misollar, dalillar bilan isbotlashga o‘rgatadi.

Essega turli jihatdan yondashib, har xil guruhlarga ajratiladi. Ulardan eng diqqat qaratiladigani uning qaysi nuqtai nazardan qarashga ko‘ra:

● Shaxsiy, subyektiv esse, uning asosiy jihati muallif shaxsini u yoki bu tomonini ochib berishga qaratilgan;

● Obyektiv esse, shaxsiy yondashish, yozilishi lozim bo‘lgan predmetga yoki biron-bir g‘oyaga bo‘ysundirilgan.

Essening qanday bo‘lishi haqida aniq chegaralar belgilanmagan. Uning hajmi uncha katta emas. Garvard biznes maktabida odatda esse 2 varaqdan iborat bo‘ladi. Boshqalarda undan ko‘proq. Mavzu aniq bo‘lishi, subyektivligi, faqat bir variant, bir fikrni ifodalashi, uni rivojlantirib borish, xulosa berilishi bilan ajralib turadi. U mazmuni, yo‘nalishiga ko‘ra falsafiy, tarixiy, adabiy, badiiy, adabiy-tanqidiy, badiiy, badiiy-publitsistik, ma’naviy-diniy esselarga ajratilgan.

Nobel mukofoti laureati V. V. Leontevning «Ekonomicheskie esse. Teorii, issledovaniya, faktorы i politika» kitobi nashrdan chiqqach, iqtisodiy mavzularda ham esse yozishga e’tibor berila boshlandi. U 50-yillarning ma’lumoti asosida AQSH eksportida mehnat sig‘imi yuqori, importida esa kapital sig‘imi yuqori tovarlar ustun ekanligini ko‘rsatib berdi. Vaholanki, AQSH bilan savdo-sotiq qiladigan boshqa mamlakatlarga qaraganda kapital omili ustun, ish haqi esa nisbatan yuqoriligi bilan Xeksher-Olin nazariyasiga ko‘ra, AQSH kapital sig‘imi yuqori tovarlarni eksport, mehnat sig‘imi yuqori tovarlarni import qilishi kerak edi. **Bu qarama-qarshilik iqtisodda “Leonthev paradoksi”**[134] deb ataladi.

Bunga sabab, ishlab chiqarish omillari sifat jihatdan bir xil emas, ayniqsa mehnat omili. U o‘zining sifati – malaka darajasi jihatidan katta farq qiladi. Shuning uchun AQSHdan umuman mehnat sig‘imi yuqori bo‘lgan tovarlar emas, balki yuqori malaka talab qiladigan tovarlar, xizmatlar eksporti ustun. Bu usuldan

[134] Paradoks (yunoncha paradoxos – kutilmagan, g‘alati) – ko‘pchilik tomonidan qabul etilgan an’anaviy fikr, tajribaga o‘z mazmuni, shakli bilan zid bo‘lgan, kutilmagan mulohaza. Har qanday paradoks «shubhasiz to‘g‘ri» (asoslimi, asossizmi, bundan qat'iy nazar) hisoblangan u yoki bu fikrni inkor etishday ko‘rinadi. Antik filosofiyada har qanday g‘alati, original fikrni ifodalash uchun ishlatilgan.

keyingi paytlarda, talabalarni iqtisodiy fikr yuritishga o‘rgatish va bilimini baholashda keng qo‘llanilmoqda.

Esse yozishga namuna.

Mavzu: **Zamonaviy global muammolar va ularning yechimini topish yo‘llari**

U holda esse taxminan quyidagicha bo‘lishi mumkin:

Kishilik jamiyati yangi ming yillikning o‘n oltinchi yilini yashamoqda. Bundan yarim asr avval unga nisbatan vujudga kelgan yangi xavf haqida gapirish boshlandi. Eng qizig‘i shundaki bu xavf insonlarning o‘zi tomonidan yaratilgan. Hozirga kelib, bu xavf yanada kuchaymoqda. Ular global xavf-xatar bo‘lib, sivilizatsiyamizga, hatto yer yuzida hayotga raxna solishi mumkin. Bular termoyadro, ekologik va sotsial xavf-xatarlardir.

Agar insoniyat tezda ekologik masalalarga diqqat qaratmasa, xavf-xatarni bartaraf qilishga bor kuchi, imkoniyatini qaratmas ekan, kishilik jamiyati tarixi nihoyasiga yetishi hech gap emas.

Global muammolarga turlicha ta’riflar berilgan. Meni fikrimcha ularni bir tushuncha birlashtiradi. U ham bo‘lsa, ularni yechimini topishdan insoniyatning taraqqiyoti, butun sivilizatsiyani saqlab qolish masalasi hal bo‘ladi. Ular inson hayotining barcha jabhalarini qamrab olgan va hamma mamlakatlarga taalluqlidir. Ularni yechish uchun hamma birgalashib harakat qilishi zarur. Shunig uchun ham uning nomini global deb atalgan u lotincha globus - yer, yer shari nomidan olingan.

Global muammolarning vujudga kelishi va o‘tkirlashuvi inson, tabiat va jamiyatning sifat jihatdan o‘zaro ta’sirini yangi pog‘onaga ko‘tarilishi oqibati. U insonning ehtiyojlarini o‘sishi, uning beqiyos darajada xo‘jalik faoliyatining kuchayishi, taraqqiyotning zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy modelining krizisi va boshqa jarayonlar bilan bog‘liq. Planetamizda haddan tashqari demografik o‘sish, qirg‘in qurollar yaratilishi, madaniyat va ma’naviyatning degradatsiyasi va qator boshqa sabablarni ham ko‘rsatish mumkin.

Jahon iqtisodiyoti miqyosida tuproq, chuchuk suv, gidroenergiya, baliq zaxiralari oxirgi chegarasiga yetmoqda. YUNESKOning baholashiga ko‘ra insoniyat tabiiy biosfera sikliga mos bo‘lishi uchun o‘z iste’molini 10 martaga qisqartirishi lozim.

Hamma global muammolar bir-biri bilan bog‘langan. Ularning barqaror ro‘yxati yo‘q. World Economic Forum taklifiga ko‘ra iqtisodiyotga ta’sir ko‘rsatadigan global muammolar 4 guruhga bo‘linadi: **iqtisodiy muammolar; ekologik**

muammolar; sotsial muammolar; geosiyosiy muammolar.

O‘tgan asrning 70-80 yillari, ayniqsa 90-yillardagi o‘zgarishlar global muammolar ustunligi yo‘nalishini almashuviga olib keldi. Agar 60-70-yillarda yadro urushi xavfi asosiy rol o‘ynagan bo‘lsa, hozirda bir xil mutaxassislar birinchi o‘ringa ekologik muammolarni, boshqalari – demografik, uchinchilari esa qash-shoqlik va qoloqlikni qo‘yishadi. Bu global muammolarning naqadar ahamiyatga ega ekanligini tan olgan holda meni nazarimda, insoniyatni terrorizm xavfi o‘z domiga tortayotgani, ya’ni hozirda geosiyosiy muammolar nihoyatda kuchayib borayotgani hammani tashvishga solayotganiga diqqat qaratish zarur.

Terror so‘zi lotincha **qo‘rqitish, dahshat solish** ma’nosini ifodalaydi. Bu zo‘ravonlik, kuch ishlatish, jabr-zulm o‘tkazishning haddan tashqari yovuzligi bilan ajralib turuvchi shaklidir.

Hozirgi xalqaro terrorizm turli-tuman yirik, mayda umumiy g‘oya atrofida birlashgan tashkilotlar bo‘lib, ularni zamonaviy kommunikatsiya va pul oqimlari bog‘lab turadi. Terrorizm uchun mablag‘lar asosan nolegal narkotiklar, qurol-yarog‘, olmoslar va boshqa shu kabilar savdosidan keladi. Legal va nolegal pul oqimlari bir-biri bilan shunday chirmashib ketganki, uni bir zarba bilan yo‘qotib bo‘lmaydi. U bilan kurashish nihoyatda murakkab vazifa.

Buning uchun barcha mamlakatlar, afkor omma birlashib harakat qilishlari zarur. Hozirda bunday birlashish amalga oshmayapti. Ehtimol bunga sabab aholi-ning ¾ qismi amallab kun ko‘rish va ehtiyojlarini qanday qondirishni o‘ylash bilan bandligidir.

Terrorizmga qarshi kurashda kuch ishlatish zarur, lekin ular qisqa muddatli davrda ijobiy natija beradi. Bunda mavjud o‘rnatilgan tartiblar nohaqlik deb hisob-layotganlar borligini inobatga olib, eng avvalo jahon miqyosida murakkab ijtimo-iy-iqtisodiy va sotsial-madaniy muammolarni yechish yo‘llarini qidirish, “adolat uchun kurashayotgan” fanatlarning ko‘pchiligi terororistik guruh liderlarining qo‘lida qo‘g‘irchoq ekanliklarini, ulardan ko‘pining maqsadi bo‘lingan dunyoni qaytadan bo‘lish, kattaroq ulushga ega bo‘lish uchun kurash ekanligini barcha axborot vositalaridan samarali foydalangan holda ko‘rsatib berish kerak. Bunda meni fikrimcha, ayniqsa maorif, ta’lim-tarbiya berish yetakchi rol o‘ynaydi.

Kelajakda men o‘ylaymanki, global muammolarni yechish ko‘p jihatdan insonning rivojlanishi, uning madaniyati, o‘z faoliyati oqibatini ko‘ra bilishi hamda jamiyatning sotsial-iqtisodiy qurilishi bilan aniqlanadi. Demak har birimiz birinchi navbatda atrofimizda yuz berayotgan voqea-hodisalarga befarq bo‘lmasligimiz kerak.

Esseni baholash ko‘rsatkichlari va mezonlari:

Baholash mezonlari	Maksimal ball
1. Mazmunning mavzuga muvofiqligi	1
2. Muammoni ko‘ra bilishi	1
3. Original fikr bildirish	1
4. Fikrini dalillar bilan asoslab berishi	1
5. Muammoga o‘z munosabatini bayon qilish mahorati	1
Jami	5

X BOB. KADRLAR TAYYORLASH SIFATI VA UNI NAZORAT QILISH

1-jadval

Oliy ta’limda talabalar o’zlashtirishini baholash tizimlarini qiyosiy taqqoslash JADVALI

<table>
<tr><th>O’zbekiston tizimi</th><th>Rossiya tizimi (MDU)*</th><th>Evropa kredit transfer tizimi (ECTS — European Credit Transfer System)</th><th>Amerika tizimi (A- F)</th><th>Britaniya tizimi (%)</th><th>Yaponiya tizimi (%)</th><th>Koreya tizimi (%)</th></tr>
<tr><td rowspan="3">«5»</td><td rowspan="3">«5»</td><td rowspan="3">«A»</td><td>«A+»</td><td rowspan="2">70 — 100</td><td rowspan="3">80—100</td><td rowspan="3">90 — 100</td></tr>
<tr><td>«A»</td></tr>
<tr><td>«A-»</td><td>65 — 69</td></tr>
<tr><td rowspan="3">«4»</td><td rowspan="3">«4»</td><td>«B»</td><td>«B+»</td><td>60 — 64</td><td rowspan="3">70 — 79</td><td rowspan="3">80 — 89</td></tr>
<tr><td rowspan="2">«C»</td><td>«B»</td><td rowspan="2">50 — 59</td></tr>
<tr><td>«B-»</td></tr>
<tr><td rowspan="6">«3»</td><td rowspan="6">«3»</td><td>«D»</td><td>«C+»</td><td>45 — 49</td><td rowspan="6">60 — 69</td><td rowspan="3">70 — 79</td></tr>
<tr><td rowspan="5">«E»</td><td>«C»</td><td rowspan="5">40 — 44</td></tr>
<tr><td>«C-»</td></tr>
<tr><td>«D+»</td><td rowspan="3">60 — 69</td></tr>
<tr><td>«D»</td></tr>
<tr><td>«D-»</td></tr>
<tr><td rowspan="2">«2»</td><td rowspan="2">«2»</td><td>«FX»</td><td rowspan="2">«F»</td><td rowspan="2">0 — 39</td><td rowspan="2">0 — 59</td><td rowspan="2">0 — 59</td></tr>
<tr><td>«F»</td></tr>
</table>

(Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 26.09.2018 y., 10/18/3069/1965-son)

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi qonunlari va boshqa huquqiy hujjatlar

1.1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.

1.2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni.

1.3. O‘zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida”gi qonun. Oliy ta’lim. Me’yoriy hujjatlar to‘plami. T.: Sharq, 2001.

1.4 “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni.

1.5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. 2017-yil 20 aprel, PQ-2909-son

1.6. 2017 — 2021-yillarda Oliy ta’lim tizimini kompleks rivojlantirish dasturi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 21 maydagi PQ-1533-sonli qarori

1.7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qishloq va suv xo‘jaligi tarmoqlari uchun muxandis-texnik kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-3003 qarori;

1.8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarning ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017-yil 27 iyuldagi PQ-3151 qarori;

1.9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Istiqbolli yosh pedagog va ilmiy kadrlarning malakasini oshirish “Iste’dod” jamg‘armasi faoliyatini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 2017-yil 27 iyuldagi PF-5121 Farmoni

1.10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Istiqbolli yosh pedagog va ilmiy kadrlarning malakasini oshirish “Iste’dod” jamg‘armasi faoliyatini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” gi2017-yil 27 iyuldagi PF-5121 Farmoni

1.11. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1998 yil 5–yanvarda “Uzluksiz ta’lim tizimi uchun davlat ta’lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish to‘g‘risida”gi qarori

1.12. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori

1.13. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 2 martda “Magistratura to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 36-sonli qarori

1.14. 2017-yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni 2017-2021-yillarda oliy ta’lim tizimini kompleks rivojlantirish dasturi

1.15. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida” PQ-3775-sonli qarori.

I. Kitoblar, risolalar, maqolalar

2.1. Karimov I.A. Buyuk maqsad yo‘lidan og‘ishmaylik. T.: O‘zbekiston, 1993

2.2. Karimov I. A. Barkamol avlod orzusi. T.: Sharq, 1998.

2.3. I.A.Karimov. Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti «Ta’lim kelajakka yo‘naltirilgan sarmoya» mintaqaviy konferensiya ishtirokchilariga yo‘llangan tabrik. «Ma’rifat», № 7aprel 2004-yil, № 28.

2.4. Karimov. Yangilanish va barqaror taraqqiyot yo‘lidan yanada izchil xarakat qilish, xalqimiz uchun farovon turmush sharoiti yaratish asosiy vazifamizdir. Xalq so‘zi, 2007-yil 13 fevral.

2.5. Karimov I. A. Yuksak ma’naviyat – engilmas kuch. Toshkent, «Ma’naviyat», 2009.

2.7. Karimov I. A. Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti. //O‘zbekiston ovozi, 18 fevral 2012 y.

2.8. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 488 b.

2.9. Mirziyoyev SH.M.Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 104 b.

2.10. Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 56 b.

2.11. Mirziyoyev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 48 b.

2.12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisga Murojaatnomasini keng jamoatchilik o‘rtasida targ‘ib etishga bag‘ishlangan ilmiy-ommabop qo‘llanma. –Toshkent 2018 2.13. A Handbook for Teaching and Learning in Higher Education. Enhancing Academic Practice. Third edition. Edited by Heather Fry, Steve Ketteridge, Stephanie Marshall. First edition.This edition published 2009 by Routledge 270 Madison Ave, New York, NY 10016 Simultaneously published in the UK by Routledge 2 Park Square, Milton Park, Abingdon, Oxon OX14 4RN.

2.13. Adolhf Disterveg «Rukovodstve k obrazovaniyu nemetskix uchiteley» (1835) http://www.treko.ru/show_dict_1552, https://psymsuotvety.jimdo.com/pedagogika/26-pedagogicheskaya-sistema-vo‘dayuqixsya-nemetskix-pedagogov.

2.14. Abdullayev A.X., Ametov A.K. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi falsafasi va davlat ta’lim standartlarini o‘rganish bo‘yicha o‘quv qo‘llanma. Toshkent, 2003.

2.15. Avezov SH. Amaliy kasbiy ta’lim metodikasi mazmuni va uning asosiy yo‘nalishlari «Kasbiy ta’lim: muammolar va echimlar» mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy seminarining ma’ruzalar materiallari va tezislari to‘plami. Toshkent 2011.

2.16. Avliyoqulov N. X., Musaeva N. N. Kasb-hunar kollejlarida kasbiy fanlarning modulli o‘qitish texnologiyalari, O‘quv-uslubiy qo‘llanma. T.: “Yangi asr avlodi”, 2005.

2.17. Al. Farobiy. Matematicheskie traktato‘. Alma-ata: Ilm, 1972

2.18. AP® Economics Teacher’s Guide. Peggy Pride St. Louis University High School. St. Louis, Missouri. 2007 The College Board. Web: www.collegeboard.com. pp. 136.

2.19. Benjamin Bloom et al., eds., Taxonomy of Educational Objectives, Handbook J: Cognitive Domain (New York: Mk Kay, 1956.

2.20. Bespalhko V.P. Slagaemые pedagogicheskoy texnologii. M: «Pedagogika», 1999,

2.21. Bryus Djeyms i Marsha Veyl. Modeli obucheniya (Per. s angl.). Moskva 1996.

2.22. Gulyamov S.S., Mibartova L. I., Abdullaev. Novые pedagogicheskie texnologii. Rekomendatsii po organizatsii distantsionnogo obucheniya. (Pod red. akad. Gulyamova S. S.). Tashkent, 2002.

2.23. Djin Jelyaznы. Govori na yazыke diagramm. Posobie po vizualhnым kommunikatsiyam dlya rukovoditeley (perevod s angliyskogo). Institut kompleksnых strategicheskix issledovaniy. Moskva 2004.

2.24. Dolan, E. Dj. Mikroekonomika / E. Dj. Dolan, D. E. Lindsey. Per. s ang. SPb., 1994.

2.25. Dhyui Dj. Demokratiya i obrazovanie/ Per. s angl. – M.: Pedagogika-Press, 2000.

2.26. Ziyomahammadov B. Komillikka eltuvchi kitob. T. «TURON-IQBOL» nashriyoti, 2006.

2.27. Ishmuhamedov R., Abduqolirov A., Pardaev A. Ta’limda innovatsiln tehnologiyalar. Toshkent, 2008.

2.28. Ishmatov Q. Ьlqitishning interfaol metodi. Namangan, NamMPI, 2004.

2.29. Ilhnitskaya I. A. K 110 letiyu so dnya rojdeniya S. L. Rubinshteyna. Uchenie S.L. Rubinshteyna i problemы pedagogicheskoy praktiki. http://www.voppsy.ru/issues/1989/893/893113.htm

2.30. International Handbook on Teaching and Learning Economics.Edited by Gail M. Hoyt, Professor of Economics, University of Kentucky, US and KimMarie McGoldrick, Joseph A. Jennings Chair in Business and Professor of Economics, University of Richmond, US, 2012.

2.31. “Iqtisodiy fanlarni ыqitish uslubiyoti” fani bыyicha ta’lim texnologiyasi. Prof. B.Hodievning umumiy tahriri ostida /«Iqtisodiy ta’limdagi ыqitish texnologiyasi» seriyasidan./ Uslubiy qo‘llanma –Toshkent: TDIU, 2010.

2.32. Klarin M. V. Pedagogicheskaya texnologiya v uchebnom protsesse. M.: Znanie, 1989.

2.33. Kley Dillou (Clay Dillow) Uchenые podtverdili ochevidnoe: chtenie polezno dlya mozga. http://inosmi.ru/usa/20120915/199230530.html

2.34. Kukushkin V. S. Teoriya i metodika obucheniya / V.S. Kukushkin. −Rostov n/D.: Feniks, 2005

2.35. Larner I. YA. Vnimanie o texnologii obucheniya. – M.: «Pedagogika», 1990.
2.36. Mavlonova R., To‘raeva O., Xoliqberdiev K. Pedagogika. Darslik. T.: O‘qituvchi, 2005.
2.37. Maxmutov M.I. Organizatsiya problemnogo obucheniya.- M.: Pedagogika,1997. Nauchnaya biblioteka dissertatsiy i avtoreferatov disserCat http://www.dissercat.com/content/kontseptsiya-problemnogo-obucheniya-m-i-makhmutova-kak-didakticheskaya-sistema#ixzz59Y5RR700
2.38. Metodika prepodavaniya ekonomicheskix distsiplin. Uchebnoe posobie / Avt. sost. A.A. Zinchenko, E.A. Strelhchenko, L.A. Bezuglaya. – Rostov na Donu. Izd-vo “Sodeystvie XXI vek” 2011.
2.39. Methods for teaching: promoting student learning in K–12 classrooms/David A. Jacobsen, Paul Eggen and Don Kauchak.—8th ed, 2009.
2.40. Muslimov N. F., Qo‘ysinov O.A. Kasb ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta’limni tashkil etishning nazariyasi va metodikasi. Monografiya. T.: Fan, 2009.
2.41. Omonov H.T., Xo‘jaev N.X., Madyarova S.A., Eshchonov E.U. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Darslik. T.: “IQTISOD-MOLIYA” 2009.
2.42. Podlasыy I.P. Pedagogika. Uchebnik. Moskva: «Vыsshee obrapovanie», 2009.
2.43. Praxov A. I. Prepodavanie ekonomiki: esth li alhternativa lektsiyam? (Obzor podxodov) Stathya podgotovlena v ramkax granta, poluchen-nogo v repulhtate uchastiya v konkurse initsiativnыx obrazovatelhnыx proektov «Metodika prepodavaniya i akademicheskaya rabota» kadrovogo rezerva GU–VSHE. Federalhnыy portal «Rossiyskoe obrazovanie» www.edu.ru.

2.44. Problemы sovremennoy didaktiki. M.: Pedagogika, 1980.-90 s. Lerner I .YA. Problemnoe obuchenie. M.: Znanie, 1974. -64 s.**2.40.**
2.45. Raven Dj. Kompetentnosth v sovremennom obqestve: vыyavlenie, razvitie i realizatsiya / Per. s angl. — M.: «Kognito-TSentr», 2002.
2.46. Reutova E.A., Tomilova O.G. Vuzovskaya lektsiya (metodicheskie rekomendatsii dlya prepodavateley). Novosibirsk, NGAU, 2011.
2.47. Rudolhf SHtayner (Rudolf Steiner; 1861—1925) Metodika i didaktika./M.: Parsifalh, 1996. http://vp-ch.ru/shtainer
2.48. Pronina E. N., Lukashevich V.V. Psixologiya i pedogogika. Uchebnik dlya studentov VUZov. Izdatelhstvo “Elit”, Moskva, 2004.
2.49. Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob / Metodik qo‘ll. U.I.Inoyatov, N.A.Muslimov, M.Usmonboeva, D.Inog‘omova. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2012
2.50. Sviridenko YU.F., Kuntsov V.P. Rolh lektsii v sovremennom vыsshem obrazovanii. www. edu.ru
2.51. Selevko S. Sovremennыe obrazovatelhnыe texnologii. M.: Narodnoe obrazovanie, 1998.

2.52. Silber K, H. Some implicational of the history of Educational Techology: we re all in this together. In: J. W. Brown and S. N. Brown. Educational Media Yearbook, Littleton, Colorado: Librares Unlimited, 1981

2.53. Skibitskiy E.G., Tolstova I.E., SHefelh V. G. Metodika professionalhnogo obucheniya. Uchebnoe posobie. Novosibirsk, 2008.

2.54. Spenser G. Osnovnые idei. Vospitanie. http://rushist.com/index.php/philosophical-articles/2650-spenser-gerbert-osnovnye-idei

2.55. D. Stil, K. Meredit, CH. Templ. CHtenie, pishmo i diskussiya v kajdom uchebnom predmete. (Per. s ang.) Posobie v 8–tomax, Bishkek, 1998 g.

2.56. «Ta'lim samaradorligini oshirish yo‘llari» mavzuidagi seminar-trening materiallari. Trenerlar uchun qo‘llanma. Toshkent, 2002.

2.57. Tatsuoka, K.K. Item construction and psychometric models appropriate for constructed response. Prinston, N-J, 1993. -56 pp; Frederiksen, N., Mislevy R.J., Bejar I. J. (Eds). Test theory for a new generations of tests. Lawrence Erlbaum Ass. Publ. 1993, Hillsdale, N-J, 404 pp.

2.58. The Modular approach in technical education. - Paris, Unesco, 1989

2.59. Teoreticheskie osnovы problemnogo obucheniya http://www.informio.ru/publications/id582/Teoreticheskie-osnovy-problemnogo-obuchenija.

2.60.Tojiboyeva D. Iqtisodiyot nazariyasi fanini o‘qitish metodikasi. TMI, 2003.

2.61. Tojiboyeva D. Iqtisodiyot nazariyasi fanidan masala va mashqlar. 1- va 2- qism, T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2007.

2.62. Tojiboyeva D., Xo‘jaev N., Avalova G. Iqtisodiy pedagogika. O‘quv qo‘llanma. -T.: Fan va texnologiya», 2008.

2.63. Tojiboyeva D. Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi, Toshkent, 2007.

2.64. Tojiboeva D., Yo‘ldoshev A. Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi. Darslik. T.: “Aloqachi”, 2009.

2.65. Jo‘rayev T., Tojiboyeva D. Iqtisodiyot nazariyasi (Ko‘rgazmali va tarqatma materiallar). 1,2-qism. T.:Fan va texnologiya, 2015.

2.66. Xo‘jayev N., Xoshimov P. Z., Djuraev T. T., Gimranova O. B. Metodika prepodavaniya ekonomicheskix distsiplin. Tashkent 2004.

2.67. Xodiyev B., Golish L. Mustaqil o‘quv faoliyatini tashkil etish usul va vositalari. TDIU, 2010

2.68. O‘zbekiston milliy entsiklopediyasining 5-jildi. «O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2003

2.69. Qobusnoma. T.: O‘qituvchi, 1973.

2.70. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 3-jild. Toshkent, 2002

2.71. O‘zbek tilining izohli lug‘ati: J. I. , T. : «O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2008.

2.72. O‘zbekistonda ta’lim. T. 2015, 207-bet; 2017.

.

4.3. Internet saytlari

1. www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.

2. www.inf.uz (O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi);

3. www.edu.uz (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi);

4. www.stat.uz (O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qыmitasi);

5.http://www.vest-news.ru/article/5481;
https://otvet.mail.ru/question/51142099

6. economics.studio/...istoriya/predislovie-85732.

7. html. https://www.kp.ru/daily/26419/3293139/

8. http://www.aforism.su/105.html

9. http://www.filosense.ru/vzglyadi_platona_na_vospitanie-433.htm. Iz fundamentalhnogo sochineniya Platona — «Gosudarstvo»

10. http://www.vest-news.ru/article/5481;

11.https://otvet.mail.ru/question/51142099

12. economics.studio/...istoriya/predislovie-85732.html

13. http://www.aforism.su/105.html.

MUNDARIJA

Kirish.....3

I BOB. O‘ZBEKISTONDA KADRLAR TAYYORLASH MODELI VA “MAXSUS FANLARNI O‘QITISH METODIKASI” FANINING PREDMETI, MAQSADI, VAZIFALARI

1.1. O‘zbekistonda Kadrlar tayyorlash modeli va konseptual asosi.....7
1.2. Kadrlar tayyorlash va milliy modelini amalga oshirishda “Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi” fani, uning tutgan o‘rni va ahamiyati 15
1.3. O‘qitish metodlari funtsiyasi, strategiyasi va tashkiliy shakllari.....18
1.4. Iqtisodchi-pedagoglarga qo‘yiladigan asosiy talablar. 32

II BOB. MUTAXASSIS KADRLARGA QO‘YILADIGAN TALABLAR VA UNING HUQUQIY-ME’YORIY HAMDA O‘QUV-METODIK HUJJATLARDA AKS ETISHI

2.1. Kadrlar tayyorlash tizimining bozor iqtisodiyoti talablariga moslashish zaruriyati. Ta’limda menejment va marketing.....40
2.2. Kadrlar tayyorlash maqsadi va uni Davlat ta’lim standartlarida aks etishi. 51
2.3. O‘quv-me’yoriy hujjatlar va o‘quv-metodik ishlar, ularga qo‘yiladigan talablar.....58

III BOB. MAXSUS FANLARNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN ASOSIY METODLAR, ULARNI TANLASH VA QO‘LLASH AMALIYOTI

3.1. Metodika va ta’lim texnologiyasi. Ta’lim tizimiga yondashuvlar...76
3.2. Dars o‘tish metodlari va ularni tanlashning asosiy mezonlari.....89
3.3. Maxsus fanlarni o‘rganishda qo‘llaniladigan asosiy universal va xususiy metodlar. Verbal metodlar va uning asosiy usullari.....98
Suhbatning vazifasiga ko‘ra guruhlari 103
3.4. Guruhlarni juftlik va kichik guruhlarga bo‘lib dars o‘tish va modellashtiruvchi amaliy o‘yinlar metodi 103
3.5. Innovatsion ta’lim texnologiyasida loyihalash va “case stady”metodi.....112
3.6. O‘quv va ilmiy adabiyotlar ustida mustaqil ishlash metodlari 125
3.7. Ijodiy fikrlashga o‘rgatuvchi metodlar 142
3.8. Iqtisodiyotni o‘rganishning amaliy metodlari.....155

IV BOB. MAXSUS FANLARNI O‘QITISHNING KO‘RGAZMALI, TEXNIK VA INFORMATSION TA’MINOTI

4.1. Maxsus fanlarni o‘qitishda ko‘rgazmalilik, texnik va axborot ta’minotining zaruriyati va tutgan orni 166
4.2. Tarqatma materiallar, ularning tutgan o‘rni. Ko‘rgazmali va tarqatma materiallar tayyorlash hamda ulardan foydalanish 173
4.3. O‘qitish vositalarni tutgan o‘rni, turlari, qo‘llash usullari 179
4.4. INTERNET-axborot texnologiyalar, interaktiv va masofaviy o‘qitish texnologiyalarini tayyorlash va ulardan foydalanish metodikasi.....184

V BOB. MAXSUS FANLARNI O‘QITISHDA MA’RUZA VA UNGA QO‘YILADIGAN TALABLAR

5.1. Ma’ruza o‘quv jarayonining asosiy bo‘g‘ini. Ma’ruzaning funksiyalari va turlari 196
5.2. Ma’ruzaga qo‘yiladigan asosiy talablar 206
5.3. Ma’ruza o‘qishga texnologik yondashuv va ma’ruza darsini texnologik xaritasini tuzish 219
5.4. Ma’ruza o‘qishda foydalaniladigan asosiy metodlar 228

VI BOB. AMALIY (SEMINAR) MASHG‘ULOTLARGA TAYYORGARLIK KO‘RISH VA UNI O‘TKAZISH METODIKASI

6.1. Amaliy mashg‘ulot va seminar darslari. Seminarning o‘quv jarayonida tutgan o‘rni, asosiy funksiyalari va turlari……..238
6.2. Seminar darslarining bilim zaxirasiga ta’siri va o‘ziga xos jihatlari.....244
6.3. Seminar darsini texnologik yondashuv asosida tashkil etish.....251

VII BOB. METODLAR VA KO‘RGAZMALILIKNI FAN VA UNING MAVZULARIGA MOSLASHTIRISH

7.1. Iqtisodiy fanlarning fanlar tizimida tutgan o‘rni, umumiy xususiyatlari va bir-biridan farqlanuvchi jihatlari.....261
7.2. Iqtisodiy fanlarning o‘zaro bog‘liqligi, o‘ziga xos xususiyatlari va ularni metodlarni tanlashda hisobga olish.....265
7.3. Tanlangan metodlarni o‘rganilayotgan fan, mavzularga moslashtirish, yangi variantlarini yaratish 273

VIII BOB. MAXSUS FANLARNI O‘RGANISHDA MUSTAQIL TA’LIMNI TASHKIL ETISH

8.1. O‘quv jarayonida talabalar mustaqil ishlashining tutgan o‘rni. Mustaqil ta’limga alohida diqqat qaratilishi 288
8.2. Mustaqil ishni tashkil qilishning xususiyatlari va tamoyillari, shakllari 292
8.3. Mustaqil izlanishning ijodiy shakllari.....296
8.4. Fanga va ilmiy izlanishga qiziqish uyg‘otishda talabalar ilmiy to‘garaklari, olimpiadalar roli va ahamiyati.....304
8.5. Talabalar vaqtini taqsimlash va portfoliosini shakllantirish.....307

IX BOB. MAXSUS FANLARDAN O‘QUV AMALIYOTINI TASHKIL ETISH VA O‘TKAZISH

9.1. Iqtisodchi-pedagoglar tayyorlashda ilmiy tadqiqot va ilmiy pedagogik ish (amaliyot)ning tutgan o‘rni va roli 313
9.2. Amaliyot (ilmiy pedagogik ish) o‘tovchi talaba hamda unga rahbarlik qiluvchining vazifalari 322
9.3. Mustaqil dars o‘tishga tayyorlanish va uni o‘tkazish 325

X BOB. KADRLAR TAYYORLASH SIFATI VA UNI NAZORAT QILISH

10.1. O‘quv jarayonida nazoratning o‘rni, roli va tamoyillari.....332
10.2. Ta’lim oluvchilar bilimini nazorat qilish turlari, shakllari va metodlari.....340
10.3. O‘quv jarayonini tashkil qilish, talabalar bilimini sinash va baholashda jahon amaliyotini qo‘llash.....353
Xulosa..... 364
Izohli lug‘at (glossariy)..... 362

D. TOJIBOYEVA

MAXSUS FANLARNI O‘QITISH METODIKASI

Darslik

Muharrir **Z. Bozorova**
Badiiy muharrir **K. Boyxo‘jayev**
Kompyuterda sahifalovchi **K. Boyxo‘jayev**

Nashr. lits. AI № 305. 22.06.2017.
Bosishga ruxsat 14.12.2018-yilda berildi. Bichimi 60x84/16.
Ofset qog‘ozi. «New Times Roman» garniturasi.
Shartli b.t. 25,1. Nashr hisob t. 25,4
Adadi 50 dona. 11-buyurtma.

“IQTISOD-MOLIYA” nashriyoti.
100000, Toshkent, Amir Temur, 60«A».

“DAVR MATBUOT SAVDO” MChJ
bosmaxonasida chop etildi.
100198, Toshkent, Qo‘yliq, 4-mavze, 46.